Rushen AZIZOVA

SPORT VA HARAKATLI O‘YINLARNI O‘QITISH METODIKASI






75.576
A-36

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Rushen AZIZOVA

SPORT VA HARAKATLI O‘YINLARNI O‘QITISH METODIKASI

(Qo‘l to‘pi o‘yini texnikasi va taktikasi)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan bakalavriatning jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

“YANGI NASHR” nashriyoti
Toshkent – 2010

4/4068

UDK: 796.31(070)
75.576
A36

Mas'ul muharrir
M. Sulaymonov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:
Sh. X. Xonkeldiyev – Farg'ona Davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;
B. Sh. Madaminov – Namangan Davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Azizova, R.
Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi: Qo'l to'pi o'yini texnikasi va taktikasi: o'quv qo'llanma / R. I. Azizova; mas'ul muhar.: M. Sulaymonov; taqrizchilar: Sh. X. Xonkeldiyev, B. Sh. Madaminov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 108 b.

BBK 75.576

Mazkur o'quv qo'llanma jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda qo'l to'pi sport turi o'yinchilarini tayyorlashda o'yin qoidalari o'zgargan sharoitda texnik va taktik tayyorgarliklarining asosiy tomonlari yoritilgan, shuningdek, mazkur sport turining guruh va jamoa harakatlari, himoya va hujum taktikasi kabi masalalar illustrativ materiallar bilan yoritib berilgan.

Ushbu qo'llanmadan jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishining professor-o'qituvchilari va bolalar murabbiylari ham foydalanishlari mumkin.

ISBN-978-9943-330-53-5

© "YANGI NASHR" nashriyoti, 2010- yil

QO‘L TO‘PI O‘YINING TARIXI

Qo‘l to‘pi o‘yini barcha sport turlari kabi o‘z tarixiga ega. Birinchi bo‘lib Daniyaning Ordrup shahridagi qizlar gimnaziyasining o‘qituvchisi Xolger Nilson o‘zi o‘tayotgan darslariga gandbol (hand – qo‘l, boll – to‘p) o‘yinini kiritgan. Bu o‘yinda kichik maydonda 7 kishidan iborat 2 jamoa to‘pni bir-birlariga uzatib, raqib darvozasini ishg‘ol qilishgan. Shunday qilib, 1898- yilda qo‘l to‘pi o‘yini kashf etilgan.

O‘yin maydonining birinchi o‘lchamlari – 40x20 metr, darvozaning bo‘yi – 2 metr, eni – 2,1 metr, to‘pning aylanasi esa 68 – 70 sm bo‘lgan. O‘yinning dastlabki qoidalari bo‘yicha to‘p bilan yugurish va to‘p uchun kurashishga ruxsat berilmagan. Qo‘l to‘pi o‘yini qoidalariga keyingi kiritilgan o‘zgartirishlar o‘yinning atletik bo‘lishiga olib keldi. 1923- yilda o‘yin qoidalariga 3 sekund va 3 qadam bandlari kiritildi, bu, o‘z navbatida, o‘yin texnikasi va taktikasiga hamda o‘yinning tezkor bo‘lishiga olib keldi.

1928- yilda Amsterdam shahrida Xalqaro Havaskorlar qo‘l to‘pi (IGF) Federatsiyasi tashkil этилди va 11 mamlakat federatsiyalari unga a’zo bo‘lib qabul qilindi. Ikki yildan so‘ng 20 mamlakat vakillari shu federatsiyaga a’zo bo‘lgan bo‘lsalar, hozirgi kunda Xalqaro Qo‘l to‘pi Federatsiyasiga 123 mamlakat vakillari a’zo bo‘lib, jami 7 milliondan ortiq kishi qo‘l to‘pi bilan shug‘ullanmoqda.

Qo‘l to‘pi o‘yini Olimpiada o‘yinlari dasturiga 1936- yilda kiritildi (Germaniya, Berlin). O‘shanda musobaqalarda faqat 6 ta erkaklar jamoasi qatnashgan edi. Olimpiada o‘yinlari davrida Xalqaro Qo‘l to‘pi Federatsiyasining 4- kongressi bo‘lib o‘tdi va bu Kongressda 1938- yildan boshlab qo‘l to‘pi bo‘yicha Jahon chempionatlarining o‘tkazilishi rejalashtirildi va shu yildan boshlab o‘tkazila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi jahon sportining rivojlanishini to‘xtatib qo‘ydi.

Qo'l to'pi o'yini rivojlanishining yangi bosqichi 1946-yildan, ya'ni urushdan keyingi davrda Xalqaro Qo'l to'pi Federatsiyasi (IGF)ning tuzilishidan boshlandi.

1972- yilda Myunxen shahrida o'tkazilgan Olimpiada o'yinlari dasturiga qo'l to'pi o'yini yana kiritildi va musobaqalarda faqat erkaklar jamoalari qatnashdigan bo'lishdi.

1976- yilda Monreal shahrida o'tkazilgan XXI Olimpiada o'yinlari dasturidan qo'l to'pi o'yini to'laqonli ravishda joy oldi. Musobaqalarda erkaklar jamoalari bilan bir qatorda, ayollar jamoalari ham ishtirok etish huquqini olishdi.

Olimpiya o'yinlari natijalari

(erkaklar jamoasi)

Soni	O'tkazilgan yili	1- o'rin	2- o'rin	3- o'rin
XX	1972	Sobiq Yugoslaviya	Sobiq Chexoslovakiya	Ruminiya
XXI	1976	Sobiq Sovet Ittifoqi	Ruminiya	Polsha
XXII	1980	Sobiq GDR	Sobiq Sovet Ittifoqi	Ruminiya
XXIII	1984	Sobiq Yugoslaviya	GFR	Ruminiya
XXIV	1988	Sobiq Sovet Ittifoqi	Janubiy Koreya	Sobiq Yugoslaviya
XXV	1992	MDH	Shvetsiya	Fransiya
XXVI	1996	Xorvatiya	Shvetsiya	Fransiya
XXVII	2000	Rossiya	Shvetsiya	Ispaniya
XXVIII	2004	Xorvatiya	Germaniya	Rossiya
XXIX	2008	Fransiya	Islandiya	Ispaniya

(ayollar jamoasi)

Soni	O'tkazilgan yili	1- o'rin	2- o'rin	3- o'rin
XXI	1976	Sobiq Sovet Ittifoqi	Sobiq GDR	Vengriya
XXII	1980	Sobiq Sovet Ittifoqi	Sobiq Yugoslaviya	Sobiq GDR
XXIII	1984	Sobiq Yugoslaviya	Janubiy Koreya	Xitoy
XXIV	1988	Janubiy Koreya	Norvegiya	Sobiq Sovet Ittifoqi
XXV	1992	Janubiy Koreya	Norvegiya	MDH
XXVI	1996	Norvegiya	Janubiy Koreya	Daniya
XXVII	2000	Daniya	Vengriya	Norvegiya
XXVIII	2004	Daniya	Janubiy Koreya	Ukraina
XXIX	2008	Norvegiya	Rossiya	Janubiy Koreya

Jahon chempionatlari natijalari

(erkaklar jamoasi)

O'tkazilgan yili	Tashkilotchi davlat	Oltin medal	Kumush medal	Bronza medal
1938	Germaniya	Germaniya	Avstriya	Shvetsiya
1954	Shvetsiya	Shvetsiya	FRG	Sobiq Chexoslovakiya
1958	Sobiq GDR	Shvetsiya	Sobiq Chexoslovakiya	Germaniya
1961	GFR	Ruminiya	Sobiq Chexoslovakiya	Shvetsiya
1964	Sobiq Chexoslovakiya	Ruminiya	Shvetsiya	Sobiq Chexoslovakiya
1967	Shvetsiya	Sobiq Chexoslovakiya	Daniya	Ruminiya
1970	Fransiya	Ruminiya	Sobiq GDR	Sobiq Yugoslaviya
1974	Sobiq GDR	Ruminiya	Sobiq GDR	Sobiq Yugoslaviya

1978	Daniya	GFR	Sobiq Sovet Ittifoqi	Sobiq GDR
1982	GFR	Sobiq Sovet Ittifoqi	Sobiq Yugoslaviya	Polsha
1986	Shveytsariya	Sobiq Yugoslaviya	Vengriya	Sobiq GDR
1990	Sobiq Chexoslovakiya	Shvetsiya	Sobiq Sovet Ittifoqi	Ruminiya
1993	Shvetsiya	Rossiya	Fransiya	Shvetsiya
1995	Islandiya	Fransiya	Xorvatiya	Shvetsiya
1997	Yaponiya	Rossiya	Shvetsiya	Fransiya
1999	Yegipet	w	Rossiya	Sobiq Yugoslaviya
2001	Fransiya	Fransiya	Shvetsiya	Sobiq Yugoslaviya
2003	Portugaliya	Xorvatiya	Germaniya	Fransiya
2005	Tunis	Ispaniya	Xorvatiya	Fransiya
2007	Germaniya	Germaniya	Polsha	Daniya

Jahon chempionatlari natijalari

(ayollar jamoasi)

Bronza medal	Kumush medal	Oltin medal	Tashkilotchi davlat	O'tkazilgan yili
Sobiq Yugoslaviya	Vengriya	Sobiq Chexoslovakiya	Sobiq Yugoslaviya	1957
Sobiq Chexoslovakiya	Daniya	Ruminiya	Ruminiya	1962
GFR	Sobiq Yugoslaviya	Vengriya	GFR	1965
Vengriya	Sobiq Yugoslaviya	Sobiq GDR	Niderlandiya	1971
Sobiq Sovet Ittifoqi	Ruminiya	Sobiq Yugoslaviya	Sobiq Yugoslaviya	1973
Vengriya	Sobiq Sovet Ittifoqi	Sobiq GDR	Sobiq Sovet Ittifoqi (Kiyev, Vilnyus, Rostov-na-Don)	1975
Vengriya	Sobiq Sovet Ittifoqi	Sobiq GDR	Sobiq Chexoslovakiya	1978
Sobiq Yugoslaviya	Vengriya	Sobiq Sovet Ittifoqi	Vengriya	1982
Norvegiya	Sobiq Chexoslovakiya	Sobiq Sovet Ittifoqi	Niderland	1986
Sobiq GDR	Sobiq Yugoslaviya	Sobiq Sovet Ittifoqi	Koreya Respublikasi	1990
Norvegiya	Daniya	Germaniya	Norvegiya	1993
Daniya	Vengriya	Koreya Respublikasi	Avstriya, Vengriya	1995
Germaniya	Norvegiya	Daniya	Germaniya	1997
Avstriya	Fransiya	Norvegiya	Norvegiya, Daniya	1999
Sobiq Yugoslaviya	Norvegiya	Rossiya	Italiya	2001

Koreya Respublikasi	Vengriya	Fransiya	Xorvatiya	2003
Vengriya	Ruminiya	Rossiya	Rossiya (Sankt-Peterburg)	2005
Germaniya	Norvegiya	Rossiya	Fransiya	2007

O‘zbekistonda qo‘l to‘pi o‘yinining rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasida qo‘l to‘pi bo‘yicha birinchi chempionat 1938- yilda o‘tkazilgan.

1960- yilgacha O‘zbekistonda Toshkent Oliy harbiy bilim yurtida ta’lim oluvchi kursantlar orasida 11x11 qo‘l to‘pi musobaqalari o‘tkazilgan.

Yoshlar o‘rtasida sobiq Ittifoq bo‘yicha qo‘l to‘pi musobaqalari 1960- yili Xarkov shahrida o‘tkazildi va shundan so‘ng sportning bu turi tez rivojlana boshlandi.

1960- yilda ilk bor O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida qo‘l to‘pi fakulteti tashkil topgan. 1960- yildan boshlab Toshkent shahar birinchiliklarida 16 – 20 jamoa qatnasha boshladi va mazkur yil O‘zbekiston qo‘l to‘pi sportchilarining sobiq Ittifoq musobaqalarida qatnasha boshlagan yili deb qayd etildi.

1962- yili Tbilisi va Sverdlov shaharlarida o‘tkazilgan ikkinchi sobiq Ittifoq chempionatida erkaklar o‘rtasida O‘zbekiston terma jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etib, oliy ligaga yo‘llanma olgan.

O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari F. Abdurahmonov, M. Jukov, B. Pikin, V. Ogirenko, M. Sirotenko, M. Magdullin, L. Oleynikov, N. Rahmatov, A. Pantasenko va L. Sodiqovlar O‘zDJTI va Toshkent irrigatsiya instituti jamoalari vakillari edi.

Sobiq Ittifoq chempionatlarida qo‘l to‘pi bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasiga V. Sevastyanov va V. Lemeshkovlar murabbiylik qilgan.

O‘zbekiston qo‘l to‘pi o‘yinchilari 1972 – 1973- yillarda yuqori natijalarga erishdi. Ular oliy liga jamoalari o‘rtasida o‘tkazilgan

sobiq Ittifoq chempionatida oltinchi o'rinni egalladilar. O'zDJT jamoasi Butunittifoq talabalari o'rtasidagi musobaqalarda uch karra g'oliblikni qo'lga kiritgan.

O'zbekiston qizlar terma jamoasi 1975 va 1983- yillarda sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasida faxrli oltinchi o'rinni egalladi. 25 dan ortiq qizlarimiz sport ustasi talablarini bajarib, ushbu faxrli unvonga sazovor bo'lishdi. Shular jumlasidan o'zbek qizi Marg'uba Artiqboyeva O'zbekistonda birinchi bo'lib shu unvonga ega bo'ldi.

Toshkent shahrida dastlabki yoshlar va o'smirlar sport maktablari 60- yillarda ochildi va sobiq Ittifoq maktab o'quvchilari spartakiadalarida muntazam ishtirok etib, 1975- yili qizlar 3- o'ringa, o'smirlar esa 1979- yili 6- o'ringa sazovor bo'lishdi. Keyinchalik ushbu sport maktablarida shug'ullangan jahon va Olimpiya chempionlari: Viktor Maxorin, Mixail Vasilyev, yoshlar o'rtasida jahon chempionlari: S. Zemlyanova va O. Zubareva; sobiq Ittifoq terma jamoasi tarkibiga qabul qilingan S. Orlov, V. Antonov, S. Kalmikov, G. Travkin, I. Ahmadiyev, B. Proxorovlar "Xalqaro sport ustasi" unvoniga sazovor bo'lishdi.

Qo'l to'pi bo'yicha o'yinchilarni tayyorlashdagi faol mehnatlari uchun F. Abdurahmonov, V. Kaplinskiy, V. Ogirenko, E. Golovchenko, V. Konoplev, V. Izaaklar "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy" unvoni bilan taqdirlandilar.

Mustaqil O'zbekistonda Qo'l to'pi Federatsiyasi 1992- yili tashkil etilib, 1993- yili Xalqaro va Osiyo Federatsiyalariga qabul qilindi.

1992- yildan boshlab O'zbekistonda erkaklar va ayollar o'rtasida chempionatlar o'tkazilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi chempionatlarida
g'alabaga erishgan jamoalar

Yil	Erkaklar		Ayollar	
	Jamoalar nomi	Bosh murabbiy	Jamoalar nomi	Bosh murabbiy

1992	O'zDJTI	Abdurahmonov F. A.	O'zDJTI	Pavlov Sh. K.
1993	O'zDJTI	Abdurahmonov F. A.	UPTK	Izaak V. I.
1994	"Quruvchi"	Turkin A.P.	UPTK	Izaak V. I.
1995	"Quruvchi"	Davidov S. V.	"D klub"–SKIF	Borotkin S
1996	"Quruvchi"	Davidov S. V.	"D klub"–SKIF	Pavlov Sh. K.
1997	"Quruvchi"	Davidov S. V.	"Sergeli"	Konoplyov V.
1998	MHSK	Davidov S. V.	"Sergeli"	Konoplyov V.
1999	MHSK	Davidov S. V.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2000	MHSK	Davidov S. V.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2001	"Tankchi"	Kondrashin G.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2002	"Tankchi"	Kondrashin G.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2003	"Tankchi"	Borotkin S.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2004	"Tankchi"	Borotkin S.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2005	O'zMU	Matxalikov I.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2006	O'zMU	Butabayev A.	"Algoritm"	Konoplyov V.
2007	"Umid"	Ikramov U.	AGMK	Muminov V.
2008	SamAQI	Petrosyan V.	"Algoritm"	Konoplyov V.

1994 – 1996- yillarda Markaziy Osiyo davlatlari klublari o'rtasida o'tkazilgan qo'l to'pi bo'yicha chempionatda "D – klub" (O'zDJTI) qizlar jamoasi g'alabaga crishdi. Sh. K. Pavlov va F. A. Abdurahmonovlar rahbarligida O'zDJTI talaba qizlari asosida tarkib topgan Respublika terma jamoasi 1997- yili Iordaniyada o'tkazilgan Osiyo chempionatida qatnashib, O'zbekiston jamoalari orasida sport o'yinlari bo'yicha birinchi marta jahon chempionatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. 1997- yilning dekabr oyida bu jamoa Germaniyada o'tkazilgan Jahon chempionatida Xitoy, Braziliya va Urugvay jamoalarini ortda qoldirib, O'zbekiston qo'l to'pi o'yinini dunyoga tanitdi.

O'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga ommaviy jalb qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan 1999- yil 21- mayda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi 271- sonli Qaroriga binoan mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy modeliga asoslangan va uning talablariga muvofiq uyg‘unlashgan uzluksiz ta’limning ommaviy sport tizimi yaratilib, amalga oshirila boshlandi.

Birinchi bo‘g‘in. “Yoshlik” sport jamiyati doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1 – 9- sinf o‘quvchilari qamrab olinadi va o‘quvchilar uchun har o‘quv yilida “Umid nihollari” o‘yinlari o‘tkaziladi. Dastlabki bosqich kuzgi ta’til paytida maktablarda, tumanlarda, ikkinchi bosqich esa qishki ta’til paytida viloyat miqyosida, uchinchi bosqich bahorgi ta’til paytida respublika miqyosida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. “Umid nihollari” o‘yinlari yoshlarning bo‘sh vaqtini foydali va mazmunli o‘tkazish, kurashda chiniqtirish, jamoa bo‘lib harakat qilishga o‘rgatish, ularda jismoniy tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojni paydo qilish va kuchaytirish, g‘alabaga intilish fazilatlarini tarbiyalash maqsadida tashkil etiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishi, iqtidorli yoshlarni sport zaxiralariga tanlab olish ham nazarda tutiladi.

Ikkinchi bo‘g‘in. “Barkamol avlod” sport jamiyati doirasida kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o‘quvchilari qamrab olinadi. Kollej va litsey o‘quvchilari o‘rtasida yiliga bir marta “Barkamol avlod” sport musobaqalari o‘tkaziladi. Mazkur musobaqalarning dastlabki bosqichi oktabr – yanvar, viloyat bosqichlari yanvar – aprel, respublika miqyosidagi yakuniy bosqichi aprel – may oylarida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Bu musobaqalar o‘quvchilarni jismonan chiniqtirishi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatga tayyorlash borasidagi keng qamrovli ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga, sport zaxiralarini yangi iqtidorli yoshlar bilan muntazam ravishda to‘ldirib borishga yordam beradi.

Uchinchi bo‘g‘in. “Talaba” sport uyushmasi doirasida oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida “Universiada” sport musobaqalari o‘tkaziladi. Musobaqalar respublika miqyosida oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida har uch yilda bir marta o‘tkazilib, mamlakat terma jamoalarini doimiy ravishda yurtimiz sharafini nufuzli

xalqaro musobaqalarda himoya qila oladigan sportchilar bilan to'l-dirib borish imkonini beradi.

Yangi sport tizimi mamlakatimizning barcha o'quvchi-yoshlarini to'la qamrab olar ekan, sport ilk bor maktabda o'quvchining kundalik ehtiyojiga aylansa, akademik litsey va kasb-hunar kollejida uning doimiy hamrohi bo'lib qoladi, oliy o'quv yurtida esa bu hamroh uni nufuzli xalqaro musobaqalarga olib chiqadi. Musobaqalarda kashf etilgan g'oliblar O'zbekiston terma jamoalariga jalb etiladi. Yana bir muhim tomoni mazkur tizimda sportning ma'lum turi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yigit-qizlar bu boradagi ishlarini bo'lajak oilalarida, mehnat jamoalarida ham davom ettirishlari mumkin.

Birinchi marta qo'l to'pi sport turi Buxoro shahrida o'tkazilgan "Universiada – 2002" musobaqa dasturiga kiritildi.

Uch bo'g'inli sport tizimi yo'lga qo'yilgandan boshlab, yana qo'l to'pi sport turining rivojlanishiga e'tibor berila boshlandi.

"Universiada – 2002" o'yinlari dasturida ko'rsatilgan qo'l to'pi bo'yicha Toshkent shahri va viloyatlar terma jamoalarining egallagan o'rinlari

Erkaklar jamoalari		Ayollar jamoalari	
1- o'rin	Toshkent – 1	1- o'rin	Toshkent – 1
2- o'rin	Buxoro	2- o'rin	Buxoro
3- o'rin	Namangan	3- o'rin	Toshkent – 2
4- o'rin	Toshkent – 2	4- o'rin	Namangan
5- o'rin	Farg'ona	5- o'rin	Andijon
6- o'rin	Qoraqalpog'iston Respublikasi	6- o'rin	Farg'ona
7- o'rin	Andijon	7- o'rin	Samarqand
8- o'rin	Toshkent – 3	8- o'rin	Qoraqalpog'iston Respublikasi
9- o'rin	Jizzax	9- o'rin	Xorazm
10- o'rin	Xorazm	10- o'rin	Qashqadaryo
11- o'rin	Sirdaryo	11- o'rin	Navoiy
12- o'rin	Toshkent viloyati	12- o'rin	Toshkent – 3
13- o'rin	Samarqand	13- o'rin	Surxondaryo
14- o'rin	Qashqadaryo	14- o'rin	Toshkent viloyati
15- o'rin	Surxondaryo		
16- o'rin	Navoiy		

2003-yilda "Talaba" sport jamiyatining tuzilganligi ayni mudda bo'ldi, chunki endilikda barcha sport turlari qatorida qo'l to' bo'yicha ham oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida musobaqal o'tkazishga imkoniyat berdi, o'z navbatida, sportchilarimizni tajriba orttirishiga ham sharoit yaratildi.

"Universiada – 2004" dasturida ko'rsatilgan qo'l to'pi bo'yicha Toshken shahri va viloyatlar terma jamoalarining egallagan o'rinlari

Erkaklar jamoalari		Ayollar jamoalari	
1- o'rin	Toshkent – 1	1- o'rin	Toshkent – 1
2- o'rin	Samarqand	2- o'rin	Samarqand
3- o'rin	Namangan	3- o'rin	Toshkent – 2
4- o'rin	Buxoro	4- o'rin	Namangan
5- o'rin	Andijon	5- o'rin	Xorazm
6- o'rin	Farg'ona	6- o'rin	Farg'ona
7- o'rin	Jizzax	7- o'rin	Andijon
8- o'rin	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8- o'rin	Buxoro
9- o'rin	Xorazm	9- o'rin	Qoraqalpog'iston Respublikasi
10- o'rin	Qashqadaryo	10- o'rin	Qashqadaryo
11- o'rin	Toshkent – 2	11- o'rin	Surxondaryo
12- o'rin	Toshkent – 3	12- o'rin	Toshknt viloyati
13- o'rin	Sirdaryo	13- o'rin	Jizzax
14- o'rin	Toshkent viloyati	14- o'rin	Navoiy
15- o'rin	Surxondaryo	15- o'rin	Toshkent – 3
16- o'rin	Navoiy		

"Universiada – 2007" dasturida ko'rsatilgan qo'l to'pi bo'yicha Toshkent shahri va viloyatlar terma jamoalarining egallagan o'rinlari

Erkaklar jamoalari		Ayollar jamoalari	
1- o'rin	Toshkent – 1	1- o'rin	Toshkent – 1
2- o'rin	Samarqand	2- o'rin	Xorazm
3- o'rin	Andijon	3- o'rin	Samarqand
4- o'rin	Buxoro	4- o'rin	Namangan
5- o'rin	Xorazm	5- o'rin	Navoiy

6- o'rin	Namangan	6- o'rin	Qoraqalpog'iston Respublikasi
7- o'rin	Jizzax	7- o'rin	Surxondaryo
8- o'rin	Farg'ona	8- o'rin	Qashqadaryo
9- o'rin	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9- o'rin	Sirdaryo
10- o'rin	Qashqadaryo	10- o'rin	Andijon
11- o'rin	Toshkent viloyati	11- o'rin	Toshkent viloyati
12- o'rin	Sirdaryo	12- o'rin	Farg'ona
13- o'rin	Navoiy	13- o'rin	Buxoro
14- o'rin	Surxondaryo	14- o'rin	Jizzax

O'zbekistonda qo'l to'pi sport turida hal etilmagan muammolar hali anchagina. Bugungi kunda oldimizga qo'yilgan maqsadlarimizdan birinchisi – eng avvalo, qo'l to'pi bo'yicha sport jamoalaridagi o'quv-trenirovka mashg'ulotlari jarayonining sifatini oshirish va bu borada tarbiyaviy ishlarning olib borilishiga ko'proq e'tibor berish.

Sport o'yinlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar: pedagogika fanlari doktori E. Seyt-Xalilov, pedagogika fanlari nomzodi, professor J. A. Akramov; pedagogika fanlari nomzodlari: V. Izaak, M. Jukov, J. Akramov, L. Hasanova, I. Shelyagina, S. Azizov, T. Nabiyev; dotsentlar: F. Abdurahmonov, V. Lemeshkov, O. Abdalimov, Sh. Pavlov va sport ustasi A. Bo'taboyevlar o'z tajribalari asosida qo'l to'pi sport turiga doir qanday yangilik va ilg'or usullarni tavsiya etadigan bo'lsalar, hammasini qo'llashimiz lozim. Shularga amal qilsak, yaxshi jamoalarimiz jahon bo'ylab qo'l to'pi bo'yicha yetakchi mavqega ega bo'lishlari mumkin.

QO'L TO'PI O'YINING UMUMIY TASNIFI

Qo'l to'pi atletik sport turlaridan biri hisoblanib, bunda bir jamoa o'yinchilari raqib ustidan ustunlikka erishish uchun o'z rejalarini yashirgan holda raqib rejasini ochishga harakat qiladi. Shuning

uchun bu o'yinni raqiblarning o'zaro sport bellashuvi deb yuritish mumkin.

O'yin jarayonini o'yin texnikasi, taktikasi va strategiyasi aniqlab beradi. Bularsiz jamoalarning sport kurashini tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'yin texnikasi o'yin usullarining yigindisi bo'lib, raqib ustidan g'alaba qozonish uchun shu usullar tizimidan unumli foydalanishdir.

O'yin taktikasi – bu shunday harakatlar tizimiki, jamoa uni o'yin davomida raqib ustidan g'alaba qozonish maqsadida qo'llaydi. O'yin davomida to'pni egallab turgan jamoa raqib himoyachilarini va darvozabonini aldab, imkoniyat boricha raqib darvozasiga ko'proq to'p urishga harakat qiladi. Raqib jamoasi esa o'z darvozasiga to'p urdirmaslik, raqibdagi to'pni olib qo'yish va javob hujumini tashkil qilish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Buning natijasida jamoalarning o'zaro sport kurashi vujudga keladi.

Strategiya sport kurashini boshqarish san'atidir. Sport strategiyasi sport musobaqasi to'g'risidagi bilimlar tizimi va qonuniyatlarini ifodalaydi. Bo'lajak sport musobaqalarining sharoitlari va xarakterlarini oldindan bilish uchun ushbu qonuniyatlarni bilish zarur bo'ladi. Strategiya bu murabbiyning amaliy faoliyati, chunki u jamoani bo'lajak musobaqalarga tayyorlaydi va musobaqa jarayonida jamoani boshqaradi.

Musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida strategiyaning vazifalari quyidagicha bo'ladi:

1. Jamoadagi har bir o'yinchining imkoniyatlarini baholash va o'yin rejasini aniqlash.

2. Raqib jamoasi o'yinining xarakteridan kelib chiqqan holda qarshi o'yin tizimini va shaklini tanlash.

3. Musobaqalarning tartibini aniqlash.

Strategiya, texnika va taktika o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Musobaqalarda yaxshi natijalarga erishish uchun taktika tanlashni strategik vazifalar aniqlaydi, taktik harakatlarni amalga oshirish uchun o'yinchi o'yin texnikasini egallagan bo'lishi kerak. Musobaqa

jarayonida qo'l to'pi o'yinchisida o'yin va xulqiy faoliyat yuzaga keladi. O'yin faoliyati o'yin texnikasi va taktikasi, hujum va himoya harakatlarini tashkil qiladi. Raqib xulqiy faoliyatda sportchining rejasi, ruhiy holati to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi, shu sababli raqibga ruhiy ta'sir o'tkazish uchun sportchi charchaganligini va ba'zi salbiy ruhiy ahvolini bildirmay, kurashishga tayyor ekanligini ko'rsatishi kerak.

Qo'l to'pi o'yinchisining harakat faoliyati tasnifi

Qo'l to'pi o'yini jamoa o'yini hisoblanib, o'yin davrida maydonda jamoaning asosiy tarkibi 7 kishidan iborat bo'ladi. Jamoa a'zolarining maqsadi raqib darvozasiga ko'proq to'p kiritib, o'z darvozasidan imkoniyat darajasida kamroq to'p o'tkazib yuborishdir. Jamoa o'yinida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir o'yinchining harakatlari jamoaning umumiy maqsadiga mutanosib bo'lmog'i lozim. Jamoadagi har bir o'yinchining maydondagi faoliyatidan kelib chiqib, oldiga aniq qo'yilgan vazifalariga qarab, ular darvozabon va maydondagi o'yinchilar (hujumda markaziy o'yinchi, yarim o'rta, qanot va chiziqdagi o'yinchi, himoyada esa markaziy, yarim o'rta, qanot va oldingi himoyachilar)ga ajratiladi.

Qo'l to'pi o'yinchilarining harakat faoliyati deganda nafaqat o'yin texnikasi va taktik harakatlar, balki umumiy maqsadlarni ko'zlab qilinadigan dinamik harakatlar tizimining yig'indisi tushuniladi. Qo'l to'pi o'yinchisining harakat faoliyatidagi muvaffaqiyati o'yinchilar malakalarining mustahkamligi, xilma-xilligi, jismoniy va intellektual darajasining rivojlanganligiga bog'liq. Hozirgi zamon qo'l to'pi sport turida o'yinning jadallashganligi ko'rinib turibdi.

Bu qo'l to'pi o'yinchilarning o'yin paytidagi to'xtovsiz harakatlari, ya'ni maydonda to'psiz va to'p bilan tez harakat qilishi hamda maydonning har bir qismida qattiq kurash olib borishlarining natijasidir.

Zamonaviy qo'l to'pi sport turi o'yinchilarga ularning harakat faoliyatlari va funksional tayyorgarliklari bunday darajada bo'lishi uchun katta talablarni qo'yadi. Musobaqa paytida o'yinchi juda katta hajmdagi ishni bajaradi. O'yin davomida u 4000 – 6500 metr masofani bosib o'tadi. Tezlik bilan hujumga o'tish va hujumdan o'z darvozasiga qaytishda qo'l to'pi o'yinchisi 50 martagacha tezligini oshirib harakat qiladi va irg'ib oldinga tashlanadi (rivok), bu esa o'yin davomida bosib o'tiladigan masofaning 25% ni tashkil etadi. Katta tezlikdagi yugurishlar to'pni ilish, uzatish va darvozaga otish bilan mutanosib bo'lishi lozim. Qo'l to'pi o'yinchisining harakat faoliyati quyidagilardan iborat: yurish, yugurish, sakrash, tezlik bilan yugurish, to'pni uzatish va qabul qilish, raqib bilan kurashda darvozaga to'pni otish. Yuqorida qayd etilgan o'yin usullari barcha o'yinchilarda turlicha bo'ladi. Masalan: o'yinchi himoyalanish paytida 2 – 10 metr masofaga juda katta tezlikda yugurib, o'yin davomida 600 metr masofani bosib o'tadi. Ammo V. I. Izaakning ma'lumotiga ko'ra, markaziy himoyachi 730 metr, qanot o'yinchisi 400 metr masofani bosib o'tadi. Shunda markaziy himoyachi to'p bilan harakat qilayotgan hujumchiga qarshi yugurib chiqishda 250 metr, qanot himoyachisi esa 20 metr masofani bosib o'tadi, xolos. Ayniqsa, to'pni uzatishlardagi farq son jihatidan ancha boshqacha. Masalan: markaziy o'yinchi va yarim o'rta o'yinchi to'pni qanot o'yinchisiga nisbatan, 2 – 3 marta chiziqdagi o'yinchiga nisbatan 6 – 8 marta ko'p uzatadi. Chunki bu ko'rsatkichlar o'yinchilarning maydondagi vazifalariga bog'liq bo'ladi. Hujumdan himoyaga o'tish, himoyadan hujumga o'tish paytida qanot o'yinchilarning faolligi sezilib turadi. Pozitsion o'yin paytida qanot o'yinchilari juda ko'p katta tezlik bilan yugurish turlarini amalga oshirishadi. O'yin davomida qisqa masofalarga tezlik bilan yugurish talabi markaziy himoyachilar zimmasiga tushadi. Ular o'yin davomida 50 – 120 martagacha qisqa masofaga maksimal tezlik bilan yugurib, raqibning hujumdagi rejalarini bartaraf etishga harakat qiladi. Boshqa o'yinchilarga nisbatan har xil sakrash turlarni ko'proq

yarim o'rtada harakat qilayotgan o'yinchi bajaradi. Ammo o'yin davomidagi o'yinchilar sakrab bajaradigan harakatlarning umumiy soni uncha ko'p emas. Har bir o'yinchi o'rtacha 20 martagacha har xil sakrab bajariladigan harakatlarni amalga oshiradi. Keltirilgan bu raqamda erkaklar va ayollar jamoalari uchun tegishli bo'lib, biroz farq qilishi mumkin.

Qo'l to'pi shunday sur'ati o'zgarib turadigan o'yinki, u standart bo'lmagan harakatlar va dinamik kuch bilan bajariladigan usullarni qamrab oladi. Bu, o'z navbatida, maydondagi o'yin holatiga bog'liq. Qo'l to'pi o'yinchisining faol harakatlari uning maydondagi tez harakatlari, to'p bilan bajariladigan harakatlari, raqib bilan yakka-ma-yakka kurashi vaqtida, sust harakatlari esa to'psiz sekin harakat qilish va to'xtash vaqtida sodir bo'ladi. Sust harakatlar, ayniqsa, raqib kuchsiz bo'lganda aniq ko'zga tashlanadi.

O'quv-trenirovka mashg'ulotlarini rejalashtirishda sportchiga musobaqa davrida qancha yuklama zarurligi to'g'risidagi ma'lumotni bilish maqsadga muvofiqdir.

Musobaqa davridagi yuklamalarini aniqlashda radio-telemetrik apparatlar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlarda yurakning urish tezligi har 10 soniyada 1 – 3 martagacha o'zgarib turishi kuzatildi. O'yin boshlanishi bilan o'yinchi raqib bilan faol ravishda kurash olib boradi. Odatda, o'yin davomida o'yinchining yurak urishi daqiqasiga 160 – 180 martagacha bo'lishi mumkin. O'yinchining yurak urishi tezligi musobaqaning ahamiyatiga, raqibning mahorat darajasiga va o'yindagi hisobga bog'liq bo'ladi. Taqvim musobaqalari davrida o'ziga teng bo'lgan raqib bilan o'tkazilgan o'yinlarda o'yinchilarning yurak urish tezligi daqiqasida 162 martadan kam bo'lmaydi.

Ahamiyatli musobaqa sharoitida o'yin uchun ajratilgan vaqtning 50% davomida o'yinchining yurak urish tezligi daqiqasida 180 marta va undan yuqori bo'ladi.

Tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lgan erkak va ayol qo'l to'pi sportchilarining yurak urishi tezligi son jihatidan deyarli farq qilmaydi. O'yin davomidagi (60 daqiqa) yurak urishi ko'r-

4/4068

satkichlari yig'indisi 9800 – 10800 martagacha bo'ladi. O'yin da vomida o'yinchilar 2 – 4 kg gacha vazn yo'qotadi, bu o'yinni shiddatkorlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Yuqori razryadli qo'l to' sportchilarining o'yin davomidagi energiya yo'qotishlari kich razryadli sportchilarnikidan yuqori bo'ladi.

Darvozabonning harakat faoliyati maydon o'yinchisining hara kat faoliyatidan tubdan farq qiladi. Har xil sakrash turlari, birdanig tezlik bilan harakat qilish, qo'l va oyoqlar bilan harakat qilish v to'pni uzatishlar darvozabon o'yinining asosiy komponentlari h soblanadi. Darvozabonning harakat faoliyatidagi faol davri raq o'yinchisi to'p bilan harakat qilgan paytda bo'ladi. Darvozag otilgan to'pni ilib olib, o'z jamoasi o'yinchilariga to'pni uzatganda so'ng, darvozabonning harakat faoliyatidagi sust davri boshlanad Darvozabonning harakat faoliyatidagi faol va sust davrlar 10 – 4 sekundda almashib turadi. Musobaqa paytida kuchli raqib bila uchrashuvda darvozabonning yurak urishi tezligi daqiqasida 144 176 martagacha, kuchsiz raqib bilan bo'lgan uchrashuvda esa b ko'rsatkich daqiqasida 120 – 162 gacha bo'ladi. Darvozabonnin o'yin davomidagi (60 daqiqa) yurak urishi ko'rsatkichlari yigindis 8000 – 9600 martagacha bo'ladi.

Yuqori razryadli sportchilar o'quv-mashg'ulot jarayonining asos siy maqsadi ularning musobaqa davridagi harakat faoliyatlarin yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'yin pay tida qo'l to'pi o'yinchilarining harakat faoliyatlari haqida kerak ma'lumotlar murabbiyga maxsus mashqlar majmuasini (komplek sini) ishlab chiqish imkonini beradi. Qo'l to'pi o'yinchilarinin o'yin paytida energiya yo'qotishi haqidagi ma'lumot esa murabbiy ga o'yinchilarning ovqatlanish, dam olish tartibini rejalashtirishg yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, sportchilar organizmini qayt tiklanishini ta'minlaydi.

Qo'l to'pi o'yinida strategik vazifalarni amalga oshiris uchun o'yin tayyorgarligi jismoniy, texnik, taktik, intellektual v maxsus ruhiy tayyorgarliklarini birlashtirib, yagona o'yin tizim ga aylantiradi. O'yin tayyorgarligi jarayonida barcha tayyorgarli turlarining o'yinni muvaffaqiyatli olib borish uchun ketma-k

birlashishi, jamoa o'yinchilari ko'nikmalarining takomillashishi va ular ruhiyatining musthkamlanishi ko'zda tutiladi.

Qo'l to'pi jamoasiga murabbiylik qilgan pedagog-murabbiy qo'l to'pi o'yinchilarining individual mahoratini tarbiyalash paytida ulardagi ba'zi bir yetishmovchiliklarni boshqa sifatlar hisobiga tekislash imkoniyatlarini topishi zarur bo'ladi. Masalan:

1) o'yinchining jismoniy tayyorgarligi bo'sh bo'lsa, uni yaxshi rivojlangan jismoniy sifatlari yordamida to'ldirish mumkin. Bo'yi baland o'yinchilarning esa tezkorlik, sakrovchanlik, chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirib, kutilgan natijalarga erishish mumkin;

2) ba'zi bir jismoniy qobiliyatlarining yetishmovchiligini boshqa sifatlarni tarbiyalash orqali, masalan, baland bo'yli o'yinchi reaksiyasining sustligini kuch tezkorligi sifatlarini rivojlantirib, aldovchi harakatlarini takomillashtirish orqali to'ldirsa bo'ladi;

3) jismoniy qobiliyatlardagi yetishmovchilikni o'yin texnikasini yuqori darajada bajarish orqali, himoya paytidagi harakat tezligining yetishmasligini to'pga to'siq qo'yish usullarini yaxshi bajara olish orqali to'ldirish mumkin;

4) bir usulni yaxshi egallay olmaganligini boshqa usullarni yuqori darajada o'zlashtirib olish orqali, uzoq masofadan to'pni yaxshi ota olmasligini to'pni uzatish va qabul qilish usullarini hamda aldovchi harakatlarni mukammal egallash orqali to'ldirish mumkin;

5) taktik fikrlashdagi yetishmovchilikni esa to'pni kuch bilan otish texnikasini yaxshi o'zlashtirib olish bilan to'ldirsa bo'ladi.

Murabbiylar sportchilarni tanlashda yoki jamoadagi o'rinlarini aniqlashda, jamoani shakllantirishda ham ba'zi bir sifatlarning yo'qligi yoki kamchiligini boshqalari bilan to'ldirishni ko'zda tutishlari zarur.

O'yin tayyorgarligida nazorat o'yinlariga katta ahamiyat beriladi. Bu o'yinlarda murabbiy har bir o'yinchining ushbu bosqichdagi tayyorgarligini va jamoa tarkibini aniqlaydi. Bundan tashqari, tayyorgarlikning bu turi musobaqalar boshlanishidan avval jamoa tarkibiga tegishli o'zgartishlar kiritish, butun o'yin

davomidagi kuchni to‘g‘ri, oqilona taqsimlash, o‘yinchilarni al
mashtirilgandan so‘ng o‘yinga tezda kirishib ketishlarini va ruhi
jihatdan tayyorgarliklarni ta’minlash imkonini beradi.

Nazorat o‘yinlari musobaqa sharoitiga o‘xshagan sharoitda o‘t
kaziladi (hakamlar, o‘yinchilar kiyimi, o‘yin qoidalariga rioya qi
lish, musobaqa boshlanishi va tugashidagi marosimlar, murabbiy
tomonidan qo‘yilgan vazifalar va boshqalar).

Har bir o‘yinga uning darajasi va mohiyatiga qarab murabbiy
yo‘nalish berishi lozim, o‘yinchilar esa barcha imkoniyatlarini ish-
ga solib, uni amalga oshirishlari shart. O‘zidan ancha kuchli jamoa
bilan uchrashuv o‘tkazganda:

a) hisobdagi farqning minimal bo‘lishi uchun bor kuchi bilan
kurash olib borish;

b) eng kuchli o‘yinchini betaraf qilish;

d) o‘yin intizomini saqlagan holda yaxshi ishlov berilgan o‘yin
tizimlarini qo‘llash va boshqalar.

O‘zidan ancha kuchsiz jamoa bilan uchrashganda:

a) o‘yinning jadalligini oxirigacha pasaytirmasdan, hisobdagi
farqning maksimal bo‘lishini ta’minlash;

b) har xil yaxshi ishlov berilmagan o‘yin tizimlarini qo‘llash;

d) himoyadagi harakatlarni kuchaytirish va qayta hujumlarni
tashkil qilish;

e) yangi o‘yin tizimlarini tayyorgarliksiz qo‘llash.

O‘zi bilan kuchi teng jamoa bilan uchrashganda:

a) g‘alaba qilish;

b) murabbiyning aniq individual yo‘naltirishlarini bajarish;

d) o‘z tayyorgarligini tekshirish va hokazo.

O‘tkazilgan o‘yin muhokamasi har bir o‘yinchi va jamoa
uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Murabbiy o‘tkazilgan o‘yinni
muhokama qilishda jamoaga umumiy baho beradi. O‘yindagi taktik
reja g‘oyasi amalga oshirilgani yoki oshirilmaganini qayd etadi.
Agar taktik reja amalga oshmagan bo‘lsa, uning sabablari ko‘rsatib
o‘tiladi. Shundan so‘ng murabbiy har bir qator (oldingi, orqa qator,

himoya, hujum va darvozabon) o‘yinchilarining harakatlarini alohida baholaydi va xulosa chiqaradi.

O‘tgan o‘yinni muhokama qilish quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

1) o‘tkazilgan o‘yinning umumiy bahosi;
2) jamoa o‘yin taktik rejasini qanday bajargani;
3) har bir o‘yinchi faoliyatini baholash;
4) o‘tkazilgan o‘yindan chiqarilgan xulosalar.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Qo‘l to‘pi o‘yini qachon va qayerda kashf etilgan?
2. Qachondan boshlab qo‘l to‘pi bo‘yicha Jahon chempionatlari o‘tkazila boshlandi?
3. Nima sababdan qo‘l to‘pi o‘yini talaba-yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirilmoqda?
4. Qo‘l to‘pi o‘yini qachon Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan?
5. Qo‘l to‘pi bo‘yicha jahondagi yetakchi davlatlarni sanab bering.
6. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalarining mohiyati va ularni o‘tkazishda qo‘l to‘pi o‘yinining o‘rni haqida gapirib bering.
7. Respublikamizda qo‘l to‘pi o‘yinining rivojlanishi haqida gapirib bering.
8. O‘zbek qo‘l to‘pi sportchilarining jahon miqyosidagi yutuqlari haqida gapirib bering.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining qaysi qaroriga asosan va uning talablariga muvofiq uzluksiz ta’limning ommaviy sport tizimi yaratilib, amalga oshirila boshlandi?
10. Nima sababdan qo‘l to‘pi o‘yinchilarining o‘yin paytida energiya yo‘qotishi haqidagi ma’lumot murabbiylar uchun zarur deb hisoblaymiz?
11. Nima uchun o‘tkazilgan o‘yin muhokamasi har bir o‘yinchi va jamoa uchun katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz?

12. Nima uchun qo'l to'pi jamoasiga murabbiylik qilgan peda murabbiy ulardagi ba'zi bir yetishmovchiliklarni boshqa sifatlar hisob tekislash imkoniyatlarini topishi zarur bo'ladi?

QO'L TO'PI O'YINI TEXNIKASINING TASNIFI

Qo'l to'pi o'yinida turli-tuman to'p bilan va to'psiz usullar bajariladi. Qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun o'yinda qo'llaniladiga xilma-xil maxsus usullar yig'indisi qo'l to'pi texnikasini tashkil etadi.

Texnik usullar – bu qo'l to'pi o'yinini vujudga keltiris vositasi demakdir. Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihat dan qo'l to'pi o'yinchilarining ana shu xilma-xil vositalarni qanchalik to'liq bilishiga, raqib jamoasi o'yinchilari qarshilig ko'rsatayotgan, ko'pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitd o'yin jarayonidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan samarali qo'llashiga bog'liq. Qo'l to'pi texnikasini yaxshi bilis o'yinchining har tomonlama tayyorgarligi va har jihatdan kamo topishining ajralmas qismidir.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobaynida qo'l to' pi texnikasida muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Bu taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: avval keng tarqalgan 11x11 o'yini o'rniga hozirgi kunda qiziqarli, doimiy yuqori tezlikda harakat qilishni talab qiladigan 7x7 o'yini vujudga keldi.

O'yin texnikasida hujum va himoya usullari bir-biridan far qiladi. To'pni ilish, uzatish, olib yurish va darvozaga otish hujum texnikasiga tegishlidir. To'p yo'lini to'sish, uni tutib olish, tari qaytarish va darvozabon o'yinining texnikasi himoyada qo'llaniladi

Maydonda hujum va himoya harakatlari o'yin texnikasining asosini tashkil etadi. Dastlabki holat, turish va tayyorgarlik o'yin chining harakat qilishni belgilaydi. Baland va past holatda turish vaziyatdan kelib chiqqan holda bajariladi. Qaysi o'yinchi maydonda tez va tejamli harakat qilsa, o'sha o'yinchi jamoasiga ko'proq

foyda keltiradi. Shuning uchun har bir o'yinchi tez start olishni, yugurayotib yo'nalishni o'zgartirishni, to'xtash va sakrashni, orqa bilan oldinga erkin yurishni, yon tomon bilan yurishlarni o'zlashtirib olishi shart.

Qo'l to'pi o'yinining tasnifi texnik usullarni umumiy maxsus belgilarga qarab guruhlarga bo'lishdan iborat. O'yin faoliyati tavsifiga qarab qo'l to'pi texnikasi ikkita yirik bo'limga ajratiladi:

1. Maydon o'yinchisi texnikasi.
2. Darvozabon texnikasi.

Har qaysi bo'lim harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi kabi kichik bo'limlarga ajratiladi. Kichik bo'limlar turli usullarda ijro etiladigan aniq texnik usullardan – harakatlanish texnikasi uslublari va usullaridan iborat. Bulardan maydon o'yinchilari va darvozabon foydalanishadi. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo'lib, detallari bilangina farqlanadi. Har xil usullarni ijro etish shartlari qo'l to'pi texnikasini yanada turli-tuman qiladi.

O'rganilayotgan materialni takrorlash usul turlarini barqaror tushunishga, ularni to'g'ri tahlil qilishga, olingan bilimlarni takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli yechishga yordam beradi.

HUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINING TASNIFLANISHI

Hujum o'yini texnikasi

To'pni egallagan hujumchi raqiblar darvozasiga to'p kiritishga intiladi. Raqiblarning qarama-qarshiligini faqat maxsus usullar yordamida yengishi mumkin.

O'yin texnikasining bu qismiga to'pni ilish, ushlash, to'pni yerga urib olib yurish va egallab olish, chalg'itish (fint) va to'siq (zaslon) qo'yish usullari kiradi.

Hujum texnikasining tasniflanishi

To‘pni ilish. Bu – to‘pni egallashga imkon beruvchi usul. To‘pni bir va ikki qo‘llab ilish mumkin. To‘pni ikki qo‘llab ilishda qo‘llarning panjalari bir-biriga yaqinlashtirilib voronkasimon chuqurlik hosil qilinadi, barmoqlar to‘pga tekkanidan so‘ng, uchib kelgan to‘p tezligini pasaytirish uchun qo‘llar bukiladi.




To‘pni ikki qo‘llab ushlash



a) to‘pni bir qo‘llab barmoqlar yordamida ushlash;
b) to‘pni bir qo‘llab barmoqlar yordamsiz kaftda ushlash.

To‘pni bir qo‘lda ilish juda murakkab. Ilish va keyin qo‘lni silkitish ko‘pincha bunday holatda to‘xtash harakatini tashkil etadi.

To‘p bilan muvaffaqiyatli harakat qilish uchun uni to‘g‘ri ushlash lozim. Agar o‘yinchi uni ikki qo‘llab ushlasa, to‘p yaxshi nazorat qilinadi. Lekin to‘pni bir qo‘llab yuqoridan yoki ochiq kaft bilan ham ushlash mumkin. Faqat bu holda to‘pni qattiq siqib ushlamaslik lozim, chunki bu holat qo‘lning panja bo‘g‘imlarining qotishiga olib keladi.



To‘pni bir qo‘llab ilish

To‘pni uzatish asosiy texnik usul hisoblanadi. To‘pni uzatish ko‘p usullar yordamida, ayniqsa, boshqalariga qaraganda ko‘proq yuqoridan va qo‘l panjalari yordamida bajariladi. Uzatish texnikasining bajarilishi to‘pni otish usulidan ham farq qiladi.



To‘pni bir qo‘llab uzatish



To‘pni orqadan uzatish

Qo‘llarning tirsak qismini bukkan holda yuqoridan to‘pni uzatish qo‘l to‘pida to‘p uzatishning asosiy usulidir.

Keyingi vaqtlarda yashirin holda – orqadan, bosh ortidan, oyoqlar orasidan to‘p uzatish ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lmoqda. To‘p uzatish panjalarning faol ishlashi natijasida bajariladi. Qo‘l panjalari yordamida uzatilgan to‘p aniqlik va tezlikdan yutadi.

To‘pni yerga urib olib yurish. Bu usul bir joyda turganda, ko‘proq yurganda, yugurganda bajarilib, qo‘l to‘pi o‘yinchisining harakat qilishda qo‘llaydigan asosiy usullaridan hisoblanadi. To‘pni yerdan har xil: yuqoriroq va pastroq sapchitib turib yurish mumkin. Bu usulda qo‘l to‘pi o‘yinchisi maydondan sapchib ketayotgan to‘pni pastga tushirib va keng yoyilgan barmoqlari bilan kutib oladi. U qo‘lini bukib, to‘pni biroz yuqoriga uzatadi, so‘ng uni yana maydonga ma’lum burchak ostida keskin otadi. Bunda oyoqlar bukilgan, gavda biroz egilgan, bosh to‘g‘ri tutilgan bo‘lishi kerak.

To‘pni yerga urib olib yurish to‘g‘ri chiziq, yoysimon chiziq va doira bo‘ylab har xil yo‘nalishlarda bajarilishi mumkin. Yo‘nalishni, tezlikni, sapchish balandligini o‘zgartirib hamda

to‘pga qaramasdan, yerga urib olib yurishlar hozirgi zamon qo to‘pi o‘yinida katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.



To‘pni yerga urib yurish

To‘pni otish. Otish natijasi bir qator sharoitlarga bog‘liq, shula orasida muhimi raqiblarga kutilmagan vaziyatda otish yo‘nalishin va usulini o‘zgartirishdir. To‘pni ko‘zlagan joyga yo‘naltirishda ayniqsa, tezlik muhim ahamiyat kasb etadi – uning kuchi tezligig bog‘liq bo‘ladi.

To‘p otish texnikasini bajarishda uning energiyasi va vaznin hisobga olish zarur. To‘p otayotgan qo‘lning keng amplitudadag harakati gavdadagi barcha mushaklarning qisqarishiga qula sharoit yaratadi. Lekin o‘yinda bir necha qadamdan so‘ng ken amplitudada qo‘lni silkitib to‘p otishni qo‘llash anchagina mushkul Shuning uchun o‘yinchilar va murabbiylarning ijodiy izlanishda maqsadi tezlik bilan otish texnikasini (harakatni tezlashtirib, to‘pn ilib olgandan so‘ng darrov sakrab va hokazo) yaratishga qaratilgan.

Darvozaga to‘p otish turlari joyidan, yurib kelib, sakrab va t yangan holatda bajariladi.

Eng ko‘p tarqalgan usul harakatda va yuqoridan qo‘lni bukil to‘p otishdir. Qo‘llarni silkitish natijasida to‘pni otish holat o‘zgaradi. To‘pni otish boshning orqa tomonidan, yelka ustida yoki yon tomondan bajarilishi mumkin. Bu vujudga kelgan hola va texnikani bajarish xususiyatiga qarab qo‘llanadi.

Harakat vaqtida qo‘lni yuqorida bukib to‘p otish uch xil vaziyatda bajariladi: chalishtirma qadamlardan (skrestniy shag) so‘ng otish chalishtirma qadamlarsiz otish va to‘xtab otish.

Chalishtirma qadamlardan so‘ng o‘yinchi yugurib kelib sakrab to‘p otishi yoki ruxsat etilgan uch qadam qoidasidan foydalanishi mumkin. Agar o‘yinchi to‘pni o‘ng qo‘li bilan otmoqchi bo‘lsa, birinchi qadamni chap oyoq bilan boshlaydi, bu holda ikkinchi qadamini qo‘yishda shu oyoq kaftining ichki tomonini yugura boshlagan tarafiga qarab qo‘yadi. Shu holda to‘p ushlagan qo‘l to‘g‘irlanib, boshning orqa tomoniga o‘tkaziladi va gavdaning yon tomoni darvozaga qaratiladi. To‘p ushlagan qo‘lga qarama-qarshi oyoqqa tayanilgandan so‘ng to‘p otish harakati boshlanadi; bu holda gavdaning og‘irligi oldinga o‘tkazilib, darvoza tomon buriladi va to‘p ushlagan qo‘l bukilib, oldinga qarab tezlanish harakatini boshlaydi. Shuni hisobga olish kerakki, qo‘l harakati davomida tirsak panjalardan oldinda bo‘lmog‘i kerak. To‘pni qo‘ldan chiqarishda vujudga keladigan kaft va bilak silkitilishiga, keyinchalik gavdaning yuqori qismlariga nisbatan pastki qismlarini to‘xtatishga olib keladi.

Yuqoridan qo‘lni bukib to‘p otish qo‘lni tez siltash yordamida bajariladi. Birinchi, oldinga qo‘yilgan oyoqqa qarama-qarshi qo‘l to‘p bilan orqaga suriladi va keyingi qadamda gavdaning yuqori qismi bilan birga siltanadigan qo‘l oxirgi chegarasigacha orqa tarafga burilishi kerak. Keyingi qadamni qo‘yishda gavda darvoza tomon burilib, tezlik bilan oldinga egiladi va to‘pni qo‘ldan chiqaradi. Bu usulning farqi shundaki, to‘p otish bir oyoqqa tayangan holda bajariladi.

Yuqoridan qo‘lni bukib to‘xtab to‘p otish bu eng tez otish usulidir. Bu yerda dastlabki zarurat to‘pni sakrab ilish hisoblanadi, bunda to‘p otayotgan o‘yinchi qo‘lini siltashni boshlashi mumkin. Bu holda o‘yinchi avval o‘ng oyog‘ini, so‘ng chap oyog‘ini bosadi, tovon esa harakatning to‘xtashini ta’min etish uchun xizmat qiladi.

To‘p otayotgan o‘yinchi qadam qo‘yishda gavdaning og‘irligini darhol oldingi oyoqqa o‘tkazadi va gavdani darvoza tomon burib, qo‘l tirsagini bukkan holda to‘pni keskin darvozaga uloqtiradi.

Qo‘lni yuqorida bukib, sakrab (yuqoriga) to‘p otish uzoq masofadan (10 – 12 m) darvozaga hujum qilishda qo‘llaniladi. Qo‘lni

siltash va to‘pni qo‘ldan chiqarish havoda bajariladi. Depsin keyinchalik oyoqda bajarilishi kerak. To‘p otayotgan o‘yinchi to ushlagan qo‘lini orqa tomonga o‘tkazib, to‘psiz qo‘lini oldi chiqaradi, gavdaning yuqori qismini otayotgan tomonga b depsinishdan oldin bo‘sh oyog‘ini bukishi lozim.

To‘pni darvozaga otish o‘yinchining sakragandan keyingi p vozining eng yuqori nuqtasida ko‘krak darvoza tomon burili oyoqlarning orasi keng ochilib bajariladi.

Ba’zan qo‘lning aylanma harakatini (oldinga – pastga – orqag sekinlashtirgan va ularni ikki tomonga yozgan holatda himoyachil tomonidan qo‘yilgan to‘siq yonidan to‘p otishga ijozat berila Ko‘pincha o‘yinda to‘pni yiqilib otish zarurati vujudga keladi. E to‘p otayotgan o‘yinchiga himoyachilardan qutulish yo bo‘lma o‘zi bilan darvoza orasidagi masofani yaqinlashtirish imkoni beradi.

To‘pni tayangan holda yiqilib darvozaga otish sakrab – yiqil darvozaga to‘p otishdan farq qiladi. Birinchisi bekik vaziyatda hu jum boshlashda qo‘llanilib, ikkinchisi olti metrlik chiziqdan huju qilishda ishlatiladi.

Darvozaga bunday xilma-xil usulda to‘p otish muvozan saqlash munosabatida anchagina murakkabdir, chunki o‘yinc muvozanatini yo‘qotgan holda to‘pni darvozaga otadi. Bunir ustiga, o‘yinchi yiqilishining yo‘nalishi har xil – oldinga va yo taraflarga bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi qo‘lni bukkan holda yon tarafga egilib va yiqil to‘p otish bekik vaziyatda hujum qilishga imkon beradi.

Yon tomonga egilib to‘p otish bir yoki ikki oyoqqa tayang- holda bajariladi. Himoyachining qo‘llari bilan yon tomonid qo‘ygan to‘sig‘idan qutulish uchun hujumchi to‘p otishni bajarish gavdasini to‘psiz qo‘li tomonga egib, to‘pni boshi ustidan v himoyachilar qo‘llari yonidan darvozaga yo‘naltiradi.

Yon tarafga yiqilib to‘p otish. Bu usulni o‘yinchi to‘p otish vaqti himoyachidan uzoqroq ketish imkoniyatini yaratish uchun qo‘llay

Bunga “yolg‘on” to‘p otishda qo‘llaniladigan fintlar yordam beradi. Hujumchi chalg‘itishdan so‘ng oldinga bir qadam qo‘yib, tayanch oyoqlarini, himoyachi oyog‘ini darvozaga to‘p otayotgan tomonga yaqinroq qo‘yishi kerak. Shundan so‘ng gavda og‘irligi oldingi egilgan oyoqqa o‘tkaziladi. Gavda yon tomoni bilan darvoza tarafga buriladi, to‘p bilan bo‘lgan qo‘l esa to‘p otishning oxirgi holatiga ko‘tariladi. O‘yinchi tayanch bo‘lmagan bo‘sh oyog‘ini oldinga ko‘tarib, bo‘sh qo‘l tomon egiladi va himoyachi belidan sirpanganga o‘xshab yiqiladi. U gorizontal holatga yaqinlashganda, darvoza tomonga ko‘kragini qaratib, to‘pni boshnining orqasidan darvozaning ko‘zlangan joyiga yuboradi, so‘ng bo‘sh qo‘lini yerga tekkizib yiqiladi.

Bunday to‘p otish usulini to‘p otayotgan qo‘l tomondan ham bajarish mumkin, lekin bunday holatda tayanch oyoq ish bajarayotgan qo‘l tarafdagi oyoq bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi qo‘lni bukib, sakrab, yon tomonga egilgan holda yiqilib to‘p otish usulidan, asosan, chiziq bo‘ylab va burchakdan hujum qiladigan o‘yinchilar foydalanadi. O‘yinchi to‘pni ikki qo‘l bilan egallab, tez olti metrli chiziqqa yaqinlashadi, tayanch oyoq kaftlarini shu chiziqqa parallel qo‘yib zonaga sakraydi va to‘pni havoda to‘p otadigan qo‘lga o‘tkazib, darvozaga otadi. To‘p ushlagan qo‘l tomondagi oyoq bilan depsinganda, yiqilish shu tarafga bajariladi va o‘yinchi yerga depsingan oyoqqa, keyin qo‘llarga tushadi; boshqa oyoq bilan depsinganda esa oldin bo‘sh qo‘lga va keyin depsinishdan bo‘sh oyoqqa tushadi. O‘yinchi yelkalari orqali aylanib o‘rnidan turadi.

Qo‘lni yozib, yon tomondan to‘p otish bekik vaziyatda ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Uni bel, son, tizza balandligida bajarish mumkin. Siltash yuqoridan to‘p otishdagiday bajariladi. Chalishtirma harakat qilgandan so‘ng o‘yinchi to‘p otishning dastlabki holatiga keladi: oyoqlar keng qo‘yilgan, qo‘l to‘p bilan orqa tomonga o‘tkazilgan, gavda darvozaga yon tomon bilan buri-

lib, to‘p otadigan qo‘l tomon egilgan bo‘lishi kerak. Shundan keyi gavdaning og‘irligi oldinda turgan oyoqqa o‘tkaziladi, ko‘kr darvoza tomon buriladi, qo‘l tirsak bo‘g‘inidan bukilib, maydon parallel oldinga cho‘ziladi. Keyinchalik qo‘l silkitish haraka tufayli to‘g‘irlanadi, unga yelka harakati qo‘shilib, to‘p darvoza yuboriladi.

To‘pni o‘yinchi himoyachidan uzoqroq olib ketish uchun oldin tayanch oyog‘ini himoyachi oyog‘ining sirtqi tomoniga qo‘yis maqsadga muvofiqdir (odatda, o‘ng tarafga).

Gavdaning yuqori qismini burish orqali qo‘lni bukmasda to‘g‘ri to‘p otishni bajarish mumkin. To‘p ushlagan qo‘l tomonida oyoq bilan depsinish to‘pni himoyachilardan yanada uzoqroq ol ketishga imkon beradi. Ko‘pincha bunday to‘p otshlar yuqorig va yon tomonga sakragan holda bajariladi. Balandga sakrab odatdagiday yuqoridan to‘p otmoqchi bo‘lib harakat qilgan h jumchi oxirida to‘p otayotgan qo‘li harakatini o‘zgartirib, to‘p yuqoridan emas, balki himoyachilar gavdasi yoki qo‘llari bila qo‘ygan to‘siqlar yonidan darvozaga yo‘naltiradi.

Darvozadan qaytgan to‘pni qayta urish. Darvoza ustunlarig urilib yoki darvozabondan qaytgan to‘pni bir yoki ikki qo‘lla darvozaga otish mumkin. Bu harakat sakrab, keyin esa yiqilga holda bajariladi.

Keyingi vaqtlarda darvozabonning to‘p otayotgan o‘yinchig peshvoz chiqishi amalda ko‘p qo‘llanilmoqda. Bunday holatd depsinib, yuqoridan baland trayektoriyada to‘p otishlar (darvozabo ustidan oshirib), ma’lum bo‘lishicha, juda sermahsul hisoblanad To‘p otishning bajarilishi odatdagi usulda boshlanib, so‘ngra es to‘pning yo‘nalishi o‘zgartiriladi.

To‘pni yerga urib sapchitib otish darvozabonlar uchun en murakkab to‘p otishdir. Ayniqsa, otgandan so‘ng sapchib aylanib o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradigan to‘pni olish darvozabonlar uchu juda katta qiyinchilik tug‘diradi. Odatda, bu usul burchakdan ho

jum qilish paytida qo‘llaniladi. To‘pni otilish joyiga qarab o‘ngga yoki chapga aylantirib otish mumkin. To‘pni aylantirishga bilak va kaftning tezkor harakatlari va barmoqlarning faolligi tufayli erishiladi.

Chalg‘itishlar (fint). Bu usulni to‘psiz va to‘p bilan bajarish mumkin. To‘psiz chalg‘itishlardan himoyachilarning yaqinida turganda ta’qibdan qutilib ko‘proq topni qarshiliksiz qabul qilish maqsadida foydalaniladi. To‘p bilan chalg‘itishlar uzatishni, otishni yoki yerga urib yurishni qarshiliksiz bajarish uchun qo‘llaniladi.


Chalg‘itishlar murakkab harakatlar yordamida bajariladi, hammasidan ko‘proq bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqich (faza) – anchagina sekin chalg‘itish harakati texnik usulning qulay paytda qo‘llanilishi va tez asosiy usulni amalga oshirilishiga bog‘liqdir.

Ikki va undan ortiq usullardan tashkil topgan chalg‘itishlar ikki turga bo‘linadi: oddiy va murakkab. Bir harakatdan ikkinchi harakatga o‘tishda qancha kam vaqt sarflansa, raqibni aldab o‘tishga shuncha imkoniyat yaratiladi.

To‘pni uzatishda usullarni to‘p yo‘nalishini o‘zgartirish va to‘p uzatishda to‘xtab qolishlarda chalg‘itishlar qo‘llaniladi. Eng ko‘p tarqalgan chalg‘itish bu to‘pni otmoqchi bo‘lib, so‘ng to‘pni uzatishdir (bosh orqasidan, orqa va yon tomondan).

To‘p otishda to‘pni uzatayotganday harakat qilish yoki bir usulda to‘p otmoqchi bo‘lib, ikkinchi usuldan foydalanish, sakrab to‘p otmoqchi bo‘lib yerga tushib, himoyachini aldab o‘tish yaxshi natija beradi.

Chalg‘itishlarni, ayniqsa, himoyachini aldab o‘tishda qo‘llash muhim. Bu bir va ikki qadamli harakat bo‘lishi mumkin. Chalg‘itish sifatida qadam qo‘yish, hamla qilish va to‘p uzatishlardan foydalaniladi.



To‘pni darvozaga sakrab otish



To‘pni darvozaga yiqilib urish



To‘pni darvozaga yiqilib otish



To‘pni darvozaga yiqilib otish

To‘siq bu hujumchilarning himoyachilar himoyasidan qutulishi uchun qo‘llaniladigan foydali vositadir. Qo‘l to‘pi o‘yinida to‘siqlar yakka holda va o‘yinchilar guruhi tomonidan qo‘yilishi mumkin.


Guruh bo‘lib to‘siq qo‘yish 9 metrli erkin to‘p tashlash chizig‘idan to‘p otishda qo‘llaniladi, bu bir nccha hujumchining bir-biriga yaqin turib, to‘p egallamoqchi bo‘lgan hujumchiga peshvoz chiqayotgan himoyachilar yo‘lini to‘sishdan iboratdir.

Himoya o‘yini texnikasi


Himoya texnikasiga to‘pni olib yurish, urib qaytarish, to‘siq qo‘yish va darvozabonning to‘pni ushlab olish usullari kiradi.

Dastlabki holatda to‘g‘ri turish himoya harakati tayyorgarligiga zamin yaratadi. O‘yinchi oyoqlarini bukib, gavda og‘irligini oyoq kaftlarining oldingi qismiga baravar taqsimlab, qo‘llarini bukan holda (burchagi taxminan 90°) biroz ikki tomonga yoyib, qo‘l kaftlarini oldinga qaratib turishi kerak. Yon tomonga erkin yura olish va orqa bilan yugura bilish himoyachi harakati texnikasining eng muhim usullaridir.

Himoya texnikasining tasniflanishi



To‘pni olib quyish. Bu muhim usul yordamida jamoaning qarshi hujumga o‘tishi ta’minlanadi. Himoyadagi o‘yinchi to‘p uzatilgan vaqtda uni olib qo‘yish maqsadida o‘zi to‘sib turgan hujumchining oldidan to‘pga qarshi chiqish uchun joyidan keskin qo‘zg‘alishi lozim.



To‘pni olib qo‘yish

To‘pni urib chiqarish. Bu harakat to‘p olib yurgan hujumchi bilan kurashda bajariladi. Himoyachi qulay payt poylab hujumchiga yaqinlashadi, to‘pni urib chiqaradi va uni egallashga harakat qiladi. To‘pni urib chiqarish uni otish uchun qo‘lni orqaga uzatib siltash harakatini bajarishda ham qo‘llaniladi. Himoyachi bunday holatda hujumchining to‘pni otmoqchi bo‘lgan qo‘lini orqaga uzatishini kutadi va shu payt qo‘l kafti bilan to‘pni ko‘taradi.



To‘pni urib chiqarish

To‘pni to‘sish. Darvozaga yo‘naltirilgan to‘pga qarshi ko‘rsatishda qo‘llaniladigan asosiy vosita hisoblanadi. Yuqori, o‘rta va pastdan kelayotgan to‘pni bir va ikki qo‘l bilan to‘sish mumkin. To‘sishni bajarayotgan himoyachi hujumchiga qanchalik yaqin bo‘lsa, to‘p yo‘nalishini aniqlash shunchalik oson bo‘ladi. Shuning uchun himoyachi to‘pni ushlashga tayyorlanishda diqqat bilan hujumchini, shuningdek, to‘pni kuzatishi va o‘z vaqtida to‘p otayotgan o‘yinchini to‘xtatish uchun chiqishi lozim. Hujumchi to‘p otishidan oldin himoyachi bevosita qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, kaftlarini oldinga qaratib bir-biriga yaqinlantiradi va to‘pni to‘sishda qo‘l barmoqlarini jarohatdan saqlash uchun mushaklarini taranglashtiradi.



To‘pni ikki qo‘llab to‘sish

Yerdan sakratib otilgan to‘pni to‘sish sakrab amalga oshiriladi. Shuning uchun himoyachi oldindan oyoqlarini bukkan holatda tayyorlanib turishi kerak.

Darvozabon o‘yini texnikasi

Darvozabon jamoada eng qiyin va mas’ul vazifani bajaradi. Uning harakati faqat darvozaning xavfsizligini emas, balki hujum

ning natijasini ham belgilaydi. Darvozabon uchun muhimi – avvalo, bo‘yi (180 – 190 sm), tezlik reaksiyasi, mo‘ljallay olish, chaqqonlik, kuch, chidamlilik kabi sifatlaridir. Darvozabonning dastlabki o‘yin texnikasiga turish, siljish, chalg‘itishlar, to‘pni qo‘l, oyoq, gavda bilan qaytarish va to‘pni uzatishlar kiradi. Darvozabon texnik usullariniing muvaffaqiyatli bajarilishi ko‘p jihatdan unmg harakatga qanchalik tayyor ekanligi bilan belgilanadi.

Darvozaboning dastlabki holatni to‘g‘ri tanlay bilishi uning harakatga tayyor ekanligi omillaridandir.

Turish. Darvozabon harakatdagi to‘pning vaziyatiga bog‘liq ravishda har xil holatda turishi mumkin. Darvozada turishning, asosan, ikki turi mavjud: darvoza o‘rtasida va darvoza ustunlari yonida. Darvoza o‘rtasida asosiy holatda turib harakat qilish qulay: oyoqlar yelka kengligida, sal bukilgan, gavda og‘irligi ikki oyoqqa baravar bo‘lingan, gavdaning yuqori qismi ozgina oldinga egilgan, qo‘llarning kaftlari oldinga qaratilgan holda sal bukilib, yon tomonga uzatilgan, kaftlar balandligi taxminan yelka balandligiga teng yoki undan ham balandroq bo‘lishi mumkin.

Agar hujumchi to‘p otishni burchakdan bajarayotgan bo‘lsa, unda darvozabon darvoza ustuni yonida turib (oyoqlar oralig‘i 15 – 20 sm), darvozaga yaqin bo‘lgan qo‘lini yuqoriga ko‘targan, tirsak bo‘g‘ini salgina bukilgan bo‘ladi, shunda darvozaning yuqori burchagini yopadi, ikkinchi qo‘li yon tomonga uzatilgan, gavda og‘irligi darvozaga yaqin turgan oyoqqa o‘tkazilgan ana shunday holatda darvozabon bevosita to‘pni qaytaradi yoki tez-tez oldinga chiqadi.

Darvozabon o'yini texnikasining tasniflanishi





Siljish. Darvozabon joyini, asosan, yon tomonga qadam qo'yib o'zgartiradi. Bu uning o'z yo'nalishini tez-tez almashtirishiga va to'pni qaytarish uchun tayyor bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Darvozabon to'pni olib qo'yishni, sapchigan to'pni egallab, uni o'yinga kiritishni, raqiblar tomonidan tez yorib o'tishni taminlovchi to'pni egallashini, oldinga va orqaga tez harakat qilishni, keskin start olishni bilishi shart.

Darvozabon hamla qilish harkatlaridan va oyoqlarni bir chiziq bo'ylab yozib o'tirish (shpagat) holatidan tez-tez foydalanishga to'g'ri keladi, shuning uchun u bu harakatlarni har tomonga bemalol bajarishni bilishi juda zarur. Uning har xil sakrashlarni bajarishi o'yinda alohida ahamiyatga ega. Darvozaboning to'p otayotgan o'yinchiga peshvoz chiqishi va sakrashi darvoza qo'riqlashning murakkab usullari qatoridan o'rin olgan. Darvozaning nishonga olingan burchagini kamaytirish uchun darvozabon yuqoriga yoki uzunlikka sakrab, darvozaga yo'naltirilgan to'pning yo'lini to'sishga harakat qiladi. Odatda, darvozabon sakraganda to'pning yo'nalish yo'lini ko'proq kamaytirish uchun oyoq va qo'llarini yon tomonga yoyadi. Darvozabon raqiblar bilan to'p uchun kurashda ko'pincha aldash harakatlarini ishlatadi. Chalg'itish maqsdida bir tomonga egilib, keyin boshqa tomonni to'sadi, tez-tez yolg'on chiqishlarni qo'llaydi. Bunday holatlarda hujumchi to'pni darvozabon ustidan oshirib tashlaydi, lekin bunday bo'lishini oldindan kutgan darvozabon darhol orqaga qaytib, to'p yo'lini to'sishga ulguradi.



Shpagat holatda to‘pni to‘xtatish



To‘pni bir qo‘llab yuqoridan to‘sish



Oyoq bilan to‘pni to‘xtatish



Katta qadam tashlab to‘pni to‘xtatish

To‘pni ilish usuli darvozabon o‘yin texnikasining eng muhi elementlaridan biridir. Kuchli otilgan to‘pni ilishning imkoni yo bo‘lsa ham, uni qaytargandan so‘ng egallab olish muhimroq chunki qarshi hujumga o‘tish boshlanishi kerak. Shuning uchu darvozabon to‘pni ilib olgani ma’qul. Lekin eng yaxshi yo‘li to‘pni ikki qo‘llab ilib olish.

To‘pni ushlash usulu darvozabon harakatlaridagi asosiy o‘rin egallaydi. Muhimi, otilgan to‘pning (amortizatsiya qilib) tezligi pasaytirib ushlay bilish kerak. Buning uchun to‘p kaftga urilganda qo‘l, kaft va barmoqlarini ozgina orqaga yuborish maqsadg muvofiqdir. Yaqin masofadan sapchib kelgan to‘pni darvozabo ushlab olmog‘i lozim.

To‘pni qaytarishda, ushlab olishda darvozabon bir yoki ikkala qo‘lni ishlatishi, baravariga oyoq va qo‘l bilan yoki gavda bilan ham to‘pni qaytarishi mumkin.

Yuqoridan kelayotgan to‘pni darvozabon bir yoki ikki qo‘llab ushlaydi, agar to‘p boshqa tarafdan, kelayotgan bo‘lsa, unda darvozabon to‘p kiritish burchagini kamaytirish uchun shu tarafga yoki oldinga bir qadam tashlaydi yoxud sakraydi va to‘p ushlashni o‘sha tomondagi qo‘l barmoqlari yoki kafti bilan bajaradi. Ba’zan bu usul sakrab yiqilgan holda ham bajariladi, lekin bu maqsadga muvofiq emas, chunki bunday usulni bajarishga ko‘p vaqt sarflanadi oqibatda to‘pni qaytargandan so‘ng, darvozabon o‘zining mo‘ljalini yo‘qotadi. Bunday harakatlarni bajarishda muvozanat yo‘qotishga kam vaqt sarflab, asosiy holatda turishni saqlagan ma’qul.

Darvozaning pastki qismiga otilgan to‘p oyoq bilan qaytariladi. To‘p kelayotgan tomon aniqlanib, darvozabon shu tomonga oyoq kaftlarini to‘g‘irlab, keng qadam tashlab hamla qilishga intiladi. Bunda son va boldir orasidagi burchak 90° ni tashkil etadi. Shu tarafga oyoq bilan birga ehtiyotdan o‘sha tomondagi qo‘l ham cho‘ziladi, boshqa qo‘l esa muvozanat saqlash uchun yuqoriga ko‘tariladi. Hamla qilish oxirida oyoq to‘liq to‘g‘irlanadi va darvozabon to‘g‘ri chiziq bo‘ylab oyoqlarini yozib, “shpagat” holatini oladi yoki ikkinchi oyoq tizzasiga tushadi, so‘ng tez asosiy holatda turishga qaytadi.

Eng chekka pozitsiyadan darvozaning uzoq, pastki burchagiga yo‘naltirilgan to‘pni darvozabon shu tarafdagi qo‘l va oyoqni baravariga siltab yoki hamla qilib ushlaydi.

To‘pni uzatish usuli darvozabon tomonidan tez va aniq uzatilgan to‘p jamoaning hujumga o‘tishi uchun sharoit yaratishning muhim garovidir. Shuning uchun darvozabonning baland trayektoriya bilan yoki uzoq masofalarga yuqorida qo‘lni bukib to‘pni uzatishi qoida tusiga kirib qolgan. To‘p egallanganidan so‘ng darvozabon uni uzatish uchun qulay tarafni tanlaydi.

Darvozabonning harakati samarali bo‘lishi uchun eng to‘g‘ri pozitsiyasi darvoza o‘rtasi hisoblanadi. Darvoza oldida uning mar-

kazidan bir metrgacha masofa bo'ylab harakat qiluvchi darvoz
bon baland traycktoriyada keladigan to'pni egallashga do
tayyor bo'lishi lozim. To'p otilishining boshlanishini aniqlagach
darvozabon darvoza maydoniga to'p kiritish imkoniyatini kamay
tirish uchun oldinga chiqadi. Otilayotgan to'p 30 darajadan kich
burchak ostida bo'lsa, u holda darvozabon darvoza ustunlari yon
dan joy oladi.

Darvozabon hech vaqt to'pni nazoratsiz qoldirmasligi va
vaqtida hujumchining to'p otish usulini bu harakat boshlanishid
oldinroq aniqlashi juda muhim.

Agar uning jamoasi hujum qilayotgan bo'lsa, unda u 9 met
chiziq yonida joylashadi, tasodifan jamoasi to'pdan ajrab qol
raqiblar tez yorib o'tish hujumini amalga oshirsalar, o'yinga qo'sh
lishga tayyor bo'lib turadi. Bunday holda u to'pni egallash uchu
maydonga chiqishi mumkin. Urinishi muvaffaqiyatsiz bo'ls
unda orqaga chekinadi va darvozada turib, tez yorib o'tib to'p
darvozaga otayotgan hujumchining to'pini qaytarishga harak
qiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Qo'l to'pi o'yinini vujudga keltirish vositasi nima deb ataladi?
2. Qo'l to'pi o'yini texnikasiga tasnif bering.
3. Hujum texnikasiga tasnif bering.
4. Himoya texnikasiga tasnif bering.
5. Darvozabon o'yini texnikasiga tasnif bering.
6. To'pni uzatish va darvozaga otishda oyoq harakatining ahamiyati
7. Texnik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaysi omillar ijobiy ta
ko'rsatadi?
8. Hujumchi va himoyachining maydondagi harakatini qiyos
bering.
9. To'pni darvozaga sakramasdan, sakrab, yiqilib otishlar xususiyati
haqida gapirib bering.
10. Darvozabonning to'pni ushlash usullari to'g'risida gapirib bering

QO'L TO'PI O'YINING TEXNIK USULLARIGA O'RGATISH METODIKASI

O'rgatish jarayonining tuzilishi

O'yin usullari va taktik harakatlarga o'rgatish qiyin va uzoq davom etadigan jarayondir.

O'yin texnikasini o'rganish uchun juda ko'p o'yin usullarini bajarish lozim va buning uchun bir necha yil kerak bo'ladi. O'rgatish jarayonida o'yin usullarini nafaqat biomexanik nuqtayi nazardan to'g'ri va unumli bajarish, balki o'yin paytida uni qo'llashni ham o'rgatish kerak. Shuning uchun texnik usullarga va individual taktik harakatlarga o'rgatish birgalikda olib boriladi. Bundan tashqari, o'yinga o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash o'zaro bir-biriga bog'lagan holda olib boriladi. Harakatlarga o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash zaminida o'yinchining harakat malakalarini shakllantirish qonuniyatlari yotadi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalash harakat malakalarini egallash jarayonini tezlashtiradi. O'yin usullarini bajarishda jismoniy sifatlar namoyon bo'ladi va rivojlanishi tezlashadi. Biroq harakatlarga o'rgatishda qoida bo'yicha sharoit yengillashib boriladi, ammo jismoniy sifatlarni tarbiyalashda yuklama oshirib boriladi.

Har bir usulni o'rgatish bosqichma-bosqich olib boriladi. Eng asosiy e'tibor harakatning asosiy bosqichiga, keyin esa boshqa qismlarini bajarishga qaratiladi.

Har qanday usulni o'rgatishda texnik-taktik harakatlarning ketmaketligi mantiqan to'g'ri bo'lishi kerak.

1. Usul bilan tanishtirish.
2. Usulni soddalashtirib o'rgatish.
3. Usullarni o'yin holatiga yaqinlashtirib takomillashtirish.
4. O'rganilgan usullarni o'yinda qo'llash.

Usul bilan tanishtirishda, albatta, ko'rgazmali qurollard foydalanib, usul to'g'risida ma'lumot berish va tasavvur hosil q lish zarur. Ko'rgazmali qurollardan kayta foydalanilganda (rasml jadval, videotasmalar) o'rganilayotgan usul va harakatlarni ancha muhim bo'laklariga ahamiyat beriladi. O'yin usullari v harakatlarni ko'rsatishda usulning ahamiyati va uni o'yin paytid unumli qo'llash to'g'risida gapirib berish maqsadga muvof bo'ladi.

Harakat to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun shu usul bajarib ko'rish imkoniyati beriladi. Harakatlarni soddalashtirilga sharoitda o'rganish kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam berad Ushbu holatda qanday muvaffaqiyatga erishish tayyorlovchi v yondashuvchi mashqlarni tanlashga bog'liq bo'ladi. Harakat el mentlarini his qilish uchun harakatlarni majburiy chegaralab v belgilab qo'ygan usullari qo'llaniladi

O'yin usullarini soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilga sharoitda o'rgatish uchun o'yinning dastlabki holati, masof yo'nalish harakati tezligi va har xil xalaqit beruvchi unsurla kiritiladi. Bu, o'z navbatida, usulga o'rgatishdagi to'siqlarni ba taraf qiladi.

QO'L TO'PI O'YINCHISINING TEXNIK TAYYORGARLIGI BO'YICHA MASHQLAR

To'pni yerga urib olib yurish bo'yicha namunaviy mashqlar

1. Oldinga, yon tomonga, orqa bilan oldinga to'pni yerga ur harakat qilish.
2. Shularning hammasini yugurgan holatda bajarish.
3. Ilonizisimon yo'nalishda har xil to'siqlarni aylanib, to'p yerga urib yurish.

4. Har xil to'siqlardan xatlab, to'pni yerga urib olib yurish.

5. Har xil tezlikda yugurib, to'xtab va tezlasnib, to'pni yerga urib olib yurish.

6. Yo'nalishlarni o'zgartirib (90 – 180 – 360 daraja) to'pni yerga urib olib yurish.

7. 6 – 9 metrli chiziqlarga to'g'ri tekkizib, zig'iz bo'ylab to'pni yerga urib olib yurish.

8. O'ng va chap qo'llarda to'pni yerga navbat-gal urib olib yurish.

9. Bir vaqtda ikkita to'pni yerga urib olib yurish.

10. Bir o'yinchi to'pni yerga urib olib yuradi, ikkinchisi to'pni olib qo'yishga harakat qiladi.

To'pni uzatish va qabul qilish bo'yicha namunaviy mashqlar

1. O'yinchilar diametri 10 – 20 metrli doira ichkaklida joylashib, to'pni turli usullarda bir qo'llab uzatishadi va ikki qo'llab qabul qilishadi (1- rasm). Mashq turgan joyida va harakatda bajariladi.

2. O'yinchilarning joylashishi 1- mashqdagidek bo'lsa ham, lekin o'rtada murabbiy joylashadi. U har bir o'yinchiga to'pni uzatib, qabul qilib oladi (2- rasm).


To'pni uzatish usullari: bir qo'llab, ikki qo'llab, yuqoridan, yelkadan, yondan va pastdan.



1- rasm



2- rasm



3- rasm



4- rasm


3. O'yinchilar uchburchak shaklida qator bo'lib joylashish O'yinchi qo'shni qatoridagi o'yinchiga to'p uzatib, o'zi to'p uz tilgan tomonga harakat qilib, qator oxiriga turadi (3- rasm).

4. O'yinchilar ikki aylana hosil qilib, bir-biriga qarama-qar harakat qilib, o'zaro to'p uzatishadi (4- rasm).


5. Ikki o'yinchi 3 – 4 metr oraliqda parallel harakat qilib, b birlariga to'p uzatishadi (5- rasm). Harakat tezligi asta-sekin oshir boriladi.

6. Ikki o'yinchi qarama-qarshi 3 – 4 metr oraliqda joylash o'ngga va chapga harakat qilgandan so'ng, sakrab turib bir-bir to'p uzatadi (6- rasm).


7. Ikki o'yinchi to'plar bilan bir-biriga qarama-qarshi 5 – 10 m oraliq masofada joylashadi. Uchinchi o'yinchi ularning o'rtas




5- rasm



6- rasm



7- rasm




8- rasm


turib, oldindan kelishilgan usulda (pastdan, yuqoridan, yondan va hokazo) o'yinchilar bilan navbatma-navbat joy almashib, to'p uzatishni bajaradi (7- rasm).

8. O'yinchilar 6 – 10 metr masofada 2 qator bo'lib bir-biriga qarama-qarshi joylashadi. Qator oldida turgan o'yinchi o'zi tomonga yugurib kelayotgan o'yinchiga to'pni uzatadi va o'zi qarama-qarshi qator oxiriga borib turadi (8- rasm). Shu mashqni sakrab turib ham bajarishadi.

9. Ikki o'yinchi 4 – 6 metr masofada joylashadi, o'rtada himoyachi joylashadi. Himoyachi qarshiligida hujumchilar bir-birlariga to'pni uzatib (bir qo'llab, ikki qo'llab, yuqoridan, pastdan, yon tomondan va hokazo) qabul qiladilar (9- rasm).



9- rasm



10- rasm

10. O‘yinchilar darvoza ro‘parasida 2 qator bo‘lib tura
Qator oldidagi o‘yinchi 1, 2, 3 qadamdan so‘ng keyingi qator
o‘yinchiga to‘pni uzatib, o‘z qatori oxiridan joy oladi (10- ras


To‘pni darvozaga otish bo‘yicha namunaviy mashqlar

1. O‘ng burchakdan, chap barchakdan va markazdan darvoza
to‘p otish. O‘yinchilar har bir joydan navbat bilan to‘pni darvoza
otishadi va o‘zlari turgan qator oxiridan joy olishadi (11- rasm).


2. O‘yinchilar bir qator bo‘lib joylashadi. To‘p darvozaga hara
paytida otiladi (chap, o‘ng burchaklardan va yarim o‘rtad
O‘yinchi to‘pni murabbiyga uzatib va qayta qabul qilgandan so‘
tirsaklar bukilgan holda yuqoridan darvozaga to‘p otadi. Mash
sakramasdan va sakrab turib bajarishgandan so‘ng, o‘z q
oxiriga borib turadi (12- rasm).

3. O‘yinchilar bir qator bo‘lib joylashadi. O‘yinchi to‘pni m
rabbiyga uzatib, undan qabul qilgandan so‘ng, himoyachi q
shiligini yengib darvozaga to‘p otadi (13- rasm). To‘p sakramay
yon tomondan tirsaklar bukilgan holda otiladi.


4. Himoyachini chalg‘itib darvozaga to‘p otish. 1- raqam
o‘yinchi oldinga harakat qilayotgan 4- raqamli o‘yinchiga to‘p
uzatadi va to‘pni uzatgandan so‘ng himoyachi vazifasini bajara




11- rasm



12- rasm



13- rasm




14- rasm


4- raqamli o‘yinchi himoyachining o‘ng tomonidan o‘tib, darvozaga to‘pni otadi va 6- raqamli o‘yinchi ortidan qatorga turadi. 1- raqamli o‘yinchi esa mashqdan so‘ng 3- raqamli o‘yinchi ortidan qatorga turadi (14- rasm).

5. To‘siq ustidan to‘pni darvozaga otish (15- rasm). O‘yinchilar bir qator bo‘lib turishadi. Qator oldidagi o‘yinchi to‘pni murabbiyga uzatib, undan harakat paytida to‘pni qabul qiladi va to‘siq ustidan tirsak bukilgan holda darvozaga otadi. Mashqni tugatib o‘z qator oxiridan to‘p oladi.


6. Har ikki darvozaga to‘p otish (16- rasm). Qator oldida turgan o‘yinchi darvozabondan to‘pni qabul qilgandan so‘ng qarama-qarshi tomondagi darvoza tomon to‘pni yerga urgan holda harakat qiladi va harakatni darvozaga to‘pni otish bilan yakunlab,




15- rasm



16- rasm



17- rasm




18- rasm


qarama-qarshi qator oxiridan joy oladi. Mashq himoya qarshiligida ham bajariladi.

7. Markaziy o'yinchidan to'pni qabul qilgandan so'ng darvoza otish (17- rasm). 1- raqamli o'yinchi to'pni 2- raqamli o'yinchi uzatadi, u esa o'ng tomon yarim o'rta chiziqqa tomon harakat qi yotgan 3- raqamli o'yinchiga to'pni uzatadi. 3- raqamli o'yinc to'pni turli usullarda darvozaga otadi (oldiniga himoyachisiz, ke esa himoyachi qarshiligini yengib).

8. O'ng va chap qanot o'yinchilarning chiziqdan darvozaga to otishi (18- rasm). 2- raqamli o'yinchi to'pni 1- raqamli o'yinchi uzatib, o'zi chiziq tomon harakat qiladi va to'pni 1- raqam o'yinchidan qabul qilib, turli usullarda darvozaga otadi. Mash o'ng va chap qanotlardan bajariladi.



19- rasm



20- rasm

9. 1- raqamli o‘ng tomon qanot o‘yinchisi 2- raqamli o‘ng tomon yarim o‘rta o‘yinchisiga to‘pni uzatadi. U oldinga to‘p bilan harakat qilib, 3- raqamli chap tomon yarim o‘rta o‘yinchiga to‘pni uzatadi. 2- raqamli o‘yinchi to‘pni qabul qilib, turli usullarda darvozaga otadi (19- rasm).

10. Chiziqdan darvozaga to‘p otish (20- rasm). 1- raqamli o‘yinchi chap qanot tomon harakat qilib, to‘pni 2- raqamli o‘yinchiga uzatadi, u esa to‘pni qabul qilib darvozaga otadi. To‘pni uzatish va darvozaga otish turli usullarda bajariladi.

Darvozabon o‘yini texnikasini rivojlantirish bo‘yicha namunaviy mashqlar

1. Ikkita darvozabon bir-biriga qarama-qarshi turadi (oraliq masofa – 3 – 6 metr). To‘pni bir-biriga turli usullarda: bir va ikki qo‘llab uzatadi.

2. Darvozaning yuqori, pastki qismlari va to‘rt burchagiga to‘p otish. Darvozabon otilgan to‘pni olib, yana o‘yinchiga qaytaradi. Mashqning boshida to‘pni darvozaga otish aniq va to‘pning tezligi past darajada bo‘ladi, asta-sekin to‘pning tezligi oshiriladi va darvozabon bilan o‘rtadagi masofa ham o‘zgartirib boriladi.

3. Murabbiy ishorasi bilan darvozabon turish holatini o‘zgartiradi (o‘tirib, yarim o‘tirgan holda, yotgan holda va boshqalar) va darvozaga otilgan to‘plarni qaytaradi.

4. O‘yinchilar bir qator bo‘lib turishadi, murabbiy ishorasi bilan darvozaga to‘p otishadi.

To‘pni otish turli usullarda: sakramasdan, sakrab, gavdani o‘nga-chapga engashtirgan holda bajariladi.

5. Ikki o‘yinchi darvozaning ikki tomoniga to‘p otishadi. Darvozabon oldin chap tomonga, so‘ng esa o‘ng tomonga otilgan to‘pni qaytaradi.

6. 7 metrli jarima to‘pini qaytarish. O‘yinchilar murabbiy ko‘rsatmasi bo‘yicha to‘pni darvozaga otishadi, darvozabon to‘pni

o‘tkazmaslik uchun harakat qilib qaytaradi (to‘pning tezligi os
boriladi).

7. Ikki o‘yinchi darvozaning turli tomoniga tezlik bilan
otadi. Darvozabon hamma to‘pni qaytaradi (mashq vaqt bi
ichida tez bajariladi).

8. Darvozabon devorga qarab turadi, o‘yinchi uning ortida
vorga to‘p otadi, darvozabon qaytgan to‘pni balandligiga q
qo‘l yoki oyoq bilan qaytaradi.

9. O‘yinchilar doira shaklida joylashadi va bir-biriga to‘p
tadi. O‘rtaga biror-bir buyum qo‘yiladi, darvozabon uni him
qiladi, o‘yinchilar esa buyumni to‘p bilan urishga harakat qila

10. Darvozabon darvozaning o‘ng burchagida turadi, o‘yinch
markazda bir qator bo‘lib turadi va darvozaning chap tomon
to‘p otishadi hamda darvozabon otilgan to‘pni qaytaradi, so
to‘pni darvozaning o‘ng tomoniga otishadi, darvozabon esa
tomondan harakat qilib to‘pni to‘sadi.

Shartli belgilar

◯ – hujumchi
△ – himoyachi
⊖ – darvozabon
⊕ – murabbiy
⟶ – to‘psiz o‘yinchining harakati
⇢ – to‘pning yo‘nalishi
⇝ – to‘pli o‘yinchining harakati

QO‘L TO‘PI O‘YINI TAKTIKASINING TASNIFI

O‘yinda muvaffaqiyatga erishish, asosan, to‘g‘ri harakat qilis
ga bog‘liq. Buning uchun o‘yinni boshqarishda xilma-xil takt
vositalardan foydalanish kerak.

Taktika – bu o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan individual, guruh yoki jamoa harakatlarining tashkil qilinishiga, ya'ni jamoa o'yinchilarining muayyan rejaga binoan aynan shu aniq raqib bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishga imkon beradigan birgalikdagi harakatlaridir.

Taktikaning asosiy vazifasi hujum va himoya harakatlarining maqsadga yo'naltiradigan eng qulay vosita, usul va shakllarini belgilashdan iborat. Taktika turini tanlash jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning o'zaro kurashuvchi guruhlariga, maydonning holatiga, iqlim sharoiti va boshqa omillarga bog'liq.

O'yin taktikasi doimiy rivojlanish xususiyatiga ega. Ba'zi hollarda hujum himoyadan ustun kelib, u o'yinchilardan himoyada taktik usullarning yangi variantlarini kashf etishni talab qiladi. Lekin ba'zan himoya shuncha mustahkam bo'ladiki, o'yinchilar g'alabani qo'lga kiritish uchun hujumda yangi taktik usullar va vositalar ixtiro qilishga majbur bo'ladilar. Hozirgi zamon taktikasi yuqori individual texnik mahorat va o'yinchilarning yuqori tezlikdagi o'zaro harakatlanishi asosiga quriladi.

O'YIN TAKTIKASINING TASNIFLANISHI

O'yin taktikasi maydon o'yinchisi taktikasi va darvozabon o'yini taktikasidan iborat. Faoliyat yo'nalishi jihatidan esa taktika hujum taktikasi va himoya taktikasini tashkil etadi. Shu aytib o'tilgan taktika turlari bir necha guruhlardan iborat bo'lib, ular individual, guruh va jamoa harakatlaridan iborat.

Individual harakatlar – bu o'yinchining mustaqil harakati bo'lib, jamoa oldiga qo'yilgan taktik vazifalarni bajarishga qaratiladi va jamoadoshlar yordamisiz amalga oshiriladi.

Guruh harakatlari – bu ikki yoki uch o'yinchining jamoa vazifalarini bajarishga qaratilgan o'zaro harakatlaridir.

Jamoa harakatlari – bu jamoa o'yinchilarining jamoa v
larini bajarishga qaratilgan o'zaro harakatlaridir.

Har bir harakatlar guruhi bir qancha harakat turidan
Harakat turi o'yinchilarning o'zaro joylashishi va o'zaro ha
lanishi bilan tavsiflanadi. Boshqacha qilib aytganda, harakat
paydo bo'ladi. O'yin tizimi deb o'yinchilar o'zaro harakatlari
tashkil etilishiga aytiladi. O'yin tizimi bo'yicha har bir o'yinch
vazifalari aniqlanadi va mazkur vazifalarga ko'ra maydonda
lashtiriladi.

O'yinchilarning har bir harakat turini qaysi usulda a
oshirishi raqiblariga ta'sir qilishiga qarab belgilanadi: o'yinch
maydonda to'planib yoki, aksincha, yoyilib harakat qiladi. Ha
usullari qo'shimcha variantlarga ega.

MAYDON O'YINCHISI TAKTIKASI

Hujum taktikasi

Hujum jamoaning o'yin davridagi asosiy vazifasi hisobla
To'g'ri tashkil qilingan, oldindan puxta o'ylab chiqilgan
hujumda to'g'ri bajarilgan harakatlar yutuqqa erishishga imkon
beradi.

Hujum taktikasi tasnifi quydagi chizmada ko'rsatilgan.

Individual harakatlar

Jamoa harakatlarining natijasi ko'pincha o'yinchilarning shax
mahoratiga bog'liq bo'ladi. Har bir hujumchining o'yin olib bo
uslublari va vositalari qanchalik xilma-xil bo'lsa, g'alabaga
shish shunchalik oson bo'ladi. O'yin usullarini bilish va ul
amalda qo'llay bilish himoyachiga qarshi yakka kurashda ustu
beradi.

Hujum o'yini taktikasining tasniflanishi

To‘pni yerga urib olib yurishni qo‘llash. To‘pni yerga
olib yurishni bajarishdan oldin, albatta, bu usulni qo‘llashdan
sadni aniqlash lozim: 1) himoyachini aldab o‘tish va darvozaga
jum qilish; 2) to‘pni yerga urib olib yurib, darvozabon maydo
yakuniy zarba berish uchun yaqinlashish; 3) bir necha himoya
ta’qib qilishga majbur etish va ta’qibdan ozod bo‘lgan sher
to‘pni uzatish.

Agar oldinda erkin turgan jamoadoshi bo‘lsa, to‘pni yerga
olib yurish lozim emas. Uzluksiz ravishda qaysi jamoado
to‘pni uzatish kerakligini aniqlash lozim. To‘pni ta’qib etayot
o‘yinchi uzoq masofada bo‘lsa, qo‘lda yerga urib olib yurish ke
Ta’qib etuvchi qanchalik yaqin bo‘lsa, to‘pning yerga urilib qay
shunchalik past bo‘lishi kerak. Ta’qib qiluvchi yaqinida to‘pni k
tez yerga urib olib yurish maqsadga muvofiq emas. Yuqori tezlik
yugurib ketayotgan o‘yinchiga to‘pni uzatib berish uning to‘p
tezlikka erishib, to‘pni yerga urib olib yurish imkonini beradi
usul raqib darvozaboni o‘zining maydonida joylashgan bo‘lsa
o‘yin maydoniga chiqmagan bo‘lsa qo‘llaniladi.

To‘pni uzatishni qo‘llash. To‘pni uzatish davrida jamoade
o‘yinchining maydondagi joylashishi, tezligi, harakatlanish yo‘
lishi va ta’qib etuvchi raqibining yaqinligini inobatga olish ke
Bu omillar to‘pni uzatish usulini tanlashga ta’sir ko‘rsatadi.

To‘p uzatishlar ochiq va maxfiy bo‘ladi.

Ochiq to‘p uzatishlarda to‘p tayyorlov harakatlarga muvo
yo‘naltiriladi.

Ochiq to‘p uzatishlar quyidagi turlardan iborat:

– oldinga to‘p uzatish (bu ochiq to‘p uzatish turida to‘p
jamoadoshiga uzatiladi. Uzatish o‘z o‘rnida turib yoki harakat
bajarilishi mumkin);

– kuzatuvchi to‘p uzatish (bu ochiq to‘p uzatish turida to‘p ja
adoshga izma-iz uzatiladi);

– qarshi to‘p uzatishlarda to‘p jamoadosh harakati yo‘nalish
qarshi yo‘nalishda amalga oshiriladi.

Yashirin to'p uzatishlarida to'p tayyorlov harakatlarga muvofiq bo'lmagan yo'nalishlarda uzatiadi. Bularga qo'l panjalari yordamidagi bel va bosh ortidan, oyoq ostidan bajariladigan to'p uzatishlar kiradi. Bu to'p uzatishlarni amalga oshirish jamoadoshlar o'zaro bir-birini yuqori darajada tushunishni, butun diqqat-e'tiborini o'yinga qaratishni talab etadi, chunki bu to'p uzatishlar faqat kichik masofalarda va raqib jamoasi o'yinchilarining yaqinida amalga oshiriladi. Hujum natijasi ko'pincha yashirin to'p uzatishlarni mahorat bilan qo'llay bilishga bog'liq bo'ladi.

Yashirin to'p uzatishlarni amalga oshirish shartlari:

– to'pni qabul qiluvchi jamoadoshi yo'nalishiga harakat qilmaslik;


– to'pni qabul qiluvchi jamoadoshiga nazar tashlamasdan, faqatgina pereferik qarash bilan uni nazorat qilish;

– to'pni tez va aniq uzatish (to'p uzatishning maxfiyligi oshkor bo'lmasligi uchun);

– ta'qib etuvchi uzatilgan to'pni olib qo'ymasligi uchun bevosita ta'qib etuvchining yaqiniga borish kerak.

Har bir aniq o'yin holatida to'pni uzatish usulini puxta tanlab olish, to'p uzatish tezligini to'g'ri rejalashtirish, to'pni qabul qiluvchi jamoadoshining maydondagi joylashishini to'g'ri aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

To'p otishni qo'llash. Darvozaga to'p otish ochiq va yopiq vaziyatlarda amalga oshiriladi. Ochiq vaziyatda hujumchining darvozaga to'pni yo'naltirish uchun qilgan tayyorlov harakatlari ko'rinib qoladi. Ochiq vaziyatdan to'plar uzoqdan otilmasligi kerak, chunki bunday to'plar darvozabonga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Darvozabon to'p otishlarga o'rganib qolmasligi uchun darvozaga to'pni yo'naltirish usullari turli xil bo'lishi lozim. Qanotlardan hujum qiluvchi o'yinchilar darvozaga to'pni otish burchagini kattalashtirish maqsadida sakrab, gavdani bukib, to'pni darvozaga otadi. Darvozaga to'pni otishda hujumchi darvozabonning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Darvozabonning bo'yi kichik bo'lsa, to'pni darvozaning



21- rasm. Yopiq pozitsiyadan to‘p otishni qo‘llash sxemasi

yuqori burchagiga yo‘naltirish kera
aldovchi harakatlarni qo‘llayotga
darvozabonga to‘p kechiktirib yo
naltiriladi. Darvozabon harakatlan
kuzatgan holda to‘pni uning tayan
oyoq tarafiga yo‘naltirish lozim.

To‘pni yopiq vaziyatda darvozag
otishda hujumchining tayyorlov ha
rakatlari darvozabonga ko‘rinmas ho
latda kechadi. To‘pni yopiq vaziyatd
darvozaga yo‘llash usuli ikki holatd
bajarilishi mukin (21- rasm).

Birinchi holatda hujumchi himoyachi panasida darvozabonda
yashirinib, o‘zining maqsadlarini himoyachidan yashirmaydi. Al
sincha, hujumchi o‘z harakatlari bilan himoyachini o‘ziga jal
qiladi. Shundan so‘ng hujumchi gavdani o‘ng yoki chap tomong
bukkan holatda to‘pni darvozaga yo‘naltiradi.

Ikkinchi holatda hujumchi to‘pni darvozaga yo‘naltirish uchu
qilgan tayyorlov harakatlarini himoyachidan ham, darvozabonda
ham yashiradi. Himoyachi panasida darvozabondan yashiringa
hujumchi qisqa vaqt ichida darvozaga to‘pni yo‘naltiradi. Eng
asosiysi raqib himoyachisiga qarshi usulni qo‘llashga imkoniyat
bermaslikdir. Bu holatda darvozabon to‘p qaysi tarafdan uchib
kelishini ko‘rmaydi. Odatda, bu paytda darvozabon to‘p bilan
bo‘lgan hujumchini payqab olish uchun bir vaziyatni tanlash
harakatida bo‘ladi va darvozaga yo‘naltirilgan to‘pni qaytarolmaydi.

Aldovchi (chalg‘ituvchi) harakatlar (fintlar) bu hujumchining
to‘satdan boshlagan yoki to‘xtatgan o‘yin usullaridan iborat bo‘lib,
himoyachini asosiy hujumga qarshilik ko‘rsatish tayyorgarligidan
chalg‘itishga yo‘naltirilgan harakatlarga aytiladi.

Aldovchi harakatlarni to‘psiz va to‘p bilan amalga oshirish
mumkin. To‘psiz o‘yinchi to‘pni qabul qilish maqsadida himoyach
diqqatini chalg‘itish uchun joyini o‘zgartirib, aldovchi harakatlarn
bajaradi. To‘p bilan quyidagi 3 turdagi aldovchi harakatlar amalga
oshirilishi mumkin:

– to‘pni uzatishdagi aldovchi harakatlar;
– to‘pni darvozaga otishdagi aldovchi harakatlar;
– joyini o‘zgartirishdagi aldovchi harakatlar.

Joyini o‘zgartirishdagi aldovchi harakatlar hujumchi tomonidan himoyachi ta’qibidan xalos bo‘lish uchun amalga oshiriladi. Bunday aldovchi harakatlar yo‘nalishning o‘zgarishida va harakatlanish tezligida namoyon bo‘ladi. Bunda joyni o‘zgartirish usullarining birikmalari qo‘llaniladi: keskin burilishlar bilan yugurish, keskin to‘xtashlar va hokazo. Hujumchining keskin to‘xtashida u bilan birga harakat qilayotgan himoyachi inertsiya tufayli undan o‘tib ketadi. Aynan shu holatdan hujumchi foydalanib qolishi kerak. Ya’ni u o‘ziga qulay bo‘lgan yo‘nalishda tez harakat qilishi, to‘pni yerga urib olib yurishi yoki to‘pni darvozaga otishi mumkin. Keskin burilishlar va keskin to‘xtashlar bilan bog‘liq aldovchi harakatlar bir-biriga raqib o‘yinchilarning bir yo‘nalishda harakatlanayotgan vaqtida qo‘llaniladi.

Agar himoyachi to‘xtab turgan bo‘lsa yoki qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanayotgan bo‘lsa, hujumchi aldovchi harakatlar sifatida keskin burilishlar bilan yugurishni qo‘llaydi. Bunda himoyachi yo‘nalishida harakatlanayotgan hujumchi darhol bir tarafga tashlanadi. Himoyachi, tabiiyki, hujumchini to‘xtatib qolish uchun shu tarafga siljiydi. Hujumchi o‘zining ilk yo‘nalishiga qaytib oladi va yugurishni davom ettiradi. Birin-ketin chapga va o‘ngga tashlanishlarni amalga oshirib, yana chap tomondan o‘tib ketishi mumkin. Bunday aldovchi harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularni tezlik bilan, to‘xtamasdan va himoyachidan 1 – 1,5 metr masofada bajarish lozim.

To‘pni uzatishdagi aldovchi harakatlar quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) bir hujumchiga qarshi chiqmoqchi bo‘lgan himoyachining e’tiborini tortish uchun (to‘p uzatishni bir hujumchiga ko‘rsatib, boshqa bir hujumchiga uzatish);

2) himoyachi va darvozabonning diqqatini boshqa bir hujumchiga yo‘naltirib, shu holatdan boshqa joyga ketish va to‘pni darvozaga

otishni qo'llash (hujumchi to'pni uzatishni o'z jamoadosh sherigiga ko'rsatib, o'zi esa boshqa yo'nalishga to'pni yerga urib olib yurib ketishi yoki darvozaga otishi mumkin).

To'pni darvozaga otishdagi aldovchi harakatlar quyidagi sharoitlarda qo'llaniladi:

1) himoyachi va darvozabonni tayyorgarlik vaziyatidan chiqarish uchun;

2) himoyachini joyini almashtirishga va chiqishiga undash uchun (to'pni darvozaga otishni aldovchi ko'rsatib, yerga urib olib yurib ketish; to'pni darvozaga otishni ko'rsatib, ta'qib ostidan chiqqan sherigiga uzatish va boshqalar).

Bunday aldovchi harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun hujumchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1) hujumchining aldovchi harakatlari himoyachilarga tabiiy tuyulishi, oddiy o'yin usullari kabi ko'rinishi va himoyachilarni o'zining maqsadlariga ishontirishi;

2) xilma-xil aldovchi harakatlarni qo'llash;

3) aldovchi harakatlarni tezlik bilan himoyachilar qulay vaziyatni egallab olishidan oldin bajarish;

4) ba'zi himoyachilarni aldab qo'yadigan aldovchi harakatlarni qo'llash;

5) aldovchi harakatlarni to'p bilan yoki to'psiz qo'llash.


Maydonning har xil joylarida va darvozadan har xil masofalarda qilingan bir aldovchi harakat bir-biriga o'xshamagan vaziyatni keltirib chiqaradi. Mahoratli o'yinchilar har doim ham bir qancha aldovchi harakatlarni bilishi shart emas. Ba'zida unchalik samarali bo'lib ko'rinmagan maqsadli harakatlar yuqori natijalarni keltirishi mumkin.

Ketish bu individual taktik harakat bo'lib, uning yordamida hujumchi raqibning ta'qibidan xalos bo'lib, maydonda kelgusi harakatlar uchun qulay joyni egallaydi. Ketishni ochiq yoki yashirin ravishda bajarish mumkin.

Ochiq ketish joyni o'zgartirish va to'pni yerga urib olib yurish usullari orqali amalga oshiriladi. Bu usulni to'p yordamida


yoki to‘psiz bajarish mumkin. O‘yinchi qanchalik tez va chaqqon harakat qilsa, himoyachining ta’qibidan xalos bo‘lish imkoniyatlari shunchalik ko‘proq bo‘ladi.

Yashirin ketish joyni o‘zgartirish usullari yordamida amalga oshiriladi. Ochiq ketishda hujumchidan ta’qibdan xalos bo‘lish uchun sezilarli darajada jismoniy kuchni, aldovchi harakatlarni talab etadigan bo‘lsa, maxfiy ketishda esa eng asosiysi himoyachining diqqati chalg‘iganda qulay fursatdan foydalanib, ta’qibchidan ilgari o‘tib ketish talab qilinadi. Yashirin ketishni faqatgina hushyor va har doim o‘zaro harakatlarga tayyor bo‘lgan o‘yinchilar amalga oshirishi mumkin. O‘zining ta’qibchisidan xalos bo‘lgan o‘yinchi hujum maydonining bir qismida son jihatdan ustunlik keltirib chiqaradi va hujumni nihoyasiga yetkazish uchun jamoadoshlari bilan bemalol harakat qiladi. Hujumchiga himoyachining ta’qibidan ketish “to‘psiz o‘yin”ni olib borishga imkon beradi. Bunda hujumchi to‘p bilan o‘yinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etmasa ham, o‘zining harakatlari bilan hujumga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U butunlay ta’qibdan xalos bo‘lishga harakat qilishi shart emas. Hujumchi o‘zining maydondagi harakatlanishi bilan himoyaga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, chiziqdagi hujumchining darvozabon maydoni bo‘ylab amalga oshirgan ketishi ikkinchi qatordagi jamoadoshiga darvozaga to‘pni otishni amalga oshirish imkonini beradi, chunki bu paytda himoyachi, albatta, o‘zining ta’qiblanuvchi o‘yinchisi orqasidan ergashishga majbur bo‘ladi. Qanotdagi o‘yinchining ochiq ketishi uning maydondagi joyidan yarim o‘rta hujumchiga darvozaga hujum qilish imkonini beradi (22- rasm).



22- rasm. Qanot hujumchisining ochiq ketishida yarim o‘rta va markaziy o‘yinchining o‘zaro harakatlari


Yarim o‘rta hujumchining darvozabon maydoniga ketishi chiziqdagi hujumchiga to‘pni uzatish uchun imkon beradi (23- rasm).



23- rasm. Yarim o'rta hujumchining ochiq ketishida chiziq va markaziy o'yinchining o'zaro harakati

Qanot hujumchisining yashirin ravishda ketishi raqib himoyachilarini uni ta'qib ostiga olishga majbur etadi. Natijada chiziqdagi va markaziy o'yinchilarning o'zaro harakatlari uchun qulay vaziyat kelib chiqadi (24- rasm). Hujumchining doimiy o'z joyini o'zgartirishi u yoki bu ta'qibchining diqqat-e'tiborini chalg'itib, ularga jiddiy ravishda to'p bilan o'ynashga imkon bermaydi. Masalan, chiziqdagi o'yinchining o'z ta'qibchisidan darvoza maydoni bo'ylab u yoki bu tarafga ketishi yoki qanotdagi hujumchilarning markazga va qayta o'z joyiga yashirin ravishda ketishi (25- rasm).

O'yinchining muhim taktik komponentidan biri ta'qibdan ketish asosiga qurilgan to'psiz o'yin hisoblanadi. Ochiq va yashirin ravishda ketish usullarini tanlashda o'yinchi qandaydir taktik harakatlarni bajarish jarayonida oldiga qo'ygan maqsadlarni inobatga oladi. Maydondagi maqsadsiz harakatlanishlar faqatgina tasodifiy muvaffaqiyatni keltirishi mumkin. "To'psiz o'yin" san'atining o'rgatilishi ilk darslardanoq boshlanishi lozim.



24- rasm. Qanot hujumchisining yashirin ketishida chiziq va markaziy o'yinchining o'zaro harakati



25- rasm. Qanot hujumchisining qayta ketishida yarim o'rta va qanot o'yinchisining o'zaro harakati

Guruh harakatlari


Jamoadoshlarning o‘zaro harakatlari guruh harkatlari asosiga quriladi. Guruh harakatlari qoidalarini bilish va ularni samarali amalga oshirish darvozani tez ishg‘ol qilishga yordam beradi. Guruh harakatlarida ikki yoki uch o‘yinchi ishtirok etishi mumkin. Guruh harakatlarning turlari guruh ishtirokchilarning o‘zaro harakatlari bilan belgilanadi:

– parallel harakatlanish;
– kesishgan holda harakatlanish;
– to‘siq qo‘llagan holda harakatlanish.


Guruh harakatlarining har bir turi bir necha usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Guruh harakatining turi uning himoyachilarga ko‘rsatadigan ta’siri bilan ifodalanadi.

Parallel guruh harakati. Harakatlarning bu turida hujumchilarning harakatlanish yo‘nalishi kesishmaydi. Bu guruh harakati hujumchilarning ko‘zlagan maqsadiga ko‘ra quyidagi o‘zaro ikki harakat usullariga bo‘linadi: himoyachilarning orasidagi masofani ushlab turib o‘zaro harakat qilish yoki ularni bir yerga to‘planishga majbur etish.


Himoyachilarni tortishsiz (styagivaniye) amalga oshiriladigan harakatda hujumchi to‘pni o‘z jamoadoshiga uzatib, ta’qibdan ozod bo‘lgach, qaytadan to‘pni qabul qiladi. O‘zaro harakatlarning asosiy sharti – ketishni to‘psiz amalga oshirish. Harakatlanishda bir yoki ikki hujumchi bo‘lishi mumkin. 26- a rasmga binoan hujumchi to‘pni o‘z jamoadoshiga uzatgandan so‘ng ketishni amalga oshiradi va to‘pni qaytadan qabul qilib oladi. Jamoadoshi esa o‘z joyidan qo‘zg‘almaydi. Ikki jamoadoshning o‘zaro navbatma-navbat harakatlanishi 26- b rasmda ko‘rsatilgan.



26- rasm. Himoyachilarni tortmasdan o‘zaro paralel harakatlar.
a) harakatda 1 o‘yinchi; b) harakatda 2 o‘yinchi navbat bilan.



27- rasm. Himoyachilarni tortish uchun paralel harakatlar



28- rasm. Ichki kesishgan harakatlar


Himoyachilarni o'ziga tortib (styajka), to'pli hujumchi o'zining harakatlari yordamida jamoadoshiga yashirin ketishga imkoniyat beradi. Ta'qibchini aldab o'tib, hujumchi qo'shni himoyachining e'tiborini o'ziga tortadi va jamoadoshini ta'qibdan xalos etishga erishadi. O'zaro harakatlarda ikki va undan ortiq jamoadoshlar qatnashishi mumkin (27- rasm). Hujumchilarning o'zaro harakatlarga qo'shilishi aniq ketma-ket bo'lishi kerak. To'pli o'yinchi jamoadoshi ta'qib etuvchisining diqqatini o'ziga tortishi lozim, faqat shundan so'ng jamoadoshi faol harakat qilishi mumkin. Parallel o'zaro harakatlarning muvaffaqiyati uchun yashirin to'p uzatishlarni tez, aniq hamda aldovchi harakatlarni yuqori tezlikda qo'llash lozim.

Kesishgan yo'nalishdagi harakatlarda harakatlanishlar yo'nalishi hujum paytida kesishadi. Kesishgan harakatlar ichki va tashqi ko'rinishda bo'ladi.

Ichki kesishgan harakatlarda to'pli hujumchi himoyachini 6 metrli maydon chizig'idan chiqishga majbur etadi va shu bilan birga, sherigiga darvozabon maydonchasi yaqinidagi joyni bo'shatib beradi (28- rasm). Sherigi esa to'pni ilib olish uchun qulay joyni egallashga harakatlanadi va to'pli hujumchining yo'nalishi bilan kesishadi. Ichki kesishgan harakatlarda ikki o'yinchi ishtirok etadi, biroq birin-ketin jamoaning qolgan o'yinchilari ham qo'shilishi mumkin (29- rasm). Ichki kesishgan o'zaro harakatlarni amalga



29- rasm. Jamoaning barcha o'yinchilarining ichki kesishgan o'zaro harakatlari




30- rasm. Ikki o'yinchining tashqi kesishgan o'zaro harakatlari:


a) o'yinchi to'p bilan boshlaydi; b) o'yinchi to'psiz boshlaydi

oshirish uchun quyidagilar kerak: ketish va aldovchi harakatlar orqali son jihatdan ustunlikni keltirib chiqarish; harakatlarga o'yinchilarning ketma-ket qo'shilishi; harakatlanishlarning va to'p uzatishlarning yuqori tezligi; yashirin to'p uzatishlarni qo'llash.

Tashqi kesishgan harakatlarda hujum harakatlarini boshlovchi o'yinchi sherigi tomoniga harakatlanadi. Himoyachilarni birbiriga yo'naltirib, sherigi bilan yo'nalishlari kesishgan holda unga yakunlovchi hujum uchun oraliqni keltirib chiqaradi. 30- a rasmda ko'rsatilganidek, hujum harakatlarini 5- raqamdagi o'yinchi to'pni yerga urib olib yurgan holda boshlaydi. To'pni qabul qilish uchun ikkinchi bo'lib 6- raqamli to'psiz hujumchi harakatlarini boshlaydi. U jamoadoshi yo'nalishiga harakatlanib, to'pni qabul qiladi va uni yerga urib olib yurib ketadi. 7- raqamli o'yinchi irg'ib oldinga otiladi va bo'sh bo'lgan joyga chiqadi. Unga to'pni uzatish uning harakatlanish yo'nalishida amalga oshiriladi. Uchrashgan paytida to'pni uzatish bilan uch o'yinchining o'zaro harakatlari 31- rasmda ko'rsatilgan. Kesishgan tashqi o'zaro harakatlar ja-



31- rasm. Uch o'yinchining tashqi kesishgan o'zaro harakatlari



32- rasm. Jamoaning barcha o'yinchilarining tashqi kesishgan o'zaro harakatlari

moa o'yinchilarining harakatlarini birlashtirish uchun qo'llanilishi mumkin (32- rasm).

Tashqi kesishgan harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning shartlari quyidagilardan iborat:

1) harakatlarni boshlovchi o'yinchi o'zining sherigi tomoniga harakatlanishi;

2) yashirin uzatishlarni qo'llash;

3) to'pni uzatgandan so'ng darvozaga otishni taqlid qilish;

4) to'pni uzatishdan so'ng raqib himoyachilarini uzoqroqga olib ketish uchun harakatlanishni davom ettirish;

5) harakatlanishlarni yuqori tezlikda amalga oshirish.

To'sish harakatning bir turi bo'lib, bunda bir hujumchi sherigi ta'qibchisining yo'lini to'sadi.

To'sish quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1) sherigini ta'qibdan xalos etish uchun imkoniyat berishda;

2) ketishni amalga oshirgan holda hujumchi o'zini ta'qibdan xalos etishda;

3) sherigiga to'pni darvozaga otish uchun imkoniyat berishda.


To'sishning ikki turi mavjud:

Ichki to'sish. Bu harakatda to'suvchi o'zining jamoadoshi va himoyachi o'rtasida hujum chizig'ida joylashadi. Ichki to'sishda hujumchi darvozaga to'p otishni ikki o'yinchi ustidan sakragan holda yopiq pozitsiyadan amalga oshiradi, chunki ichki to'sish hujumchiga himoyachini ta'qib qilish imkoniyatini bermaydi (33-rasm).

Tashqi to'sish. Bu to'sishda to'suvchi jamoadosh o'yinchining hujum chizig'idan tashqarida, himoyachining chap yoki o'ng tarafida joylashgan bo'ladi. Tashqi to'sish ketish, ketishsiz va kuzatishlar bilan birgalikda bo'lib, ta'qibdan ketib, darvozabonning




33- rasm. Ichki to'siq




34- rasm. Ketishsiz tashqi to'siq:
a) to'psiz o'yinchi boshlaydi;
b) to'pli o'yinchi boshlaydi.

maydoniga o'tish uchun va himoyachilar yonidan darvozaga to'pni otishni amalga oshirishda qo'llaniladi. Bunday o'zaro harakatlarni 3- raqamli o'yinchi to'p bilan (34- a rasm) yoki to'psiz (34- b rasm) amalga oshirishi mumkin. Tashqi to'sishni ketishsiz 3- o'yinchi yordamida amalga oshirsa bo'ladi (35- rasm). Bu o'yinchi sherigiga to'pni uzatadi va bir paytda ikkinchisini ta'qibdan xalos etadi. Ta'qibdan xalos bo'lgan o'yinchi esa to'pni qabul qilgach, darvozaga to'pni otishni amalga oshiradi.

Ketishli to'sish. Bu to'sishni amalga oshirayotgan hujumchi to'satdan to'pni qabul qilish uchun yoki bir himoyachining diqqatini o'ziga tortish uchun amalga oshiradigan o'zaro harakatdir. Ushbu to'sish uslubi son jihatdan ustunlikka erishish uchun o'zini-o'zi ta'qibdan ozod qilish orqali amalga oshiriladi. To'suvchi himoyachiga qarshi ko'p kurashishi lozim emas, aks holda, uning qarshi kurashiga duch kelishi mumkin. Jamoadosh hujumchi o'zining ta'qibchisidan ilgarilab ketganidan so'ng ketishni amalga oshirsa bo'ladi. To'suvchi sifatida chiziq o'yinchisi (36- rasm), yarim o'rta o'yinchi (37- a rasm)



35- rasm. Ketishsiz tashqi to'siqni uch o'yinchi amalga oshiradi



36- rasm. Chiziqdagi o'yinchi ketish bilan to'siqni amalga oshiradi

va qanotdagi o'yinchi bo'lishi mumkin (37- b rasm).


Kuzatishli to'sish. Bu o'zaro harakat uslubida to'suvchi ta'qib etuvchi bilan bir necha vaqt birgalikda harakatlanadi va o'zining to'pli jamoadoshini ta'qibchidan to'sib boradi. Bu uslub shiddatli hujum paytida qo'llanishi mumkin (38- rasm). Ikkita hujumchi bir himoyachini aldab o'tishni to'pni uzatish orqali amalga oshirishi mumkin. Lekin to'pni ilib olish va uzatish hollarida bir hujumchi himoyachini to'sib turgan paytida, ikkinchi hujumchi to'pni yerga urib olib yurishga nisbatan to'pni oldirib qo'yish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi.

To'sishlardagi muvaffaqiyatli harakatlar uchun quyidagilar muhim:

– to'sishni yashirin ravishda amalga oshirish;


– himoyachidan 10 – 20 sm masofada turib, unga teginmaslik;

– to'sishni himoyachiga orqa o'girgan holatda amalga oshirish (bu holatda o'yin qoidalarini buzish ehtimoli kamayadi va ketishni amalga oshirish osonroq kechadi);



37- rasm. Ketish bilan to'siq qo'yish:

a) yarim o'rta o'yinchi to'siqni amalga oshiradi; b) qanotdagi o'yinchi to'siqni amalga oshiradi.



38- rasm. Tez qochib ketish paytida kuzatuvchi to'siq qo'yish

– ta'qiblanayotgan hujumchi ketishni sherigi himoyachiga to'siq qo'yganidan so'ng amalga oshirishi mumkin;
– himoyachining diqqatini o'ziga jalb etish uchun ta'qiblanayotgan hujumchi joyida turgan holda aldovchi harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Jamoa harakatlari

Jamoa harakatlari 2 turga bo'linadi:

1. Tez yorib o'tish (kutilmagan hujum, to'satdan hujum, tezkor hujum).


2. Pozitsion hujum.

Jamoa harakatlarining tez yorib o'tish turi kutilmagan elementlardan iborat bo'lib, bunda hujumchilar tartibsiz va hali uyushmagan raqib himoyachilariga qarshi harakat qiladilar.

Jamoa harakatlarining pozitsion hujum turi bo'yicha hujumchi va himoyachilar oldindan rejalashtirilgan holatda joylashishadi va kurash maydonning har xil joylarida ketma-ket olib boriladi.


Darvozani muvaffaqiyatli ishg'ol qilish uchun shaxsiy va guruh harakatlarini qo'llash lozim.

Kombinatsiya deb, bir qator shaxsiy va guruh harakatlarning ketma-ketligiga aytiladi. Bu harakatlar maydonda oldindan ma'lum bo'lgan o'yinchilar tarkibida amalga oshiriladi. Kombinatsiya davomida vaziyatga qarab har bir o'yinchi darvozani ishg'ol etish uchun barcha imkoniyatlarni qo'llashi lozim. Kombinatsiyalar o'yin davomida bir tizimni qo'llashda (39- rasm) hamda to'pni yon tomondan o'yinga kiritish va erkin to'p kiritish kabi (40- rasm) standart vaziyatlarda qo'llanishi mumkin.




39- rasm. Jamoa kombinatsiyasi

Tezkor hujum. Bu jamoa harakatlarining turi uyushmagan himoyachilarga qarshi bir, bir necha yoki



40- rasm. Erkin to'p otishdagi kombinatsiya




41- rasm. Tezkor hujumda darvozabon tashkil qilingan tez qochib ketish


barcha o'yinchilarning raqib darvozasi tomonga harakatlanishi orqali amalga oshiriladi.

Tez qochib ketish (otriv) bir yoki bir necha o'yinchilarning raqiblar darvozasi tomon qilingan tezkor harakatlaridir. Darvozabon va qolgan himoyachilar esa to'pni uzoq masofaga uzatish orqali hujumchilarga darvozani ishg'ol qilish uchun sharoit yaratib berishadi (41- rasm). Boshqa variantda esa o'yinchi to'pni olib qo'ygandan so'ng yerga urib olib yurib darvozani ishg'ol qiladi (42- rasm).

Tez yorib o'tishda bir yoki bir necha ta'qiblanuvchi hujumchilar raqib darvozasi tomon harakatlanadi, ular ketidan ta'qibdan ozod bo'lgan jamoadoshlari izma-iz harakat qilishadi (43- rasm). Tez yorib o'tishda eng asosiysi raqibga himoyani yorib o'tib raqib



42- rasm. Tezkor hujumda "tez qochib ketish"; himoyachi to'pni tutib olgandan so'ng



43- rasm. Tezkor hujumda "yorib kirish"

darvozasi tomon harakatlanishlari kerak. Raqib darvozasi tez yorib o‘tishda kuchlar nisbati teng yoki himoyachilar ortiq bo‘lsa ham, bu usuldan voz kechmaslik kerak.

Tez yorib o‘tish hujumini amalga oshirish uchun:

1) o‘yin vaziyatidagi holatni tez anglay olish, raqibdan oldin harakat qilish uchun ketish paytini to‘g‘ri aniqlash kerak;

2) yuqori tezlikda harakatlanishda o‘yin texnikasini qo‘llay bilish kerak;


3) o‘yinchilarni oldinga chiqargan holdagi himoya tizimini qo‘llash kerak;

4) bu hujum usulini qo‘llash uchun jamoaning barcha o‘yinchilarini, ayniqsa, tezkor o‘yinchilarini oldindan tayyorlab borish kerak;

5) tezkor hujumni darvozabon tashkil qilishi kerak.


Pozitsion hujum – aniq bo‘lgan himoya tizimiga qarshi tuzilgan jamoa harakatlarining turi. Agar tez uyushtirilgan qarshi hujum amalga oshmasa, raqib o‘z darvozasi mudofaasini tashkil qilgan bo‘lsa, hujumchilar vazifasiga ko‘ra darovoza maydoni bo‘ylab joylashadi. Darvozani ish-g‘ol qilish uchun o‘yinchilar, tanlangan hujum tizimiga ko‘ra to‘p uzatish tezligini oshira borib, turli xil kombinatsiyalarni amalga oshirishadi.

Ikkita yarim o‘rta va markaziy o‘yinchi ishtirok etadi. Shu bilan birga, qanot o‘yinchilari bir-biri bilan o‘z joylarini almashtirishi mumkin, lekin ularning vazifalari o‘zgarmaydi. Ikkinchi qator o‘yinchilari bir-biri bilan o‘z pozitsiyalarini almashtirib, ba’zida darvozabon maydonining yaqinida va qanotlarda harakat qilib, hujumni uyushtiradilar.



44- rasm. O‘yinchilarning vazifasiga binoan joylashishi:

ChQO' – chap qanot o‘yinchisi; O'QO' – o‘ng qanot o‘yinchisi; O'TYaO' – o‘ng tomon yarim o‘rta oyinchi; ChO' – chiziq o‘yinchisi; O'TChO' – o‘ng tomon chiziq o‘yinchisi; ChTChO' – chap tomon chiziq o‘yinchisi; ChTYaO'O' – chap tomon yarim o‘rta o‘yinchisi; MO' – markaziy o‘yinchi.



48- rasm. Oqimli hujum

sakkizlikning turli aylanasi bo'ylab harakat qiluvchi uchrashuv joyida to'pni uzatishni uzoqqa to'p otish zonasining markaziy pozitsiyasidan amalga oshiradi. Avval qarama-qarshi uzatishlar amalga oshiriladi. Lekin harakatlanish tezligi oshgani va himoya tizimining buzilgani sari, darvozani ishg'ol etish imkoniyatlari ixtiyoriy joydan bo'lishi mumkin. Bu holda to'p uzatishlar yashirin bo'lgani ma'qul. Sakkiz raqami shaklida harakatlanib, o'yinchilar turli guruh harakatlarini amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Asosiysi – himoyachilarning o'zaro harakatlarini buzib, darvozani ishg'ol qilishi kerak.

Oqimli hujum tizimida o'yinchilardan quyidagilar talab etiladi:

1) o'yin usullarini yuqori tezlikda amalga oshirish;

2) raqibning bevosita yaqinligida o'yin texnikasini qo'llay bilish;

3) xilma-xil texnik usullarini qo'llay bilish;

4) turli pozitsiyada harakat qilishni bilish. Chiziq o'yinchisi to'pni darvozaga uzoq masofadan yo'llashni, ikkinchi qator hujumchilari esa chiziqdagi va qanotdagi o'yinchilar vazifalarini bajarishni bilishi kerak;

5) tez harakatlanishda sharoitni anglay bilish.

Jamoa hujum harakatlari taktikasining tamoyillari

Taktika tamoyillari deb, sport kurashini olib borishda qo'llaniladigan asosiy qonuniyatlarga aytiladi. Bu qonuniyatlarga asoslanib o'yinchilar o'zlarining taktik harakatlarini puxta tashkil qiladilar. Bu tamoyillar o'yinchiga o'yin davomida ongli ravishda

harakat qilishga, harakatlar tarkibiga va o'yin intizomiga rioya etishga yordam beradi. Taktika tamoyillariga amal qilish hujum harakatlari usullarini tartibga soladi, lekin tashabbuskorlikni chegaralab qo'ymaydi. Taktika tamoyillariga amal qilish yoki qilmaslik tahlili murabbiyga va o'yinchilarga umumjamoa harakatlari puxtaligini va jamoaning uyg'unligini nazorat qilish uchun ma'lumot beradi.

1. Son jihatdan ustunlikka erishish tamoyili. Bu tamoyil hujum va himoyaning o'rtasidagi muvozanatning son jihatdan buzilishida sodir bo'ladi. Hujumda son jihatdan ustunlikka erishishni bir qancha usullar orqali amalga oshirish mumkin:

a) kurash o'chog'ini to'pning uzoq masofaga uzatilishi orqali maydonning bir tarafidan ikkinchi tarafiga ko'chirish;

b) o'yinchilarning, ayniqsa, qanot o'yinchilar pozitsiyalarining almashish tezligi;

c) o'yinchilarning maydon bo'ylab harakat tezligining almashib turishi;

d) to'sish va aldovchi harakatlarni amalga oshirish.

2. Harakatlar xilma-xilligi tamoyili. Bu tamoyil andozalangan taktik harakatlarni qo'llashni inkor etadi. Hujumchilarning barcha harakatlari himoyachilar uchun kutilmagan bo'lishi lozim. Bularga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:


a) o'yin paytida xilma-xil hujum taktikasini qo'llash;

b) kombinatsiyalarni almashtirib turish va hujumni oxiriga yetkazish usullarining xilma-xilligi;

c) bir xil vazifalarni bajaradigan, ammo o'yin usuli bir-birinikidan farq qiluvchi o'yinchilarni almashtirish;

d) harakatlarni taqlid qilish.

3. O'yin intizomiga amal qilish tamoyili. Har bir raqib bilan uchrashuvdan avval taktik harakatlar rejasi ishlab chiqiladi. O'yindan avval jamoa murabbiysi bu rejani jamoasiga ma'lum qiladi: raqib jamoasining zaif va kuchli tomonlarini aytadi va kurashni olib borish yo'llarini belgilab beradi. O'yinning boshidanoq, ba'zi



48- rasm. Oqimli hujum

sakkizlikning turli aylanasi bo'ylab harakat qiluvchi uchrashuv joyida to'pni uzatishni uzoqqa to'p otish zonasining markaziy pozitsiyasidan amalga oshiradi. Avval qarama-qarshi uzatishlar amalga oshiriladi. Lekin harakatlanish tezligi oshgani va himoya tizimining buzilgani sari, darvozani ishg'ol etish imkoniyatlari ixtiyoriy joydan bo'lishi mumkin. Bu holda to'p uzatishlar yashirin bo'lgani ma'qul. Sakkiz raqami shaklida harakatlanib, o'yinchilar turli guruh harakatlarini amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Asosiysi – himoyachilarning o'zaro harakatlarini buzib, darvozani ishg'ol qilishi kerak.

Oqimli hujum tizimida o'yinchilardan quyidagilar talab etiladi:

1) o'yin usullarini yuqori tezlikda amalga oshirish;

2) raqibning bevosita yaqinligida o'yin texnikasini qo'llay bilish;

3) xilma-xil texnik usullarini qo'llay bilish;

4) turli pozitsiyada harakat qilishni bilish. Chiziq o'yinchisi to'pni darvozaga uzoq masofadan yo'llashni, ikkinchi qator hujumchilari esa chiziqdagi va qanotdagi o'yinchilar vazifalarini bajarishni bilishi kerak;

5) tez harakatlanishda sharoitni anglay bilish.

Jamoa hujum harakatlari taktikasining tamoyillari

Taktika tamoyillari deb, sport kurashini olib borishda qo'llaniladigan asosiy qonuniyatlarga aytiladi. Bu qonuniyatlarga asoslanib o'yinchilar o'zlarining taktik harakatlarini puxta tashkil qiladilar. Bu tamoyillar o'yinchiga o'yin davomida ongli ravishda

harakat qilishga, harakatlar tarkibiga va o'yin intizomiga rioya etishga yordam beradi. Taktika tamoyillariga amal qilish hujum harakatlari usullarini tartibga soladi, lekin tashabbuskorlikni chegaralab qo'ymaydi. Taktika tamoyillariga amal qilish yoki qilmaslik tahlili murabbiyga va o'yinchilarga umumjamoa harakatlari puxtaligini va jamoaning uyg'unligini nazorat qilish uchun ma'lumot beradi.

1. Son jihatdan ustunlikka erishish tamoyili. Bu tamoyil hujum va himoyaning o'rtasidagi muvozanatning son jihatdan buzilishida sodir bo'ladi. Hujumda son jihatdan ustunlikka erishishni bir qancha usullar orqali amalga oshirish mumkin:

a) kurash o'chog'ini to'pning uzoq masofaga uzatilishi orqali maydonning bir tarafidan ikkinchi tarafiga ko'chirish;

b) o'yinchilarning, ayniqsa, qanot o'yinchilar pozitsiyalarining almashish tezligi;

c) o'yinchilarning maydon bo'ylab harakat tezligining almashib turishi;

d) to'sish va aldovchi harakatlarni amalga oshirish.

2. Harakatlar xilma-xilligi tamoyili. Bu tamoyil andozalangan taktik harakatlarni qo'llashni inkor etadi. Hujumchilarning barcha harakatlari himoyachilar uchun kutilmagan bo'lishi lozim. Bularga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

a) o'yin paytida xilma-xil hujum taktikasini qo'llash;

b) kombinatsiyalarni almashtirib turish va hujumni oxiriga yetkazish usullarining xilma-xilligi;

c) bir xil vazifalarni bajaradigan, ammo o'yin usuli bir-birinikidan farq qiluvchi o'yinchilarni almashtirish;

d) harakatlarni taqlid qilish.

3. O'yin intizomiga amal qilish tamoyili. Har bir raqib bilan uchrashuvdan avval taktik harakatlar rejasi ishlab chiqiladi. O'yindan avval jamoa murabbiysi bu rejani jamoasiga ma'lum qiladi: raqib jamoasining zaif va kuchli tomonlarini aytadi va kurashni olib borish yo'llarini belgilab beradi. O'yinning boshidanoq, ba'zi

Himoya o'yini taktikasining tasniflanishi

holatlarda o‘zgartirishlarni kiritib, o‘yinchilar shu rejani amalga oshirishlari shart. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilishi lozim:

a) jamoaning barcha o‘yinchilari asosiy taktika tamoyillarini bilib olishi;

b) o‘zining jamoadagi vazifasini vijdonan bajarishi;

c) belgilab qo‘yilgan va taqlid qilingan harakatlarning orasidagi nisbatni to‘g‘ri aniqlab olish;

d) maqsadli tashabbus harakatlarini amalga oshirishi.

4. O‘zaro ko‘maklashish tamoyili. Qo‘l to‘pi – jamoa o‘yini va muvaffaqiyat barcha jamoadoshlar harakatiga bog‘liq. Shu sababdan har bir o‘yinchining harakatlari umumjamoa maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, jamoadoshlar o‘zlarining vazifalarini vijdonan bajarish bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa sheriklari majburiyatlarini o‘z zimmalariga olishlari zarur. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun o‘yinchi o‘yin usullarini samarali qo‘llashi va quyidagilarni unutmasligi kerak:

a) to‘pni uzatishda uning aniqligi uchun uzatib beruvchi o‘yinchi javobgar hisoblanadi, u jamoadoshining harakatlanish tezligini va joylashishini inobatga olishi kerak;

b) agar bir to‘pli o‘yinchi o‘zining imkoniyatlarini hisobga olmasdan qiyin holatga tushib qolgan bo‘lsa, jamoadoshi o‘zining ta’qibchisidan ketishni amalga oshirib, to‘pli jamoadoshidan to‘pni qabul qilish imkoniyatini yaratishi kerak;

v) agar to‘pli o‘yinchi to‘pni oldirib qo‘ysa, jamoadoshlari darhol himoya harakatlariga o‘tadilar.

HIMOYA TAKTIKASI

Oxirgi paytlarda qo‘l to‘pi sohasidagi ilmiy-metodik va maxsus adabiyotlarda o‘yindagi hujum himoyaga nisbatan jadal sur’atlarda rivojlanayotganligi to‘g‘risida ko‘p yozilmoqda. Mutaxassislar fikricha, o‘yinning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan

himoyaga murabbiylar kam e'tibor qaratishmoqda. Biroq maxsus adabiyotlarda o'yinchini himoya o'yiniga tayyorlashning yagona uslubiy tavsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar yetishmaydi. Hozirgi kunda himoya o'yini to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va uni amaliyotga tadbiq qilish talabi yuzaga keladi. Shuning uchun aynan o'yin himoyasiga katta e'tibor berish jamoaning hujumdagi muvaffaqiyatini mustahkamlabgina qolmasdan, unga kelgusi harakatlarda ishonch baxsh etadi. Himoya harakatlari raqibning hujum harakatlariga javob bo'lib, raqib taktikasining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra amalga oshiriladi. Taktik harakatlarning tasniflanishi 30- rasmda ko'rsatilgan.

Individual harakatlar

O'z darvozasini mustahkam qo'riqlash uchun himoyachi o'yinning himoya qilish usullarini qo'llay bilishi lozim.

Usulni bilishdan tashqari, uni muayyan bir holatda qo'llash qoidalarini bilgan holda amalda qo'llashni bilish kerak.

To'pni urib chiqarishni qo'llash. Hujumchidan to'pni urib chiqarish uchun himoyachi to'pgacha bo'lgan masofani, o'yinchining tezligini, o'z jamoadoshlarining joylashishini va beixtiyor raqiblarga to'pni uzatmaslik uchun ularning joylashishini aniqlab olishi kerak. Urib chiqarish taktikasining asosiy sharti – uni kutilmaganda amalga oshirish. Shuning uchun himoyachi o'zini vazmin tutishi bilan o'z maqsadlarini bildirmasligi kerak.

To'pni otishda olib qo'yish. Bu taktik harakat holatida hujumchining butun e'tibori darvozabonda bo'lgani sababli, himoyachi o'zining maqsadlarini yashirmaydi. Bu usulni amalga oshiradigan himoyachi quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1) darvozaga to'pni otayotgan o'yinchiga nisbatan to'g'ri pozitsiyani tanlab olish (to'pni otayotgan qo'l tomonda joylashishi lozim);

2) butun diqqatini raqib qo'lidagi to'pga qaratish;

3) o‘z harakatlarini to‘g‘ri qurish uchun sovuqqon va sabrli bo‘lish;

4) to‘p tezligini yo‘qotayotgan paytda himoyachi tez va aniq harakatlar bilan usulni bajarish.

To‘siq qo‘yishni qo‘llash. Bu usulni qo‘llashda himoyachi quyidagilarni bilish kerak:

1) to‘g‘ri harakat qilish uchun haqiqiy to‘p urishni aldovchi to‘p urishdan farqlay ola bilish;


2) to‘p yo‘nalishini bilib olish uchun to‘p otish turini aniqlab olish;

3) darvoza zonasini yaxshi berkitish uchun hujumchi qarshisida puxta pozitsiyani egallash.

To‘psiz o‘yinchini ta’qib etish. Bu himoyachining individual harakati bo‘lib, hujumchining to‘pni qabul qilishi uchun qulay pozitsiyani egallashiga to‘sqinlik qilishga va to‘pni ta’qiblanuvchidan olib qo‘yishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Sust ta’qib – hujumchining darvozani ishg‘ol qilish uchun qulay pozitsiyani egallashga to‘sqinlik qilish uchun qaratilgan himoyachi harakatlari. Bu ta’qib turi zonali himoyaga xosdir. Himoyachi to‘p uzatishlarni, o‘yinchilar harakatini va ta’qib etayotgan o‘yinchining harakatlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun darvoza maydonida joylashadi.

Faol ta’qib – bu ta’qib etilayotgan o‘yinchining to‘pni qabul qilishiga to‘sqinlik qilish uchun qaratilgan himoyachi harakatlari. Himoyachi o‘zining ta’qib etayotgan hujumchisiga yaqin masofada joylashadi va sherigidan to‘pni qabul qilishiga to‘sqinlik qiladi. Agar ta’qib etilayotgan hujumchi maydonning uzoqdan to‘p otadigan joyida joylashgan bo‘lsa (49- a rasm),



49-rasm. To‘psiz hujumchini taqib qilayotgan humoyachining joylashishi: a) darvozabon maydonidan bir qancha masofada; b) darvozabon maydoni chizig‘ida

himoyachi o‘zining ta’qiblanayotgan hujumchisining hujum chizig‘idan biroz chetroqda joylashadi. Agar ta’qiblanayotgan o‘yinchi 6 metrli maydonda bo‘lsa, himoyachi to‘pli va to‘psiz bo‘lgan hujumchilar orasidan ta’qiblanayotgan hujumchiga orqasini o‘girib joy oladi (49- b rasm).

To‘pli o‘yinchini ta’qib etish. Bu himoyachining individual harakatlari bo‘lib, hujumchining darvozaga to‘pni otishiga, ketish yoki boshqa hujumchilar bilan o‘zaro harakatlarni amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish uchun qaratilgan. Himoyachi o‘zining faol ta’qibi orqali har doim ham hujumchining to‘pni muvaffaqiyatli qabul qilib olishiga to‘sqinlik qila olmaydi. Agar ta’qiblanayotgan o‘yinchi to‘pni qabul eta olgan bo‘lsa va himoyachidan ma’lum masofada bo‘lsa, u holda himoyachi darvozaga to‘p otishning oldini olish uchun va hujumchilarning o‘zaro harakatlarini chegaralash uchun unga tezlik bilan yaqinlashib olishi kerak. Bu harakat chiqish deb ataladi. Chiqishni hujumchining to‘pni qabul qilishida amalga oshirish lozim, chunki aldovchi harakatlar imkoniyati bu holatda ancha kamayadi. Himoyachi chiqish bilan birga, odatda, to‘pga va o‘yinchiga to‘siq qo‘yishni amalga oshiradi. Agar himoyachining chiqishi muvaffaqiyatsiz kechsa va hujumchi to‘pni qabul qilib, himoyachidan o‘zining keyingi harakatlari tayyorgarligida ilgarilab ketsa, himoyachi tezlik bilan 1,5–2 metr masofaga orqaga chekinadi. Uning keyingi harakatlari ta’qiblanayotgan hujumchi harakatlari bilan belgilanadi. Agar hujumchi ketishni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, himoyachi to‘pni olib qo‘yish maqsadida qulay vaziyatni kutish uchun chekinadi. Bu harakatni maydonning uzoqdan to‘p otadigan joyida amalga oshirish mumkin. Maydonning yaqindan to‘p otadigan joyida chekinishni amalga oshirgach, o‘zinig qarshi harakat qobiliyatini tiklaydi va kurashda faol qatnashadi.

To‘pni tutib olish. To‘pni tutib olish uchun himoyachi to‘pning uchish yo‘nalishini, uning tezligini aniqlab olishi va to‘pni egallab olish uchun qulay pozitsiyani tanlashi kerak. To‘pni tutib olish muvaffaqiyatli bajarilganligi jamoadoshlar uchun tezkor hujumga

otlanishga ishora hisoblanadi. Maydon ko'ndalangiga yo'naltirilgan to'pni tutib olish mumkin (42- rasm). Buning uchun himoyachi o'zining maqsadlarini bildirmasdan, oldindan o'zini oldinga qarab sapchishga tayyorlashi kerak. Hujumchi to'pni uzatishga qaratilgan tayyorlov harakatlarini amalga oshirgach va to'p yo'nalishini o'zgartirib bo'lmaydigan paytda, himoyachi tezlik bilan to'p uzatilish chizig'ini egallaydi. To'pni qabul qilayotgan o'yinchi tomon harakatlanish kerak. Agar to'pni tutib olish muvaffaqiyatsiz kechsa, himoyachi to'pni qabul qilgan o'yinchining yonida bo'lganligi uchun unga to'siq qo'yadi. Bundan tashqari, to'pni qabul qilish davridagi himoyachining tezkor yaqinlashishi hujumchi mo'ljalini buzib, to'pni berkitishga undaydi. Uzatilgan to'pni tutib olishni hujumchining orqasidan chiqqan holatda amalga oshirish mumkin (ayniqsa, u to'pga qarshi chiqmasa). Bu yerda eng asosiysi o'zining niyatlarini bildirmaslik va hujumchidan o'zish uchun tezlik bilan harakatlanish.

Aldovchi harakatlar (fintlar) himoyachining shaxsiy harakatlari bo'lib, hujumchini muayyan javob harakatlariga undaydi.

Harakatlanishdagi aldovchi harakatlar (fintlar):

1) hujumchini maydonning bir tomoniga yo'naltirish uchun himoyachi bir tarafga suriladi, ochiq maydonni ko'rgan hujumchi maydonning shu qismiga otlanadi, himoyachi bu holatda uni gavdasi bilan to'sib, harakat qilishga qo'ymaydi;

2) hujumchining shoshilinch harakatlarini keltirib chiqarish uchun himoyachi unga tashlanadi va hujumni namoyish qiladi, odatda, hujumchi to'pdan qutulishga yoki to'pni yerga urib olib ketishga harakat qiladi. Ammo himoyachi kerakli masofani saqlagan holda to'xtab, qarshi harakat qilishga tayyorlanadi;

3) ikki hujumchi orasida qolgan himoyachi to'pli hujumchiga tashlanadi. To'pli hujumchining to'pni yerga urib olib yurishini to'xtatib, tezda uning to'psiz bo'lgan sherigini ta'qib ostiga oladi. Bu holatda to'pli o'yinchi to'pni darvozaga joyidan otishga yoki to'pni yo'qotishga majbur bo'ladi.

To'siq qo'yishdagi aldovchi harakatlar quyidagicha amalga oshiriladi: himoyachi oldindan hujumchining to'pni otishiga qulay

bo‘lgan bo‘shliqni berkitadi. Bu bilan hujumchiga qulay bo‘lmagan to‘p otish usullarini qo‘llashga majbur etib, to‘p yo‘nalishini oldindan aniqlab oladi va to‘pga to‘siq qo‘yadi.

Guruh harakatlari

Himoyadagi guruh harakatlari – ikki yoki uch o‘yinchinig ayrim o‘yin holatlarida hujumchilarga qarshi kurashda bir-biriga yuqori darajadagi ko‘mak berishga qaratilgan o‘zaro harakatlaridir. Guruh harakatlari quyidagilardan iborat:

1) yordam qilish (podstraxovka);
2) o‘tish (perekluchеniye);
3) bekinib kirish (proskalzivaniye);
4) o‘yinchilarni taqsimlab olish (razbor igrokov).

Yordam qilish. Bu guruh harakatlari turida har bir himoyachi doim o‘zining jamoadoshiga yordam berib, ta’qibdan xalos bo‘lgan hujumchini ta’qib ostiga oladi va unga qarshilik ko‘rsatadi. Bu usul ta’qib etishda va to‘siq qo‘yishda qo‘llaniladi.

Ta’qib paytidagi yordam qilish usulida o‘yinchilar zonali himoyalanish paytida hujumchi bilan yakka kurash olib borish uchun chiqqan sherigining zonasini berkitish uchun to‘p bo‘lgan tarafga siljib boradi.

Agar bir himoyachi hujumchini muvaffaqiyatli ta’qib qilolmasa, boshqa jamoadoshi ham bu hujumchiga qarshi harakatlarni amalga oshiradi. Yordam qiluvchi himoyachi hujumchini ta’qibchi tomonga chekintirishi lozim.

To‘siq qo‘yishdagi yordam qilish harakatlari shundan iboratki, yordam qiluvchi himoyachi ta’qib etuvchining harakatlarini takrorlamaydi, balki u to‘siq qo‘yadigan maydon bo‘shlig‘ini qamrab oladi. Agar jamoadoshlar yonma-yon turgan bo‘lsa, ular o‘z qo‘llari bilan devor tashkil etishlari lozim. Agarda jamoadoshlar ketma-ket joylashgan bo‘lsa, oldindagi himoyachi yuqoridan, orqadagi

himoyachi esa yon yoki past tarafdan to‘siq qo‘yishni amalga oshiradi.


O‘tish – bu himoyachilarning o‘z ta’qiblanuvchi hujumchilarini almashtirishda qo‘llaniladigan guruh harakatlari turidir.

O‘tish hujumchilarning qarama-qarshi yoki kesishgan harakatlarnishlarida qo‘llanishi mumkin. Bu holda ta’qiblanuvchi hujumchilarning almashtirilishi ularning bir-biriga yaqin kelib qolgan paytida amalga oshiriladi (50- a rasm).


O‘tishni hujumchi darvoza maydoni bo‘ylab harakatlanayotgan holda ham amalga oshirish mumkin (50- b rasm). Bunda ta’qib etuvchi himoyachi uni o‘zining eng yaqin sherigigacha kuzatib boradi va o‘yinchini unga topshiradi. Hujumchi boshqa himoyachi ta’qibi ostiga o‘tadi. 51- a rasmda yarim o‘rta o‘yinchini ta’qib qilishda o‘tishning bir varianti ko‘rsatilgan. O‘tish to‘siq qo‘yishda ham amalga oshiriladi (51- b rasm).

3- raqamli himoyachi to‘siq qo‘yuvchi hujumchiga, 2- raqamli himoyachi esa 4- raqamli to‘pli hujumchiga o‘tadi. To‘pli o‘yinchining ta’qib etish paytida o‘tishni qo‘llashi mumkin emas. To‘pli hujumchi to‘pni boshqa jamoadoshiga oshirmagunga qadar ta’qib etiladi.

Hujumchidan tezroq harakatlanayotgan himoyachiga ham o‘tishni amalga oshirish mumkin emas.



50-rasm. O‘tish:
a) almashib; b) kuzatib.



51-rasm. O‘tish:
a) yarim o‘rta o‘yinchini taqib qilishda; b) to‘siq paytida.


Bekinib kirish. Bu guruh harakatlari turi ta'qib davrida himoyachilarga bir-birlarining orasida ro'y berishi mumkin bo'lgan to'siqlar va to'qnashuvlarning oldini olishga imkon beradi. Ko'pincha bu o'zaro harakatlar shaxsiy va aralash himoyada qo'llaniladi. To'pli o'yinchini ta'qib qilish paytidagi bekinib kirishning bir varianti 52- a rasmda ko'rsatilgan. 4- raqamli hujumchi to'pni yerga urib olib yurib, o'zining 2- raqamli ta'qib qiluvchisini uning 3- raqamli jamoadoshiga ro'para qiladi. To'qnashishning olidini olish uchun 2- raqamli himoyachi o'zining ta'qiblanuvchisiga imkoniyat boricha yaqinlashadi, 3- raqamli himoyachi esa orqa tarafga chekinadi. 2- raqamli o'yinchi va 4- raqamli o'yinchi o'tib ketishi bilan, 3- raqamli himoyachi yana o'zining ta'qibi ostidagi 5- raqamli hujumchiga nisbatan kerakli pozitsiyani egallaydi.

Boshqa variantda esa (52- b rasm) 2- raqamli hujumchi 4- raqamli himoyachini o'zining hujumdagi 3- raqamdagi sherigiga ro'para qilishga harakat qiladi. Bu holda 4- raqamli himoyachi o'zining 5- raqamli jamoadoshi va 3- raqamli hujumchi orasidan bekinib kiradi. Ta'qib etuvchi o'yinchining 5- raqamdagi jamoadoshi esa bo'sh joyni hosil qilish maqsadida orqaga chekinadi. Bekinib kirishni qo'llab o'tishda imtiyoz quyidagilarga beriladi:

1) to'pli hujumchini ta'qib etayotgan sherigiga;

2) to'p tomon harakatlanayotgan sherigiga;

3) aralash himoyadagi shaxsiy ta'qib etuvchi o'yinchiga.



52- rasm. Bekinib kirish

O'yinchilarni taqsimlab olish. Bu guruh harakatlari turida himoyachilar bir vaqtning o'zida bir necha hujumchini faol ta'qib ostiga oladi. Bu o'zaro harakatlar to'pli o'yinchini "3 soniya", "to'p bilan uch qadam" qoidalarini buzishga yoki to'pni rejalashtirilmagan tomonga yo'llashga majbur qilish uchun qaratilgan.

O'yinchilarni taqsimlab olishni amalga oshirish vaqtini to'g'ri tanlay olish juda muhim. Agar himoyachi hujumchini oldindan faol ta'qib etishni boshlasa, hujumchi boshqacha qaror qabul qilishi mumkin.

O'yinchilar taqsimotini quyidagi paytlarda o'tkazish kerak:

1) to'pli hujumchi to'pni yerga urib olib yurib va ilgandan so'ng uchinchi qadamni tashlab, to'pni uzatishga tayyorlanayotgan bo'lsa;

2) agar to'pni o'yinga kiritishga xushtak chalingan bo'lsa;

3) agar hujumchi sakrab to'pni uzatmoqchi bo'lsa.

Jamoa harakatlari

Himoyadagi jamoa harakatlari quydagi uch turga bo'linadi:

1) shaxsiy himoya;

2) zonali himoya;

3) aralash himoya.

Darvoza himoyasiga yo'naltirilgan har xil turdagi harakatlarning mohirlik bilan qo'llanilishi g'alaba uchun kurashda ustunlik beradi.

Shaxsiy himoya. Bu jamoa harakatlari turida har bir himoyachi o'z hujumchisini ta'qib etadi. Bu himoya turida to'pni uzatish va darvozaga otish qiyinlashadi, chunki har bir o'yinchi ta'qib ostida bo'ladi. O'yinchilarni taqsimlab olish quyidagicha amalga oshiriladi:

1) murabbiy har bir hujumchini uning mahorati va tajribasiga ko'ra taqsimlaydi;

2) tezkor hujumchilarni chaqqon himoyachilar ta'qib ostiga oladi;

3) himoyachilar o'zlariga yaqin bo'lgan hujumchilarni taqsimlab olishadi.

Bu usulning ikkinchi varianti faqat barcha o'yinchilarning

himoya harakatlariga bir xil tayyorgarlikka ega bo‘lgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsiy himoya quyidagi ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

1) himoyachilarning o‘tishi bilan;

2) himoyachilarning o‘tishisiz.

O‘tish bilan bo‘lgan shaxsiy himoyani o‘yinchilari o‘ta harakatchan bo‘lgan jamoa qo‘llashi mumkin. O‘tishsiz himoyada himoyachilarning yuqori darajadagi ish qobiliyati va taktik mahorati vaziyatlarni oldindan payqamoq uchun kerak.

Shaxsiy himoya butun maydon bo‘ylab yoki o‘z maydonida quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

1) agar raqib jamoasidan bir o‘yinchi o‘yindan chetlatilgan bo‘lsa;

2) agar raqib jamosiga qulay bo‘lgan taktikani buzish kerak bo‘lsa;

3) agar raqib jamoasi jismoniy va texnik jihatdan kuchsiz bo‘lsa;


4) agar to‘pni tezlik bilan egallash kerak bo‘lsa.

Zonali himoya. Bu jamoa harakatlari turida har bir himoyachi o‘yinchilarning harakatlanish tizimida muayyan vazifalarni bajaradi va shu tizimning muayyan bir qismi uchun javobgarlikni oladi. Zonali himoyada o‘yinchilarning harakatlanishi raqibning joylashishi va hujumning yo‘nalishiga qarab amalga oshiriladi. Himoyada o‘yinchilar joylashishining bir necha variantlari mavjud. Shulardan, asosan, beshtasi zonada joylashishga harakat qiladi: burchaklarda, markazda va ikkitasi – ularning orasida. Bunday holda birdan uchgacha mudofaa chizig‘ini tashkil qilishi mumkin. Eng baland bo‘yli himoyachilar o‘rtada, qolganlari esa birin-ketin burchak tarafga joylashadi.

Zonali himoya qilish tizimlari qatoriga quyidagilar kiradi: 6:0; 5:1; 4:2; 3:3; 2:4.

6:0 himoya tizimi. Barcha himoyachilar darvoza maydoni bo‘ylab joylashadi. Bu boshlang‘ich saflanishdir. Himoya harakatlarini quyidagi usullarda amalga oshirish mumkin:

1) himoyachilar darvozabon maydonida joylashib, faqatgina to‘p yo‘nalishiga qarab siljishadi. Bu himoya chiqishsiz amalga oshiriladi. Bu usulni uzoq masofadan to‘p otishni amalga oshira olmaydigan jamoalarga qarshi qo‘llash mumkin. Bunda barcha himoyachilar to‘pga to‘siq qo‘yishni bilishlari shart;



53- rasm. 6:0 himoya tizimi

2) chiqib himoya qilish. Agar bir hujumchi yaqin to‘p otishlar zonasi yaqinida to‘pni qabul qilsa, uning qarshisida joylashgan himoyachi oldinga chiqib uni ta’qib qiladi va to‘pni to‘sishga, urib chiqarishga, olib qo‘yishga harakat qiladi (53- rasm). Hosil bo‘lgan bo‘shliqni esa himoyachidan chap yoki o‘ng tarafda joylashgan jamoadoshlari nazorat qiladi. Hujumchini to‘pdan qutulishga majbur etgan himoyachi yana joyiga qaytib keladi.

Chiziqqa qaytib kelishning ikki usuli bor:


1) himoyachi o‘z o‘rniga qaytib keladi va doimiy ravishda o‘zining aniq jamoadoshlari o‘rtasida bo‘ladi;

2) hujumchini ta’qib qilish uchun uzoq masofaga chiqqan himoyachi o‘zining o‘rniga eng qisqa yo‘l bilan qaytib keladi.


Bu usulning ikkinchi varianti ilg‘or hisoblanadi, lekin himoyachilarning barchasidan har qanday vaziyatda himoya harakatlarini olib borish uchun yuqori darajadagi mahorat talab etiladi.

6:0 usuli keng maydonda harakat qiladigan va yaxshi qanot o‘yinchilarga ega bo‘lgan jamoalarga qarshi qo‘llaniladi.

5:1 himoya tizimi. Bu tizimda 5 himoyachi 6 metrli chiziq bo‘ylab joylashadi, bir o‘yinchi esa ular oldida 9 metrli chiziqdan o‘rin oladi (54- rasm). Oldinda joylashgan o‘yinchi vazifasiga raqib hujumchining to‘p bilan erkin harakat qilishiga qo‘ymaslik va markaziy pozitsiyadan darvozaga to‘p otishiga to‘siqinlik qi-



54- rasm. 5:1 himoya tizimi



55- rasm. 4:2 himoya tizimi


lish kiradi. Bu o'yinchi chaqqon, serg'ayrat, tolmas va kat'iyatli bo'lishi kerak. Qolgan o'yinchilar 6:0 himoya tizimi tamoyiliga ko'ra oldinga chiqmasdan harakat qiladilar.

4:2 himoya tizimi. Bu tizimda 4 o'yinchi 6 metrli chiziq bo'ylab, ikki o'yinchi esa oldinda – 9 metrli chiziqda joylashadi (55-rasm). Oldinda joylashgan himoyachilar juda harakatchan to'pga va o'yinchilarga to'siq qo'yish usullarini to'la egallagan bo'lishi lozim. Bu ikki o'yinchining asosiy vazifasi raqib hujumchilarning markazdan yorib kirishini va uzoq masofadan to'p otishlarining oldini olishdan iborat.


Bu himoya tizimi ikkita kuchli, ammo harakatchan bo'lmagan hujumchilarga ega bo'lgan jamoalarga qarshi qo'llaniladi.

3:3 himoya tizimi. Bu tizim ikki himoya chizig'idan iborat bo'lib, har bir chiziqda uchtadan o'yinchi o'rin olgan bo'ladi. Birinchi uchlik 6 metrli chiziqdan, boshqasi esa 9 metrli chiziqdan o'rin oladi (56- rasm). O'yinchilarning asosiy vazifasi markaziy va yarim o'rta pozitsiyadan amalga oshiriladigan to'p otishlarning oldini olish. Ikki chiziqdagi o'yinchilar va darvozabonning o'zaro muvaffaqiyatli harakatlari darvozani mustahkam bekitadi.

7- raqamli himoyachi 10- raqamdagi to'pli o'yinchiga hujum qilsa, (57- rasm) uning jamoadoshlari to'p tomon siljishadi. 6- raqamli himoyachi markaziy hujumchini ta'qib etadi, 3- raqamli o'yinchi chiziqdagi hujumchini faol ta'qib qiladi, 5- raqamdagi himoyachi



56- rasm. 3:3 himoya tizimi




57- rasm. 3:3 himoya tizimi


esa darvoza maydoni chizig'ida xavfsizlikni ta'minlash uchun orqaga chekinadi. To'p 8- raqamdagi hujumchiga oshirilganda, unga qarshi 5- raqamdagi himoyachi yakka kurashga chiqadi, 7- raqamli himoyachi esa orqaga chekinadi.

3:3 himoya tizimida 5-, 6-, 7- raqamdagi o'yinchilar hujumchilarning markaziy pozitsiyalardan to'p otishiga imkoniyat bermasligi va o'z sheriklari bilan o'zaro erkin harakat qilishlari kerak. Qanotdagi himoyachilarning vazifasi ham shu. Shu sababdan 3:3 tizimida qanotlarda himoya juda zaif bo'ladi.

2:4 himoya tizimi. Bu himoya tizimida to'rt o'yinchi oldindan va ikki himoyachi darvoza maydoni chizig'idan o'rin oladi (58- rasm). Oldindagi o'yinchilar hujumchilarni faol qarshi olib,



58 rasm. 2:4 himoya harakati sxemasi



59- rasm. 2:4 himoya tizimi

ularning o‘zaro harakatlarini qiyinlashtiradi. Agar to‘p qanotdagi hujumchilarning biriga uzatilsa (4), qarama-qarshi tarafdagi himoyachi (7) orqaga chekinadi va qolgan himoyachilar bilan to‘p tomon siljiydi (59- rasm). To‘p himoyachi tomonga uzatilishi bilan, u (7) to‘pli hujumchiga qarshi faol kurashadi. Bu himoya tizimi o‘yinchilar yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgandagina qo‘llanishi mumkin. 2:4 himoya tizimi ayrim hollarda qo‘llaniladi: to‘pni tutib olish uchun, hujum qatorlari orasidagi aloqani buzish uchun.

Aralash himoya jamoa himoya turi bo‘lib, bunda o‘yinchilarning bir qismi zonali himoyada, bir qismi esa hujumchilarni yakka tartibda ta’qib qilgan holda o‘yin yuritishadi. Shaxsiy ta’qib ostiga faqat ayrim raqib o‘yinchilari olinadi, chunki ularga nisbatan zonali himoyani qo‘llash etarli emas. Odatda, yakka tartibdagi ta’qib ostida kuchli va tajribali o‘yinchilar, hujumni tashkil etadigan ikkinchi hujum qatoridagi o‘yinchilar bo‘ladi. Aralash himoya tizimi ba’zi o‘yinchilarni hujumdan chetlatish va raqibning ishlab chiqqan hujum tizimini buzish uchun qaratiladi.

Aralash himoya tizimini o‘yinchilarning o‘zaro harakatlariga ko‘ra va ta’qibchilarning soniga ko‘ra 2 turda tashkil qilish mumkin.

5+1 himoya tizimi. Bu himoya tizimida besh o‘yinchi zonali himoyani 5:0 tizimida amalga oshiradi. Oltinchi himoyachi eng xavfli hujumchini faol holda ta’qib qiladi va uni o‘yindan butunlay chetlatishga harakat qiladi. Ba’zida ta’qib o‘z maydonining yarmida, ba’zida hujumchiga qulay bo‘lgan pozitsiyalarda ham amalga oshiriladi. Agar uzoq masofadan to‘p otishlarni amalga oshiradigan o‘yinchi qanotdagi pozitsiyadan o‘rin olgan bo‘lsa, yakka tartibda ta’qib ostiga 2- qatordagi hujumchini olish mumkin. Bunday almashtirish qo‘llanganda raqibning hujum tizimi buzilgan bo‘ladi va raqib qulay bo‘lmagan vaziyatda harakat qilishga majbur bo‘ladi.

4+2 himoya tizimi. Bu himoya tizimi raqib jamoasida uzoq masofalardan hujum qilish vositalarini puxta egallagan o‘yinchilar

bo'lganda qo'llaniladi. Bunda to'rt himoyachi zonali himoyada (4:0), ikkitasi esa doimiy ravishda eng xavfli hujumchilarni ta'qib qilishni amalga oshiradi.

Aralash himoya tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilarga ega bo'lish lozim:


1) shaxsiy ta'qib uchun tajribali himoyachilar. Ular nafaqat ta'qibda, balki imkoniyat darajasida boshqa jamoadoshlari bilan o'zaro harakatlarda ham qatnashishlari kerak;

2) zonali himoyani amalga oshiradigan o'yinchilar. Yakka tartibda ta'qib qilayotganlarga har tomonlama yordam berib, zaruriy hollarda xavfli hujumchiga qarshi harakatlar olib borishlari mumkin.

Himoyadagi jamoa harakatlarining taktika tamoyillari

1. Almashish tamoyili. Bu tamoyil to'p raqib jamoasiga o'tgandan so'ng, darhol hujumdan himoyaga o'tishni ko'zda tutadi. Himoyachilar tezlik bilan ta'qib etish harakatlarini boshlashadi. Ular ta'qib ostiga o'zlariga eng yaqin masofada joylashgan hujumchini olishadi. Agar himoyachi yaqinida biror-bir hujumchi bo'lmasa, himoyachi darhol o'zining himoya maydoniga qaytishi lozim. Bu holda himoyachi ixtiyoriy ravishda darvozaga tahdid qulayotgan hujumchini ta'qib ostiga olishi kerak (hujumchi bu himoyachining pozitsiyasida harakatlanmayotgan bo'lsa ham). Ushbu muayyan pozitsiyaga javobgar himoyachi bu hujumchiga o'tgandan so'ng, himoyachi o'zining tizimidagi o'rnini olishi mumkin.

2. Son jihatdan ustunlikka erishish tamoyili. Bu tamoyil shundan iboratki, tahdid solayotgan to'pli o'yinchi zonasida doim himoya "devori" bo'lishi kerak. Yuqori tezlikdagi harakatlanishlar hisobiga darvoza ishg'ol bo'lish imkoniyati bor bo'lgan pozitsiyada himoyachilar son jihatdan ustunlikni keltirib chiqarishlari



60- rasm. Darvozaning shartli zonalari

zam to'rtburchaklarga bo'lib olamiz (60- rasm). Pastdagi to'rtburchaklar yo'nalishidagi to'plarni pastki deb nomlaymiz. Ikki keyingisi – o'rta, tepa qismidagisini esa yuqori deb nomlaymiz. 1- to'rtburchak yo'nalishiga otilgan to'plarni uzoq to'plar, 2- to'rtburchak yo'nalishidagi to'plarni o'rta va 3- to'rtburchak yo'nlishidagilarni esa yaqin to'plar deb ataymiz.

Agar past to'p 1- to'rtburchak yo'nalishida otilsa, darvozabon bir oyog'i bilan "shpagat" usulini va oldinga qarshi chiqishni amalga oshirib to'pni qaytaradi.

Agarda 2- to'rtburchak yo'nalishida otilsa, sirpanish (max) va oldinga qarshi chiqish (vipad)ni amalga oshiradi.


3- to'rtburchak yo'nalishida bo'lsa, bir yoki ikki oyog'ibilan qarshi chiqishni amalga oshiradi.

Agar o'rta to'p 1- to'rtburchak yo'nalishida uchayotgan bo'lsa, bunda darvozabon 3- zonaga qadam qo'yib, bir qo'li bilan to'pni ushlab qoladi. Agar uchinchi turtburchakga yo'nalgan bo'lsa, qo'l bilan, oyoq sirpanishi (max nogi) va son bilan to'pni ushlab qoladi.

Agar yuqori to'p 1 – yoki 2- to'rtburchaklarga yo'naltirilgan bo'lsa, darvozabon sakrab turib bir qo'li bilan to'pni to'xtatib qoladi. Agar 3- to'rtburchakka yo'naltirilgan bo'lsa, ikki qo'li bilan to'xtatib qoladi.

Darvozabonning pozitsiyani to'g'ri tanlab olishi uning hujumchiga qarshi olib borgan kurashining natijasini belgilaydi. Pozitsiyani tanlab olish to'pli hujumchining qayerdaliliga bog'liq bo'ladi. Pozitsiyani to'g'ri tanlab olishda darvozabonning ikki darvoza shtangasini tutashtiruvchi yarimyoy bo'ylab harakatlanishi to'g'ri deb hisoblanadi. Bu yarimyoyning darvoza chizig'idan uzoqligi 20 sm dan 1 m gacha bo'ladi. Agar to'p otish 300 dan kam bo'lgan burchak ostida amalga oshirilsa, darvozabon shtanga yonidan 40 – 50 sm masofadagi maydon ichkarisidan o'rin

oladi (61- rasm). To‘pning maydon yuza chizig‘idan markazga qarab uzoqlashish yo‘nalishiga ko‘ra, darvozabon hujumchining hujum chizig‘iga qarab yarim yoy shaklida harakat qilib pozitsiya tanlaydi.



61- rasm. Darvozada pozitsiyani tanlash

Buning uchun unga yon tarafiga 1 – 2 qadam qo‘yish yetarli. To‘p maydon markazida bo‘lib qolsa, darvozabon darvoza markazida joylashadi.

Darvozabonning darvoza maydonida egallagan pozitsiyasi ham juda muhim.


Darvozabon uchun markaziy zona chizig‘idan otilgan to‘plar juda murakkab hisoblanadi, chunki bu yerda hujumchi uchun to‘p otishning yo‘nalishini tanlash uchun katta imkoniyatlar bo‘ladi.

Bu holatda darvozabon darvozadan ancha oldindan pozitsiya tanlaydi.

To‘pning yo‘nalish burchagini kamaytirish uchun u oldinga dadil chiqishi kerak. Darvozabon bu harakati bilan to‘p darvozaga kirmasligi uchun to‘sish kerak bo‘lgan bo‘shliqni kamaytiradi.

Darvozabon uchun bu taktik harakatning qiyinligi – to‘g‘ri chiqish fursatini aniqlashdadir. Hujumchining to‘p otishidan oldin uning ro‘parasiga chiqib tayyorgarlik holatiga turishi juda muhim. Ba’zan hujumchi to‘p yo‘nalishini o‘zgartirishga imkoniyati bo‘lmagan paytda bu usulni amalga oshirish kerak, bu samarali bo‘ladi, chunki darvozabonning chiqishi hujumchi uchun kutulmagan hol bo‘ladi. Bu usulni to‘satdan amalga oshirish lozim, chunki hujumchi to‘pni darvozabon ustidan darvozaga yo‘naltirishi mumkin va darvozabon bu holatda yakka kurashni yutqazadi.

Uzoq masofadan otilgan to‘plarning otish burchagini ham to‘pga qarshi chiqish bilan kamaytirish mumkin (62- rasm). Buning uchun darvozabon hujumchining to‘pni otmoqchi bo‘lgan qo‘lini va to‘pni nazaridan qochirmasligi lozim.



62- rasm. Darvozabon zonasida pozitsiyani tanlash

To‘pning harakatlanish yo‘nalishini aniqlab olish uchun quyidagilarni e’tiborga olish kerak:

1) to‘p qaysi masofadan otilyapti;

2) to‘p otilishi qaysi usul bilan bajarilyapti;

3) himoyachilarning maydondagi joylashishi va harakatlari;

4) hujumchining to‘pni otishdagi o‘ziga xos xususiyatlari.

Aldovchi harakatlar (fintlar). Bu individual taktik harakatlar bo‘lib, hujumchini darvozaning muayyan bir qismiga muayyan bir usulni ishlatib to‘p otishni amalga oshirishga majbur etadi, undaydi. Darvozabonning aldovchi harakatlarini quyidagi 3 turga bo‘lishimiz mumkin:

1) pozitsiyani tanlashdagi aldovchi harakatlar;

2) darvozabonning turish holatida bajariladigan aldovchi harakatlar;

3) joyini o‘zgartirib bajariladigan aldovchi harakatlar.

Pozitsiyani tanlashdagi aldovchi harakatar:

1) darvozabon darvoza oldidan 2 – 3 metr masofada joy olib, hujumchini darvozaga balandlatib to‘pni otishga majbur etadi;

2) darvozabon hujumchining hujum chizig‘idan bir tomonga siljib, hujumchiga darvozaning ochiq bo‘lgan qismiga to‘p yo‘naltirishni taklif etadi.

Darvozabonning turish holatida bajariladigan aldovchi harakatlar:

1) oyoqlarni bukib, oldinga engashib, darvoza tepa qismini ochish;

2) qo‘llarni tushirgan holatda darvoza tepa qismini ochish;

3) oyoqlarni tik tutib, qo‘llarni yuqoriga ko‘targan holatda hujumchiga darvozaning past qismiga to‘pni yo‘llashni taklif etish;

4) oyoqlarni keng qo'ygan holatda (to'pni oyoqlar orasidan otishni taklif etish).

Joyini o'zgartirib bajariladigan aldovchi harakatlar:

1) oldinga sapchib yugurish va bu bilan hujumchini tepadan to'pni otishga undash.

2) gavda va boshni bir yon tarafga engashtirib, shu tarafga harakatlanishni ko'rsatish;

3) gavda og'irligini bir oyoqqa o'tkazib, shu tayanch oyogi tarafga to'pni yo'naltirishga undash.

4) oyoq bilan harakatni bir tomonga boshlab, keyin esa tezda tayanch oyoqda harakat namoyish etilgan tomonga sakrash.

Darvozabon quyidagilarni etiborga olishi lozim:

1) turli aldovchi harakatlarni qo'llashi;

2) aldovchi harakatlarni yuqori tezlikda bajarishni;

3) raqiblarni yaxshi o'rganib chiqishi va ba'zi raqib o'yinchilarini ishontiruvchi aldovchi harakatlarni qo'llashi;

4) aldovchi harakatlar tabiiy bo'lib ko'rinishi.

Jamoa harakatlari

Darvozabon darvozaning ishg'ol bo'lishining oldini olishi mumkin bo'lgan eng so'nggi o'yinchi hisoblanadi. Uning individual harakatlari ba'zan o'yinning natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamoa harakatlari yanada muvaffaqiyatli bo'lishi uchun darvozabon va himoyachi harakatlari o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. Agarda bir himoyachi qanotdagi to'pli hujumchini ta'qib ostiga olsa, darvozabon ivirsimasligi kerak. Bunda uning asosiy vazifasi darvoza shtangasi oldida joyni egallab, yaqin bo'lgan yon burchaklarni faol to'sishi kerak. Bunday vaziyatda himoyachi hujumchini maydonning yuza chizig'iga qarab chekintiradi va uning darvozaning yaqin qismiga qaraganda, uzoq qismiga to'pni otishi murakkablashadi. Barcha holatlarda himoyachi to'p otayotgan hujumchi bilan kurashayotganda, darvozabon vazmin bo'lishi kerak.

Agarda darvozabon kurash olib borilayotgan joyga yaqinlashsa, to'p kutilmagan yo'nalishdan darvozaga kiritilishi mumkin, chunki hujumchi xohlagan usulda to'pni darvozaga yo'naltirishi mumkin.

Agar darvozabon tezlik bilan har tarafga harakatlanayotgan bo'lsa, himoyachining qo'liga urilib qaytgan to'pni qaytarishi qiyin bo'ladi.

Harakatli devor hosil qilinganda, to'p o'zining yo'nalishini darvozabon o'z o'rnidan siljigan paytda o'zgartirishi mumkin. Harakatsiz devor hosil qilinganda, himoyachilar bilan kelishib, darvozabon darvozaning uzoq qismini, himoyachilar esa yaqin qismini berkitishadi. Bu holda ham darvozabon o'zining jamoadoshlariga yordam qilishi lozim. 9 metrli erkin to'p otishni amalga oshirishda darvozabon "devor" qo'yishni uyushtiradi.

O'yin davomida darvozabon o'yinchilarning harakatini doimiy ravishda boshqarmasligi kerak. Bu ko'rsatmalar vaqti-vaqti bilan bo'lishi mumkin.

Birinchidan, himoyachilar o'zlarining taktik rejalarini o'yin davomida qo'llashadi va darvozabonning ko'rsatmalari o'yinchilarning diqqatini chalg'itadi; ikkinchidan, o'yinchilar ko'pincha darvozabon ko'rsatmalarini eshitmaydi; uchinchidan, darvozabonning himoya o'yiniga ko'p e'tibor berishi to'satdan darvozaga to'p kirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Qarshi hujumni tashkil etishda darvozabon muhim o'rin egallaydi. Uning vazifasi to'pni qaytarib qolib, uni egallab olish. Agar to'p maydon tashqarisiga chiqib ketgan bo'lsa, darvozabon uni tezlik bilan o'z maydonidan ketishni amalga oshirgan o'yinchiga yoki darvoza maydoni yaqinidagi o'yinchiga uzatishi kerak. Odatda, darvozabon to'pni kuzatish usuli bilan uzatadi. To'pning yo'nalish trayektoriyasi har doim bir xil bo'lmasligi kerak. Agar hujumchi ta'qib ostida bo'lmasa, darvozabon unga ixtiyoriy masofaga to'pni yo'naltirishi lozim. Agarda jamoadosh hujumchi himoyachilaridan ilgarilab ketsa va ular bu hujumchini izma-iz ta'qib etayotgan bo'lsa, bu holda darvozabon to'pni hujumchi-

ning oldiga yuqoridan yo'naltirishi mumkin. To'pni tutib olmasligi uchun raqib jamoasining darvozabonini e'tibordan chiqarmaslik kerak. Jamoa hujum harakatlarini amalga oshirayotgan paytda, darvozabon yettinchi o'yinchi sifatida maydonda harakat qilishi mumkin.

Jamoa harakatlari haqida gapirar ekanmiz, yosh sportchilarda bu harakat turini shakllantirishda murabbiyning shu soha bilimdoni ekanligi katta ahamiyatga ega. Bir jamoani kamida 14 o'yinchi tashkil etadigan bo'lsa, ularning har birining o'ziga xos xarakteri, temperamenti, qolaversa, hususiyatlari mavjud. Ularning bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishlari, albatta, murabbiyga bog'liq. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalashda uning ahamiyati beqiyos.

Yosh sportchining psixologik xulqi va faoliyatini ham ta'minlashda murabbiyga katta mas'uliyat yuklanadi. Sportchining nafaqat yuqori yutuqlarga erishishini ta'minlash, balki jamiyatimiz madaniy merosini qo'llashga layoqatli, har tomonlama yetuk inson tarbiyasi ham murabbiyning eng birinchi galdagi vazifasi.

QO'L TO'PI O'YINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Sport turlaridan biri bo'lgan qo'l to'pi o'yinining serqirraligi, yosh sportchilarni tarbiyalashda uning sirli ta'siridan foydalanish usullari haqida ham so'z yuritmoqchimiz.

Yosh sportchilardagi axloqiy-irodaviy sifatlar yaqqol ko'rinadigan sharoit – bu sport musobaqasi. Sport musobaqalarida sportchining barcha qobiliyatlari va sifatlari namoyon bo'ladi. Bu esa sportchini axloqiy-irodaviy jihatdan tarbiyalash uchun butun bir real imkon. Shu asosda murabbiy hamda sportchi shaxsan o'zi irodasidagi yetishmovchiliklarni tuzatish choralarini belgilay oladi. Ma'lumki, murabbiy mashg'ulot jarayonida har bir sportchi oldiga

turli maqsad va vazifalarni qo'yadi. Ana shu maqsad va vazifalar irodaviy sifatlarni tarbiyalashning sharoiti bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy qo'l to'pi o'yini boshqa sport turlaridan o'zining tezligi va shiddatliligi bilan ajralib turadi. Bu sport turi musobaqalari emotsional tarzda bo'lib o'tishi sababli, yosh qo'l to'pi o'yinchilarini tayyorlashda buni hisobga olmaslikning iloji yo'q. O'yinchilarning katta tezlikda harakat qilishi, o'yindagi vaziyatning tezlik bilan keskin o'zgarib turishi, bu o'yinda yakka kurashning mavjudligi, o'yinchilarning harakatini diqqat bilan kuzatayotgan va ularning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harakatlaridan ta'sirlangan tomoshbinlarning qatnashishi, murabbiy tomonidan berilgan ko'rsatmalarning tez-tez o'zgarib turishi va boshqa sharoitlar natijasida qo'l to'pi o'yinida emotsional holatlar yuzaga keladi.

Shunaqa sharoitda samarali faoliyat ko'rsatish uchun mashg'ulotlar jarayonida yosh sportchilarda kerakli jismoniy va axloqiy-irodaviy sifatlar rivojlantiriladi. Shuning uchun murabbiylar o'yin tayyorgarligining ahamiyatli tomonlari bilan birgalikda, jamoa a'zolari va ularning ruhiy tayyorgarligiga jiddiyroq e'tibor qaratishlari lozim.

Jamoaning bo'lajak musobaqalarda yuqori natijalarga erishishi jamoa a'zolari bilan birgalikda, murabbiyga ham bog'liq bo'ladi. Buning uchun, avvalo, murabbiyning o'zi qo'l to'pi sohasidagi hozirgi zamon talabidagi bilimlarni egallagan bo'lishi va o'zi ham har tomonlama yosh qo'l to'pi o'yinchilariga o'rnak bo'lishi kerak. Bu – ko'p jihatdan jamoa muvaffaqiyatining garovi. Bunga misol tariqasida 2008-yilning aprel oyida Namangan shahrida 1989–1991-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida qo'l to'pi bo'yicha o'tkazilgan Respublika birinchiligi musobaqalarini ko'rsatib o'tsak, o'rinli bo'ladi. Bu musobaqalarni kuzatib tahlil qilish natijasida shuning guvohi bo'ldikki, shu sohaning yetuk mutaxassisi, qo'l to'pi bo'yicha sport ustasi Adhamjon Bo'taboyev murabbiylik qilgan Xorazm viloyati jamoasi hali yosh, yaqinda tuzilganiga qaramasdan, yaxshi qatnashib, hammani lol qoldiradigan o'yin

ko‘rsatib, kutilmagan natijalarga erishdi. Bu o‘smirlar o‘zlarining ahilligi, qo‘ygan maqsadlariga intilishlari, intizomliligi, o‘zlarini tuta bilishlari bilan qo‘l to‘pi o‘yini muhlislari yuragidan joy oldi. Yosh sportchilarda shuncha ijobiy sifatlarning namoyon bo‘lishi, albatta, murabbiy mehnatining natijasidir. Bu jamoani qisqa vaqt ichida shakllantirib shu darajaga yetkazgan jamoa murabbiyiga ko‘pchilik o‘z minnatdorligini bildirdi.

Bunday jamoani tashkil qilib, har bir o‘yinchini o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilab o‘yin paytida va o‘yindan tashqari paytlarda ham kerakli maslahatlar berib, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishning o‘zi bo‘lmaydi, albatta.

Qo‘l to‘pi sport turida bola 17 yoshga to‘lgunga qadar jismoniy, texnik-taktik va psixologik jihatdan ko‘nikma va malakalarni mukammal egallashi uchun u kamida 12 yoshdan boshlab bu sport turi bilan shug‘ullanishi kerak. Demak, bola kamida 5 yil davomida mashg‘ulotlarga muntazam ravishda qatnashib shu sport turi sirlarini o‘z murabbiyidan o‘rganishi zarur bo‘ladi. Shunday ekan, bu, o‘z navbatida, murabbiylar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi, chunki faqat to‘g‘ri rejalashtirilgan o‘quv-mashg‘ulot jarayoni va oqilona belgilangan jismoniy yuklama bilan birgalikda, u tinimsiz tarbiyaviy ishlarni ham olib borishi kerak. Bolalarning murabbiyga nisbatan bo‘lgan hurmati, ishonchi natijasida katta yutuqlarga erishish mumkin.

Bolaning intellektual rivojlanishi ham katta ahamiyatga ega, chunki o‘yin davomidagi har qanday taktik qaror – bu mushohadali fikrlash faoliyatining mevasidir. O‘yinchi o‘yin davomida qisqa vaqt ichida bir necha holatlardan birini tanlab olib, mavjud sharoitga mos bo‘lganini qo‘llashi uchun uning fikrlash qobiliyatining tezligi ham ahamiyatlidir.

Qo‘l to‘pi o‘yinchilari, odatda, ma’lum bo‘lgan va oldindan o‘rgatilgan taktik holatlarni tanlashadi. Lekin tezkor fikrlash ijodiy fikrlashningunsurlarinihamo‘zichigaoladi.Qo‘lto‘pio‘yinchisining har bir yangi o‘yin sharoiti trenirovka mashg‘ulotlaridagi yoki

oldingi musobaqalardagi o‘yin sharoitidan farq qiladi. O‘yindagi vaziyatlar takrorlanavermaydi va harakatlarni avtomatik ravishda qo‘llashga imkoniyat doimo ham bo‘lavermaydi. Ko‘pincha qo‘l to‘pi o‘yinchisining to‘g‘ri va aniq fikrlash qobiliyati yangi natijalarga olib keladi.

Qo‘l to‘pi o‘yinchilarida intellektual qobiliyatlarni takomillashtirish uchun ijodiy xususiyatlarining takomillashuviga undaydigan maxsus bilimlar tizimi kerak. Shuning uchun yosh sportchilarni tayyorlashda nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishiga katta e’tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada yosh sportchilarimizning shu sport turi bo‘yicha barcha voqealardan habardor bo‘lishlari, ma’lumotlarni qiziqib o‘rganib, tahlil qilib chiqishlari katta foyda beradi. Bu masalada ham murabbiy muhim vazifani bajaradi.

Bo‘lajak musobaqada sportchi oldiga qo‘yilgan vazifalarning muhimligi va mohiyatini tushuntirib qo‘yish ham murabbiyning vazifalaridan biri. Sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashda ijtimoiy ahamiyatga ega motivlar shaklanishining ahamiyati katta, ayniqsa, javobgarligi yuqori bo‘lgan musobaqalarning o‘rni beqiyosdir.

Sportchida o‘z imkoniyatlariga ishonch hosil qilish ko‘nikmasini murabbiy shakllantiradi. Yosh sportchilarda ishonchning mavjudligi sportchilarning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishdagi eng muhim shart sanaladi. Ishonchning yo‘qligi esa buning aksi. Sportchining o‘z imkoniyatiga ishonchi – bu o‘zining jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini anglashining yakuni. Bolalarni musobaqa paytida boshqarish ham mas’uliyatli vazifa. Murabbiy har bir o‘yinchini uning imkoniyatini hisobga olgan holda joylashtirib, o‘yin davomida ularni kerakli paytda almashtirib, zarurat bo‘lgan paytda esa tanaffus olishi, baland ohangda “ko‘rsatmalar” bergandan ko‘ra, bolalarning har biriga kerakli so‘z topib, texnik va taktik jihatdan yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun psixologik sharoit yaratib yordam berib turishi foydalidir.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Taktikaning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
2. "To'psiz o'yin" qo'llanilishini gapirib bering.
3. Darvozaga to'pni sakramasdan otish usullarini qo'llash xususiyatlarini tahlil qilib bering.
4. Yashirin to'p uzatishni qo'llash qoidalarini gapirib bering.
5. Ichki va tashqi to'sish usullarining tavsifi.
6. Har xil hujum tizimlarini tahlil qilib bering.
7. Darvozabon shaxsiy harakatlari tavsifi.
8. Har xil himoya tizimlarini tahlil qilib bering.
9. Pozitsion hujum qaysi vaziyatda qo'llaniladi?
10. Hujum taktikasi tasnifi.
11. Himoya taktikasi tasnifi.
12. Aldovchi harakatlarni qo'llash xususiyatlarini tahlil qilib bering.
13. To'pni uzatishdagi aldovchi harakatlar qaysi hollarda amalga oshiriladi?
14. To'sishlardagi muvaffaqiyatli harakatlar uchun qanday omillar muhim hisoblanadi?
15. Tezkor hujum qaysi vaziyatda va qanday amalga oshiriladi?
16. Qaysi sharoitlarda faol ta'qib qo'llaniladi?
17. Oqimli hujum tizimi o'yinchilardan nimani talab qiladi?
18. Darvozabon to'pni urib chiqarishni qachon va qaysi holatlarda qo'llaydi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахманов Ф. А., Павлов Ш. К. Технико-тактическая подготовка гандболиста в защите. Методические рекомендации. – Т., 1989

2. Абдурахманов Ф. А. Индивидуальная технико-тактическая подготовка гандболистов в нападении. Методические рекомендации. – Т., 1986

3. Абдурахманов Ф. А., Лемешков В. А., Ливицкий А. Н., Павлов Ш. К., Яроцкий А. И. Подготовка гандболистов. Учебное пособие. – Т.: 1992.

4. Akramov J. A. "Gandbol" Voris nashriyoti T., 2007

5. Goncharova O. V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. – T., 2005.

6. Изаак В. И. Набиев Т. И. Гандбол в вузе. – Т., 2005.

7. Павлов Ш, Абдурахманов Ф., Азизова Р. Гандбол. – Т., 2007.

8. Павлов Ш, Абдурахманов Ф., Акрамов Ж. Гандбол. – Т., 2005.

9. Павлов Ш., Абдурахманов Ф. Подготовка гандболистов. – Т., 2006.

10. Ривкин А. А., Сейтхалилов Э. А., Изаак В. И. Подготовка гандболиста. – Т.: "Медицина", 1985.

11. Шелягина И. Н., Абдурахманов Ф. А., Павлов Ш. К. Учебно-исследовательская работа студентов по гандболу. Методическая разработка. – Т.: Уз ГИФК, 1991.

12. Gandbol bo'yicha musobaqa qoidalari. – T.: 2006.

SHARTLI BELGILAR

● – to'p

◯ – darvozabon

◯ – himoyachi

△ – hujumchi

☾ – o'yinchilar

⟶ – o'yinchining harakatlanishi

- - ⟶ – to'pning harakatlanishi

⟿ – to'pni yerga urib olib yurish

⟶ – darvozaga otish

MUNDARIJA

Qo'l to'pi o'yinining tarixi 3
O'zbekistonda qo'l to'pi o'yininmg rivojlanishi 7
Qo'l to'pi o'yinining umumiy tasnifi 13
Qo'l to'pi o'yinchisining harakat faoliyati tasnifi 15
Qo'l to'pi o'yini texnikasining tasnifi 22
Hujum va himoya texnikasining tasniflanishi 23
Hujum o'yini texnikasi 23
Himoya o'yini texnikasi 35
Darvozabon o'yini texnikasi 38
Qo'l to'pi o'yinining texnik usullariga o'rgatish metodikasi 45
O'rgatish jarayonining tuzilishi 45
Qo'l to'pi o'yinchisining texnik tayyorgarligi bo'yicha mashqlar 46
To'pni yerga urib olib yurish bo'yicha namunaviy mashqlar 46
To'pni uzatish va qabul qilish bo'yicha namunaviy mashqlar 47
To'pni darvozaga otish bo'yicha namunaviy mashqlar 50
Darvozabon o'yini texnikasini rivojlantirish bo'yicha namunaviy mashqlar 53
Qo'l to'pi o'yini taktikasining tasnifi 54
O'yin taktikasining tasniflanishi 55
Maydon o'yinchisi taktikasi 56
Hujum taktikasi 56
Individual harakatlar 56
Guruh harakatlari 65
Jamoa harakatlari 71
Jamoa hujum harakatlari taktikasining tamoyillari 76
Himoya taktikasi 79
Individual harakatlar 80
Guruh harakatlari 84
Jamoa harakatlari 87
Himoyadagi jamoa harakatlarining taktika tamoyillari 93
Darvozabon o'yini taktikasi 94
Darvozabon himoya taktikasi. Individual harakatlar 95
Jamoa harakatlari 99
Qo'l to'pi o'yinining tarbiyaviy ahamiyati 101
Tavsiya etiladigan adabiyotlar 106

O'quv nashri

Rushen AZIZOVA

SPORT VA HARAKATLI O'YINLARNI O'QITISH METODIKASI

(Qo'l to'pi o'yini texnikasi va taktikasi)

O'quv qollanma

Muharrir *A. Irisboyev*
Badiiy muharrir *A. Xudoyberdiyev*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhih *J. Qo'nishev*
Sahifalovchi *A. Aqilov*

Bosishga 18. 09. 2010- yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $_{1/16}$. Hajmi 6.75 b. t.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 49.

"YANGI NASHR" nashriyoti

"MEDIANASHR" MCHJ bosmaxonasi
Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 1- uy.

7008,00

Немис тили фонетикаси

"Ўзбекистон"



81.2нем
Н-44

Т.А. НУРМАТОВ, Б. М. ҲУСАНХЎЖАЕВ,
Э. Х. ЖЎРАЕВ, Т. ОЧИЛОВ

НЕМИС ТИЛИ ФОНЕТИКАСИ

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги олий ўқув юртларининг талабалари учун ўқув қўлланма сифатида тавсия этган

ТОШКЕНТ — "ЎЗБЕКИСТОН" — 2002

БИБЛИОТЕКА
Бух. ТИП и ЛП
№ У/2647

81.2 Нем-1
Н 44

Тақризчилар: *Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси М. Қошғарий номидаги Тиллар институти чет тиллар кафедрасининг илмий ходими, филология фанлари номзоди, доцент* Н. С. РАҲИМОВА;
Иқтисодиёт ва дипломатия университетининг катта ўқитувчиси Ш. А. ЖАМОЛОВА.

Қўлланма Жаҳон тиллари университети ва Андижон Давлат тиллар педагогика институти услубий кенгашларида муҳокама қилинган ва маъқулланган.

ISBN 5-640-02772-8

Н $\frac{4602020103\text{-}6}{\text{М}351(04)2002}$ 2002

© "ЎЗБЕКИСТОН" нашриёти, 2002 й.

Сўз боши

Ўзбекистон Республикасининг жаҳон миқёсида обрў-эътибори ортиб, унинг бошқа мамлакатлар билан сиёсий, иқтисодий, илмий, маданий алоқалари кундан-кунга кенгайиб бораётганлиги чет тилларни ўрганишга бўлган талабни ҳам тобора кучайтирмоқда. Иқтисодиётда амалга оширилаётган ислоҳотлар, хорижий давлатлар билан дипломатик, савдо-сотиқ, сайёҳлик ва маданий алоқаларнинг ривожланиши халқ хўжалигининг ҳар қандай соҳасида банд бўлган кишидан ҳеч бўлмаганда 1—2 чет тилни билишини тақозо этмоқда.

Мазкур қўлланма республика университетлари, педагогика институтлари чет тиллар факультетларининг I—II курс талабаларига мўлжалланган. Ундан чет тилига қизиқувчилар ҳам фойдаланишлари мумкин.

Республикамизда бозор иқтисодиётига ўтилиши, хорижий мамлакатлар билан ҳамкорликда қўшма корхоналар, фирмалар, савдо ярмаркаларининг кенг миқёсда ташкил этилиши ва тижорат ишларининг йўлга қўйилиши, тадбиркор ва ишбилармонларимизнинг хорижга тез-тез бориб туришлари ҳам чет тилларни билиш билан боғлиқлиги ҳеч кимга сир эмас.

Маълумки, чет тилни яхши билиш учун шу тилнинг лексик, грамматик ҳамда фонетик тизимларини пухта ўрганиб олиш лозим бўлади.

Мазкур "Немис тили фонетикаси" қўлланмаси ана шу мақсадда яратилган бўлиб, унда шу тилни ўрганувчиларга қулайлик яратиш ниятида немис ва ўзбек тиллари фонетикасидаги ўхшашликлар, ўзига хос фарқлар ва фонетик ҳодисалар қиёслаб баён қилинади. Қўлланмадан ўрин олган унли ва ундош товушлар, бўғин, интонация, урғу ва бошқа мавзуларга оид материаллар олий ўқув юртларининг амалдаги дастури талабларига мувофиқ тарзда тур-

ли машқлар ва матнлар орқали таҳлил қилиб ёритилган. Китобдаги мавзуларни пухта ўзлаштиришда таълимнинг техникавий воситаларидан фойдаланиш ҳам назарда тутилади.

Қўлланма қўлёзмасини ўқиб чиқиб унинг ўқув сифатини яхшилашга, ўзининг қимматли маслаҳатлари билан яқиндан ёрдам берган Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси М. Кошғарий номидаги Тиллар институти чет тиллар кафедрасининг илмий ходими, филология фанлари номзоди, доцент Н. С. Раҳимовага, Мирзо Улуғбек номидаги Тошкент давлат университети профессори, филология фанлари доктори Н. Авазбоевга, шу университет доценти, филология фанлари номзоди Д. Ф. Рашидоваларга муаллифлар чуқур миннатдорчилик билдирадилар.

Муаллифлар

КИРИШ

Тил ижтимоий ҳодиса бўлиб, у кишилар ўртасидаги алоқа воситаси ҳисобланади. Тилнинг келиб чиқиши, тараққиёти, тузилиши, таркибий қисмларининг ўзаро муносабати масалаларини тилшунослик фани ўрганади. Дунёда тилларнинг ўзига хос тарихи, тақдири, жамият ҳаётида тутган ўрни бўлиб, улар келиб чиқиши, бошқа тилларга ўхшашлиги, ижтимоий моҳияти, ёзувга эга ёки эга эмаслиги ва унда сўзлашувчиларнинг сони каби белгилари билан бир-бирларидан фарқланади. Ана шундай тиллардан бўлмиш ўзбек тили бошқа туркий тиллар билан бир қаторда араб ва форс тиллари билан яқиндан муносабатда бўлиб келган. Марказий Осиё рус истилочилари томонидан босиб олингач, айниқса, 1917 йилги Октябрь тўнтаришидан сўнг ўзбек тилига рус тилидан, рус тили орқали Европа тилларидан кўплаб сўзлар кириб кела бошлади.

Ўзбек тили туркий тиллар оиласига кирганлиги учун, у шу тиллар оиласига мансуб турк, озарбайжон, қозоқ, туркман, қирғиз, олтой, қўмиқ, қорачой, болқар, қараим, гагауз каби тиллар билан фонетик, лексик, грамматик жиҳатдан бир қанча ўхшашликларга эга, масалан:

Тиллар					
озарбайжон	турк	туркман	тува	татар	ўзбек
даш	таш	даш	даш	таш	тош
дар	дар	дар	тар	тар	тор
дон	дон	дон	тон	тун	тўн

Мисолдан кўриниб турибдики, бир тил оиласига кирадиган тилларнинг фонетик, лексик ва грамматик ху-

сусиятларини таққослаб ўрганиш ҳар хил оилага мансуб бўлган тилларни қиёслаб ўрганишга қараганда анча осон.

Мазкур қўлланмада сўз юритилаётган немис тили Германия, Австрия, Швейцария, Люксембург, Лихтенштейн каби давлатларда давлат тили ҳисобланади. Бундан ташқари дунёнинг бошқа мамлакатларида ҳам немис миллатига мансуб кишилар истиқомат қиладилар.

Немис тили ҳинд-европа тиллари оиласининг герман тиллари гуруҳига киради. У ўзига хос хусусиятлари билан ўзбек тилидан кескин фарқ қилади. Шу сабабли немис тилининг фонетик, лексик, грамматик хусусиятларини ўзбек тилининг фонетик, лексик ва грамматик хусусиятлари билан таққослашга, ҳеч бўлмаганда немис тилини қисқача таърифлаб ўтишга тўғри келади. Шунинг учун ҳам немис тилини ўқитишда ўқитувчидан ҳар иккала тилни ҳар жиҳатдан яхши билиш талаб қилинади. Бундан ташқари, ўқитувчи немис тилининг намунали талаффузини ҳам яхши ўзлаштирган бўлиши билан бирга талаффуз нормаларининг ҳозирги замон немис адабий тили ривожланиши даражасидаги ўзгаришларидан ҳам хабардор бўлиши керак.

Ўқитувчи дарсда немис тилига қисқача таъриф берар экан, уни ҳинд-европа тилларининг герман тиллар гуруҳига мансублигини тушунтиришда қуйидаги мисолдан фойдаланиши мумкин. Немис тилининг бошқа герман тилларига яқинлигини, энг аввало, турли тиллардаги сўзларнинг фонетик ва лексик жиҳатдан бир-бирларига қисман ўхшашлигида кўриш мумкин, масалан:

Тиллар				
немис	инглиз	дания	швед	голланд
treibe	drive	driver	driver	drijf
liege	lie	ligger	ligger	lig

Юқорида келтирилган немис, инглиз, дания, швед, голланд тилларидаги сўзларнинг ёзилиши, айтилиши, англатган маъноларидаги яқинлик шу тилларнинг қардош

тиллар эканлигидан далолат беради. Тилларнинг кенг доирада қиёсланиши орқали ўқитувчи немис тили ўқитишда талабаларни икки тиллилик доирасида кўп тиллилик (полиглот) доирасига олиб чиқади.

Немис тилини ўқитиш талабаларнинг она тилиси бўлган ўзбек тилининг фонологик, морфологик, синтактик ва лексик тизимини илмий ўрганилишини ҳамда асосий типологик хусусиятларини очиб беришни тақозо қилади, шунинг учун ҳам ўрганилаётган немис тилининг ўзбек тили билан таққослаб ўрганилиши, уларнинг айрим тил бирликларини типологик таърифлаш мақсадга мувофиқдир.

Кўпгина кузатувлар ва тажрибалар шуни кўрсатадики, ўқувчиларнинг она тилидан олган билим ва кўникмалари немис тилини ўргатишда икки хил таъсир кўрсатади: 1) агар ҳар икки тилнинг баъзи фонетик, лексик ва грамматик хусусиятлари ўхшаш бўлса, немис тилининг шу ўхшаш хусусиятларини талабалар тез ва осон ўрганиб оладилар; 2) агар ҳар икки тилнинг фонетик, лексик, грамматик хусусиятлари ўхшаш бўлмаса, баъзи ҳолларда бу талабаларнинг умумий хатоликларга йўл қўйишларига олиб келади. Шунинг учун ҳам немис тили ўқитувчиси ўрганилаётган тил ҳамда ўзбек тилининг фонетикасини яхши билиши керак. Ана шундагина у немис тилини ўрганиш жараёнида ўқувчиларнинг аксарияти йўл қўядиган хатоликларнинг олдини олишга ва хатоларни бартараф қилишга тез орада муваффақ бўлиши мумкин.

I боб

ФОНЕТИКАНИНГ МАВЗУСИ ВА УНИНГ ВАЗИФАЛАРИ

Фонетика грекча сўз бўлиб, **"phone"** ("товушлар тўғрисидаги фан") сўзидан келиб чиққан. Фонетика нутқ фаолиятининг барча томонларини — гапириш, эшитиш, ёзиш, ўқиш ва талаффуз қилишни қамраб олади. Шу сабабли чет тилини ўрганиш аввало унинг нутқ товушлари, бўғини, урғу ва интонация каби фонетик жиҳатларини яхши ўзлаштиришдан бошланади. Нутқ аппарати, нутқ товушларининг ўзгариш қонуниятлари, уларнинг нутқ жараёнидаги вазифалари ҳам фонетиканинг мавзуси ҳисобланади. Р. Раск, Я. Грим, Э. Сиверс, Т. Зибс ва О. Эссен, У. Штетцер, Г. Г. Венглер, Л. Р. Зиндер, О. Х. Цахер, О. А. Норк, Э. Ц. Лисенко, Л. П. Блохина, Ф. Е. Вейсалов, Г. Байтерекова, Р. В. Миловидова каби олимлар томонидан чуқур таҳлил қилиб берилган.

Фонетикада энг аввало нутқ органларининг нутқ товушларини ҳосил қилишдаги иштироки, яъни нутқ товушларининг артикуляцион томони ўрганилади. Бу услуб ҳозир ҳам тил товушларини ўрганишда кенг қўлланиб келинмоқда.

Нутқ товушларининг физик-акустик томони кейинроқ ўрганилди. Бунда турли техника воситалари ёрдамида нутқ товушларининг баландлиги, чўзиқ ёки қисқалиги, жарангли ёки жарангсизлиги аниқланган. Нутқ интонациясини ўрганиш билан эса жумлаларнинг қандай оҳангда айтилиши таҳлил қилинган. Нутқ товушларининг маъно фарқлаш хусусиятини фонетиканинг ажралмас қисми бўлган фонология ўрганади. Фонологияга Бодуэн де Куртенэ, Л. В. Шчерба, Н. С. Трубецкойлар асос солган. Фонология фонетиканинг бир шохобчаси бўлиб, у тил товушларининг сўз формаси ва маъносини ўзгартиришини ҳамда нутқ жараёнида қўлланишини ўрганади.

Фан ва техника тараққиёти нутқ товушларини чуқурроқ ўрганишда турли техник воситалардан фойдаланиш имконини берди ва бу ўз навбатида аср бошида экспериментал фонетикани вужудга келтирди. Экспериментал фонетиканинг ривожида академик Л. В. Шчербанинг хизматлари катта бўлди. В. А. Артемов, Л. Р. Зиндер, Л. В. Бондарко, Т. А. Ахматов, У. Ш. Байчура, З. Н. Жапаридзе, Н. И. Жинкин, Л. В. Златоустова, З. Х. Таги-зада каби олимлар турли тиллардаги нутқ товушларининг акустик хусусиятларини ўрганиб экспериментал фонетикага катта ҳисса қўшдилар. Улар нутқ бирликларини ўрганишда рентгенография, осциллография, спектрография, интонография, кинога олиш каби усулларни тилшуносликда кенг қўлладилар ва такомиллаштирдилар. Натижада нутқ товушларининг артикуляцияси, акустик хусусиятлари ва уларнинг нутқ жараёнидаги ўзгаришларини янада аниқроқ таснифлашга эришдилар. Унли ва ундош товушлар, сўз ва сўз бирикмалари, жумлалар талаффузидаги жадаллик, товушларнинг чўзиқ-қисқалиги, баланд-пастлиги децебел (дб), миллисекунд м/сек, Герц (Гц) каби бирликларда белгиланиши тилшуносликни физика, математика, информатика каби аниқ фанларга яқинлаштирди.

Фонетика фанининг аҳамияти

Фонетика фанининг аҳамияти тил товушларининг нутқ жараёнида тутган ўрни билан аниқланади. Тил алоқа воситаси сифатида хизмат қилар экан, ундаги лексик, грамматик, стилистик маънолар товушлар орқали ифодаланади. Сўзда ҳарфлар тартибининг ўзгартирилиши ёки бирор товушнинг хато талаффуз этилиши сўзнинг лексик маъносини, грамматик шаклини ўзгартириб юбориши мумкин. Масалан:

Немис тилида:	**Ўзбек тилида:**
Vater, Mutter, Kind	ота, она, бола
Erde, Wasser, Baum	ер, сув, дарахт
Mond, Stern, Tag	ой, юлдуз, кун

Sommer, Herbst, wir	ёз, куз, биз
Garten, Berg	боғ, тоғ
Baum, Bäume	дарахт, дарахтлар

Демак, **фонетика** сўзларнинг таркибий қисмларидан бири бўлган тил товушларининг ўзгариши билан уларнинг грамматик формалари ҳам ўзгариб кетишини ўрганадиган муҳим фанлардан биридир.

Фонетикани ўрганиш тўғри ёзиш (орфография)ни, тўғри талаффуз (орфоэпия)ни яхши ўзлаштиришга, адабий талаффуз билан шеваларга хос талаффуз ўртасидаги фарқни аниқлашга ёрдам беради.

Немис тили фонетикаси ҳам ўз навбатида *умумий фонетика, тарихий фонетика, қиёсий фонетика, амалий фонетика, экспериментал фонетика* каби қисмларга ажралади. **Умумий фонетика** қардош ёки қардош бўлмаган икки ёки ундан ортиқ тилларнинг фонетик тизимини ўрганади ва олинган натижаларни умумлаштиради. **Тарихий фонетика** маълум бир тил, масалан, немис тилининг товушлар тизимидаги ўзгаришларини тилнинг пайдо бўлган вақтидан бошлаб то ҳозирги кунгача бўлган даврга боғлаб ўрганади. **Қиёсий фонетика** бир қанча қардош тилларнинг ёки диалект ва шеваларнинг товушлар тизимини ҳамда бошқа фонетик хусусиятларини қиёслаш асосида ўрганади. **Амалий фонетика** аниқ бир тил, масалан, немис тили фонетикасининг нутқ жараёнида ўзгаришини, шу тил ривожланишининг ҳозирги босқичига боғлаган ҳолда ўрганади. **Амалий фонетикани** ўрганаётган талаба — нутқ органлари ҳаракатини бошқаришни, товушларни фақат алоҳида ҳолатда эмас, балки сўзлар таркибида ҳам қоидага мувофиқ талаффуз қилишни; сўз, жумла ва гапларни талаб қилинадиган тезликда, интонацияда, синтагмаларга бўлиб ўқишни ва шу кабиларни яхши ўзлаштириб олиши керак. **Экспериментал фонетика** нутқ товушларини махсус техника воситалари ёрдамида ўрганади. Бунда нутқ товушлари талаффузидаги махсус техника воситаларисиз кўриб ва ўлчаб бўлмайдиган хусусиятлари ўрганилади.

Нутқ товушларининг хусусиятлари

Нутқ товушлари физиологик, акустик ва ижтимоий — маъно фарқловчи хусусиятларга эга. Нутқ товушларининг физиологик ва акустик хусусиятлари — моддий, яъни талаффуз, эшитилиш жиҳатини, ижтимоий хусусияти эса товушларнинг тилда бажарадиган вазифасини ифодалайди. Машҳур тилшунос олим С. И. Бернштейн нутқ товушлари тузилишининг моддий (физиологик, акустик) хусусиятлари ва ижтимоий — маъно фарқлаш хусусиятлари нуқтаи назаридан ўрганиш лозимлигини таъкидлаб, биринчи хусусиятни антропофоника, иккинчисини — фонология деб атаган[1].

Фонология нутқ товушларини бир-биридан фарқлайдиган белгиларни, нутқ товушларининг маъно фарқлаш хусусиятларини ва сўзда маълум бўғинларда учрашини, бошқа товушлар билан биргаликда товушлар занжирини ҳосил қила олиш ёки ташкил қила олмаслигини ўрганади. Н. А. Баскаков, А. С. Содиқов, А. А. Абдуазизов[2]ларнинг ёзишича, фонема артикуляцион ва акустик белгиларнинг йиғиндисига тўғри келади ва бу белгилар биринчи навбатда нутқ товушининг сўз маъносини фарқлаш учун хизмат қилади. Буни қуйидаги мисолларда кўриш мумкин:

Немис тилида:	**Ўзбек тилида:**
Land-Hand-Band	бор-тор-зор
Tier-hier-Bier	бел-сел-эл
Mund-Hund-Wund	от-ит-эт
dann-wann-Mann	

Тилда ўзининг бирорта артикуляцион ва акустик белгисига кўра ўзига ўхшаш товушдан фарқланадиган, аммо сўз маъносини фарқлай олмайдиган товушлар бўлади. Тилшуносликда бундай товушларни товуш вариант-

---

[1] С. И. Бернштейн. Основные положения фонологии. "Вопросы языкознания", 1962, № 5, стр. 62—80.

[2] Н. А. Баскаков, А. С. Содиқов, А. А. Абдуазизов. Умумий тилшунослик. Т., 1979, 28—41.

лари деб юритилади. Немис тилида бундай товушларга кичик тил товуши [R] киради. Бу товуш сўз бошида унлидан олдин, бир ундошдан кейин ва қисқа унлидан кейин келганда ўзбек тилидаги [F] фонемасига ўхшаб кетади. Немис тили фонетикасида кичик тил товуши [R] тил олди [г] ундошининг варианти ҳисобланади, чунки юқорида қайд этилганидек [г] ундоши талаффуз этилса ҳам, кичик тил товуши [R] талаффуз этилса ҳам сўз маъноси ўзгармайди. Масалан:

Rabe — қарға	**Rad** — ғилдирак
Regel — қоида	**Reis** — гуруч
Rede — нутқ	**Sprache** — тил
breit — кенг	**Brot** — нон

Бу икки ундош товушдан қайси бирини талаффуз қилиш сўзловчига боғлиқ, аммо ҳозирги кунда тил олди [г] товуши ўрнига кичик тил товуши [R] ундошини талаффуз қилиш ҳоллари кўпроқ учрайди.

Юқоридаги мисоллардан кўриниб турибдики, нутқ товушлари гоҳ мустақил фонема, гоҳ бирон фонеманинг варианти сифатида келади. Нутқ товушларининг бу хусусияти товушларнинг ижтимоий маъно фарқловчи хусусияти нуқтаи назаридан ўрганилганда намоён бўлади. Нутқ товушларига акустик ёки физик хусусият нуқтаи назаридан қаралса, уларда икки хил белги: товушнинг сифат белгиси ва миқдор белгиси кўзга ташланади. Нутқ товушларининг учинчи хусусияти — товушларнинг физиологик жиҳати бўлиб, бунда фонеманинг артикуляциясида нутқ органларининг қатнашиши тушунилади.

Акустика ҳақида маълумот

Тил товушларининг уч асосий хусусиятларидан бири уларнинг эшитилиши — акустик томонидир. **Акустика** грекча сўз бўлиб, эшитилиш демакдир. Бунда товушларнинг сифат ва миқдор белгилари — кучи ёки интенсивлиги (шиддати), баландлиги ва тембри ўрганилади.

Товуш тўлқинининг пайдо бўлган жойи билан унинг пастлашган ёки баландлашган жойи ўртасидаги кенглик товуш кучини кўрсатади. Бу акустикада товуш тўлқинининг баландлик ҳажми-амплитуда дейилади. Амплитуда — лотинча сўз (amplitudo) бўлиб, кўлами деган маънони англатади. Амплитуданинг ҳажми қанчалик кенг ва баланд бўлса, товуш шунчалик кучли бўлади.

Товушларнинг интенсивлиги сўзда сўз урғуси, нутқ товушларининг қайси бўғинида турганлигига ҳамда сўзловчининг қандай ҳолатда сўзлашига боғлиқ бўлади. Урғули бўғиндаги унли товуш ҳам ундош товуш ҳам кучли талаффуз этилади. Товуш кучи интенсивлигининг ўлчов бирлиги-децибел билан ўлчанади.

Товуш баландлиги тебранишнинг вақтга нисбатан бўлган миқдори билан ўлчанади. Товуш баландлигининг ўлчов бирлиги Герц [Гц] дейилади ва Герц тебранишнинг секундга нисбатан ўлчовини белгилайди. Тебраниш қанча кўп бўлса, товуш шунча баланд бўлади, тебраниш қанчалик паст бўлса, товуш шунча паст бўлади, масалан: 1000—3000 Гц баландликка эга бўлган товушлар баландлиги 100—200 Гц бўлган товушларга қараганда анча яхши эшитилади[1].

Товуш тембри ҳар бир товушнинг ўзига хос оҳангидир. Товуш тембри асосий тонлар билан обертонлар (немисча ober — юқори) қўшилмасидан иборат бўлади.

Нутқ товушларининг турли акустик хусусиятларини ўрганишда таҳлил қилинадиган товушлар, сўзлар, сўз бирикмалари ёзилган магнит лентасидан сегментатор ёрдамида исталган товуш, сўз, сўз бирикмасининг спектрограммасини F_0 (асосий тон), F_1, F_2 — F_3, F_4 формантлари каби таркибий қисмларини ва қўшни товушлар таъсирида маълум товушнинг ўзгаришини кўриш мумкин[2]. Бу ўзгаришлар товуш тембри, чўзиқлиги ва товушнинг баландлигида намоён бўлади. Тембр резонация (кучайиш)га учраган товушнинг хусусиятига ҳам боғлиқ. Шакл жиҳатдан ҳар хил резонаторлар (кучайтиргичлар) обертон-

---

[1] Бондарко Л. В. Звуковой строй современного русского языка. М., 1977, с.17—18.

[2] Фант Г. Акустический анализ речеобразования. М., 1964.

ларни кучайтиради, асосий тонга ҳар хил тус, ҳар хил тембр беради. Тилда тембрдаги хусусиятларни фарқлаш унли товушларни фарқлашга ёрдам беради.

Нутқ товушларининг миқдор белгиси шу товушлар талаффузига кетган вақтга нисбатан белгиланиб, бу миқдор белгиси ч ў з и қ л и к дейилади. Товушларнинг чўзиқ-қисқалиги турли омилларга кўра аниқланади. Баъзи тилларда товушларнинг чўзиқ-қисқалиги сўз маъносини фарқлашга хизмат қилади ва бундай чўзиқлик ф о н о л о г и к ч ў з и қ л и к дейилади. Масалан, немис тилида чўзиқ товушни қисқа ёки қисқа товушни чўзиқ талаффуз қилиниши сўз маъносини ўзгартириши мумкин:

Beet — жўяк	**Bett** — каравот
fühlen — сезмоқ	**füllen** — тўлдирмоқ
Miete — квартира ҳақи	**Mitte** — ўрта
Saat — экин	**satt** — тўқ

Ҳозирги ўзбек адабий тилида эса унлиларнинг бирламчи чўзиқлиги йўқ. Ўзбек тилида унлиларнинг чўзиқ-қисқалиги уларнинг сўзда қайси бўғинда келиши, қайси ундошлар билан ёнма-ён туришига боғлиқ. Унлиларнинг бундай чўзиқлиги сўз маъносини ўзгартирмайди ва **ф о н е т и к ч ў з и қ л и к** деб аталади. Бундай чўзиқлик тил товушларининг бир бўғинли ёки кўп бўғинли сўзларда, урғули ёки урғусиз бўғинда келишига ва бошқа ҳолатларга қараб турлича бўлади.

Фан ва техника ривожланаётган ҳозирги даврда физика, акустика, математика, информатика тилшуносликда кенг қўлланилмоқда[1]. Натижада тилшунослик фани аниқ фанларга тобора яқинлашиб бормоқда.

Немис ва ўзбек тили унлиларининг бу чўзиқлиги иккиламчи чўзиқлик бўлиб, у секуннинг юздан бир бўлаги ҳисобланган миллисекунд (м/сек) билан ўлчанади. Бундай чўзиқлик одатда ҳамма тилларга хос бўлиб, унинг миқдори кўп ҳолларда товушларнинг қайси товушлар билан сўз бошида, сўз ўртасида, сўз охирида келишига

---

[1] С. А т а м и р з а е в а. Экспериментально-фонстическое исследование наманганского говора узбекского языка. Ташкент, 1974, А. Махмудов. Гласные узбекского языка Т., 1968.

(позициясига) ва урғули ёки урғусиз бўғинда келишига боғлиқ.

Шундай қилиб **акустика** тил товушларининг физик хусусиятлари — товуш кучи, баландлиги, чўзиқлиги — эшитилишини ўрганади.

Нутқ органлари

Тилдаги сўзлар, сўз бирикмалари, гаплар нутқ товушларидан ташкил топади. Нутқ товушларини ҳосил қилишда иштирок этадиган органлар йиғиндисига нутқ органлари дейилади. Нутқ органлари нутқ товушларини ҳосил қилишда ва уларни бир-биридан фарқлашда муҳим роль ўйнайди. Нутқ товушлари хусусиятларини билиш учун уларнинг физиологияси ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш керак. Бу эса ўз навбатида нутқ органларини ва уларнинг товушлар талаффузидаги иштирокини ўрганишни тақозо этади. Нутқ органлари товушларни талаффуз этишдаги ҳолати ва ҳаракатига кўра актив ва пассив нутқ органларига бўлинади. Товуш пайчалари, кичик тил, тил, лаб ва пастки жағ актив нутқ органлари, ўпка, кўкрак қафаси, кекирдак, юқори жағ, қаттиқ танглай, бурун бўшлиғи, милк, тиш пассив нутқ органлари ҳисобланади. Нутқ товушларини ҳосил қилишда нутқ аппаратининг моҳияти ҳал қилувчи ўрин эгаллайди. Нафас олиш аппарати ўпка, бронхлар (ўпкада тармоқланиб кетган нафас йўллари — диафрагма) дан иборат. Нутқ товушларини ҳосил қилишда ўпкадан чиқиб келаётган ҳаво томоқдаги нафас йўлидан оғиз ва қисман бурун орқали ўтади.

Кекирдак мураккаб нутқ органи ҳисобланади. У ҳалқасимон, пирамидасимон, қалқонсимон тоғайлардан ташкил топган. Қалқонсимон тоғай кекирдакнинг олд томонига жойлашгган. Унинг юқори томони тил ости суягига, қуйи томони эса ҳалқасимон тоғайга бирлашади.

Булардан ташқари иккита бир хил қўзғалувчи, пирамидасимон тоғайлар бўлиб, уларнинг учлари юқорига қараб туради, қуйи томонлари ҳалқасимон тоғайнинг устига жойлашган. Нутқ товушларининг ҳосил бўлишида

қалқонсимон, ҳалқасимон ва пирамидасимон тоғайларнинг хизмати каттадир.

Товуш пайчалари пирамидасимон икки тоғайнинг оралиғига жойлашган. Товуш пайчаларининг орасида бўшлиқ бўлиб, бу товуш чиқариш оралиғи дейилади. Товуш пайчаларининг таранғланиши ва бир-бирига жипслашиши натижасида бу оралиқ бекилиши мумкин. Товуш пайчалари ҳаракатчандир. Улар таранглашади ва ўпкадан келаётган ҳаво оқими таъсирида титрайди, натижада унли ёки жарангли ундош товушлар ҳосил бўлади. Товуш пайчаларининг оралиғи жарангсиз ундош товушлар талаффуз қилинганда очиқ ва ҳаракатсиз ҳолатда бўлади. Ўпкадан чиқиб келаётган ҳаво жипслашган товуш пайчаларини ёриб ўтиши натижасида шовқинли ва портловчи товушлар ҳосил бўлади.

Товушни кучайтириб берувчи органлар (резонатор)лардан бири бўлган томоқда оғиз ва бурун бўшлиғига йўналган иккита тешик бор.

Лаблар нутқ жараёнида думалоқ чўччайган ҳолатларда бўлиши мумкин. Лаблар ҳолатига кўра лабланган ва лабланмаган товушлар ҳосил бўлади.

Танглай ва тишлар оғиз бўшлиғидаги пассив нутқ органларидир.


Олд томондан оғиз бўшлиғи устки ва пастки олд тишлар билан чегараланади. Тил олди ундошларнинг ҳосил бўлишида милкларнинг ҳам хизмати катта. Тил олди ундошлари, лаб-тиш ундошлари ёки тил олди унлилари талаффуз қилинганда тил учи гоҳ милкка, гоҳ олд тишларга тегади. Тишлар пассив нутқ органи бўлишига қарамасдан нутқ товушларининг ҳосил бўлишида муҳим вазифаларни бажаради.

Тил оғиз бўшлиғи тагига жойлашган ҳаракатчан нутқ органидир. Тил нутқ товушларини талаффуз қилишда турли ҳолатларда бўлади. Тилнинг вертикал ҳолатига кўра унлилар юқори, ўрта, қуйи кўтарилиш унлиларига; тилнинг горизонтал ҳолатига кўра тил олди, тил ўрта, тил орқа унлиларига бўлинади. Тилнинг у ёки бу қисмининг ундошлар талаффузи вақтида қаттиқ танглайга кўтарилиш, тиш, милкка тегишига кўра ундошлар турли хилларга ажралади.

Бурун бўшлиғи пассив нутқ органларидан бири бўлиб, у товуш ҳосил қилишда қўшимча резонанс вазифасини бажаради. Ўпкадан кекирдак орқали келаётган ҳаво оқимининг бурун бўшлиғи орқали ўтиши натижасида товуш тембрида қўшимча оҳанг ҳосил бўлади. Бундай қўшимча оҳангли товушлар бурун товушлари дейилади. Кичик тил нутқ жараёнида ўпкадан келаётган ҳаво оқимининг бурун бўшлиғидан ўтадиган йўлини беркитиши натижасида ҳаво оқими оғиз бўшлиғидан ташқарига чиқса, унда соф товушлар ҳосил бўлади.

Пастки жағ актив нутқ органларидан биридир. Пастки жағнинг пастга кўпроқ тушиши натижасида ҳосил бўлган унлилар кенг унлилар, ўртача тушиши натижасида ҳосил бўлган унлилар ўрта кенг унлилар, камроқ тушиши натижасида ҳосил бўладиган унлилар тор унлилар дейилади.

Қулоқ гарчи нутқ органи бўлмаса ҳам нутқ товушларини ҳосил қилишда муҳим вазифани бажаради. Қулоқ орқали одам нутқ товушларини, сўзларни, жумлаларни қабул қилади, одам хотирасига уларнинг жаранглашини, оҳангини "ёзиб олишга" ёрдам беради. Нутқ аппарати ва ундаги органларнинг жойлашувини қуйидаги расмда кўриш мумкин (1-расм).



1-расм. Одам бош қисмининг кесими.

БИБЛИОТЕКА
Бух. ТИП и ЛП
№ 8/2647

Товушлар ва ҳарфлар

Нутқ товушлари ҳосил қилиш мураккаб ҳодисадир. Нутқ товушлари ўпкадан чиққан ҳавонинг товуш пайчаларини титратиши, нутқ органларининг ҳаракати каби физиологик, товушнинг эшитилиши каби акустик, онгли ифода элементи каби психологик ва тилнинг алоқа воситаси элементи каби лингвистик хусусиятларни ўзида мужассамлаштиради. Нутқ товушларини ўрганишда нутқ товушларининг лингвистик хусусиятлари асосий ўринни эгаллайди. Товуш билан ҳарфнинг асосий фарқи шундаки, товушни талаффуз қиламиз ва эшитамиз, ҳарфни эса ёзамиз, кўрамиз ва ўқиймиз. Нутқ товушлари унли ва ундош товушларга бўлинади. Немис тили алфавитида 26 та ҳарф бўлиб, ундан **a**, **e**, **i**, **o**, **u**, **y** — унлилар, қолганлари эса ундошлардир. Бундан ташқари дифтонглар (ei, ai, au, eu, au) ва африкатлар [pf, ts, tʃ] мавжуд. Нутқ товушларини унли ва ундош товушларга ажратиш асосида уларнинг акустик артикуляцион хусусиятлари ётади.

Немис тилида 15 та унли товушлар бор. Улар қуйидагича таснифланади:

1) ҳосил бўлиш ўрнига кўра: тил олди ёки тил орқа унлилари;

2) тилнинг кўтарилишига кўра: юқори кўтарилиш унли товушлари, ўрта кўтарилиш унли товушлари, қуйи кўтарилиш унли товушлари;

3) лабларнинг иштирокига кўра: лабланган ва лабланмаган унлилар;

4) унли товушларнинг айтилишига кўра: чўзиқ ва қисқа унлилар;

5) сифатига кўра: кенг ва тор унлилар.

Немис тилидаги ундош товушлар қуйидагича таснифланади:

1) ҳосил бўлиш усулига кўра: портловчи, сирғалувчи, аффрикат, портловчи, очиқ, (бурун, ён) титроқ ундош товушлари;

2) ҳосил бўлиш ўрнига кўра: лаб (лаб-лаб, лаб-тиш), тил (тил олди, тил ўрта, тил орқа) ва кичик тил ҳамда бўғиз ундош товушлари;

3) товуш пайчаларининг иштирокига кўра: жарангли, жарангсиз ва сонор ундош товушлар.

Акустик нуқтаи назардан унли товушлар овоз (тон)-дан, ундош товушлар эса шовқинлардан иборатдир. Ундош товушларнинг баъзиларида шовқин бўлиши билан бир қаторда овоз (тон) ҳам қатнашади. Булар жарангли ундошлардир.

Артикуляция (талаффуз) нуқтаи назардан унли ва ундош товушларнинг фарқи шундан иборатки, унлиларни талаффуз қилишда ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими оғиз бўшлиғида ҳеч қандай тўсиққа учрамайди. Ундош товушларни талаффуз қилишда эса ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими оғиз бўшлиғининг у ёки бу жойида тўсиққа учрайди. Немис тили ундошлари оғиз бўшлиғида ҳосил бўлган тўсиқнинг бартараф қилинишига кўра портловчи [p], [b], [k], [g], [t], [d], сирғалувчи [x], [ç], [j], [s], [ʃ], [z], [ʒ], [h], [v], [f]; аффрикатлар [pf], [ts], [tʃ]; сонорлар [n], [ŋ], [m]; ён товуш [L] ва титроқ товушлар [r], [R] га ажратилади. Немис тилидаги унли ва ундош товушларнинг ҳарфлар билан ифодаланиши анча мураккабдир (1-жадвал).

1-жадвал

Немис тили товушларининг ҳарфлар билан ифодаланиши

Унли товушлар	Ҳарфлар билан ифодаланиши	Мисоллар
1	2	3
a:	a, aa, ah	da, Tafel, Haar, Jahr
a	a	dann, Land, antworten
e:	e, ee, eh	neben, leer, nehmen
ɑ	ä, äh	Bär, wählen, ähnlich
ɔ	ä, e	ändern, Eltern, kennen
i:	i, ie, ih, ieh	wir, Tier, ihr, er sieht
ɪ	i	in, Wind, Kind
o:	o, oo, oh	rot, Boot, Ohr

1	2	3
u:	u, uh	Buch, Ufer, Uhr
ɔ	o	noch, Onkel, wollen
ʊ	u	Hund, rund, und
ø	ö, or, öh	mögen, Goethe, Löwe, Söhne
œ	ö	können, öffnen, lösen
y:	ü, üh, y	Hüte, fühlen, Zyp
ʏ	ü, y	müssen, Ypsilon, lüften
ə	e	bekommen, Gebäude, Geschenk
i	i	Familie, Konjunktion
u̯	u	Januar, Februar, Luise
o̯	o	Toilette
æ̯	ai, ei, ay	Mai, mein, Bayern
ao̯	au	auch, Baum, Taube
əø̯	eu, äu	neun, Bäume, heute
Ундош товушлар		
b	b, bb	Brief, Ebbe
p	p, pp, b	Pult, Puppe, gelb
m	m, mm	Mann, kommen
d	d, dd	du, drei, das
t	t, tt, dt, th, d	Tante, Bett, Theater, und
n	n, nn	Nacht, dann
g	g, gg	gut, Flagge
k	k, ck, kk, g	kalt, dick, Akkusativ, klug
ks	chs, x, ks	wachsen, Text, Keks, sechs
ŋ	ng, nk	lang, danken

Давоми

1	2	3
v	w, v	Wagen, Vokal
f	f, ff, v, ph	fünt, Waffe, Vater, Phonetik
z	s	sieben, lesen
s	s, ss, B	das, Klasse, groB
ʃ	sch, s+t, p	Schule, Stunde, Sport
ʒ	g, j	Garage, Etage, Jackett
j	j	Januar, Jahr, Jacke
ç	ch (i, e, ä, ü, ö)	ich, rechts, Bücher
x	ch (a, o, u, au)	acht, noch, suchen
h	h	Heft, haben, Hase
l	l, ll	leben, Ball, alle
r	r, rr	richtig, Korridor
R	r	richtig, Korridor
ts	z	kurz, Zimmer
t͡ʃ	tsch	Deutsch, Urgentsh
pf	pf	Kopf, Kampf, Apfel

Ҳозирги ўзбек адабий тилида 31 фонема бор, шулардан 6 таси унли: **о, а, э, ў, у, и**; 25 таси ундош: **п, б, ф, в, т, д, с, ч, з, ш, ж, ц, ж, м, н, ң [нг], л, р, й, қ, к, г, ғ, х, ҳ**.

Фонеманинг ёзувдаги шартли белгилари ҳарфлар, ҳозирги ўзбек алфавитида 35 та ҳарф бор. Шулардан 29 ҳарф муайян фонемаларнинг график шаклидир: а, б, в, г, д, т, з, и, й, к, л, м, н, о, п, р, с, т, у, ф, х, ц, у, ш, э, ў, қ, ғ, ҳ.

Маълумки, нутқ товушлари оғзаки нутқнинг асосий манбаидир. Нутқ товушлари фикрни ифода қилишга ва эшитиш органлари эса фикрни уқиб идрок қилишга хизмат қилади. Ҳарфлар ёзма нутқнинг манбаи бўлиб, нутқ

товушларининг шартли кўринишларидир. Ҳарфлар орқали инсон ўз фикрини ёзма равишда ифода этади. Шунинг учун ҳам ҳарфларнинг тил ўрганишда, илм ўрганишда аҳамияти каттадир. Тилда ҳарфлар тизимлаштирилган бўлиб, бу тизим **алифбо** дейилади. Алифбода ҳарфлар маълум тартибда жойлаштирилади ва номланади.

Одатда ёзувга ўргатиш товушлар ва ҳарфлар нисбатидан бошланади ва бу немис тилини ўргатишда муҳим аҳамиятга эга. Ёзувни ва ўқишни ўргатишда товуш-ҳарф нисбатини ўргатиш, айниқса, бу икки кўникманинг бирбирини қувватлаши ҳамда уларнинг ҳар бирини ўзлаштиришни енгиллаштириш ёзувни ва ўқишни тенг олиб боришга асос бўла олади.

Немис тили товушларини ҳарфлар билан ифодалашда ҳарфларни содда ва мураккаб ҳарфларга ажратиш мумкин. Товушларни ифодалашда фақат битта ҳарф қўлланса, бундай ҳарфлар содда ҳарфлар ("a", "e", "a", "o", "ö", "u", "ü", "i"; "b", "p", "к", "п", "j", "m", "v", "r", "l", "h", "g", "f", "w", "s", "d", "t") ва аксинча товушларни ифодалашда икки ёки ундан ортиқ ҳарфлардан фойдаланилса, бундай ҳарфлар мураккаб ҳарфлар ҳисобланади. Унли товушларни ифодалаш учун хизмат қиладиган eu, āu, au, ei, ai, ay, ie, oo, aa, ee ҳарфлар бирикмалари ва ундош товушларни ифодалаш учун хизмат қиладиган pf, ch, sch, tsch, dt, th, dd, tt каби ҳарфлар бирикмалари мураккаб ҳарфлардир. Улар иккитадан тўрттагача ҳарфлардан ташкил топган бўлишига қарамай фақат биттадан товушни ифодалайди.

2-жадвал

Ўзбек тили товушларининг ҳарфлар билан ифодаланиши

Унли товушлар	Ҳарфлар билан ифодаланиши	Мисоллар
1	2	3
а	а, аъ, аа	Ака, аъло, мудофаа
э [e]	э, е, эъ	экин, келмоқ, эълон
и	и	тиниқ, тинчлик
о	о	том

Давоми

1	2	3
у	у	ун, бу, қум, куз, кун, тун
ў	ў	ўша, ўттиз
у	у	кул, куз
т	ў	кўп, кўрмоқ
Ундош товушлар		
б	б, бб	бош, қубба
п	п, пп	пахта, оппоқ
д	д, дд	дона, содда
т	т, тт	тош, ҳатто
г	г, гг	гап
к	к, кк	калта, ҳакка
қ	қ, ққ	қоп, соққа
в	в, вв	вафо, аввал
ф	ф, фф	офтоб, муваффақият
з	з, зз	тоза, тизза
с	с, сс	асар, ҳисса
ж	ж, жж	жавоб, жажжи
ш	ш, шш	шакар, қашшоқ
й	й	сарой
ғ	ғ	ғишт
х	х, хх	пахта
ҳ	ҳ	ҳамма
м	м, мм	мен, аммо
н	н, нн	нон, шинни
нг	нг	онг, минг, тонг
л	л, лл	лола, алла
р	р, рр	рост, арра
ч	ч, чч	чой, почча
ц	ц	цирк

1-машқ. Қуйидаги мисолларни товуш-ҳарф нисбатига эътибор бериб ўқинг:

1) haben, Wagen, da
2) der, wer, er
3) nur, du, Hut
4) wir, dir, Kino
5) Berlin, bund, baden
6) Post, Pult, Peter
7) das, der, Norden
8) Tante, kalt, Foto

2-машқ. Ҳарфлар бирикмаларининг битта товушни ифода этишига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

1) ich, Licht, Milch
2) acht, Dach, Nacht
3) Schule, Kirsche, Tische
4) Deutschland, Tschechow, Tschilonsor
5) Biene, die, Tier
6) Staat, Saal, Paar
7) Stadt, Theater, Kette
8) Kopf, Kladde, Bagger
9) Boot, Puppe, alle
10) Buch, Märchen, acht

Немис тилида битта ҳарф икки таркибий қисмдан иборат бўлган товушни ҳам ифодалаши мумкин. Бундай ҳарфлар "x", "z" ҳарфлари бўлиб, улар [ks], [ts] товушларини ифодалайди ва битта фонема сифатида талқин этилади. Бундай ҳарфларга ўзбек тилида "ц" ҳарфини киритиш мумкин. Бу ҳарф ўзбек тилига рус тилидан кириб келган сўзларда учрайди ва [тс] товушларини ёзувда ифодалаш учун хизмат қилади.

3-машқ. Сўзларни "x", "z" ҳарфларининг [ks], [ts] тарзида талаффуз этилишига эътибор бериб ўқинг.

1) kurz, Zimmer, schwarz, Harz, März.
2) Text, Marx, sechs, links, Export, Taxi.
3) kurze Tage, schwarze Tafel; Hier wachsen Blumen.
4) das Haus von Marx, sechs Menschen, den Text lesen.

Немис тилида ўқилмайдиган **"h"** ҳарфи бўлиб, у унлидан кейин келади ва шу унлининг чўзиқ ўқилишини билдиради. "h" ҳарфи бир бўғинда "t" ундошидан кейин келганда ҳам ўқилмайди. Ўзбек тилидаги айириш белгиси унлидан кейин келиб, шу унлининг чўзиқ ўқилишини билдиради. Масалан: маъно, аъло.

4-машқ. Қуйидаги сўз бирикмаларининг ёзилишига ва ўқилишига эътибор беринг.

Kohl, Theater: 2 Kilo Kohl kaufen; ins Theater gehen
gehen, Goethe: zu Fuß gehen; wie Goethe arbeiten
fahren, Thema: nach Taschkent fahren; ein Thema wählen
Lehrer, Thomas: ein Lehrer werden; zu Thomas fahren

5-машқ. Buch (китоб), Deutsch (немис тили), heute (бугун) сўзларини намуна сифатида берилган "kommen" сўзи таҳлилидан фойдаланиб мустақил таҳлил қилинг.

Kommen содда, бир урғули сўз бўлиб, у биринчи бўғинга тушади. Унда олтита ҳарф, бешта товуш бор, чунки қўш "m" ҳарфи битта қисқа [m] ундошини ифодалайди. Бу сўзда ҳарфлар сони билан товушлар сони бир-бирига тўғри келмайди, ҳарфлар товушлардан битта ортиқ. Бу сўзда иккита унли, учта ундош, иккита бўғин бор. Биринчи бўғин урғули, иккинчи бўғин урғусиздир. Ҳар иккала бўғин ҳам ёпиқ бўғиндир. Биринчи бўғиндаги [ɔ] унлиси қисқа, ўрта кенг, очиқ лабланган унлидир.

k	o	m m	e	n
k	ɔ	m	ə	n

ҳарф — 6
товуш — 5
унли — 2
ундош — 3
бўғин — 2

6-машқ. Матнни ҳарф — товуш нисбатига эътибор бериб ўқинг.

UNSERE FERIENZEIT

Unsere Ferienzeit ist schön. In den Ferien haben wir viel Zeit zu spielen. Hinter unserem Dorfe fließt ein Fluß. Oft gehen wir dorthin spazieren. Wir schwimmen, liegen in der Sonne. Dann spielen wir am Ufer Ball. Manchmal angeln wir. Oft bringen wir viele Fische nach Hause.

Нутқ товушларининг турлари

Нутқ товушлари артикуляцион ва акустик хусусиятларига кўра унли ва ундош товушларга бўлинади.

Ҳар бир тил ўзига хос унлилар ва ундошлар тизимига эга. Тилдаги унлилар тизими вокализм[1], ундошлар тизими эса консонантизм[2] дейилади.

Унлилар талаффуз этилаётганда ўпкадан чиқаётган ҳаво оғиз бўшлиғида ҳеч қандай тўсиққа учрамайди. Унлилар соф овоздан ташкил топади, шунинг учун ҳам унлиларда оҳангдорлик юқори туради. Унли товушлар товуш пайчаларининг таранглашуви ва тебраниши натижасида ҳосил бўлади. Томоқ ва оғиз бўшлиғида асосий тонга қўшимча обертонлар вужудга келади ва у ҳар бир унлига тембр тусини беради. Тил, лаб, пастки жағнинг ҳар хил ҳаракатлари натижасида унлилар ўзаро акустик жиҳатдан фарқ қиладилар. Унлиларнинг ҳосил бўлишида шовқин иштирок этмайди. Бўғин ҳосил қилишда ва нутқ оҳангдорлигида унлиларнинг аҳамияти катта.

Ундош товушлар талаффуз этилганда ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими бўғизда ва оғиз бўшлиғида тўсиққа учрайди. Ана шу тўсиқ турига кўра ундош товушлар портловчи ва сирғалувчиларга бўлинади. Жарангсиз ундошлар шовқиндан, жарангли ундошлар эса шовқин билан овознинг қўшилишидан ҳосил бўлади. Гарчи немис тили ва ўзбек тили турли тиллар оиласига кирса ҳам, уларда ўхшашлик томонлари бор бўлиб, бу ўхшашликлар немис тилини чет тили сифатида ўрганишда ўзбек талабаларига яқиндан ёрдам беради. Ноўхшашликлар эса алоҳида тушунтиришни талаб қилади, немис ва ўзбек тилларидаги унли ва ундош товушларни қиёслаб ўрганилади: а) немис тили унлилари: [i:], [ɪ], [y:], [ʏ], [u:], [ʊ], [e:], [ɛ:], [ɛ], [ø:], [œ], [o:], [ɔ], [a:], [a], [ə], [æ], [ɔ̃ø], [ãɔ]; б) ўзбек тили унлилари: [и], [э], [а], [у], [ў], [о]; немис тили ундошла-

---

[1] **Вокализм** сўзи лотинча vokalis сўзидан олинган бўлиб, унли, овозли демакдир.

[2] **Консонантизм** сўзи инглизча konsonantism сўзидан олинган бўлиб, ундошлар демакдир.

ри: [b], [p], [m], [d], [n], [g], [k], [ŋ], [v], [f], [z], [s], [S], [j], [ç], [x], [h], [l], [r], [ʒ]; г) ўзбек тили ундошлари: [б], [п], [д], [т], [ч], [к], [қ], [в], [ф], [з], [с], [ж], [ш], [й], [р], [х], [ҳ], [м], [н], [ң], [л], [р], [ч], [ц].

II боб

НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ УНЛИЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАЪРИФИ

Унли товушларнинг тембри оғизнинг катта ёки кичик очилишига боғлиқ. Унли товушлар тилнинг ҳаракатига, юмшоқ танглай ва лабларнинг ҳолатига кўра турларга ажратилади. Тилнинг горизонтал ҳолати унлиларни олд, ўрта, орқа қаторларга ажратишга хизмат қилади. Тил олди унлиларининг талаффузи вақтида тил олдинга қараб силжийди. Немис тилида тил олди унлиларига [i:], [ɪ], [e:], [ɛ:], [ɛ], [y], [Y], [ø:], [œ], [a] товушлари киради. Ўзбек тилида эса тил олди унлиларига [и], [а], [е] унли фонемалари киради. Бундан ташқари тил олди унлиларига тил орқа [у], [ў] унлиларининг тил олди вариантлари [у] ва [ɵ] унли товушлари киради. Тил орқа унлилари талаффуз қилинганда тил орқа томонга силжийди. Немис тилида тил орқа унлиларига [o:], [ɔ], [a:], [u:], [ʊ] унлилари, ўзбек тилида эса тил орқа унлиларига [у], [ў], [о] унлилари киради.

Тилнинг вертикал ҳаракатига (кўтарилишига) кўра унлилар очиқ (кенг), ўрта кенг ва тор унлиларга бўлинади. Ёпиқ ёки тор унлилар тилнинг танглай томон баланд кўтарилиши билан ифодаланади. Бунда тил усти ва танглай оралиғида тор ҳаво йўли ҳосил бўлади, тилнинг бу ҳолатида тор унлилар ҳосил бўлади. Немис тилида тор унлиларга [y:], [Y], [i:], [ɪ], [u:], [ʊ] товушлари, ўзбек тилида тор унлиларга [у], [и], [ў] товушлари киради. Тилнинг пастга ўртача тушиши натижасида танглай билан тил усти орасидаги масофа ўртача кенгаяди. Шу ҳолатда немис тилидаги ўрта кенг [ø], [e:], [ɛ:], [ɛ], [œ], [o:], [ɔ], [ə] унли товушлари ҳамда ўзбек тилидаги [э], [ў], [ɵ] унли товуш-

лар киради. Қуйи тил кўтарилишида немис тилидаги [a:], [a] ва ўзбек тилидаги [a], [o] унлилари ҳосил бўлади.

Немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам унлилар талаффузда лабларнинг иштирокига кўра лабланган ва лабланмаган унлиларга бўлинади.

Лабланган унлиларнинг талаффузида лаблар думалоқлашади ва олдинга қараб чўччаяди. Лабларнинг думалоқлашиши ва чўччайиши немис тили лабланган унлиларининг талаффузида ўзбек тили лабланган унлилари талаффузидагига нисбатан кучлироқ бўлади. Немис тилидаги [y:], [y], [o:], [ɔ], [ø], [œ], [u:], [ʊ] ўзбек тилидаги [y], [o], [ў] унли фонемалари лабланган товушлардир.

Лабланмаган унлилар талаффуз қилинганда лаблар ҳаракатсиз ҳолатда бўлади. Немис тили унлиларидан [a:], [a], [e:], [ɛ:], [ɛ], [i:], [ɪ]лар, ўзбек тили унлиларидан [и], [э], [а]лар лабланмаган унлилардир.

Тилда унлилар чўзиқ ёки қисқа талаффуз қилиниши мумкин. Баъзи тилларда бир унли ҳам чўзиқ, ҳам қисқа талаффуз қилиниши ва бу сўз маъносини ўзгартиши мумкин. Немис тилида ҳам чўзиқ, ҳам қисқа унли товушлар мавжуд бўлиб, улар мустақил фонемалар ҳисобланади. Талаффуз қилиб кўрилганда чўзиқ унлилар [i:], [y:], [ɛ:], [ø:], [a:], [o:], [u:], [ɛ:], қисқа унлилар [ɪ], [ɛ], [a], [y], [œ], [ʊ], [ɔ] анча фарқ қилишини сезиш мумкин. Транскрипцияда чўзиқ унлиларнинг ўнг томонига икки нуқта [:] белгиси қўйилади. Унлиларнинг чўзиқ ёки қисқа айтилиши немис тили сўзларининг маъносини ўзгартириб юборади. Масалан:

Staat (давлат) — Stadt (шаҳар)
Beet (жўяк) — Bett (каравот)
Miete (ижара ҳақи) — Mitte (ўрта)
Ofen (печка) — offen (очиқ).

Ўзбек адабий тилида мустақил чўзиқ унли товушлар йўқ. Ўзбек тили унлилари айрим ҳоллардагина чўзиқ ўқилади, холос.

Немис тили унлилари ва ўзбек тили унлилари сифатларига қараб қуйидагича тизимлаштирилган. (29-бетдаги жадвалга қаранг).

Немис тили унлилари ва уларнинг таснифи

Немис тилида унлилар бўғин турида келишига кўра монофтонг[1] ва дифтонг[2] товушларни ифода этади. Монофтонглар эса чўзиқ унли фонема ва қисқа унли фонемаларга бўлинади. Чўзиқ унли фонемалар [i:], [y:], [e:], [o:], [a:], [u:], [ɛ:], [ø:] очиқ ёки шартли ёпиқ бўғинда учрайди, қисқа унли фонемалар [ɪ], [ʏ], [œ], [ɔ], [a], [ʊ], [ɛ] урғули ёпиқ бўғинда учрайди. Бу 15 монофтонгдан ташқари немис тилида яна 3 та дифтонг [æ], [ao], [ɔø] бор.

3-жадвал

Немис тили унли товушлари таснифи

Тилнинг горизонтал ҳолатига кўра / Тилнинг вертикал ҳолатига кўра	Олд қатор	Ўрта қатор	Орқа қатор
Тилнинг юқори кўтарилиши	i: (Y:) ɪ (Y)		(u:) (ʊ)
Тилнинг ўрта кўтарилиши	e: (ø:) ɛ ɛ: (œ)	(ə)	(o:) (ɔ)
Тилнинг қуйи кўтарилиши	*a*		*a*:

4-жадвал

Ўзбек тили унли товушларининг таснифи

Тилнинг горизонтал ҳолатига кўра / Тилнинг вертикал ҳолатига кўра	Тил олди	Тил ўрта	Тил орқа
Тор	*и* (У)		У
Ўрта кенг	э (ө)		Ў
Кенг	*а*		О

[1] Монофтонг — битта товушдан иборат бўлган унли.
[2] Дифтонг — иккита товушдан иборат бўлган унли.

Немис тили унлилари тизимида 18 та унли фонема мавжуд. Бу унли фонемалар турли вариантларга (аллафонларга) эга.

Ургусиз бўғинларда энг кўп учрайдиган унли товуш [ə] бўлиб, у [e:] унлисининг вариантидир[1]. Немис тилида [ə] унлиси Murmellaut дейилади ва нутқда редукцияга учраган ҳолатда (кучсиз) талаффуз этилади. Бу [ə] товуши ўрта қатор, ўрта кенг унлидир.

Немис тили унлилар тизимида ўзи бўғин ташкил қилмайдиган, ўзидан кейин келган унли билан бирга бўғин ташкил қиладиган [i̯], [u̯], [o̯] унлилари бор. Бу унлилар [i], [u], [o] унлиларининг вариантларидир.

Немис тилига француз тилидан ўтган сўзларда [ã:], [ɛ̃], [ɔ̃], [œ] бурун товушлари учрайди. Бу унлилар сифатига кўра очиқ, чўзиқ бўлиб, [a:], [ɛ:], [o:], [ø:] унлиларнинг вариантларидир.

7-машқ. Қуйидаги чўзиқ унлилари [a:], [e:], [u:], [ø:], [ɛ:], [У:], [o:] бўлган сўзларни талаффузига эътибор бериб ўқинг:

Lager	Peter	nur	König	Ohr	Käse	
da	du	Öl	üben	oben	Bär	
haben	leben	Buch	hören	Tür	Boot	Mädchen

8-машқ. Қуйидаги сўзларни қисқа унлилар [a], [ɛ], [ʊ], [œ], [У], [ɔ], [⊥] талаффузига эътибор бериб ўқинг:

Mann	Ecke	Mund	zwölf	dünn	dick	sollen
acht	Heft	bunt	öffnen	Türkisch	immer	Onkel
dann	Bett	und	können	mündlich	mit	von

9-машқ. Бўғин ташкил қилмайдиган [i̯], [u̯], [o̯] унлилари бўлган қуйидаги сўзларни ўқинг:

Elianora	Luise	Familie
Toilette	Februar	Januar
Präposition	Union	Periode
Revolution	Station	Region

---

[1] Вариант — товушнинг кучсиз бўғинларда учрайдиган урғусиз бир тури.

10-машқ. [ɛ̃], [œ̃], [ɔ̃], [ɑ̃] бурун товушларининг талаффузига эътибор бериб, қуйидаги сўзларни ўқинг:

Parfum	Terrain	Bonbon	Affronts
Chance	Cousin	Karton	Jean

11-машқ. [ə] унлисининг (кучсиз редукцияга учраган) талаффуз этилишига эътибор бериб, сўзларни ўқинг.

bitte	meine Freunde	Name bezahlen	Gebirge
alle	deine Freunde	Farbe empfangen	Gebäude
ohne	seine Freunde	Regel Gemälde	gebaut

12-машқ. [a͡ɛ], [a͡o], [ɔ͡ø] дифтонгларига эътибор бериб, сўзларни ўқинг:

leider	viel Zeit	ein Haus kaufen	euer
eins	zwei Beispiele	ein Auto kaufen	deutsch
zwei	drei Bleistifte	blaues Heft kaufen	Bäume

Немис тили унлилари тизимидаги дифтонглар икки қисқа унли товушнинг бирикувидан ташкил топиб, биринчи компоненти бир қатор унлиларга кирса, иккинчи компоненти бошқа қатор унлиларга киради. Масалан:

[a] + [e] = [a͡ɛ]
[a] + [o] = [a͡o]
[o] + [ø] = [ɔ͡ø]

Ўзбек тилида дифтонглар йўқ, лекин баъзи тилшунослар сўзларда учрайдиган *ий, эй, ай, ой, уй, ов, ув* каби ҳарфлар бирикмаларини д и ф т о н г деб талқин қиладилар. Бу ҳарф бирикмалари дифтонглар эмас, чунки бўғин кўчиришда уларнинг таркибий қисмлари иккита бўғинга бўлиниб кетиши мумкин.

Юқорида немис ва ўзбек тиллари унлилари қуйидагича тасниф қилинди:

1) тилнинг горизонтал ҳолатига кўра;
2) тилнинг вертикал ҳолатига кўра;
3) лабларнинг иштирокига кўра;

4) унлиларнинг талаффузига сарфланган вақт миқдорига кўра;

5) унлиларнинг сифатига кўра.

[a:], [ɛ:] унлилари чўзиқ бўлишига қарамай очиқ унлилар ҳисобланади, чунки уларни талаффуз қилишда оғиз бошқа чўзиқ унлиларга нисбатан бироз каттароқ очилади. Немис тилидаги қисқа унлилар очиқ унлилардир. [ɪ], [y], [œ], [ɛ], [ʊ], [ɔ], [a] очиқ унлиларнинг талаффузида пастки жағнинг пастга кўпроқ тушиб оғиз бироз каттароқ очилади.

Талаффуз вақтида лабларнинг иштирокига кўра унлилар лабланган [y:], [y], [u:], [ʊ], [ø:], [œ], [o:], [ɔ] ва лаблаланмаган [i:], [ɪ], [e:], [ɛ:], [ɛ], [a:], [a], [ə] унлиларга ажратилади.

Ўзбек адабий тили унлиларини (уларнинг вариантларини ҳам қўшиб) қуйидаги тарзда таснифлаш мумкин:

Тилнинг горизонтал ҳолатига кўра: тил олди [и], [э], [а], тил орқа [у], [ў], [о] унлилари. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тил олди [и] унли фонемасининг тил орқа (ы) варианти, шунингдек тил орқа [у], [ў] унлиларининг тил олди [ɵ], [ʏ] вариантлари мавжуд бўлиб, булар сўз маъносини фарқлашга (баъзи шеваларда) ҳам хизмат қилади: ун — ун (овоз).

Тилнинг вертикал ҳолатига кўра: ўзбек тилида тор [и], [у]; ўрта кенг [э], [ў] ва кенг [а], [о] унлилари мавжуд.

Ўзбек тилида тил олди [и], [э], [а] унлилари лаблланмаган, тил орқа [у], [ў], [о] унлилари лаблангандир.

Немис тили унлиларининг ўзбек тили унлиларидан фарқлайдиган асосий хусусиятлари:

1. Немис тилида 18 та унли фонема бўлиб, улардан 15 таси монофтонг; [i:], [ɪ], [y:], [ʏ], [ø], [œ], [e:], [ɛ:],[ɛ], [a:], [a], [o:], [ɔ], [u:], [ʊ]; 3 таси [æ], [a͡o], [ɔ͡ø] дифтонглардир. Ўзбек адабий тилида 6 та унли фонема [и], [э], [а], [о], [ў], [у] бор.

2. Немис тилида тил олди унлилари лабланган [y:], [ʏ], [ø], [œ] ва лаблаланмаган [i:], [ɪ], [e:], [ɛ:], [ɛ], [a] унлиларга бўлинади. Ўзбек тилида эса аввал эслатиб ўтилганидек барча тил олди унлилар [и], [э], [а] лаблланмагандир. Немис тилидаги тил орқа унлилар ҳам лабланган [u:], [ʊ], [o:], [ɔ] ва лаблаланмаган [a:] унлиларга бўлинади.

Ўзбек тилидаги тил орқа [у], [ў], [о] унлилари лабланган-дир.

3. Немис тилидаги тилнинг юқори кўтарилишига икки қатор унлилар жойлашган бўлиб, иккинчи қаторга эса уларга қараганда сифат жиҳатидан кенгроқ, қисқа [⊥], [у], [ʊ] унлилари жойлашган. Ўзбек тили унлилари орасида тилнинг юқори кўтарилиши қаторига [и], [у] тор унлилари жойлашган. Булар бир қаторни ташкил этади, холос.

Немис тилида тилнинг ўрта кўтарилишида ҳам унлилар икки қаторга жойлашган бўлиб, уларнинг биринчи қаторини чўзиқ [е:], [о:], [ø:] унлилари ташкил этса, иккинчи қаторини эса [ɛ:],[ɛ], [œ], [ə], [ɔ] каби унлилар ташкил этади, улар сифат жиҳатидан кенг унлиларга яқин туради. Ўзбек тилида тилнинг ўрта кўтарилишига фақат бир қатор унлилар киради, улар [э], [ў] ўрта кенг унлиларидир.

Тилнинг қуйи кўтарилиши унлиларига немис тилида фақат [а:], [а] кенг унлилари кириб, улар бир қаторни ташкил қилади. Ўзбек тилида ҳам тилнинг қуйи кўтарилиши унлилар қаторини [а:], [о] кенг унлилари ташкил қилади (29-бетдаги 3—4 жадвалларга қаранг).

4. Немис тилида унлиларнинг чўзиқлиги, уларнинг ёпиқлиги билан бирга сўз маъносини ўзгартирадиган белгилардандир. Немис тилида чўзиқ [i:], [y:], [ø:], [е:], [ɛ:], [а:], [о:], [u:] унлилари ҳамда [⊥], [у], [œ], [ɛ], [а], [ɔ], [ʊ] қисқа унлилар мустақил фонемалардир. Ўзбек тилидаги [и], [э], [а], [о], [у], [ў] унлилари немис тилининг чўзиқ унлиларидан қисқароқ, немис тилининг қисқа унлиларидан чўзиқроқ талаффуз этилади (4-жадвалга қаранг).

5. Немис тилидаги чўзиқ ва қисқа унлилар ўзларидан кейин келган ундош билан бир хил бирикмайди: а) чўзиқ унлидан кейин келган ундош ўзидан олдин келган унли билан шу унлининг талаффузи тугаётган пайтда бирикади; б) қисқа унлидан кейин келган ундош ўзидан олдин келган унли билан шу унлининг кучли жаранглаётган пайтида бирикади. Шунинг учун ҳам чўзиқ унлилар фақат очиқ бўғинда ёки шартли ёпиқ бўғинда, қисқа унлилар эса фақат ёпиқ бўғинда учрайди. Қиёсланг:

lesen	lest (ihr)	lernen	Tier
Tage	Tag	Tante	Bücher
gute	gut	Mutter	können
loben	Lob	Onkel	Kinder

6. Немис тилида сўз бошида, сўз ясовчи олд қўшимчадан кейин келган унли товуш аниқ ва кучли (зарб билан) талаффуз этилади. Унлиларнинг бундай айтилиши (Knacklaut) — der feste Einsatz дейилади ва транскрипцияда унли товуш олдига юқорирокда [ʾ] белгиси қўйилади: Ana [ʾana:]. Бу ҳолат ўзбекча санъат сўзидаги [а] унлисининг талаффузига бир оз ўхшаб кетади.

7. Немис тилидаги чўзиқ унлилар урғусиз бўғинда чўзиқлигини қисман йўқотади, лекин бу уларни сифат жиҳатидан ўзгартирмайди. Масалан:

Theater	Johann	der	Fakultät
lebendig	Monolog	er	Institut
über	für	ihr	Universität

8. Немис тили унлиларини талаффуз қилишда тил ва лаб мускуллари ўзбек тилидаги унлиларнинг талаффузидагига қараганда кўпроқ таранглашади: [i:], [y:], [ø:], [e:], [ɛ:], a:], [o:], [u:].

9. Немис тили лабланган унлилари талаффуз этилганда лаблар ўзбек тили лабланган унлилари талаффузи вақтидагига қараганда кўпроқ думалоқлашади ва чўччаяди. Немис тили унлилари: [y:], [ø], [o:], [u:], [y], [œ], [ɔ], [ʊ]; ўзбек тили лабланган унлилари: [у], [ў], [о].

10. Немис тилида баъзи ҳолларда унлиларнинг бўғин ташкил қилмаслик ҳоллари ҳам учрайди. Бунда урғусиз [i̯], [u̯], [o̯] унлилари ўзидан кейин келган унли билан бирикиб, бир бўғинни ташкил этади. Масалан:

Familie	Luise	Rektion	Biologie	Philologie
Union	Stadion	Auditorium		

Бу ҳолларда бўғин ташкил қилмайдиган [i̯], [u̯], [o̯] ўта қисқа айтилади. Ўзбек тилида эса ҳар бир унли сўзда бўғин ташкил этади ёки бўлмаса бир сўзда қанча унли

бўлса, шунча бўғин бўлади. Масалан, ки-тоб, меҳ-нат, о-та, о-на, ло-ла, мак-таб сўзларидагидек.

13-машқ. Қуйидаги сўзларни ўқинг ва унлиларнинг чўзиқлигига эътибор беринг.

Staat	Beet	Tiger	oben	Kuh	Bücher
Saat	leer	Miete	Boot	gut	Tür

14-машқ. Сўз бошида, сўз ясовчи олд қўшимчалардан кейин унлиларнинг кучли зарб (Knacklaut) билан ўқилишига эътибор беринг.

immer	aber	oben	eben	beantworten
ist	an	Ohr	essen	beobachten

15-машқ. Немис ва ўзбек тилларидаги лабланган унлиларга эътибор бериб, сўзларни ўқинг:

und	Onkel	Übung	Öl	олам	ун	ун
Ufer	Kohl	für	mögen	бола	булут	тун
Buch	Tuch	Tür	können	аъло	шу	обрў
Mund	Tochter	Süden	König	Ботир	Муслим	Ўктам

[а:], [а] унлилари

[а:] унлиси кенг, тил орқа, қуйи кўтарилиш, лабланмаган чўзиқ товушдир. [а] унлиси қисқа, кенг, тил олди, қуйи кўтарилиш, лабланмаган товушдир.

Чўзиқ [а:] унлиси талаффуз қилинганда лаблар нейтрал, ҳаракатсиз ҳолда бўлади. Лаблар тишлардан анча узоқлашади. Тил учи пастки олд тишларга тегади, тил устининг ўртаси орқага бир оз силжийди ва юмшоқ танглай бир оз кўтарилади. Пастки жағнинг пастга тушиши натижасида оғиз бир оз каттароқ очилади.

Қисқа [а] унлиси талаффуз қилинганда лаблар тишлардан аста-секин узоқлашади. Лаблар ва тишлар орасидаги оралиқ чўзиқ [а:] талаффузи вақтидагидан кичикроқ бўлади. Тил учи пастки олд тишларга тегади. Тил устининг олд қисми қаттиқ танглай томон бир оз кўтарилади.

Юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади. Пастки жағнинг пастга тушиши натижасида оғиз бир оз каттароқ очилади:

(a:, a:, a:, a:) — [a, a, a, a]

"a" ҳарфи қуйидаги ҳолатларда [a:] чўзиқ унлисини ифодалайди:

1) очиқ урғули бўғинда келса: baden, Abend, haben, da
2) шартли ёпиқ бўғинда келса: Tag, Rad, Staat.
3) ўқилмайдиган **h** ҳарфидан олдин: fahren, Bahn.
4) сўзда қўш **aa** келса: Saal, Staat, Paar.
5) сонор товушидан олдин келса: damals
6) қуйидаги суффиксларда келса: -sal, -bar, -sam.



2 - расм. Нутқ органларининг [a:] унлиси талаффузи вақтидаги ҳолати.



3 - расм. Нутқ органларининг [a] унлисининг талаффузи вақтидаги ҳолати.

"a" ҳарфи қуйидаги ҳолатларда [a] қисқа унлисини ифодалайди:

1) ёпиқ бўғинда келса: alt, Hand, Land.

2) қўш унлош ёки ch, tz, ck, ng, nk, pf ундошларидан олдин келса: Mappe, alle, packen, Tisch.

16-машқ. Қуйидаги сўзларни, [a:] чўзиқ унлисининг талаффузига эътибор бериб ўқинг.

haben	Tag	Abend	da
Tafel	Plan	Atem	Anna
Frage	Paar	ahnen	Gera
sagen	Haar	Arzt	Oma

17-машқ. Қисқа [a] унлисининг талаффузига эътибор бериб, сўзларни ўқинг.

machen	Tasse	Hand	Park
hat	Kanne	Sand	nachts
danke	Klasse	Land	Hals

18-машқ. Жуфт сўзларни ўқинг, чўзиқ [a:] ва қисқа [a] унлиларининг сўз маъносини ўзгартиришига эътибор беринг:

Staat — Stadt	Ahn — an	kam — Kamm
Saat — satt	Aal — all	fahl — Fall
Schal — Schall	Wahl — Wall	Gas — Gast

19-машқ. Матнни ўқинг, [a:] ва [a] унлиларининг тўғри талаффузига эътибор беринг. Матнни ўзбек тилига таржима қилинг.

SELTSAMER SPAZIERRITT

(nach Hebel)

Ein Mann reitet auf seinem Esel nach Hause. Sein Sohn läuft nebenher zu Fuß. Da kommt ein Wanderer und sagt: "Das ist ungerecht, Vater. Du reitest, und dein Sohn läuft. Du hast stärkere Beine." Der Vater steigt vom Esel ab und gibt inn dem Sohn. Wieder kommt ein Wanderer. Er sagt: "Das ist nicht recht, Junge. Du hast jüngere Beine. Warum läufst du nicht?" Da setzen sich beide und reiten eine Strecke.

Ein dritter Wanderer kommt vorbei. Er sagt: "Was ist das ein Unverstand? Warum sitzen zwei Kerle aur einem Tier? "Die steigen beide ab und gehen zu Fuß. Ein vierter Wanderer kommt vorbei. Er sagt: "Ihr seid drei kuriose Gesellen. Geht es nicht leichter, wenn einer von euch reitet?" Da bindet der Vater dem Esel die vorderen Beine zusammen, und der Sohn bindet ihm die hinteren Beine zusammen. Sie ziehen einen starken Pfahl durch und tragen den Esel auf der Achsel heim

[u:] ва [ʊ] унлилари

[u:] унлиси чўзиқ, ёпиқ, тил орқа, юқори кўтарилиш лабланган товушдир. Чўзиқ [u:] унлисининг талаффуз вақтида лаблар чўччаяди ва думалоқлашади, тил орқа томонга бир оз силжийди, тил ўрта қисмининг орқаси танглай томон баланд кўтарилади, тилнинг учи пастки олд тишларга тегиб туради, пастки жағ бир оз тушади, юмшоқ танглай кўтарилиб, бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади (4-расм).

[ʊ] унлиси қисқа, очиқ, тил орқа, юқори кўтарилиш лабланган товушдир. Қисқа [ʊ] унлиси талаффуз қилинганда лаблар олдинга қараб чўччаяди ва думалоқлашади. Лабларнинг думалоқлашиши чўзиқ [u:] талаффузи вақтидагига қараганда бир оз кучсиз бўлади. Тил ўрта қисмининг орқаси танглай томон кўтарилади. Юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади. Нутқ органлари қисқа [ʊ] унлисининг талаффузи вақтида, чўзиқ [u:] унлисининг талаффузи вақтидагига қараганда камроқ таранглашади (4-расм).

"u" ҳарфи қуйидаги ҳолатларда [u:] чўзиқ унли товушини ифодалайди.


1) очиқ бўғинда келса: Schule, Jugend, Blume, Rudi.
2) шартли ёпиқ бўғинда келса: Zug, Hut, Mut, gut.
3) **h** ҳарфидан олдин келса: Uhr, Schuh, Stuhl.
4) товушдан олдин сонор келса: nun, nur.

"u" ҳарфи қуйидаги ҳолатларда қисқа [ʊ] ўқилади.

1) ёпиқ бўғинда келса: und, dunkel, Mund, Hund.
2) қўш ундош ёки бир нечта ундош олдида келса: Suppe, Nummer, Butter, Dust.



4-расм. Нутқ органларининг [u:] чўзиқ унлисининг талаффузи вақтидаги ҳолати.



5-расм. Нутқ органларининг [ʊ] қисқа унлисининг талаффузи вақтидаги ҳолати.

Ўзбек тилидаги [у] унлиси ҳам тил орқа, юқори кўтарилиш, лабланган унли бўлиб, сифат жиҳатидан немис тилидаги [u:], [ʊ] унлиларига ўхшайди, миқдори жиҳатидан немис тилидаги чўзиқ [u:] унлисидан қисқароқ, лекин немис тилидаги қисқа [ʊ] унлисидан анча чўзиқроқдир. Ўзбек тилидаги тил орқа [у] унлисининг тил олди [у] варианти ҳам бор. Масалан: туйнук, бугун тунда.

20-машқ. Қуйидаги сўзларни немисча [u:] ва [ʊ] унлилари ҳамда ўзбекча [у] унлисининг талаффузини қиёслаб ўқинг:

[u:]	[ʊ]	[у]	[у]
Buch	und	уйқу	бу
du	Mund	унинг	муз
Rudi	Hund	қуш	булут
Bruder	plus	Фурқат	тумор
gut	dunkel	ҳурмат	хумор

nur	Klub	туз	совун
Blume	jung	Қува	қовун

21-машқ. [u:] чўзиқ унлисининг ёзувда ифодаланишига эътибор бе-риб, қуйидаги сўзларни ўқинг.

Uhr	Hut	Jugend	Nu	Ufer
Schuh	Kur	rufen	du	Urlaub
Kuh	Tuch	Studium	Uhr	Ursache

22-машқ. Сўзлардаги [ʊ] қисқа унлисининг ўқилишига эътибор бе-ринг:

und	Bus	kurz	rund	Mutter
unser	Fuß	bund	Mund	Butter
usbekisch		Hund	Wurst	August

23-машқ. Қуйидаги шеърни ўқинг, [ʊ] қисқа ва [u:] чўзиқ унли-рининг ўқилишини таққосланг:

GEFUNDEN

(Johann Wolfgang Goethe)

Ich ging im Walde
so für mich hin,
und nichts zu suchen,
das war mein Sinn.
Im Schatten sah ich
ein Blümchen stehn,
wie Sterne leuchtend,
wie Äuglein schön.

Ich wollt' es brechen,
da sagt' es fein:
"Soll ich zum Welken
gebrochen sein?"
Ich grub' es mit allen
den Würzlein aus,
zum Garten trug ich's
am hübschen Haus.

Und pflanzt' es wieder
am stillen Ort;
nun zweigt es immer
und blüht so fort.

[i:] ва [ɪ] унлилари

[i:] унлиси чўзиқ, ёпиқ, тил олди, юқори кўтарилиш лабланмаган товушдир. [i:] унлиси талаффуз қилинганда

лаблар тишлардан астагина ажралади. Тилнинг учи пастки олд тишларга тегади. Тил олдинга қараб бир оз силжийди. Тил устининг олд қисми қаттиқ танглайга баланд кўтарилади, лаблар нейтрал ҳолатда бўлади, юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади (6-расм).

[⊥] қисқа, очиқ, тил олди,юқори кўтарилиш, лабланмаган унлидир. Қисқа [⊥] талаффуз қилинганда лаблар тишлардан бир оз узоқлашади. Тил учи пастки олд тишларга тегади. Тил устининг олд қисми қаттиқ танглай томон кўтарилади, тил олдинга қараб силжийди, лаблар нейтрал ҳолатда бўлади. Пастки жағ қисқа [⊥] унлисининг талаффузи вақтида чўзиқ [i:] унлисининг талаффузи вақтидагига қараганда кўпроқ пастга тушади.


"i" ҳарфи қуйидаги ҳолларда [i:] чўзиқ унли товушини ифодалайди:

1) очиқ бўғинда келса: Kino, Tiger, Igel, Titel.
2) шартли ёпиб бўғинда келса: gibt, viel, Tier, Bier.
3) **e** ҳарфидан олдин келса: wieder, Wiese, diese, nie, Ziel.
4) **h** ҳарфидан олдин келса: ihn, ihm, ihr.

"i" ҳарфи қуйидаги ҳолларда [⊥] қисқа унли товушини ифодалайди:

1) ёпиқ бўғинда келса: Kind, Bild, Milch, Fisch, frisch.
2) икки ёки ундан ортиқ ундошдан олдин келса: bitten, Brille, Tinte.

Ўзбек тилидаги [и] унлиси тил олди, юқори кўтарилиш, лабланмаган унли бўлиб, сифати жиҳатидан немис



6-расм. Нутқ органларининг [i:] унлисининг талаффузи вақтидаги ҳолати.

тилидаги [i:] ва [ɪ] унлиларига ўхшайди, чўзиқлиги жи
ҳатидан [и] унлиси немис тилидаги [i:] чўзиқ унлисида
қисқароқ, аммо [ɪ] қисқа унлисидан чўзиқроқ, ўзбе
тилидаги [и] унлиси чуқур тил орқа ундошлардан кейи
келганда, тил орқа вариантга эга бўлади. Масалан, кир
кир, ўтир-ўғир, оғиз-ожиз.

24-машқ. Қуйидаги сўзларни немисча чўзиқ [i:] ва қисқа [ɪ] ҳам
ўзбекча [и] унли товушларининг талаффузига эътибор бериб ўқинг:

[i:]	[ɪ]	[и]	[ы]
Lieder	Lindner	пишт	ғишт
Kino	sind	гир	ғир
Schi	Schild	мис	мих
nie	nicht	сир	сих
die	dick	биз	қиз

25-машқ. Жуфт сўзларни ўқинг, [i:] ва [ɪ] унли товушларининг сў
маъносини фарқлашини ёдда сақланг:

Miete — Mitte	Schiff — schief	hießen — hissen
bieten — bitten	wissen — wiesen	Bienen — binnen
ihn — in	List — liest	Riese — Risse
ihm — im	still — Stiel	ihnen — innen

26-машқ. Сўзлар бирикмаларини ўқинг, [i:] ва [ɪ] унли товушлари
нинг талаффузига эътибор беринг:

wir studieren; sieben Briefe; auf der Wiese liegen; Krieg und Frieden; Bitte links!; im Zimmer sitzen; Pilze finden; Birken und Linden; Mitte April; Interessanter Film; frische Milch; Fritz fischt Fische; sieben Tische; Ein Glas Bier, bitte! Lieder lieben; sie sieht Tiger.

27-машқ. Қуйидаги матнни ифодали ўқинг, [i:] ва [ɪ] унли товушла
рининг сўзларда қандай ҳолатда келаётганлигига эътибор беринг:

KINO MIT EINEM AUGE

Gerd hatte Geburtstag. Zum Geburtstag erhält er viele schöne Sachen. Die Mutter bäckt eine große Torte. Vater gibt ihm etwas Taschengeld. Am nächsten Tag geht er durch die

Stadt. Er kauft Limonade, Konfekte und wollte noch ein Eintrittskarte ins Kino kaufen. Die Kassiererin gibt ihm aber das Geld zurück und sagte: "Das ist zu wenig" — "Ich werde nur mit einem Auge gucken", sagt Gerd.


[o:] ва [ɔ] унлилари

[o:] чўзиқ, ёпиқ, тил орқа, ўрта кўтарилиш, лабланган унли товушдир. [o:] товуши талаффуз қилинганда пастки жағнинг пастга тушиши натижасида оғиз бир оз очилади, лаблар думалоқлашади, тилнинг орқа қисми юмшоқ танглай томон [u:] унлисидагига нисбатан камроқ кўтарилади, тил учи пастки олд тишларга яқин туради, юмшоқ танглай баландга кўтарилиб, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими оғиз бўшлиғи орқали ўтади (7-расм).

[ɔ] қисқа, очиқ, тил орқа, ўрта кўтарилиш, лабланган унли товушдир. [ɔ] унли товуши талаффуз қилинганда лаблар думалоқлашади, пастки жағнинг пастга тушиши натижасида оғиз чўзиқ [o:] унли товушини талаффузи вақтидагига қараганда кўпроқ очилади, тил усти қаттиқ танглай томон кўтарилади. Юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади. Тил учи пастки олд тишларга тегиб туради (8-расм).

O ҳарфи қуйидаги ҳолларда [o:] чўзиқ унли товушини ифодалайди:

1) очиқ бўғинда келса: oben, Boden, oder, Foto, Mode;
2) шартли ёпиқ бўғинда: Tor, rot, Brot, Mond.



7-расм. [o:] чўзиқ унлисининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.



8-расм. [ɔ] қисқа унлисининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

3) сўзда қўш оо келса: Boot, Zoo, Moor, Moos.

4) **O** ҳарфидан кейин **h** ҳарфи келса: Sohn, Ohr, wohl, froh.

O ҳарфи қуйидаги ҳолларда қисқа [ɔ] ўқилади:

1) ёпиқ бўғинда келса: Ort, dort, Kopf, Woche.

2) O ҳарфи икки ёки ундан ортиқ ундош олдида келса: Stoff, wollen, voll.

Ўзбек тилидаги (ў) унлиси артикуляцияси бўйича немис тилидаги [o:] унлисига ўхшайди. Чўзиқлик миқдори бўйича ўзбек [ў] товуши немис тилидаги [o:] товушидан қисқароқ, [ɔ] товушидан эса чўзиқроқ талаффуз қилинади.

Ўзбек тилидаги тил орқа, ўрта кўтарилиш, лабланган [ў] унлисининг тил олди [θ] варианти бўлиб, бу [θ] товуши баъзан сўз маъносини ҳам фарқлашга хизмат қилади. Масалан:

бўз (чўл) ер — бўз (мато)
тўр (балиқ тутадиган) — тўр (уйнинг тўри)

28-машқ. [o:] чўзиқ унли товушининг талаффузига эътибор бериб, сўзларни ўқинг:

Boot, Vogel, froh, Zoo, Wohnung, wo, so, holen, Ober, schon, vor, Hose, Obst, oder, Oper, Methode, Chor, Tor, Labor, Person, Makkaroni, Ton, Monat, Oktober, November, loben, Nobel, Hof, Auto.

Not	Sohn	Sohle	Lohn
Lob	Schoß	Oben	ohne

29-машқ. [ɔ] қисқа унли товушининг талаффузига эътибор бериб, сўзларни ўқинг:

oft	offen	Post	Moskau	sollen
Onkel	Otto	Kopf	Rostock	Socke
Ort	Lotte	Topf	Rostow	Glocke
Osten	Sonne	fort	Sport	Sommer

30-машқ. Жуфт сўзларни ўқинг. [o:] ва [ɔ] унли товушларининг сўз маъноларини фарқига эътибор беринг:

Ofen — offen	Wohle — Wolle	(den) Hofen — Hoffen
(den) Tone-Tonne	Schoß — schoß	(den) Sohne — Sonne
Sohlen — sollen	Boden — Bodden	Floß — floß
wohnen — Wonnen	Rose — Rosse	Zote — Zotte

31-машқ. Матнни ўқинг, таркибида [o:], [ɔ] унли товушлари бўлган сўзларни ажратиб ёзинг ва таржима қилинг:

DER KLEINE KURT

Kurts Mutter hat mit ihrem Sohn oft Sorgen. Kurt ist noch klein. Er macht immer, was verboten ist. "Du darfst nicht auf den Stuhl klettern, der Stuhl wackelt", sagt die Mutter. Kurt ist aber schon mit einem Fuß auf dem Stuhl und fällt herunter. Er weint laut, denn sein Fuß schmerzt. Wer nicht hören will, muß fühlen.

[e:] ва [ɛ] унлилари

[e:] чўзиқ, ёпиқ, тил олди, ўрта кўтарилиш, лабланмаган унли товушдир. [e:] товуши талаффуз қилинганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар икки томонга сал тортилади, тил олдинга қараб силжийди, тил учи пастки олд тишларга тегади, тил устининг ўрта қисми танглай томон анча кўтарилади, юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими оғиз бўшлиғидан чиқади, нутқ органларининг ҳолати [e:] унлисининг талаффузи тугагунча ўзгармайди.

[ɛ] қисқа очиқ, ўрта кўтарилиш, лабланмаган унли товушдир. [ɛ] фонемаси тил олди унлисидир. Бу товуш талаффуз этилганда оғиз бир оз очилади, лаблар икки то-



9-расм. [е:] унлиси талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

монга сезилар-сезилмас тортилади, тил учи пастки о тишларга тегади, тил устининг олд қисми танглай томо кўтарилади, лекин тил устининг олд қисми [е:] унлис талаффузи вақтидагига қараганда бир оз пастроқ кўтари лади, юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтади ган ҳаво йўлини тўсади (9- ва 10-расмлар).

Ўзбек тилидаги [э], [е] товуши талаффузи жиҳатида немис тилидаги [е:] ва [ɛ] товушларига ўхшайди, чўзиқ лиги жиҳатидан эса ўзбек [э], [е] унли товуши ёпиқ бўғин ларда немис тилидаги [ɛ] қисқа унлисига, очиқ бўғин ларда эса немис тилидаги [е:] чўзиқ унлисига жуда яқин талаффуз этилади.

е ҳарфи қуйидаги ҳолларда [е:] чўзиқ товушини ифо далайди:

1. очиқ бўғинда келса: geben, eben, leben, lesen, Esel, ers
2. шартли ёпиқ бўғинда келса: Weg, der;
3. **h** ҳарфидан олдин келса: nehmen, Lehrer, sehen, gehen
4. қўш **ee** унли очиқ бўғинда келса: Beet, leer, Tee Meer, See, Beeren.
5. бирор сонордан олдин келса: er, wer, dem, den. Herd Pferd.

[ɛ] қисқа товушини ифодалайди:

1. ä ва е унли ҳарфлари ёпиқ бўғинда келса: März Rätsel, elf, Eltern;
2. ä ва е қўш ундошдан олдин келса: nennen, kennen hätte.



10-расм. [ɛ] ва [ɛ:] унлиларнинг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

32-машқ. Ўзагида [е:] чўзиқ товуши бўлган қуйидаги сўзларнинг талаффузини машқ қилинг:

Tee	Meter	sehr	Schwert	Erz
See	Rede	zehn	Schleswig	Herd
Idee	neben	gehen	stets	Pferd
Armee	eben	lehren	Erde	werden

33-машқ. Ўзагида [ɛ] қисқа унли товуши бўлган қуйидаги сўзларнинг ўқилишини машқ қилинг:

nennen	kennen	rennen	bellen
verändern	Eltern	elf	Enkel
Herz	Hefte	Rest	denken
März	Lärm	schärfen	schätzen

34-машқ. Қуйидаги сўз гуруҳларини унли товушлар талаффузига эътибор бериб ўқинг:

gern lesen, gern lernen, die Schwester kennen, den Zettel, die Elbe bei Dresden, schnell gehen, von März bis September, das Modell verbessern, schneller rennen, etwas schnell nennen, an der Elbe, das Ende der Ernte.

35-машқ. Матнни ифодали ўқинг. [е:] ва [ɛ] товушларини тўғри талаффуз қилинг:

DIE ERSTE ELEKTRISCHE LAMPE

Es war Abend. Die erste elektrische Lampe brannte im Jahre 1873 in Petersburg (Leningrad). Eines Tages waren die Straßen

leer und still. Hier und da brannten die Petroleumlampe
Sie leuchteten nicht gut. Plötzlich flammte auf einer der Stra
ein helles weißes Licht auf. Die Menschen blieben auf
Straße stehen. Unter den Menschen befand sich auch
Erfinder dieser Lampe Alexander Lodygin.

[ɛ:] унлиси

Чўзиқ очиқ [ɛ:] унлиси тил олди, ўрта кўтарилиш, ла
ланмаган товушдир. Чўзиқ очиқ [ɛ:] унлиси талаф
қилинганда пастки жағ худди қисқа очиқ [ɛ] унлиси
лаффузидаги сингари бир оз тушади, оғиз бир оз очи
ди, тил олдинга қараб бир оз силжийди, тил усти ў
қисми танглай томон кўтарилади, лаблар сезилар-сез
мас икки чеккага тортилади. Чўзиқ очиқ [ɛ:] унлисини
қисқа очиқ [ɛ] унлисидан фарқи унинг чўзиқ талаф
этилишидадир. [ɛ:] унлиси чўзиқ бўлишига қарамай оч
талаффуз этилади. Чўзиқ очиқ [ɛ:] унлисининг талаф
зи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати худди қисқа оч
[ɛ] унлисининг талаффузи вақтидагидек бўлади (11-рас

ä ҳарфи қуйидаги ҳолларда чўзиқ, очиқ [ɛ:] унли то
шини ифодалайди:


1. очиқ бўғинда келса: tätig, Käse, erklären, Läden,
2. шартли ёпиқ бўғинда келса: Bär, spät, täglic
Mädchen.
3. ä дан кейин **h** келса: zählen, Nähe, ähnlich, wählen

36-машқ. Сўзларни ўқинг, чўзиқ, очиқ [ɛ:] унлисининг талаффуз
эътибор беринг:

Bären, Pläne, Häfen, Rumänien	Gesprächs
Sekretär, Städte, Rätsel, Märchen	Äther
ungefähr, während, Zähne, ähnlich	Mädchen

37-машқ. Сўз гуруҳларини ўқинг; чўзиқ, очиқ [ɛ:] унлисининг
лаффузига эътибор беринг:

Das Mädchen näht; während des Gesprächs; nähmlich
spät; ähnliche Pläne; Märchen erzählen; in der Nähe der Hä
Rätsel, Märchen und Erzählungen; nach Dänemark fahren



11-расм. Нутқ органларининг кучсиз [ə] унлисининг талаффузи вақтидаги ҳолати.

38-машқ. Жуфт сўзлардаги чўзиқ, ёпиқ [ɛ:] унлиси ва чўзиқ очиқ [ɛ:] унлиларини тўғри талаффуз қилинг:

Reder — Räder	Seele — Säle
Beeren — Bären	Beere (n) — Bären
sehen — säen	Ehre — Ähre
Meerchen — Märchen	denen — Dänen

[ə] унлиси

[ə] унлиси очиқ, ўрта қатор, ўрта кўтарилиш, ўрта чўзиқликдаги лабланмаган товушдир. Талаффуз қилинганда лаблар озроқ думалоқлашади, оғиз озроқ очилади, тил учи пастки олд тишларга тегади, тил устининг ўртаси қаттиқ, танглай томон кўтарилади, юмшоқ танглай кўтарилиб, бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади (11-расм). Талаффуз қилиб кўринг [ə, ə, ə].

[ə] унлиси мустақил фонема эмас, у чўзиқ, ёпиқ [ɛ:] унлисининг урғусиз бўгинларида учрайдиган кўриниши (варианти)дир. Бу [ə] унлиси немис тилида M u r m e l l a u t деб юритилади, яъни ноаниқ товуш дейилади.

Кучсиз [ə] унлиси ўзбек тилидаги равишдош ясовчи **-иб** (бориб, келиб) қўшимчаси таркибидаги [и] унлиси талаффузига кўпроқ ўхшайди. Ҳозирги кунда [ə] унлиси [n, r, e] сонор товушларидан олдин тўла редукцияга учрайди ва талаффуз этилмайди[1].

[1] Großes Wörterbuch der deutschen Aussprache. VEB Bibliographisches Institut, Leipzig, 1982.

1974 йилгача	1982 йилдан
haben ha: bən	Teufel 'tɔ̈fl
Achen 'a : xən	Artikel ²ar'ti:kl
bieten 'bi:tən	Sessel 'zɛsl
ätzen 'ɛtsən	Esel 'e:zl
Lehrer 'le:rər	Tafel 'ta:fl
Arbeiter 'arbætər	Ärmel ²ɛrml
Maler 'ma:lər	Apfel ²apfl
Vater 'fa:tər	Ampel ²ampl

Сўз қўшимчалари таркибидаги **е** ҳарфи редукцияга уч раб [ə] тарзида кучсиз талаффуз этилади.

Сўзларнинг урғусиз қўшимчаларида **е** келса: bekommen Gebäude, gehören.

Beruf, Gespräch, erklären, enthalten, empfangen Versammlung, zerreißen, alle, nehmen, Hefte, Puppe.

Maler, kommen, Tafel, Nähe, Mädchen, Märchen, alles süße Speise.

39-машқ. Сўзларни [ə] унлисининг кучсиз ўқилишига эътибор бе риб ўқинг:

ohne	begehen	entgehen	zergehen	empfinden	Gefahr
Farbe	Regel	Schule	vergehen	ergehen	erfahren
	Kugel	Name	Klasse	Erde	Erzählung
			Käse	Hundert	

40-машқ. Сўзлар бирикмаларини урғусиз олд қўшимчалардаги [ə] унлисининг талаффузига эътибор бериб ўқинг:

einen Brief bekommen, ein Gebäude bauen, einen Text erzählen, das Geschirr zerschlagen, eine Delegation empfangen, vergehen und vergessen, jemanden entschuldigen, nehmen-nahm-genommen.

41-машқ. Қуйидаги ажралмайдиган олд қўшимчали сўзларни ифо дали ўқинг. Кучсиз [ə] унлисининг варианти бўлган [ɛ] унлисининг та лаффузига эътибор беринг:

empören	erzählen	entfernen	zerschlagen
entlarven	erklären	entlaufen	zerrissen
empfehlen	versäumen	Versammlung	verreisen

42-машқ. Қуйидаги шеърни ифодали ўқинг, сўзлардаги унлиларининг талаффузига эътибор беринг:

MEIN SPIELZEUG

Die Spielzeuglok
fährt nur im Kreis,
ich aber träume gern.
Ich fahr mit ihr durch
Schnee und Eis,
zu Ländern, nah und fern.

Ich zeichne
eine schöne Stadt,
doch nur auf dem Papier,
und wenn ich später
größer bin,
dann baue ich sie hier.


Holger Schulz.
(Aus ABC-Zeitung)

[у:] ва [у] унлилари

[у:] унлиси чўзиқ, ёпиқ, тил олди, юқори кўтарилиш, лабланган товушдир. Чўзиқ [у:] унлиси талаффуз этилганда пастки жағнинг пастга тушиши натижасида оғиз бир оз очилади, лаблар худди [u:] унлисининг талаффузи вақтидагидек олдинга бўртиб чиқади ва думалоқлашади: тил худди [i:] унлисининг талаффузи вақтидагидек олдинга силжийди, тил учи пастки олд тишларга тақалиб туради, тил устининг олд қисми қаттиқ танглайга кўтарилади, юмшоқ танглай ҳам кўтарилади, лекин бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини бутунлай тўсиб қўймайди. Тил ва лабларнинг ҳолати [у:] нинг талаффузи охиригача бир хил бўлади (12-расм).

Қисқа очиқ [у] унлисининг талаффузи вақтида пастки жағ [у:] дагига қараганда бир оз кўпроқ тушади, оғиз кўпроқ очилади, лаблар [у:] дагидек таранглашмайди, олдинга чўччаяди ва бир оз думалоқлашади. Тил учи худди қисқа [ɪ] унлисидагидек пастки тишларга тегади, тил олдинга қараб силжийди, тил устининг олд қисми қаттиқ танглай томон кўтарилади, лекин [у:] дагига қараганла камроқ кўтарилади, юмшоқ танглай кўтарилади, лекин бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўла бекитмайди (13-расм), талаффуз қилиб кўринг [у, у, у].

Ўзбек тилида немис тилидаги [у:] ва [у] унлиларига мос келадиган унли фонема йўқ, лекин [у:] ва [у] унлила-



12-расм. [у:] унлисининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

ри ўзбек тилидаги [у] унлисининг тил олди варианти [ю] унлисига сифати жиҳатидан бир оз ўхшайди, чўзиқлиги жиҳатидан немис тилидаги [у:] унлиси ўзбек тилидаги [ю] дан анча чўзиқ, немис тилидаги қисқа [у] унлисига қараганда ўзбек тилидаги [у] анча чўзиқ талаффуз қилинади масалан:

müssen Wüste Künstler fünf куз, кун, тун, жун
mündlich Nüsse Wünschen Münze бугун, тугун, бургу

ü ҳарфи қуйидаги ҳолатларда [у:] чўзиқ унли товушни ифодалайди:


1) очиқ бўғинда келса: üben, müde, Süden, Bücher.

2) шартли ёпиқ бўғинда келса: Tür, für, süß, grün.

3) бу ҳарфдан кейин **h** ҳарфи келса: Führer, kühl, Stühle, ausführlich.

4) бирор сонордан олдин келса: für, Schüler, Zürich.

5) **y** ҳарфи очиқ бўғинда келса: Lyrik, typisch, Physik.



13-расм. [у] унлисининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

Қуйидаги ҳолларда ü ҳарфи [y] қисқа унлисини ифодалайди:

1) кўш ундош олдида келса: Mütter, Flüsse, Füller, müssen.

2) ёпиқ бўғинда, бирдан ортиқ ундош олдида келса: Pünktlich, mündlich.

3) y ҳарфи ёпиқ бўғинда келса: Ypsilon, Symbol.

43-машқ. Чўзиқ, ёпиқ [y:] унлисининг талаффузига эътибор бериб, сўзларни ўқинг.

Übung	Bücher	Gemüse	müde	Glück
über	Tücher	Analyse	natürlich	Stück
Übergang	Züge	Güte	grün	Tür
Übersetzung	Füße	Grüße	Brüder	für

44-машқ. Қуйидаги сўзларни ўқинг, қисқа, очиқ [y] унлисининг талаффузига эътибор беринг:

fünf	künftig	Früchte	Strümpfe	dürfen
Bürger	Würste	Glück	Schlüssel	müssen
wünschen	Künstler	Gründe	Stück	nützen
Führer	hüpsch	Küste	schützen	Mütter

45-машқ. Қуйидаги матнни ўқинг, [y:] ва [y] унлиларининг сифати ҳамда чўзиқлиги жиҳатидан фарқига эътибор беринг:

VATERS UHR

Eines Morgens suchte Vater seine Armbanduhr. Irgendwo hatte er sie verloren. Alle Suchen half nichts. Jetzt mußte Vater im Büro seine Kollegen fragen. Das war unangenehm. Drei Tage später war Neujahr. Zu Hause lag für jeden ein Geschenk unter dem Tannenbaum: für die Kinder Spielsachen, für Mutter eine Halskette, für Großmutter warme Hausschuhe, für den Vater eine Armbanduhr.

46-машқ. [y:] ва [y] унлиларининг сўз маъносини ўзгартиришига эътибор бериб, гапларни ўқинг.

1) Er fühlt sich heute gut.
2) Die Hüte sind neu.
3) Er füllt seinen Füller jeden Tag.
4) Max lebte auch in einer Hütte.

[ø:] ва [œ] унлила

[ø:] унлиси чўзиқ, ёпиқ, тил олд ўрта кўтарилиш, лабланган товушдир. [ø] унлиси талаффуз қилинганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар худ [o:] унлисининг талаффузи вақтидагидек таранглашган ҳолда олдинга чўччайиб чиқади ва думалоқлашади худди [e:] унлиси талаффузи вақтидагидек ҳолатда тил учи пастки олд тишларга тегади, тил олдин қараб силжийди, тил олдининг усти юқорига ўртача кўтарилади; тил ёнлари юқори ён тишларга тегади, юмшоқ танглай кўтарилади, лекин бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсмайди, тил ва лабларнинг ҳолати [ø] унлисининг талаффузи тугагунча бир хил туради (14-расм). Талаффуз қилиб кўринг: [ø:, ø:, ø:].

[œ] унлиси қисқа, очиқ тил олди, ўта кўтарилиш, лабланган товушдир. [œ] унлиси талаффуз қилинганда пастки жағ [ø:] унлиси талаффузи вақтидагидан кўпроқ пастга тушади; лаблар худди қисқа [ɔ] унлисидагидек олдинга бир оз чўччайиб чиқади ва сезиларли даражада думалоқлашади, тил худди [ɛ] унлисидагидек ҳолатда бўлади: тил учи пастки олд тишларга тегади, тил олдинга силжийди, тил устининг олд қисми қаттиқ танглайга [ɛ] унлисидагидек озроқ кўтарилади, юмшоқ танглай кўтарилади, аммо бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсмайди (15-расм), талаффуз қилиб кўринг: [œ, œ, œ].

Ўзбек тилида немис тилидаги [ø] ва [œ] унлиларига ўхшаган фонема йўқ, лекин сифати жиҳатидан немис тилидаги [ø:] ва [œ] унлилари ўзбек тилидаги тил орқа [ў] унлисининг тил олди [θ] вариантига бир оз ўхшайди, чўзиқлик миқдорига кўра немис тилидаги [ø:] ўзбек тилидаги [θ] унли товушига қараганда анча чўзиқ, лекин немис тилидаги [œ] унлисига қарағанда ўзбек тилидаги [θ] товуши чўзиқроқ талаффуз қилинади, масалан: ўсимлик, тўкин-сочин бўлмоқ, кўса киши, ўшанақ, кўтармоқ, сўз, кўз, ўзбек, кўл.

ö ҳарфи қуйидаги ҳолатларда [ø:] чўзиқ унли товушини ифодалайди:

1) очиқ бўғинда келса: hören, stören, Ösen, Größe.

2) шартли ёпиқ бўғинда келса: schön, Brötchen, möglich, verwöhnt.


3) “œ” бирикма шаклида келса: Goethe, Goetheforschung, Goethisch.

4) “eu” бирикма шаклида келса: Friseur, Monteur, Ingenieur.

ö ҳарфи қуйидаги ҳолларда [œ] қисқа унли товушини ифодалайди:

1) ёпиқ бўғинда келса: öffnen, zwölf, Wörter, Körper.

2) қўш ундош олдида келса: Löffel, öffentlich, können.



14-расм. [ø:] унлисининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

47-машқ. Жуфт сўзларни ифодали ўқинг, [ø:] ва [œ] унлиларининг сўз маъносига таъсир этишига эътибор беринг:

Röslein — Rößlein	Goethe — Götte
Ofen — öffnen	Möhre — mörder
Före — fördern	Röslein — Rößlein
Höhle — Hölle	Höker — Höcker
Tönchen — Tönnchen	mögen — möchte

48-машқ. Шеърни магнит лентасига ёзиб тингланг: чўзиқ / ёпиқ [ø:] ва қисқа / очиқ [œ] унлиларини талаффузига эътибор беринг.

HEIDENRÖSLEIN

Johann Wolfgang Goethe

Sah ein Knab’ ein Röslein stehn,
Röslein auf der Heiden,
War so jung und morgenschön,



15-расм. [œ] унлисининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

Lief er schnell, es nah zu sehn,
Sah's mit vielen Freuden.
Röslein, Röslein, Röslein rot,
Röslein auf der Heiden.

Knabe sprach: "Ich breche dich,
Röslein auf der Heiden!"
Röslein sprach: "Ich steche dich,
Daß du ewig denkst an mich,
Und ich will's nicht leiden".
Röslein, Röslein, Röslein rot,
Röslein auf der Heiden.

Und der wilde Knabe brach
's Röslein auf der Heiden.
Röslein wehrte sich und stach,
Half ihm doch kein Weh und Ach,
Mußt' es eben leiden.
Röslein, Röslein, Röslein rot,
Röslein auf der Heiden.

49-машқ. Бирлик ва кўпликдаги отларни ўқинг, тил орқа [ø:] [ɔ] ва тил олди [ø:] [œ] унлиларининг жарангланишидаги фарққа эътибор беринг:

Ofen — Öfen	Lohn — Löhne	Dorf — Dörfer
Boden — Böden	Bogen — Bögen	Korn — Körner
Sohn — Söhne	Vogel — Vögel	Horn — Hörner
	größe — Größe	
	tot — töten	
	Hof — Höfe	

50-машқ. [ø:] ва [œ] унлилари бўлган сўзларнинг талаффузига эътибор бериб матнни ўқинг:

WIE DER MAUS DEM LÖWEN DANKTE

Einmal sonnte sich ein Löwe in der Wüste. Plötzlich kroch zwischen seinen Pfoten eine Maus aus dem Boden. Der Löwe wollte das Mäuschen töten, schenkte ihm dann aber doch das

Leben. Später geriet der Löwe einmal in ein Netz. Er konnte es nicht zerreißen. Da kam das Mäuschen und rettete so den Löwen: Das Mäuschen zernagte das Netz.

[ǣ], [a͡o], [ɔ͡ø] дифтонглари

Икки унлининг бирикиб битта товушни ифодалаши дифтонг дейилади. Немис тилида 3 та дифтонг бўлиб: улар [ǣ], [a͡o], [ɔ͡ø] дифтонгларининг биринчи қисми кучли урғули ва аниқ талаффуз этилса, иккинчиси эса урғусиз бўлиб кучсиз талаффуз этилади. Дифтонгларнинг монофтонглардан фарқи шундан иборатки, дифтонглар сирғалувчи характерга эга: нутқ органлари биринчи унлининг талаффуз ҳолатидан иккинчи унлининг талаффуз ҳолатига сирғалиб ўтади, масалан, [a] дан [e:] га, [a] дан [o] га, [ɔ] дан [ø] га. Дифтонгнинг икки элементи орасига ҳеч қандай товуш қўйилмай, бир товуш доирасида талаффуз қилинади.

Немис тили дифтонгларига ўхшаш товушлар ўзбек тилида учрамайди. Ўзбек тилида дифтонгга яқин келувчи товушлар бирикмалари учрайди: Масалан: ой, ий, ай.

[ǣ] дифтонги қисқа [a] унлисидан ва сифатига кўра жарангланиши ноаниқ, чўзиқлик миқдорига кўра чўзиқроқ, урғусиз [e:] унлисидан ташкил топган. [ǣ] дифтонгининг талаффузи вақтида нутқ органлари (тил ва лаблар) [a] унлиси талаффуз ҳолатидан [e:] унлисига яқин товушнинг талаффуз ҳолатига ўтади, талаффуз қилинг: [ǣ , ǣ , ǣ].

ai, ey, ay, ei унли ҳарфлар бирикмаси [ǣ] дифтонгини ифодалайди:

1. **ei** — ein, eins, zwei, drei, frei.
2. **ai** — Mai, Mais, Rain.
3. **ey** — Beyer, Meyer.
4. **ay** — Bayer.

[ɔ͡ø] дифтонги қисқа [ɔ] унлисидан ва сифатига кўра жарангланиши ноаниқ, чўзиқлик миқдорига кўра чўзиқроқ, урғусиз [ø] унлисидан ташкил топган. [ɔ͡ø] дифтонги талаффуз этилганда тил ва лаблар [ɔ] унлиси талаффуз

ҳолатидан [ø] унлиси ҳолатига ўтади, талаффуз қилинг: [ɔ͡ø], [ɔ͡ø], [ɔ͡ø].

äu ҳарфлар бирикмаси қуйидаги ҳолларда [ɔ͡ø] дифтонгини ифодалайди:

1. **äu** — Mäuse, Häuser, Läufer, Gebäude.
2. **eu** — neun, heute, Leute, freuen.

[a͡o] дифтонги қисқа [a] унлисидан ва сифатига кўра жарангланиши ноаниқ, чўзиқлик миқдорига кўра чўзиқроқ, урғусиз [o] унлисидан ташкил топган. [a͡o] дифтонги талаффуз этилганда тил ва лаблар [a] унлиси талаффуз ҳолатидан [o:] унлисига яқин товушнинг талаффуз ҳолатига ўтади, айтиб кўринг: [a͡o, a͡o, a͡o].

au ҳарфлар бирикмаси қуйидаги ҳолларда [a͡o] дифтонгини ифодалайди:

au — auch, Haus, Bauer, Maus.

Ўзбек тилида дифтонглар йўқ, шунинг учун [æ͡], [a͡o], [ɔ͡ø] дифтонглари ўзбек тили ай, ао, ой унлилар бирикмалари орқали ифодаланади.

51-машқ. [æ͡] дифтонгининг талаффузига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

Eis	Seite	Meister	breit
eins	Speise	Arbeiter	Preis
Reis	Weite	Leiter	weiß

52-машқ. [ɔ͡ø] дифтонгининг талаффузига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

neun	euch	euer	teuer
deutsch	Freund	heute	neu
Räume	Bäume	häufig	läufst

53-машқ. [a͡o] дифтонгининг талаффузига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

auch	Rauch	Bauch	Auge
dauern	rauchen	laufen	bauen
Auto	Laune	Pause	zu Hause

Бўғин ташкил қилмайдиган [i̯], [u̯] унлилари

Немис тилида [i̯], [u̯] унлилари бўғин ташкил қилмайдиган унлилардир. Бу унлилар ўзларидан кейин келган унли билан биргаликда бир бўғинни ташкил қиладилар.

Талаффузи жиҳатидан [i̯], [u̯] унлилари чўзиқ, ёпиқ [i:], [u:] унлиларига ўхшайди ва улардан ўта қисқа талаффуз қилиниши билан фарқланади, демак [i̯], [u̯] унлилари сифати жиҳатидан ёпиқ, чўзиқ, миқдори жиҳатидан — ўта қисқа унлилардир.

[i̯] унлиси ёзувда **i** ҳарфи орқали ифодаланади ва бошқа тиллардан кирган сўзларда **e**, **o** ва **u** унлиларидан олдин келади, масалан: Familie, Linie, Präposition, Revolution, Portion.

[u̯] унлиси ёзувда **u** ҳарфи орқали ифодаланади ва кўпинча **a** унлисидан олдин келади, масалан: lingual, Linguistik, Genua.

Ўзбек тилида бўғин ташкил қилмайдиган унлилар йўқ.

54-машқ. Ўта қисқа [i̯], [u̯] унлилари бўлган қуйидаги сўзларни ўқинг:

Familie — fami : liə	lingual — lɪŋgu̯a : l
Auditorium — au̯di.to : ri̯um	Linguathek — lɪŋgua. te : k
Laboratorium — La.bo.ra.to : rium	Lingua — lɪŋgu̯a.
Ferien — fe : ri̯ən	Luisa — lui : za
Zentralasien — tsentra : l :a : zi̯ən	Emanuell — e.ma : nu̯el
Atelier — ate.lie :	Linguistik — lɪŋgu̯ɪstɪk
Albanien — alba : ni̯ən	Managua — ma.na : gua.

55-машқ. [i̯] ва [u̯] унлилари иштирок этган сўзларга эътибор бериб, жумлаларни ўқинг, уларни ўзбек тилига таржима қилинг:

1. Unser Institut hat eine reiche Bibliothek.
2. Unser Labor hat eine Linguathek.
3. Unsere Familie besteht aus sechs Personen.
4. Die Linguistik ist unser Fach.

[ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃:], [œ̃:] унли товушлари

Француз тилидан немис тилига кириб келган сўзларда тўртта бурун товушлари [ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃:], [œ̃:] учрайди. Бу унлилар сифатига кўра очиқ, миқдорига кўра чўзиқ товушлардир. [ã:], [ɔ̃:], [ɛ̃:], [œ̃:] унлиларининг талаффузи вақтида юмшоқ танглай пастга тушади, натижада ўпкадан келаётган ҳавонинг бир қисми бурун бўшлиғидан ўтади. Агар бу бурун товушларини талаффузини чиқариш қийин бўлса, [ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃:], [œ̃:] унлиларидан кейин тил орқа [ŋ] ундошини талаффуз қилиш кифоя қилади. Бу унлилар француз тилидан немис тилига кириб келган сўзларда бурун ундошлари олдида келади:

ʃã : sə — Chance — ишонч
kartɔ̃ : — Karton — картон (қоғоз)
ku. zɛ̃ : — Cousin — амакивачча
amyzəmã : — Amüsement — ширин ҳид, атир.

Немис тилида жуда кам қўлланадиган сўзлардагина учрайдиган [ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃:], [œ̃:] бурун товушларини немис тилининг мустақил унлилари (фонемалари) деб бўлмайди. Бу унлилар француз тили унлилар тизимидан немис тили унлилар тизимига ўтиб қолган бурун товушларидир. Бу бурун товушлари урғусиз бўғинларда ярим чўзиқ талаффуз этилади.

Ўзбек тилидаги унлилар тизимида бурун товушлари йўқ. Лекин н, м, ң каби ундошлар олдида келган унлилар бир оз димоғда айтилади, масалан, он, ун, онг, энг, ўнг, том, хом, кам, там каби.

56-машқ. [ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃:], [œ̃:] бурун товушларига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

Change	Chiffon	Chignon	Champignon	Saison
Rolland	Ballon	Balkon	Bonbon	Lyon
Chance	Parfüm	Balance	Ensemble	
Franc	Fontaine	Amper	Abonements	

57-машқ. Қуйидаги жумлаларни ифодали ўқинг. [ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃:], [œ̃:] бурун товушларини тўғри талаффуз қилишга ҳаракат қилинг:

1. Er hat Chance.
2. Die Ensemble "Bachor" ist weltbekannt.
3. Der Ballon ging nieder.
4. Zum Geburtstag kauft er 2 Kilo Bonbon.
5. Da gibt es keinen Pardon.
6. Man braucht Franc in Frankreich, Belgien und in der Schweiz.
7. Die Fontainen heißen Springbrunnen.
8. Sie arbeitet in der Parfümerie.

III боб

УНДОШЛАРНИНГ УМУМИЙ ТАЪРИФИ

Ундошларнинг ҳосил бўлишида ўпкадан чиқаётган ҳавонинг оғиз бўшлиғида бирон тўсиққа учраши ундошларга хос хусусиятларидан биридир. Нутқ аппаратининг маълум бир жойидаги ўша тўсиқни ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими орқали бартараф этилиши натижасида шовқин пайдо бўлади. Бу шовқин ундош товуш асосида ётади. Тўсиқ содир бўлган жой эса маълум бир ундош товушнинг пайдо бўлиш ўрни бўлиб хизмат қилади.

Тўсиқнинг тури эса нутқ органларининг ҳаракати ва ҳолатига боғлиқ. Ундош товушлар талаффузи вақтида баъзи нутқ органларининг бир-бирига тегиши, жипслашиши ва уларнинг бир-биридан бирданига ёки аста-секин ажралиши натижасида портлаш ёки сирғалиш ҳосил бўлади. Баъзи нутқ органлари ундошлар талаффуз қилинганда бир-бирига яқинлашиб тор ҳаво йўли — тирқиш ҳосил қилади. Бундан ташқари баъзи нутқ органлари ўпкадан чиқаётган ҳавонинг кучи таъсири натижасида титраши ҳам мумкин. Нутқ органларининг ана шу уч хил ҳаракатига ва шу билан боғлиқ бўлган тўсиқ ва унинг бартараф этилишига қараб ундошлар портловчилар, сирғалувчилар, титроқ товушларга бўлинади.

Юқорида қайд қилинган тўсиқларнинг турлари нутқ аппаратининг бирон актив органининг ҳаракати натижасида юзага келади. Нутқ аппаратининг актив органининг ҳаракати ёки ҳолатига қараб ундошлар лабланган, тил ўрта,

тил орқа, кичик тил (увуляр), бўғиз (фарингал) ундош товушларга бўлинади.

Ундош товушларнинг шаклланишида товуш пайчаларининг қатнашиши катта аҳамиятга эга. Товуш пайчаларининг қатнашишига кўра ундошлар уч турга: жарангсиз, жарангли, бурун товушлари (сонорларга)га бўлинади.

Жарангсиз ундошлар талаффуз қилинганда товуш пайчалари қатнашмайди, бундай ундошлар фақат шовқиндан иборат бўлади. Жарангсиз ундошлар талаффуз қилинганда ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими анча кучли бўлади. Шунинг учун ҳам жарангсиз ундошлар кучли ундош товушлардир.

Жарангли ундошлар талаффуз қилинганда товуш пайчалари тараиглашиб титрайди, шовқинга қўшилиб овоз ҳам ҳосил бўлади, лекин шовқин овоздан (тондан) баланд келади. Жарангли ундошлар анча кучсиз ҳаво оқими билан талаффуз этилади. Шунинг учун ҳам барча жарангли ундошлар кучсиз ундош товушлардир.

Бурун товушлари (сонорлар) ҳам товуш пайчалари иштироки билан талаффуз этилади, лекин овоз (тон) уларда шовқиндан устунлик қилади. Бурун товушларида ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими яна ҳам кучсизроқдир. Демак, энг кучсиз ундошлар бу сонорлардир.

Шовқинли ундошлар талаффуз этилганда юмшоқ танглай кўтарилиб, бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади. Бурун товушлари талаффуз қилинганда эса юмшоқ танглай пастга тушиб, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими оғиз бўшлиғидан эмас, бурун бўшлиғидан чиқади. Ундош товушлар хусусиятларга кўра таснифланади. Буни немис ва ўзбек тиллари ундошлари мисолида кўриш мумкин: (63-64 бетдаги 5—6-жадвалларга қаранг).

Немис тили ундошлари ва уларнинг таснифи

Ўпкадан чиқиб келаётган ҳаво оқимининг нутқ органлари ҳосил қилган тўсиққа учраши немис тили ундошларининг ҳосил бўлиши учун ҳам хосдир. Немис тилида ҳам ундош товушларнинг сифати нутқ органларининг ҳаракати, оғиз ва бўғиз бўшлиқларининг шакли ва товуш

5-жадвал

Немис тилидаги ундош товушлар таснифи[1]

Ҳосил бўлиш усулига кўра / Ҳосил бўлиш ўрнига кўра		Лаб товушлари			Лаб-тиш		Тиш товушлари								Кичик тил товушари		Бўғиз товушлари
		Лаб-Лаб					Тил олди			Тил ўрта		Тил орқа					
		жарангсиз	жарангли	сонор	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли	сонор	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли	сонор	жарангсиз	сонор	
Шовқинлилар	Портловчилар	p	b				t	d				k	g				
	Сирғалувчилар				f	v	s ʃ	z ʒ		ç	j				x		h
	Аффрикатлар				p͡f		t͡s t͡ʃ										
Портловчи очиқ товушлар	Бурун товушлари			m					n				ŋ				
	Ён товушлари								l								
	Титроқ товушлар								r							R	

[1] Б. Л. Бондаревский ва б. Немис тили дарслиги. Т., 1978, 419-бет.

6-жадвал

Ўзбек тилидаги ундош товушлар таснифи[1]

Пайдо бўлиш ўрнига кўра		Лаб товушлари				Тиш товушлари								Бўғиз
		лаб-лаб		лаб-тиш		тил олди		тил ўрта		яқин тил орқа		чуқур тил орқа		
Составига кўра	Товуш пайчаларининг Иштирокига кўра / Айтилиш усулига кўра	жарангли	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли	жарангсиз	жарангли
Овознинг иштирокига кўра														
Шовқинли	Портловчилар	б	п	-	-	д	т	-	-	г	к	х	қ	-
	Сирғалувчилар	в	-	-	ф	з	с	ж	ш	й	-	ғ	х	х
Сонорлар	Портловчи / бурун	м	-	-	-	н	-	-	-	н (нг)	-	-	-	-
	Сирғалувчи / ён					л								
	Титроқ					р								
Шовқинли	Портловчи							Цч	ж					
	Сирғалувчи													

[1] Ш. Шабдураҳмонов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1980, 66-бет.

пайчаларининг талаффуздаги иштирокига боғлиқ. Немис тили ундошлари қуйидагича таснифланади:

1. Актив нутқ органларининг иштироки ва тўсиқнинг ҳосил бўлиш ўрнига кўра; бундай артикуляцион белгиларга кўра ундошлар лаб, тил, бўғиз ундошларига бўлинади. Лаб ундошлари икки хил бўлиб, булар лаб-лаб, лаб-тиш ундошларидир. Немис тили лаб-лаб ундошлари [p], [b], [m] товушларидир. Лаб-тиш ундошлари эса пастки лаб ва юқори тишларнинг орасида ҳосил бўлади. Немис тили лаб-тиш ундошлари [f], [v], [pf] товушларидир.

Тил товушлари тил олди, тил ўрта, тил орқа товушларига бўлинади. Немис тили тил олди ундошлари [t], [d], [ʃ], [z], [ʒ], [ts], [tʃ] товушларидир. Тил ўрта ундошларига немис тилининг [ç], [j] фонемалари киради. Немис тилининг [x], [ŋ] , [k], [g] ундошлари талаффуз этилганда тил орқаси танғлай томон кўтарилади. Шунинг учун ҳам бу ундошлар т и л о р қ а у н д о ш л а р и дейилади. Кичик тил актив нутқ органларидан бири бўлиб, [R] ундошининг ҳосил бўлишида муҳим роль ўйнайди. Шунинг учун ҳам бу ундош к и ч и к т и л у н д о ш и дейилади. Ўпкадан чиқаётган ҳаво бўғизда тўсиққа учрайди ва бу тўсиқни сирғалиш йўли билан бартараф қилади. Натижада [h] ундоши ҳосил бўлади. Немис тилида ҳам бу ундош б ў ғ и з т о в у ш и дейилади.

2. Шовқиннинг ҳосил бўлиш усули ёки тўсиқнинг қандай бартараф бўлишига кўра немис тили ундошлари қуйидаги турларга бўлинади: а) [p], [b], [t], [d], [k], [g], [m], [n], [ŋ], [l] портловчи ундошлар;

б) сирғалувчилар [f], [v], [s], [ʃ], [z], [ʒ], [ç], [j], [x], [h];

в) портловчи — сирғалувчи [pf], [ts], [tʃ] аффрикатларидир. Немис тили ундошларидан [r] ва [R] товушлари талаффуз этилганда тил учи ёки кичик тил титрайди. Шунинг учун ҳам бу ундошлар т и т р о қ у н д о ш л а р дейилади.

3. Товуш пайчаларининг (овознинг) қатнашишига кўра немис тили ундошлари икки турга бўлинади: а) жарангли ундошлар ([b], [d], [g], [v], [z], [ʒ], [j],) ва б) жарангсиз ундошлар ([p], [t], [k], [f], [s], [ʃ], [ç], [x], [h]). Жарангли

ундошлар талаффуз этилганда товуш пайчалари таранглашади ва титрайди;

жарангсиз ундошларнинг талаффузида эса товуш пайчалари титрамайди. Немис тили сонор ундошлари [m], [n], [ŋ], [l], [r], [R] талаффузи давомида товуш пайчалари кўпроқ титраши натижасида шовқинга нисбатан овоз кўпроқ бўлади. Шунинг учун ҳам сонорлар эшитилиши жиҳатидан унли товушларги яқинроқ бўлади.

Шундай қилиб, немис тилида 24 та ундош товуш бўлиб, улар немис тили ундошлар тизимини ташкил қилади (5-жадвал). Немис тили ундошлари [p], [b], [t], [d], [k], [g], [f], [v], [s], [ʃ], [z], [ʒ], [ç], [j], [x], [h], [pf], [ts], [tʃ], [m], [n], [ŋ], [l], [r], [R].

Немис тили ундошларини ўзбек тили ундошларидан фарқлайдиган асосий хусусиятлар

1) Немис тили ундошлари ўзбек тили ундошларига нисбатан кучлироқ талаффуз этилади.

2) Немис тилидаги [f], [v] ундошлари лаб-тиш ундошларидир, ўзбек тилидаги [в] ундоши лаб-лаб, [ф] лаб-тиш ундошидир.

3) Немис тилидаги [t], [d], [n] ундошлари тил учининг юқори олд тишлар милкига яқинлашуви натижасида ҳосил бўлса, ўзбек тилининг [т], [д], [н] ундошлари тил учининг юқори олд тишларга яқинлашуви натижасида ҳосил бўлади, немис тилидаги [s], [z], [l] ундошлари ҳам милк товушлари бўлиб, ўзбек тилидаги [с], [з], [л] ундошлари эса тиш ундошларидир. Тил учининг юқори олд тишлар милкига тегиши натижасида немис тилида [l] ундош ҳосил бўлади. Шунинг учун [l] ундоши милк ундошидир. Ўзбек тилидаги [л] ундоши эса тил ундошидир.

4) Немис тилидаги тил ўрта [ç] ундошига мос келадиган ундош ўзбек тилида йўқ.

5) Немис тилидаги [p], [t], [k] ундошларининг ўзбек тилидаги [п], [т], [к] ундошларидан фарқи шундан иборатки, биринчидан, немис тилидаги [p], [t], [k] ундошлари талаффуз қилинганда нутқ органлари таранглашади,

сўз бошида ва сўз охирида урғули бўғинларда талаффуз қилинганда эса қўшимча **"h"** нафас товуши ҳисобланган [h] эшитилишидир:

Paar — ˈpʰa:r	Tisch — tʰ⊥ʃ	kam — kʰa:m
Put — ˈpʰu:t	Tag — tʰa:kʰ	kurz — kʰʊrts
gab — ga:pʰ	Hund — ˈhʊntʰ	Berg — ˈbɛrkʰ

6) Немис тилининг барча жарангли ундошлари сўз бошида ярим жарангли талаффуз этилади. Бу фонетик ҳодиса немис тили ундошларининг ўзбек тили ундошларидан кучли талаффуз этилишидан далолат беради, қиёсланг:

gab — гап	Band — банд	Saar — зар	sang — занг
Bär — бер	Bier — бир	Gas — газ	Beet — бет

7) Немис тилида қоришиқ ундош (аффрикат) [pf] бор, ўзбек тилида эса қоришиқ ундошлар орасида бунга мос келадиган товуш йўқ.

8) Немис тилида бир сўз ичида келган қўш бир хил ундош битта товушни беради ва бир бўғинга киради, ўзбек тилида қўш ундош иккита ўхшаш товушни беради ва иккита бўғинни ташкил қилади, масалан: sammeln — аммо, hatte — ҳатто, Schatten — шартта. Ўзбек тилида қўш ундош бир товуш билан ўқилса, бу сўз маъносини ўзгартиради, масалан: ҳатто — хато, тилла — тила, ялла — яла, молли — моли каби.

9) Немис тилидаги тил олди, титроқ [r] ундоши ўзбек тилидаги тил олди титроқ [р] ундошидан нутқда ўзгарувчанлиги билан фарқ қилади — Сўз бошида унлидан олдин ёки ундошдан кейин, қисқа унлидан кейин [r] ундошининг ўзбек тилидаги [ғ] ундоши каби талаффуз этилиши Германияда ҳозир кенг тарқалмоқда. Бундан ташқари тил олди, титроқ [r] ундошининг чўзиқ унлилардан кейин ([a:] унлисидан ташқари) унлилашиши ҳам кузатилмоқдаки, бу ўзгаришни баъзи талаффуз луғатларда ҳам учратиш мумкин. Қуйида ҳозирги немис тили фонетикасидаги ўзгаришлардан намуналар берилади (7-жадвал).

7-жадвал

Немис ва ўзбек тилларида р ундошининг ўқилиши:

Немис тилида [r]					Ўзбек тилида
[R] сўз бошида		ва бошқа ҳолатларда			[p]
унлидан кейин	ундошдан кейин	қисқа унлидан кейин	қўшимчаларда	чўзиқ унлидан кейин	
Rad	drei	Ort	erzählen	Ohr	рост
Arbeit	breit	irren	verkaufen	Uhr	расм
ihre	treiben	Urteil	zerschlagen	Tür	риск
Ordner	Preis	Erz	erlaufen	Tier	ривож рухсат

58-машқ. Немис тили ундош товушларини ҳарфлар билан ифодаланг, уларга ёзма мисоллар келтиринг ва мисолларни ифодали ўқинг.

59-машқ. Шеърни ифодали ўқинг, тил олди ундошларининг талаффузи вақтида тил учининг милкка тегишига эътибор беринг:

Zähneputzen ist nicht schwer

Alle Kinder groß und klein,
putzen sich die Zähne fein,
mehrmals hin, mehrmals her,
Zähneputzen ist nicht schwer.
Denke dran, nach jedem Essen,
wollen niemals wir vergessen,
mehrmals hin, mehrmals her,
Zähneputzen ist nicht schwer.
Lutschen wir Bonbons im Bett,
findet das der Zahn nicht nett,
mehrmals hin, mehrmals her,
Zähneputzen ist nicht schwer.
Äpfel, Möhren wollen wir essen
und es keinen Tag vergessen,
mehrmals hin, mehrmals her,
Zähneputzen ist nicht schwer.

Zeitung "Rote Fahne", № 358

60-машқ. [pf] ва [ç] ундошларининг ҳарфлар орқали ифодаланишига эътибор бериб шеърни ўқинг.

Hopp, hopp, ho
das Pferdchen frißt kein Stroh,
Mußt dem Pferdchen Hafer kaufen,
daß es kann im Trabe laufen.
Hopp, hopp, ho,
das Pferdchen frißt kein Stroh!

Hopp, hopp, hopp,
Pferdchen, lauf Galopp!
Über Stock und über Steine,
aber brich dir nicht die Beine!
Hopp, Hopp, hopp,
Pferdchen, lauf Galopp!

61-машқ. Қуйидаги матнни ўқинг, ажратиб кўрсатилган сўзларни товуш ва ҳарф нисбатига эътибор бериб фонетик таҳлил қилинг.

RICHTIG ESSEN

Zuerst eine Frage: **Essen Sie richtig?** — Ich glaube, **nicht** jeder antwortet auf diese Frage. Herr Müller ißt nur **Fleisch**, Frau Müller hat Fisch gern, Herr Schulze ißt gern Brot und Kartoffeln. Die Hauptsache: es **schmeckt**. Aber nicht alles ist gesund.


Sehr gesund ist Milch, Butter und Käse. Jetzt gibt es viel Obst und Gemüse. Essen Sie mehr Obst! Folgen Sie diesen Rat und Sie **fühlen** sich gesund und munter.

Einige Menschen essen und trinken sehr **schnell**. Das schadet dem Menschen.

Gewöhnlich essen wir dreimal oder viermal am Tage. Essen Sie morgens recht viel, **mittags** nicht sehr viel, abends wenig. Am Abend trinken Sie Tee. Um II Uhr gehen Sie schlafen.

[p] ва [b] ундошлари

[p] ва [b] ундошлари лаб-лаб, портловчи, шовқинли ундошлар бўлиб, [p] кучли, жарангсиз ундош, [b] кучсиз, жарангли ундошдир.



16-расм. Нутқ органларининг [p] ва [b] талаффузи вақтидаги ҳолати.

[p], [b] ундошлари талаффуз қилинганда тил олдинга қараб силжийди, тил учи пастки олд тишларга тегиб туради, тил олди бир оз кўтарилади, лаблар жипслашади, товуш пайчалари таранглашади, лекин титрамайди, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими [p] ундоши талаффуз этилгандан кейин ҳам бир оз давом этади, шунинг учун ҳам [p] ундоши кўпроқ нафас чиқариш билан талаффуз этиладиган ундошдир, [p] ундошининг ўзбек тилидаги [п] ундошидан фарқи ҳам ана шунда. Жарангли [b] ундоши талаффуз этилганда лаблар бир-бирига текис тегади, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими жипс лабларга урилиб зарб билан чиқади, товуш пайчалари [b] ундоши талаффузи бошлангандан анча кейин таранглашиб титрайди. Шунинг учун [b] ундошининг бошланиши жарангсиз, охири эса тўла жаранглидир.

[p], [b] ундошлари талаффуз этилганда юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўли тўсилади. Шунинг учун ҳам [p], [b] ундошлари шовқинлидир. Немис тилининг [p], [b] ундошлари ўзбек тилининг [п], [б] ундошларига қараганда анча кучли талаффуз этилади.

P фонемаси ёзувда қуйидагича ифодаланади:

а) **p** — сўз бошида, ўртасида, охирида келса: Pult, Puppe, packen, Perfekt.

б) **pp** сўз ўртасида келса: Suppe, Puppe, Lappen.

в) **b** — бўғин охирида ёки сўз охирида: gelb, Verb, abfragen.

г) **b** — сўз ўртасида бирон жарангсиз ундошдан олдин: begabt, gibt.

b фонемаси ёзувда қуйидагича ифодаланади:

а) **b** — сўз бошида: Bild, baden, Abend, bleiben.

б) **b** — сўз ўртасида унлилар орасида келса: Abend, leben, beben, schreiben.

в) **bb** — сўз ўртасида келса: Abba, Ebbe.

62-машқ. Қуйидаги сўзларни сўз бошида келган [p] ундошининг талаффузига эътибор бериб ўқинг.

Papier	Post	Pilz	Polen
Potsdam	Platz	Paul	Paar
Paß	prüfen	plötzlich	
putzen	Peter	pünktlich	
passen	Preis	Plan	
Partner	Park		

63-машқ. Сўз бошида келган [b] ундошининг талаффузига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

Buch	bitte	Bild	Berlin
bald	Boot	beide	blind
Band	Beet	Bäume	Birne
blau	breit	Brot	brauchen

64-машқ. Ўқинг. Бўғин ва сўз охирида [b] ҳарфининг ўқилишига эътибор беринг:

1) Der Lehrer will die Studenten abfragen.
2) Der Student Achmad Rasulow muß ein Buch ablegen.
3) Die Gäste müssen das Gepäck hier ablegen.
4) Lob des Vaters ist immer teuer.
5) Sein Auto ist gelb.

65-машқ. Қуйидаги сўзларни транскрипция шаклида ёзинг ва сўз ўртасида жарангсиз ундошдан олдин келган [b] ҳарфининг [p] деб ўқилишига эътибор беринг:

1) Es gibt hier ein Theater.
2) Der Herbst beginnt im September.
3) Halima schreibt ihrem Bruder einen Brief.
4) Er hat in Berlin gelebt.
5) Er hat sie geliebt.

66-машқ. Феълларнинг презенсда тусланишини ёд олинг ва [p], [b] ундошларининг ўқилишига эътибор беринг:

ich habe	wir haben	ich schreibe	wir schreiben
du hast	ihr habt	du schreibst	ihr schreibt
er, sie, es hat	sie haben	er schreibt	sie schreiben

67-машқ. Қуйидаги тез айтиш, мақол, маталлардаги [p], [b] ундошларини ёзувда ифодаланишига эътибор беринг:

Fleiß bricht Eis.
In leerem Haus bleibt kein Maus.
Heute groß, morgen bloß.
Heißes Blut, tut nicht gut.

Papier ist geduldig.
Ein Hut paßt nicht auf alle Köpfe.
Ein gutes Pferd trubt ohne Peitsche.
Gleiche Rechte, gleiche Pflichten.

Wer anderen Menschen eine Grabe grābt,
erlebt, was er für jene angestrebt.

Der Bācker bāckt Brot,
Brot bāckt der Bācker.


[t] ва [d] ундошлари

[t] ва [d] ундошлари тил олди, портловчи, шовқинли, милк ундошлари бўлиб, [t] жарангсиз, [d] эса жарангли кучсиз ундошдир. Талаффузи жиҳатидан бу ундошлар ўзбек тилидаги [т] ва [д] ундошларига ўхшайди. Немис тилининг [т], [д] ундошлари талаффуз этилганда пастки жағ бир оз пастга тушади, лаблар таранглашмайди ва тишлардан ажралиб туради, тил олдинга қараб силжийди, тил устининг орқаси пасайиб, тил олди кўтарилади, унинг учи юқори тишлар милкига, тил ёнлари юқори ён тишларга тегади, юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади.

[t] ундоши талаффуз этилганда тил учи милкка маҳкамроқ жипслашади, тил учи [d] ундошдагига қараганда камроқ тегади, ўпкадан чиқиб келаётган ҳаво оқими тўсиқдан ўтиши натижасида шовқин ҳосил бўлади, бу шовқин овозсиз бўлиб, товуш пайчалари таранглашади, лекин тебрамайди, шу пайтда [t] ундоши жарангига қўшимча нафас товуши қўшилади, немис тилидаги [t] ундошининг ўзбек тилидаги [т] ундошидан фарқи ана шунда. Ўзбек

[т] товушининг талаффузида тил учи эмас, балки тил олди иштирок этади. Тил олди милкка теккизилади.

[d] ундоши талаффузида нутқ органлари [t] ундоши талаффузидаги ҳолатни эгаллайди, аммо [d] ундошида товуш пайчалари титрайди. [d] ундоши талаффуз этилаётганда портлаш ҳосил бўлган пайтда товуш пайчаларининг бирданига таранглашмаслиги натижасида унинг титраши анча кечикади, шу сабабли [d] ундошининг бош қисми жарангсиздир. Немис тилининг [t], [d] ундошлари талаффуз этилганда тил олдинга кўпроқ силжийди, шунинг учун ҳам улар ўзбек [т], [д] ундошларига қараганда баландроқ жаранглайди. Талаффуз этиб кўринг:



17-расм. [t] ва [d] ундошларининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

[t, d, t, d, t, d, t, d] [т, д, т, д, т, д, т, д]

Немис тилидаги **t** ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

а) **t** — сўз бошида, ўртасида, охирида келса: Tisch, Foto, mit, Tee.

б) **tt** — сўз ўртасида ёки сўз охирида келса: Mutter, Wetter, Bett, satt.

в) **th** — келиб чиқиши грекча бўлган ва айрим немисча сўзларда келса: Thema, Theorie, Theater, Goethe.

г) **d** — сўз охирида ва суффиксдан олдинги бўғин охирида келса: und, Hund, rund, Mund, Endspiel.

д) **dt** — сўз охирида қисқа унлидан сўнг: Stadt, sandte.

d ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

а) **d** — сўз бошида ва сўз ўртасида келса: die, danke, drei, baden, Norden.

б) **dd** — сўз ўртасида (қисқа унлидан сўнг): Pudding, Kladde, Edda, Toddel.

68-машқ. [th] ҳарфлар бирикмасининг ўқилишига эътибор бсриб, қуйидаги сўз бирикмаларини транскрипция шаклида ёзинг.

ins Theater gehen, ein Thema wiederholen, eine Theorie studieren, an der Theke stehen, ein Theorem herausschreiben,

thematische Konferenz organisieren, einen Themenplan schreiben, Theologie studieren.

69-машқ. Қуйидаги сўз ва сўз бирикмаларини қўш **tt, dd** ундошларининг қисқа ўқилишига эътибор бериб ўқинг.

die Kladde suchen	seiner Mutter helfen
den Pudding zubereiten	das Butterbrot essen
das Paddelboot fahren	im Schatten sitzen

70-машқ. Сўз охирида ёки бўғин охирида келган [d] ҳарфининг [t] ўқилишига эътибор беринг:

Wand	Lied	Feld	Sand	Schuld	Hund	und
Feind	Bad	Geld	Hand	rund	Mund	Grund
Kleid	Grad	Bild	Land	Gegend	gesund	Bund

71-машқ. Шеърни транскрипция шаклида ёзинг ва сўз бошида, сўз ўртасида келган [d] ҳарфининг ўқилишига эътибор беринг:

FRIEDENSLIED

von Bertold Brecht

Friede auf unserer Erde!	Friede in unserem Hause!
Friede auf unserem Feld!	Friede im Haus neben an!
Daß es auch immer gehöre	Friede den friedlichen Nachbarn,
dem, der es gut bestellt!	Daß jeder gedeihen kann!
Friede in unserem Lande!	Friede der Frau und dem Manne
Friede in unserer Stadt!	Friede dem Greis und dem Kind!
Daß sie den gut behause,	Friede der See und dem Lande,
der sie gebaut hat.	daß sie uns günstig sind!

[k] ва [g] ундошлари

[k] ва [g] ундошлари тил орқа, портловчи, шовқинли ундошлар бўлиб, [k] жарангсиз, кучли, [g] эса жарангли, кучсиз товушдир. Бу ундошлар талаффузи жиҳатидан ўзбек тилининг [k], [г] ундошларига ўхшайди.

Немис тилининг [k], [g] ундошлари талаффуз қилинганда пастки жағ бир оз тушади, юқориги лаб озгина кўтарилган бўлади; тилнинг учи пастки олд тишларга тегади, тил олдинга қараб силжийди, тилнинг орқа қисми кўтарилиб, тил усти қаттиқ танглайга тегади, тилнинг чеккалари юқориги ён тишларга тегади, юмшоқ танглай таранглашмайди ва кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади.

[k] ундоши талаффуз этилганда тил устининг орқа қисми танглайга маҳкамроқ ёпишади, лекин тил устининг танглайга теккан жойи [g] ундошидагига қараганда озроқ, ўпкадан чиқаётган ҳавонинг таъсирида портлашнинг юз бериши натижасида кучли шовқин пайдо бўлади; [k] ундоши талаффуз этилиб бўлгандан кейин ҳам ҳавонинг чиқиши бир оз давом этиши натижасида қўшимча нафас товуши қўшилади. Немис тилидаги [k] ундошидан ўзбек тилидаги [k] ундошининг фарқи ҳам ана шундадир.

Жарангли [g] ундоши талаффузида тил орқасининг усти қаттиқ танглай билан юмшоқ танглай ўртасига тегиб турган бир пайтда ўпкадан чиқаётган ҳавонинг таъсирида ҳосил бўлган портлаш вақтида товуш пайчалари таранглашиб титрайди ва шовқинга овоз қўшилади. Портлаш ҳосил бўладиган пайтда товуш пайчалари бирданига таранглашиб улгурмаслиги натижасида товуш пайчаларининг титраши анча кечикади, шунинг учун ҳам [g] ундошининг бошланиши жарангсиздир.

Немис тилининг [k], [g] ундошлари ўзбек тилининг [k], [г] ундошларига қараганда кучлироқ талаффуз этилади. Талаффуз қилиб кўринг: [k-9; k-9; k-9; k-9].

[k] ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1) **k** — сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: kommen, krank, danken.

2) **kk** — сўз ўртасида келса: akkurat, Akkusativ, Akkord, Akkordeon.

3) **ck** — сўз ўртасида ёки охирида келса: Ecke, decken, Sack.

4) **chs** ҳарфлар бирикмаси келса, [ks] бўлиб талаффуз этилади: sechs, Fuchs, sachsen.

5) **x** ҳарфи келса, [ks] бўлиб талаффуз этилади: Marx, Text, Taxi, Mexiko.



18-расм. [k] ва [g] ундошларининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

6) **ch** ҳарфлар бирикмаси грек тилидан кирган сўзларда келса: Chor, Orchester.

7) **g** ҳарфи сўз охирида ёки жарангсиз ундошлар олдида келса: Tag, Berg.

8) **qu** ҳарфлар бирикмаси келса, [kv] тарзида талаффуз этилади: bequem, sagt, Quadrat.

9) **c** ҳарфи француз сўзларида учраса: Cafe, Cafeteria.

g ундош товуши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1) g ҳарфи сўз бошида ёки ўртасида келса: Garten, gut, sagen, fragen.

2) қўш **gg** ҳарфи сўз ўртасида келса: Roggen, Bagger, Flagge.

72-машқ. Қуйидаги сўзларни ўқинг, сўз бошида [g] ундошининг ярим жарангсиз талаффуз этилишига эътибор беринг:

Gast Geld Glied gut gehen gern Gruppe

Gegend	Gans	die Grille	Gebäude
Gasse	die Göttin	gefallen	grünen
geben	glitzern	glätten	groß
Garten	Gärten	Gramm	Gruppe
gießen	Grenze	Glas	gehen-ging-gegangen

73-машқ. Сўз ўртасида жарангсиз ундошдан кейин келган [g] ундошининг ярим жарангли ўқилишига эътибор бериб, сўз бирикмаларини транскрипция шаклида ёзинг.

es gibt	weggehen	gut·gehen	gut kochen
in den Klub gehen	entgleiten	Abgang	

abgemacht, Abgeordnete, abgrenzen, abhalten
Gleich und gleich, Glück und Glas.
Alles ist nicht Gold, was glänzt.

74-машқ. [k] товушининг ёзувда турли ҳарфлар орқали ифодаланишига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

kurz — kürzer — am kürzesten
klein — kleiner — am kleinsten
klug — klüger — am klügsten
kalt — kälter — am kältesten

decken	wachsen	Text
chor	Orchester	Tag
Quelle	Cafe	er sagt
er singt	er trägt	Bagger

75-машқ. "g" ҳарфининг бўғин ва сўз охирида [k] ўқилишига эътибор бериб сўзларни ўқинг.

Abgang		Tag	Hag
Abgangsprüfung	wegsam	Schlag	Weg
abgehen	wegkochen	Bergschlag	klug
Abgeordnete	weglassen	Umschlag	Epilog

[f] ва [v] ундошлари

[f] ва [v] ундошлари лаб-тиш, сирғалувчи, шовқинли ундошлар бўлиб, [f] товуши жарангсиз кучли, [v] товуши эса жарангли кучсиздир. Бу ундошлар ҳосил бўлиш ўрнига кўра ўзбек тилидаги [ф], [в] ундошлардан фарқ қилади: ўзбек тилидаги [ф], [в] ундошлари лаб-лаб ундошларидир. Немис тилининг [f] ва [v] ундошлари талаффуз қилинганда оғиз бир оз очилади, пастки лабнинг ич томони юқори олд тишларга тегади, юқори лаб бир оз кўтарилади, таранглашмаган ҳолда тишлардан узоқлашади; тил олдинга қараб силжийди, тил учи пастки олд тишларга тегади, юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади, кучли ҳаво оқими пастки олд тишлар ва юқори лаб орасидан сирғалиб чиқиши на-



19-расм. [f], [v] ундошларининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

тижасида шовқин ҳосил бўлади. Шу шовқин жарангсиз [f] ундошини ҳосил қилади; шу шовқинга товуш пайчаларининг таранглашиб титраши натижасида ҳосил бўлган овоз қўшилганда жарангли [v] ундоши ҳосил бўлади, [v] ундоши талаффуз этилаётганда товуш пайчалари таранглашиб улгурмаслиги туфайли бирданига тебранмай, кейинроқ тебранади, шунинг учун бу ундошнинг бошланиши жарангсиз, қолган қисмлари жаранглидир.

Ўзбек тилининг [ф], [в] ундошлари лаб-лаб ундошлари бўлиб, талаффуз этилганда сирғалиш иккала лаб орасида ҳосил бўлади, жарангсиз [ф] талаффуз этилганда товуш пайчалари ҳаракатсиз бўлади, шовқинга товуш пайчаларининг таранглашиб титраши натижасида ҳосил бўлган овознинг қўшилиши билан жарангли [в] ундоши вужудга келади.

Немис тилидаги [f], [v] ундошлари ўзбек тилидаги [ф], [в] ундошларига қараганда анча кучли талаффуз қилинади. Талаффуз қилиб кўринг: (f — v, f — v, f — v, f — v).

f — ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади.

1) **f** — сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: fahren, fünf, Freund, fremd, finden.

2) қўш **ff** — қисқа унлидан сўнг сўз ўртасида ва охирида келса: Neffe, pfiff, Kaffee.

3) **v** — сўз бошида ва ўртасида келса: vier, Vater, Volk, von, voll, vor, wieviel.

4) **v** ва **w** сўз охирида ёки лотин тилидан кирган сўзларда, рус ҳамда ўзбек исмларида жарангсиз ундошлардан олдин келса: der Dativ, der Akkusativ, der Nominativ, Karimow.

5) **ph** — грек тилидан кириб келган сўзларда келса: die Phonetik, das Phonem, die Philologie, die Phantasie, die Phraseologie.

[v] ундош товуши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1) w — сўз бошида ва ўртасида келса: der Winter, wollen, wissen, wir.

2) v — лотин тилидан кирган сўзлар бошида ва ўртасида келса: der Vokal, das Verb, Vulkan, Vokabel.

76-машқ. Сўз бошида, ўртасида келган [v] ундошининг талаффузига эътибор бериб, қуйидаги сўзларни ўқинг.

wir, warten, Wort, Wasser, beweisen, entwickeln, Archiv, schwimmen, Schwester, gewesen, unterwegs, geworden, wehen, war, Wärme, Wagen, bewaren.

77-машқ. Сўз бошида ва ўртасида келган [f] ундошининг талаффузига эътибор бериб, сўзларни ўқинг.

Frieden	vor	Heft	fünf	Schiff
prüfen	vier	Fund	traf	Schlaf
greifen	Verfasser	fand	Grafik	Schaf
treffen	Vortrag	künftig	Phonetik	Phonem

78-машқ. Қуйидаги сўз бирикмаларини [f] ундошининг бошқа ҳарфлар билан ифодаланишига эътибор бериб, транскрипция шаклида ёзинг.

das Fenster öffnen	an der philologischen Fakultät studieren
eine Fünf bekomen	am Morgen Kaffee trinken
heute Phonetik haben	im Cafe sitzen
vor vier Freitagen	im Chor singen

79-машқ. Сўзларни орфографик шаклда ёзинг, [v] ва [f] ундошларининг ёзувда турли ҳарфлар билан ифодаланишига эътибор беринг.

[das fɛlt]	[vɛn]	[fo·ne:t⊥k]	[kla·vi:ə]
[fi:gən]	[van]	[fo·no·lo·gi:]	[no·vɛmbə]
[fi:f]	[vas]	[fo·ne:m]	[vo:ka:l]
[fi:əl]	[vi·]	[fi·lo·lo·gi:]	[vɛrp]

80-машқ. Тез айтиш, мақол, маталларни ўқинг ва ундошларининг талаффуз этилишига эътибор беринг:

Fischers Fritz fischt frische Fische.
Frische Fische fischt Fischers Fritz.
Ein Friede ist besser als zehn Siege.
Wo kein Frieden ist, da ist kein Glück.
Freundschaft ist Liebe mit Verstand.

Wir waschen weiße Wäsche.
Weiße Wäsche waschen wir.

Ich werde nie mit der Lüge
für die Wahrheit kämpfen.

(Heine)

81-машқ. Матнда ажратиб кўрсатилган сўзлардаги [f], [v] ундошларининг ёзувда ифодаланиши ва ўқилишига эътибор беринг. Матнни ўзбек тилига таржима қилинг.

DIE MÖWEN

Auf einem **Flughafen** in London waren immer viele Seemöwen. Diese **Vogel** störten alle Flugzeuge beim Starten und Landen. Vor jedem Starten und Landen eines **Flugzeuges** wurde ein lautes Signal gegeben, aber auch das half wenig. Möwen waren die Ursache für viele Katastrophen. Nichts konnte diese Möwen fortjagen: kein Lärmen, kein Schreien und sogar kein Schieben. Die Möwen wollen nicht fortfliegen.

Dann versuchte man ein anderes Mittel: Möwengeschrei. Aus allen Lautsprechern ertönte nun vor dem Starten oder Landen eines Flugzeuges der laute Schrei einer Möwe. Bei diesem Schrei verließen den Flugplatz.

[s] ва [z] ундошлари

[s] ва [z] ундошлари тил олди, шовқинли сирғалувчи ундошлар бўлиб, [s] кучли жарангсиз, [z] эса кучсиз жарангли милк товушдир. Жарангланиши ва ҳосил бўлиш

ўрнига кўра [s], [z] ундошлари ўзбек тилидаги [с], [з] ундошларига ўхшайди, лекин ўзбек тили [с], [з] ундошларининг талаффузи вақтида тилнинг олдинги қисми юқори олд тишларга яқинлашади ва анча баланд айтилади.

Немис тилининг [s] ва [z] ундошлари талаффуз қилинганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар тараиглашмай тишлардан узоқлашади, тил учи пастки олд тишлар томон тушади, тил устининг олд қисми кўтарилиб юқори олд тишлар ва милк ўртасида бўлади, тилнинг ён томонлари қаттиқ танглайга тегади, тил устида ҳаво йўли ҳосил бўлади, тил олдинга қараб силжийди; юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими тил устида ҳосил бўлган тарновсимон ҳаво йўлидан сирғалиб ўтиши натижасида шовқин ҳосил бўлади ва натижада жарангсиз [s] ундоши ҳосил бўлади; шу сирғалувчи шовқинга товуш пайчаларининг таранглашиб титраши натижасида овоз қўшилганда жарангли [z] ундоши ҳосил бўлади. [z] ундоши айтилганда товуш пайчаларининг таранглашиб тебранишининг бир оз кечикиши натижасида [z] ундошининг бошланиши жарангсиз бўлади (20-расм).


S ундош товуши ёзувда қуйидагича ифода этилади:

1) **s** — сўз охирида келса: was, das, Gas, Haus.

2) **s** — сўз ўртасида бирор ундошдан олдин келса: der Ast, die Last, hast.

3) **ss** — сўз ўртасида келса: die Klasse, die Tasse, das Wasser.

4) **ß** — чўзиқ ва қисқа унлидан сўнг сўз охирида келса: groß, süß, ich muß, der Guß.



20-расм. [s] ва [z] ундошларининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

[z] ундош товуши ёзувда қуйидагича ифода этилади:
1) s — сўз бошида келса: Sommer, sehen, satt, Nase.
2) s — унлилар ўртасида ва [n], [m], [l], [ŋ], [r] сонор ундошларидан кейин: unser, Sohn, sollen, singen, sehr.

82-машқ. [s] ундошининг талаффузига эътибор бериб, сўзларни ўқинг.

Hans	Glas	Paris	Klasse
Hals	Preis	jedes	Flüsse
falls	Kreis	jenes	essen

83-машқ. Шеърни ўқинг, [s] ва [z] ундошларининг ёзувда ифодаланишига ва ўқилишига эътибор беринг:

DIE KLUGE MAUS

Ein Kinderlied von Hans-Jurgen Krause

Am Abend spät huscht eine Maus,
mit Kratz und Piep zum Loch heraus.
was will, was will
Was will die kleine Maus?

Ich such' ein kleines Käsestück
das ließ ich gestern hier zurück.
Wo ist, wo ist
mein kleines Käsestück?

Ich glaub', das hat der Kater Mohr,
der mit dem spitzen Muschelohr.
Vielleicht, vielleicht
gibt er mir's bald zurück.

Ach, lieber Kater, gib es mir,
bin ewig dankbar dir dafür.
Gib her, gib her
mein kleines Käsestück.

Ja, gerne, komm nur her zu mir,
komm her, dann überreich ich's dir.
komm her, komm her,
du zuckersüße Maus!

Du alter Mohr, ich kenne dich,
erst schmeichelst du, dann frißt du mich!
piep, piep, piep, piep,
piep, piep, du fängst mich nicht!

(*Fremdsprache Deutsch,*
Sondernummer 1990, Seite II)

84-машқ. Сўзларни ўқинг. Жарангсиз, кучли [s] ундошининг ёзувда ифодаланиши ва ўқилишига эътибор беринг:

ich esse	ich gieße	ich lasse
du ißt	du gießt	du läßt
er, sie, es ißt	er, sie, es gießt	er, sie, es läßt
wir essen	wir gießen	wir lassen
ihr eßt	ihr gießt	ihr laßt
sie essen	sie gießen	sie lassen

85-машқ. Сўзларни ўқинг. Сўз бошида [z] ундошини ярим жарангли ўқилишига эътибор беринг:

Summe	sehen	Sitte	Süden	Mäuse
Sonntag	selten	sieben	Socke	also
Sohn	Wiese	böse	hausen	Bremse
Sand	Gemüse	leise	Häuser	Linse

86-машқ. Матнни ифодали ўқинг, [s], [z] ундошларини сўзлардаги ўрнига эътибор беринг:

DER VORSICHTIGE FREUND

Zwei Freunde machten eine Reise. Am Abend kamen die Freunde in eine kleine Stadt. Sie gingen in ein Hotel. Dort wollten sie eine Nacht bleiben. Sie waren sehr müde und gingen bald ins Bett. Aber der erste Freund stand noch einmal auf, öffnete seinen Koffer, nahm ein Paar Schuhe heraus, zog sie an und legte sich mit den Schuhen wieder ins Bett. Da wunderte sich der zweite Freund und fragte: "Warum machst du das?"

"Ich bin vorsichtig", antwortete der andere, "Ich habe einmal geträumt, daß ich in eine Glasscheibe getreten bin. Das hat sehr weh getan. Und deshalb schlafe ich nicht mehr barfuß".

[ʃ] ва [ʒ] ундошлари

[ʃ] ва [ʒ] ундошлари тил олди, шовқинли сирғалувчи ундошлар бўлиб, [ʃ] жарангсиз, кучли, [ʒ] эса жарангли, кучсиз товушлардир. Бу ундошлар ҳосил бўлиш ўрнига ва жаранглашига кўра ўзбек тилидаги [ш] ва [ж] ундошларига ўхшайди.

Немис тилининг [ʃ] ва [ʒ] ундошлари талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади ва олдинга силжийди, тилнинг учи юқори тишлар милкига кўтарилади, тил устининг олд қисмида кенг тарновсимон ҳаво йўли ҳосил бўлади, тил устининг ўртаси бўртган шаклда бўлади, ўпкадан келаётган ҳаво оқими тил учи ва юқори милки орасида ва тил орқа қисмининг ўртаси ҳамда юмшоқ танглай орасидан сирғалиб шовқин ҳосил қилади; шунинг учун ҳам [ʃ]; [ʒ] ундошлари қўш шовқинли (икки фоксли) товушлардир[1].

[ʒ] ундоши талаффуз этилганда товуш пайчалари таранглашиб титрайди, натижада икки жойда ҳосил бўлган шовқинга овоз қўшилади, шунинг учун [ʒ] ундоши жаранглидир; [ʃ] ундоши талаффуз этилганда товуш пайчалари ҳаракатсиз бўлади, шунинг учун бу ундош жарангсиздир.


Немис тилидаги [ʃ], [ʒ] ундошларининг ўзбек тилидаги [ш], [ж] ундошларидан фарқи шундаки, биринчидан, немис тилидаги [ʃ], [ʒ] ундошлари талаффуз этилганда лаблар ҳаракати анча сезиларлидир; иккинчидан, немис тилидаги [ʃ], [ʒ] ундошлари ўзбек тилидаги [ш], [ж] ундошларидан кучлироқ талаффуз этилади. Шуни эслатиб ўтиш ўринлики, ўзбек тилидаги [ж] ундошини ўзбек тилидаги кажава, жийда, жавоб каби сўзлардаги қоришиқ [ж] ундоши билан алмаштирмаслик керак. Қиёсланг: аждар, виж-виж, журнал-тож, ижтимоий, илож.

[ʃ] ундош товуши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1) sch ҳарфлар бирикмаси сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: Schule, schwer, Tisch, falsch, Wunsch, Schnee, schnell.

---

[1] Л. В. Шишкина, А. В. Летина, О. А. Бибин. Вводный фонетический курс немецкого языка. Санкт-Петербург, 1977, стр.46.



21-расм. [ʃ], [ʒ] ундошларининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

2) s, p ёки t олдида, немис ва айрим бошқа тиллардан кирган сўзлар бошида: Stunde, Sport.

3) sh ҳарфлар бирикмаси чет тиллардан кириб келган сўзларда келса: Shilling, Sherif, Shakespeare, Shetland, Ski, Chef, Charte.

[ʒ] ундош товуши француз ва рус тилидан ўзлаштириб олинган сўзларда қуйидагича ифодаланади:

1) g — олд қатор унлиларидан олдин: das Genie, die Loge.

2) j — орқа қатор унлилари ва [a:], [a] дан олдин: das Journal, Jackett, Jargon.

3) sh ҳарфлар бирикмаси русча исм ва фамилияларда келса: Shukow, Shdanow.

4) sh русча сўзларда: Shōra, Shuma.

87-машқ. Қуйидаги сўзларни [ʃ] ундошининг талаффузига эътибор бериб ўқинг:

schwer	Schi	Sport	Mensch
schreiben	Schach	Stunde	Wunsch
frisch	Schaf	spielen	Fleisch
Schnee	Schuh	stehen	frisch

88-машқ. [ʒ] ундошининг талаффузига эътибор бериб сўзларни ўқинг:

Garage	Gage	Gelatine	Gelee
Gendarmerie	Gendarm	Genie	Gerant
Giraffe	Shukov	Shamolov	Shuraew

89-машқ. Тез айтиш ва маталларни ифодали ўқинг.

Scham schützt vor Schande.
Wer schweigt, stimmt zu.
Scharfe Schwerter schneiden sehr,
scharfe Zungen viel mehr.

Der Mensch ist nicht vor —
stellbar ohne menschliche
Gesellschaft.

90-машқ. Қуйидаги шеърни магнит тасмасига ёзиб тингланг, сўзлар талаффузини такрорлаб, [ʃ], [ʒ] талаффузидаги хатоларингизни тузатинг:

HINTERM BUSCH

Frühling kam wohl über Nacht,
hat viel Blumen mitgebracht;
Primeln, Veilchen, Anemonen,
die im Walde wohnen.

Und wer sitzt dort hinterm Busch?
Österhäschen ist's, husch, husch.
Österhäschen, auf ein Wort,
was tust du im Walde dort?

"O, ich suche weiches Moos,
danach ist die Frage groß,
denn die Mädchen und die Knaben
möchten Osternnester haben.

Darum laßt mich hübsch in Ruh
oder schaut mir stille zu".

(aus "Deutsches Lesebuch").

91-машқ. Қуйидаги матнни ифодали ўқинг. [ʃ], [ʒ] ундошлари иштирок этган сўзларни тўғри талаффуз қилинг:

WO MUß ICH AUSSTEIGEN?

Ein bekannter Schriftsteller fuhr mit dem Zug. Der Kontrolleur kam. Er fragte nach der Fahrkarte. Der Schriftsteller konnte sie nicht finden. Er suchte und suchte.


"Suchen Sie weiter, mein Herr", sagte der Kontrolleur, der diesen Passagier — den Schriftsteller erkannt hatte, "an der nächsten Station komme ich wieder".

Aber auch dann konnte der Schriftsteller die Fahrkarte nicht finden. "Bitte, machen Sie keine Sorge!" sagte der Kontrolleur, als er später noch einmal in das Abteil kam. "Ich glaube Ihnen, daß Sie eine Fahrkarte gelöst haben". "Ich muß aber die Fahrkarte finden! antwortete der Schriftsteller, "sonst weiß ich nicht, wo ich aussteigen muß".

ch[ç] (ich-Laut) ва [j] ундошлари

[ç] ва [j] ундошлари тил ўрта, сиргалувчи, шовқинли ундошлардир. [j] ундоши ўзбек тилидаги [й] ундошига ўхшайди. [ç] ундошининг ўхшаши ўзбек тилида йўқ, лекин "беҳи" сўзидаги "ҳ" товуши бу товушга бир оз ўхшайди. Немис тилидаги [ç] жарангсиз, [j] жарангли ундош товушлари талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар тараиглашмайди, юқори лаб бир оз кўтарилади; тил учун пастки олд тишларга тегади, тил олдинга силжийди, тил ўртаси қаттиқ танглай томон кўтарилади, тил ўртасида ҳаво йўли ҳосил бўлади, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими ана шу ҳаво йўли орқали сирғалиб ўтади; тилнинг ён томонлари юқори ён тишларга тегади; юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади.

Қаттиқ танглайнинг олд қисми ва тил ўртаси оралиғидан ҳавонинг сирғалиб ўтиши натижасида кучли шов-



22-расм. [ç] ва [j] ундошлари талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

қиндан иборат [ç] ундоши ҳосил бўлади; шу шовқинга товуш пайчаларининг таранглашиб тебраниши натижасида овоз қўшилади, шунда [j] ундоши ҳосил бўлади, ҳаво оқими [ç] ундошидагига қараганда кучсизроқ бўлади. Талаффуз қилиб кўринг: [ç, j, ç, j, ç, j].

ch[ç] ундоши ёзувда қуйидагича ифода этилади:

1. **ch** ҳарфлар бирикмаси сўз ўртасида, сўз охирида олд қатор (i, e, ä, ö, ü) унлиларидан ва ei, eu (äu) дифтонгларидан кейин: ich, recht, mächtig, Töchter, Bücher, Eiche, euch, Bäuche.

2. **ch** ҳарфлар бирикмаси сонордан кейин келса: Milch, Mönch, Märchen.

3. **ch** ҳарфлар бирикмаси: -chen, -lich қўшимчаларида: Mädchen, lieblich.

4. **-ig** қўшимчасида g — ç ўқилади: richtig, mächtig.

[j] ундоши сўз бошида унлидан олдин келса j ҳарфи орқали ифодаланади: Jahr, Januar, jetzt, Juni.

92-машқ. Қуйидаги сўзларни [ç] ундошининг талаффузига эътибор бериб ўқинг:

ich	nicht	billig	Bettchen
euch	Licht	völlig	Mädchen
Chemie	riechen	willig	Bildchen
China	Märchen	billig	Söhnchen

93-машқ. Қуйидаги сўзлардаги [j] ундошининг талаффузига эътибор бериб ўқинг:

Junge	Jahr	Subjekt	Jubilar
Jubel	Joch	Objekt	Billijard
Juli	Jäger	Adjektiv	Majonese
Juni	Jod	Konjunktiv	Kajüte

94-машқ. Қуйидаги сўзларда [æ] ва [ɔø] дифтонгларидан кейин келган [ç] ундошини ўқилишига эътибор беринг:

reich	feucht	heucheln	euch
Teich	Mäuschen	feucht	gleich

leicht	rauchern	Leuchte	Teich
Eiche	leuchten	leicht	Veilchen

95-машқ. [ç], [j] ундошларини тўғри талаффузига эътибор бериб, тез айтиш, мақол ва маталларни ўқинг:

Ich spreche den Ich — Laut nicht richtig.

Gleiche Rechte, gleiche Pflichten.

Aus nichts wird nichts.

Andere Städtchen, andere Mädchen.

Jörgen war etwas jünger als Jürgen.

Im Januar fuhr der Junge jedes Jahr nach Japan.

96-машқ. Матнни ифодали ўқинг [ç], [j] ундошларининг тўғри талаффуз этилишига эътибор беринг:

EIN GUTER UNTERRICHT

Es war eine kleine Stadt. Ein junger Mann saß in einem Auto und wartete auf seinen Freund, der in einem Geschäft etwas kaufen wollte. Er brannte sich eine Zigarette an, die letzte aus der Schachtel. Ohne zu überlegen, warf er die leere Schachtel durch das Fenster auf die Straße. Er war sehr erstaunt, als er plötzlich die leere Schachtel wieder vor dem Fenster sah. Eine Frau hielt die Schachtel in der Hand.

"Vielen Dank!" sagte der junge Mann, "diese Schachtel ist leer, und ich brauche sie nicht mehr".

"Wie leben aber in einer sauberen Stadt, junger Mann, und wollen die Schachtel auch nicht haben!" sagte die Frau.

ch [x] (ach — Laut) ундоши

[x] ундоши жарангсиз, тил орқа, сирғалувчи, шовқинли ундош бўлиб, у ўзбек тилидаги тил орқа [x] ундошига ўхшайди. Немис тилидаги [x] ундошини кўп тилшуносларкичик тил товуши деб ҳисоблайдилар.

Немис тилидаги [x] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, тил орқага бир оз тортилиб юм-



23-расм. [х] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати

шоқ танглай томон кўтарилади, тил учи пастки олд тишларга тегади, тил устининг орқа қисми ва юмшоқ танглай орасида тор ҳаво йўли ҳосил бўлади, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими ана шу тор ҳаво йўлидан сирғалиб ўтиб қаттиқ, кучли сирғалувчи шовқин ҳосил қилади, натижада [х] ундоши ҳосил бўлади. Немис тилида бу [х] ундошни der Ach — Laut деб ҳам юритилади.

Немис тилидаги [х] ундошининг ўзбек тилидаги [х] ундошидан фарқи, немис тилидаги [х] ундош кучлироқ талаффуз этилишидадир. Немис тилидаги [х] ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1. **ch** — сўз ўртасида, сўз охирида тил орқа **a**, **o** ва **u** унлилари ва **au** дифтонгидан кейин келса: Buch, noch, acht, suchen, auch, brauchen, rauchen, Strauch, Bauch, Brauch, tauchen.

97-машқ. [х] ундошининг кучли ва чўзиқ талаффуз этилишига эътибор бериб сўзларни ўқинг:

Buch	acht	noch	auch
Kuchen	Nacht	doch	Rauch
suchen	Wacht	Loch	Bauch
Spruch	Bach	Koch	Gebrauch

98-машқ. Тил ўрта [ç] ва тил орқа [х] ундошларининг қайси унлидан кейин келишига эътибор бериб ўқинг:

Tuch — Tücher	Nacht — Nächte	Bruch — Brüche
Buch — Bücher	Fach — Fächer	Dach — Dächer
Spruch — Sprüche	Brauch — Bräuche	Tochter — Töchter
Fluch — Flüche	Bach — Bäche	Loch — Löcher

99-машқ. Қуйидаги сўзларнинг ўқилишини магнитофон тасмасига ёзинг, уни тингланг ва ўз талаффузингизни текширинг.

Ach und krach	Wie die Mache, so die Sache.
Nacht für Nacht	Jedes Dach hat sein Ungemach.
Woche um Woche	Wer zuletzt lacht, lacht am besten.
Unter Dach und Fach.	Auf dem Flachdach saßen viele Tauben.

100-машқ. Ажратиб кўрсатилган сўзларда [ç] (ich — Laut) ва [x] (ach — Laut) ундошларининг ёзувда ифодаланишига эътибор бериб, матнни ўқинг.

DER BÄR ZU GAST

In eine kleine Stadt kommt ein Mann mit einem Bären. Er geht in ein **Gasthaus**, bindet den Bären auf dem **Hof** an einen Baum, geht in die Gaststube und ißt Abendbrot.

In einem Zimmer des Hauses spielen drei kleine Kinder. Die Mutter ist **nicht** zu Hause, die Kinder spielen allein.

Plötzlich kommt ein Bär ins Zimmer. Die Kinder **haben** große Angst und verstecken **sich**. Der Bär ist aber **nicht** böse. Er legt **sich** auf den Fußboden, und der kleinste zwei jährige Junge setzt **sich** auf den Rücken des Bären. Das ist **lustig**! **Plötzlich** steht der Bär auf und tanzt. Die Kinder nehmen ihre Kleinen Gewehre und geben **auch** dem Bären eins. Nun marschieren sie alle. **Doch** da kommt schon der Bärenführer und holt seinen Bären.

[h] (Hauchlaut)

[h] ундоши сирғалувчи, жарангсиз шовқинли бўғиз товушидир. Бу ундош ҳосил бўлиш ўрни ва усулига кўра ўзбек тилидаги юмшоқ [ҳ] ундошига ўхшайди. Немис тилидаги [h] ундошининг талаффузи вақтида оғиз бир оз очилади, тил орқаси (ўзаги) юмшоқ танглайга яқинлашади, натижада юмшоқ танглай бир оз қисқаради, тил орқаси ва юмшоқ танглай орасида кенг ҳаво йўли ҳосил бўлади; ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими шу ҳаво йўлидан ўтаётиб енгил сирғалиш шовқинини ҳосил қилади; шу ҳаво оқими кичик тилни ҳам сал тебратиб ўтади; [h] ундошининг талаффузи учун сарфланадиган ҳаво оқими-

нинг кучсизлиги шу ундошнинг асосий хусусиятларидандир, чунки барча бошқа жарангсиз ундошлар кучли талаффуз этилади.

[h] ундошининг талаффузи вақтидаги оғизнинг очилиш даражаси, тилнинг ҳолати шу ундошдан кейин келаётган унлининг сифатига ҳам боғлиқ бўлади: [a:] унлисидан кейин оғиз каттароқ, [h], [e:] унлисидан кейин келганда ўртача очилса, [i] унлисидан кейин келганда эса озроқ очилади. Лабланмаган унлилардан кейин [h] ундоши келганда лаблар ҳаракатсиз бўлади, [ø:], [y:] каби лабланган унлилардан кейин [h] келганда эса лаблар ҳам бир оз ҳаракатга келади, чунки нутқ органлари товуш талаффузи тугамасданоқ иккинчи товушнинг талаффузига ўтади. Талаффуз этиб кўринг: [h, h, h]. Немис тилида бу [h] ундош товуши H a u c h l a u t деб юритилади.

Немис тилидаги [h] ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1. **h** — сўз бошида келса: Hund, Hut, heute.

2. **h** — ясама сўзларда ўзак бошида келса: erhalten, behalten, verhalten.

3. **h** — -heit, -haft қўшимчаларида келса: Kindheit, lebhaft.

4. **h** — ҳарфи унлидан кейин сўз ўртасида, у фақат ўзидан олдин турган унлининг чўзиқ ўқилишини тақозо қилади, масалан: lehren, sehen, gehen, nehmen.

5. **h** — t, r, ундошларидан кейин ўқилмайди; масалан: Theater, Rhein.

101-машқ. Қуйидаги сўзларни [h], [ç], [x] ундошлари талаффузини фарқлаб ўқинг:

Hand	Buch	Bücher	Froh
hier	Loch	Löcher	Stroh
Haar	Tuch	Tücher	Stuhl
Heft	Tochter	Töchter	Schuh
hoch	Koch	Köcher	Kuh
hell	Lachen	lächeln	lehnen

102-машқ. Қуйидаги ясама сўзларни ўқинг, олд қўшимчадан кейин келган [h] ундошининг ўқилишига эътибор беринг:

behalten	erhalten	enthalten	verhaften
beharren	erheben	enthaupten	Verhältnis
behaupten	erkennen	entheben	verhaßt
beherrschen	erheitern	enthüllen	verheiraten
behüten	erhitzen		
Behörde			

103-машқ. Қуйидаги сўзларни транскрипция шаклида ёзинг ва ўқинг.

herstellen	herüber	herausgehen
herausnehmen	hinüber	hereinlassen
herausgeben	hinüberbringen	herausarbeiten
herauskommen	hineinkommen	hervor
herausreden	hinweisen	herwärts

104-машқ. Қуйидаги тез айтиш, мақол ва маталларни ўқинг. [h] ундошининг тўғри талаффузига, унлидан кейин ўқилмаслигига эътибор беринг.

Schmiede haben harte Hände.
Wenn der Hund wacht, kann der Hirt schlafen.
Hinter Hermann Hannes Haus.
hängen hundert Hemden raus.

Hunde, die bellen, beißen nicht.
Ein Hut paßt nicht auf alle Köpfe.

105-машқ. [h] ундошининг ёзувда ифодаланишига эътибор бериб матнни ўқинг.

DER TREUE HUND

Ein Schäfer hütete seine Herde und war dabei eingeschlafen. Diesen günstigen Augenblick wollte der Wolf ausnutzen. Aber der Hund hinderte ihn. "Solch eine Ungerechtigkeit", heuchelte der Wolf, "dein Herr schläft, und du darfst nicht ruhen. Ich bewundere dich. "Solch ein Heuchler", dachte der Hund und bellte laut. Der Schäfer erwachte, und sie vertrieben zusammen den ungebetenen Gast.

[r] ва [R] ундошлари

Немис тилида тил олди портловчи, титроқ, жарангли, сонор [r] ва сирғалувчи, титроқ, жарангли, сонор, [R] кичик тил товуши мавжуд бўлиб, [R] ундоши [r] ундошининг варианти ҳисобланади. [r] ундоши ўзбек тилидаги тил олди, портловчи, титроқ, сонор [р] товушига ўхшайди; [R] ундошининг жарангланиши ўзбек тилидаги шовқинли, чуқур тил орқа, сирғалувчи [ғ] ундошига бир оз ўхшайди.

Немис тилидаги тил олди титроқ [r] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар ҳаракатсиз ҳолатда бўлади. Тил ўртаси ва орқаси пасайиб, тилнинг ён чеккалари юқори ён тишларга тегади, тил учи эса юқори олд тишлар милкига яқинлашади. [r] ундоши талаффуз этилганда овоз шовқиндан устунлик қилади ва шу ундошнинг сонорлиги шаклланади. Немис тилидаги [r] ундоши талаффуз этилганда тилнинг учи ўзбек тилидаги [р] ундоши талаффузидагига қараганда озроқ титрайди, немис тилидаги [r] ундоши талаффуз этилганда тил учи юқори олд тишлар милки яқинида титраса, ўзбек тилидаги [р] ундоши талаффуз этилганда эса тил учи юқори олд тишлар яқинида титрайди.

Немис тилидаги [R] кичик тил ундоши талаффуз этилганда оғиз [r] ундошидагига қараганда каттароқ очилади, лаблар ҳаракатсиз бўлади; тил учи пастки олд тишлар устида туради, тил устининг орқаси юмшоқ танглайга кўтарилади. Худди [r] ундошидагидек [R] ундоши талаффуз



24 - р а с м. [r] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.



25 - р а с м. [R] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

этилганда товуш пайчалари тараиглашиб титрайди, шу ҳолат бошқа жарангли ундошлардагига қараганда кўпроқ давом этиши натижасида [R] ундошида ҳам овоз шовқиндан устунлик қилади ва унинг сонорлиги шаклланади (24—25-расмлар).

Немис адабий тили талаффуз нормаларига биноан 1957 йилгача фақат кичик тил ундоши [г] талаффуз этиб келинган. Ўша пайтларда тил олди [г] ундоши ўрнида кичик тил ундоши [R] нинг талаффузи ҳам кенг тарқалган эди, шунинг учун ҳам 1957 йилдан [R] ундошининг талаффузи адабий талаффуз нормасига айланди. Ҳозирги немис адабий тили талаффуз нормасида тил олди [г] ундошининг ўрнига [R] кичик тил товушининг талаффузи кенг тарқалган[1]. Шундай бўлса ҳам бизда ҳалигача тил олди [г] ундоши ёки кичик тил [R] ундошини талаффуз қилиш ихтиёрийдир. Немис тилидаги кичик тил товуши [R] нинг ўзбек тилидаги [ғ] ундошига ўхшашлиги нисбий характерга эга, чунки немис тилининг [R] ундоши талаффузида кичик тил фаол роль ўйнайди, ўзбек тилининг [ғ] ундоши талаффузида тил орқаси ва юмшоқ танглай фаол қатнашади. Бундан ташқари немис тилидаги [R] ундоши ўзбек тилидаги [ғ] ундошига қараганда кучли талаффуз қилинади.

Немис тилидаги тил олди [г] ва [R] кичик тил ундоши факультатив вариантлардир. Талаффуз вақтида у ёки бу вариантни танлаш уларнинг сўздаги фонетик ҳолатига боғ-

[1] Erlugd Agricola u.a. Die Deutsche Sprache. Kleine Enzyklopädie. Band 2.

лиқ бўлмай, балки сўзловчининг ихтиёрига ҳавола этилади.

Шундай қилиб ҳозирги немис адабий тилида тил олди, титроқ [r] ундоши билан бир қаторда титроқ, сирғалувчи, [R] кичик тил ундоши мавжуд бўлиб, улар қуйидаги ҳолларда талаффуз этилади:

1. **r** ҳарфи сўз бошида унлидан олдин келса: rund, rasch, Ratschlag.

2. **r** — сўз бошида ундошдан кейин келса: treiben, breit, Kreide.

3. **r** — қисқа унлидан кейин келса: Ort, kurz, Herr.

Ҳозирги немис адабий тилида тил олди [r], кичик тил [R] ундошларидан ташқари [ɐ] товуши мавжудлиги бир қанча дарслик ва қўлланмаларда таъкидланган. Бу ундош [r] ундошининг яна бир варианти бўлиб, унинг талаффузи вақтида тил орқасининг усти бўртиб чиқади, ўпкадан чиққан ҳаво оқими юмшоқ танглай ва бўртиб чиққан тил орқаси орасидаги ҳаво йўлидан сирғалиб ўтади.

Бу [ɐ] товуши (унлиси) жарангланишига кўра тил ўрта, ўрта кўтарилиш [ə] унлиси қаторидан жой олиб, тил орқа [o:] ва [a:] унлиларига яқин; [ə] унлиси эса тил олди [e] ва [a] унлиларига жарангланиши бўйича яқин; [ɐ] унлиси [r] ундошининг кучсиз (редукцияга учраган) варианти бўлиб, у қуйидаги, ҳолларда учрайди:

1. **r** чўзиқ унлидан кейин келса (a: унлидан ташқари): das Ohr, die Tür, lehren.

2. **r** — er-, ver-, zer- олд қўшимчаларида келса: erzählen, verreisen, zerschlagen.

3. **r** — "er" қўшимчасида келса: der Wald — die Wälder, das Kind — die Kinder.

106-машқ. Тил олди титроқ [r] ундошининг талаффузи вақтида тил учининг титрашини 1—2 мартадан оширмай сўзларни ўқинг.

rot	grau	Gerät	herein
regnet	Adresse	drei	Farbe
Reise	arbeiten	frei	Karte
reiten	urteilen	Schrei	harte

107-машқ. Сўзларни ўқинг, ундошдан кейин титроқ [R] ундошини қаттиқроқ талаффуз қилинг:

[r] oder [R]		[R] oder [r]	
rot	rot	grau	grau
rund	rund	Drittel	Drittel
Forum	Forum	Rente	Rente
Rosi	Rosi	Rede	Rede

108-машқ. Сўзларни ўқинг, редукцияга учраган (унлилашган) [r], [ɐ] товушининг талаффузи вақтида пастки жағ пастга кўп тушиб кетмасин:

wir	stört	Meister	studiert
Kur	hört	Leiter	dekliniert
Uhr	Bart	weiter	Lehrer
Tier	hart	erzählen	verreisen

109-машқ. Қуйидаги сўзларнинг ўқилишини диктордан сўнг такрорланг, тил олди [r] ундоши ва унлилашган [ɐ] товушларининг талаффуз вақтидаги фарқига эътибор беринг:

[r]	[ɐ]	[r]	[ɐ]
rund	nur	Ort	Ohr
Bären	Bär	eure	euer
hören	hört	studieren	studiert
Kuren	Kur	Motoren	Motor
Meere	Meer	Schülerin	Schüler

110-машқ. Шеърдаги "r" ҳарфи иштирок этган сўзларни дастлаб тил олди [r] ундоши билан, сўнгра [R] кичик тил товуши билан ўқинг:

HASENJAKT

(Gustav Falke)

Rische, rasche, rusche,
der Hase sitzt im Busche.
wollen wir mal das Leben wagen,
wollen wir mal den Hasen jagen?

Rusche, rasche, rische,
der Hase sitzt bei Tische.

siehst du dort im grünen Kohl ihn?
Flink, nun lauf mal hin und hol ihn!

Rische, rusche, rasche,
hast ihn in der Tasche?
Was? Ist in das Feld gegangen?
Ätsch! Kann nicht mal Hasen fangen?

111-машқ. Қуйидаги тез айтиш, мақол ва маталларни [r], [R], [ʁ] товушларининг талаффузига эътибор бериб ўқинг.

Fischers Tochter hatte Fieber. Neben dem Vater stand ein großer Koffer.

Morgen, morgen nur nicht heute, sagen alle faulen Leute.

Jede Sprache ist unermeßlicher Garten voll Pflanzen und Bäume. (*Herder*)

Wer keine Freude am Lebendigen hat, wird keine Freude am Leben haben. (*Brecht*)

АФФРИКАТЛАР (ҚОРИШИҚ УНДОШЛАР)

Портловчи ундошларнинг яна бир тури аффрикатлардир. Немис тилида [pf], [ts], [tʃ] аффрикатлари мавжуд. Аффрикатлар чўзиқ талаффуз этилади, чунки улар портловчи ва сирғалувчи икки таркибий қисмдан иборат бўлади. Аффрикатларни икки мустақил ундош фонема бирикмаси эмас, балки бирга қўшилиб кетган икки ундошдан ташкил топган битта ундош дейиш мумкин.

[pf] аффрикати. Немис тилидаги [pf] аффрикати жарангсиз, кучли лаб — тиш портловчи — сирғалувчи ундош товушдир. Ўзбек тилида бунга ўхшаш ундош товуш йўқ. [pf] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, тил учи пастки олд тишлар яқинида бўлади, тил олдинга қараб силжийди, лаблар худди [p] ундоши талаффузи вақтидагидек бир-бирига тегади ва айни бир вақтнинг ўзида пастки лаб ўзининг ички чеккаси билан юқориги олд тишлар чеккалари билан биргаликда худди [f] ундоши талаффузи вақтидагидек оралиқ ҳосил қилади, юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади; лаблар бир-биридан ажралгандан кейин

юқори тишлар ва пастки лаблар орасидаги тирқиш сақланиб қолади; портлаш содир бўлгандан кейин ҳосил бўлган шовқин ва ўпкадан чиққан ҳаво оқимининг тирқиш чеккаларидан сирғалиб ўтиши натижасида ҳосил бўлган шовқин қўшилиб кучли, жарангсиз [pf] ундошини ҳосил қилади. Талаффуз этиб кўринг [pf, pf, pf].

[pf] аффрикати ёзувда қуйидагича ифодаланади:

pf — сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: Pferd, kämpfen, Dampf, Pflicht, Kampf, Schöpfer, Sumpf, Pfad.

[ts] аффрикати. Немис тилидаги [ts] аффрикати жарангсиз, кучли тил олди портловчи-сирғалувчи ундош товушдир.

[ts] аффрикатининг талаффуз этилишида пастки жағ бир оз тушади, лаблар таранглашган ҳолда тишлардан узоқлашади, юқори лаб бир оз кўтарилади; тил учи пастки олд тишлар томон тушади, тил устининг олд қисми юқори олд тишлар ва уларнинг милкига кўтарилади, тил устининг ўртаси ва орқаси пасаяди, тилнинг ён чеккалари юқори ён тишларга тегади; юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади; портлаш содир бўлгандан кейин сирғалиш бошланади; портлаш натижасида ҳосил бўлган шовқин ва ўпкадан чиқаётган ҳаво оқимининг тирқиш чеккаларидан сирғалиб ўтиши натижасида ҳосил бўлган шовқин [ts] ундоши ҳосил қилади.

[ts] аффрикати ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1. **z** — сўз бошида, ўртасида, охирида келса: zu, zum, Zahn, Ziel.
2. **tz** — сўз ўртасида ва охирида келса: Witze, setzen, Schatzsucher, Witzseite, Platzschwarz, Harz, Satz, Platz.
3. **c** — бошқа тиллардан кирган сўзларда унлидан олдин келса: Cäsar, Celsius.
4. **t** — бошқа тиллардан кирган сўзларда бўғин ташкил қилмайдиган **i** дан олдин келса: Revolution, Lektion, Portion, Konjunktion.

[tʃ] аффрикати. Немис тилидаги [tʃ] аффрикати худди ўзбек тилидаги [ч] ундошидагидек жарангсиз тил олди, портловчи-сирғалувчи қоришиқ ундош товушдир.

[tʃ] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар бироз думалоқлашади ва олдинга силжий-

ди; тил учи юқори олд тишлар милкига кўтарилади, портлашдан кейин милк орқасида худди [ʃ] ундоши талаффузи вақтидагидек сирғалиш бошланади: юмшоқ танглай кўтарилиб бурун бўшлигига ўтадиган ҳаво йўлини тўсади; портлаш содир бўлган вақтдаги шовқин ва милк орасида ҳосил бўлган тирқишдан ҳавонинг сирғалиб ўтиши натижасида [tʃ] ундош товуши ҳосил бўлади. Талаффуз қилиб кўринг: [tʃ], [t͡ʃ], [t͡ʃ].

[tʃ] аффрикати ёзувда қуйидагича ифода этилади:

tsch — ҳарфлар бирикмаси сўз бошида, ўртасида, охирида: Deutsch.

112-машқ. Сўзларни [pf] аффрикатнинг талаффузига эътибор бериб ўқинг:

wenig-Pfennig	fahl-Pfahl	ein schmaler Pfad
Wanne-Pfanne	Flocken-pflocken	ein schöner Dampfer
Wand-Pfand	Flaum-Pflaum	eine kleine Pfütze
wund-Pfund	feil-Pfeil	ein harter Kampf
Wert-Pferd	Fänden-pfenden	einen Zopf abschneiden
weil-Pfeil	Fahne-Pfanne	ein Pfund Pflaumen

113-машқ. Сўзларни ўқинг, [t͡ʃ] — ундошининг ёзувда ифодаланишига ва ўқилишига эътибор беринг:

Saal-Zahl	Kasse-Katze	die Artikulation
Sahne-Zahne	Kurs-kurz	die Aspiration
sauber-Zauber	Reis-Reitz	die Assimilation
Soll-Zoll	Schweiß-Schweiz	die Position
seit-Zeit	dreißig-neunzig	die Klassifikation
sehen-Zehen	damals-Salz	die Vibration

114-машқ. Сўзларни ўқинг, [t͡ʃ] ундошининг ёзувда ифодаланишига ва талаффуз этилишига эътибор беринг:

deutsch	Putsch	Peitsche
Tscheche	rutschen	klatschen
Tschimkent	Kautsch	Gletscher
fletschen	Quatsch	Bratsche
zwitschern	dolmetschen	Dolmetscher
Matsch	Tschita	Urgentsch

115-машқ. Қуйидаги тез айтиш, мақол ва маталларни ифодали ўқинг: [pf], [ts], [tʃ] аффрикатларининг ёзилишига ва ўқилишига эътибор беринг:

Paul trägt auf dem Kopf
einen kupfernen Topf,
einen kupfernen Topf
trägt Paul auf dem Kopf.

Zwischen zwei spitzen Steinen
sitzen zwei zischende Schlangen
Zwei deutsche Gäste
setzten sich auf die Kautsch.

Viele Tropfen machen Wasser.
Eine Zwiebel hat viel Häute.
Futsch ist futsch und hin ist hin.
Wer immerfort die Zunge wetzt,
der ist im Volk nicht geschätzt.

(*Alischer Nawoi*)

116-машқ. Матнни ўқинг, [pf], [ts], [tʃ] аффрикатларининг ёзувда ифодаланишига ва ўқилишига эътибор беринг:

UNSERE DEUTSCHSTUNDE

Wir sind Studenten. Wir studieren Deutsch. Die Deutschstunde ist sehr interessant, und wir studieren gern. Unsere Deutschstunde beginnt um 9 Uhr. Unser Hörsaal befindet sich im zweiten Stock. Kurz vor Glockenzeichen versammeln wir uns dort. Die Deutschlehrerin kommt in den Hörsaal. Wir stehen auf und begrüßen sie. Die Sprachlehrerin setzt sich an ihren Tisch. Die Doppelstunde beginnt. Die Lehrerin prüft zuerst unsere Hausaufgaben. Die Lehrerin ruft Akbar Aliew an die Tafel auf. Akbar liest die Übung 2 vor. Er macht einige Fehler. Die Lehrerin korrigiert die Fehler. Sie spricht nur deutsch, aber die Studenten verstehen sie gut. Dann machen die Studenten die Bücher auf. Die Lehrerin liest den Text "Der Kampf um den Frieden" vor. Wir lesen den Text und übersetzen ins Usbekische.

[L] ундоши



26-расм. [L] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

[l] ундоши тил олди, жарангли, портловчи — сирғалувчи сонор товушдир. Ўзбек тилидаги [л] ундоши эса тил олди, портловчи, сонор, тил товуши бўлиб, унинг талаффузида тил учи юқори тишларга тегиб туради.

Немис тилидаги [l] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар таранглашмаган ҳолда тишлардан узоқлашади, юқори лаб бир оз кўтарилади: тил олдинга қараб силжийди, тил учи юқори тишлар милкига тегиб қайтишида ўпкадан келаётган ҳаво оқими таъсирида кучсиз портлаш ҳосил бўлади, тил устининг ўртаси ва орқаси ҳамда унинг ёнлари пасаяди, ўпкадан чиқиб келаётган ҳаво оқими тил ёнларида ҳосил бўлган ҳаво йўлидан сирғалиб ўтиб, кучсиз шовқин ҳосил қилади; товуш пайчалари таранглашиб титрайди, натижада кучли овоз пайдо бўлади: ана шу кучли овоз [L] ундошига сонорлик сифатини беради, юмшоқ танглай кўтарилади ва бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини бекитади. Немис тилидаги [L] ундоши ўзбек тилидаги [л] ундошига қараганда чўзиқроқ ва кучлироқ талаффуз этилади. Талаффуз қилиб кўринг: [L, L, L] — [л, л, л, л].

[L] ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1) l — сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: Lehrer, lieben, Bild, Stuhl.

2) ll — сўз ўртасида ва охирида келса: allt, voll, Ball, Fall.

117-машқ. Сўзлардаги [L] ундошининг кучлироқ ва чўзиқроқ ўқилишига эътибор беринг:

leben	Land	Klub	Tischlampe
lernen	legen	Blau	erlauben
lachen	lesen	Klasse	verlassen
Licht	Luft	Fluß	belaufen
Lampe			

118-машқ. Шеърни ўқинг. [L] ундошининг талаффузини ўзбек тилидаги [л] ундошининг талаффузи билан алмаштирманг:

DER EISLAUF

(A. H. Hoffmann von Fallersleben)

Der See ist zu gefroren
und hält schon seinen Mann.
Die Bahn ist ein Spiegel
und glänzt uns freundlich an.

Das Wetter ist so heiter,
die Sonne scheint so hell.
Wer will mit mir ins Freie?
Wer ist mein Mitgesell?

Da ist nicht viel zu fragen:
Wer mit will, macht sich auf.
Wir gehen hinaus ins Freie,
Hinaus zum Schlittschuhlauf.
Was kümmert uns die Kälte?
Was kümmert uns der Schnee?
Wir wollen Schlittschuh laufen
Wohl auf dem blanken See.

119-машқ. Таркибида [L] ундоши бўлган қуйидаги тез айтиш, мақол ва маталларни ўқинг:

Esel essen Nesseln nicht
Nesseln essen Esel nicht.

Der Esel und die Nachtigall haben beid' ungleichen Schall.
Eile mit Weile.

Mann lernt solange man lebt.

Ein Leben ohne Hoffnung ist wie ein Vogel ohne Schwingen.
Ein Leben ohne Liebe ist wie ein Himmel ohne Stern.

[m] ундоши



27 - р а с м. [m] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

[m] ундоши лаб-лаб, портловчи, жарангли сонор бурун товушдир. [m] ундоши талаффуз этилишига кўра ўзбек тилидаги [м] ундошига ўхшайди.

Немис тилидаги [m] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, тил олдинга қараб силжийди, тил учи пастки олд тишларга тегади, тил устининг олдинги ўрта қисми бир оз кўтарилади; лаблар бир-бирига тегади ва уларнинг бир-биридан тез узоқлашиши туфайли ҳосил бўлади, юмшоқ танглай пастга тушади ва бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўли очилади; ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими бурун бўшлиғидан ўтади; товуш пайчалари таранглашиб [L] ундошидагига қараганда кўпроқ титрайди.

Немис тилидаги [m] ундоши ўзбек тилидаги [м] ундошига қараганда кучлироқ талаффуз этилади. Қиёсланг [m, m, m] — [м, м, м, м].

[m] ундоши ёзувда қуйидаги ҳолларда учрайди:

1. **m** — сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: mit, Tomate, warm, Museum.

2. **mm** — сўз ўртасида ва охирида келса: kommen, Sommer, Telegramm, schlimm.

120-машқ. Сўзларни ўқинг, [m] ундошини кучлироқ талаффуз қилинг.

Mund	Hemd	Film	schlimm
Mensch	Blume	Arme	Schlamm
Mönch	nehmen	Schirm	dumm
Maus	Heimat	Problem	fromm

121-машқ. Тез айтиш, мақол ва маталларни ўқинг, [m] ундошини чўзиқроқ талаффуз қилинг, овозингизни магнит тасмасига ёзиб эшитинг.

Man nimmt das Pferd beim Zaum,
den Mann beim Wort.
Guter Weg um ist nie krumm.
Ein Mann, kein Mann.
Wer im Sommer nicht sammelt,
muß im Winter Bettler sein.
Die Menschen begreifen gar nicht,
wie ernst man sein muß,
um heiter zu sein. (*Goethe*)

Man sollte... alle Tage wenigstens ein kleines Lied hören, ein gutes Gedicht lesen, ein treffendes Gemälde sehen und, wenn es möglich zu machen wäre, einige vernünftige Worte sprechen. (*Goethe*)

122-машқ. [m] ундошининг ёзувда қўлланишига эътибор бериб, матнни ифодали ўқинг ва таржима қилинг:

IM MAI

Ein Jahr hat zwölf Monate. Sie sind Januar, Februar, März, April, Mai, Juni, Juli, August, September, Oktober, November, und Dezember. Ein Jahr hat vier Jareszeiten. Sie heißen Winter, Frühling, Sommer und Herbst.

Der Mai ist der schönste Frühlingsmonat. Im Mai blühen die Obstbäume und verschiedene Frühlingsblumen. Im Mai werden Wälder und Felder grün. Im Garten und auf den Feldern beginnen die Frühlingsarbeiten. Auch die Studenten arbeiten auf den Feldern.

123-машқ. Шеърни магнит тасмасига ёзиб эшитинг, [m] ундошини нутқ жараёнида асосан ўзгармаслигига эътибор беринг:

IMMER SCHEINE DIE SONNE

L. Oschanin

Ein Sonnenkreis
Im Blau und weiß,
Immer scheine die Sonne,
Immer leuchte der Himmel,

Das hat ein Junge,
gezeichnet;
Hat es gemacht,
Wie er's verstand,
Und hat geschrieben
am Rand.

Immer lebe die Mutter,
Immer lebe auch ich!

[n] ундоши

[n] ундоши тил олди жарангли, портловчи сонор товушдир. Немис тилидаги [n] ундоши талаффуз қилинишига кўра ўзбек тилидаги тил олди, портловчи [н] сонор товушига ўхшайди. Ўзбек тилидаги [н] товуши тил учи тишларга тегиб турган ҳолатда талаффуз этилади.

Немис тилидаги [n] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ бир оз тушади, лаблар тортилмаган ҳолда тишлардан узоқлашади, юқори лаб бир оз кўтарилади; тил учи юқори тишлар милкига тегиб юқорига кўтарилади, тил эркин ҳолатда бўлади, тил орқасининг усти пасаяди, тилнинг ён томонлари юқори ён тишларга тегади; юмшоқ танглай пастга тушиб бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини очади, ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими бурун бўшлиғи орқали ўтади, шу туфайли [n] ундоши бурун товушидир; товуш пайчаларининг таранглашиб тираши натижасида ҳосил бўлган овоз [d] ундошидагига қараганда чўзиқроқ ва кучлироқ бўлади, немис тилидаги [n] ундоши ўзбек тилидаги [н] ундошига нисбатан анча кучли айтилади. Талаффуз қилиб кўринг: [n, n, n, n] — [н, н, н, н].



28-расм. [n] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

n] ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1. **n** — сўз бошида, ўртасида ва охирида келса: Name, wohnen, gern, nun.

2. **nn** — сўз ўртасида ва охирида келса: Sonne, denn, Sinn, dünn.

124-машқ. Сўзлардаги [n] ундошини тўғри талаффуз қилинг:

nehmen	schnell	Bein	nennen
Nummer	Norden	nein	kennen
nie	enden	kein	innen
Nase	Land	lachen	rennen

125-машқ. [n] бурун товушининг талаффузига эътибор бериб, қуйидаги сўз бирикмаларини ўқинг.

Anna kennen	wieder auf den Beine sein
nie und nimmer	die Beine unter den Arm nehmen
bei Nacht und Nebel	ein neues Leben beginnen
Sein und Schein	in den Wind reden.

126-машқ. Тез айтиш, мақол ва маталларни ёд олинг, [n] ундошининг сўз охирида ўзгармаслигига эътибор беринг:

Neue Nähnadeln nähen neue Nachtmützen.
Hinter Herrmann Hannes Haus hängen hundert Hemden raus.
Den Freund erkennt man in der Not.
Erst besinns, dann beginns.
Man darf anders denken als seine Zeit, aber man darf sich nicht anders kleiden. (*Ebner Eschenbach*)

127-машқ. Матнни ифодали ўқинг, [m], [n], [r], [l] сонорларининг талаффузига эътибор беринг:

DER BESTE AUGENBLICK

Der Lehrer in einer kleinen Dorfschule erzählte eines Tages seinen Schülern: "Es gibt vier Jahreszeiten: der Frühling, der Sommer, der Herbst und der Winter. Im Frühling wird alles grün. Auf den Wiesen stehen bunte Blumen. Im Sommer ist es warm, die Früchte reifen. Im Herbst werden die Blätter gelb, und es ist oft schlechtes Wetter. Im Winter sind die Tage kurz und die Nächte lang. Es ist kalt, und auf den Feldern liegt Schnee".

Hier endete die Erzählung des Lehrers. Er fragt einen Jungen: "Paul, hast du zugehört? Sage mir, wann man die Äpfel am besten pflücken kann! Paul stand auf und antwortete: Wenn der Gärtner nicht zu Hause ist, und die Hunde nicht im Garten sind!

[ŋ] ундоши



29 - р а с м. [ŋ] ундошининг талаффузи вақтидаги нутқ органларининг ҳолати.

[ŋ] ундоши тил орқа, портловчи, бурун товушидир. [ŋ] ундоши талаффуз этилишига кўра ўзбек тилидаги [нг] ҳарфлар бирикмасининг талаффузига бир оз ўхшайди.

Немис тилидаги [ŋ] ундоши талаффуз этилганда пастки жағ сал тушади, лаблар тортилмаган ҳолда тишлардан узоқлашади, юқори лаб озроқ кўтарилади; тил олдинга силжийди, тил учи пастки олд тишларга тегади, тил ўртаси қаттиқ танглай томон кўтарилади ва тегиб қайтади, тилнинг ён томонлари юқори ён тишларга тегади; юмшоқ танглай пастга тушади ва бурун бўшлиғига ўтадиган ҳаво йўлини очади; ўпкадан чиқадиган ҳаво оқими бурун бўшлиғидан ўтади, шунинг учун [ŋ] ундоши бурун товуши ҳисобланади; товуш пайчаларининг таранглашиши ва узоқ тебраниши натижасида ҳосил бўлган овоз кучли бўлади, ана шу ҳолат [ŋ] ундошига сонорлик сифатини беради. Шунинг учун [ŋ] ундоши жарангида ҳам овоз шовқинга нисбатан кўпроқдир.

Талаффуз этиб кўринг: [ŋ, ŋ, ŋ, ŋ] — [н, н, н, н].

[ŋ] ундоши ёзувда қуйидагича ифодаланади:

1. **ng** — сўз ўртасида ва охирида келса: Frühling, Zunge, Hunger, jünger, lang.

2. **nk** — сўз ўртасида ва охирида келса: Schrank, Frank, krank, senken, Enkel.

128-машқ. Сўз ва сўз бирикмаларидаги [ŋ] ундошининг чўзиқ ва кучлироқ талаффуз этилишига эътибор бериб ўқинг.

klingen	es klingelt	Schrank	einen Schrank kaufen
singen	im Chor singen	krank	heute krank sein
bringen	ein Wörterbuch bringen	Bank	auf der Bank sitzen
hängen	eine Tabelle hoch hängen		in der Bank arbeiten

129-машқ. Тез айтиш, мақол ва маталларда [nk] ҳарфлар бирикмасидаги [n] товушининг [ŋ] товушидек ўқилишига эътибор беринг.

Der **Enkel** war längere Zeit **krank**.
Schweigen und **Denken** kann niemand kränken.
Erst denken, dann **lenken**.
Im Dunkeln ist gut **munkeln**.
Die Gesunden und Kranken haben ungleiche **Gedanken**.
Wer **denkt**, will nicht überredet sondern überzeugt sein;
wer systematisch **denkt**, ist doppelt schwer zu überzeugen.

(*Klemperer*)

130-машқ. Сўзлардаги ҳарфлар ва товушлар нисбатига ҳамда товушлар таҳлилига эътибор беринг:

ҳарф	товуш	
к	к	тил орқа, портловчи, шовқинли
o	o	жарангсиз ундош орқа қатор, лабланган
m		қисқа унли
m	m	лаб-лаб, портловчи сонор
e	e	ўрта қатор, ўрта чўзиқ, лабланмаган унли
n	n	тил олди, портловчи сонор
6	5	

ҳарф	товуш	
p	p	лаб-лаб, портловчи, шовқинли,
r	r	жарангсиз ундош;
ü:	y:	тил олди, портловчи сонор
f	f	олд қатор, лабланган, юқори кўтарилиш,
u	ç	чўзиқ унли
n		лаб-тиш, сирғалувчи, шовқинли,
g	N	жарангсиз ундош
7	6	орқа қатор, лабланган, юқори кўтарилиш,
		қисқа унли
		тил орқа, портловчи сонор

ҳарф	товуш	
S	ʃ	тил олди, сирғалувчи, шовқинли, жарангсиз ундош
t	t	тил олди, портловчи, шовқинли, жарангли ундош
a	-	орқа қатор, лабланмаган, қуйи кўтарилиш, чўзиқ унли
a	a:	
t	t	тил олди, портловчи, шовқинли, жарангсиз ундош
5	4	

131-машқ. Матнни магнит тасмасига ёзинг, [ŋ, n, m] бурун товушларини ҳар хил талаффуз этилишини магнитофондан эшитиб фарқланг.

JEDER NACH SEINER ART

(H. Hoffmann von Fallersleben)

Immer langsam, immer langsam
ohne Sang und Klang.
geht die Schnecke ihren Gang.

Will sie gehen, will sie gehen
in die weite Welt hinaus,
nimmt sie mit ihr ganzes Haus.

Scheint die Sonne, scheint die Sonne,
hängt sie sich an einen Baum,
bleibt im Haus und rührt sich kaum.

Ihre Weise, ihre Weise
hat die Schnecke so wie du,
nun, so laß sie in Rüh!

IV боб

НУТҚНИНГ ФОНЕТИК БЎЛИНИШИ

Тилда нутқ турли ҳажмдаги фонетик бирликлардан ташкил топади. Бу фонетик бирликлар фраза (жумла), такт (синтагма), фонетик сўз, сўз (морфема), бўғин ва товушлардан иборат. Бу фонетик бирликлар нутқ занжирини ташкил этади. Фонетик бирликларнинг табиийлиги уларнинг нутқ занжирида қўлланишидир, чунки фонетик бирликлар нутқ занжиридан ташқарида сўзловчи кўзлаган вазифани бажара олмайди, сўзларнинг маъно доираси тораяди, тил товушларининг бошқа тил товушлари билан биргаликда нутқнинг шаклланиши учун хизмат қилиш имконияти тораяди.

Фраза кўпинча гапга тенг бўлади. Жумла (фраза) нутқнинг икки пауза (тўхтам) орасидаги интонацион бирлигидир. Фраза ёйиқ составли ёки йиғиқ составли бўлади. Агар жумла ёйиқ составли бўлса синтагмаларга (тактларга) ажратилади, жумла йиғиқ составли бўлса, битта синтагма (такт)дан иборат бўлади: In Taschkent gibt es viele Werke, Fabriken und Industiezweige. — Тошкентда кўпгина заводлар, фабрикалар, саноат тармоқлари бор. Ich wohne in Taschkent. — Мен Тошкентда яшайман.

Немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам содда ёйиқ жумлалар, қўшма гаплар икки ёки ундан ортиқ синтагма (тактлар)га бўлинади. Бир жумла синтагмалари тўхтам орқали бир-биридан ажратилади ва бу тўхтам синтагматик тўхтам (пауза) деб аталади, масалан: "Тошкентда кўпгина заводлар, фабрикалар, саноат тармоқлари бор" жумласи немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам бешта синтагмадан иборат.

Ҳар бир синтагма (такт) немис тилида бир ёки ундан ортиқ фонетик сўзда ташкил топган бўлиши мумкин. Фонетик сўздан урғу олган сўз атрофига урғу олмаган сўзлар йиғилган бўлади ва бундай урғу олган ва урғу олмаган сўзларнинг мазмунан бирикуви фонетик сўз дейилади. Ўзбек тилида синтагмалар фонетик сўзларга бўлинмайди, чунки ўзбек тилида барча сўзлар асосан урғули-

дир. О. Цахер[1] фонетик сўзни ритмик гуруҳ деб ҳам айтади ва ҳар бир фонетик сўз, ритмик гуруҳ кўпинча бир гап бўлагига (эга гуруҳига, кесим гуруҳига, тўлдирувчи гуруҳига, ҳол гуруҳига) тўғри келишини ҳам таъкидлаган, масалан: Der General — nahm-nicht die geringste — Notiz-von ihnen. (*B. Kellermann*).

Ҳар бир фонетик сўз (ритмик гуруҳ) икки ёки ундан ортиқ сўзлардан ташкил топади: "Тошкентда кўпгина заводлар, фабрикалар, саноат тармоқлари бор" жумласи ўзбек тилида 7 та сўздан, немис тилида эса 8 та сўздан ташкил топган ва бу сўзларни нутқ занжиридан ажратиб олиб, фонетик таҳлил қилса бўлади.

Ҳар бир сўз ўз навбатида бир ёки ундан ортиқ бўғиндан ташкил топади ва бўғин нутқнинг энг кичик бирлиги ҳисобланади. Немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам кўпинча сўздаги бўғин сони унлилар сонига тенг келади, юқоридаги жумла немис тилида 18 та бўғиндан, ўзбек тилида эса 21 та бўғиндан иборат.

Бўғин нутқнинг энг кичик бирлиги ҳисобланса, товуш (фонема) тилнинг энг кичик бирлигидир. Тил товушлари нутқнинг бошқа бўлакларга бўлинмайдиган таркибий қисмидир. Тил товушлари нутқ пойдеворидир.

132-машқ. Матнни ифодали ўқинг, унда нечта жумла борлигини аниқланг.

ARBEIT IM GARTEN

Wir haben einen Garten. Unser Garten ist nicht groß. Dort wachsen viele Obstbäume. In unserem Garten blühen schöne Blumen. Mutter hat sie im Frühling gesät. Im Sommer muß man sie gießen. Ich habe eine Gießkanne. Ich gieße die Blumen jeden Tag. Die Arbeit im Garten freut mich. Arbeit macht das Leben süß.

---

[1] О. Цахер. Фонетика немецкого языка, Ленинград, 1969, стр. 18.

133-машқ. Қуйидаги мақол, матал ва тез айтишларни мазмунан яхлит гуруҳларга, яъни синтагмаларга ажратинг:

Man lernt solange man lebt.
Das Glück ist blind.
Er brachte nach Köln zwölf Töpfe.
In kleinen Körbchen lagen hölzerne Löfel.

Wer fremde Sprache nicht kennt, weiß nichts von seiner eigenen.

(Goethe)

134-машқ. Шеърни ифодали ўқинг, ундаги синтагмаларни фонетик сўзларга ажратинг:

HERBST

Bund sind schon die Wälder,
gelb die Stoppelfelder,
und der Herbst beginnt.

Rote Blätter fallen,
Graue Nebel wallen,
kühler weht der Wind.

135-машқ. Сўз гуруҳларини, яъни фонетик сўзларни оддий сўзларга ажратинг:

dieser Film, diese Bilder, im Fieber, sich nicht irren, wir studieren, an der Tafel, bis zur Feier, nach dem Unterricht, alle Studenten, bis elf.

136-машқ. Сўзларни бўғинларга ажратинг:

Lola	Erde	fehlen	Tür	Schwester
Karim	Pferde	lehren	für	Bruder

137-машқ. Сўзлардаги товуш ва ҳарфлар нисбатини аниқланг:

es	See	Berg	ich	Schule
er	leer	gern	acht	Deutsch

Бўғин ва унинг турлари

Бўғин нутқ занжирининг энг кичик бирлиги бўлиб, нутқ жараёнида ўпкадан чиқаётган ҳаво оқимининг нутқ аппарати орқали ҳосил қилинган нутқ бирлигидир. Бўғин нутқ жараёнида ўпкадан чиқаётган ҳаво оқими-

нинг нутқ аппарати орқали ташқарига бўлиниб-бўлиниб чиқиш натижасида ҳосил бўлади. Бу бўлиниш бир товушдан ёки бир неча товушдан, тўғрироғи товушлар бирикмасидан юзага келади. Ўпкадан чиқаётган ҳаво оқимининг ҳар бир бўлиниши бир бўғинни ҳосил қилади. Нутқ жараёнида айрим товуш эмас, балки бўғинлар бир-биридан ажралиб туради. Шунинг учун ҳам нутқнинг энг кичик товуш бирлиги бўғин ҳисобланади. Айрим тил товушлари бир бўғинни ташкил қилиши ҳам мумкин, масалан: немис тилида o-ben, a-ber; ўзбек тилида: у, о-лим, э-тик, и-лон сўзларидагидек. Немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам сўзлар бир бўғинли ёки кўп бўғинли бўлади ва ҳар бир бўғин баъзи ҳолларда бир унлидан, аксарият ҳолларда унли ва ундошлар бирикмасидан ташкил топади. Немис ва ўзбек тилларида бўғинлар қуйидагича тарқибий қисмлардан иборат бўлади:

Немис тилида	Ўзбек тилида
УК[1] an	у — у келади.
УКК Art	ук — иш, от, уч, ун
КУ nah	ку — то, бо-ла, ло-ла, бе-да-на
ККУ blau	кук-бор, тор, зор, мак-таб, нон, чой
КУК nur	кукк — шарт, дард, турт, рост
КУ КК sind	кку — пре-зидент (ўзлашт. сўз)
ККУКК klingt	
КУККК Herbst	УККК — Эрнст (ўзлаштирма сўз)
УККК Ernst	
ККККУК Sprung	ККУКК — фронт, транс-порт (ўзл. сўз)

Немис ва ўзбек тилларида бўғин ажратиш

Одатда бўғиннинг бошланишида товуш паст бўлади, сўнгра кучаяди, бўғин охирига бориб, товуш яна пасаяди. Ҳавонинг ўтишида зарбга дуч келган фонема бўғинни юзага келтирувчи нутқ товуши ҳисобланади. Нутқдаги айрим товуш ёки фонема эмас, балки бўғинлар бир-биридан ажралиб туради. Бўғинлар унли ёки ундош товуш

---

[1] у — унли
К — ундош

билан тугайди. Немис тилида бўғинлар қуйидаги ҳолларда учрайди:

Бўғин чегараси чўзиқ, унли ва ундан кейин келган ундош ўртасида бўлади, масалан: o-ben, a-ber, ihre. Бунда унли ўзидан кейин келган ундош билан кучсиз боғланади. Бундай бўғинлар одатда очиқ бўғинлардир. Бўғиннинг бу тури ўзбек тилида ҳам бор, мас: о-лим, а-ниқ, Ко-мил.

Сўзда бўғин чегараси икки ундош ўртасидан ўтади. Бунда унли қисқа бўлиб ўзидан кейинги ундош билан кучли боғланади, масалан: tur-nen.

Бўғин чегараси чўзиқ унли ва сонор, портловчи ундошдан иборат бўлган ундошлар бирикмасидан олдин ўтади. Бу ҳолда ҳам чўзиқ унлилар очиқ бўғинни ташкил қилишда фаол иштирок этади, масалан: Pu-blikum.

Бўғин чегараси қисқа унли ва у билан кучли боғланган ундош орасидан ўтади. Масалан: Was-ser, mach-en.

Бўғин чегараси икки унли орасидан ўтади, масалан: Bau-er.

Агар сўзда учта ундош бирикиб келса, бўғин чегараси охирги ундош олдидан ўтади, масалан: Hälf-te.

Бўғин икки ундош орасида бўлади, бу шартли ёпиқ бўғиндир: Tag, gut.

Немис тилида сўзлар фонетик бўғинлардан ташқари орфографик бўғинларга ҳам ажралади ва улар морфологик бўғинлар билан қиёсланади[1] (8-жадвал).

8-жадвал

Немис тилида бўғин ажратиш

Фонетик бўғин ажратиш	Орфографик бўғин ажратиш	Морфологик бўғин ажратиш
Diens-tag	Diens-tag	Diens-tag
bau-en	bau-en	bau-en
Hän-de	Hän-de	Hän-de
Deck-e	Dek-ke	Deck-e
Wass-er	Was-ser	Wass-er
re-gnen	reg-nen	regn-en
ü-brig	üb-rig	übr-ig

[1] О. А. Норк, Н. Ф. Адамова. Фонетика современного немецкого языка. Нормативный курс. М., 1976, с.79.

Немис тилида бўғин уч турга бўлинади:

1. **Очиқ бўғин** — унли билан битган бўғин: treten
2. **Ёпиқ бўғин** — ундош билан битган бўғин: essen
3. **Шартли ёпиқ бўғин:** gut, Tag.

Шартли ёпиқ бўғинлар сўзларнинг морфологик ўзгариши натижасида очиқ бўғинга айланади. Ўзбек тилида эса фақат очиқ ва ёпиқ бўғинлар мавжуд, лекин ўзбек тилидаги ёпиқ бўғинлар ҳам очиқ бўғинларга айланиб кетиши мумкин. Шундай экан ўзбек тилидаги ёпиқ бўғинларни ҳам шартли ёпиқ бўғин деб аташ мумкин (9-жадвал).

9-жадвал

Немис ва ўзбек тилларида бўғин турлари

Немис тилида			Ўзбек тилида		
очиқ бўғин	ёпиқ бўғин	шартли ёпиқ бўғин	очиқ бўғин	ёпиқ бўғин	шартли ёпиқ бўғин
treten	fressen	trat	о-та	мак-таб, от	от (о-ти)
tragen	treffen	trug	бо-ла	бул-бул	том (то-ми)
lesen	essen	aß	у-ка	илм, билим	гул (гу-ли)
beben	backen	buck	бугун	беш, тол	гап (га-пи)
schufen	schaffen	schuf	бо-ри		сир (си-ри)
fielen	fallen	fiel	то-ға		чой (чо-йи)
laufen	halten	hielt			

Немис тили бўғинларининг ўзбек тили бўғинларидан яна бир фарқи шундаки, сўзнинг морфологик ўзгариши натижасида немис тилида очиқ ва ёпиқ бўғинга айланмайди, ўзбек тилида бунинг аксини кўриш мумкин, масалан: о-та (о-там), бо-ла (бо-лам), у-ка (у-кам) сўзларининг иккинчи бўғинлари очиқ бўғиндан ёпиқ бўғинга от, том, гул, гап, сир, чой каби ёпиқ бўғинлар о-ти, то-ми, гу-ли, га-пи, си-ри, чо-йи каби очиқ бўғинга айланади.

138-машқ. Матнни ёпиқ бўғинда унлиларнинг талаффузига эътибор бериб ифодали ўқинг.

WIE MALIK ERKÄLTUNG ZUGEZOG

Malik ist der beste Boxer in unserer Gruppe. Heute war er wieder im Boxerklub. Beim Ringkampf belegte er den ersten Platz. Nach dem Boxen trank er kaltes Wasser. Noch mit Schweiß bedeckt, ging er nach Hause. Unterwegs lief er stracks über die Eisbahn. Das Eis war noch nicht fest, es knackte, und Malik fiel ins Wasser. So zog er eine starke Erkältung zu.

139-машқ. Матнни чўзиқ унлиларнинг очиқ бўғиндаги талаффузига эътибор бериб ифодали ўқинг.

AUF EIGENEN FÜßEN

Ein Dichter stand auf der Plattforme einer überfüllten Straßenbahn. Unter den Fahrgästen befand sich auch ein junger Mann. Er stand dem Dichter. Nach einiger Zeit trat er dem Dichter zufällig auf den Fuß, merkte das aber nicht und blieb darauf stehen. Der Dichter zog den Fuß nicht weg und wurde nicht zornig. Aber an der nächsten Haltestelle mußte er aussteigen. Er klopfte dem Jungen auf die Schulter und fragte: "Sagen Sie junger Freund, wie alt sind Sie denn?" Der junge Mann drehte sich um und schaute den Dichter mit großen Augen an. "Zwanzig", antwortete er. "Da können Sie aehon auf eigenen Füßen stehen", sagte der Dichter lächelnd.

140-машқ. Шеърни чўзиқ унлиларнинг шартли ёпиқ бўғинлардаги талаффузига эътибор бериб ифодали ўқинг.

SAG MIR, WO DIE BLUMEN SIND

(Pete Seeger, Max Colpet)
(gekürzt)

Sag mir, wo die Blumen sind.
Wo sind sie geblieben?
Sag mir, wo die Blumen sind.
Was ist geschehn?

Sag mir, wo die Blumen sind.
Mädchen pflückten sie geschwind.
Wann wird man je verstehn?
Wann wird man je verstehn?

Sag mir, wo die Mädchen sind.
Wo sind sie geblieben?
Sag mir, wo die Mädchen sind.
Was ist geschehn?
Sag mir, wo die Mädchen sind.
Männer nehmen sie geschwind.
Wann wird man je verstehn?
Wann wird man je verstehn?

Sag mir, wo die Männer sind.
Wo sind sie geblieben?
Sag mir, wo die Männer sind.
Was ist geschehn?
Sag mir, wo die Männer sind.

V боб

ТОВУШЛАРНИНГ НУТҚ ЖАРАЁНИДА ЎЗГАРИШИ

Нутқ бир-бири билан мазмунан боғланган сўз, сўз бирикмалари ва жумлалардан иборат бўлади. Сўз ва сўз бирикмалари нутқ жараёнида бир ва ундан ортиқ маъноларни касб этади ҳамда морфологик, синтактик вазифаларни бажаради. Сўз, сўз бирикмалари ва жумлалар ташкил қилган нутқ занжири тил товушлари, бўғинлардан иборат бўлиб, нутқда муайян фонетик шароитларда бир-бирларига таъсири натижасида қисман ёки бутунлай ўзгаради. Бундай ўзгаришлар маълум қонуният заминида содир бўлиб, улар мажмуи ф о н е т и к қ о н у н л а р деб ҳам юритилади.

1. Knaklaut. Немис тилида унлилар сўз ва бўғин бошида келганда зарб билан талаффуз қилиниши. Немис тили фонетикасида унлиларнинг бундай айтилиши Knacklaut (дет

feste Einsatz) дейилади ва транскрипцияда унли товуш олдига юқорида [²] белгиси қўйилади. Масалан: Anna [²ana:].

euch	oben	— юқорида
aber	Erde	— ер
ofen	immer	— доимо
unser	Übung	— машқ

141-машқ. Қуйидаги сўзларни ўқинг, сўз ва бўғин бошида келган унлиларнинг зарб билан ўқилишига эътибор беринг:

üben	Übel	übrig	üblig
Ofen	öffnen	Österreich	Öl
Igel	immer	erinnern sich	Übung

2. Унлиларнинг кучли ва кучсиз қайтиш билан талаффуз этилиши. Немис тилида ҳамма қисқа унлилар кучли қайтиш (немисча fester Anschluß) билан талаффуз қилинади, чунки товуш пайчалари талаффуз охирида бўшашмайди ва унли ўзидан кейин турган ундош товуш билан боғланиш кучли бўлганлиги туфайли ундош билан деярли қўшилиб кетади, масалан:

gern	Kanne	Löffel	fünf	Bild
Heft	acht	örtlich	dürfen	Kind
kennen	Stadt	Töchter	tüchtig	immer

Ҳамма чўзиқ унлилар кучсиз қайтиш (немисча loser Anschluß) билан талаффуз қилинади, товуш пайчалари талаффуз охирида бўшашмайди, натижада ўзидан кейин турган ундош ўзидан олдин турган унли товушга бирданига қўшилиб кетмайди, масалан: geben [*ge:ben]

viel	Dienst	holen	ober	Büro	so
vier	liegen	schon	oder	Brot	froh

142-машқ. Сўзларни ўқинг; қисқа унли ва ундан кейин келган ундош орасидаги боғланишнинг кучлилигига эътибор беринг:

Sport	Moskau	doch	oft	Post
Stunde	Brandenburg	Hund	Ost	Butter

143-машқ. Сўзларни ўқинг; чўзиқ унли ва ундан кейин келган ундош орасидаги боғланишнинг кучсизлигига эътибор беринг:

stören	Ufer	Töne	Ofen	nehmen
Tücher	üben	Hüte	über	Saat
Söhne	Möbel	Größe	Übung	Brot

3. Унлиларнинг сифат ва миқдор жиҳатдан ўзгариши. Немис тилида унлилар нутқ жараёнида сифат жиҳатидан ўзгармайди. Урғусиз бўғинларда ёпиқ унлилар [i:, o:, y:, e:,ɛ:, ø:, u:] ҳам, очиқ унлилар [a:, ɛ:, ɪ:, ɔ:, a:,ɔ:, y:, œ] ҳам ўз сифатини сақлаб қолади. Немис тили унлилари урғусиз бўғин миқдор жиҳатдан ўзгаради: яъни редукцияга учрайди, чўзиқ унлилар ярим чўзиқ талаффуз этилса, қисқа унлилар эса яна ҳам қисқароқ талаффуз этилади, масалан:

чўзиқ унлилар		қисқа унлилар	
урғули бўғин	урғусиз бўғин	урғули бўғин	урғусиз бўғин
a:	a.	a	a
i:	i.	ɪ	ɪ
u:	u.	ʊ	ʊ
e:	e.	ɛ	ɛ
ɛ:	ɛ.	ɔ	ɔ
ö:	ɔ.	Y	Y
y:	Y.	œ	œ
ø:	ø.		

Қисқа [ɛ] унлиси ажралмайдиган олд қўшимчаларда ва қўшимчаларда кучсиз талаффуз этилади, редукцияга учрайди. Редукцияланган [ə] унлиси урғусиз (be-, ge-, er- ... олд қўшимчаларда ва (-e, -en, -er, -ler, -ner каби) қўшимчаларда учрайди. Немисча [ə] унли товуши мурмеллаут (Murmellaut) [ə] деб юритилади, масалан:

(E) мурмеллаут [ə] [E] урғусиз бўғинда r дан олдин

Arbeiterin ˈarbāetərɪn	Arbeiter ˈarbāetɐ
lehren ˈle:rən	Lehrling ˈle:ɐlɪŋ

bekommen bəkɔmən erzählen eɐtsɛ:len
gekommen *gəkɔmən zerschlagen tsəɐʃla:gən
Gebäude *gəbɔødə verstehen fəɐʃte:ən

Немис адабий тили ривожланишининг ҳозирги давридаги фонетик ёзувда мурмеллаут [ə] сонор товушлари олдида келганда бутунлай тушириб қолдирилмоқда. Бу ҳолат [ɛ] товушини жуда қисқа талаффуз этилишини тақозо этади:

Aachen ᵍa:xn	binden ˈbɪndn	oder ˈo.dɐ
backen bakn	spenden ˈʃpɛndn	aber ᵍa:bɐ
Stiefel ˈʃti:fl	legen ˈle:gn	übel y.bɐ
taufen ˈtaofn	üben ²y:bn	jeder je:dɐ

144-машқ. Ўқинг. Урғусиз бўғинда чўзиқ унлиларнинг чўзиқ ва ярим чўзиқ ўқилишига эътибор беринг:

Traktor	wer	lebendig	für	die	Theater
Charakter	vor	Lorelei	Anna	wir	Doktor

145-машқ. Сўзлар бирикмаларини ўқинг. Урғусиз бўғинда келган қисқа унлиларнинг янада қисқароқ ўқилишига эътибор беринг:

an Ort und Stelle	von Tag ab	ins Auditorium
zum Beispiel	ich bin da	Tag und Nacht
von Wali hören	Eis mit frischen	Früchten essen
Sardor ist beim Lehrer		Aufenthalt in Halle
das schöne Dresden		im Heimatdorf
bis elf geöffnet		um die Hilfe bitten

146-машқ. Матнни ўқинг, урғусиз бўғинларда [ɛ] унлисининг ўқилишига эътибор беринг:

DER WEISE UND SEEMANN

(Arabisches Märchen)

Ein Weiser machte einmal eine Seereise. Er fragte einen Matrosen: "Kannst du lesen und schreiben?" "Nein!" antwortete der Matrose. "Dann hast du die Hälfte deines

Lebens verloren"! sagte der Weise bedauernd. Bald darauf kam ein heftiger Sturm. Das Schiff kenterte und begann zu sinken. Da fragte der Matrose den Weisen: "Kannst du schwimmen?" "Nein!" antwortete der Weise. "Dann", sprach der Motrose, "hast du das ganze Leben verloren! "Der Weise bittete den Seemann um die Hilfe. Der Seemann rettete den Weisen. Der Weise dankte ihm für die Rettung.

Немис тилида [i̯], [u̯], [o̯] қисқа унлилари баъзи сўзларда бўғинни, ўзидан кейин келган унли билан биргаликда ташкил қилади. Бу ҳолда [i̯], [u̯], [o̯] унлилари ўта қисқа талаффуз этилади, масалан:

Linie	lingual	Amalie
Ingenieur	Linguist	Managua
Familie	Lingua	Cenua
Statue	Toilette	Ferien
aktuell	Moabit	Radio
Suite	Januar	Februar

147-машқ. Матнни ўқинг, [i̯], [u̯], [o̯] унлиларининг ўта қисқа ўқилишига эътибор беринг:

MEINE FAMILIE

Mein Name ist Martin. Ich bin II Jahre alt. Ich bin aus Felsberd in Deutschland. Mein Vater heißt Rainer, meine Mutter heißt Mariele. Ich habe eine Schwester Julia, 8 und einen Bruder: Chris, 6 Jahre alt. Wir haben 2 Wellensittliche. Meine Hobbyist sind Lesen und Essen. Ich kann Flöte spielen und gut basteln.

4. Унлилар ўзгаришининг фонетик қонуниятлари. Немис тили унлиларининг нутқ жараёнида ўзгариши қонуниятлари унинг барча ривожланиш даврларини ўз ичига олади. Бундай фонетик ҳодисалар сўзларнинг грамматик ўзгариши натижасида пайдо бўлган. Масалан: кучли феъларнинг уч асосий форма ясалишида феъл ўзагидаги унли товуш ўзгаради. Имперфект (ўтган замон) феъл шаклининг ясалишида аблаут (Ablaut) фонетик ҳодисаси муҳим

аҳамиятга эга. Аблаут натижасида кучли феъларнинг ўзагидаги унлилар ўзгаради, масалан:

Infinitiv (Инфинитив)	Imperfekt (Имперфект)		Partizip II (Сифатдош II)
waschen	wusch	gewaschen	ювмоқ
stehen	stand	gestanden	турмоқ
tun	tat	getan	бажармоқ
nehmen	nahm	genommen	олмоқ
trinken	trank	getrunken	ичмоқ
mögen	mochte	gemocht	хоҳламоқ
müssen	mußte	gemußt	зарур бўлмоқ

148-машқ. Гапларни презенсдан претеритумга айлантиринг ва ифодали ўқинг:

1) Sie waschen weiße Wäsche.
2) Vor dem Institut stehen viele Studenten.
3) Meine Oberzähne tun Weh.
4) Nehmen wir die Kugelschreiber mit.
5) Ich möchte Tee trinken.
6) Sie mögen also Kaffee!
7) Die Studenten müssen tüchtig studieren.
8) Er liest den Text noch einmal.
9) Mamlakat kommt um elf Uhr zu Schachodat.

149-машқ. Гапларни претеритумдан презенсга айлантиринг ва ифодали ўқинг.

Брехунг (Brechung) (синиш). Кучли феъллар презенс (ҳозирги замон) да тусланганда I ва III шахс бирликда ўзакларидаги [e] унлиси [i, ie] га ўзгаради. Бу фонетик ҳодиса брехунг-синиш ёки унлиларнинг кўтарилиши дейилади. Бунда ўрта тил кўтарилиш унлисига ўзгаради, масалан:

I шахс	II шахс	III шахс
ich sehe	du siehst	er sieht
ich nehme	du nimmst	er nimmt

Ўзбек тилида ҳам сўзларнинг грамматик ўзгариши натижасида унлиларнинг бошқа унлиларга ўзгариш ҳоллари бор[1]. Бу фонетик ҳодиса немис тилидаги аблаут ҳодисасига тўғри келади, масалан:

[о—а]	сон (от) — сана феъл шакли
	онг — англа
	от — ата
[ё—я]	ёш — яша
[я—ё]	ая (феъл) — аёв (от)
[а—о]	сўрамоқ — сўроқ
	чанқамоқ — чанқоқ
[и—у]	ўқимоқ — ўқув
	тўқимоқ — тўқув

Немис тилида феъл шакли ўзгариши натижасида унлилар ўзгариб, **а**, **о**, **u** унлилари Umlaut (умлаут) олади, яъни унли устига икки нуқта қўшилади. Масалан:

бирлик	**кўплик**
I. ich fahre	wir fahren
II. du fährst	ihr fahrt
III. er fährt	sie fahren

Немис тилида отларнинг кўплик шакли ясалишида ҳам сўзлар ўзагидаги унли ўзгаради; баъзи отлар ўзагидаги унли кўпликда умлаут олади, масалан:

бирлик	**кўплик**
die Wand	die Wände
der Vater	die Väter
die Mutter	die Mütter
die Tochter	die Töchter
die Hand	die Hände

[1] В. В. Решетов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика. Лексикология, морфология. Тошкент, 1965, 67-бет.

Бошқа сўз туркумларидан от ясашда сўз ўзагидаги баъзи унлилар ўзгаради. Ясама сўз ўзагидаги унли умлаут олади, масалан:

backen — нон ёпмоқ	Bäcker — нонвой
schulen — ўқитмоқ	Schüler — ўқувчи
Dorf — қишлоқ	Dörfler — қишлоқда яшовчи
laufen — югурмоқ	Läufer — югурувчи
stark — кучли	Stärke — куч

Шунингдек, бошқа сўз туркумларидан сифат ясашда ҳам сифат ўзагидаги унли умлаут олади, масалан:

schwach — die Schwäche	
Mund — оғиз	mündlich — оғзаки
Norden — шимол	nördlich — шимолий
Gefahr — хавф	gefährlich — хавфли
gebrauchen — керак бўлмоқ	gebräuchlich — керакли
Jahr — йил	jährlich — йиллик

150-машқ. Жуфт сўзларни ўқинг, грамматик ўзгариш натижасида унлиларнинг ўзгаришига эътибор беринг:

Schule — мактаб	Schüler — ўқувчи
fahren — бормоқ (*машинада*)	Fährte — из
Baum — дарахт	Bäume — дарахтлар
wachsen — ўсмоқ	wächst — ўсяпти
Apfel — олма	Äpfel — олмалар
Stadt — шаҳар	Städter — шаҳарлик
Haus — уй	Häuser — уйлар

151-машқ. Юқорида берилган сўзлар иштирокида гаплар тузинг.

Ўзбек тили фонетикасида сўзларнинг морфологик ўзгаришида сўзларнинг ўзагидаги унли ўзгармайди, масалан: бормоқ — бораяпти, келмоқ — келинг, кекса — кексароқ, ҳужум — ҳужумчи, қўрқмоқ — қўрқоқ, чидамоқ — чидамли.

5. Ундошлар ўзгаришининг фонетик қонуниятлари. Немис тилида сўз ва бўғин охирида, бир бўғинда келган [b,

d, g, z, v] жарангли ундошлар жарангсизлашиб (p, t, k, s, f) ундошлар каби ўқилади. Бу фонетик ҳодиса аусла-утгезетц (Auslautgesetz) дейилади, масалан:

Verb	— феъл	abfragen	— сўрамоқ
Mund	— оғиз	endlich	— ниҳоят
Tag	— кун	weggehen	— кетмоқ
Treptow	— Трептов	täglig	— ҳар куни
Gas	— газ	Häschen	— қуёнча

Ўзбек тилида ҳам сўз охирида келган (б, д, ж, з, г) жарангли ундошлари жарангсизлашади. Бу ҳодиса сўз охирида жарангли ундош келса ва жарангли ундош билан тугаган сўзларга жарангсиз ундош билан бошланган аффикс қўшилганда содир бўлади.

б—п мактаб — мактап	китобсиз — китопсиз
д—т озод — озот	кандсиз — кантсиз
г—к барг — барк	баргсиз — барксиз
ж—ч харж — харч	харжсиз — харчсиз

Ўзбек тилининг ўзига хос хусусиятларидан бири шундан иборатки, жарангли билан тугаган сўзларга жарангсиз билан бошланган аффикс қўшилиши натижасида негиз охиридаги товушнинг ўзигина жарангсизлашиб қолмасдан, жарангли билан бошланган аффикснинг биринчи ундошини ҳам жарангсиз товушга айлантириб юборади, масалан: жавобга — жавопка, баргга — баркка, боғга — боққа, жанубдан — жануптан.

Ўзбек тилида жарангли (в, з) ундошлари сўз охирида жарангсизланмайди ва **в—ф**, **з—с** жуфт ундошлар бир хил, ўхшаш морфемаларда келганда сўзларнинг маъноларини фарқлашга хизмат қилади, масалан: сув — суф, нав — наф, кез — кес, ноз — нос, оз — ос, туз — тус.

152-машқ. Жумлаларни ўқинг. Сўз, бўғин охирида келган жарангли [b, d, g, v, z] ундошларининг жарангсиз [p, t, k, f, s] ундошлари каби ўқилишига эътибор беринг:

1) Botir ist ihr jüngstes Kind.
2) Es gibt in Taschkent zwei Bahnhöfe.

3) Guten Tag!
4) Wir sind im Treptow-Park Berlins.
5) Hinter dem Hasen ist ein Häschen.
6) Wenn die Spinnen im Regen spinnen, wird es nicht lange rinnen.
7) Er zog sich in einen stillen Winkel zūruck.
8) Andere Städchen, andere Mädchen.
9) Frisch begonnen, ist halb gewonnen.

153-машқ. Шеърни ўқинг. Сўз ва бўғин охирида [b, d, g, z, v] ундошларининг жарангсизланишига эътибор беринг:

UWE BERGER

(Auszug aus der Stille)

Der Fluß, der sich durch dürre Steppen windet,
der Sehnsucht gleich, die nicht Erfüllung findet.
ist mir so fremd wie dieses bunte Haus,
Und bleibt sich gleich dir Wölbung dunklen Blaus.
Im West und Ost sind wir erdenschwer,
gebunden an uns selbst, was trieb mich her?
Was einst den Weisen in die Stille zog,
war, was mich auf ihr fortzugeben bewog.
Die, die da Schafe hüten, Brunnen bauen,
empfangen mich mit schweigenden Vertrauen.
Wo Dichter sahen die Barbaren schweifen,
vermochte Weisheit zum Gesetz zu reifen.
Dagegen, mit der Fackel in der Hand.
herrst der Barbar in Du Fuß altem Land.

6. Ассимиляция. Сўзда ёнма-ён келган икки хил товушнинг бир-бирига таъсири натижасида юзага келган ўхшашликка — ассимиляция дейилади. Ассимиляция прогрессив ва регрессив бўлади.

Прогрессив ассимиляция немис тилида ҳам, ўзбек тилида мавжуд бўлиб, унда олдин келган товушнинг таъсирида кейинги товуш олдингига ўхшаш товушга айланади, ўзидан олдинги товушнинг юмшоқлигига, жарангли жарангсизлигига мослашади.

Немис тилида бир сўзнинг охирида келган жарангсиз ундош таъсирида иккинчи сўзнинг бошида келган жарангли ундош ярим жарангсиз айтилади, масалан:

mit dem *Gast — меҳмон билан	das *Buch — китоб
das *Dach — том	aus der Sage — афсонадан
mit dir — сен билан	Kommt der Winter? — Қиш келяптими?

[ç] (Ich — Laut) ундош товуши **Ch** ҳарфлар бирикмаси олд қатор (i, e, ä, ü, ö) унлиларидан кейин келса [ç] **ихлаут — Ich — Laut** тарзида талаффуз этилади, масалан:

der Unterricht — дарс	die Fächer — фанлар
sprechen — гаплашмоқ	die Geschichte — тарих
zeitlich — ўз вақтида	die Bücher — китоблар

Ch ҳарфлар бирикмаси бирор сонордан кейин (Milch) ҳамда **-chen, -lich** ва **-ig** суффиксларидан кейин ҳам [ç] деб ўқилади.

[x] (Ach — Laut) ундош товуши

Ch ҳарфлар бирикмаси орқа қатор a, o, u унлиларидан кейин келса, [x] ахлаут (Ach — Laut) тарзида талаффуз этилади, масалан:

das Buch — китоб	noch — яна
suchen — қидирмоқ	die Woche — ҳафта
die Sprache — тил	das Mädchen — қиз

Ch бирикмасидан олдин [a͡o] дифтонги келса ҳам [x] деб ўқилади: auch.

Регрессив ассимиляцияда жарангли ундош ўзидан кейин келган жарангсиз ундош таъсирида жарангсизлашади, масалан:

die Stadt — шаҳар	du fragst — сен сўраяпсан
es gibt — бор	der Herbst — куз
du lädst ein — сен таклиф киляпсан	ihr lest — сизлар ўқияпсизлар

154-машқ. Мақолларни ўқинг. Прогрессив ва регрессив ассимиляцияни аниқланг, ўзбек тилига таржима қилинг:

1) Wie die Mache, so die Sache.
2) Aller Anfang ist schwer.
3) Habe Achtung vor dem Alter.
4) Den ersten Tag ein Gast, den zweiten eine Last.
5) Sparen bewahrt, was Arbeit gewann.
6) Man soll den Tag nicht vor dem Abend loben.
7) Absicht ist die Seele der Tat.

Ўзбек тилида ассимиляция ҳодисасига нутқ товушларининг қаттиқ-юмшоқлик, жарангли-жарангсизлик, портловчи-сирғалувчи лаб товушлари, сонорлар ва бошқаларнинг ўзаро ўхшашлиги киради.

Прогрессив ассимиляцияда товуш ўзидан олдин келган товуш таъсирида ўзгаради, олдингига ўхшаш товушга айланади: чимбат-чиммат, юракга-юракка, қиличга-қиличка, ошга-ошка, ишдан-иштан, отдан-оттан.

Регрессив ассимиляцияда кейинги товуш таъсирида олдинги товуш ўз хусусиятини ўзгартириб, кейинги товушга бирон сифат бўйича мослашади, масалан: танбур-тамбур, шанба-шамба, ёзсин-ёссин, тузсин-туссин, ёқса-ёхса, нуқсон-нухсон, оқшом-охшом[1].

7. Ярим жарангсизланиш. Немис тилида жарангли ундошлар сўз бошида ярим жарангсиз ўқилади. Фонетик ёзувда бу фонетик ҳодиса кўпинча ифодаланмаса-да, баъзи тилшунослар ярим жарангсизланиши [*] белгиси билан ифодалайдилар[2]. Ўзбек тилида жарангли ундошларнинг бундай ўзгариши кузатилмайди, чунки сўз бошида жарангли ундошлар кучли талаффуз этилмайди. Қиёсланг:

немис тилида

Wir sind jung, und das ist schön.

J. Brand

---

[1] В. В. Решетов, С. И. Иброҳимов, У. Т. Турсунов, Ф. К. Камолов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1966, 62-бет.
[2] О. А. Норк, Н. Ф. Адамова. Фонетика современного немецкого языка. Нормативный курс. Москва, 1976, стр.94.

Wir sind jung, die Welt ist offen,
o, du schöne, weite Welt!
Unser Sehnen, unser Hoffen
zieht hinaus in Wald und Feld.
Brauder, laß den Kopf nicht hängen,
kannst ja nicht die Sterne sehn!
Aufwärts blicken, vorwärts drängen!
Wir sind jung und das ist schön.

ўзбек тилида

Валиқ деди: — Эй, бақа,
Берайми сенга чақа?
Варрак учар ҳаволаб,
Вали кулар хоҳолаб.
Горилла деган маймун
Гугурт ўйнабди бир кун.
Денгиз тўлғониб тошар,
Довул билан довлашар...

("Қувноқ алифбе" дан.)

8. Жарангсиз ундошларнинг жарангли ундошлар билан алмашинуви. Немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам шовқинли жарангли ундошлар сўз охирида жарангсизланади. Шу жарангсизланган ундошдан кейин сўзнинг морфологик ўзгариши билан унли қўшимча ёки унли билан бошланадиган қўшимча қўшилса, жарангсиз ундош жарангли ундош билан алмашади, масалан: немис тилида:

der Tag (кун)	die Tage (кунлар)
der Freund (дўст)	die Freunde (дўстлар)
das Kind (бола)	die Kinder (болалар)
das Verb (феъл)	die Verben (феъллар)

Ўзбек тилида: барг (барк) — барги (барги), китоб (китоп), китоби (китоби), қанд (қант) — қандинг (қандинг), тож (точ) — тожи (тожи), илож (илоч) — иложи (иложи).

9. Аккомодация. Немис тилида лабланмаган унлилар лабланган қўшни унли таъсирида қисман лабланади. Бу фонетик ҳодиса а к к о м о д а ц и я дейилади, масалан:

tun — бажармоқ	das Lob — мақтов
die Kühnheit — жасурлик	mündlich — оғзаки
das Boot — қайиқ	der Sohn — ўғил

Немис тилида аккомодация **-лаб** оҳангдошлиги натижасида унлилар лабланмаган ундошларнинг лабланган вариантларини келтириб чиқарса, ўзбек тилида олдинги бўғинда келган лабланган унли, кейинги бўғинда ҳам лабланган унли қўлланишини кўп ҳолларда тақозо қилади, демак ўзбек тилида лаб гармонияси унлилар орасида содир бўлади, масалан: улуғ, бодом, буюк, бутун, юлдуз, гумбур-гумбур.

Геминация. Немис тилида бир сўз таркибида бир хил ундошнинг қўшалоқ ишлатилиши шу қўш ундошлар олдида келган унлининг қисқа ўқилишидан ва қўш ундошларнинг ҳам битта қисқа ундош бўлиб талаффуз этилишидан дарак беради, масалан:

kommen — келмоқ	brennen — қуймоқ
dann — сўнгра	interessant — қизиқарли
alle — ҳамма	das Komma — вергул

Ўзбек тилида ҳам ундошларнинг қўшалоқ ишлатилиши кўп учрайди. Бир сўз таркибидаги қўш ундош ўзбек тилида иккита мустақил товушни, фонемани ифодалайди, масалан: аввал, етти, катта, содда, иссиқ, арра, марра. Ўзбек тилида бир сўз таркибида бир хил ундошларнинг қўшалоқ ёки якка ишлатилиши сўз маъносини фарқлаши мумкин, қиёсланг: чинни — чини, холли — холи, толли — толи. Бир сўзнинг охири ва иккинчи сўзнинг бошида талаффуз жиҳатидан бир хил бўлган икки ундош келса, битта чўзиқ ундош каби ўқилиши немис тили ва ўзбек тили фонетикасида учрайди, масалан:

немис тилида	ўзбек тилида
mein Name — менинг исмим	хат ташувчи
mit Tante — холам билан	арзон нок
komm mit — бирга юр	енгил ликоб
annehmen — қабул қилмоқ	эркак киши
mitteilen — хабар бермоқ	уч чизим

155-машқ. Шеърни ифодали ўқинг. Лабланмаган ундошларнинг лабланган қўшни унлилар таъсирида қисман лабланишига эътибор беринг.

FUCHS UND IGEL

(B. Busch)

Ganz unverhofft an einem Hügel
Sind sich begegnet Fuchs und Igel.
Halt, rief der Fuchs, der Bösewicht.
Kennst du des Königs Order nicht?
Ist nicht der Friede längst verkündigt?
Und weißt du nicht, daß jeder sündigt,
Der immer noch gerüstet geht?
Im Namen seiner Majestät —
Geh her und übergib dein Fell!
Der Igel sprach: Nur nicht so schnell!
Laß dir deine Zähne brechen,
dann wollen wir uns weiter sprechen.
Und alsogleich macht er sich rund,
Schließt seinen dichten Stachelbund,
Und trotzt getrost der ganzen Welt,
Bewaffnet, doch als Friedensheld.

10. Аспирация. Немис тилида портловчи, жарангсиз [p, t, k] ундошлари баъзи ҳолларда кучли нафас чиқариш (Aspiration — аспирация) билан талаффуз этилади. Уларнинг талаффузидан кейин оғиз бўшлиғидан бир оз **h** — тарзидаги шовқин билан ҳаво чиқади, бу ундошларнинг портлашидаги шовқинни пасайтиради. Портловчи, жарангсиз **p, t, k** ундошларининг талаффузи вақтидаги кучли нафас чиқариш даражаси шу ундошларнинг сўздаги жойлашиш ўрнига боғлиқ.

1) Агар **p, t, k** ундошлари урғули бўғин бошида унлидан ёки сонордан олдин келса кучли нафас чиқариш билан талаффуз этилади, масалан:

Kreide — бўр	Tal — водий	Puppe — қўғирчоқ
Platz — жой	kommen — келмоқ	Tante — хола
Knie — тизза		

2) Агар **p, t, k** ундошлари урғули бўғин (сўз)нинг охирида келса ҳам қўшимча нафас чиқариш билан айтилади, масалан:

Verb — феъл	Tag — кун	Hand — қўл
		Art — хил

3) Агар p, t, k ундошлари урғусиз бўғинларда унлилардан олдин келса кучли нафас чиқариш бир оз пасаяди, масалан:

Alpen — Алп тоғлари	Rente — пенсия
mutig — жасур	Werke — заводлар

4) Агар p, t, k ундошларидан кейин бошқа портловчи, ҳарангсиз ундош ёки бирон сирғалувчи ундош келса қўшимча нафас чиқариш айниқса кучсизланади, масалан:

Kopf — бош	bleibst — қолаяпсан
sagst — айтаяпсан	singst — куйлаяпсан

Ўзбек тилида п, т, к ундошлари ўзбек тилининг барча ундошларидек немис тили ундошларига қараганда кучсизроқ талаффуз қилинади. Шунинг учун ҳам ўзбек тилида аспирация фонетик ҳодисаси учрамайди, масалан: мактаб, қоп, топ, гап, керак, терак, катак, тарих, от, тош, темир, томир, тирик, тетик.

156-машқ. p, t, k ундошларининг кучли нафас чиқариш билан ўқилиш қоидасини матндан аниқланг ва уни ифодали ўқинг.

MEIN VATER

Mein Vater ist ein wunderbarer Mensch. Er schimpft nie. Er ist nie böse. Er hat für alles und jeden Verständnis. Er versteht die moderne Jugend. Mein Vater hat viele Interessen. Er liest Romane, Novellen und viele wissenschaftliche Bücher. Er bildet sich weiter. Er liebt gute Musik, und er spielt Schach wie ein großer Meister. Er schwimmt gern, läuft Schi und reißt alle in seiner Begeisterung für den Sport mit. Früher

war er Spitzensportler, aber er spricht nie darüber, denn er lobt sich nie selbst.

Mein Vater ist nicht nur klüger als andere Väter, er hat in seinem Leben auch noch nie etwas Verbotenes getan. Er ist Lehrer und liebt die Ehrlichkeit über alles. Mein Vater muß in seinem Beruf viel arbeiten, er hilft aber jeder Zeit zu Hause. Er sorgt für uns, ist zärtlich und immer gerecht. Deshalb ist mein Vater ein Mensch, den ich bewundere.

11. Геминация. Нутқ занжирида товушлар уч қисмдан иборат бўлади: бошланғич қисм, асосий қисм, охирги қисм. Тил товушининг бошланғич қисмини талаффуз қилиш учун нутқ органлари ҳозирланади ва талаффуз қилишни бошлайди, нутқ органларининг шу товушнинг талаффузига ўтиб олиб талаффуз қилган қисми асосий қисмдир, нутқ органларининг товушнинг талаффузидан сўнг бошланғич ҳолатга қайтаётган вақтда ҳосил қиладиган қисми охирги қисмдир. Бир товушдан иккинчи товушга ўтиш жараёнида товушнинг охирги қисми ундан кейин талаффуз этиладиган товушнинг бошланғич қисмига қўшилиб кетиши геминациядир. Бу қуйидагича содир бўлади: бунда бир сўз охиридаги ундошнинг охирги қисмининг ҳосил бўлиш ўрни ва усулига кўра ўхшаш бўлган кейинги сўзнинг бошида келган ундош товушнинг бошланғич қисми билан қўшилиб кетади. Шунда сўзлар чегарасида келган икки ўхшаш ундош битта қисқа ундош каби айтилади. Немис тилида бу фонетик ҳодиса қўшма сўзлар таркибий қисмлари ўртасида содир бўлади, масалан:

Handtuch	aussehen	Fahrrad
Handtasche	Schiffahrt	zweifellos
Hauptthema	Stadtteil	Zweiggeschäft
Haussuchung	Vollauf	zwölffach
Stiefvater	Bergkamm	Heimmanschaft
	Halbpelz	

Агар бир сўз охирида жарангсиз ундош, иккинчи сўз бошида жарангли ундош келса, товуш пайчалари иккинчи ундошнинг асосий қисмидан титрай бошлайди. Нати-

жада икки ундош ўрнида айтилаётган бир ундошнинг бош қисми жарангсиз, охирги қисми жарангли бўлади, масалан:

mit dir	über rohes Obst denken
an dem Berg gibt es	ein Schiff fährt
das Verb bleibt	komm mit
das Bett decken	

157-машқ. Матнни ифодали ўқинг. Қўшма, ясама сўзлар таркибий қисмлари орасида икки жарангсиз ундошнинг битта қисқа жарангсиз ундошдек ўқилишига эътибор беринг:

EIN TELEFONGESPRÄCH MIT VETTER

Mein Vetter ist erkankt. Er wohnt weit von uns, hat aber ein Telefon. Ich werde versuchen, ihn, anzurufen. Vor unserem Haus ist eine Telefonzelle. Ich gehe zum Telefon, nehme den Hörer, werfe eine Wertmarke in den Schlitz und wähle die Telefonnummer meines Vetters. Mein Vetter antwortet nicht. Da versuche ich es noch einmal. Endlich meldet sich mein Vetter. Ich erfahre von ihm, daß er schon fast gesund ist. Wir verabredeten uns, am Sonntag eine Schiffahrt zu unternehmen.

158-машқ. Шеърни ифодали ўқинг. Икки сўз орасида келган жарангсиз ва жарангли ундошларнинг ярми жарангсиз, ярми жарангли айтилишига эътибор беринг:

ERLKÖNIG

J. W. Goethe

Wer reitet so spät durch Nacht Wind?
Es ist der Vater mit seinem Kind;
er hat den Knaben wohl in dem Arm,
er faßt ihn sicher, er hält ihn warm.

"Mein Sohn, was birgst du so bang dein Gesicht?" —
"Siehst, Vater, du den Erlkönig nicht?

Den Erlkönig mit Kron' und Schweif?" –
"Mein Sohn, es ist ein Nebelstreif". –

"Du liebes Kind, komm, geh mit mir!
Gar schöne Spiele spiel' ich mit dir;
manch' bunte Blumen sind an dem Strand;
meine Mutter hat manch' gülden Gewand". –

"Mein Vater, mein Vater, und hörest du nicht,
was Erlenkönig mir leise verspricht?" –
"Sei ruhig, bleibe ruhig, mein Kind:
In dürren Blättern säuselt der Wind". –

"Willst, feiner Knabe, du mit mir gehn?
Meine Töchter sollen dich warten schön;
meine Töchter führen den nächtlichen Rhein
und wiegen und tanzen und singen dich ein". –

"Mein Vater, mein Vater, und siehst du nicht dort
Erlkönigs Töchter am düsteren Ort?" –
"Mein Sohn, mein Sohn, ich weh'es genau:
Es scheinen die alten Weiden so grau". –

"Ich liebe dich, mich reizt deine schöne Gestalt;
und bist du nicht willig, so brauch' ich Gewalt". –
"Mein Vater, mein Vater, jetzt faßt er mich an!
Erlkönig hat mir ein Leids getan!"

Dem Vater grauset's er reitet geschwind,
er hält in den Armen das ächzende Kind,
erreicht den Hof mit Mühe und Not;
in seinen Armen das Kind war tot.

12. Унлилашув. Бу фонетик ҳодиса тил олди [r] ундошининг олд қўшимчаларда ва чўзиқ унлилардан кейин (a: дан ташқари) [a:], [o:] унлиларидек талаффуз этилиб, транскрипцияда [ɐ] белгиси орқали ифодаланади.

Катта немисча талаффуз луғатида[1] [ɐ] унлисига ярим очиқ, унча аниқ бўлмаган, тил ўрта сифати берилган.

---

[1] Kollektiv. Großes Wörterbuch der deutschen Aussprache. Leipzig 1982. S.54.

Унлилашган ярим очиқ, унча аниқ бўлмаган, тил ўрта [ɐ] талаффуз этилганда оғиз бир оз очилади, тил олди қирғоқлари пастки олд тишларга тегади, тил ўртаси юмшоқ танглай томон бўртиб чиқади, жарангланиши [а, ɔ, а:, о:, ɛ:, ɛ] унлиларидан бирига ўхшаб кетади.

Унлилашган [ɐ] товуши ёзувда қуйидаги ҳолларда учрайди:

1) r — ажралмайдиган олд қўшимчаларда келса: erklären, versäumen, zerschlagen.

2) r — қўшимчаларда келса: Kinder, Maler, Gärtner.

3) r — чўзиқ унлилардан кейин келса (a: дан ташқари): wir, Meer, Ohr, Tür.

159-машқ. Ҳикояни ўқинг, r ундошини қўшимчаларда унлилашишига эътибор беринг:

DIE ABSCHREIBEBRILLE

(Nach I. Feustel)

Paul war ein Riesenfaulpelz. Die Schulaufgaben machte er selten selbst. Er schrieb sie meist ab. So einer war Paul. Nun sollten sich die Schüler zum Diktat vorbereiten. Zehn Wörter mit "pf" sollten sie üben, auch "Hundeknopf" und Hosenknopf". Aber Paul übte sie nicht, er schrieb sie auf einen Zettel, immer der Reihe nach. Und den Zettel legte er vor der Diktatstunde unter seine Federtasche. Was sollte nun noch schiefgehen?

Alles ging vorzüglich, glaubte Paul. Schon am nächsten Tag erhielten die Schüler die Diktate zurück. Nur Paul bekam kein Heft. Es wurde ganz still in der Klasse, als der Lehrer die Sätze aus Pauls Heft vorlas: "Der Pudel frißt die Wurst aus dem Hasenknopf. Die Mutter näht den Hundeknopf an Kurts Hose".

Die ganze Klasse lachte so, daß manchen die Tränen aus den Augen kullerten.

"Lacht doch nicht so! Ich habe mich nur verguckt!" rief Paul und hielt sich gleich erschreckt die Hand vor den Mund. Da war es heraus!

"So! So" sagte der Lehrer und holte auf dem Schubfach eine große Brille. Er setzte Paul die Brille auf die Nase". Damit du dich beim Abschreiben nicht mehr verguckst".

Nun war Paul für immer vom Abschreiben geheilt.

160-машқ. Диалогни ўқинг, [r] ундошининг чўзиқ унлилардан кейин [a: дан ташқари] унлилашган қисқароқ [в] товуши сифатида ўқилишига эътибор беринг:

DIALOG

Nilufar: Guten Tag, Saodat! Wie geht es dir?

Saodat: Soso, lala! Du siehst aber etwas müde aus, wie geht es dir?

Nilufar: Danke, es geht mir gut. Ich bin jetzt gesund. Ich war drei Tage krank. Ich hatte Kopfschmerzen. Heute fühle ich mich gut und gehe zur Arbeit.

Saodat: Ja? Wo arbeitest du?

Nilufar: Ich bin bereits drei Monate als Krankenschwester tätig. Ich arbeite im Krankenhaus.

Saodat: Das ist aber schön. Du hast dich schon als Kind für Medizin interessiert. Willst du auch weiter studieren?

Nilufar: Gewiß, ich will eine gute Kinderärztin werden. Das ist mein Wunsch. In diesem Jahr beziehe ich das medizinische Institut. Und du?

Saodat: Ich besuche den deutschen Sprachkursus. Ich interessiere mich für die deutsche Sprache. Das weißt du ja. In diesem Jahr werde ich die Universität für Weltsprachen beziehen.

Nilufar: Ich wünsche dir viel Erfolg!

Saodat: Ich auch!

Nilufar: Danke schön!

Saodat: Auf Wiedersehen!

Nilufar: Auf Wiedersehen!

161-машқ. Сўзларни ифодали ўқинг, [r] ундошининг сўз бошида унлидан олдин, ундошдан кейин, қисқа унлидан кейин ўқилишига эътибор беринг:

Kaul	beraten	Berg	Bruder	Erle
Rose	Gerät	stark	Kreide	irren
Reise	Geräusch	wirkt	schreiben	Ort
Regen	kurz	Dorf	Drittel	Urne
richtig	Lärm	Bursche	krank	Arbeit
Röntgen	März	Bürger	Preis	Ärmel

VI боб

НЕМИС ТИЛИДА УРҒУ ВА УНИНГ СЎЗДАГИ ЎРНИ

Сўз урғуси. Сўз ёки сўзнинг бирор бўғинини фонетик восита ёрдамида ажратилиб, зарб билан айтилиши урғу дейилади. Урғули сўзнинг маълум бир бўғинидаги унли товуш шу сўздаги бошқа унлиларга қараганда кучлироқ (динамик урғу), баландроқ (музикали урғу) ёки чўзиқроқ (квантитатив урғу) айтилади[1]. Кучли, баланд ёки чўзиқ айтилган мана шу бўғин урғули бўғин саналади.

Немис тилида урғули бўғиннинг унлиси урғусиз бўғиннинг унлисига қараганда кучлироқ ва баландроқ айтилади, шунинг учун ҳам немис тилидаги сўз урғуси — динамик — музикали урғудир[2].

Немис тилида сўз урғуси энг кўп ҳолда туб сўзларда асосий ҳар доим сўзнинг ўзагидаги биринчи бўғинга тушади. Шунинг учун ҳам немис тилида сўз урғуси боғлангич урғудир, масалан:

Mensch — одам	Menschen — одамлар
Schlaf — уйқу	schlafen — ухламоқ
Heft — дафтар	Hefte — дафтарлар

Немис тилида урғу биринчи, иккинчи, учинчи ва бошқа бўғинга тушиши мумкин. Немис тилидаги кўп бўғинли

---

[1] Л. В. Щерба. Языковая система и речевая деятельность. Ленинград, 1974, с.176.

[2] М. Г. Кравченко, М. А. Зыкова, Н.Д. Светозарова, И. В. Братусь. Ударение и интонация в немецком языке. Ленинград, 1973, с.8.

сўзларда иккита урғули бўғин бўлиши мумкин. Бунда урғулардан бири иккинчисига қараганда кучлироқ бўлиб, у асосий (Hauptbetonung) урғу, иккинчиси, кучсизроғи эса — иккинчи даражали (Nebenbetonung) урғу деб аталади.

Иккинчи даражали урғу бўғиннинг пастига [ˌ] қўйилади: Hauptˌstadt. Немис тилида урғу сўзларнинг ўзагига тушиши билан характерлидир. Ўзбек тилида эса урғу кўпинча сўзнинг охирги бўғинига тушади: дафтар, дафтарлар. Бу ҳол қуйидаги сўзларда учрайди:

1) Ажралмайдиган be-, ge-, zer-, ent-, emp-, miß- олд қўшимчали ясама сўзларда ҳам ягона урғу бўлиб, у сўз ўзагига тушади, масалан:

bespréchen — сўзламоқ	gefállen — ёқиб қолмоқ
erzählen — ҳикоя қилмоқ	verlóren — йўқотмоқ
zerschlágen — синдирмоқ	entláng — бўйлаб
Empfáng — қабул	empféhlen — тавсия қилмоқ

Ажраладиган **auf-, an-, ab-, bei-, nach-, vor-,** zu- олд қўшимчали ясама сўзларда иккита урғу бўлиб, у шу олд қўшимчаларга ва асосий сўзга тушади. Zusammen, fort, weg, weiter, voran, hinaus, heraus сўзларининг олд қўшимча бўлиб қўшилиши билан ясалган феълларда бош урғу шу қўшимчаларга — сўзнинг биринчи бўғинига тушади:

ˈaufˌstehen — ўрнидан турмоқ
ˈanˌführen — бошқармоқ
ˈbeiˌbringen — олиб келмоқ
ˈvorˌschlagen — тавсия этмоқ
ˈzuˌhören — барҳам бермоқ
ˈzusammenˌbinden — боғламоқ
ˈfortˌgehen — чиқиб кетмоқ
ˈwegˌlaufen — қочиб кетмоқ

2) Чет тиллардан кирган -al, (ell) қўшимчаси бўлган сифатларда урғу шу қўшимчаларга тушади:

minimál — энг кичик
optimál — энг қулай
soziál — ижтимоий
offiziéll — расмий
forméll — формал

3) Агар **wider** ясама феъл таркибида ажралмайдиган олд қўшимча сифатида келиб, "қарши" маъносини ифодаласа, урғу феъл ўзагига тушади:

widerlégen — рад қилмоқ
widerrúfen — бекор қилмоқ

4) Баъзи равишларда урғу иккинчи бўғинга тушади, масалан:

hiermit — шу билан
hetum — шу атрофда
hináb — пастга қараб
her´zu — шу томонга

5) Немис тилидаги бошқа тиллардан кириб келган **-ei, -ie, -al, -at, -ant, -aner, -graph, -log, -nom, -tät, -tion, -ion, -ismus, -ist, -tät, -ieren, -ig** қўшимчаларини қўшиш билан ясалган сўзларда урғу шу қўшимчаларга тушади — сўз ўзагидаги биринчи бўғин урғу олмайди, масалан:

die Bäckeréi — нонвойхона
die Analógie — ўхшашлик
die Morál — ахлоқ
das Diktát — диктант
der Aspiránt — аспирант
der Studént — талаба
der Amerikáner — америкалик
der Photograph — фотограф (расмчи)
die Auktion — ким ошди савдоси
der Föderalismus — федерализм
der Akulist — кўз шифокори
die Fakultät — факультет
die Natúr — табиат
spazieren — сайр қилмоқ

Ўзбек тилида урғу ва унинг сўздаги ўрни

Ўзбек тилида сўз бўғинларидан бири шу сўзнинг бошқа бўғинларига қараганда кучлироқ айтилади. Шунинг учун ҳам ўзбек тилидаги сўз урғуси динамик урғу-

дир[1]. Урғули бўғиндаги унли товуш шу сўзнинг урғусиз бўғинидаги унлиларга қараганда кучлироқ айтилади.

Ўзбек тилида урғу, асосан, кўпгина турк тилларидагидек сўзнинг охирги бўғинига тушади: ота́, мактаб́, яхши́, обру́, бутун́.

Сўзларга қўшимчалар қўшила бориши билан, урғу ҳам шунга мос равишда кейинги бўғинларга кўча боради: пахта́-пахтако́р-пахтакорла́р-пахтакорларга́ каби. Асосан, сўзларда урғу охирги бўғинга тушганлиги учун ўзбек тилининг сўз урғуси боғланган урғу ҳисобланади, лекин ўзбек тилида ҳам урғуси охирги бўғинга эмас, сўзнинг биринчи бўғинига тушадиган анчагина сўзлар бор. Бундай сўзлар қуйидаги сўз туркумларида учрайди: 1) олмошларда: ба́рча, ҳа́мма, ки́мдир каби;

2) равишларда: до́им, ҳо́зир, а́сло;

3) баъзи ёрдамчи сўзларда: га́рчи, а́ммо, ле́кин.

Бундан ташқари **-ку, -у, -ю, -да, -ми, -чи** қўшимчалари қўшилган бир бўғинли сўзларда ҳам урғу биринчи бўғинда қолади: ме́н-ку, ка́м-у, у́-ю, би́зда, бо́рми, се́н-чи?

Феълларга **-ма** бўлишсизлик қўшимчаси қўшилганда урғу феълнинг биринчи бўғинида қолади: ке́лма, о́лма, бо́рмасин.

Шунингдек **-ча, -дай (дек), -сан, -миз, -сиз** қўшимчалари ҳам урғу олмайди, урғу шу қўшимчалардан олдин келган бўғинга тушади: масалан: шамо́лдай, ишчи́дир, ўқувчи́ман, боти́рсан, қурувчи́миз, китобдир, навбатчи́ман.

Ўзбек тилидаги русча — интернационал сўзларнинг урғуси бирон бўғин билан боғланган эмас, шунинг учун ундай сўзларда урғу ҳар хил бўғинга тушиши мумкин.

162-машқ. Содда сўзларда урғуни биринчи бўғинга қўйиб ўқинг.

Brot — Brote — Brötchen — brotlos

Hemd — Hemden — Hemdes
krank — kranke — Krankheit — Kränklichkeit
Schrank — Schränke — schrankenlos
Hilfe — helfen — hilflos — Helfer

---

[1] А. Махмудов. Словесное ударение в узбекском языке. Ташкент, 1960.

scharf — schärfer — schärfsten
Herz — Herzens — herzlich
Brief — Briefs — brieflich

163-машқ. Матнни ўқинг. Сўз урғусининг (ажралмайдиган ва ажралувчи олд қўшимчали) сўзлардаги ўрнига эътибор беринг:

SELTSAMER SPAZIERRITT

Ein Mann reitet auf seinem Esel. Sein Sohn läuft zu Fuß nebenher. Kommt ein Wanderer und sagt: "Das ist nicht gut. Ihr reitet und laßt Euren Sohn zu Fuß gehen. Ihr habt stärkere Füße!

Da stieg der Vater vom Esel herab und ließ den Sohn reiten. Kommt ein anderer Wandersmann und sagt: "Das ist nicht recht, Bursche, daß du reitest und laßt deinen Vater zu Fuß gehen. Du hast jüngere Beine!" Da saßen beide auf, ritten eine Strecke. Kommt ein dritter Wandersmann und sagt: "Was ist das für ein Unverstand? Zwei Kerle auf einem schwachen Tier!

Da stiegen beide ab und gingen zu Fuß. Kommt ein vierter Wandersmann und sagt: "Ihr seid drei seltsame Gesellen! Ist es nicht genug, wenn zwei zu Fuß gehen? Geht es nicht Leichter, wenn einer von euch reitet?"

Da band der Vater dem Esel die vorderen Beine zusammen, und der Sohn band ihm die hinteren Beine zusammen, zogen einen starken Stock durch und trugen den Esel auf der Achsel heim.

164-машқ. Сўзларни ўқинг. Сўзлар суффикси урғу олмаса ҳам уларнинг таркибидаги унлилар сифати сақланиб қолишига эътибор беринг:

wasserlos	Menschenlos	hilflos
wässerig	menschlich	fußbar
windische	Menschlichkeit	sparsam
Krankheit	Farbigkeit	ehrlos
Freiheit	Kurzlebigkeit	leblos
Klugheit	Lebendigkeit	reglos
liebsam	zeigbar	Fischlein
unliebsam	fangbar	Männlein
friedsam	dankbar	Röslein

Немис тилида сўз урғусининг кўчиши

Немис тилида сўз урғусининг бир бўғиндан бошқа бўғинларга кўчиш ҳоллари кўп учрайди:

1) Агар баъзи сўзларда сўз шакли бирликдан кўпликка ўзгарса, унинг урғуси биринчи бўғиндан иккинчи бўғинга ўтади:

der Tráktor — трактор
die Tráktóren — тракторлар
der Charákter — характер
die Charáktére — характерлар

der Lektor — ўқитувчи
die Lektóren — маърузачи

2) а) miß олд қўшимчаси билан ясалган феълларда феъл ўзаги ўртасида бошқа олд қўшимча бўлмаса, урғу феъл ўзагига тушади. Бу ҳолда miß олд қўшимчаси урғусиздир:

mißáchten — ҳазар қилмоқ
mißfállen — ёмон кўринмоқ

б) miß олд қўшимчаси орқали ясалган феълларда miß олд қўшимчаси ва феъл ўзаги орасида яна бошқа олд қўшимча ҳам бўлса, у ҳолда урғу олд қўшимчага тушади.

mißver,stehen — нотўғри
mißbe,hagen — ёмон қўринмоқ

отлар, сифатлар, равишларда урғу miß олд қўшимчасига тушади:

die Mißhandlung — ҳақорат
das Mißverständnis — тушунмовчилик
mißliebig — ёқимсиз
mißtrauisch — ишонмайдиган

3) **un-** — олд қўшимчали отлар, сифатлар, равишларда урғу un- олд қўшимчасига тушади:

ungenügend — кам, етмайдиган
ungern — истар-истамас, зўрға
die Ungeduld — тоқатсиз

лекин unzählig, unermüdlich сифатларида урғу сўз ўзагига тушади:

unzählig — сон-саноқсиз
unermüdlich — толмас

4) а) durch-, über-, unter-, hinter-, um-, voll- сўзлари ясама феълларнинг ажралмовчи олд қўшимчаси сифатида келса, урғу феъл ўзагига тушади.

durchqúren
überlégen
unterstreichen
hinterlassen
umlagern
voll'bringen

б) durch-, über-, unter-, hinter-, um-, voll- сўзлари ясама феълларнинг олд қўшимчаси сифатида келса, урғу шу олд қўшимча вазифасида келган сўзларга тушади. (а) бўлими билан таққосланг:

durchqueren
übergießen
unterstreichen
hinterlassen
umlagern

Ўзбек тилида ҳам урғунинг бир бўғиндан бошқа бўғинга кўчиш ҳоллари мавжуд. Урғу бир сўзнинг охирги бўғинидан биринчи бўғинига ўтиши сўз маъносини ўзгартиради:

а) гулси́з (гули кам) — гулсиз (гулдексиз)
қарға́ (қуш) — қа́рға! (қойимоқ).
б) о́тинг (буйруқ феъли) — оти́нг (сенинг отинг)
олма (феъл) — олма́ (мева).

165-машқ. Сўзлардаги сўз урғусининг олд қўшимчадан феъл ўзагига кўчишидан кузатилган мақсадни тушунтиринг:

durchblicken — durchblicken	umgehen — umgehen
übersetzen — übersetzen	Vollauf — vollauf
untergeben — untergeben	beisetzen — beisetzen

166-машқ. Сўзларда олд қўшимчани иккинчи даражали урғу, феъл ўзагини бош урғу билан ўқинг:

durcharbeiten	umziehen	unterschlagen
durchdenken	umstehend	unterstellen
überspringen	umschreiben	unterbreiten
übersteigen	umwickeln	untergeben

167-машқ. Қўш сўзларнинг ҳар иккала таркибий қисмларини бир хилда кучли ўқинг:

Erzgauner	dreiundzwanzig
Mordshunger	dreiundeinhalb
Erznarr	vierhundert
rotgelb	neunzehnhundert
blitzblank	neunundachzig
stockfinster	
mauserot	

ҚЎШМА СЎЗЛАРДА УРҒУ

Икки мустақил сўзлар бирикиб бир қўшма сўзни ташкил этганда ҳам уларнинг урғулари сақланиб қолади. Бир нечта ўзакдан иборат бўлган қўшма сўзларда иккита урғу бўлади. Уларнинг бири бош урғу (die Hauptbetonung) қўшма сўзларнинг биринчи компонентига тушади, иккинчиси эса иккинчи даражали урғу (die Nebenbetonung) бўлиб, қўшма сўзларнинг энг охирги компонентига тушади: der Weltfriedensrat. Шу икки сўз урғуларининг қайси бири бош урғу, қайси бири иккинчи даражали урғу бўлиши ҳар тилда ҳар хил, масалан, ўзбек тилида қўшма сўзнинг охирги бўлган бош урғуни, биринчи сўз эса иккинчи даражали урғуни олади:[1] ўринбосар, отбоқар, олтибурчак, оққуш, янгибозор.

Агар қўшма сўзларнинг биринчи сўзи **ҳар**, **ҳеч** сўзларидан иборат бўлса, урғу шу ҳар, — ҳеч сўзларига тушади: ҳар-бир, ҳар-хил, ҳеч-ким, ҳеч-нима. Баъзи жуфт

---

[1] А. Н. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. Москва, Ленинград, 1960, с.55.

сўзларда бош урғу биринчи сўзнинг бош бўғинига, иккинчи даражали урғу эса охирги сўзнинг охирги бўғинига тушади: тўппа-тўғри, қип-қизил, қоп-қора; баъзи жуфт сўзларда бош урғу биринчи сўзнинг охирги бўғинига, иккинчи даражали урғу эса охирги сўзнинг охирги бўғинига тушади: катта — катта, баланд — баланд, бора — бора.

Ўзбек тилида кўп бўғинли сўзларда биринчи, иккинчи, учинчи даражали урғулар ҳам қўйилади: Талабчанлик кучайтирилди. Бу урғулар кўп бўғинли сўзларнинг ҳамма бўғинига тушавермай, охирги бўғиндан бошланади ва бош урғу олган бўғиндан бошлаб, ҳар урғу олган бўғиннинг ёнидаги бўғин урғусиз бўлади: миришкорларимиз.

Немис тилида кўп бўғинли сўзлар фақат битта урғу олади:

'zwischen — орасида
'Finsternis — қоронғилик

Қўшма сўзлар эса бош урғу ва иккинчи даражали урғуга эга: бош урғу — қўшма сўзнинг биринчи сўзига, аниқловчи сўзнинг урғу оладиган бўғинига; иккинчи даражали урғу эса қўшма сўзнинг иккинчи сўзи, аниқланмиш, сўзнинг урғу оладиган бўғинига тушади[1]:

'Hoch,schule — олий ўқув юрти
'Eisen,bahn — темир йўл
'Schreib,tisch — ёзув столи

Немис тили сўз составидан икки сўздан ташкил топган қўшма сўзлар кенг ўрин олган.

Бундан ташқари қўшма сўзлар уч, тўрт, беш сўздан ҳам иборат бўлиши мумкин. Бундай ҳолда шу қўшма сўз таркибидаги сўзлар аниқловчи ва аниқланмишдан ташкил топади ва шу қўшма сўзнинг аниқловчи компоненти бош урғу, аниқланмиш эса иккинчи даражали урғу олади:

'Flugzeug,halle — самолётлар турадиган махсус бино
'Schulfunksende,plan — мактаб радиоэшиттириш режаси

---

[1] Н. С. Трубецкой. Основы фонологии. Москва, 1960, с.239.

dunkel,rot — тўқ қизил (қўшма сифат)
stehen,bleiben — тўхтаб қолмоқ (қўшма феъл)
ausnahms,weise — истисно сифатида
folgender,maßen — қуйидагича (қўшма равишлар)

Таркибида **an-, auf-, nach-, aus-, mit-, vor-, wieder-** ажралувчи олд қўшимчаси бўлган ясама феъллар ҳам иккита урғу — бош ва иккинчи даражали урғу олади, бош урғу феълнинг ажралувчи олд қўшимчасига, иккинчи даражали урғу эса феъл ўзагининг урғу оладиган бўғинига тушади:

an,fangen — бошламоқ
auf,stehen — турмоқ (*ўриндан*)
nach,denken — ўйламоқ
aus,schlafen — ухлаб олмоқ
mit,teilen — хабар бермоқ
vor,kommen — учрамоқ
wieder,geben — қайтариб бермоқ

Шунингдек **voll-, um-, über-, durch-, unter-, wider-** сўзлари ўз маъноларини сақлаган ҳолда феъллар олдида келиб, ясама феъллар ясашга хизмат қилади ва бош урғу олади, иккинчи даражали урғу эса феълнинг урғу оладиган бўғинига тушади:

voll,gießen — тўлдириб қуймоқ
um,sehen — теварак-атрофга қарамоқ
über,fliegen — учиб ўтмоқ
unter,gehen — ботмоқ (қуёш)
durch,fallen — йиқилмоқ (имтиҳондан)
wider,hallen — (жавоб қайтармоқ) садо бермоқ
wider,strahlen — акс эттирмоқ (нур ёруғликни)

Қўшма сўзлар орасида шундайлари ҳам учрайдики, улар таркибидаги биринчи сўз (аниқланмиш) иккинчи даражали урғу, иккинчи сўз (аниқловчи) бош урғу олади:

1. Отлар:

,Jahr'hundert — аср
,Jahr'tausend — минг йиллик

ˌJahr'zehnt — ўн йиллик
ˌJahrfünft — беш йиллик
ˌSüd'ost — жанубий шарқ
ˌNord'west — шимолий ғарб
ˌLebe'wohl — видолашув
ˌLange'weile — зерикиш

2. Қўшма сифат ва қўшма равишлар:

ˌbergauf — тоғ устига (баландга)
ˌbergab — тоғ устидан (пастга)
ˌstromaufwärts — дарё оқимига қарши, юқорига

3. Қўшма феъллар:

ˌfrohlecken — шодланмоқ
ˌwillfahren — илтимосни бажармоқ
ˌoffenbaren — ошкор қилмоқ

Немис тилидаги баъзи қўшма сўзларнинг таркибидаги сўзлар бир хил урғу — б о ш у р ғ у оладилар. Булар қуйидаги ҳолларда учрайди:

1. Қўшма отларнинг биринчи сўзи кучайтириш маъносига эга бўлади:

'Mordshunger — бўридек оч бўлиш, ўта очлик
'Erzgauner — ўтакетган ҳийлагар
'Erznarr — ўтакетган аҳмоқ

2. Қўшма сифатларнинг таркибидаги биринчи сўз иккинчиси билан таққосланганда:

'rotgelb — оч қизил, қизғиш
'blitzblank — ярқираган
'stockfinster — зимистон, қоронғи
'mausetot — оч жигарранг

3. Қўшма сонларда:

'dreihundert — уч юз
'dreiundzwanzig — йигирма уч

'dreiund‚einhalb — уч ярим
'vier‚hundert — тўрт юз

Истисно: Қўшма сонларнинг бошида келган ein сўзи иккинчи даражали урғу, кейинги сон эса бош урғуни олади:

‚einundzwanzig — йигирма бир
‚einunddreißig — ўттиз бир
‚einundneunzig — тўқсон бир

168-машқ. Феълларни ифодали ўқинг, бош урғуни олд қўшимчага, иккинчи даражали урғуни фъел ўзагига қўйинг:

teilnehmen	wegnehmen	aufblühen
stattfinden	gutheißen	nachlaufen
heimkehren	wachbleiben	zufliegen
achtgeben	kennenlernen	aufstellen
fehlgreifen	stehenbleiben	auflachen

169-машқ. Қўшма сўзларни (отларни) ўқиб магнит лентасига ёзиб эшитинг, бош урғуни биринчи компонентга, иккинчи даражали урғуни иккинчи компонентга қўйинг.

Vaterstisch	Schreibtisch	Krankenhaus
Zeitungskiosk	Wandzeitung	Studentenheim
Geburtstag	Lehrerzimmer	Bärenhunger
Verständigungsschreiben		Hasenjagt
Zeitungsartikel	Fischfang	Heldentag

Атоқли отларда ва қисқартма отларда урғу

1. Атоқли отларнинг энг кўп қисмида урғу биринчи бўғинга тушади: Wilhelm, Humbold, Erig Weinert, Anna, Seghers, Arnold Zweig, Willi Bredel, лекин атоқли отларнинг иккинчи, учинчи бўғинларига урғу тушиш ҳоллари ҳам учрайди: Elise, Leonore, Helene, Berlin, Lorelei, Michael, Rosmarie, Johannes, Erasmus, Lenore Renato (Rente) Renate.

Агар атоқли отлар бир нечта сўзлардан ташкил топса, шу қўшма атоқли отларнинг биринчиси иккинчи даражали урғу, иккинчи ёки охирги сўзи эса бош урғуни олади:

ˌSchleswig —Holstein — Шлезвиг — Холштейн
ˌSachsen — ˈAnhalt — Саксония — Анхальт

2. Агар қўшма отлар бош ҳарфлари асосида қисқартирилган бўлса, унда қисқартманинг охирги бўғини урғу олади:

BRD [be·ɛrˈde:] Bundesrepublik Deutschland
USA [u·ɛs·a:] United States of Amerika
GUS [ge·u·ɛs] Die Gemeinschaft der Unabhängigen Staaten
HVB [ha·fa͡o·be:] Deutsche Bundesbahn-Hauptverwaltung
CDU [tsde·u:]Die Christlich-Demokratische Union

Агар қисқартма отлар қўшма от таркибига кирадиган отларнинг бош ҳарфлари ифода этадиган товушлар асосида тузилган бўлса, урғу биринчи товушга тушади: die ˈUNO, die ˈNATO, ˈHAPAG.

Агар қисқартма отлар қўшма отнинг биринчи сўзининг бош ҳарфи ва кейинги сўзнинг тўла ёзилишидан иборат бўлса, унда бош урғу ва иккинчи даражали урғуга эга бўлади, бош урғу биринчи қисқартирилган сўзнинг бош ҳарфига, иккинчи даражали урғу эса, кейинги сўзга тушади:

der D-Zug [ˈde:tsu:k] (der Durchganszug) — тез юрар поезд
die U-Bahn [ˈu:ˌba:n] (die Untergrundbahn) — метро
die (S-Bahn) (die Straßenbahn) — трамвай
die S-Bahn (die Stadtbahn) — шаҳар темир йўли

Немис тилида олмош, артикл, предлог, боғловчи, инкор сўз, юклама каби ёрдамчи сўз туркумлари, модал феъллар, haben, sein феъллари урғу олмайди.

170-машқ. Матндан урғу оладиган ва урғу олмайдиган сўзларни аниқланг ва уни ифодали ўқинг:

ZERSTREUT

Ein alter Professor lebt in Berlin. Alle kennen diesen Mann. Er ist Arzt von Beruf. Täglich besuchen den Professor viele Kranke, aber heute empfängt er niemanden. Heute erwartet er seine liebe Tochter. Sie ist verheiratet und lebt in Wien. Aber jedes Jahr besucht sie ihren alten Vater. Gerade heute kommt sie nach Berlin, und der Professor muß zum Bahnhof. Der Zug aus Wien kommt um elf Uhr vormittags an. Die Uhr schlägt neun. Der Professor schreibt einen kleinen Zettel, hängt ihn an die Wohnungstür und verläßt seine gemütliche Wohnung. Er kommt auf die Straße. Das Wetter ist schlecht, es regnet. Der Professor wartet einwenig, aber der Regen wird noch stärker. Der Professor hat keinen Regenschirm mit, sein großer Regenschirm ist zu Hause. Der Alte geht schnell in die Wohnung zurück und steht bald vor seiner Wohnungstür. Da erblickt er plötzlich den Zettel. Sehr aufmerksam liest er den Zettel einmal, zweimal, dreimal durch. Auf dem Zettel steht geschrieben: "Der Professor ist nicht zu Hause und empfängt heute nicht". Da sagt der Professor enttäuscht: "Wieder habe ich Pech, der Professor ist nicht zu Hause", und er geht langsam die Treppe hinunter ohne seinen großen Regenschirm.

171-машқ. Шеърни ёддан айтинг. Урғули бўғинларни аниқланг.

LORELEI

H. Heine

Ich weiß nicht, was soll es bedeuten,
Daß ich so traurig bin;
ein Märchen auf alten Zeiten
das kommt mir nicht auf dem Sinn.

Die Luft ist kühl und es dunkelt,
und ruhig fließt der Rhein;
der Gipfel des Berges funkelt
im Abendsonnenschein.

Die schönste Jungfrau sitzet
dort oben wunderbar,
ihr goldnes Geschmeide blitzet,
sie kämmt ihr goldenes Haar.

Sie kämmt es mit goldenem Kamme
und sinkt ein Lied dabei;
das hat eine wundersame,
gewaltige Melodei.

Den Schiffer im kleinen Schiffe
ergreift es mit wildem Weh;
er schaut nicht die Felsenriffe,
er schaut nur hinauf in die Höh'.

Ich glaube, die Wellen verschlingen
am Ende Schiffer und Kahn;
und das hat mit ihrem Singen
die Lorelei getan.

172-машқ. Тез айтиш, мақол ва маталлардаги урғули бўғинларни кучлироқ айтинг:

In der hohen Vase standen rote Rosen. Ihr Sohn holte Bohnenstroh.

Viel Stroh, wenig Korn. Handwerk hat goldenen Boden.

Verbotene Früchte schmecken süß. Wie viel Köpfe, soviel Sinne.

Wer was zu sagen hat, hat keine Eile. Er läßt sich Zeit und sagt es in einer Zeile. (Kästner)

Wer keine Freunde am Lebendigen hat, wird keine Freude am Leben haben. (*Brecht*)

Erkenne deine Lage, erkenne deine Feinde, erkenne dich selbst. (*A. Zweig*)

Синтагма ва синтагматик урғу

Таркибига кўпгина сўзларни қамраб олувчи ёйиқ гаплар, маъно гуруҳига бирлашган сўзларга бўлинади. Бундай сўзлар гуруҳи ёки бир сўзга маъно гуруҳи ёки

синтагмалар дейилади. Синтагма жумла (фраза)дан кичик бўлиб, гапда икки ёки ундан ортиқ мазмунан бир-бири билан боғланган сўзлар гуруҳидир[1]. Ўзбек тилида синтагма (такт) етарлича ёритилмаган. Баъзи манбаларда[2] такт (синтагма) ҳақида қисқача маълумот берилган, холос. Аслини олганда, ўзбек тили жумлаларини ҳам бир хил ҳаво оқимида айтиб бўлмайди, вақт-вақти билан кичик-кичик тўхтамлар (пауза) қилиб турилади, яъни жумла кичик-кичик бўлакларга — синтагмаларга (интонацион тактларга) бўлинади. Ана шу жумладаги бўлаклар бир, икки ёки ундан ортиқ сўзлардан ташкил топади. Шу сўз гуруҳини ташкил қилган сўзларнинг бири шу гуруҳнинг бошқа сўзларига қараганда қаттиқроқ урғу билан айтилади ва ана шу мазмунан бир гуруҳга бирлашган сўзлар бир синтагма дейилади[3], шу гуруҳни ташкил этган сўзларнинг бири алоҳида қаттиқроқ урғу билан айтилиши синтагматик урғу дейилади. Нутқ жараёнида жумлаларнинг синтагматик бўлакларга бўлиниши хабарни тўғри ва аниқ баён қилишда ва тушуниб олишда аҳамияти жуда катта, масалан: Яхши ниятли кишиларнинг истаклари — ҳамма вақт — руёбга чиқади. (*С.З.*) — жумласини юқоридагидек уч синтагмага бўлиш мақсадга мувофиқдир. Нутқда жумладаги ҳар синтагматик бўлакдан кейин кичик тўхташ (пауза) борлигини ҳам таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқ, фонетикада бу тўхталиш синтагматик пауза дейилади. Нутқимизнинг тушунарли бўлиши учун синтагматик урғу қўйилган сўздан кейин қўйиладиган синтагматик паузанинг [ξ] аҳамияти катта. Масалан, қуйидаги жумладаги жумлаларни синтагмаларга бўлиб, синтагматик урғу ва синтагматик паузалар қўямиз: Йўлчи шу вақтга қадар дала билан овора эди (О.); Кўп билган оз сўзлар (*Мақол*).

Нима хоҳласалар ҳаммаси бор. (*Н.С.*)

Немис тилида жумланинг бир ёки бир нечта сўзларнинг мазмунан бошқарув, мослашув ёки интонацион бирикиши натижасида ҳосил бўлган нисбатан мустақил

---

[1] Л. Р. Зиндер. Общая фонетика. Москва, 2979, с.247.

[2] М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов. Ўзбек тили. Тошкент, 1970, 64-бет.

[3] А. А. Реформатский. Введение в языковедение. М., 1967, с.330—331.

қисмига с и н т а г м а дейилади. Бир жумла бир ёки бир неча синтагмадан иборат бўлиши мумкин. Масалан, Er schreibt. (битта синтагма).

Meine beide Brüder ξ sind heute nicht zu Hause. (иккита синтагма)
Am gleichen Abend noch ξ erschien Ethel gegen
Abend ξ in der toten Tunnelstadt. (учта синтагма)

Синтагматик урғу [ˮ] ҳар синтагматик гуруҳнинг охирги сўзининг урғу оладиган бўғинига тушади ва синтагматик урғу олган сўздан кейин бир оз тўхталинади, шу бир оз тўхтам с и н т а г м а т и к п а у з а дейилади. Фонетик ёзув (транскрипция)да синтагматик пауза тўлқинли вертикал чизиқ [ξ] орқали ифодаланади. Немис тилида қуйидаги сўз ва сўз гуруҳлари мустақил синтагмалар ташкил қила олади:

1. Ёйиқ эга гуруҳи мустақил бир синтагма ташкил эта олади: Dieser berühmte russische “Schriftsteller ξ lebte lange auf der ˮ Krim.

2. Атоқли от орқали ифодаланган эга ҳам мустақил синтагмани ташкил эта олади: “Ethel ξ war gekleidet wie zum ˮ Hofball. (*B. Kellerman*).

3. Уюшган ёйиқ гап бўлаклари ҳам алоҳида-алоҳида синтагмаларни ташкил эта олади: Sie nahm das ˮ Buch und begann darin zu” blättern.

4. Тескари сўз таркибли жумланинг бошида келган иккинчи даражали бўлак ҳам алоҳида синтагмани ташкил эта олади: Schon Tage “vorher alle voller ¨ Unruhe.

5. Кесимнинг тусланадиган қисми ўзидан кейин келган сўзлар билан биргаликда мустақил синтагмани ташкил эта олади: Diese ¨ Bemerkung ξ kostete sie ein kleines Vermögen.

6. Гапдаги бир нечта иккинчи даражали бўлакнинг охиргиси алоҳида синтагмани ташкил қила олади: Am gleichen Abend noch ξ erschien Ethel gegen Abend ξ in der toten Tunnelstadt.

7. Қўшма гап таркибидаги ҳар бир гап алоҳида синтагмани ташкил қилади: Als er an jenem Abend in die Stadt kam, ξ war es schon lange “dunkel. Er fürchtete, ξ daß er enttäuscht sei würde.

8. Ундалманинг ўзи ёки кесимнинг тусланувчи қисми билан биргаликда алоҳида синтагмани ташкил этади: Halima, ξ wir gehen jetzt. Willst, feiner Knabe, ξ du mit mir "gehen? (J. W. Goethe. Erlkönig).

9. Инфинитив гуруҳ ёки ёйиқ равишдош ҳам алоҳида бир синтагмани ташкил эта олади: Er bereute nun, hierhergekommen zu sein. Allan aber saß mit kühlen Augen in seinem Sessel, die Brust geweitet vor innerer Spannung. (B. Kellerman).

10. Киритма сўзлар ва изоҳловчилар ҳам алоҳида синтагма бўла оладилар: Der Tag im Mai, ein Sonntag obendrein, brachte viel Sonnenschein.

11. Гапдаги ўхшатишлар ҳам алоҳида синтагма бўлиб кела олади: Er hatte dunkle Augen ξ wie sein Bruder.

12. Аниқ артиклдан кейин келган ёйиқ аниқловчи ҳам алоҳида синтагмани ташкил эта олади: Er wies auf das ξ vor Schrecken zitternde "Mädchen.

173-машқ. Матнни ифодали ўқинг. Немис тилига бошқа тиллардан кириб келган сўзларда урғу сўзнинг иккинчи ёки кейинги бўғинларига тушишига эътибор беринг; жумлаларни синтагмаларга ажратинг:

DAS INSTITUT FÜR SPRACHEN

In der Stadt Andishan gibt es viele Hochschulen. Das sind die Universität, das medizinische Institut, das Institut für Landwirtschaft, das Institut für Ökonomie und Verwaltung und das Institut für Sprachen. Das Institut für Sprachen befmdet sich in der Baburstraße. Es hat drei Fakultäten: die Fakultät für orientalische Sprachen, die Fakultät für russische Sprache und Literatur und die Fakultät für Fremdsprachen. An diesen Fakultäten studieren die Jungen und Mädchen nicht nur aus vielen Städten des Ferganatals, sondern auch aus einigen Gebieten Usbekistans, Kirgisiens und Tadshikistans.

Die Studenten studieren usbekisch, russisch, persisch, arabisch, turkisch, englisch, deutsch und französisch als Hauptfach. Als zweites Fach studieren sie eine dieser Sprachen. Außerdem bekommen die Studenten einiger Gruppen den Beruf des Übersetzers (Dolmetschers).

Die Vorlesungen erhalten die Professoren und Dozenten. Die Seminare führen die erfahrenen Lehrer und Gelehrten. In den gemütlichen Auditorien, Sprachkabinetten und Labors erhalten die Lektoren, Professoren und Dozenten die Sprachstunden. Dabei verwenden sie die Lehrmaterialien Anschaungsmittel wie Tabellen, Zeichen, Tonbandgeräte, Videofilme. Oft bekommt das Institut Lehrstoffe aus England, Frankreich und Bundesrepublik Deutschland.

Den Studenten stehen die Bibliothek, einige Lessesäle, die Studentenheime und ein Sportkomplex zur Verfügung. Die Studenten haben gemütliche, warme Zimmer in den Studentenheimen. Hier arbeiten sie an ihren Aufgaben.

Sie erhalten Stipendium. Das ist eine staatliche Unterstützung für die Studenten und Studentinnen.

Die Dozenten und Professoren des Instituts verbinden im Unterricht wissenschaftliche und erzieherische Arbeit, Sie helfen den Studenten auch nach den Stunden. Nicht immer geht es glatt. Der Lehrplan ist kompliziert und umfangreich. Auf hohem Niveau steht auch die gesellschaftliche Arbeit an dieser Hochschule. Nach den Stunden finden hier Abende, Treffen, Konzerte und Diskotheken statt.

Das Institut für Sprachen bildet Lehrer, Dolmetscher aus. Auch heute braucht unser Land erfahrene Fremdsprachenlehrer, die an den Hochschulen, Fachschulen und Mittelschulen als Lehrer arbeiten können. Außerdem gehen die Absolventen des Instituts für Sprachen in die Werke, Fabriken und Kleinbetriebe als Übersetzer.

174-машқ. Қуйидаги сўзларнинг айтилишини магнит лентасига ёзиб эшитинг, атоқли отларда урғу ҳар хил бўғинга тушишига эътибор беринг:

Otto	Re'nate	'Bremen	Taschkent	Ha'mid
Anna	Ma'thilde	'Leipzig	Samar'kand	Bacho'dir
Uwe	Friede'rike	'Dresden	Buchara	Sar'dor
Helga	Eve'line	Pa'ris	Andi'shan	Mach'mud
Karl	Ma'rine	Ber'lin	Kar'schi	Schacho'dat
		'Beethoven	Hi'wa	Ha'san
	Ma'rianna	Bremer'hafen	Naman'gan	Hy'san

175-машқ. Қисқартма сўзларда урғунинг ўрнига эътибор беринг, қисқартма сўзларнинг ўқилишини машқ қилинг:

CDU [tse·de·u] (die Christlich-Demokratische Union)
SPD ['ɛspe·de:] (die Sozial-Demokratische Partei Deutschlands)
NDP ['ɛnde·pe:] (die National-Demokratische Partei Deutschlands)
LDP ['ɛlde·pe:] (die Liberal-demokratische Partei Deutschlands)
BRD [be·ɛrde:] (die Bundesrepublik Deutschland)
GUS ['ge·u·ɛs] (die Gemeinschaft der unabhänfigen Staaten)
EG [²e·ge:] (die Europäische Gemeinschaft)
FDP [ɛfde·pe] (die Freie Demokratische Partei)
CSU [tse·ɛsu:] (die Christliche-Soziale Union)
DM [de·ɛm] (die Deutsche Mark)
MMM [²ɛm ɛm ɛm] (die Messe der Meister von Morgen)
DBB [debe·be:] (die Deutsche Bundesbank)
FR [ɛfɛr] (die Frankfurter Rundschau)
BZ [be·tse:] (die Berliner Zeitung)
WP [*ve·pe:] (die Wochenpost)
ND [²ɛn de:] (Neues Deutschland)
UNO [²u:no] Auto [/²āoto·]
NATO [na:to·] Foto [·fo:to]
D-Zug [*de:tsu:k] Kino [ki:no·]
E-Werk [/²e:vɛrk] Ober [o:bər]
S-Bahn [ɛsba:n] Labor [la·bo:r]

Жумла (фраза) урғуси (логик урғу)

Синтагмадан кейинги нутқ бирлиги жумладир. Жумла энг катта нутқ бирлиги ҳисобланади. Жумла урғуси — гапдаги бирор сўзнинг ажратиб кучлироқ талаффуз қилинишидир. Бўғин урғуси сўзнинг бирор бўғинига тушса, жумла урғуси гапдаги бирор сўзнинг бўғинига тушади. Гапда асосий, мустақил маъно ифодаловчи сўзлар жумла урғусини олади, ёрдамчи маънони ифодалаган сўзлар эса

урғу олмайди. Нутқ моментидаги бу фонетик ҳодиса гап урғуси — л о г и к у р ғ у дейилади. Гап урғуси ёки логик урғу гапдаги бирор сўзни ажратиб айтиш ва шу тариқа гап мазмунини сўзловчининг мақсадига мувофиқлаштириш учун хизмат қилади. Ўзбек тилида логик урғу сўз урғуси билан ҳеч қандай алоқаси йўқдир. Урғунинг асосий вазифаси сўзларни маъно жиҳатдан ажратишдир. Гап урғуси гапдаги исталган сўзга тушиши мумкин:

Автобусдан ˝ семиз папкали киши тушди (орик эмас).

Автобусдан семиз ˝ папкали киши тушди (тугунли эмас).

Автобусдан семиз папкали ˝ киши тушди (бола эмас).

Автобусдан семиз папкали киши ˝ тушди (чиққани йўқ).

Немис тилида ҳам гап урғуси-логик урғу гапни ташкил қилган синтагмаларнинг бирон сўзига тушади. Натижада гапдаги бирон сўз бошқа сўзларга қараганда қатиқроқ айтилади. Гапдаги бир сўзга логик урғу тушиши натижасида ўша сўз сўзловчи томонидан тингловчига гап асосан шу ҳақда кетаётганлигига ишора қилинади. Немис тилида жумла урғуси ҳар доим ҳам исталган сўзга тушавермайди:

1) Гапда логик урғу сўзнинг урғу оладиган бўғинига тушади, масалан:

Es ist ˝ kalt geworden.

Er läuft ˝ schneller.

Das Ge ˝ witter ist vorüber.

Morgen, morgen, nur nicht ˝ heute, sagen alle faulen Leute.

2) Маълум бир қоидани тушунтиришда ўқитувчи урғу олмаган сўзга логик урғу қўйиши мумкин, масалан: Nicht der Pferd, sondern ˝ das Pferd. Nicht sie, ˝ er hat das gemacht.

3) Логик урғу оҳанг (эмфатик) йўли билан гапда урғу олмайдиган сўзга ҳам туширилиши мумкин, масалан: Ich will nicht ins Kino gehen.

Гапда сўзловчи томонидан бирон бўлакка алоҳида аҳамият берилиши, бирон гап бўлагининг баландроқ, кучлироқ айтилиши логик урғу, маъно урғуси немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам мавжуд ҳодисадир.

176-машқ. Матнни ифодали ўқинг, жумла урғусини олган сўзларни кучлироқ талаффуз қилинг:

DER FUCHS UND DER STORCH

Ein Fuchs und ein Storch haben miteinander Freundschaft geschlossen. Einmal lādt der Fuchs den Storch ein: "Komm zu mir, mein Lieber, besuch mich einmal! Ich koche ein gutes Essen!"

Der Storch kommt zum Fuchs und wartet auf das Festessen. Der Fuchs hat einen Grießbrei gekocht und ihn breit über den Teller gestrichen. Er bringt nun das Essen und bittet seinen Gast mit süßen Worten: "Iß, mein Lieber! Ich habe alles selbst gekocht!"

Der Storch klopft mit dem Schnabel auf dem Teller herum, kann aber nichts fassen. Der Fuchs leckt den Brei, bis der Teller leer ist. "Hat's geschmeckt, mein Freund?" fragt er nach dem Essen. "Danke schön, Nachbar", antwortet der Storch. "Komm morgen zu mir und sei mein Gast!"

Am nächsten Tag kommt der Fuchs zum Storch. Der Storch hat eine Suppe gekocht und sie in einen hohen Krug mit schmalen Hals geschüttet. Er stellt den Krug auf den Tisch und spricht: "Iß, mein Lieber! Ich habe die Suppe selbst gekocht".

Der Fuchs tanzt um den Krug herum. Sein Kopf ist aber dick, er kann ihn nicht in den Krug stecken. Der Storch aber steht auf seinen langen Beinen und fischt die Suppe restlos aus dem Krug. "Hat's geschmeckt, Nachbar?" fragt er den Freund nach dem Essen. "Mehr habe ich leider nichts".

Mit leerem Magen geht der Fuchs nach Hause. Seitdem besuchen sie einander nicht mehr.

177-машқ. Жумлаларни ўқинг. Гапнинг сиз учун муҳим бўлган бўлагини ажратиб айтишда логик урғудан фойдаланинг:

Böses muß mit Bösem enden.
Und ziehe schon an die zehen Jahr,
Herauf, herab und quer und krumm.

Im Möbelgeschäft kauften wir schöne Möbel. Die Möwen sind schöne Vögel. Da schweigen alle Geigen. Faul krilgt wenig ins Maul. Ein faules Ei verdirbt das ganze Brei. Die Faulen und die Dreisten schreien am meisten.

178-машқ. Шеърни ифодали ўқишда эмфатик урғудан фойдаланинг.

AUS "FAUST"

von Johann Wolfgang Goethe

Faust

Habe nun, ach! Philosophie,
Juristerei und Medizin,
Und, leider! auch Theologie
Durchaus studiert, mit heißem Bemüh'n.
Da steh'ich nun, ich armer Tor!
Und bin so klug als wie zuvor;
Heiße Magister, heiße Doktor gar,
Und ziehe schon an die zehen Jahr,
Herauf, herab und quer und krumm,
Meine Schüler an der Nase herum —
Und sehe, daß wir nichts wissen können!
Das will mir schier das Herz verbrennen.
Zwar bin ich gescheiter als alle die Laffen,
Doktoren, Magister, Schreiber und Pfaffen;
Mich plagen keine Skrupel noch Zweifel,
Fürchte mich weder vor Hölle noch Teufel —
Dafür ist mir auch alle Freud entrissen,
Bilde mir nicht ein, ich könnte was lehren,
Die Menschen zu bessern und zu bekehren.
Auch habe ich weder Gut noch Celd,
Noch Ehr und Herrlichkeit der Welt.
Es möchte kein Hund so länger leben!
Drum hab' ich mich der Magie ergeben,
Ob mir durch Ceistes Kraft und Mund
Nicht manch Geheimnis würde kund,
Daß ich nicht mehr saurem Schweiß
Zu sagen brauche, was ich nicht weiß,
Daß ich erkenne, was die Welt
Im innersten zusammenhält,
Schau' alle Wirkenskraft und Samen,
Und tu' nicht mehr in Worten kramen.

VII боб

ИНТОНАЦИЯ

Урғу билан биргаликда интонация нутқнинг энг муҳим хусусиятларидан биридир. Немис тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам интонация нутққа ҳар хил бўёқ бериб, сўзларга, жумлага, қўшимча маъно беради. Маъно ажратувчилик вазифасини бажарганда интонация гап турларини фарқлашга ҳам хизмат қилади. У сўзловчининг ҳис-ҳаяжонини, тингловчига муносабатини билдиради. Интонация гапирганда фикрни тўғри ва аниқ ифода этилишига, тингловчи томонидан эса сўзловчининг етказган маълумотини яхши тушунишга хизмат қилади.

Интонация худди товушлардагидек физиологик, акустик ва фонологик функционал нуқтаи назардан қаралиш хусусиятларига эга.

Физиологик нуқтаи назардан интонация товуш пайчаларининг таранглашиб титраши натижасида ҳосил бўлади. Ана шу оҳанг (музикал тон) — асосий тон интонациянинг асосида ётади. Асосий тон интонациянинг пойдеворидир.

Акустик нуқтаи назардан интонация асосий тон (оҳанг)нинг баланд-паст, кучли-кучсиз ва (узун-қисқа) бўлиб ўзгаришидир.

Фонологик функционал нуқтаи назардан интонация баъзи синтактик ва эмоционал (ҳис-ҳаяжон) маъноларни ифода этиш воситасидир. Интонациянинг яна бир вазифаси нутқ жараёнини ташкиллаштиришдир: интонация, биринчидан, нутқ занжирини кичик фонетик бирликларга ажратиш учун хизмат қилса, иккинчидан, шу фонетик бирликларни бирлаштиради.

Интонация синтактик воситалар билан биргаликда жумлаларни шакллантиришга хизмат қиладиган мураккаб фонетик воситаларнинг мажмуидир.

Интонация ва бошқа синтактик воситалар ёрдамида ҳар хил дарак, сўроқ, буйруқ (содда ва қўшма) гаплар тузилади.

Интонация нутқ тугалланганлигини ёки тугалланмаганлигини ифодалашга хизмат қиладиган асосий нутқ бирлигидир.

Сўзловчи томонидан интонация орқали ва баъзи синтактик воситалар ёрдамида бир жумлага турли хил маъно бўёқлари берилиши мумкинлигини қуйидаги мисолларда кўрамиз:

Alle schreiben jetzt eine Nacherzählung. (хабар)
Alle schreiben jetzt eine Nacherzählung? (сўроқ)
Alle schreiben jetzt eine Nacherzählung! (буйруқ)

179-машқ. Диалогни ифодали ўқинг. Сўзловчи тингловчига келтирган хабарни дарак гаплар ва уларнинг турли оҳанги воситасида тушунтиришига эътибор беринг:

AKMAL BESUCHT SALIM

Akmal: Guten Tag!
Salim: Guten Tag, Akmal!
Akmal: Arbeitest du noch?
Salim: Nein. Die Hausaufgaben sind fertig.
Akmal: Ich habe eine Frage, Salim. Wer übersetzt aus dem Arabischen?
Salim: Hans Heller übersetzt aus dem Arabischen ins Deutsche.
Akmal: Danke, Aufwiedersehen!

180-машқ. Диалогни ифодали ўқинг. Тингловчи ўзи учун янгилик бўлган хабарни сўроқ гаплар ва уларнинг турли оҳанги (интонацияси) орқали сўзловчидан билиб олишига эътибор беринг:

KÖNNEN SIE DAS ERKLÄREN?

Eine Mutter:
Ich hatte vor fünf Minuten meinen kleinen Sohn zu Ihnen geschickt. Er sollte ein Kilo Schokolade kaufen. Ich habe jetzt die Schokolade gewogen, und es waren nur 700 Gramm. Können Sie mir das erklären?
Der Verkäufer:
Natürlich, meine Dame, wiegen Sie einmal Ihren Sohn!

181-машқ. Диалогни ифодали ўқинг, дарсда ўқитувчи ўқувчилар билан мулоқотда бўлганда қандай буйруқ ва илтимосларни ифодаловчи жумлалардан фойдаланишига эътибор беринг:

Der Lehrer: Wer hat heute Dienst?
Der Schüler: Ich habe heute Dienst.
Der Lehrer: Wer fehlt im Unterricht?
Der Schüler: Im Unterricht fehlt Soli Rachimow, er ist krank.
Der Lehrer: Wer weiß, was fehlt ihm?
Der Schüler: Er hat sich erkältet.

Интонациянинг таркибий қисмлари

Немис тили фонетикасида жумла интонацияси тўртта тон даражаси билан характерланади. Улар қуйидагилардир:


4.	hohe Stufe	—	юқори даража
3.	mittlere Stufe	—	ўрта даража
2.	neutral Stufe	—	нейтрал даража
1.	tiefe Stufe	—	қуйи даража

Немис интонацияси уч оҳанг тузилмасига эга. Улар форлаоф (Vorlauf), фоллаоф (Vollauf), нахлаоф (Nachlauf) деб аталади. Форлаофни жумладаги биринчи урғули бўғингача бўлган урғусиз бўғинлар ташкил этади. Нахлаофни жумланинг охирги урғули бўғинидан кейин келган урғусиз бўғинлар ташкил этади. Фоллаофни эса форлаоф билан нахлаоф орасидаги урғули ва урғусиз бўғинлар ташкил этади:

форлаоф	фоллаоф	нахлаоф
Vorlauf	Vollauf	Nachlauf 4.
	—	3.
•		2.
	∨	1.

Sie kommen heute.

Бу структуралар жумла интонациясининг барча турларида сақланиб қолади. Бу тузилмалар швертон (Schwerton)га эга бўлади. Швертон жумла урғуси тушган бўғин бўлиб, оҳангнинг кўтарилиб тушиши ёки тушиб кўтарилиши содир бўладиган бўғиндир. Швертон дарак гапларда, сўроқ гапларда, буйруқ гапларда ҳам бўлиб, гапдаги сўзловчи учун ҳам, тингловчи учун ҳам муҳим бўлган хабарни, янгиликни ифодалаш учун қўлланади, масалан:



Der Lehrer tritt ein. Ohne Studium geht es nicht. Was ist das?

182-машқ. Жумлаларни ўқинг, уларнинг оҳанг йўналишини форлуф, фоллаоф, нахлаофларга бўлинг:

1. Wir sind Studenten.
2. Ist es draußen kalt?
3. Wie lacht die Flur!
4. Was ist ein Hühnerwagen?
5. Sie gehen sofort!
6. Heute fahren sie ab.

183-машқ. Ҳикояни ўқинг, хоҳлаган содда гапнинг оҳанг йўналишини чизинг, гапдаги швертонда оҳангнинг кўтарилиб тушишига эътибор беринг.

DER VATER UND SEIN SOHN

Einmal geht der Vater mit seinem Sohn den Zoo. Der Sohn ist noch klein, erst drei Jahre alt. Da sehen sie hinter dem Fluß einen Elefanten und gehen dorthin. Lange Zeit steht der Sohn vor dem Elefanten, dann fragt er:

"Hast du den Elefanten gemacht?"

"Ich?" fragt der Vater und lacht. "Nein!"

"Aber Mutter hat es doch gesagt", antwortet der Sohn.

"Unsinn", sagt der Vater und lacht wieder. "Woher mache ich denn einen Elefanten?" "Aus einer Mücke", antwortet der Sohn.

Интонация тилга боғлиқ бўлмаган мазмунни ҳам ифодалашга хизмат қилади. Бу тилга боғлиқ бўлмаган маънонинг моҳияти шундаки, оҳанг, интонация турли ҳис-ҳаяжонни — сўзловчи кайфиятининг турли ҳолатларини ифода эта олади. Айнан бир фикрни ифода этаётганда сўзловчи хурсанд, хафа ҳолда бўлиши мумкин. Интонация, оҳанг сўзловчининг ана шундай ички ҳиссиётини ифодалаш учун ҳам хизмат қилади. Интонациянинг бу хусусиятини тилшуносликнинг янги соҳаси-паралингвистика[1] ўрганади.

Умуман олганда бир жумланинг оҳанги иккинчи жумланинг оҳангига ўхшамаганидек бир абзацнинг оҳанги иккинчи бир абзацга, бир матннинг оҳанги иккинчи бир матн оҳангига, бир шеърнинг оҳанги эса иккинчи бир шеърнинг оҳангига ўхшамаслиги мумкин. Сўзловчи, ўқувчи ҳар бир ўқув материалга мос келадиган оҳанг, интонация топа олиши керак. Бунда унга матн мазмуни, унинг таржимаси яқиндан ёрдам беради. Айниқса немис тили ўрганаётган ўқувчи, талаба нотаниш матнни ўқишдан олдин уни хоҳ ёзма, хоҳ оғзаки ўз она тилисига таржима қилиб олгани мақсадга мувофиқ бўлади. Шунда ўқувчи, талаба ҳар бир жумлани, абзацни, матн ёки шеърни унга мос оҳангда ўқий олади.

184-машқ. Қуйидаги матнни ўзбек тилига таржима қилинг, матнни тегишли оҳангда ифодали ўқинг.

NEUJAHR

Aus "Abschied" von J. R. Becher

Die Klingel schrillte. Wir jagten in unsere Schulbänke hinein. Lehrer Goll trug denselben Rock mit Tintenärmeln wie im vergangenen Jahrhundert. Während der Rechenstunde kritzelte ich die Bank voll mit vielen 1900 — wenn auch die Jahreszahl schon nicht mehr stimmte. Ich wurde an die Tafel gerufen, und wenn mir Hartinger nicht eingesagt hätte, wäre ich mit dem Zusammenzählen ebenso wenig fertig geworden,

[1] Г. В. Колшанский. Паралингвистика. М., 1974.

wie damals, im vergangenen Jahr. Ich bekam mein "schlecht — wie gewöhnlich". "Damit nicht aus der Übung kommt", verteilte Lehrer Goll gleich in der ersten Schulstunde Nachsitzen, Tanzen und Schtrafzettel.

185-машқ. Диалогни ўзбек тилига таржима қилинг, ҳар бир жумлага мос келадиган оҳанг топиб ўқинг.

IM WARENHAUS

— Guten Tag, mein Herr, Guten Tag, meine Dame, was wünschen Sie?
— Wir möchten uns einmal einige Damenkleider ansehen.
— Was soll es sein? Baumwolle — Seide — Wolle — sportlich, für die Straße, ins Theater?
— Welche Größe soll es sein? Hier haben wir ein Kleid in Braun, sehr modern.
— Das kostet?
— Das kostet... 76 Euro, Möchte die Dame anprobieren? Dort sind die Kabinen.
— Wir kaufen dieses Kleid. Wo muß man man bezahlen?
— Dort ist die Kasse, bezahlen sie dort an der Kasse.
— Bitte wickeln Sie gut ein! Danke, Aufwiedersehen!

186-машқ. Интонацияга риоя қилиб, шеърни ифодали ўқинг.

ALLE KINDER WOLLEN FRIEDEN

(E. Katzenstein)

Alle Kinder
singen Lieder.
Alle Kinder
wollen Frieden
Alle Kinder
wollen lernen,
träumen
von den fernen
Sternen.

Alle Kinder
wollen lachen,
ihren Eltern
Freude machen.
Alle wollen
glücklich sein
unterm warmen
Sonnenschein.

Интонациянинг компонентлари

(таркибий қисмлари)

Интонациянинг компонентлари қуйидагилардир: жумла урғуси (логик урғу), жумла оҳанги (жумла мелодияси), тўхтамлар (нутқ) суръат ва нутқ ритми.

1) **Жумла (фраза) урғуси.** Жумла урғуси гапдаги муҳим сўз ёки сўз бирикмасини интонация йўли билан ажратиб кўрсатиш, кучлироқ талаффуз қилинишидир. Муҳим тушунчаларни интонацияда ажратиб кўрсатиш физиологик нуқтаи назардан талаффузга қатнашадиган нутқ органларининг таранглашувидир, физик нуқтаи назардан бу таъкидлаш овознинг баландлиги ва вақтга (талаффузга сарфланган вақтга) боғлиқдир.

Бўғин урғуси сўзнинг бирор бўғинига тушса, жумла урғуси гапдаги сўзнинг бирор бўғинига, сўз бирикмасига тушади.

Логик урғу сўзловчи учун ҳам, тингловчи учун ҳам хабардаги муҳим сўзни ажратиб кўрсатиш йўли билан улар учун янгиликни ажратиб кўрсатишга хизмат қилади, масалан: немис тилида:

a) Eine "Frau mit drei Kindern stieg in den Autobus ein.
b) Eine Frau mit "drei Kindern stieg in den Autobus ein.
c) Eine Frau mit drei Kindern stieg in den "Autobus ein.

Ўзбек тилида:

а) **Автобусга** уч болали аёл чиқди.
б) Автобусга **уч** болали аёл чиқди.
в) Автобусга уч **болали** аёл чиқди.
г) Автобусга уч болали **аёл** чиқди.
д) Автобусга уч болали аёл **чиқди**.

2) **Паузалар.** Пауза — нутқнинг маълум бир муддатга бўлинишидир. Паузалар гап ва гап қисмларини бир-биридан ажратиб туради. Паузалар гап бўлаклари ва матн бўлакларининг чегараларини кўрсатишга хизмат қилади. Бу компонент нутқни тушунарлироқ қилишда муҳим

аҳамиятга эга. Немис тили фонетикасида уч хил пауза мавжуд: а) синтагматик пауза (syntagmatische Pause), б) ярим тугаганлик паузаси (Halbschluß Pause), в) тўла тугаганлик паузаси (Vollschluß Pause).

Синтагматик пауза гапдаги синтагмаларни бир-бири билан боғлашга хизмат қилади ва транскрипцияда (фонетик ёзувда) вертикал тўлқинли чизиқ [ξ] билан кўрсатилади.

Ярим тугалланганлик паузаси синтагматик паузадан нисбатан узоқроқ давом этиб, гапда уюшиб келган бўлакларни, қўшма гапнинг таркибидаги гапларни, инфинитив гуруҳларни бир-бири билан боғлаш учун хизмат қилади.

Ярим тугалланганлик паузаси орфографияда нуқта орқали, транскрипция (фонетик ёзув)да эса вертикал тўғри бир чизиқ орқали [/] ифодаланади.

Тўла тўхталиш паузаси жумлалар, абзацларни бир-бири билан боғлайдиган фонетик ҳодиса бўлиб, ярим тўхталиш паузасидан нисбатан кўпроқ вақт учун нутқнинг бўлинишидир. Бу пауза орфографияда нуқта орқали, фонетик ёзувда эса вертикал икки чизиқ [//] орқали ифодаланади. Тўла тўхталиш паузаси жумланинг тугалланганлигини билдирадиган паузадир. У ҳар бир гапнинг охирида келади, масалан: немис тилида: e·r hat a͡e n bu: x gək a͡o ft //; ўзбек тилида: Саида бу хотинни қаердадир кўргандек бўлди. (*А. Қ.*)


3) **Нутқ суръати.** Нутқ суръати нутқ жараёнининг маълум бир вақт давомида тез ёки секин талаффуз этилиши тушунилади. Нутқ моменти деганда сўзлашув услубини (стилини) аниқлашга хизмат қиладиган фонетик ҳодиса тушунилади. Оғзаки нутқ тез, қисқа вақт ичида гапириш билан характерланади, саҳна услуби эса жумлаларни ўз меъёрида, нисбатан секинроқ айтилиши билан характерланади. Бу гапириш усулларини аниқлашга нутқ учун сарфланадиган вақт (темпо) компоненти хизмат қилади, масалан, немис тилида:

— Guten Tag! — Wie geht's dir? — Auf Wiedersehen!
— Guten Tag! — Sosolala! — Aufwiedersehen!


Ўзбек тилида: Шу ашула Сизга ёқадими? — сўрайди йигит. — Ҳа, Сизга-чи? (*О.*)

4. **Нутқ ритми.** Нутқ ритми сўзловчи айтаётган хабарни тушунарлироқ бўлишига ёрдам беради ва нутқни тинглаб тушунишни осонлаштиради. Бунда товуш кучи ва оҳанги нутқ ритмига ёрдам беради, нутқ ритмининг шаклланишида ёрдамлашади. Нутқ ритми сўзларнинг, сўз гуруҳлари ва жумлаларнинг стилистик вазифаларини аниқлашга ёрдам беради: кириш сўз ва кириш гаплар асосий гапга қараганда секинроқ, пастроқ овозда айтилади; фонетикада бу тил ҳодисаси нутқ ритми дейилади. Нутқ ритми сўзловчининг хабарини, нутқини янада тушунарлироқ бўлишида ёрдамлашади. Масалан, немис тилида: Ikrom, **du kennst ihn**, mein bester Freund. Sobald du fertig bist, **Angelika**, ruf mich an. Morgen, **das hat Anna gesagt**, fahren wir ab; ўзбек тилида: Кундузи бўлса, **ўзингиздан ўтар гап йўқ**, хунукроқ кўринади. (А. Қ.)


5) **Гап оҳанги.** Гап оҳанги интонациянинг энг муҳим компонентидир. Шунинг учун ҳам баъзан гап оҳанги (мелодия) деганда интонация (гап оҳанги) тушунилади. Оҳанг (мелодия) гапларни сўзловчининг мақсадига кўра дарак гап, сўроқ гап, буйруқ гап, ундов гапларни бир-биридан фарқлаш учун хизмат қилади. Жумлаларнинг оҳанги (мелодияси) немис тилида уч хил бўлади: а) кўтарилиб тушувчи [\] оҳанг (терминал мелодия). Бу оҳанг гапнинг тушувчи интонацияга эга эканлигини ифодалаш учун хизмат қилади ва кўпинча дарак гапларда, сўроқ сўзли сўроқ гапларда, буйруқ гапларда, ундов гапларда учрайди, масалан: немис тилида:



Es ist "kalt. (Aussagesatz) Was "ist das? (Fragesatz mit Fw)




Alle "aufstehen! (Befehls.)




Es lebe der 1. September!

б) Тушиб кўтарилувчи (оҳанг) [/] сўроқ сўзсиз сўроқ гапларда бўлиб, оҳангнинг гап охирида кўтарилиши билан характерланади. Бу оҳанг немис тилида интерроғатив мелодия дейилади. Бу оҳанг айниқса немис тилида яққол ажралиб туради, масалан:




Ist es schon spät?




Kommst du?

в) Тугалланмаган оҳанг (Прогредиите мелодия) [→]. Бу оҳанг нутқнинг тугалланмаганлигини, ҳали давом этишини ифодалаш учун хизмат қилади ва кўпинча дарак гапларда учрайди. Гапдаги саналаётган уюшиқ бўлаклар (охиргисидан ташқари) тугалланмаган прогредиент, тугалланмаган оҳангда айтилади. Бундан ташқари қўшма гапларнинг биринчи гаплари кўпинча тугалланмаган, давом этувчи оҳангда айтилади, масалан:










Man liest, macht Notizen.




Elise besuchte ihre Freundin und...

Ўзбек тилида жумла интонацияси юқорида келтирилган оҳанг турларига эга бўлса-да дарсликларда ҳали кўрсатилмаган. Шунинг учун немис тили ўрганаётган ўқувчилар, талабалар немис тили жумлалари эга бўлган ранг-баранг оҳангларни ўзбек тили жумлаларининг ранг-баранг оҳанглари билан мустақил равишда қиёслашлари мумкин, масалан:


немис тилида:	**ўзбек тилида:**
	
Sie heißt Saodat.	Унинг исми Саодат. (Дарак гап)
	
Wie' heißt sie?	Унинг исми нима? (сўроқ сўзли сўроқ гап)
	
Geht sie jetzt ins Labor?	У ҳозир лабораторияга кетяптими? (сўроқ сўзсиз сўроқ гап)




Komm!



Кел! (ундов гап)
(буйруқ гап)



Es lebe unsere Heimat!



Яшасин бизнинг Ватанимиз!

187-машқ. Жумлаларни ифодали ўқинг. Дарак гапларда кўтарилиб тушувчи оҳангга эътибор беринг:

1. Wenn du redest, so muß deine Rede besser als dein Schweigen sein.
2. Von Worten zu Werken ist ein weiter Weg.
3. Wer viel fragt, kriegt viel Antwort.
4. Mein Nest ist das Best.
5. Jedes Dach hat sein Ungemach.

188-машқ. Жумлаларни ифодали ўқинг. Жумлалардаги сўроқ гапларда тушиб кўтарилувчи оҳангга эътибор беринг:

1. War der Brief lang?
2. Ist dein Stuhl hoch?
3. War das Wasser heiß?
4. War deine Familie auf der Krim?
5. Studiert dein Bruder an einer Hochschule?
6. Studiert er Deutsch?
7. Hast du viel gelesen?

189-машқ. Жумлаларни ифодали ўқинг ва интонациянинг жумланинг биринчи қисмида жумла тугалланмаганлигига эътибор беринг:

1. Ich weiß, daß er heute zu mir kommt.
2. Halima sagt, daß sie Deutsch gern hat.
3. Sokir weiß, daß Hakim fleißig ist.
4. Malika liegt im Bett, weil sie krank ist.
5. Ich weiß nicht, was soll es bedeuten.
6. Kommt Zeit, kommt Rat.
7. Als ich nach Hause kam, war es schon dunkel.

190-машқ. Ҳикояни ифодали ўқинг. Турли гаплардаги интонациянинг ранг-баранглигига эътибор беринг, матнни ўзбек тилига таржима қилинг.

SIE HABEN SICH SEHR VERÄNDERT!

Ein Mann eilte auf anderen zu, begrüßte ihn freundschaftlich und sagte: "Sie haben sich aber verändert! Sie sind viel größer und dicker geworden, und ihre Haare sind auch schon grau, Herr Müller!" Zornig erwiderte der andere: "Was fällt Ihnen ein? Ich heiße gar nicht Müller!"

"Was? fragte der Mann erstaunt, "Müller heißen Sie auch nicht mehr?"

Транскрипция ва унинг белгилари

Транскрипция тил ва унинг шеваларига оид сўзларни ёки чет тилига оид сўзларни талаффузига кўра товушларни ифодаловчи белгилар орқали ёзишни англатади. Транскрипция нутқ товушларини аниқ ифодалаш учун ишлатиладиган фонетик ёзувдир[1].

Транскрипциянинг принциплари, ўзига хос хусусиятлари орфографиянинг (фонетик, морфологик, тарихий анъанавий каби) ўзига хос принципларидан фарқ қила-

[1] А. Содиқов, А. Абдуазизов, М. Ирискулов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 1981, 62-бет.

ди. Транскрипцияда сўзлар қандай эшитилса, шундай ёзиб олинади. Транскрипцияда бир товуш доим бир белги билан ифодаланади.

Транскрипция белгилари лотин, славян, турк, араб ва бошқа тилларнинг унли ва ундош товушлари асосида тузилган бўлади. Натижада фонетик алфавит келиб чиқади. Бу фонетик алфавит билан бир қаторда ҳар бири тилнинг фонетик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қўшимча диакретик (тиниш) белгилари ҳам қабул қилинган бўлади. Немис тили нутқ товушларини ёзишда лотин алфавити асосида тузилган халқаро фонетик транскрипция белгиларидан фойдаланилади.

Немис тилида нутқ товушлари транскрипцияда қуйидаги фонетик ёзув орқали ифодаланади: а) Унли товушлар: [i:], [ɪ], [y:], [ʏ], [e:], [ø:], [ɛ:], [ɛ], [a], [ə], [u:], [ʊ], [o:], [ɔ], [a:], [a͡e], [a͡o], [ɔ͡ø], [ã], [ɛ̃], [ɔ̃], [œ̃].

чўзиқ унлилар	ярим чўзиқ унлилар	қисқа унлилар	дифтонглар	бўғин ташкил этмайдиган унлилар	бурун унлилари
i: y:	i. y.	ɪ y	a͡e	i̯	ã:
e: ø:	e. ø.	ɛ œ	a͡o	u̯	ɛ̃:
ɛ: a:	ɛ. a.	a ɔ	ɔ͡ø	o̯	ɔ̃:
u: o:	u.o.	ʊ			œ̃:

б) Ундошлар: [p], [b], [t], [d], [k], [g], [f], [v], [s], [ʃ], [z], [ç], [j], [x], [h], [p͡f], [t͡s], [t͡ʃ], [m], [n], [ŋ], [l], [r], [R], [ɐ], шу жумладан аффрикатлар: [p͡f], [t͡s], [ts].

в) Немисча нутқни транскрипция (фонетик ёзув) да ифодалаш учун қуйидаги тиниш белгилар қўлланади:

Белгиларнинг номи	Орфографик белги	Транскрип-ционбелги	Изоҳ белгиси
Чўзиқлик белгиси		[:]	
Ярим чўзиқлик белгиси		[ˑ]	
Асосий (бош) урғу		[ˈ]	
Иккинчи даражали урғу		[ˌ]	
Бурун товуши белгиси		[~]	
Бўғин ташкил қилмаслик б.		[‿]	
Кнаклаут		[ˀ]	
Ярим жаранглилик		[*]	
Нуқта	.	[//]	
Вергул	,	[/]	
Ундов белгиси	!	[¡]	
Сўроқ белгиси	?	[¿- ʖ]	
Нуқтали вергул	;	[⁞]	
Қўштирноқ	" "	[⌊ ⌋]	
Қавслар	( )	[( )]	
Кўп нуқта	...	[//]	
Икки нуқта	:	[//]	
Тире	—	[/]	
Терминал мелодия		[↘]	
Интеррогатив мелодия белгиси		[↗]	
Прогридиент мелодия		[⟶]	
Синтагматик урғу белгиси		[ˈ]	
Логик/мантиқ/урғу/си		[ˈˈ]	
Синтагматик пауза		[ʖ]	
Аспирация белгиси		[h]	
Аккомодация белгиси		[o]	

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдураҳмонов Ғ. А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I. Фонетика, лексикология, морфология. Т., 1966.
2. Авазбоев Н. Ҳозирги немис тили назарий фонетикаси. Т. "Университет".
3. Бернштейн С. И. Основные положения фонологии. "Вопросы языкознания". 1962.
4. Баскаков Н. А. ва бошқ. Умумий тилшунослик. Т., 1979.
5. Бондаревский Б. Л. ва бошқ. Немис тили дарслиги. Т., 1978.
6. Бондарко Л. В. Звуковой строй современного русского языка. М., 1977.
7. Вейсалов Ф. Я. Фонетика немецкого языка. Баку, 1980.
8. Зиндер Л. Р. Общая фонетика. М., 1979.
9. Кравченко М. Г. и др. Ударение и интонация в немецком языке. Л., 1973.
10. Колшанский Г. В. Паралингвистика. М., 1974.
11. Мусина З. Немисча талаффуз. Т., 1966.
12. Махмудов А. Гласные узбекского языка. Т., 1968.
13. Махмудов А. Словесное ударение в узбекском языке. Т., 1960.
14. Мирзаев М. ва бошқ. Ўзбек тили. Т., 1970.
15. Норк О. А. и др. Фонетика современного немецкого языка. М., 1976.
16. Решетов В. В. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. Т., 1965.
17. Содиқов А. ва бошқ. Тилшуносликка кириш. Т., 1981.
18. Beyer Horst und Annelies. Sprichwörterlexikon. M., 1989.
19. Hirschfeld u.a. Lehrmaterial für Phonetik. L. 1983.
20. Rudolf R. Allgemeine Methoden des Phonetikunterrichts für Ausländer. L. 1975.
21. Saidow S. Deutsche Grammatik in Mustern. T. 1990.
22. Stotzer U. Deutsche Phonetik. Satzakzentierung und Intonation. Leipzig, 1975.
23. Kollektiv. Großes Wörterbuch der deutschen Aussprache. Leipzig, 1982.

МУНДАРИЖА

Кириш 5

I боб

Фонетиканинг мавзуси ва унинг вазифалари

Фонетика фанининг аҳамияти 9
Нутқ товушларининг хусусиятлари 11
Акустика ҳақида маълумот 12
Нутқ органлари 15
Товушлар ва ҳарфлар 18
Нутқ товушларининг турлари 26

II боб

Немис ва ўзбек тиллари унлиларининг умумий таърифи

Немис тили унлилари ва уларнинг таснифи 29

[a:], [a] унлилари 35
[u:] ва [ʊ] унлилари 38
[i:] ва [ɪ] унлилари 40
[o:] ва [ɔ] унлилари 43
[e:] ва [ɛ] унлилари 45
[ɛ:] унлиси 48
[ə] унлиси 49
[y:] ва [ʏ] унлилари 51
[ø:] ва [œ] унлилари 54
[a͡e] ва [a͡o], [ɔ͡ø] дифтонглари 57
Бўғин ташкил қилмайдиган [i̯], [u̯] унлилари 59
[ã:], [ɛ̃:], [ɔ̃], [œ̃:] унли товушлари 60

III боб

Ундошларнинг умумий таърифи

Немис тили ундошлари ва уларнинг таснифи 62

Немис тили ундошларини ўзбек тили ундошларидан фарқлайдиган асосий хусусиятлар 66
[p] ва [b] ундошлари 69
[t] ва [d] ундошлари 72
[k] ва [g] ундошлари 74
[f] ва [v] ундошлари 77
[s] ва [z] ундошлари 80
[ʃ] ва [ʒ] ундошлари 84
[ç] (ich — Laut) ва [j] ундошлари 87
[x] (ach — Laut) ундоши 89
[h] (Hauchlaut) ундоши 91
[r] ва [R] ундошлари 94

Аффрикатлар (қоришиқ ундошлар) 98

[L] ундоши 102
[m] ундоши 104
[n] ундоши 106
[ŋ] ундоши 108

IV боб

Нутқнинг фонетик бўлиниши

Бўғин ва унинг турлари 113
Немис ва ўзбек тилларида бўғин ажратиш 114

V боб

Товушларнинг нутқ жараёнида ўзгариши

1. Кнаклаут 118
2. Унлиларнинг кучли ва кучсиз қайтиш билан талаффуз этилиши 119
3. Унлиларнинг сифат ва миқдор жиҳатдан ўзгариши 120
4. Унлилар ўзгаришининг фонетик қонуниятлари 122
5. Ундошлар ўзгаришининг фонетик қонуниятлари 125

6. Ассимиляция 127
7. Ярим жарангсизланиш 129
8. Жарангсиз ундошларнинг жарангли ундошлар билан алмашинуви 130
9. Аккомодация 130
10. Аспирация 132
11. Геминация 134
12. Унлилашув 136

VI боб

Немис тилида урғу ва унинг сўздаги ўрни

Ўзбек тилида урғу ва унинг сўздаги ўрни 141
Немис тилида сўз урғусининг кучиши 144
Қўшма сўзларда урғу 146
Атоқли отларда ва қисқартма отларда урғу 150
Синтагма ва синтагматик урғу 153
Жумла (фраза) урғуси (логик урғу) 158

VII боб

Интонация

Интонациянинг таркибий қисмлари 164
Интонациянинг компонентлари 168
Транскрипция ва унинг белгилари 174

Фойдаланилган адабиётлар 177

**Туробиддин Нурматов, Баҳодир Ҳусанхўжаев,
Туркман Очилов, Эгамберди Жўраев**

НЕМИС ТИЛИ ФОНЕТИКАСИ

Тошкент "Ўзбекистон" 2002

Муҳаррир *Ф. Юсупова*
Бадиий муҳаррир *Ж. Гурова*
Тех. муҳаррир *Т. Харитонова*
Мусаҳҳиҳ *М. Юлдошева*
Компьютерда тайёрловчи *Е. Гильмутдинова*

ИБ № 6944

Теришга берилди 31.01.2002. Босишга рухсат этилди 25.04.2002. Бичими $84\times108^{1}/_{32}$. "Тип. Таймс" гарнитурада. Офсет босма усулида босилди. Шартли бос. т. 9,66. Нашр т. 9,3. 3000 нусхада чоп этилди. Буюртма № 66. Баҳоси шартнома асосида.

"Ўзбекистон" нашриёти. 700129, Тошкент, Навоий кўчаси, 30 уй. Нашр № 142-2001.

Ўзбекистон Республикаси Давлат матбуот қўмитасининг Тошкент китоб-журнал фабрикасида босилди. 700194, Тошкент, Юнусобод даҳаси, Муродов кўчаси, 1-уй.

Немис тили фонетикаси: Олий ўқув юртларининг
Н 44 талабалари учун ўқув қўлланма / Муаллифлар: Т.А.Нурматов, Б.М.Ҳусанхўжаев, Э.Х.Жўраев ва бошқ. — Т.: "Ўзбекистон", 2002. — 180 б.
1. Нурматов Т.А. ва бошқ.
ISBN 5-640-02772-8

ББК 81.2Нем-1я73

№ 671-2001
Алишер Навоий номидаги
Ўзбекистон Республикасининг
Давлат кутубхонаси

Н $\frac{4602020103-6}{М\,351\,(04)\,2002}$ 2002



J. ESHNAZAROV

JISMONIY MADANIYAT TARIXI VA BOSHQARISH



75
Э-98

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

J. ESHNAZAROV

JISMONIY MADANIYAT TARIXI VA BOSHQARISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2008

БИБЛИОТЕКА
Вуз. ТИИ и ЛП
№ 4501

J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008., 388 bet.

Mazkur darslik respublika oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun tayyorlangan. Darslik kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi ilmiy pedagogik faoliyatni takomillashtirish va xalqaro sport harakati tarixi, O'zbekiston jismoniy madaniyat tarixi hamda jismoniy madaniyat harakatini boshqarish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslikdan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarining bo'lajak mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: **G'ulomov A.X.** – SamDU, sport-pedagogika fanlarini o'qitish uslubiyati kafedrasi mudiri, dotsent;
Xoldorov T.X. – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, «Talaba» Respublika sport uyushmasi ijrochi direktori.

ISBN 978-9943-10-122-7

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

KIRISH

Jismoniy madaniyat jahon xalqlarining umumiy madaniyati mazmunidan chuqur o'rin egallamoqda. Uni o'qitish, o'rganish va ilmiy tadqiqot olib borish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»[1], - deb yangi tariximizga yo'l ochib berdi. Buni yurtimizning mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy madaniy islohotlarning samarali natijalarida ko'rish mumkin.

Jahon xalqlari tarixi, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixida jismoniy tarbiya va sport tarixining ham o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o'rni g'oyat kattadir.

Jismoniy tarbiya harakatida mutaxassis kadrlarga bo'lgan talablar va ehtiyojlar ijtimoiy turmush hamda mehnatda, ayniqsa, Xalqaro sport harakatida doimiy ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan jismoniy tarbiya, sport, xalq milliy o'yinlari va sayohatlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Sog'lom avlod davlat dasturi, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini hayotga singdirish, bolalar sportini rivojlantirish, o'quvchi yoshlarning «Umid nihollari», «Barkamol avlod», sport o'yinlari hamda talabalar «Universiada»larini tashkil qilishda asosiy maqsad buyuk kelajakning har tomonlama barkamol avlodlarini tarbiyalashdir. Bu jismoniy tarbiya va sport mutaxassis-

---

[1] Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'uli». T., «O'zbekiston», 1992, 71-bet.

larining zimmasiga g'oyat katta sharafli mas'uliyatni yuklamoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularning nazariy bilim hamda amaliy malakalarini oshirishda «Jismoniy tarbiya va sport tarixi hamda jismoniy madaniyat harakatini tashkil etish va boshqarish» fani asosiy mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti (O'zDJTI) va Respublika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari, shuningdek, pedagogika kasb-hunar kollejlarining jismoniy tarbiya bo'limlari, Olimpiya o'rinbosarlari kasb-hunar kollejlarida Davlat ta'lim standartlari asosida «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» fan sifatida o'qitib kelinmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari mazmunida jismoniy madaniyat harakati bilan bog'liq barcha tadbirlar o'z ifodasini topmoqda. Bunda «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» fanidan maqsadli foydalanish amalga oshirilmoqda.

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari asosida maktabgacha ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va mehnat jamoalari, aholi istiqomat va dam olish joylari, ayniqsa, o'quvchi yoshlar va talabalarning yozgi dam olish hamda sport-sog'lomlashtirish oromgohlarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga keng o'rin berilmoqda. Aholining salomatligini yaxshilash, barkamol avlodning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini singdirish muhim vazifalardan biri qilib qo'yilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportining mohiyatini bunday tushuntirish, ularni targ'ibot qilish, barcha sport turlari tarixi, xalq milliy o'yinlari tarixi bilan tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu yo'lda ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniy-tarbiyaviy va ilmiy meroslar mazmunidagi jismoniy tarbiya hamda uning tarixi asosida ta'lim-tarbiya berishni davr taqozo etmoqda.

«Jismoniy madaniyat va sport tarixi» ixtisoslikka oid maxsus fan sifatida, eng avvalo, milliy qadriyatlar, ijtimoiy, madaniyat taraqqiyoti natijalari, mustaqillik yillarida joriy etilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar, nizomlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida ilgari surilgan g'oyalarga tayanadi. Ularni jismoniy madaniyat ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'ziga metodologik asos qilib oladi. Shuningdek, jahon miqyosidagi va O'zbekiston sharoitidagi jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti fanning mazmunini tashkil etadi.

Bu fan sport turlari tarixi, pedagogika tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda va rivojlanmoqda.

Darslik uch bo'limdan iborat. Birinchi va ikkinchi bo'limlar xorijiy mamlakatlar jismoniy tarbiyasi va sporti tarixi hamda xalqaro sport va olimpiya harakatiga bag'ishlanib, ularning yo'nalishlari va mazmuni V.V.Stolbov tahririda nashrdan chiqqan «Istoriya fizicheskoy kulturi sporta» darsligiga (M., «FiS» nashriyoti, 2000) asoslanadi. Uchinchi bo'lim – «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixi» deb nomlanadi. Ta'kidlash joizki, bu bo'limni to'rtta katta davrga ajratib o'qitish maqsad qilib qo'yildi, ya'ni:

1. Qadimgi ajdodlar jismoniy tarbiyasi.
2. Temuriylar sulolasi hukmronligi va keyingi davrlarda jismoniy tarbiya hamda harbiy mashqlar.
3. Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq mustamlakachiligi davrida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport (1866–1991).
4. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti (1991–2005).

Bu davrlarni belgilashda «O'zbekistonning yangi tarixi» va boshqa manbalardagi aniq ko'rsatkichlar, fikr-mulohazalar hamda ilmiy tajribalarga tayanildi. Shu bilan birgalikda mutaxassis olimlar R.I.Ismoilov, Yu.S.Sholomitskiy, R.Abdumalikov, J.T.Toshpo'latov, A.K.Akramov, H.A.Botirov hamda jurnalistlar S.Ostonov,T.Obidov va boshqalarning o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommabop risolalaridan foydalanildi. Shu sababdan, ularga o'zimizning minnatdorchiligimizni izhor

etamiz. Shuningdek, darslik 1999-yilda R.Abdumalikov, A.K.Akramov, K.D.Yarashevlar tomonidan tayyorlangan «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» dasturiga moslashtirilib, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quvchi yoshlar, talabalar, yosh ijodkor o'quvchilar hamda keng jamoatchilikka mo'ljallandi.

Darslikda barcha davrlardagi eng muhim voqealar va tadbirlargagina alohida e'tibor berildi. Shu sababdan ba'zi bir ma'lumotlar, dalillar bunga kirmay qolgan bo'lishi mumkin.

Darslikda ba'zi bir mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga fan-texnika taraqqiyotiga batafsil to'xtab o'tilmadi. Chunki ular tarix fanini o'qitilish jarayonida o'quvchilar ongiga avvaldan singdirilgan. Sobiq Ittifoq (SSSR) Rossiya negizida tashkil topganligi sababli Rossiya va Ittifoqning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mazmunlarni bir bobda qisqa ravishda berish ma'qulroq ko'rindi.

Shuningdek, xalqaro sport va olimpiya harakatiga alohida bob ajratilganligi uchun har bir davlatdagi xalqaro sport uyushmalari haqidagi ma'lumotlar qisqartirildi.

Darslik haqida o'zlarining tanqidiy fikr va mulohazalarini bildirgan hamkasblarimizga minnatdorchilik izhor etamiz.

BIRINCHI BO'LIM

XORIJIY MAMLAKATLARDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT TARIXI

I bob. QADIMGI AJDODLAR JISMONIY MADANIYAT TARIXIDAN LAVHALAR

1.1. Qadimgi odamlarning ijtimoiy-madaniy turmushida jismoniy tarbiyaning o'rni

Jahon xalqlarining umumiy madaniyati va ijtimoiy-turmush sharoiti haqida manbalar beqiyos ko'p. Qadimgi dunyo tarixi bilan aloqador bo'lgan tarixiy voqealar, ulug' sanalar tarix fanlarida keng va chuqur ifodalangan. Shu sababdan, o'quvchi yoshlar va talabalarning bu sohada ma'lum tushuncha hamda bilimlarga ega bo'lganligini e'tiborga olgan holda tarixiy davrlar, turli xil voqealar ustida to'xtamaslikni lozim ko'rdik. Ijtiomiy formatsiyalar davridagi umummadaniyatining tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya haqidagi eng muhim ma'lumotlar, dalillarni keltirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarning kelib chiqishi.

Jahon xalqlari jismoniy madaniyat va uning mazmunini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonlari uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan ilmiy-pedagogik faoliyatlardan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tarixini o'rganish, ilmiy tadqiqotlarning natijalarini fan va kundalik hayotda qo'llashda N.I.Ponomaryev, S.D.Sinikin, F.I.Samoukov, N.I.Toropov, G.D.Xarabuga, Yu.P.Simakov kabilarning xizmatlari e'tiborga loyiqdir. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida «Jismoniy

tarbiya va sport tarixi» darsliklari, o‘quv qo‘llanmalarini nashrdan chiqarishda V.V.Stolbovning alohida o‘rni bor. Uning darsliklari qayta-qayta nashrdan chiqarilib, o‘quv yurtlarida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Ularning ta’limotlariga asosan insoniyat taraqqiyotining ilk davridan boshlab to hozirgi kungacha bo‘lgan jismoniy tarbiya tarixining rivojlanish yo‘llarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdamiz.

Arxeologik topilmalar, turli ilmiy tadqiqotlarning natijalariga qaraganda insoniyat jamiyati yer kurrasida bundan 3,5–4 million yillar avval paydo bo‘lgan. Ov qurollarini yasash, olov yoqish, kiyinish, jismonan baquvvat bo‘lish uchun bolalarni maxsus mashqlar bilan tayyorlash kabi juda ko‘p ijtimoiy turmush tajribalariga ega bo‘lganlar.

Ma’lumki, ajdodlar madaniyati va ijtimoiy mehnat hamda turmush sharoitlarini ilmiy ravishda asoslab berishda G‘arbiy Yevropa (Germaniya, Fransiya, Gretsiya, Italiya va h.k.) olimlari katta hissa qo‘shishgan. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida odam paydo bo‘lishining biologik jarayoni haqidagi nazariyalarni ilgari surgan Byuxer va Gross (Germaniya), Spenser (Angliya), Lesturno (Fransiya) kabilarning mulohazalariga chek qo‘yildi. Ularning fikricha, jismoniy tarbiyani inson o‘zining hayvon ajdodlaridan sof biologik yo‘l bilan meros qilib olgan. Ular hayvonlarning beixtiyor harakatlari bilan insonning ongli faoliyat o‘rtasidagi asosiy farqini ko‘rishmagan.

O‘z davrining ilg‘or namoyandalaridan biri, faylasuf va rus marksisti G.V.Plexanov ibtidoiy o‘yinlar va jismoniy mashqlar biologik omillardan emas, balki odamlarning mehnat faoliyatidan kelib chiqqanligini ilmiy jihatdan isbotlab bergan. Bolalarning hayotida o‘yin mehnatdan oldin paydo bo‘lsa ham, umuman jamiyatda u faqat mehnatni, insonlarning ongli faoliyatini aks ettiradi.

Ilk davrlarda odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar. Ya’ni turli tabiiy ofatlardan (shamol, quyunlar, sel, sovuqlik, yirtqich hayvonlarning hujumi va h.k.) saqlanish yo‘llari, qurol-aslahalar yasash kabi ishlab chiqarish

jarayonlarini ixtiro qilganlar. Kishilar uchun kerakli hayotiy malaka va ko'nikmalar jismoniy sifatlar, malaka va qobiliyatlar ularning bevosita mehnat faoliyati jarayonlarida hosil qilinganligini hozirgi davrda tasavvur etish qiyin emas. Yoshlar barcha mehnat va jismoniy harakat faoliyatlarini katta yoshdagilardan o'rganganligi hamda ularga taqlid qilib rivojlantirganligi tabiiy bir holdir.

Ijtimoiy turmush kechirish, ayniqsa, hayvonlarni ovlash ishlab chiqarish kuchlarining takomillashuviga sabab bo'lgan. Turli mustahkam va o'tkir uchli yengil nayzalarning, so'ngra esa o'q va yoyning paydo bo'lishi ovchilikning takomillashuviga va ovning rivojlanishiga olib keldi. Buning natijasida ovqat topish uchun sarflanadigan vaqt ancha qisqardi. Natijada, o'troqlashib yashash, bolalarni tarbiyalash imkoniyatlari kengaydi. Bu jihatlar eng qadimgi ajdodlarimiz bo'lgan zardushtlar, o'g'izlar hayotida (Avesto) ham uchraydi.

Xo'jalikni idora qilishning yangi shakllari yuzaga kelishi bilan kishilik jamiyatini uyushtirish holatlari ancha mustahkamlanib bordi. Ona urug'i jamoalari paydo bo'ldi, ularning a'zolari qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida birlashib, mehnat qilib hayot kechira boshladilar. Bu, o'z navbatida, jamoatchilikni yuzaga keltirdi. Shuningdek, astasekin madaniyat sohasida ham o'zgarishlar yuzaga keldi. Uy-joy qurish, kiyim-kechak paydo bo'ladi. Tasviriy san'at (qoya toshlariga rasm chizish, yog'och va loydan onalar siymosi va turli xil shakllarni yasash) ijod qilindi. Jamoada qo'shiq, o'yin va raqslar ijro etildi, bayramlar vujudga keldi. Ana shu davrlarda diniy tasavvurlar paydo bo'ldi (ilohiy kuchlarga ishonish, ularga bo'ysunish, qurbonliklar keltirish kabilar). Mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli musobaqalar, o'yinlar mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi va ulardan urug' jamoasining turli yoshdagi guruhlari foydalandi. Mehnatning jins va yoshga qarab bo'linishi amalga oshirildi.

San'atning paydo bo'lishi kishilarning fikr va tasavvurlarini boyitdi, ularning ma'naviy dunyosini takomillashtirdi. O'yin va raqslarda takrorlanadigan mehnat va mudofaa

xususiyatidagi harakatlar faqat mehnat emas, balki jismoniy mashqlar sifatida rivoj topdi. Turli xil jismoniy mashqlarning (kurash, otda poyga, nayza uloqtirish, qilichbozlik va h.k.) o'yinlar tarzida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat tarbiyasida tubdan o'zgarishlar yasash uchun turtki bo'ldi. Odamlar o'z-o'zini hayotga, ayniqsa, mehnat faoliyatiga tayyorlashning yangi omillari va qurollarga ega bo'la boshladi. Sobiq Ittifoqning yetakchi tadqiqotchilaridan biri M.O.Kosven «Ibtidoiy madaniyat tarixi lavhalari»da odamlarning harakat qilishga intilishdagi ba'zi faoliyatlarini e'tirof etadi, ya'ni «Mehnat jarayonidagi charchoq va horg'inliklarni chiqarish maqsadida kechki paytlarda ovchilik va harbiy raqslar mashqlarini bajarganlar», deydi. Bu, o'z navbatida, ov qilish va harbiy yurishlarga tayyorgarlik — mashq (trenirovka) vazifasini bajarganligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy turmushda, ayniqsa, bolalarning jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, harbiy-mudofaa ishlarida ishtirok etuvchilarning jangovorlik holatlarini takomillashtirishda Yevropa qit'asida mavjud bo'lgan davlatlarning ish tajribasi katta o'rin tutadi. Bunga qadimgi yunonlarning (Gretsiya) jismoniy tarbiya tizimi (sistemasi) tarixiy jihatdan e'tiborga molikdir. Chunki bu tizim davrlar o'tishi bilan deyarlik jahonga, shuningdek, sobiq Ittifoqda ham o'z mazmuni va mohiyatiga ega bo'ldi.

Afina tizimi. Afinada quldorlik tizimi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Eradan avvalgi V—IV asrlarda sinfiy tafovutlar kuchli bo'lgan. Hunarmandchilik, savdo va fan Afinani Gretsiyaning markaziga aylantirdi. Har bir quldor jamiyat ishlarida faol qatnashish imkoniyatlariga ega bo'lgan. Ta'lim va tarbiya tizimida Afina fuqarolarining qatnashish huquqi bo'lgan. Afina tizimi Sparta tizimidan farqli o'laroq harbiy-jismoniy ta'lim bilan birgalikda ko'p tarmoqli targ'ibot ishlarini olib borgan. Afinaliklarning fikricha, inson har tomonlama uyg'un kamol topshi lozim edi. Bunda aqliy, ma'naviy (axloq), estetik va jismoniy tarbiya asosiy vosita bo'lishi talab etilgan. Bunday talab va ehtiyoj bora-bora takomillashtirilib borilgan.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-mehnat va madaniyat jarayonlari deyarli barcha qit'alarda u yoki bu darajada shakllanib, keyinchalik tobora rivoj topgan. Ilk davrlarda mulkchilik va ijtimoiy tengsizlik bo'lmaganligi ko'p manbalarda izohlanadi. Urug'chilik jamoasi ona urug'i (matriarxat) va ota urug'i (patriarxat)ga bo'lingan. Ularning har biri o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot va jismoniy tarbiya xususiyatlariga ega bo'lganligi tabiiydir.

Matriarxat davrida jismoniy tarbiya. Ona urug' taraqqiy qilgan davrda o'yin uchun maxsus tayyorlangan uskunalar (jundan qilingan to'p, shar, nayzabozlik tayoqlari, uchi to'qmoq nayzalar, o'yinchoq, palaxmon, shoxmon, o'yinchoq yoy, boshi egri hassa, to'qmoq va h.k.) paydo bo'lgan. Yoshlarni gurzi (to'qmoq), nayza, so'yil irg'itishga, yoydan o'q otishga o'rgatish ibtidoiy jismoniy tarbiya yo'nalishlaridan hisoblanib, uning asosiy tarkibiy qismini tashkil etgan.

Hind urug'chiligida kauchuklardan koptoklar, maxsus chana («Toboggan») yasaganlar. Ulardan xo'jalik yumushlari va turli musobaqalarda ham maqsadli foydalanganlar. Aytishlaricha, Kolumb davrida yevropaliklar hindlarning koptoklari ispanlarning (kastiliyalik) koptoklaridan yaxshi ekanligini tan olishgan.

Sharqiy Braziliya xalqlari orasida qiz va yigitlar hayotida kerak bo'lgan epchillik, chaqqonlik chidamlilik, jasurlik va qat'iyatlilik kabi qobiliyatlar hamda sifatlarga ega bo'lishi lozim edi. Baroro va Konella kabi qabilalarda yigitlar ma'lum sinovlardan o'tmagunlaricha uylanishga ruxsat berilmagan.

Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy qabilalarda langarcho'p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari ham o'tkazilgan. Ularni turli bayramlarda namoyish etishgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida suvda suzish, kanoe va baydarka xilidagi yengil uzunchoq qayiqlarda eshkak eshish ham keng qo'llanilgan.

Shimoliy va Janubiy Amerikada yevropaliklarning istilosiga qadar katta rezina koptok, chavgon va raketkalardan foydalanib o'ynaladigan xokkey tipidagi yozgi va qishki

o'yinlar rasm bo'lganligi aniq manbalarda o'z ifodasini topgan.

Patriarxat davrida jismoniy tarbiya. Urug'chilik va qabilachilik davrida ishlab chiqarish jarayonlari yangi bosqichlarga ko'tarildi. Bunda erkaklarning mehnati, yaratuvchilik fikr-mulohazalari oldingi o'rinda turgan. Temir qurollarning paydo bo'lishi, omoch, bolta bilan ishlash, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ovning xo'jalik ahamiyatini susaytirdi. Chorva mollarini boqish, qo'lga o'rgatish, xonakilashtirish va dehqonchilik qilishdagi tajribalar jamoada erkaklarning hukmron bo'lishini ta'minladi. Oila katta erkaklar (patriarxat) oilalarga aylana bordi. Yagona nikohlik (mongamiya) yuzaga keldi. Urug'lar birlashib qabilalarni tashkil etadi. Patriarxat taraqqiyotining dastlabki bosqichida qabilalar o'rtasida nizolar, janjallar, ko'pincha bir-biriga qaramaqarshi bo'lgan qabila vakillarining kurashi (yakkama-yakka kurash) bilan hal etilgan. Ba'zi hollarda janjalli masalalar birgalikda shodiyona mehmondorchiliklar tashkil etish, bir-biriga sovg'alar berish, aka-ukachilik, do'st tutinish va h.k. bilan yakunlangan. Bu, o'z navbatida, qabilalar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qabilalar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalar jarayonida jamoa shon-sharafi, o'zaro bir-birini quvvatlash, zaiflarga yordam qilish tushunchalari rivoj topgan.

Avvalgi majmuaviy (kompleks) mashqlar (kurash, mushtlashish, og'irlik ko'tarish, yugurish, sakrash va h.k.) astasekin mustaqil tur sifatida o'rganilib, an'analar, marosimlarda namoyish etilgan va musobaqa tarzida tashkil etilib, g'oliblarni olqishlash, taqdirlash kabi odatlar amalga oshirilgan.

Dehqonchilik, chorvachilik va boshqa kasb-hunar bilan shug'ullanuvchilar o'z sohalari bo'yicha turli o'yinlar, mashqlarni ixtiro qila borganlar. Masalan, bug'uchilik bilan shug'ullanuvchilar, bug'uchilar musobaqalarini uyushtirganlar.

Turli qabilachilik holatlari o'zaro jang, nizo va urushlarni keltirib chiqargan. Shu sababdan himoya qal'alari, qurol-yaroqlar yasash kabi yangi faoliyatlar tarkib topib, ular

yanada rivojlangan. Natijada, maxsus jangchilarni tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Jangchilarning jismoniy tayyorgarligida boshqa qabila va elatlarni bosib olish, ezish, ko'pchilikni hukmron ozchilikka bo'ysundirish uchun foydalanishni ko'zda tutadigan jismoniy tarbiyaning yangi tizimi namunalari tug'ila boshladi. Bunday jarayonlar esa quldorlik tuzumini vujudga keltirdi.

Quldorlikning dastlabki davrida qabilachilik munosabatlarining xalq hokimligi an'anasi saqlanib, qabila zodagonlari hokimiyatini cheklab turgan. Lekin qabilalar o'rtasida to'qnashuvlar jiddiy harbiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Ularning asosiy sababi boylik orttirish va o'z hukmronligini o'rnatishdan iborat bo'lgan. Harbiy dohiylar rahbarligida maxsus posbonlar (drujina) paydo bo'lgan. Dohiylar ko'pincha qabilalarning yo'lboshchisi ham hisoblangan. Xalq kengashlari yuzaga kela boshlagan. Ularning vazifalari jamoaning barcha a'zolarini himoya qilishdan iborat bo'lgan. Ovul (qishloq) istehkomlari (kazarma) paydo bo'lib, chet el posbonlari hujumidan harbiy mudofaa qilish madaniyati rivojlanadi.

Eramizdan avvalgi XII—IX asrlarda qadimgi Yunonistonda (Gretsiya) oddiy zodagonlarning yugurish, kurashish, mushtlashish (boks), nayza va lappak (disk) uloqtirish, kamondan o'q otish, g'ildirakli aravalarda ot poygasi kabi o'yin musobaqalarini aks ettiruvchi chizmalar, tasvirlar, haykallar, yodgorliklar, arxeologik qazilmalarda topilgan. Shuningdek, ularning mazmuni, shakllari va mohiyatlari Gomer tomonidan uning «Iliada» va «Odisseya» asarlarida o'z ifodasini topgan. Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy Germaniya, Okeaniya, hindu qabilalari (astek, ink, mayya) va boshqa joylarda ham sodir bo'lib, ularda ham o'ziga xos jismoniy mashqlar va o'yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, mayya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo'lib basketbolga juda o'xshab ketadigan o'yin o'ynash an'anaga aylangan. Ya'ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo'lgan sport o'yiniga asos solgan bo'lishi mumkin. Qadimgi

Peru mamlakatida jismoniy mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

1.2. Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya

Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, xususiy mulkchilikning rivojlanishi, ishlab chiqarishning taraqqiy etishi va ilk davlatlarning paydo bo'lishini tarixchilar eramizdan avvalgi IV–III asrlarda boshlagan deb ko'rsatadilar. Bu davrlarda yirik davlatlar asosan qadimgi Sharqda, Gretsiya va Rimda bunyod etildi.

Qadimgi Sharq hududidagi Hindiston, Xitoy, Misr, Eron, Bobil (Vavilon), Assuriya kabi davlatlardagi jismoniy tarbiya vositalarining ximla-xilligi haqida haykallar qurilish yodgorliklaridagi devoriy suratlar, turli madaniy ashyolar, qo'lyozmalar guvohlik beradi.

Jismoniy madaniyatning ilk izlari, namunalari, O'rta yer dengizi atrofida, eradan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan davlatlarda (Mesopotamiya) ko'proq uchraydi. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o'z ifodasini topgan. Bunda, asosan, merganlik (kamon-yoy), bel ushlashib kurashish, mushtlashish, g'ildirakli aravalarda poyga qilish san'ati va merganlik kabi faoliyatlar muhim o'rinni egallaydi.

Tarixchilar, tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, greklar Olimpiya bayramlarini o'z xudosi Zevsga bag'ishlab o'tkazgan bo'lsalar, parfiyenlar, skiflar, eroniylar, rimliklar, arablar o'z o'yin va an'analarini messopotamiyaliklardan o'rganganlar.

Hindlar va eroniylar hayotida ham turli tuman jismoniy mashqlar va o'yinlar vujudga kelgan. Ular tarkibida otda (tuyada, xachir va h.k.) yurish va ov qilish, qilichbozlik, aravachalarda poyga, kamondan o'q otish, to'plar va tayoqlar bilan o'ynash keng rivojlangan.

Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zodagon yoshlarni tarbiyalash tizimi mavjud bo'lgan. Bunda

yuqorida tilga olingan mashqlarni (nayza sanchish, qilich ishlatish, otdan ag'darish) o'rgatish dastur asosida olib borilgan.

Qadimgi Misrda harbiy aslzodalarni harbiy-jismoniy jihatdan maxsus tayyorlash uchun kurash, qilchbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish kabi mashqlardan foydalanishgan. Buni eramizdan avvalgi XVIII–XII asrlarda Beni Gossan degan joydagi fir'avnlar qabristonidan topilgan yodgorliklarda tasvirlangan 400dan ortiq jismoniy mashqlar va o'yinlarni asoslab beradi.

Misr davlatida dinlarning ko'pligi tufayli ularning xudolariga hamda urf-odatlariga bag'ishlangan ko'pgina bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalari o'yinlar va raqslar bilan birga qo'shib olib borilgan. Keyinchalik ulardan ko'proq ideologik (g'oyaviy) maqsadda foydalanilgan.

Hukmron doiralar xalq o'yinlari va jismoniy mashqlardan o'z kamoloti va manfaatlari yo'lida foydalanganlar.

Qadimgi Sharq davlatlarida quldorlik tuzumi davrida ozod dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdo-tijorat xodimlari orasida rasm bo'lgan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq mashqlarining turlari quldorlar tomonidan o'z obro'yi hamda hukmronligini kuchaytirish maqsadida o'zlashtirilgan va ulardan keng foydalanilgan.

1.3. Qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya. Olimpiya bayramlari

Qadimgi Yunon davlatining tarkib topishi va rivojlanishi eradan avvalgi III–II ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Yunoniston tarixining Gomer davri deb eradan avvalgi XII–IX asrlar tilga olinadi.

Gomerning «Iliada» va «Odisseya» poemalarida o'sha davrdagi yunon hayotining yorqin manzaralari aks ettiriladi. Qahramonlar sifatida zodagon jangchilar timsoli chizilib, ularni oddiy xalqdan ajratuvchi jismoniy sifatlari va fazilatlari talqin etiladi. Gomer poemalarining qahramonlari halok bo'lgan qahramonlar yoki qabila hayotidagi biror muhim vo-

qea sharafiga bag'ishlab tashkil etiladigan musobaqalar va o'yinlarda o'zlarining jismoniy fazilatlarini namoyish etganlar. Bunda yugurish, nayza va lappak uloqtirish, sakrash, kurash, mushtlashish kabi mashqlar orqali musobaqalashganlar.

«Odisseya» poemasida «atlet» (shug'ullanuvchi) so'zi o'sha vaqtda «olijanob qahramon», «aslzoda» (zodagon) tushunchalari bilan bog'langan. Ya'ni xalq ichidagi «chaqqon odam» tushunchasiga qarama-qarshi qilib qo'yilgan.

Shu sababdan, oddiy kishilar zodagon jangchilarning o'yinlarida ishtirok etmagan, faqat tomoshabin sifatida o'tirishgan.

Bo'lajak jangchilar tayyorlash maqsadida mamlakatning yirik shaharlarida maxsus tarbiya tizimi vujudga keladi. Ular tarixda Sparta va Afina tizimi (sistema) nomi bilan o'rganildi.

Sparta tizimi. Eradan avvalgi IX asrda Sparta shahri vujudga kelib, uning aholisini 9 mingga yaqin quldorlar oilasi, shuningdek, 30 ming hunarmandlar, savdogarlar va yer egalari, 200 ming qul tashkil etgan.

Quldorlar (spartiatlar) qullardan saqlanish va o'zlarini himoya qilishga tayyorlanish maqsadida o'ta qattiq tarbiyaviy tizimdan foydalangan. Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalangan. Bu davrda ularni qorong'udan qo'rqmaslik, yig'lamaslik, ovqat tanlamaslikka o'rgatganlar va chiniqtirishga katta ahamiyat berganlar. 7 yoshdan 18 yoshgacha bolalar va o'smirlar davlat tizimidagi tarbiya muassasalarida asosan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganlar. Ularni sovuq va ochlikka bardosh berish, chaqqonlik va og'riqlarga chidash kabi faoliyatlarga o'rgatib, chiniqtirganlar. Yoshlarni nayza va lappak uloqtirish, yugurish, sakrash, kurash va harbiy o'yinlar, yovvoyi hayvonlarni ovlashga o'rgatganlar.

Jam (xor) bo'lib qo'shiq aytish, musiqa chalish, raqs kabi sohalarga ham ko'p vaqt ajratilgan. Davlat tomonidan belgilangan rahbarlar (pedanomlar) yosh spartiatlarni mardlik, jasorat, qullarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalaganlar. Shu

maqsadda kechalari qullarga qarshi hujumlar, bosqinlar uyushtirganlar. Shubhali qullarni o'ldirishgan. 18–20 yoshli tarbiyalanuvchilar efeblar (zobitlar) qatoriga qabul qilinib, ular jismoniy va harbiy tayyorgarlikni o'taganlar. Keyinchalik esa ularni harbiy darajalarga ajratib, qariguncha harbiy xizmatda ushlab turishgan.

Sparta tizimida qullarni jismoniy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Sog'lom bolalarni dunyoga keltirib, ularni sog'lom qilib o'stirish uchun oilalar ham o'ta sog'lom bo'lishi ko'zda tutilgan. Shu sababli ham qiz bolalarni yugurish, kurash, nayza va lappak uloqtirish kabi mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullantirishgan. Sparta xotin-qizlari ko'proq qullarni saqlashda xizmat qilganlar.

Sparta davlati tarbiya tizimini va harbiy sohadagi eng kuchli qismi Gretsiyada tashkil etildi. Ular uzoq yillar davomida yengilmas deb nom qozondi. Sparta atletikachilari ko'pgina olimpiya, pif va boshqa o'yinlarda qatnashib, g'alabalarni qo'lga kiritgan.

Afinada bola yetti yoshgacha oilada, qullar nazorati ostida tarbiyalangan. Bu yoshda ko'proq o'yinlarga e'tibor berilgan. Keyin o'g'il bolalarni maktabga yuborishgan. Qiz bolalar esa uyda tarbiyalangan. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lganlar davlat maktabi yoki shaxsiy maktablarda ta'lim olishgan. Ular musiqa va gimnastika maktablari deyilgan. Ya'ni musiqa mashg'ulotlarida musiqa, raqs, o'qish-yozish bilan, gimnastika mashg'ulotlarida esa yalang'och holda kurash (palestra) bilan shug'ullanganlar. 12–16 yoshdan boshlab birinchi o'ringa gimnastika mashg'ulotlari qo'yilgan.

16 yoshga to'lgandan keyin yaxshi ta'minlangan ota-onalar o'z farzandlarini gimnasiylarga berishgan. Afinada davlat hisobida uch xil gimnasiy, ya'ni: akademiya, litsey va kinosorg mavjud bo'lgan. Bu o'quv yurtlarida yoshlar jismoniy tarbiya bilan bir qatorda siyosatshunoslik, falsafa va adabiyot fanlari bo'yicha ham ta'lim olgan.

Afinada 18 yoshli yigitlar davlat harbiy tashkilotiga – (efeb) jalb etilgan. Ular ikki yil davomida harbiy xizmatni o'tagan. Ular (efeblar) birinchi yili, jismoniy tarbiya va har-

БИБЛИОТЕКА
Вых. ТИП и ЛП
№ 4.501

biy tayyorgarlikdan o'tishgan. Ikkinchi yili esa qalqon va nayza bilan qurollanib, davlat chegarasini qo'riqlaganlar.

Sekin-asta jismoniy tarbiyaning pedagogik va ilmiy nazariyasi paydo bo'la boshladi. Qadimgi faylasuf olimlar — Platon, Aristotel va boshqalarning asarlarida tarbiya ta'lim tizimidagi jismoniy tarbiyaga yuksak baho berildi.

Platon (eradan avvalgi 427—347 y.y.) Afina zodagonlari vakili, faylasuf-idealist (g'oyachi) insonning ma'naviy va jismoniy sifatlari haqidagi nazariyaning asoschisidir. U Sparta tizimiga moyillik bildirib, harbiy-jismoniy tarbiyani aqliy tarbiya va ta'lim bilan qo'shib olib borishni ko'zda tutdi. Platon o'zining (davlat) asarida shunday degan: «Yaxshi gimnastika ham oddiy bo'ladi, lekin eng avvalo, harbiy gimnastika bo'lishi lozim».

Aristotel (eramizdan avvalgi 384—322 y.y.). Yirik olim va faylasuf, Platonning o'quvchisi va Aleksandr Makedonskiyning ustozidir. Uning ta'limoti dialektika sohasida yuksak baholanadi. Chunki u shakl va mazmun birligi haqidagi g'oyani olg'a suradi. Shu bilan birga borliqning rivojlanishini isbotlaydi. Insonning ruhi va tanasi ajramlas holda bog'liq ekanligini tushuntirib beradi. Jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya bilan hamohangligini ta'kidlaydi.

Aristotel o'g'il bolalarni jismoniy jihatdan mustahkam qilib tarbiyalash tarafdori bo'lgan. U Platondan farqli o'laroq tarbiyada ko'proq ta'lim-tarbiyaga o'rin berishni, gimnastika mashqlari hajmini kamaytirishni taklif etadi. Chunki gimnastikada ko'proq harbiy jismoniy tarbiya va ta'lim ko'zda tutilgan va u bolalar uchun juda murakkab jarayon, deb hisoblaydi.

Demokrit (eramizdan avvalgi 460—370 y.y.). Jismoniy mashqlar insonning shakllanishida muhim o'rin tutadi, ya'ni tabiiy holatni rivojlantirishda ustunroqdir, deb ta'lim beradi.

Sokrat (eramizdan avvalgi 469—399 y.y.) aytishicha, mustahkam sog'liq ko'pgina illatlardan saqlashga kafolatdir. Qadimgi grek shifokori Gippokrat (eramizdan avvalgi 460—375 y.y.) ta'biri va ta'limi bo'yicha, jismoniy mashqlar bilan

shug'ullanish turli xil kasalliklarni oldini olish (profilaktika) va davolashda muhim ahamiyatga egadir.

Qadimgi greklarda jismoniy tarbiya asosan gimnastika va agonistika (maxsus)dan iborat bo'lgan. Gimnastika umumiy jismoniy tarbiyada qo'llanilgan. Agonistika tizimida esa maxsus tayyorgarlik va boshqa musobaqalarda qatnashish ko'zda tutilgan.

Gimnastika maxsus tizim sifatida palestrika (kurash), orxestrika (raqs) va o'ynlarni o'z ichiga olgan. O'z navbatida palestrika pentatlon (besh kurash: yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va lappak uloqtirish, kurashdan iborat bo'lgan. Shuningdek, unga pankration (kurash va mushtlashish - aralash), suzish, mushtlashish, otda yurish, kamondan o'q otish va boshqalar mashqlar ham kiritilgan.

Orxestrika asosan musiqa jo'rligidagi raqslardan tashkil topgan. O'yinlar esa tayoqlar, g'ildiraklar, chavgon, shar, to'plar bilan gimnastika qilishdan iborat bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlangan turlardan Olimpiya bayramlarida (agonlarda) ko'proq foydalanilgan.

Olimpiya bayramlari va boshqa gimnastika o'yinlari (agonlar). Qadimgi Gretsiyaning shon-shuhratini ko'tarishda Olimpiya va gimnastika o'yinlari (agonlar) o'rni alohida ajralib turadi.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari Alfey daryosi vodiysining Peloponiyes yarim orolida joylashgan Elida shahrining Olimpiya qishlog'ida o'tkazib kelingan. Odatga ko'ra, hozirgi davrda Olimpiya mash'alasi Kronos tog'i etagidagi (Olimp tog'ida emas) Olimpiyadan olinadi va Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan shaharlarga yetkaziladi.

Olimpiya — olimpizmning yaratilishi markazidir. Eradan avvalgi uch minginchi yillar davrida odamlar bu joylarga ko'chib kelib o'rnashgan va zich joylashgan.

Gomerning «Iliada» poemasida tasvirlanishicha, Troya urushida halok bo'lgan Patrokl xotirasiga bag'ishlanib, uning do'sti Axill aravalar qo'shilgan otlar poygasi, mushtlashish, kurash, yugurish, kamondan o'q otish, nayza va disk uloqtirish bo'yicha tadbir (musobaqa) o'tkazgan. Shu tariqa Olim-

piya qishlog'i asta-sekin muhim madaniy tadbirlar o'tkazish markaziga aylangan. Avvalo, bu yerda Gera xudosiga bag'ishlangan bir koshona keyinchalik esa, ya'ni eramizdan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmigacha Yer onasiga bag'ishlab katta ibodatxona qurildi. 200 yildan keyin, ya'ni greklarning Olimpiya qishlog'idan eronlar ustidan g'alaba qi-lishiga bag'ishlab Zevs xudosi sharafiga katta namoyish markazi qurilgan. Bu joyda Elida davlati oliy kengashi binosi joylashgan bo'ladi. Olimpiyada juda ko'p ibodatxonalar, ularda sonsanoqsiz haykallar mavjud bo'lib, ular turli xudolar, afsonaviy qahramonlar, Olimpiya o'yinlari chempionlari, podsholar, sarkardalar sha'niga bag'ishlangan.

Bu joyda boshqa turli xil madaniy, qurilish maskanlari qatorida sport inshootlari majmuasi (kompleks) ham joylashtirilgan. Bunda stadion, ot chopar (ippodrom), gimnastika va palestra (kurash) joylari mavjud edi. Ba'zi manbalarning guvohlik berishicha, Olimpiya o'yinlarining ilk bor tashkil etilishi greklarining bosh xudosi Zevsning o'z otasi Kronos sha'niga bag'ishlab katta an'anaviy bayramlar o'tkazishi bilan bog'liq bo'lib, ular Olimpiya (joy) o'yinlari deb atalgan.

Boshqa rivoyatlarga ko'ra esa tashkil etilgan o'yinlar afsonaviy qahramon Gerakl sha'niga, ya'ni kuch, mardlik, jasorat, harbiy shuhrat ramziga bag'ishlangan. Aniqrog'i, Elida podshosi Avdiy ustidan qozongan g'alabasi sharafiga Gerakl o'yinlari tashkil etilgan. U o'yinlarni o'tkazish uchun masofalarni (distansiya-stadiya) o'z oyoq izlari bilan o'lchab bergan. Olti yuz oyoq izi bir masofa (stadiya), ya'ni 192 m. 27 sm.ni tashkil etgan. Avvallar o'yindagi g'oliblarni ana shu tur bilan belgilagan. Gerakl pankration (kurash va mushtlashishning aralashmasi) musobaqasida qatnashib g'olib chiqadi. Keyinchalik o'tkazilgan o'yinlardagi g'oliblarga «Ikkinchi Gerakl» unvonini berish odatga aylantirilgan.

Xullas, o'yinlar urish qahramonlari, podshohlarni yengan jasur va botir sarkardalar sha'niga bag'ishlab o'tkazilgan.

Olimpiya o'yinining ilk boshlanishi eradan avvalgi 776-yilga to'g'ri keladi. Bu davrda faqat erkin holda tug'ilgan

greklargina Olimpiya o'yinlarida qatnashgan. Qullar, ayollar va chet elliklar o'yinlarda qatnashish huquqiga ega bo'lmagan. O'yinlar har to'rt yilda bir marotaba tashkil etilgan. Dastlabki o'yinlarda faqat yugurishlar asosiy dastur hisoblangan. Keyingi o'yinlarning dasturlariga besh kurash (pentatlon): yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va lappak uloqtirish, kurash kiritilgan. Shuningdek, mushtlashish, pankration (mushtlashish va kurash), otda yurish, aravalarda poyga kabi turlari bo'yicha ham musobaqalar tashkil etilgan. 37-Olimpiya o'yinlaridan boshlab (eradan avvalgi 632 y.) o'yinlarda bolalar ham ishtirok etishgan. O'yinlar avvallari bir kun davomida, keiynchalik besh kunda o'tkazib borilgan. O'yinlar tantanali ravishda qiziqarli tarzda ochilgan.

Qadimgi greklarning Olimpiya o'yinlari uzluksiz 1160 yil davom etgan. Ellada aholisi o'zining Olimpiya o'yinlarida 290 marta yig'ilgan. Eng oxirgi o'yin Yangi eraning 393 y.ga to'g'ri keladi. Bir yildan keyin esa Rim Imperatori Feodosey-1 xristianlikning keng yoyilishi tufayli Olimpiya o'yinlarini o'tkazishni taqiqlab qo'ydi. 32 yil o'tgach esa Feodosey-II barcha turga kiruvchi yodgorliklar, Olimpiyadagi muqaddas joylarni buzishga farmon berdi va ularni yakson qildi. Qolganlari esa katta suv toshqinlari (sel) va yer qimirlashlari natijasida vayron bo'ldi. Natijada, marosimlar va Olimpiya o'yinlar nomi butunlay unitildi.

Qadimgi Yunonistonda Olimpiya bayramlari (o'yinlari) kabi turli xil boshqa bayramlar ham o'tkazish odat bo'lgan. Ulardan diqqatga sazovor bo'lganlari – Pif o'yinlari – Appolonga bag'ishlanib, Delfi shahrining atroflarida o'tkazilgan. Bunda musiqa, raqslar bilan birgalikda gimnastika o'yinlari ham o'tkazilgan. G'oliblar lavr shohlaridan yasalgan chambar bilan taqdirlangan. Shuningdek, Nemey, Panafina o'yinlari ham muntazam ravishda o'tkazilgan. Bularda ham musiqa gimnastika va boshqa o'yinlar dasturning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Eradan avvalgi IV asrdan boshlab yunonistondagi quldorlik tuzumi barham topa boshladi. Bu, o'z navbatida, umummadaniyat va xususan jismoniy madaniyatning o'sishiga sal-

biy ta'sir ko'rsata boshladi. Avval Makedoniya, keyinchalik esa rimliklarning hukmronligi ostida Yunoniston mustamlakachilik zulmini boshidan kechirdi. O'tkazilayotgan o'yinlarda yunonlarga mansub bo'lmagan fuqarolar, professional sportchilar (mushtlashish, kurash, besh kurash va h.k.) qatnashishi odatga aylanadi. Lekin xristian dinining kengayishi va rivojlanishi boshqa xudolar sha'niga bag'ishlab o'tkazib kelinayotgan bayramlarga barham berdi. Shular qatorida Olimpiya bayramlarini o'tkazish ham to'xtab qoldi.

1.4. Qadimgi Rimda jismoniy tarbiya

Rim davlatining vujudga kelishi eradan avvalgi 754-yilga to'g'ri keladi. O'zining dastlabki 3 asri (eradan avvalgi VIII–VI), shohlar davri mobaynida Rim jamiyati urug'chilik tuzumi va patriarxal quldorlik munosabatlarning rivojlanish bosqichini o'tagan.

Rim podsholari davrida turli xil marosimlar: suvoriylar, labirintlar (chalkash yo'llar)da musobaqa o'tkazishgan, ular «troyan o'yinlari» deb tarixda tilga olinadi. Bu o'yinlar asosan rimlik patrisiylar zodagonlar uchun ahamiyatli bo'lgan. Qo'sh g'ildirakli aravada poyga, turli xil harbiy raqslar, nayza uloq-tirish, kurash va boshqa mashqlar ham keng tarqalgan. Bu quldorlik jamiyati tuzumining harbiy-jismoniy faoliyatida muhim o'rin egallagan. Shu sababdan ham, jismoniy tarbiya tizimi quldorlar harbiy qudratini mustahkamlash vazifasini o'tagan.

Rim respublika sifatida mavjud bo'lib, harbiy-siyosiy tizim tarkib topgan. Shu tufayli hokimiyat harbiy xizmat faoliyatidagi kishilar qo'lida bo'lgan. Har bir fuqaro harbiy xizmatni o'tashi – majburiy ravishda o'zini harbiylik faoliyatiga tayyorlashi zarur edi. Shuning uchun maxsus tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Bu yerdagi tarbiya tizimining qadimgi Yunonistondagidan farqi shuki, u uyda beriladigan tarbiya xususiyatlariga mos kelgan. Rimlik yigitlar harbiy xizmatga birmuncha ilgari - oilada, o'z tengdoshlari orasida tayyorlangan. Jismoniy mashqlar va o'yinlar bunda asosiy

vosita sifatida xizmat qilgan. Yigitlar 16—17 yil harbiy xizmatda bo'lishgan. Bu davrda uzoq yurishlar va harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlarini bajarganlar.

Bu tartib eradan avvalgi II asrgacha davom etib, Mariya islohoti bilan professional harbiylikka asoslangan davrgacha saqlanib qolgan.

Jismoniy mashqlar, o'yinlar, turli musobaqalar qadimgi rimliklarning hayotiga singib ketgan. To'p bilan o'ynaladigan har xil o'yinlar ommalashgan. Ular patrisiy (aslzodalar) orasida, shuningdek, plebeylar orasida keng tarqalgan edi.

Eramizdan avvalgi VI va III asrlarda sirk tomoshalari rivojlanib, maxsus inshootlar paydo bo'lgan. Aslzodalar uchun eng qulay va ommaviy sirk o'yinlari asosiy jismoniy tarbiya vositasi va tizimini tashkil etgan. Chunki sirkda turli xil attraksionlar, kulgili hajviy va murakkab jismoniy mashqlar namoyish etilgan.

Eradan avvalgi VI asrdan boshlab har 10 yilda bir marotaba o'tkaziladigan yirik musobaqalar an'anaga aylangan. Uning dasturidagi qo'sh g'ildirakli aravada poyga eng qiziqarli o'yin bo'lgan. Bunda kurash, yugurish, mushtlashish kabi turlar ham o'rin egallagan.

Qadimgi Yunoniston va Rimning o'zaro aloqalari tufayli Rimga jismoniy tarbiya vositalari ham kirib kelgan. Eramizdan avvalgi II asrda ba'zi rimlik faollar yunonlarning jismoniy tarbiya tizimidagi turlar va usullarni o'zlariga tatbiq etishga harakat qildilar. Eramizdan oldingi 80-yillarda Yunoniston Rim tomonidan bosib olingach, elchi Sulla Unon Olimpiya o'yinlarini Rimga ko'chirishga urindi. Uning buyrug'iga binoan 175-Olimpiya o'yinlari Rimda o'tkazilishi kerak edi. Lekin bu holat rimliklar tomonidan ma'qullanmadi. Shu sababdan, eradan oldingi 76-yildagi o'yinlar eski joyi — Olimpiyada tashkil etilgan.

Rimda eski o'yinlarning qismlari turli bayramlarda takrorlangan. Shu bilan birga yangi o'yinlar vujudga kelib, ular keng tomoshabinlarni o'ziga jalb etgan.

Eradan avvalgi II asrda vujudga kelgan yangi o'yinlardan diqqatga sazovori gladiatorlar jangi bo'lib, keyinchalik u Rim tomoshalarining asosiy qismiga aylandi. Bunda avvallari sirk o'yinlarida qilichbozlik san'atini yaxshi egallagan qullardan foydalanganlar. Eramizdan avvalgi I asrda Rimda gladiatorlar tayyorlovchi maxsus maktablar tashkil etilgan. Ular davlatga yoki shaxsiy kishilarga mansub bo'lgan. Maktablarga gunohkor bo'lgan va hukm qilingan qullar tanlab olingan. Eng katta maktab Kanuyeda bo'lib, o'z vaqtida bu yerda Spartak ham ta'lim olgan. Ularga asosan qilichbozlik san'ati o'rgatilgan va sirklarda namoyish etilgan. Qilichbozlik jangida (sirk o'yini) omon qolgan gladiatorlar yana o'z maktablari va instruktorlariga qaytarilgan.

Eradan avvalgi I asr oxiri va yangi eraning boshida Rimda imperatorlik vujudga keldi. Bunda harbiy quldorlik hukmronligi o'rnatildi. Zodagonlar yengil kiyimda iliq suvlarda cho'milish, uqalash (massaj) qabul qilish, yengil gimnastika bilan mashg'ul bo'lganlar. Yoshlar aravalarda yurish, qilichbozlik bilan shug'ullanib, «Yuventlar» (yoshlar) tashkilotini tuzishadi.

Yirik tomosha o'yinlarini sirklar, amfiteatrlarda tashkil qiliuvchilar gladiatorlarning yirtqich hayvonlar: yo'lbars, qoplon va h.k. bilan olishuvini uyushtirganlar.

IV asrda Rimda xristian dini davlat tomonidan quvvatlandi. Cherkov ta'siri asta-sekin davlat va jamoa hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Shu sababli Rim an'analari inqirozga uchray boshladi. Cherkov tizimi gladiatorlarning qonli janglari, sirk tomoshalariga qarshi chiqdi. Bunday tomoshalar 404-yilda butunlay taqiqlandi. Lekin xalq tomoshalarni o'tkazilishini talab qildi. Shunga asosan sirklarda aravada yurish, o'yinlar, professional kurash hamda mushtlashish (boks) bo'yicha tomoshalar o'tkazildi. Ularda tomoshabinlar ham ishtirok etishi odatga aylandi.

Eramizdan avvalgi 74—71-yillarda qullar ahvolining nihoyatda yomonlashuvi Spartak rahbarligidagi qo'zg'olonga sabab bo'lgandi. Spartak kuchli, jasur odam bo'lib, u qurollarni ustalik bilan ishlatardi. Shuning uchun ham XX asr-

ning 20-yillaridan boshlab uning xotirasi uchun o'tkaziladigan jahon ishchi va mehnatkashlarining musobaqalari spartakiada deb ataladi, shuningdek, «Spartak» sport tashkiloti ham dunyoga mashhur.

Qadimgi Rimda jismoniy mashqlarning jismoniy rivojlanish va jamiyat uchun afzalliklari haqida ko'p fikrlar bildirilgan. Shoir Yuvenal she'rlarida ilk bor «Sog' tanda sog' aql» shiori jarangladi va u jahon xalqlarining shioriga aylandi.

Qullarni shafqatsiz ezish, ularning tinimsiz qo'zg'olonlari, harbiy tashkilotlarning susayishi qadimgi davlatlarning yemirilishiga, shu asosda jismoniy tarbiyaning kuchsizlanishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelgan jismoniy tarbiya urug'chilik va qabilachilikning takomillashuviga yordam berdi. Ov bilan bog'liq va turli xil boshqa marosimlar o'yinlarni tashkil etishga asos soldi. Bunday jarayonlar Sharq, Yevropa mamlakatlarida o'z ifodasini topib, qadimgi Yunoniston, Rim va boshqa davlatlarning paydo bo'lishida o'ziga xos xizmat vazifasini o'tagan.

Quldorlik tuzumi Yunoniston, Rim va boshqa davlatlarda rivoj topib, davlatchilik tizimi yuzaga kelgan. Zodagonlar, oddiy xalq o'zlariga xos o'yinlar, bayramlar uyushtirgan.

Tarixda Olimpiya bayramlarini tashkil qilish, unda chaqqonlik, tezlik, kuchlilik va chidamlilik sifatlarini sinash amalga oshirildi. Qullarni gladiatorlikka tayyorlash ishlari kuchaydi va maxsus maktablar tashkil etildi. Xristian dinining paydo bo'lishi Yunoniston, Rim hamda boshqa davlatlarda Olimpiya bayramlari, sirk tomoshalarida «jang-o'yin»ni taqiqladi.

O'z-o'zini nazorat qilish va bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Jismoniy mashqlar va o'yinlar qanday paydo bo'lgan?
2. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida jismoniy tarbiya jamiyat hayotining qaysi sohalarda ko'proq aks etgan?

3. Onalik hukmronligi davrida jismoniy tarbiya qanday amalga oshirilgan?

4. Jismoniy tarbiya va o'yinlarning rivojlanishiga sabab nima?

5. Ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorchilik jamiyatiga o'tishda jismoniy tarbiya va o'yinlarning qanday xususiyatlari bo'lgan?

6. Qadimgi Sharq mamlakatlarida jismoniy madaniyat qanday rivojlangan?

7. Qadimgi Yunon gimnastika tizimi haqida nimalarni bilasiz?

8. Sparta va Afina jismoniy tarbiya tizimidagi farqlar nimalardan iborat edi?

9. Olimpiya bayramlari va boshqa o'yinlar qayerda va qachon o'tkazilgan?

10. Qadimgi Rim jismoniy madaniyatining xususiyatlari nimalardan iborat edi?

11. Jismoniy madaniyat qadimgi shoirlar, haykaltaroshlar, shifokorlar, notiqlar, faylasuflar tomonidan qanday talqin qilingan?

12. Qadimgi Yunoniston va Rimda jismoniy madaniyat rivojlanishining susayishi va tanazzulga uchrashiga sabab nima?

13. Qadimgi ajdodlarning ijtimoiy turmush sharoiti va unda qo'llanilgan jismoniy madaniyat haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiling.

II bob. O‘RTA ASRLARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT

2.1. Yevropa mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport

O‘rta asr davri eramizning V—VII asrlariga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda feodal tuzumi G‘arbiy va Sharqiy Yevropa, Osiyo hamda Shimoliy Afrikada vujudga kelib, u rivojlanib boradi. Markaziy Amerika, Avstraliya qit’alari, Osiyoning shimoliy viloyatlarida esa bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumi yoki ilk quldorchilik tuzumi hukm surgan. Demak, jahondagi xalqlar turli-tuman ijtimoiy sharoitlarda yashab, o‘z madaniyatlarini bir-birlari hisobiga to‘ldirganlar hamda boyitganlar.

Yevropa. Feodal tuzumi davrida asosan ritsarlar va diniy arboblar hukmronlik qilganlar. Ular, asosan, krepostnoy dehqonlar va hunarmand aholini ezish va ishlatish asosiga yashaganlar.

O‘rta asrlar davomida madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya va sport ham rivojlangan. Bir necha yuz yillar davomida katolik dini aqliy va jismoniy tarbiyaga salbiy ta’sir o‘tkazib keldi. Xristian dini ta’lim va tarbiya sohasida o‘zining hukmronligini ustun qo‘ydi. Bunda faqat ruhiyat va oxirat haqida ta’limot olg‘a surildi. Dinning ta’siri natijasida maktablar va universitetlarda jismoniy tarbiyaga e’tibor berilmadi. Cherkov feodal tuzumiga yordam berish maqsadida ritsarlik katolisizmini keng tarqatdi. Salb (xoch) yurishlaridagi ritsarlik faoliyatlarida jismoniy tayyorgarlikka ehtiyoj sezilib, shu sababdan, ularni tayyorlashga e’tibor kuchaytirildi hamda ritsarlik jismoniy tarbiya tizimi tashkil etildi. Bunda, asosan, harbiy ishning amaliy xususiyatiga tayanildi.

Ritsarlarni tarbiyalashda otda yurish, qilichbozlik, ov suzish, kamondan o‘q otish, shaxmat o‘yini, she’r aytish kabilardan foydalaniladi. 7—14 yoshdagi bo‘lajak ritsarlar

obro'li feodal ayollar tarbiyasini olgan. Bolalar orasidan tanlab olingan 14 yoshga to'lganlar qurollarni ishlatish bo'yicha tayyorlanardi. 21 yoshda esa ular bevosita ritsarlikka jalb qilingan. Ular har qanday xizmatni bajarishga tayyor bo'lishi uchun kuch va chidamlilikka erishish yo'lida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanganlar. Bunda o'yinlar va sport muhim o'rin tutgan. O'yinlar, harakatlar harbiy xususiyatga ega bo'lgan sport o'yinlari ichida fransuzcha «Je de pom» (tennisga o'xshash), inglizcha «so'l» (futbolga o'xshash), gollandcha «Gold» o'yinlari ko'proq qo'llanilgan. Harbiy tayyorgarlik mashqlarida shahar devorlariga hujum, qasr va qo'rg'onlarni o'rab olib, qamal qilish udumga kirgan. Buning uchun sun'iy joylar tayyorlangan. Sport turlari orasida qilichbozlik, otda yurish, kurash, nayza uloqtirish, bosqon irg'itish, uzunlikka sakrash, kamondan o'q otish, suzish kabi mashg'ulotlarga keng o'rin berilgan.

Nayzabozlikni o'rgatishda shu sohadagi mutaxassis o'qituvchilar feyxmestrlarni taklif etishgan. Boshqa turlarda ham bu usullar qo'llanilgan. Ritsarlarning ko'ngil ochish mashqlari asosan ov qilish, ya'ni burgut (lochin) yoki it bilan o'ljani tutish otda va piyoda yurib hayvon ovlashdan iborat edi.

Ritsarlaring harbiy-jismoniy tayyorgarligini sinovdan o'tkazish uchun ritsarlar turnirini o'tkazishgan. Bu haqda VI asrda Fransiyada amalga oshirilgan faoliyatlar, tadbirlar guvohlik beradi. Turnirlar ommaviy tusda va yakkama-yakka bellashuvlar ko'rinishida o'tkazilgan. Turnirlarni tashkil qilish, asosan, oilada o'g'il tug'ilishi, jangdagi g'alaba, ritsarning uylanishi, yirik feodalning tug'ilgan kuni va boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lgan.

Yakka bellashuvda ritsarlar «qirolga hayot, ayolga qalb baxsh etish va o'ziga shon-shuhrat keltirish» uchun qasamyod qilishgan. Turnirlarning o'tkazilishi ko'proq XIII asrga to'g'ri keladi, ya'ni bu krest (xoch) yurishi bilan bevosita bog'liqdir. Bunday yirik turnirlar Germaniya, Angliya, Fransiya, Ispaniyada ko'proq tashkil etilgan. So'nggi turnirlar XV asr oxirlarida Germaniyada, XVI asr boshlarida Fransiyada

o'tkazilgan. Bu davrda feodal munosabatlar keskin o'zgardi va ritsarlik tizimi susayib bordi, ya'ni yangi burjuaziya munosabatlari yuzaga keldi. Bu, o'z navbatida, porox va o'q otar qurollarning kashf etilishi tufayli jismoniy tarbiyaga ehtiyoj susayishini keltirib chiqardi.

Dehqonlarning yer mulki va o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lishi yollanma ishchilarning ko'payishini ta'minladi. Feodallar va din peshvolari jismoniy mashqlar va xalq o'yinlariga qarshi edi. Buning negizida, asosan, dehqonlar va shahar hunarmandlarini qo'zg'alon ko'tarish, eng avvalo, jismoniy va harbiy kuchga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum etish maqsadi yotar edi. Shunga qaramasdan, xalq qadimgi o'yinlar va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, an'anaviy bayram hamda marosimlarda ularni qo'llashni ma'lum darajada davom ettirgan. XIV asrda Shveysariyada 16—18 yoshdagi o'smirlar o'rtasida yugurish, sakrash, kurash, nayza uloqtirish, tayoqlarda qilichbozlik kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

Chex dehqon va hunarmandlari XV asrda Rim katolik dini va feodallariga qarshi g'alayon va qo'zg'alonlarida jismoniy mashqlardan harbiy maqsadda samarali foydalanganlar.

O'rta asrda shaharlarning ko'payishi (XI—XIV asrlar) xalq jismoniy madaniyati yangi shakllarining rivojlanishiga olib keldi. Shahar hunarmandlari, mehnatkashlari shaharni himoya qilish maqsadida qilichbozlik va o'q otish bo'yicha «Birodarlik» jamiyatini tuzganlar. Bunday faoliyatlar Fransiya, Italiya, Germaniya, Belgiya, Shveysariya kabi davlatlarda namunali bo'lgan. Shu asosda turli xil o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlar ham tashkil qilingan. Angliyaning maydonlari va keng ko'chalarida sul (futbolga o'xshash o'yin) ommaviy ravishda o'tkazilib, tomoshabinlarni jalb etgan. Shahardagi ommaviy sayllarda akrobatika, kurash, mushtlashish kabi o'yin-mashqlar namoyish etilgan.

Dehqonlar orasida kurash, tosh otish (uloqtirish), yugurish, tayoqlar bilan qilichbozlik, konkida uchish, otda poyga, lapta, to'p bilan o'yin, chim xokkey, chang'ida yurish kabi turlar keng tarqalgan.

O‘rta asr oxirlarida (XV–XVI a.a.) shahar burjualari kichik doirada o‘q otish va qilichbozlik bo‘yicha tuzgan «Birodarlik» («Bratstvo») jamiyatlari mustahkamlana bordi. Shahardagi boylar jismoniy mashqlar va o‘yinlar o‘tkazish uchun maxsus joylar, moslamalar qura boshladi. Bunda asosan tennis, golf, kriketga katta e’tibor berildi.

2.2. Osiyo, Afrika va Amerika qit’alarida jismoniy tarbiya va sport

Osiyo, Amerika va Shimoliy Afrika mamalakatlarida qadimgi an’analarning uzoq saqlanishi bu hududlarda feodal tuzumi va jismoniy madaniyatning sekin rivojlanishiga olib keldi. Shunday bo‘lsa-da, eski an’analar zamirida yangi an’analar paydo bo‘la boshladi.

Osiyo mamlakatlari. O‘rta asrlarda qadimgi jismoniy madaniyat tajribalari Hindistonda keng tarqaldi. Bunda kurash, kamondan o‘q otish, yugurish, ot o‘yinlaridan foydalanildi. Milliy raqslar bilan birgalikda xatxa-yog (hind gimnastikasi), ya’ni gavdaning harakat me’yorlari, marosim (ritual) o‘yinlari va boshqalar ommalasha boshladi.

Xitoy. Dehqonlarning «sariq belbog‘lar» deb atalgan mashg‘ulotlari III–V asrlarda davom etib kelgan. Bunda qurolsiz jang usullari avjiga chiqqan. Chunki hukmdorlar aholidan qurollarni yig‘ib olgan va ularni ishlatishni taqiqlagan edi. VI asrda Xitoy gimnastikasi (ushu) tez rivoj topdi. Bunda qo‘l va oyoqlarni ishlatib jang qilish, kaft va uning qirralari bilan urish amalga oshirilgan. Min sulolasi hukmronligi davrida ushu keng rivojlangan edi. Unda 20 xildan ortiq qurollar va tayoqlar qo‘llanilgan. Lekin o‘q otish qurollarining paydo bo‘lishi bu turlar taraqqiyotini ancha pasaytirdi. Shunga qaramasdan, ushu mashqlaridan davolash maqsadida foydalanish davom etgan. Xitoyda, shuningdek, ot ustida chavgon yugurish va hindlarga xos xatxa-yog bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilib turilgan.

Yaponiya. O‘rta asrlarda Yaponiyada jismoniy madaniyatning rivojlanishi Samuraylar institutining tashkil etilishi

bilan bevosita bog'liqdir. Samuraylar mayda dvoryanlarning harbiy-feodal tabaqasi bo'lib, ularning jismoniy tarbiya tizimi (busido) xilma-xil kurash turlari: sumo, jiu-jiyts va karate, bitta yoki ikkita qilich — kendo bilan jang qilish san'ati, nayza ishlata bilish (noginata), piyoda va otda yugurishda kamondan o'q otish, marosim bellashuvlar, turli xil to'p o'yinlari kabi mashqlarni o'ziga mujassamlashtirgan.

Markaziy Amerika xalqlari. Yevropaliklar mustamlaka qilib olgan davrlargacha bu mintaqada inklar, mayya va aseteklar davlatlari mavjud bo'lgan. XII asrlarda bu mamlakatlarda ma'lum darajada jismoniy tarbiya tizimi mavjud bo'lgan. Bunda davlat miqyosida va oila sharoitida tarbiya berish amalga oshirilgan. Tashkil qilingan maktablarda o'yinlar va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishgan. Kamondan o'q otish, tayoqlarni (nayza) uloqtirish, qilich va qalqon bilan ishlash karatega o'xshash kurash kabi harbiy-jismoniy tayyorgarlik amalga oshirilgan. Inklar va aseteklarda uzoq masofalarga yugurish hayotiy ehtiyoj bo'lib hisoblangan. Ko'pchilik o'yinlar va mashqlar bu xalqlarning diniy marosimlari, urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, qabilalararo o'yinlar, diniy bayramlar, tantanalar, atletik musobaqalar tashkil etilgan. Butun jismoniy tarbiya tizimi aborigen xalqlarning mehnat, harbiy va hayotiy turmushida katta o'rin tutgan. Yevropaliklarning bosqinchilik, talon-taroj qilish, o'ldirish, majburlash kabi harakatlari Amerika xalqlarining jismoniy madaniyat tizimi rivojlanishiga salbiy ta'sir etgan.

Afrika mintaqasidagi xalqlar. O'rta asrlarda Afrika xalqlari orasida mehnat, harbiy ishlar va ijtimoiy turmush orqali jismoniy madaniyat shakllari belgilangan. Jismoniy tarbiya oilada, ovchilar tomonidan qabilada va «xudo»lar uyida berilgan. Ko'pincha musobaqalashish shaklida amalga oshirilgan. Bunda kamondan o'q otish va tayoqlarni mo'ljalga tekkizish (viyel), ustunga kim o'zarga tirmashib chiqish kabilar qo'llanilgan. Raqslar bilan birgalikda harbiy mashqlar qo'shib o'rgatilgan. Yoshlarni harbiy jihatdan tayyorlash maqsadida oilada yoki «xudo»larning uylarida qabila, urug'

boshliqlari rahbarligida turli xil an'anaviy marosimlar tashkil etilgan. Bunda kurash, nayza va lappak uloqtirishdan keng foydalanilgan. O'g'il va qizlardan iborat yoshlarni tarbiyalash tizimida tamtam sadolari ostidagi an'anaviy (ritual) raqslar, turli harakatli o'yinlar, akrobatik mashqlar asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. An'anaviy marosimlar kurashsiz, chidamlilik, epchillik, jasurlikni tarbiyalovchi sport turlarisiz tashkil etilmagan. Bu, o'z navbatida, xalqlarning jipsligi, inoqligi, ahilligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bosqinchilik va mustamlakachilik tazyiqi Afrikada milliy jismoniy madaniyatining ancha susayishiga sabab bo'lgan.

2.3. Uyg'onish davrida jismoniy tarbiya tizimi va pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi

Feodalizm negizida ishlab chiqarish, savdoning o'sishi, shaharlarning kengayishi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga olib keldi. Geografik jihatdan kengayish natijasida markaziy davlatlar vujudga kela boshladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi tabiiy va pedagogik fanlarning taraqqiy etishini ta'minladi. Fan va texnika ishlab chiqarishni kengaytirishga yordam berdi. Leonardo da Vinchi (1452–1519) qushlarni kuzatib, uchuvchi apparatning tuzilishi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirdi.

G'arbiy Yevropa va Rossiyada kitob nashr qilish ishi vujudga keldi. Kemasozlik taraqqiy etdi. Ispanlar, gollandlar va inglizlar Janubiy yarim sharda ko'pgina geografik kashfiyotlar qilishdi. Ruslar Shimoliy muz okeaniga tadqiqot (ekspeditsiya) uyushtirdi. O'q otar qurollarning turlari ko'paydi.

Tabiatshunoslik sohasida inson faoliyatini o'rganishga doir kashfiyotlar qilindi. Leonardo da Vinchi odam gavdasining mutanosibligi va uning harakat mexanikasini o'rgandi. Shveysariyalik Paratselye (1493–1541) shogirdlarini bemor yotgan joylarida o'qitdi, xirurgiya va terapiyaning uzviy bog'liqligini ta'kidladi. Ispan shifokori qon almashishi haqida ba'zi bir ma'lumotlarni bayon etdi. Ingliz olimi Garvey (1578–1657) «Yurak va qon harakati haqida» nomli

kitob yozdi. D.Bekon (1561–1626) faqat kuzatish va tajriba (induksiya, analiz, taqqoslash, tajriba-sinov) chinakam ilmiy usullar, deb isbot qildi.

Burjuaziya mafkurachilari ilohiy qarashlarga qarama-qarshi ravishda inson shaxsini ulug'ladi. Quruq pedagogikaga qarshi, kishining faqat aqlinigina emas, balki tanasini ham tarbiyalashga qaratilgan yangi pedagogika ilgari surildi.

Vittorino da Feltre (1378–1466) Italiyada pedagogika sohasidagi dastlabki gumanistlardan biri bo'lgan. Hukmdorlar va saroy ahli bolalarini tarbiyalash uchun maktab yaratgan. Bunda aqliy va jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor berilib, yalqovlarni ayovsiz jazolaganlar. Vittorino bolalarni sof havoda o'ynatish, suvda suzish va turli jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirdi.

Mashhur italyan gumanist shifokori Iyeronim Merkurialis (1530–1606) gimnastikaga doir 6 ta kitob yozdi. Dastlabki uch kitobini jismoniy mashqlar tarixini yoritishga va keyingi uch kitobini esa jismoniy mashqlarning davolovchi xususiyatlarga bag'ishladi. U ko'p kuch sarf qiluvchi mashqlarni to'la ma'qullamadi va asosan davolovchi jismoniy mashqlarni qo'llab-quvvatladi.

Fransuz gumanitar yozuvchisi Fransua Rable (1483–1553) o'z asarlarini lotin tilida emas, o'z ona tilida yaratgan. Uning «Gargantyua va Pantagryuel» romani xalq orasida sevib o'qilgan. Unda dunyoni ilmiy anglash g'oyasi olg'a surilgan. Uning ta'kidlashicha, o'g'il bolalarning ilohiy kitoblarni o'qishi bema'nilik, undan ko'ra umuman o'qimagani ma'qul, o'quvchilarni, albatta, fikrlash va erkin harakat qilishga o'rgatish lozim.

Rable tarbiyada aniq tartib, ya'ni tozalik, ovqatlanish tartibi va jismoniy mashqlar bo'lishi shartligini ta'kidlagan.

Fransuz Mishel Monten (1533–1592) bolani o'qitish va tarbiyalashda uning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish zarurligini uqtiradi. Tanani tarbiyalash haqida «jonni, tanani emas, balki odamni tarbiyalaydilar», - degan, ya'ni ikkalasini (tan va ruhni) qo'shib tarbiyalash kerakligi xususida qat'iy hukm qilgan. Uning g'oyasi shundayki, bolani shilqim

va chiroyli bo'lishga emas, balki umuman baquvvat va kuchli yigit bo'lishga o'rgatish kerak.

Chexiya gumanisti Yan Amos Komenskiy (1592-1670) ko'zga ko'ringan pedagog bo'lgan. Uning fikricha, tabiat har bir kishiga ma'naviy kamolot imkoniyatlarini bergan, shu sababdan umumiy ta'lim hamma uchun zaruriydir. Demak, barcha joylarda maktab tashkil qilish va ularda barcha bolalar, jumladan, kambag'allarning farzandlari ham o'qitilish kerak, degan g'oyani oldinga suradi Komenskiy.

O'rta asrlarda o'q otish qurollarining kashf etilishi ritsarlik tarbiya tizimi barham topishining muhim sabablaridan biridir. Endilikda shahar va qishloq aholisi o'rtasida jismoniy mashqlar turli xil o'yinlar bilan ommaviy shug'ullanish vaziyati yuzaga kela boshladi. Shahar va qishloqlarda o'zlariga xos bo'lgan an'analar, bayramlarda katta ziyofatlar uyushtirib, kurash, mushtlashish va boshqa mashq-o'yinlar namoyish-ko'rgazmasini tashkil etish keng rivojlandi.

Shu bilan birgalikda shahardagi sinfiy xususiyatga ega bo'lgan guruhlar, oqimlar o'rtasida keskin kurashlar, norozililiklar kuchaydi.

Yangi paydo bo'layotgan kapitalistik tuzumga qarshi ilk sotsial utopistlar vujudga kela boshladi. Ular orasida ingliz Tomas Morning (1478—1535) alohida o'rni bor. U eski feodal va yangi kapitalistik tuzumlarni butunlay rad etdi. Uning yaxshi davlat tuzilishi va yangi orol haqidagi qiziqarli «Utopiya» («orzu» ma'nosida) kitobi e'tiborga loyiqdir. Bu asarda qat'iy kun tartibi (rejim) belgilanib, unga ko'ra ertalab ishlash uchun — 2 soat, tushlik va dam olishga — 2 soat, tushdan so'ng ishlash uchun — 3 soat, kechki ovqat va ko'ngilochar o'yinlarga — 3 soat, uxlash uchun esa — 8 soat belgilangan. Bolalar tarbiyachilar rahbarligida aqliy ta'lim, mehnat ta'limi, axloqiy va jismoniy tarbiya kurslarini o'tishlari shart bo'lgan.

Mor utopistlarning harbiy-jismoniy mashqlariga katta e'tibor berib, qurollar bilan suvda suzish, o'q otish, bolta va boshqa moslamalarni jangda ishlata bilish, oilani himoya qi-

lish hamda qo'shnilarni dushman hujumlaridan saqlash uchun zarurligini uqtiradi.

Italiyalik Tommazo Kampanella (1568–1639) jamiyatda boylar va kambag'allarning bo'lmasligi haqida qayg'uradi. U «Quyosh shahri» nomli kitobini sayohatchi tilidan yozib, ajoyib fikrlarni bildiradi. Ya'ni Quyosh shahrida boy ham, kambag'al ham bo'lmaydi. «Jamoa – barcha kishilarni ayni bir vaqtda boy va shu bilan birga, kambag'al qiladi, hamma narsasi bo'lgani uchun boy bo'ladi, hech qanday mulki bo'lmaganligi uchun kambag'al bo'ladi, ular buyumlarga emas, balki buyumlar ularga xizmat qiladi», – deydi u. «Quyosh shahri»da onalar bolalarini 2 yoshgacha emizib, keyin ularni maxsus tarbiyachiga beradilar. Bunda bolalar sayr, yugurish, turli o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishadi. Yetti yoshli bolalar guruhlarga ajratilib, birlari ma'ruza tinglasa, boshqalari jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar.

Qizlarning 19 va yigitlarning 21 yoshgacha turmush qurishi man etilgan. Ammo 27 yoshdan keiyin turmush qurmaganlar qoralangan. Fohishalik qilganlar avvalo qattiq jazolangan (bo'yniga boshboldoq osilgan), qayta takrorlansa, o'limga mahkum qilingan.

Kampanella «Quyosh shahri» aholisining (solariylar) haq-huquqi, bilimi, mehnati, dam olish va ijtimoiy turmush sharoitlarida tengsizlik bo'lmasligiga erishganligi asosida, kelajak avlodning shu tarzda hayot kechirishlarini orzu qilganligi bilan jahon xalqlari e'tiboriga sazovordir.

Ta'kidlash lozimki, XVI asrda Yevropada kapitalistik tuzumning rivojlanishi davrida jismoniy tarbiya va sport pedagogika nazariyasidan ancha orqada edi. Bu davrda cherkovlarda islohotlar boshlandi. Xristianlikda yangi protestantlik yo'nalishi paydo bo'ldi. Cherkovdagilarning jismoniy tarbiyaga munosabati o'zgardi. Ya'ni yoshlarni jismonan sog'lom qilib tarbiyalash va ularning turli xil bemazagarchiliklardan yiroq bo'lishiga erishishda jismoniy tarbiya, mashqlar va o'yinlardan foydalanishning ijobiy tomonlari tan olindi. Shaxsga sig'inishni tarbiyalovchilar (katolik, protestant cherkovi va h.k.) yoshlarga o'z ta'sirini o'tkazish yo'lida jismoniy tarbiya va sportdan keng foydalanishga o'tadi.

2.4. Olimpiya an'analarini qayta tiklash harakati

Insoniyatning iroda, aql va jismoniy harakatini tarbiyalashga xizmat etuvchi qadimgi Olimpiya bayramlarini qayta tiklash g'oyalari uyg'onish davriga kelib paydo bo'la boshladi. Uning ilk tashabbuskorlaridan biri italiyalik davlat arbobi Matteo Polmiyeri (1406–1476) hisoblanadi. U o'zining «Fuqarolik hayoti haqida» nomli kitobida antik Olimpiya o'yinlarining yoshlarni jismoniy tarbiyalashdagi mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, «Hayot shahri» (Gorod jizni) kitobida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamiyatga xizmat qilish ehtiyojini singdirish inson hayotining ma'naviy me'yorlarini tarkib toptirishning asosi ekanligini e'tirof etgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlaridan ibrat olishni Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, Fridrix Shiller, Mixail Lomonosov, Iyeronim Merkurialis va boshqa donishmandlar ham tavsiya etishgan.

Ba'zi bir davlatlarda qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazish amaliy jihatdan kuchga kirgan. Bunday o'yinlar faqat bir davlat miqyosidagina o'tkazilganligi ko'zga tashlanadi. 1604-yilda Robert Dover (Angliya) yoshlar orasida Olimpiya o'yinlariga o'xshash musobaqa o'tkazishga muvaffaq bo'ladi. Bu voqea «Gotevold o'yinlari» (joyning nomi asosida) nomi bilan tarixda qoldi. Gotevold tepaliklarida o'tkazilgan musobaqalar dasturida rapira, sablya, shpagada qilichbozlik, kurash, futbol (sul) o'yini, bosqon uloqtirish, otda poyga, shaxmat va boshqa o'yinlar bo'lgan. Uilyam Shekspir «Vindgorlik oyimchalar» (Vindgorskiye devushki) asarida «Gotevold tepaliklaridagi Olimpiya o'yinlari» deb uni tilga oladi.

Kapitan Robert Doverning o'yinlari o'ttiz yildan ortiq davr ichida o'tkazib borildi. Uning 1641-yilda vafot etishi bilan uning o'yinlari ham to'xtab qoldi.

Antik Olimpiya o'yinlari timsolidagi musobaqa keyinchalik Germaniya, Shvetsiya, AQSH, Kanada, Gretsiya kabi davlatlarda ham o'tkazilgan. Har bir mamlakatning imkoniyat doirasi va o'zlariga xos xususiyatlari asosida o'yinlar ham

turlicha tus olgan. Masalan, 1845-yilda Kanadada bu «Monreal Olimpiya o'yinlari» nomi bilan o'tkazilgan.

Shu tariqa jahonda Olimpiya o'yinlari xalqaro miqyosida o'tkazishiga asta-sekin zamin tayyorlangan. XIX asrning oxirida bu ish to'la amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, o'rta asrlar jarayonida jismoniy madaniyat yangi shakllar va mazmunlarga ega bo'lgan holda, ularning deyarli barcha vositalari qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyat negizida rivoj topdi. Ularni takomillashtirishda harbiy jismoniy tayyorgarlik tadbirlari, yoshlarni har tomonlama tarbyailash maqsadida tashkil etilgan ritsarlik maktablari va boshqa shu turdagi o'quv muassasalarining o'rni g'oyat katta bo'ldi.

Feodalizm tuzumining rivojlanishi shahar va qishloqlar aholisi o'rtasida o'tkazilgan turli an'analarda, marosimlar o'tkazishda, kurash, boks, qilichbozlik, kamondan o'q otish, otlarda poyga va boshqa turli-tuman o'yinlardan keng foydalanganlar.

Feodal tuzumning yemirilishi va kapitalistik tuzumining shakllana borishi natijasida kelishmovchilik va urushlar ko'payib, o'q otar qurollardan keng foydalanila boshlandi. Shu tariqa jismoniy tarbiya va sportning rivoji zamon ruhi bilan bog'langan holda davom etdi.

XV–XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida gumanistlar va utopistlar tomonidan yoshlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashga doir yangi g'oyalar ilgari surildi. Shu asosda tibbiyot, pedagogika va boshqa fanlar rivojlandi.

Sanoat, qurilish, texnika va boshqa sohalardagi kashfiyotlar davlatlarning iqtisodiy-madaniy jihatdan rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Fan, madaniyat va ta'lim-tarbiyaning yangi yo'nalishlari negizida antik Olimpiya o'yinlari qayta tiklashga urinishlar bo'ldi. Natijada, Shvetsiya, Angliya, Kanada va boshqa bir qator davlatlarda qadimgi Olimpiya o'yinlariga qiyoslab, yangi ko'rinishdagi o'yinlar o'tkazildi va umuman, jamiyatning o'sha davrdagi tuzilishi, diniy hukmronlik sharoitida bunday tadbirlarni muntazam o'tkazib borish, ularni xalqaro miqyosda tashkil qilishga hech bir davlat qodir emas edi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha savollar

1. O‘rta asrlarda jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishni qanday izohlaysiz?
2. Ritsarlik tizimidagi turnirlarning maqsadi nima?
3. Yevropa mamlakatlarida qilichbozlik va o‘q otish jamiyatlarining paydo bo‘lishiga sabab nima?
4. Gumanistlar va sotsial-utopistlarning jismoniy tarbiya haqidagi mulohazalari nimalardan iborat bo‘lgan?
5. Antik Olimpiya o‘yinlarini qayta tiklashga urinishlar qachon va qaysi davlatlarda amalga oshirilgan?
6. O‘rta asrlardagi jismoniy tarbiya sport sohasida kechgan keyingi o‘zgarishlarga qanday ta’sir qildi?
7. O‘rta asrlarda o‘tkazilgan bayramlar va an’anaviy marosimlarda qanday yangi sport turlari, jismoniy mashqlar, o‘yinlar yuzaga kelgan?
8. O‘rta asrlar jismoniy madaniyatini aks ettiruvchi qanday yangi manbalarni (kitoblar, qo‘llanmalar, almanaxlar va h.k.) bilasiz? Ularning mualliflari, ijodkorlari haqida ma’lumotlar to‘plang?
9. O‘rta asr madaniyatiga doir qanday asarlar, kinofilmlarni bilasiz?

III bob. YANGI DAVRDA JISMONIY TARBIYA

Yer yuzida ijtimoy-madaniy turmushning tubdan o'zgarishi o'rta asrlarga kelib bog'lanadi. Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrika qit'alaridagi ilg'or madaniyat vakillari jismoniy tarbiyani inson hayotining uzviy omili ekanligini isbotlashga harakat qildi. Natijada, jismoniy tarbiya vositalarini oilaviy hamda maktab tarbiyasida qo'llanishga erishishdi. Erishilgan ilg'or tajribalar davlatlardan-davlatlarga, qit'alardan-qit'alarga tarqaldi, ya'ni qilichbozlik, o'q otish, kurash, aravada poyga, suzish kabi o'nlab o'yin-mashqlar xalqaro miqyosda qo'llanila boshladi. Bu jihatlar Germaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH va boshqa ko'p davlatlarda jismoniy tarbiyaning rivojlanishi hamda keyinchalik milliy sport turlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Yuqorida qayd etilganidek, jismoniy tarbiya jahonshumul tarixiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, o'tgan davrlardagi xalqaro jismoniy tarbiya tarixida eng muhim bo'lgan sanalarni tilga olish maqsadga muvofiqdir.

XVI–XIX asrlardagi burjua inqilobi feodal tuzumning asosini buzib-yanchib tashladi va kapitalizmning g'alabasini ta'minladi. Bu davrda tabiatshunoslikka doir juda ko'p ilmiy kashfiyotlar qilindi. Moddiy dunyoning barqarorligi va g'ayritabiiy kuchlarning yo'qligi haqidagi fikrlarga olib keldi. Odamning aqli, irodasi va jismoniy fazilatlarining namoyon bo'lishida tarbiya natijasi ko'rina boshladi. Bu hol insonning pedagogikaga bo'lgan qiziqishi ortishiga va jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari amalda bajarilishiga sabab bo'ldi. Jon Lokk (Angliya), Jan Jak Russo (Fransiya), Iogann Pestalossi (Shveysariya)ning pedagogik qarashlari hamda XVIII asrning oxiridagi nemis filantroplarining pedagogik tajribasi jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotning taraqqiy qilishiga katta ta'sir etdi.

Jon Lokk (1632–1704) ingliz burjua inqilobi davrining ko'zga ko'ringan faylasufi, pedagogi bo'lgan. O'sha vaqtlarda ingliz burjuaziyasi o'z mustamlakachilik hukmronligini kengaytirib borar va metropoliyalardagi siyosiy hokimiyat uchun kurashar edi. Ingliz burjuaziyasi faqat o'z metropoliyalaridagina emas, balki chet el mamlakatlarida ham faol harakat qilishga o'z mollarini zo'rlik bilan o'tkazishga, zarur bo'lganda esa kam taraqqiy etgan mamlakat xalqlarini bostirishga va o'ziga bo'ysundirishga qodir bo'lgan.

Lokk o'z falsafiy va pedagogik ta'limotida ingliz burjuaziyasi va unga qo'shilgan dvoryanlarning manfaatini ifoda qildi. U kishining ichki va tashqi tajribasini bilish manbai deb hisobladi. Uningcha, tashqi tajriba bevosita mavjud bo'lgan tashqi moddiy dunyo bo'lib, u kishi tomonidan sezgi a'zolari (tasavvuri) orqali idrok qilinadi. Ichki tajriba esa inson qalbining faoliyati (refleksi), demak, «Bu ikki manba sezgi obyekti sifatida yagona mohiyatni tashkil etadi, barcha g'oyalarimiz ana shu mohiyatdan boshlanadi», - deb e'tirof etgan Lokk. Sezish a'zolarini (sezish, hid bilish, ko'rish, eshitish) takomillashtirish, harakat a'zolarini (qo'l, oyoq) o'stirish, tanani chiniqtirish, foydali amaliy ko'nikmalar (suzish, otda yurish, eshkak eshish, qilichbozlik, o'q otish) hosil qilish, jismoniy kuchlarni yuqori darajada ishga solish uchun iroda kuchi va qobiliyatni kamol toptirish zarurligini ishonchli dalillar bilan isbotlab bergan. Bu g'oyalar o'sha davr ingliz maktablaridagi jismoniy tarbiyaga kuchli ta'sir etgan.

XVIII asrda fransuz ma'rifatchilari Didro, Gelvesiy, Golbax, Russo va boshqalar inson shaxsining shakllanishida tashqi muhitning hal qiluvchi roli to'g'risidagi ta'limotni taraqqiy ettirishdi.

Jan Jak Russo (1712–1778) xususiy mulkni kishilar tengsizligining asosiy sababi deb hisobladi. Shu sababdan, u bu sohada mulkchilikni cheklash tarafdori edi. Russoning «Emil yoki tarbiya» kitobida kishini tabiatga muvofiq ravishda individual tarbiyalash g'oyasi olg'a suriladi. Bu fransuz burjuaziyasi xohishiga muvofiq kelar edi.

Russoning fikricha, inson erkin bo'lib tug'iladi, lekin u yo'rgakdalik chog'idayoq, dastlab o'z odatlarining quliga, so'ngra esa jamiyat quliga aylanadi. Hech qanday odatlarga ega bo'lmaslik — eng yaxshi odatdir. «Tana jondan ilgari tug'iladi, shuning uchun dastlab tana to'g'risida g'amxo'rlik qilish kerak, bu har ikkala jins uchun ham umumiy bo'lgan tartibdir»,- deydi u.

Russo jismoniy tarbiyani tabiiy ozod insonni tarkib toptirishning asosi, deb hisobladi. Bunda aqliy va mehnat tarbiyasini qo'shib olib borish zarurligini o'qtiradi. U keng xalq ommasining emas, balki mayda burjua sinfining tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qildi.

Shveysariyalik buyuk pedagog-demokrat Iogann Pestalossi (1776—1827) xalq maorifi g'oyasini quvvatladi. U tarbiya asosini odamning tabiiy qobiliyatlarini o'stirishdan, tarbiya maqsadini odamning ma'naviy qiyofasini tarkib toptirishdan iborat, deb bildi. Uning fikricha, tana faoliyati harakatlarda namoyon bo'ladi, harakatlar esa bo'g'inlar tuzilishi va harakatchanligiga bog'liqdir. U bo'g'inlar uchun gimnastika elementlarini ishlab chiqdi. Bunda barcha harakatlar o'z mazmunini topgan edi. Pestalossi elementar gimnastikani o'ziga xos «mehnat malakalari alifbosi» deb hisobladi, ya'ni ko'tarish, irg'itish yoki uloqtirish, aylantirish, urish va h.k. qilishga o'rgatish zarur deb topdi.

XVIII asrning 70—80-yillarida German davlatlarida yangi yo'nalishdagi maktablar paydo bo'ldi. Bular filantroplar (insonparvarlar) ochgan maktablar edi. O'qituvchilar bunday maktablarda akademistlar, pedagogistlar va fabulyantlar kabi guruhlarga bo'linishgan. Akademitslar — aslzodalar, pedagogistlar — amaldorlar, fabulyantlar mehnatkashlarning farzandlari bo'lgan. Bunday tartib filantroplarning feodal tabaqachilik tartiblariga qarshi emasligidan dalolat berar edi.

Filantropinlardagi gimnastikaning mashhur rahbarlari Gerxard Fit (1763—1836) va Ieogxann Guts-Muts (1759—1839) kabilar edi. G.Fit «Jismoniy tarbiya ensiklopediyasi tajribalari» nomli uch tomli kitob yozdi. Kitoblarda jismoniy tarbiyaning qadimgi va o'sha davrlardagi tarixi, uning tarbiyaviy mohiyati aks ettirildi.

I.Guts-Muts «Yoshlar uchun gimnastika» kitobini yozdi (1713). Bu kitobdan Yevropa davlatlarida keng foydalandilar. Chunki muallif kitobida jismoniy tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlari, ayniqsa, mashqlarning aniq tasviri va ularning qo'llanish usullari bilan qo'shib bergan edi. U tasvirlagan gimnastik mashqlar sirasiga kurash, yugurish, sakrash, uloqtirish, irg'itish, suzish, arqon, shoti, langarcho'p bilan sakrash va daraxtlarga osilib-tirmashib chiqishga doir mashqlar hamda qo'l mehnati, o'yinlar kiradi.

Jismoniy tarbiyaning pedagogik nazariyasi bu davrlarda turli xilda mavjud bo'lgan. Ingliz faylasufi va sotsiologi Gerbert Spenser (1820–1903) jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloq tarbiyasini qo'shib olib borishni quvvatladi. Shuningdek, nemis faylasufi Fridrix Nixil (1844–1889) va boshqalar sport-gimnastika harakatini yangi davrda keng yoyishga xizmat qildi.

Fransuz pedagogi Jorj Demeni (1850–1917) fiziologiya va jismoniy mashqlar bo'yicha mutaxassis edi. «Jismoniy tarbiyaning ilmiy asoslari» (1903), «Yoshlar jismoniy tarbiyasi» (1917) kabi kitoblarini yozdi. J.Demeni 1880-yilda Parijda «Muqobil gimnastika» klubini tashkil etdi. U shvedlar, nemislar va boshqa xalqlarning gimnastika tizimini izchil ravishda o'rgandi va tanqid qildi. Olim umumrivojlantiruvchi tabiiy mashqlar (yurish, yugurish, sakrashlar, yuk ko'tarish, osilish, uloqtirish, himoya va hujum mashqlari, qo'l, oyoq, gavda harakatlari va h.k.) bajarishning foydali jihatlarini asoslab berdi, bolalar, yoshlar va xotin-qizlar gimnastikasi tizimini ishlab chiqdi. Bu bilan gavda harakatlarini fiziologik asoslarga moslashtirish zarurligini ta'kidladi.

3.1. Gimnastika tizimlari

XIX asrda iqtisod, siyosat, fan va texnikaning rivojlanishi natijasida jismoniy madaniyat ham rivoj topdi. Ayniqsa, harbiy tayyorgarlikda jismoniy tarbiya vositalari maqsadli ravishda qo'llana boshlandi. Ayniqsa, nemislar, shvedlar va fransuzlarning o'zlariga xos gimnastika tizimlari rivoj topdi.

Gimnastika tizimi uchun oddiy mashqlargina emas, yengil atletika, suzish, boks, qilichbozlik, harbiy qurollardan otish va boshqa ko'p mashqlar asos qilib olindi. Bunday tizimlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash bo'yicha mutaxassislar paydo bo'la boshladi.

1810-yilda Berlinda «Pestalossi do'stlari jamiyati» qoshida birinchi gimnastika to'garagi tashkil topdi. Yoshlar harakatiga Fridrix Yan (1778–1852) boshchilik qildi. 1811-yilda Berlin yaqinidagi maydonda o'yinlar tashkil qilindi. Bu joyda gimnastika asbob-uskunalari o'rnatildi.

1812-yil bahoriga kelib, to'garak qatnashchilari soni 500 kishiga yetdi. Ularning mashg'ulotlarida gimnastika va harbiy sayohat-mashqlariga keng o'rin berildi.

Yan «Gimnastika» so'zini «Turnkunst» (epchillik san'ati), shug'ullanuvchilarni esa turnerlar deb atadi. Keyingi yillarda turnerlar harakati ancha susaydi. Faqat 1862-yilda barcha turnerlar jamiyatlari Umumgermaniya gimnastika ittifoqiga (Doyche Turner Shaft) birlashdi. Ularning gimnastika tizimida mashqlarni o'rgatish usullari, mashqlar klassifikatsiyasi (tasnifi), anatomik-fiziologik xususiyatlari, yuklanma berish me'yorlari bo'yicha yagona talab va nazariya yo'q edi. Adolf Shpiss (1810–1853) maktabdagi gimnastika darslarining tuzilishini ishlab chiqdi. Uning ta'limoti nemis gimnastika tizimini to'ldirdi va XX asrgacha davom etdi.

Shvetsiya gimnastika tizimi. Per Ling (1776–1839) o'z hukumatining taklifiga ko'ra, German davlatlari va Daniyada jismoniy tarbiyaning ahvoli bilan tanishdi. U 1813-yilda Stokgolmda gimnastika institutini tashkil etdi. Gimnastikaning to'rt turini – harbiy gimnastika, pedagogik gimnastika, shifobaxsh gimnastika va estetik gimnastikani alohida ajratdi. Bu turlar maktablarda ham o'rgatila boshlandi. Per Lingning o'g'li Yalmar Ling (1820–1886) boshchiligida gimnastika asboblari takomillashtirildi, yangi gimnastika devorchasi, uzun kursilar xari (brevno), langar cho'plar (shest), narvonlar, arqonlar, kon va h.k. yangi usulda yaratildi. Darslar ko'p qismli (12–18) qilib o'tkaziladigan bo'ldi. Shu sababli, uni keyingi mutaxassislar, nazoratchilar tanqid ostiga olishgan.

Ta'kidlash lozimki, shvedlarning gimnastika tizimi ko'pgina Yevropa mamlakalari, hatto Amerikada ham keng qo'llanilgan.

Fransuzlar gimnastika tizimi. Fransiyadagi inqilobiy ozodlik urushlari yoshlarning harbiy ishga ommaviy ravishda qiziqishi va yoshlar komandalarining vujudga kelishiga (1771) imkon berdi. Napoleon davrida yoshlar komandalari maktab batalonlariga aylantirilib, hukumat tomonidan quvvatlangan.

Mamlakatda gimnastika joriy qilish polkovnik Fransisko Amorosga (1770–1848) yuklatildi. U 1819-yilda normal fuqaro va harbiy gimnastika maktabini tashkil qildi. Uning «Jismoniy, gimnastika va axloqiy tarbiyaga doir qo'llanma» (1830) kitobi barcha maktablarga joriy etildi.

Dvoryanlar doirasida qilichbozlik keng rivojlandi. XIX asr o'rtalarida velosiped sporti, golf, kriket, Laun-Tennis, ov, kamondan, to'pponcha va miltiqdan o'q otish turlariga e'tibor kuchaydi.

«Sokol» gimnastika tizimi. Chexiyada, so'ngra esa Avstro-Vengriyaning slavyan xalqlari o'rtasida XIX asrning 60-yillarida «Sokol» (Lochin) gimnastika harakati vujudga keldi. Chex burjuaziyasining nemis burjuaziyasi tomonidan siqib qo'yilishi sababli, ular o'z milliy ozodligiga intilib, «Sokol» harakatini yaratdilar. Bu yoshlarning «Sokol» jamiyati tuzilishiga olib keldi. 1871-yilda chexiyada 130 ta «Sokol» jamiyati mavjud bo'lgan. Jamiyatda chex jismoniy tarbiyasining milliy tizimi tarkib topib, ayrim jihatlari nemis gimnastikasiga o'xshagan. Tizimda mashqlarning gavdaga ta'siri emas, balki bajariladigan harakatlarga ko'proq e'tibor berilgan. Keyinchalik gimnastika mashqlarining odam sog'ligiga va uning irodasiga bo'lgan ta'sirini e'tirof etib, kitoblar yozishgan. Lekin ularda o'qitish usullari o'z ifodasini topmadi. Shunday bo'lsa-da, bu nemislar gimnastikasiga nisbatan ancha boy va uslubiy jihatdan ancha mukammal bo'lgan. E'tiborli tomoni shundaki, o'qituvchilar ba'zi mashqlarni o'n martalab takrorlash o'rniga murakkab mashqlar majmuini (kompleks) bajartirish yo'llariga o'tdilar.

Chexlar saf mashqlari va kiyimlarga juda katta e'tibor berishgan. Gavda hamda oyoqlarning nozik, aniq va tashqi ko'rinishi go'zal harakatlarigina amalda qo'llanilgan. Gimnastikani juda ham ziynatli qilish uchun har xil buyumlardan: tayoqlar, sharflar, qadimiy qurol turlari nayzalar, qalqonlar va h.k.dan foydalanishgan.

Turnik, qo'sh cho'plar (brusya), konda bajariladigan mashqlar, shuningdek, erkin mashqlar musiqa jo'rligida bajarilib, turli buyumlar yordamida ijro etiladigan mashqlar, piramidalar, akrobatika mashqlari sinchiklab ishlab chiqilgan. Ular quyidagi to'rt guruhga ajratilgan:

1. Asboblarsiz bajariladigan mashqlar – erkin mashqlar va h.k.
2. Asboblarda bajariladigan mashqlar – buyumlar bilan va asboblar ustida bajariladigan mashqlar.
3. Guruh bo'lib bajariladigan mashqlar – piramidalar, o'yinlar.
4. Harbiy mashqlar – qilichbozlik, kurash, mushtlashish (boks) mashqlari.

«Sokol» gimnastikasining asosiy muallifi, mashqlarning asosiy texnikasi va usullarini ishlab chiqqan kishi estetika professori Miroslav Tirsh (1832–1884) edi.

Shunday qilib, yangi davrda gimnastikaning pedagogik, uslubiyat va tashkiliy asoslari yuzaga keldi hamda rivoj topdi.

3.2. Sport – o'yin tizimlari

Sport–o'yinlar tizimi gimnastika tizimi qatorida jahondagi juda ko'p mamlakatlarda tashkil topdi. Ularning tashkiliy va uslubiy shakllari o'ziga xos tamoyillarda tarkib topdi. Uning asosida musobaqalar uchun mo'ljallangan va yaxshi natijalarga erishishni ko'zda tutgan mashqlar ifodalangan edi. Tizim turli mamlakat xalqlarining turmush sharoi-tida uchraydigan xilma-xil mashqlar va o'yinlarni o'zida mujassamlagan. Shahar va qishloqlarda o'tkaziladigan bayramlarda kurashchilar, mushtlashuvchilar, akrobatlar, qilichbozlar, yugurish va sakrash ustalari, polvonlar o'z mahoratlarini

namoyish qilishgan. Shimoliy mamlakatlarda chang'ida va konkida uchish musobaqalari rasm bo'lgan.

Shahar va qishloqlarning atoqli kishilari orasida otda yurish, qilichbozlik, golf o'yini, kriket, kamon va to'p-ponchadan o'q otish, turli xil ovlar ancha rivojlangan. Shu davrda professional kurashchilar, bokschilar, girya (tosh) ko'taruvchilar, akrobatlarning uchrashuvlari, bahslari boshlangan. Ko'pgina davlatlarda o'quv yurtlari (maktablar, kollejlar, universitetlar) tashkil qilinib, ularda akademik sport va sport o'yinlari rivojlantirishga rahnamolik kuchaygan edi.

Buyuk Britaniyada sport-o'yin tizimi. XVII asr o'rtalaridagi burjua inqilobi natijasida Buyuk Britaniyada iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish yuzaga kelib, u yirik kapitalistik mamlakatga aylandi. Shu tariqa Buyuk Britaniyada boshqa mamlakatlarga nisbatan avvalroq sport-o'yin tizimi shakllandi. Boshqa mamlakatlarni bosib olish, mustamlakachilik yo'li bilan o'z boyligini oshirdi va davlatni mustahkamladi. Bunda ulkan dengiz floti va harakatchan ekspeditsiya bo'limlari (otryadlar) muhim rol o'ynadi. Ular kollejlar, universitetlar va harbiy o'quv yurtlari bitiruvchilaridan iborat edi.

Buyuk Britaniyada sport—o'yinlar tizimining ilk asoschisi Regbi shahridagi kollej direktori pedagog Tomas Arnald (1795—1842) hisoblanadi. U o'z faoliyatida o'quvchilarning harakatchanligi va faolligini rivojlantiruvchi, qiyin sharoitlarga tezda mo'ljal olish, qo'rqmaslikni tarbiyalovchi sport turlariga katta e'tibor berdi. Bular jumlasiga, yengil atletika, boks, eshkak eshish, suzish, regbi, futbol, kriketni kiritdi. Uning ta'limoti va tuzgan tizimi mamlakat va chet ellardagi o'quv yurtlarida keng qo'llanildi.

AQSHda sport va o'yinlar. Sport- o'yin tizimi AQSHda keng tatbiq qilina boshlandi. Pestalossi (XIX asrning 20—30-yillari) ta'limotining yoyilishi sababli mamlakatning turli o'quv yurtlari, universitetlarida jismoniy tarbiya darslari o'qitila boshlandi. Shu davrning 50—70-yillarida ba'zi sport klublari tashkil etilib, musobaqalar o'tkazildi.

AQSHning milliy aholisi — hindular orasida turli xil o'yinlar davom etgan. Ular qilichbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish, uzoq masofalarga yugurish, sakrashlar, kurash va boshqa mashqlar bilan doimiy shug'ullanganlar. Shuningdek, Yevropadan, ayniqsa, Angliyadan o'tgan sport-o'yinlar AQSHga keng tarqaladi.

Aristokartlarning o'z vaziyatlarini mustahkamlab olishlarida sport manfaat keltiruvchi omil bo'lib qoldi. Ular oddiy xalqdan ajralib turish maqsadida sport ishqibozlarining nizomini ishlab chiqadi (Buyuk Britaniya 1864). Bunda oddiy mehnatkashlarning musobaqalarda qatnashishi mumkin emasligi ko'rsatilgan. Faqat XIX asr oxirlarida inqiloblarning kuchayishi sababli, yoshlar sport musobaqalarida cheklangan holda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladilar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa).

Keyingi yillar mobaynida bir qator yirik mamlakatlarda gimnastika, sport o'yinlarining ko'pgina turlari shakllandi va rivoj topdi. Bu obyektiv hodisa, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatining mahsuli edi.

Harbiy, skaut va boshqa tashkilotlarda sport. XIX asr oxiri va XX asr boshida sport-gimnastika harakati rivojlanishida harbiy fanlarning takomillashuvi va harbiy xizmat muddatlarining qisqarishi muhim rol o'ynadi. Ko'pgina mamlakatlarda harbiy xizmat muddati 4—6 yilga kamaytirildi. Bu, o'z navbatida, xizmatchilarni uzluksiz tayyorlab turish va chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishni taqozo etdi. Shu sababdan, hukumat harbiy doiradagilarning talablariga asosan maktablar, universitetlar va sport jamiyatlarida jismoniy tarbiyani kuchaytirishga qaror qildi. Eski jismoniy tarbiya tizimlari o'rniga yangi va takomillashgan tizimlar ishlab chiqila boshladi.

Maktablar, universitetlarning o'quv dasturlariga sport va o'yinlar kiritildi. Fransiya, Angliya, AQSH, Shveysariya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda ommaviy maktablar qatorida «Yangi maktab»lar yuzaga keladi. Bu maktablar internat xususiyatiga ega bo'lib, qiziquvchilarning katta mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatgan. O'qitish uchun maxsus mutaxas-

sislar taklif etilgan. Maktab maydoni va atroflarida sport musobaqalari va o'yinlar tashkil qilingan. Ular shaharlarning eng go'zal va diqqatga sazovor joylarida o'tkazilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada yoshlarni tarbiyalashda skaut bo'limlariga (otryad) katta e'tibor berildi. Bu bo'lim yoshlar tashkiloti hisoblangan. Skaut otryadlari-ning asoschisi ingliz harbiy generali Baden Pauel (1857–1941) edi.

Burjuaziya yoshlarga o'z ta'sirini o'tkazish maqsadida sport rivojini rag'batlantirishni boshqa tashkilotlarga ham singdiradi.

AQSHda 1870-yilda yoshlarning xristian tashkilotlarida sport bilan shug'ullantirish ishlari amalga oshirildi. Bunda shved va nemis gimnastika tizimi mazmuni va usullaridan foydalanildi. O'rgatishda diniy xodimlar ruh (jon), aql va tana majmuidagi tushunchalar asosida sport o'yinlarini qo'lladi. AQSH xristian yoshlar ittifoqining g'oyalari, ish shakllari va usullari Yevropa mamlakatlariga ham yoyildi.

Ishchi sportining vujudga kelishi va rivojlanishi. Jismoniy tarbiya harakatining yanada kengroq yoyilishida ishchilar sport klubining tashkil qilinishi va rivojlanishi alohida o'rinda turadi. XIX asrning ikkinchi yarmida inqiloblarning ko'payishi va kuchayishi natijasida demokratiyaning amalga oshishiga imkon yaratildi. Bu esa havaskorlik sporti, gimnastika va turistik (sayohat) tashkilotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarining ko'payishi, proletariatning (ishsiz va qashshoqlar) zavod-fabrikalarga ishga jalb etilishi, siyosiy partiyalarning, kasaba uyushmalarining ko'payishi va h.k. ham bunga ko'mak berdi.

Birinchi marotaba 1850-yilda Germaniyada sport tashkilotlari tuzila boshlandi. Lekin reyxstagning 1878-yildagi «Qat'iy qonun»i asosida sotsialistik partiyagina emas, hatto kasaba uyushmalari va gimnastika klublari ham ta'qib qilindi. «Qat'iy qonun»ning bekor qilinishi bilan (90 y.) ishchilar sport tashkilotlari yangidan qad ko'tardi. Shu davrda Berlin, Leypsig va boshqa shaharlarda Ishchilar gimnastika tashkiloti ittifoqining yig'ilishlari bo'ldi. 1813-yilda Germaniya Ishchilar sport uyushmasi tashkil etildi. XX asr boshlarida bun-

day tashkilotlar Vengriya, Belgiya, Chexiya, Bolgariya va boshqa mamlakatlarda ham ta'sis etildi.

Tadbirkorlik sport klublari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ular zavod, fabrika va turli muassasalarning rahbarlari tomonidan tashkil etilib, ishchi va xizmatchilarga qaratilgan. Bu faoliyat faqat sport va turizm bilan shug'ullanishgagina qaratilib qolmasdan, ishchi va xizmatchilarning rahbarlari bilan aloqasini yaxshilash hamda turli oqimlarga qo'shilmasligining oldini olishni ham nazarda tutgan.

Tadbirkorlik sport va gimnastika tashkilotlari Germaniya, AQSH, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda ham vujudga keldi. 1913-yil Gente shahrida (Belgiya) Germaniya, Fransiya, Belgiya, Avstriya mamlakatlarining ishchilar sport tashkilotlari vakillari «Xalqaro ishchilar madaniyat va sport uyushmasi» Markaziy byurosini tuzdi. U 1914-yil fevraldan boshlab Bryusselda o'z faoliyatini boshladi. Birinchi jahon urushi yillarida ham bu tashkilot o'z faoliyatini susaytirmadi.

3.3. Jismoniy madaniyatda rekreatsion harakatlar

Rekreatsiya — qayta tiklash, sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish ma'nolarini bildiradi. Jismoniy madaniyatning taraqqiyotida rekreatsion harakat muhim o'rin tutadi. Chunki u faol dam olishning mujassamlashgan vosita, usullaridan hisoblanadi.

Rekreatsion jismoniy madaniyat harakatining rivojlanishiga obyektiv sabablar ko'p. Ya'ni zavod-fabrikalar, maktablar va boshqa joylarni qurish uchun joylarni band qilish, shaharlarning kengayishi, ekologiyaning buzilishi, ishchi va mehnatkashlar ish vaqtining ko'payishi, dam olish hamda hordiq chiqarishga imkoniyatlarning kamayishidir. Yoshlar o'rtasida ichish, chekish, bezorilik va tartibsizlikning o'sishi ham ularga qarshi tadbirlar olib borishni taqozo etdi. Yana bir tomoni shundaki, fan-texnika taraqqiyoti va ba'zi kishilarning turmush sharoiti faol harakat qilishdan orqada qolib ketdi. Natijada, gipodinamiya hollari rivojlana boshladi. Bularning barchasi salomatlikning susayishi va kasalliklarning

ko'payishiga olib keldi. Ana shu illatlardan saqlanish yo'lida jismoniy tarbiyadan foydalanish ishlari shakllandi. Bu yillarda birinchilardan bo'lib Angliya XIX asrning 70-yillarida harakat qildi va Londonda o'yinlar uchun maydonlar tashkil qilindi, istirohat bog'lari barpo etildi «Sotsialniy kavartal» (ijtimoiy hudud) harakatining faollari sayrlar, o'smirlar va katta yoshdagilar bilan o'yinlar o'tkazishdi. XX asrning 80–90-yillarida shunga o'xshash istirohat va ko'ngil ochish bog'lari AQSH, Germaniya, Polshada (Iordan bog'i) Kanada, Fransiya, Avstraliya, Urugvay va boqsha mamlakatlarda ham bunyod etildi.

Lyuter Gulik. Rekreatsion harakatni davlat miqyosida tashkil etuvchilardan biri amerikalik shifokor Lyuter Gulik (1866–1918) hisoblanadi. Bu harakatning mohiyatini ilmiy asoslab berish unga tegishlidir. XIX asr o'rtalaridayoq AQSHda «O'yinlar uchun maydonlar kerak» degan harakat mavjud edi. Uning «Sof havo» dasturi asosida bolalar uchun yozgi dam olish oromgohi tashkil qilingan. Boston shahrida 1868-yilda birinchi marotaba o'yinlar uchun maydonlar qurilgan. 1861-yilda Vashington atrofida yozgi dam olish oromgohi qurilgan. Shu davrlarda ilk bor rekreatsion klublar vujudga kela boshladi. 1855-yilda sog'liqni tiklash va jismoniy tarbiya Amerika Assotsiatsiyasi ta'sis etilib, u o'yin maydonlari va sog'lomlashtirish oromgohlarini qurishda yordam berdi. Shunga o'xshash muassasalar boshqa davlatlarda ham tashkil qilindi. Ular Germaniyada «Yoshlar va kattalarning o'yiniga ko'maklashish Markaziy komissiyasi», Daniyada «O'qituvchilar o'yiniga ko'maklashish milliy komissiyasi» Urugvayda – park va sport milliy kengashi, Polshada – yoshlarning o'yini va hordiq chiqarish komissiyasi, o'yinlar va sayrlar bo'yicha Shveysariya jamiyati va hokazodan iborat bo'lgan.

Rekreatsiya (sog'lomlashtirish, qayta tiklash) tizimidan yugurish va yurish, suzish va eshkak eshish, chang'i va konkida uchish, gimnastika va velosipedda yurish, xalq o'yinlari va raqslar, piyoda sayohatlar kabi turlar o'rin olgan. Uning dasturida, shuningdek, voleybol, basketbol, qo'l to'pi

(gandbol), beysbol va boshqa o'yinlar ixchamlashtirilgan qoidalar bo'yicha tashkil qilingan. Gimnastikachilar, akrobatlar, girya (tosh) ko'taruvchilar va boshqalarning namunaviy chiqishlari o'tkazib borilgan.

Uyushmalarda shifokor nazorati va maslahatlari, uqalash (massaj) xizmatlari tashkil qilingan, suv va fiziomuolajalar amalga oshirilgan, shug'ullanuvchilarga madaniy-ma'rifiy xizmatlar uyushtirilgan. Bu harakatning boshida xayriya tashkilotlari (rahm-shafqat va salomatlik, hushyorlik, tabiatni sevuvchilar va h.k. jamiyatlari) turib, mazkur ishlarni boshqarganlar.

Rekreatsiya ishlari tijorat (biznes) uchun muhim bo'lganligi sababli bu faoliyatlarni keyinchalik kommersiya sohasi egallab oladi. Shu jihatdan ham, rekreatsiya tizimiga faqat shifokorlar, pedagoglar hamkorligigina emas, balki ishlab chiqarish doiralari ham kirib keldi.

Ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiyaning deyarli barcha vositalari va ularni tashkil qilishning o'ziga xos turli usullari sportni rivojlantirish bilan bir qatorda aholining salomatligini yaxshilash, tiklash, rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Buning ilmiy-nazariy asoslari va ijtimoiy-pedagogik mohiyatini o'rganish, erishilgan ilg'or tajribalarni amalda qo'llash barobarida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ancha ijobiy ishlar qilinganligi ma'lumdir.

Jahondagi davlatlarning o'ziga xos xususiyatlari, siyosiy-iqtisodiy, moddiy tizimlari mavjud. Shu asosda xalqaro miqyosda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning ham turli yo'nalishlari mavjuddir.

3.4. Havaskorlik va professional sport

So'nggi davrda sport keng qanot yozib taraqqiy qila boshladi. Kollejlar va universitetlardagi sport keng jamoatchilik doirasiga yoyilib, jismonan chiniqish va faol dam olish vositasiga aylana bordi. XIX asr oxirlarida sport havaskorlik va professional darajasiga chiqib oldi. Bu 1894-yil Parijda havaskorlik sportining tamoyillarini o'rganish va uni keng

yoyishga bag'ishlangan Xalqaro Kongressda rasmiy tasdiqlangan.

Havaskorlik sporti. Havaskorlik sportiga maqom (status) berishdan maqsad aristokratik sport doirasidagilar va boshqa sohalardagi sportchilarni chegaralash, o'z navbatida esa jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi ishchilar, sport sohasidagi mutaxassislar, murabbiylar, pedagoglarga keng imkoniyat yaratib berishdan iborat edi.

Mehnat jarayonida sport bilan shug'ullanib chiniqish va yana ish haqi olish havaskorlikka ziddir, degan g'oya paydo bo'ldi. Shu sababdan, bu jarayon professionallikni yuzaga keltirdi. Shu tariqa klublar tashkil etilib, havaskorlik sporti harakati rivojlana boshladi. Klublar ham, davlat ham xususiy ko'rinishga ega edi. Chunki ishchilardan yig'ilgan a'zolik badallari klub xarajatlarini qoplay olmas edi. Avvallari faqat bir sport turi bo'yicha klublar tashkil etildi. Keyinchalik esa bir necha sport turlari (polisport) bo'yicha klublar yuzaga keldi. Shular qatorida sport jamiyatlari tashkil etila boshladi. Sport harakatining rivojlanishi musobaqalarning qoidalarini ixchamlashtirish, rekordlarni rasmiylashtirish, axborotlarni yig'ish kabi faoliyatlarni yuritishni taqozo qildi. Bu, o'z navbatida, avvalo mahalliy va milliy, keyinchalik ba'zi bir sport turlari bo'yicha xalqaro uyushmalarni tashkil qilishga olib keldi, ya'ni ittifoqlar (soyuz), ligalar (yetakchi), federatsiyalar (uyushma) yuzaga keldi.

Birinchi milliy uyushma (soyuz) – AQSHning beysbol milliy federatsiyasi edi. U 1858-yilda ta'sis etilgan. Oradan besh yil o'tgach (1863 y.), ingliz futbol ligasi vujudga keldi. Keyinchalik esa gimnastika, qilichbozlik, boks va boshqa sport turlari bo'yicha milliy uyushmalar Yevropa, Amerika, Osiyo, Avstraliya mamlakatlarida ham tashkil qilindi.

Sport harakatining kengayishi, qit'alarda milliy sport uyushmalarining tashkil etilishi, xalqaro sport federatsiyalarining ta'sis etilishi va musobaqalar o'tkazib turilishi xalqaro Olimpiya o'ynlarini tiklash va o'tkazishga olib keldi. Bu haqda alohida bobda tanishish mumkin. (II qism, VII bob).

Professional sport. Havaskorlik sporti qatorida professional sport ham rivoj topdi. XVII–XVIII asrlarda mavjud bo'lgan sovrinli sport («Prizovoy sport») o'rniga hozirgi davr professional sporti paydo bo'ldi, bu savdo–ishlab chiqarish va moliyaviy kapital bilan uzviy bog'liq edi. Professional sportchini sotib olish va sotish mumkinligi sababli yollanma ish kuchi predmetiga aylanadi. Chunki u tovarlarni reklama qi-lish va boshqa sohalarda katta foyda keltira boshladi. Professional sportchi va tadbirkorlarning (menejer) o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida rasmiylashtiriladi. «Qanday bo'lmasin g'alaba» shiori ostida katta pul evaziga barcha joylarda reklama qilish professionalizm yo'lida amalga oshirib borildi. Sportchilarga giyohvand moddalar (doping) berish, ularning jismoniy, ma'naviy xususiyatlari sun'iy ravishda kuchaytirildi. Professional sport ko'rgazmalarida jinoyatkorlik ishlari ham amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi. Bunday jarayonlarni tashkil qilishda amerikaliklar eng avval ish boshlagan. Amerikalik mutafakkir yozuvchilar X.Marti, E.X.Xeminguey, J.London kabilarning asarlarida professional sportining qonli oqibatlari va xalq ommasining ongsiz ra-vishda tomoshalarga intilishlari achinarli hol sifatida ifoda etilgan.

Burjuaziya professional sportni rivojlantirish bilan kassa yig'imini, reklamalar, turli xil ayyorlik yo'llari bilan katta foydani qo'lga kiritadi.

Professional sport asta-sekin kurash, boks, beysbol, futbol, basketbol, tennis, avtomotopoyga, velosiped, tog' chang'isi va boshqa sport turlarida ham ildiz ota boshladi hamda jahonga keng tarqaldi. Professional sportning salbiy tomonlari bilan birgalikda uning targ'ibot yo'lidagi ba'zi ijobiy xususiyatlarini ham tan olishga to'g'ri keladi. Ya'ni ommaning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, yoshlarni sport, o'yin va gimnastika bo'yicha tashkil qilingan klublarga jalb etishda bu sport harakatining o'ziga xos xizmatlari mavjud bo'lgan.

3.5. Birinchi jahon urushi arafasi va urush yillarida jismoniy tarbiya va sport

Birinchi jahon urushi arafasi, urush yillarida jismoniy tarbiya va sportni milliylashtirish avjiga chiqdi. Imperialistik hokimiyat harbiy qurollanishni kuchaytirish, o'rinbosarlarni (rezerv) harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlashishini yaxshilashga katta kuch sarf qila boshladi. 1911-yildan boshlab Germaniyadagi sport uyushmalarining barcha yo'riqnoma va dasturlari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga da'vat etadi. Bunda ko'proq harbiy-sport o'yinlari, katta guruhda yurishlar (forsirovanniy marsh), sport va motorlashgan klublar tashkil qilish avjiga chiqdi. Nemis maktablarida harbiy-jismoniy tayyorgarlik darslari tashkil qilinib, haftada 3 soatgacha mashg'ulot o'tkazila boshlandi va har kuni 10 daqiqali gimnastika va yurish (marshirovka) tashkil qilindi.

Fransuz harbiy leytenanti Jorj Eber (1875–1957) o'zining harbiy jismoniy tayyorgarlik usulini tashkil etdi. Bunda yurish, sakrashlar, yuk ko'tarish, uloqtirish, suzish, himoya va hujum kabi jismoniy mashqlarga tayanildi. Shuningdek, u harbiylarga miltiq, to'pponcha, shpagadan foydalanish, otda yurish, mototsikl haydash, qayiqlarda eshkak eshish, yelkanlarni tiklash, belkurak, lom, arra, bolta va bolg'alarni qo'llay bilish kabi sifatlarni tezda o'zlashtirishni tavsiya etdi.

Eber sportga qarshi bo'lib, faqat sportdagi professionallikning jiddiy tarafdori edi. U «Sport jismoniy madaniyatga qarshi» nomli kitobini yozadi. U shu sohaga rahbarlik qilsada, ilmiy tayyorgarlikka ega emas edi va o'z uslubiyatini faqat tajribalar asosida tashkil etadi. Eber Demenidan farqli ravishda xotin-qizlarning jismoniy tarbiyasiga qarshi noilmiy fikrlar bildiradi. Uning fikricha, erkaklarning mashqlarini xotin-qizlar ham bajarishi lozim. Buni o'rgatilgan hayvonlar misolida ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi.

Eberning uslubiyatini Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlardagi harbiy o'quv yurtlarida harbiy-jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida qo'lladilar.

Jismoniy tarbiyani milliylashtirish AQSH, Angliya va boshqa mamlakatlarda ham amalga oshirildi.

O‘q otish jamiyatlari, jismoniy va harbiy tayyorgarlik qo‘mitalari, skautlar jangovor otryadlarining tashkil etilishi, shuningdek, o‘quv yurtlari dasturlariga harbiy-jismoniy tayyorgarlikning kiritilishidan maqsad salomatligiga ko‘ra yaroqli kishilarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat edi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Yangi davrdagi jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi qanday bo‘lgan?
2. XVIII–XIX asrlarda yetakchi bo‘lgan pedagogik nazariyada jismoniy tarbiya masalalari qanday ifodalanadi? Ulardagi o‘xshash farqlar, tamoyillar nimalardan iborat?
3. Gimnastika tizimlarining vujudga kelishi va boshqalaridan farqi nimalarda edi?
4. Germaniya, Fransiya, Shvetsiya kabi Yevropa mamlakatlarida nima uchun gimnastika vositasida, Angliya va Amerika mamlakatlarida esa sport va o‘yinlar vositasida jismoniy tarbiya vazifalari hal etilgan?
5. Ishchilar sport tashkilotlarining vujudga kelishiga sabab nima?
6. Yangi davrda havaskorlik sporti va professional sportning farqi nimada?
7. Rekreatsion sport tushunchasi nima?
8. Birinchi jahon urushi yillarida jismoniy tarbiya va sportni milliylashtirishning sabablari nimada? J.Eberning usullari nimaga qaratilgan edi?
9. Yangi davr jismoniy tarbiyaning ahamiyati nimada?

IV bob. XX ASR 20-YILLARIDA IKKINCHI JAHON URUSHI TUGAGAN DAVRGACHA JISMONIY TARBIYA VA SPORT

4.1. Germaniya, Italiya, Yaponiya mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport

Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'ida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi ikki yo'nalishda mavjud edi. Birinchi yo'nalish 1917-yil oktabr inqilobi natijasida vujudga kelgan sobiq Ittifoqdagi jismoniy madaniyat harakati edi.

Ikkinchi yo'nalish esa barcha boshqa mamlakatlardagi jismoniy tarbiya va sport harakatidir.

Ma'lumki, Birinchi jahon urushida Germaniya, Italiya, Yaponiya va uning tarafdorlari mag'lubiyatga uchrab, AQSH, Angliya, Fransiya hamda ularning tarafdorlari g'alaba qildilar.

Urushdan keyingi yillarda har bir davlat o'z yo'nalishida jismoniy tarbiya va sportdan tarbiya vositasi sifatida turlicha foydalandi. Shunday bo'lsa-da, barcha yirik mamlakatlarda jismoniy tarbiya tizimining tashkiliy tomonlarida qayta qurish amalga oshirildi. Bunda eski usullar o'rniga yangi yo'nalishlar ko'proq urush saboqlari tarix voqealiklari asosida tarkib topa boshladi. Barcha mamlakatlarda sport tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish tobora kuchayib bordi. Asosiy diqqat-e'tibor havaskorlik sport-gimnastika harakatiga qaratilib, maktablar va boshqa o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning o'qitilishiga katta e'tibor berildi. Bu yo'lda Germaniya, Italiya va Yaponiyadagi holatlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Germaniya urushda yengilgach, Versal shartnomasiga asosan harbiy qismlarni ko'p saqlamasligi kerak edi. Hukumat o'zining harbiy tayyorgarlik faoliyatlarini sezdirmaslik

maqsadida sport tashkilotlari panasiga o'tib oldi. Bunda quyidagi vazifalar qo'yildi: yaqin yillar mobaynida yarim harbiy va sport tashkilotlari orqali harbiy xizmatni o'tashni bir necha millionga yetkazish, nemis yoshlarini millatchilikka, keyin esa fashistlikka tayyorlash, bunda German Gimnastika Ittifoqi asosiy rol o'ynadi. Germaniyada Inqilobiy ko'tarilish yillarida (1918–1923) siyosiy betaraflik shiori ostida yoshlar mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yurita boshladilar. Gimnastika Ittifoqi bu harakatga juda ko'p ishchi yoshlarini jalb etishga muvaffaq bo'ldi. Uning a'zolari millatchilik ruhida tarbiyalana boshladi. «Germaniya, Germaniya hamma narsadan ustun» degan shior yana yuzaga keldi. Ular fashistlar yetakchisi Gitler tarafdori edilar.

1933-yilda fashizm o'rnatilib, sport harakati ochiqchasiga millatchilik yo'lida o'tkazildi. Barcha ishchi va hatto burjua-demokratik sport tashkilotlari tarqatib yuborildi. Fashistlarga qarshi bo'lgan sportchilar yashirin holatda yashashga o'tdilar yoki chet mamlakatlarga ketib qoldilar. Yoshlarga millatchilik kayfiyatini singdirish va sportni ham shu maqsadlarga xizmat qildirishda hujumchilar guruhi Gestapo, «Po'lat dubulg'a» tashkiloti, Gitlerchi yoshlar ittifoqi, burjua sport-gimnastika klublari katta ish olib bordilar.

«Gelendeshpert» (joylardagi sport) ochiq harbiylashishni keng yoydi. Bu maktablar bolalar o'qitishga mo'ljallanib, haftada 5–8 soat jismoniy tarbiya o'tkazilgan. Maktablarda musobaqalar o'tkazish uchun maxsus kunlar belgilangan va barcha o'qituvchilarning ishtirok etishlari talab qilib qo'yilgan.

Sport-gimnastika tashkilotlari o'z a'zolari o'rtasida fashistlik harbiy g'oyalari va jismoniy tarbiya ishlarini agressiyaga mos ravishda olib borish shakllari hamda usullaridan foydalandi.

Nemis sportchilarining xalqaro sport va Olimpiya maydonlariga chiqish yo'li oson kechmadi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining (XOQ) qaroriga binoan Birinchi jahon urushining asosiy sababchisi sifatida Germaniya 1920 y. (Antiverpen) va 1924-yilgi (Parij) Olimpiya o'yinlariga qo'yilmadi.

Lekin Germaniya hukumati va jamoatchi sport tashkilotlari mamlakatda sportni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalandilar. 1926-yilga kelib, nemis sportchilari og'ir atletika, ot sporti, yengil atletika, yunon-rum kurashi, suv polosi kabi turlari bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarni egalladi. 1928-yilda Amsterdamdagi o'yinlarda nemis sportchilari paydo bo'lib, birdaniga yuqori natijalarga erishdi. Ular olgan medallari soniga ko'ra ikkinchi o'rinni egalladi. AQSH sportchilari birinchi o'rinda edi.

1930-yilda Germaniya 1936-yildagi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish huquqiga ega bo'ldi. Shu tariqa XI Olimpiyada Berlinda va IV qishki Olimpiyada o'yinlari Gormish — Partenkirxenda o'tkazildi.

1933-yilda Gitler mamlakatda fashistik va militaristik tartiblarini o'rnatib, Olimpiya o'yinlari bayrog'i ostida o'zining qabih siyosatidan foydalandi. Bunday sharoitda Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga qarshi demokratik kuchlar qanchalik harakat qilmasin, o'yinlar Berlinda tashkil qilindi. Germaniyadagi totalitar tuzum o'zining Yevropadaga «Yangi tartibini» namoyish qildi.

Germaniya o'z hududida o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida hammadan ko'proq medallar olishga erishdi. Umuman, medallar quyidagicha taqsimlandi: Germaniya — 89 (33—26—30)ta, AQSH — 56 (24—20—12)ta edi. Germaniyaning akademik eshkak eshish (baydarka va kanoe), og'ir atletika, gimnastika, ot va yelkan sporti, boks, besh kurash kabi turlari ustunligi bor edi. 1936-yilgi qishki Olimpiyadada tog' chang'isi bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasidagi musobaqalarda Germaniyaga teng keladigan raqiblar ham yo'q edi.

1938-yilda XOQ yana bir katta xatoga yo'l qo'ydi. Ya'ni sportni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun gitlerchilar Germaniyasini «Quvonch orqali kuch» kubogi bilan taqdirladi.

Italiya. Jismoniy tarbiya va sport bu mamlakatda keng doirada taraqqiy etdi. Mussolinining siyosati yangi urushga tayyorgarlik va buyuk Italiyani yaratishga qaratildi. Xalq maorifi vazirligi tarmog'idagi jismoniy tarbiya departamenti

«Balilla milliy operasi» maxsus tashkiloti yordamida bolalarni jismoniy trabiyalash ishlarini amalga oshirdi. «Balilla» guruhi 8—13 yoshdagi o'g'il va qiz bolalarni hamda 14—18 yoshdagi yoshlar va qizlarni o'z ichiga oladi. «Balilla milliy operasi» markaz va viloyatlarda tashkil qilinadi. Unda yengil atletika, qilichbozlik, gimnastika, eshkak eshish va boshqa sport turlaridan keng foydalanildi. Joylarning geografik va iqlim sharoitlariga qarab sport turlari tanlanadi. Ya'ni Alp tog'larida — tog' chang'isi sporti, dengiz yoqalarida — suzish, yelkan sporti, daryolarda — suzish va eshkak eshish, tekisliklarda — ot sporti, maxsus joylarda sport o'yinlari: regbi, futbol, basketbol, voleybol, o'q otish, velosiped, avtomotosport kabilar mavjud edi. Harbiy-sport ishlari sportklublar, jamiyatlar va uyushmalarda olib borildi.

Italiya sport tashkilotlari Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) tomonidan boshqarildi va xalqaro sport hayotida faol ishtirok etdi. Italiya sportchilari 1900-yildan boshlab, uzluksiz ravishda Olimpiya o'yinlari, Yevropa chempionatlari hamda boshqa xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etib keldi, Italiyaning futbol bo'yicha terma jamoasi («Skuadra Adzurra») ikki marotaba (1934, 1938 y.y.) chempion bo'ldi. U 1936-yilda Olimpiya oltin medaliga sazovor bo'ldi. Jahon va Yevropa chempionatlarida italiyalik qilichbozlar, velosipedchilar, o'q otuvchilar, tog' chang'ilari, gimnastikachilar va boshqa bir qator sport turlari vakillari g'alabalarni qo'lga kiritdi. Italiya deyarli barcha xalqaro sport uyushmalari tarkibidan o'rin egallagan edi.

Yaponiya. Bu mamlakatda milliy xususiyatlar asosida jismoniy tarbiya va sport rivojlanishi yuqori darajada o'sib bordi. O'sha davrlarda Yaponiyaning siyosati Osiyoni bosib olishga qaratilgan edi. Shu maqsadda maktablar va sport-gimnastika tashkilotlaridan unumli foydalanildi. O'quv yurtlari va sport klublari jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning asosiy markaziga aylantirildi. Bo'lajak oddiy harbiylarni tayyorlash boshlang'ich maktablarda, amalga oshirildi. Bunda eski milliy jismoniy mashqlar, ya'ni dzyu-do, kenzo (tayoqlarda qilich tushish), kamondan o'q otish va hozirgi

zamon sport turlari: gimnastika hamda o'yinlar qo'llanilgan. Kollejlar va universitetlarda harbiy kadrlar tayyorlanib, ularda ham dzyu-do, karate, qilichbozlik, o'q otish, gimnastika, beysbol, regbi, suzish, yengil atletika mashqlaridan maqsadli foydalanilgan. Yaponiyada sumo milliy kurashi keng tarqalgan.

Yaponiya sportchilari xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib keldilar. Ular 1912-yilgi V Olimpiadadan 1936-yildagi XI Olimpiyadagacha doimiy ravishda ishtirok etdi. Birinchi oltin medalni M.Oda 1928-yilda uch hatlab sakrash bellashuvlarida qo'lga kiritgan. 1932-yilgi Olimpiya o'yinlarida (Los-Anjeles) yaponiyaliklar suzish bo'yicha 6 turdan beshtasida g'alabaga erishadi. 100 m. masofaga erkin suzish bo'yicha 15 yoshli Ya.Miyazaki birinchi o'rinni egalladi. 1500 m.ga erkin suzish bo'yicha 14 yoshli K.Kitamura g'olib chiqdi. U yosh bo'lsa-da, bu masofani 19 daqiqa 12,4 soniyada bosib o'tib, jahon rekordini o'rnatdi. Bu natijani boshqalar faqat 20 yildan keyin o'zgartirishga muvaffaq bo'lishgan.

Yaponiyalik chavandoz T.Insi o'yinlarda oltin medal sohibi bo'lishga erishdi. 1936-yilgi Olimpiadada yaponlar suvda suzish bo'yicha 11 ta medalga ega bo'lib (4–2–5), bu sport turida peshqadam bo'lishdi.

Xulosa qilib aytganda, Berlin-Rim-Tokio uchligidagi siyosiy munosabatlar va urush harakatlari bosqinchilik hamda fashistlashish darajasiga ko'ra bir-birini to'ldirdi.

O'quvchilar va yoshlarni harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash, harbiy xizmatlarning jangovarligini oshirshda sport-gimnastika burjua tashkiloti davlat hokimiyatiga yaqindan yordam berdi.

Xalqaro sport harakati va uning g'oliblariga ma'lum darajada itoat etgan bu davlatlar Olimpiya o'yinlarida ongli faollik hamda ustunlik bilan ishtirok etib keldi. Bunday jihatlar har bir mamlakatdagi sportchi yoshlarning qiziqishlarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shganligi bilan e'tiborga molikdir.

4.2. AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport

Demokratiya vakillari deb yuritilgan AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida sport-gimnastika harakati birmuncha o'zgacha rivojlana boshladi. Ular haqida quyidagi ma'lumotlar guvohlik qilishi mumkin.

AQSH. Urushlar oralig'i davrida AQSHda moliyaviy iqtisodiy holatga katta e'tibor berildi, bu jahonda taraqqiy etgan kapitalistik dunyoni vujudga keltirdi. AQSH jahonda hokim bo'lish siyosatini olg'a surdi. Boshqa davlatlarga amerikacha yashash tarzini targ'ib qila boshladi. Bu yo'lda sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi maqsadga qaratilgan tadbirlardan biri bo'lib xizmat qildi.

Yoshlarni tarbiyalashning muhim vazifasi sifatida sportga alohida ahamiyat berildi va sport tashkilotlari faoliyatini qattiq nazorat ostiga oldi. Ko'pgina shtatlardagi maktablarda jismoniy tayyorgarlik haqida qonunlar qabul qilishdi. Shu qonunlar asosida moliyaviy yordam berish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, jismoniy tarbiya darslariga ajratilgan vaqtlarni belgilash ko'zda tutildi. Shu tariqa umumiy tarbiyaning bir bo'lagi sifatida jismoniy tarbiya qonunlashtirildi.

17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar maktablar sport skaut tashkilotlarida jismoniy tarbiyani olishadi. Bunda gimnastikaga nisbatan sport o'yinlariga ko'proq e'tibor kuchaytirildi. Boylarning bolalari kollejlar, universitetlarda ta'lim olib, jismoniy tarbiya bilan sport klublarida mashg'ul bo'lishdi. Amerikada kollejlar va universitetlar asosan sport ishlarining markazi hisoblanar edi.

Amerikaning kollej va universitetlarida ko'proq yengil atletika, suzish, basketbol, eshkak eshish sporti, tennis, beysbol, amerikacha futbol bilan shug'ullanish tashkil qilindi.

Oliy o'quv yurtlariaro universitet sportining milliy assotsiatsiya (NKAA) yetkachi tashkilot hisoblanar edi. Bu tashkilot 1906-yilda tuzilgan edi.

Amerikada havaskorlik sporti harakatida 1888-yilda tashkil etilgan atletika uyushmasi (soyuz) asosiy rol o'ynadi. Bu

tashkilot Amerikada mavjud bo'lgan barcha sport tashkilotlari ustidan rahbarlik qildi, faqat universitet sporti mustaqil edi. Atletik uyushma boshida yirik moliyaviy va ishlab chiqarish kapitali turar edi. Amerikada 1894-yilda Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) tashkil etilib, u mamlakat Olimpiya harakatini boshqardi. Ikki urush oralig'ida Amerika sport bo'yicha jahondagi eng yirik va kuchli davlatga aylandi. Amerika sportchilari yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari hamda jahon miqyosida o'tkazilgan sport musobaqalarining doimiy qatnashchisi bo'lib qoldi.

Mamlakatda sport taraqqiyotiga asosan 1932-yil Los-Anjelesda o'tkazilgan X yozgi va Leyk-Pleisidda o'tkazilgan IV qishki Olimpiya o'yinlari sababchi bo'ldi. Amerikalik sportchilar Olimpiya o'yinlarida yengil atletika, o'q otish, boks, tramplindan sakrash, tennis, regbi, bobsley, eshkak eshish, suzish kabi turlarda ancha ustunlik qildi. Suvda suzish bo'yicha Jon Veysmyuller 1924 va 1928-yildagi Olimpiya o'yinlarida 5 ta oltin medalga sazovor bo'lgan. 1936-yil Berlindagi Olimpiya o'yinlarida Neyer Jessi Ouens 4ta oltin medal bilan mukofotlandi, ya'ni 100 va 200 m.ga yugurish, uzunlikka sakrash va 4x100 m. estafetada qatnashdi. Amerikada irqiy kamsitishlarga qaramasdan, mamlakat shuhrati uchun terma jamoalar tarkibiga negrlar ham kiritildi. Ular Olimpiya o'yinlarida g'olib kelib, keyin professional sportga o'tib ketishardi. Bu davrda Amerikada professional sport amerikacha turmush tarzining xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblangan.

Professionallik negizida sport ancha rivojlanib, bunda turli xil reklamalar, matbuot, radio va keyinchalik televideniyeda uzluksiz targ'ibot olib borish muhim rol o'ynadi. Bu o'z navbatida sport trestlari, kompaniyalar, yirik stadionlar qurish kabi maxsus tijorat ishlab chiqarish sohasini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitlarda o'tkazilgan matchlar (uchrashuv) va tadbirlar tadbirkorlarga ulkan boyliklar keltirdi. Amerikada professional sport biznesga (savdo, tijorat) aylandi. Ishbilarmonlar sportchilarni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan katta boyliklar to'plashdi. Masalan, 1927-yilda boks

bo‘yicha jahon chempionati o‘tkazilib, Tunney va Demis uchrashuvi uyushtirildi va undan 2 mln.dan ortiq dollar foyda olinadi. Shu tariqa Amerikada bokschilar, basketbolchilar, futbolchilar, regbichilar, beysbolchi va xokkeychi sportchilar tovar sifatida sotiladigan va sotib olinadigan darajaga yetib, bu jarayon keng tarmoqlanib ketdi.

Fransiya. Yoshlar jismoniy tarbiyasi va sporti Fransiyada o‘ziga xos tarzda rivojlanib bordi. 1920-yilda maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar va maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi haqida qonun qabul qilindi. Harbiy vazirlik o‘quv yurtlarda jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi nizomni tasdiqladi. Jismoniy tarbiyaning vosita va usullari asosi uchun Jorj Eberining tabiiy-tayanch gimnastikasi tizimi qayta ishlangan holatda va shvedlar gimnastikasining ba’zi qismlari olingan edi. Ko‘p sonli sport klublari va tashkilotlarida Olimpiya o‘yinlari turlari, ayniqsa, futbol, tog‘ chang‘isi sporti va figurali uchish kabilar keng rivojlandi.

20-yillar oxiri va 30-yillar boshida mamlakatda faol dam olish jarayonida sportdan foydalanishga katta e’tibor berildi. Bunda rekreatsion sport keng quloch yozdi. 1936-yilda sport ishlari va faol dam olish davlat boshqarmasi tashkil etilishi bilan rekreatsion sport o‘z maqomiga ega bo‘ldi.

Fransiyada Olimpiya harakatini rivojlantirishda baron Pyer de Kubertenning nomi bilan bog‘liq faoliyatlar ko‘p. 1894-yilda Parijda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasini (XOQ) tuzishga harakat qilindi. Shu asosda Fransiya Milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ, 1894) tashkil etildi. Parijda ikki marotaba Olimpiya o‘yinlari o‘tkazildi, ya’ni 1900-yilda – II, 1924-yilda – VIII o‘yinlari. Shuningdek, 1924-yilda Shamoni shahrida I qishki Olimpiya o‘yinlari tashkil etildi. Bu davrlarda Parijda ko‘pgina xalqaro sport uyushmalarining shtab-kvartiralari joylashgan edi.

Fransiya sportchilari 1904-yilda Sent-Luisda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlaridan tashqari, barcha yozgi va qishki Olimpiya o‘yinlarining qatnashchisi hisoblanadi. 1924–1936-yildagi o‘yinlarda velosipedchilar g‘oliblikka ega bo‘lishdi. 1920–1932-yildagi o‘yinlarda – fransuzlar og‘ir at-

letika va 1920–1924–1928-yildagi Olimpiya o'yinlarida qilichbozlik bo'yicha shuhrat qozongan edilar.

Ikkala jahon urushi oralig'i davrida Fransiya sobiq Ittifoq bilan xalqaro sport tashkilotlari va ba'zi klublar orqali sport bo'yicha yaqin aloqada bo'lgan.

30-yillarning boshida Fransiyada sovet yengil atletikachi va suzuvchilari musobaqalarda ishtirok etadi. «Spartak» va «Dinamo» sport jamiyatlaridan tashkil etilgan futbol terma jamoasi Fransiyaning «Resing» va «Red Star» kabi kuchli sport futbol klublari bilan uchrashuv o'tkazadi. Fransiyaning taniqli yuguruvchisi Jyul Lyadumeg sovet yuguruvchilari Georgiy va Serafim Znamenskiylar bilan bahslashish uchun Rossiyaga keladi. Fransiyada 1934-yilda sportchilarning fashistlarga qarshi slyoti bo'lib, unda SSSR vakillari ishtirok etadi.

Slyot qatnashchilari jahondagi barcha sportchilarni fashizmga qarshi faol kurashga chaqiradi. Bu bilan tinchlik va osoyishtalikni barcha yerlarda ta'minlash ko'zda tutiladi.

Buyuk Britaniya birlashgan qirolligiga Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya kiradi. Bu hududlarning har birida sport markazlari mavjud edi, ya'ni Angliyada – 4 ta, Shotlandiyada – 2 ta, Uelsda – 1 ta va Shimoliy Irlandiyada – 1 ta. Ularni jismoniy dam olish markaziy kengashi (sovet), o'yin maydonlari milliy tashkiloti va Britaniya Olimpiya assotsiatsiyasi birlashtirar edi.

O'sha davrlarda Buyuk Britaniya maktab, kollej va universitetlarda jismoniy tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilganligini va sportning rivojlanish surati bilan ajralib turar edi. Bernard Shou o'zining «Mafusailga qaytish» pyesasida buni shunday ifodalaydi: «Yopiq maktablarning tarbiyalanuvchilariga faqat foyda keltiruvchi, jismoniy chiniqish va harbiy mahoratga o'rgatish asosiy yo'l. Bu esa o'q otish, samolyotlardan bomba tashlash, begunoh kishilarga qirg'in keltirishdan boshqa narsa emas. Urush – din, o'ldirish esa jasoratga o'xshaydir» deydi.

17 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida XX asr boshida tashkil topgan Skaut harakati keng tarqalgan edi. Skaut otryadlarida yigit va qizlar axloq bo'yicha va jismoniy tarbiya

olishar, har bir a'zo har kuni biron-bir ma'qul ish qilishi, sport va o'yinlar bilan shug'ullanishi shart edi.

Buyuk Britaniya jahon sport va Olimpiya harakati rivojiga munosib ravishda o'z hissasini qo'shdi. Ular hisobida anchagina jahon va Olimpiya yutuqlari mavjud . Ikkala jahon urushi oralig'ida o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida – Antverpenda – 42 ta va Parijda – 34 ta Olimpiya medallariga sazovor bo'lgan.

O'zlarida tashkil etilgan jahon, Yevropa chempionatlari va xalqaro musobaqalarda Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya mustaqil terma jamoalari bilan ishtirok etishgan. Faqat Olimpiya o'yinlaridagina Buyuk Britaniya bayrog'i ostida terma jamoalar tarkibida qatnashdi. Buyuk Britaniya sportchilari Olimpiya o'yinlarida boks, velosport, chim xokkeyi, tennis, (1920), shuningdek, akademik eshkak eshish, suzish va boshqa turlar bo'yicha g'oliblikka erishgan. 1936-yildagi Olimpiya o'yinida Buyuk Britaniya shaybali xokkey bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritgan. Shu davrlarda u ko'pgina xalqaro sport uyushmalarining a'zosi bo'lgan.

Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiya. Ikkala jahon urushi oralig'ida bu mamlakatlarda sport-gimnastika harakati rivoj topadi. Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya mamlakatlari qadimdan sport an'analari bilan jahonda mashhur edi.

Bu hududlarda jismoniy tarbiya va sport avvalgi shved gimnastikasi, daniyalik Nils Bukning tabiiy gimnastikasi, Iogann Mollerning shaxsiy (individual) gimnastikasi kabi tizimlarni qayta ishlash va ularni amalda bajarish evaziga rivoj topadi.

Maktablarda iqlim sharoitidan maqsadli foydalanish natijasida qishki sport turlari keng rivoj topadi. Ayniqsa, chang'i va konkida uchish sporti, to'pli xokkey (bendi), shaybali xokkey, chang'ida ikki kurash, konkida figurali uchish, tramplindan chang'ida sakrash kabi turlar bu xalqlar hayotiga chuqur singib ketgan.

Mazkur mamlakatlarning hukumat doiralari maktablar, bilim yurtlari, institutlar, universitetlarda jismoniy tarbiyani

tashkil etishga juda katta e'tibor berishgan. Shimoliy mamlakatlarning sportchilari xalqaro sport va Olimpiya harakatlarida faol ishtirok etib kelgan. Sportchilarni tayyorlash maqsadida yirik sport inshootlari qurildi. Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya milliy Olimpiya qo'mitalari tashkil etilib, milliy sport uyushmalari (soyuz) va klublar xalqaro sport uyushmalari tarkibiga kiritilgan. Bu mamlakatlaring sportchilari jahon, Yevropa chempionatlari va Olimpiya o'yinlarining doimiy qatnashchilari hisoblanadi. Shu yillarda eng yaxshi sportchilar tayyorlandi. Finlyandiyaning jahonga tanilgan yengil atletikachilari X.Komxmaynen 1912, 1920 yildagi Olimpiya o'yinlarida 4 ta oltin medal olishga erishgan. P.Nurmi 9 ta oltin medalni (1920, 1924, 1928) qo'lga kiritgan bo'lsa, konkida uchish bo'yicha K.Tunberg, nayza uloqtirishda M.Yarvinen mashhur edilar.

Shvedlar sporti o'sha paytda dunyoda tengi yo'q figurachi G.Grafstremni, ya'ni to'rtta Olimpiya o'yinlari qatnashchisi, 3 ta oltin medal (1920, 1924, 1928) va bir kumush medal sohibini (1932) jahonga yetkazib berdi.

Jahon urushlari oralig'i davrida Shimoliy davlatlarda ishchilar sport klublarining faoliyatlari e'tiborga loyiq edi. Shvetsiyada sport klublari Shved ishchilar sporti uyushmasiga (AIF), Finlyandiyada – Fin ishchilar sporti uyushmasi (TUL)ga birlashgan edi. Bu mamlakatlarning sportchilari 1928-yilda Moskvadagi 1-spartakiadada ham ishtirok etishgan.

Jahonning boshqa mamlakatlari va hududlari (region). Ikki jahon urushi oralig'ida sport-gimnastika harakati Yevropaning boshqa bir qator davlatlari va hududlarida ham ma'lum darajada rivojlandi.

Olimpiya sport turlari va boshqa sport turlari ham Chexoslovakiya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Portugaliya, Ispaniya, Belgiya, Niderlandiya va boshqa davlatlarda rivoj topganligi ma'lum. Bu davlatlar shu oraliq davrida o'tkazilgan Yevropa, jahon birinchiliklari va Olimpiya o'yinlarida ham ishtirok etishgan.

Yer yuzasining boshqa hududlarida (Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi) sport-gimnastika harakati hali rivoj topmagan edi. Ba'zi davlatlarda hozirgi zamon sport turlari, ya'ni chim xokkeyi, yengil atletikaning ba'zi turlari, kurash va h.k., shuningdek, milliy jismoniy mashqlar hamda o'yinlar birmuncha rivojlangandi.

Ba'zi bir davlatlar o'sha paytlarda Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishgan. Hind chim ustida xokkeychilari VIII, IV va X Olimpiya o'yinlarida chempionlik unvoniga sazovor bo'lganlar.

Misr sportchilari 1928, 1936, 1948-yilgi Olimpiya o'yinlarida 6 ta oltin medalni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgan.

Amerika mintaqasidagi Braziliya, Argentina, Kanada mamlakatlari sportchilari ham o'yinlarda ulkan yutuqlarning sohibi bo'lishgan. Kanada xokkeychilari 1920, 1924, 1928, 1932-yildagi Olimpiya o'yinlarida chempionlik shohsupasiga ko'tarilib, qishki sport turlari bo'yicha o'zlarining dovrug'ini butun jahonga taratganlar.

Xulosa qilib aytganda, Birinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda (20 y.) sport-gimnastika harakati Yevropa va boshqa qit'alardagi mamlakatlarda tez rivoj topdi. Buning negizida yoshlarni harbiy-jismoniy jihatdan tarbiyalash, ularning jismoniy barkamolligini oshirishda sport turlaridan foydalanish faoliyatlari yangi tartibda amalga oshirildi.

Mamlakatlarning o'zaro sport aloqalari mustahkamlanib, xalqaro sport uyushmalari faoliyatlari kuchayib bordi. Olimpiya o'yinlari qiziqarli ravishda tashkil qilindi.

4.3. Xalqaro miqyosda ishchilar sportining rivojlanishi

Ikkala jahon urushi oralig'idagi sport-gimnastika harakatining rivojlanishida ishchilar sporti harakati va taraqqiyoti o'ziga xos o'rin tutadi.

Ishchilar sporti Chexoslovakiyada tez rivojlanib ketdi. Ularning sport harakati XIX asr oxirida vujudga kelib, asta-

sekin yuqori darajaga ko'tarildi. 1921-yilda ishchilar sport jamiyati federatsiyasi tashkil etildi. Shu yil Pragada sport jamoalari birinchi ulkan spartakiadani o'tkazdi. Unda 20 mingdan ortiq yigit va qizlar, erkaklar va ayollar faol ishtirok etishdi. Bu spartakiada mamlakatda sport harakatini rivojlantirishning namunasi bo'lib hisoblandi.

Bolgariyada Birinchi jahon urushidan keyingi davrlarda ishchilar sport tashkilotlari vujudga keldi va ular «Spartak» nomi ostida birlashdi. «Spartak» otryadlari Sofiya, Plevna va boshqa shaharlarda tuzildi. «Spartak» tashkilotidagi ishchi sportchilar Qizil sport internatsionaliga kirar edi. 1930-yilda sport harakati yangi pog'onaga ko'tarila boshladi.

Vengriya, Finlyandiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda ham ishchilarning sport tashkilotlari vujudga kelib, ular asosan sport-gimnastika federatsiyalari harakati asosida faoliyat ko'rsatdilar.

Fransiyada 1934-yilda barcha ishchi tashkilotlari sport-gimnastika federatsiyasiga birlashtirildi. Bunda sportdagi millatchilik va fashizmga qarshi faoliyatlar kuchaytirildi.

Bu federatsiya faqat milliy va mahalliy sharoitlardagina emas, hatto xalqaro miqyosda ham tadbirlar o'tkazdi. Ayniqsa, «Yumanite» gazetasiga bag'ishlab o'tkazilgan kross jahonga ma'lum edi.

Nemis ishchi sport-gimnastika uyushmasi (soyuz) qator sport tashkilotlaridan biri bo'lib, fashistlar hokimiyatigacha bo'lgan vaqtlarda (1919 y.) bu uyushmaning 100 ming a'zosi bor edi. 1932-yilga kelib, ularning soni 1 mln.ga yetdi.

Germaniyadagi kommunistik va sotsial-demokratik partiyalarning o'zaro ixtiloflari, qarama-qarshiliklari ishchilar sport tashkilotlari o'rtasidagi nizolar va qarshiliklarga sabab bo'ldi. Asosiy omma sotsial-demokratlar partiyasining ta'siri va oqimida edi. Ishchilar sport tashkilotlari fashizmga qarshi kurashlarda faol ishtirok etdi.

Shu tariqa ishchilar sport tashkilotlari Avstriya, Belgiya, Angliya, Shvetsiya, Norvegiya kabi mamlakatlarda ham tashkil etilib, ular o'z mamlakatlarining sport musobaqalarida ishtirok etganlar.

4.4. Jismoniy tarbiyaning yangi yo'nalishlari

Birinchi jahon urushidan keyingi davrlarda harbiy maktablarning isloh qilinishi hamda harbiy xizmat haqidagi qonunlar asosida yoshlarning harbiy bo'lmagan hamda harbiy jismoniy tayyorgarligi kuchaytirib borildi. Maktablarning jismoniy tarbiya uslubiyatida sport o'yinlari mavqeyining ustunligi sezila boshladi. Urushgacha o'tgan davrda keng tarqalgan gimnastika asbob-uskunalarida bajariladigan sun'iy mashqlar, yurishlar (marshirovka) sport o'yinlari usullari bilan siqib chiqarila boshlandi.

Ana shu davrlarda (20-yillar) Angliya, Polsha, Germaniya, Litva, Latviya, Daniya va boshqa mamlakatlarda J.Eberining tabiiy gimnastika usullari bilan bir qatorda Nils Bukning (1880–1950-yil) asosiy gimnastikasi, Karl Gaulgofer (1885–1941 y.y) va Margarita Shtayxerning (1891–1945 y.y) tabiiy maktab gimnastikasi vujudga kelib, keng tarqalgan edi.

N.Bukning tizimi shved gimnastikasini yangilash (modernizatsiya) yo'li bilan vujudga keldi va amalda qo'llanila boshlandi. U harbiy bo'lmagan yoshlarga mo'ljallangan edi. Uning tizimi bo'yicha dars uch qismdan iborat edi: 1) asbobsiz mashqlar; 2) asboblar bilan shvedlar usuli bo'yicha mashqlar, 3) yurish, yugurish, sakrash mashqlari. Bir darsning o'zida 40–50 tagacha mashq bajarish tavsiya etilgan.

Avstraliyalik K.Gaulgofer va M.Shtrayxerlarning tabiiy gimnasitikasi nemis gimnastikasi o'rniga yuzaga kelgan edi. Ular burjuaziyaning yangi pedagogik nazariyasiga asoslanib, mehnatdan bo'sh vaqtlarda bajarish, bolalarga o'rgatish (uchun mashqlar tizimi) zarurligini himoya qilishdi. Ular o'zlarining «Maktab gimnastika tizimi» (1927), «Tabiiy gimnastika» (1930) va boshqa ishlarida jismoniy tarbiyani san'atga o'xshatadilar, chunki bunda o'rgatish tabiiy sharoitda olib borilishini va unda tabiiy jismoniy mashqlar qo'llanishini nazarda tutadilar. Ular dars tuzilishi, shug'ullanuvchilarning ishiga qarab mashqlarni 3 qismga bo'lishadi:

1) jonlantiruvchi (harakatga keltiruvchi): tez yurish, yugurish, sakrab o'ynash nafas mashqlari;

2) gavda muvozanatini saqlash, epchillik va kuchni rivojlantiruvchi asosiy mashqlar yugurish, yurish, sakrash va b.;

3) susaytiruvchi (tinchlantiruvchi) mashqlar: oddiy harakatli o'yinlari, sekin yurish va h.k.

Avstriya pedagoglari jismoniy tarbiyaning asosiy vositalariga yengil atletika, kurash, boks, suzish, qishki sport turlari, qilichbozlik, sayohat va ochiq havoda bajarish mumkin bo'lgan boshqa mashqlarni kiritadi. Bu pedagoglar o'z tizimlarida jismoniy tarbiyaning inson rivojlanishidagi ijtimoiy xususiyatini inkor etgan, ya'ni nasl asosiy rol o'ynaydi, deyishgan.

Avstriya gimnastika maktabi va Bukning asosiy gimnastikasi qatorida G'arbiy Yevropa va Amerikada Zurenning gigiyenik gimnastikasi ham keng yoyildi. Bunda tana va ruhning garmonik holati haqidagi g'oya targ'ib qilindi.

Shular qatorida yana Bodening individual-tabiiy «Kit-Dit» tizimi nazariyasi asosida gavdaning to'g'ri o'sishi (osanka), mushaklarni mustahkamlash, yassi oyoqlikning oldini olish, bukrilik va boshqa jismoniy qusurlarning oldini olish usullari ham qo'llanila boshlandi.

Bunday usullar 20—30-yillarda ishlab chiqilib, Ikkinchi jahon urushi arafalarida keng miqyosda tan olindi.

4.5. Ikkinchi jahon urushi davrida sportchilarning fashizmga qarshi kurashlari

1939-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Ko'pgina mamlakatlarning sportchilari fashizm agressiyasiga qarshi kurashlarda faol ishtirok etishdi. Fashistlarga qarshi yirik yopiq (nolegal) markazlardan biri Qizil sport birligi uchun kurashuvchi nemis jamiyati edi. Qizil sport internatsionalining (QSI) yetakchi arboblaridan biri, kommunistlarning reyxstagdagi deputati Erneta Gurbe unga boshchilik qildi. U antifashistlar harakatini butun Germaniya bo'ylab sportchilar orasida targ'ib qildi. Yashirin holda «Rot-shport» gazetasini chiqardi. Gazeta va turli varaqalarda butun dunyodagi erkparvar xalqlarni fashizmga qarshi kurashga chaqirdi. Mam-

lakat ichida va bosib olingan joylarda terrorchilik kuchaydi, sportchilar ham ta'qib ostiga olindi.

1945-yil 12-aprelda E.Gurbe Bergen – Belsen konslagerida qattiq kaltaklash va azoblar oqibatida vafot etdi. 1928-yil Moskvada 1- spartakiadada qatnashgan 6 karra Germaniya chempioni, Berlin Olimpiadasining to'rtinchi sovrindori, taniqli kurashchi va kommunist V.Zeslanbinder ham qamoqqa olinadi, fashistlarga qarshi kurash olib borgani uchun otib tashlanadi. Shuningdek, nemislarga qarshi kurashgan Qizil sport internatsionalining kotibi, 1936-yilda o'tkazilgan Barselonadagi Xalq Olimpiadasi tashkilotchisi F.Leshning qahramonona xotirasi ham o'chmas bo'lib qolgan. U Ispaniya Respublikasi uchun janglarda halok bo'lgan edi. QSIning faol arbobi P.Sabel 1945-yilda Daxauda qatl etiladi. «Rot-shport» gazetasining muharriri B.Almistadba 1944-yilda qatl etilgan. Urushda halok bo'lgan sport arboblaridan juda ko'pchiligining tasviri keyinchalik ular xotirasiga bag'ishlab chiqarilgan medallarda aks etgan edi. Yirik sport inshootlari, stadionlar, sport tashkilotlari ularning nomi bilan ataladi.

Bolgar yozuvchisi Xristo Botevning «Ozodlik uchun kimki urushda halok bo'lsa, u o'lmaydi» shiori partizan otryadi mayori K.Nikolov-Stranjat xotirasiga bag'ishlab boks bo'yicha o'tkaziladigan turnir kubogiga uning qahramonligi zarhal harflar bilan o'yib yozilgan edi.

Fashistlar bosib olgan Norvegiya yerlarida yoshlarni fashizmga qarshi tarbiyalash uchun ommaviy sport musobaqalari tashkil etiladi. Bunda tramplindan sakrash bo'yicha sportchi B.Ruud, kurashchilar I.Stakke, B.Kix, konkida uchish bo'yicha mamlakat chempioni X.Xoraldsen kabilar «Fashistlar rahbarligida hech» qanday shart yo'q!» - deb qarshi chiqadi. Yuzlab Norvegiya sportchilari fashistlarga qarshi turganligi uchun gaz kameralarda o'ldiriladi.

Urush yillarida Vengriyada 1050 sport klubidan 700 tasi o'z ishini butunlay to'xtatadi. Olimpiya chempionlari A.Pechauer, D.Emerli, Ya.Garan kabilar o'ldiriladi. Jangda sport jurnalisti D.Kilion halok bo'ladi.

Polshadagi· (Varshava) Jismoniy tarbiya akademiyasida urushda halok bo'lgan sportchilar xotirasiga bag'ishlangan memorial stend bor. Ular orasida X Olimpiada chempioni (10 km), jahon rekordchisi (3 km) Ya.Kusochinskiy portreti ham bor. Urush davrida u Palmirok o'rmonida gestapochilar qo'liga tushadi. Uni so'roq qilishganda, «Mendan hech narsa ololmaysanlar!», «Yashasin Polsha!» deya o'limi oldidan mardonavor turadi. Uni qahramon sifatida Polsha jamoatchiligi e'zozlaydi. U kabi jasorat va qahramonlik namunalari ko'rsatgan Chexoslovakiya, Ispaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning sportchilari Olimpiya o'yinlari hamda jahon, Yevropa birinchiliklarining g'oliblari, ishtirokchilari orasida ham ko'p uchraydi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, urushdan avvalgi va urush yillaridagi harbiy-jismoniy tayyorgarlik tizimlari, sport-gimnastika muta-xassislari yoshlarga o'z g'oyalarini qanchalik majbur qilib o'rgatmasin va buyruq ostiga olmasin, sportchilar orasida chin insoniylik, vatanparvarlik his-tuyg'ulari ancha mujassamlashgan edi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Jahonda jismoniy tarbiya va sport rivojlanishi qanday yo'nalishlarda davom etdi, buning sabablari nimada?
2. Ikkala jahon urushi oralig'ida Germaniya, Italiya, Yaponiyada sport-gimnastika harakati qay tariqa rivojlandi?
3. Ikkala jahon urushi oralig'ida AQSH, Fransiya va Angliyada sport-gimnastika harakati qanday rivojlandi, uning boshqa mamlakatlardan farqi nimada edi?
4. Ikkala jahon urushi oralig'ida Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiyada sport-gimnastika harakati qanday taraqqiy etdi, undagi ilg'or tajribalar nimadan iborat?
5. Ishchilar sporti urushlar oralig'idagi davrlarda qanday rivoj topdi?
6. Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi sportchilarni fashizmga qarshi kurash olib borganlarini bilasiz, ular qahramonlikning qanday namunalarini ko'rsatdilar?
7. O'sha davrdagi yoshlarning ongida fashizmga qarshi kurash g'oyalari qanday paydo bo'lgan edi?

V bob. IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRLARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT

5.1. G'arb mamlakatlari hayotida jismoniy tarbiya va sport

Ikkinchi jahon urushi fashistlar Germaniyasi va militaristik Yaponiyaning batamom tor-mor etilishi bilan yakunlandi. Bunda sobiq sovet (SSSR) Ittifoqining o'rni beqiyos katta bo'ldi. Urushlar jarayoni va undan keyingi yillarda jahonda iqtisodiyot, siyosiy va madaniy rivojlanishning yangi davri boshlandi. Bu esa mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahvoliga qarab jismoniy tarbiya va sportning ham rivojlanishini ta'min etdi.

Urushdan keyingi yillarda G'arb mamlakatlarida ijtimoiy-madaniy hayotning yaxshilanishi tufayli jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tiibor berila boshlandi. Mamlakatlar iqtisodiy, siyosiy hamda monopolistik sharoitlar asosida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda avvalo o'z manfaatlarini oldingi qatorga qo'yishdi.

Bu davrdagi jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti katta qarama-qarshiliklarga duch keldi, chunki sotsialistik va kapitalistik tizimlar orasidagi ziddiyatlar, raqobat shuni taqozo etar edi. Ular ikki tomondan jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy nazariyasini, davlat va jamoat tashkilotlaridagi mohiyatini o'zlaricha targ'ib qilishdi. Ko'pgina sotsiolog va tarixchilarning asarlarida jismoniy tarbiya va sport aholini o'z mamlakati hokimiyatiga hurmat, siyosiy betaraflik, irqchilik va millatchilikka nafrat ruhida tarbiyalashi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishi kerak, degan g'oyalar olg'a surildi.

O'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport. Maktablar va boshqa turdagi o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor kuchaydi. Bu, o'z navbatida, jismoniy tarbiya va sportning yanada tez, shiddat bilan rivojlanishiga sabab

bo'ldi. Shuningdek, o'quvchi yoshlarni harbiy tayyorgarlikka o'rgatish, o'sib kelayotgan avlodning salomatligini tobora yaxshilash oqibatlari ko'zda tutildi. Chunki harbiy tayyorgarlik xarajatlari sovuq urush xavfi mavjud bo'lgan davrlarda o'zga mamlakatlarning hududlarida harbiy istehkomlar (bazalar) qurish avj olganligi sababli aholidan soliq undirish, ishsizlarning ko'payishi aholining, ayniqsa, yoshlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

1949–1950-yillarda AQSHda 9 mln.ga yaqin chaqiriq yoshidagi o'smirlar harbiy xizmatga jismoniy jihatdan yaroqsiz deb topilgan. 1957-yil prezident Duayt Eyzenxauer, 1961-yil prezident Jon Kennedi Amerika aholisining jismoniy tarbiyasi masalalari bilan shaxsan shug'ullandi. Ular ko'pchilik yoshlarning harbiy xizmatga jismonan layoqatsizligidan tashvishga tushdilar.

Jismoniy tarbiya va sportning salomatlikni yaxshilash va jismonan chiniqishdagi ahamiyatini amerikalik yoshlar ongiga singdirish yo'lida yetarli darajada ish olib borilmadi. Davlat qaramog'idagi va xususiy maktablarda, o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportning qo'llanishida katta farqlar, tafovutlar mavjud edi. AQSHda davlat hisobidagi boshlang'ich maktablarda asosan mehnatkashlarning bolalari o'qitilib, ularda sport maydonlari yetishmas edi. Ko'pgina maktablarda jismoniy tarbiya darslari o'tilmadi. Ayrim bolalargina shahardan tashqaridagi yozgi dam olish maktablariga jalb etilar edi. Barcha xususiy maktablarda boylarning bolalari o'qitilib, ularda sport inshootlari mavjud bo'lgan hamda mutaxassislar dars o'tkazgan. Ularda haftada 5 soat jismoniy tarbiya darslari tashkil etilgan. Dasturlarda sport va o'yinlarning majburiy ravishda o'rgatilishi ko'satilgan. Yengil atletika, suzish, basketbol, beysbol va boshqa turlar bo'yicha maktablarda va maktablararo musobaqalar tashkil etilgan. O'quv ishlaridan tashqari paytlarda g'oyaviy (ideologiya) va sport ishlarini o'qituvchilar orasida Skaut va Xristian yoshlar tashkiloti o'tkazgan.

AQSHda sport ishlari markazini avvalgidek kollejlar va universitetlar tashkil etar edi. Kaliforniya, Pensilvaniya, Chi-

kago va boshqa shtatlarning universitetlarida gigiyena hamda jismoniy tarbiya bo'limlari, sportklublar tashkil topgan edi. Ularning faoliyati jismoniy tarbiya darslarining o'tkazish, tibbiy ko'riklar, ichki hamda universitetlararo musobaqalarni tashkil qilishga qaratilgandi. Amerikaning kollej va universitetlarida asosan basketbol, regbi, beysbol, yengil atletika, boks, suzish, eshkak eshish sporti, tennis kabi turlar keng qo'llanilar edi. Universitetlar yirik stadionlar, sport zallari, suv havzalariga ega bo'lgan. Talabalar orasida ommani ko'proq jalb etuvchi, daromad keltiruvchi sport turlari va musobaqalar ko'proq rag'batlantirilar edi. Sport musobaqalari universitetlarga bir necha yuz minglab dollarlar foyda keltirgan. Sport musobaqalarida g'olib chiqqan, rekord qo'ygan va faol talabalarga imtiyozlar berilgan, ya'ni ularga stipendiyalar belgilangan, o'qishga pul to'lashdan ozod etilgan, o'quv qo'llanmalari, yashash joylari bilan ta'minlangan va h.k. Ularning ixtiyoriga yaxshi sport inshootlari, asbob-uskunalar muhayyo etilgan. Universitet sportida faqat yaxshi natijalar ko'rsatuvchilargina shug'ullanishga muyassar edi. Shu sababdan ham, u yoki bu sport turi bilan shug'ullanuvchi talabalar kamchilikni tashkil etardi.

Germaniya Federativ Respublikasi, Angliya, Fransiya, Italiya, Skandinaviya mamlakatlarida ham jismoniy tarbiya va sport jamiyat taraqqiyoti xizmatida bo'ldi. Bu mamlakatdagi maktablarda jismoniy tarbiya tizimi davlat tomonidan, ya'ni sport vazirligi, maorif va harbiy vazirliklar rahbarligida boshqarilgan. Boshlang'ich va o'rta maktablarda jismoniy tarbiya majburiy dars sifatida o'qitildi. Darslar haftada 2 soatdan 4 soatgacha o'tkazilar edi. Bunda asosan sport-o'yini usullari qo'llanilardi. Shvetsiya va Norvegiya maktablarida gimnastika mashg'ulotlariga umumiy darslarning 50% ajratildi. Ba'zi bir mamlakatlarda haftaning bir kuni o'yin va sayohatlar uchun ajratib berilgan.

Skandinaviya mamlakatlarida gimnastika darslaridan tashqari sport ixtisosligi (biror sport turi) keng qo'llanilgan. Shvetsiyada sport uyushmalari hamkorligida havaskor guruhlar tashkil etilgan. Ular darsdan tashqari paytlarda o'quv-

chilar bilan chang'i, konkida uchish sporti, suzish, yengil atletika, futbol, eshkak eshish va boshqa sport turlar bo'yicha turli tadbirlar olib borilgan. Maktab sporti uyushmalari (Skone) Skandinaviya mamlakatlari va Fin-lyandiya maktablarining o'quvchi-sportchilarini o'ziga biriashtirardi. Bu o'quvchi-sportchilar yoshi, jinsi va musobaqa talablari asosida turli darajalarga (toifa) ajratilgan. Mazkur mamlakatlarda ba'zi bir sport turlari bo'yicha nishonlar (znachok) keng tarqalib, ular yoshlarning qiziqishi va e'tiborini jalb etgan. Bu esa sport mahoratlari yanada ko'tarilishi uchun turtki bo'lib hisoblandi. Barcha sport turlari bo'yicha talab me'yorlarini bajarishga qiziquvchi o'quvchilar soni doi-miy ravishda o'sib bordi.

Yaponiyadagi maktab va o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Xalqaro sport turlari bilan bir qatorda an'anaviy milliy jismoniy mashqlar ham keng miqyosda qo'llanildi. Saqlab kelinayotgan milliy sport turlari an'anaviy tadbirlar sifatida yoshlarni samuraylar ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Bunday turlar katta qilich (yoki uzun tayoq) bilan qilichbozlik, sumo kurashi, dzyu-do, karate, kamondan o'q otish va suzish kabilardan iborat edi. Murakkab malakalarni tarbiyalashda qo'lda qurol bilan suvda suzish, og'ir narsalarni ko'tarish, sayoz va suvli joylarga balanddan sakrash, suv to'siqlarini egallash va boshqalardan foydalanildi. Institut va universitetlarda jismoniy tarbiya kafedralari, sport klublari faoliyat ko'rsatdi. Bu mamlakatda ham sport bilan shug'ullanuvchi talabalar uncha ko'p emas edi. «Akademik sport» faqat sport yulduzlari, yaxshi ta'minlangan oilalarning bolalarigagina xizmat qilardi.

Avstraliyadagi maktablarning jismoniy tarbiya tizimi qiziqarli hisoblanadi. Bu mamlakatda jismoniy tarbiya maktabgacha tarbiya muassasalarida boshlanib, keyin boshlang'ich va o'rta maktablarda davom ettirilgan. Hukumat tomonidan bu sohaga yordam juda kam berilgan. Amerikadagi kabi bu yerda ham xususiy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaga e'tibor kuchli edi. Ko'pgina xususiy maktablar diniy tashkilotlarga mansub bo'lgan. Xususiy maktab-internatlar

yuqori saviyada o'quv, sport va sog'lomlashtirish ishlarini tashkil qilish bilan ajralib turardi. Ularda qat'iy tartib o'rnatilgan, ya'ni har kuni cho'milish yoki dush, kunduzi bir yarim soatlik sport o'yinlari va suzish shart. O'qish uchun mablag'lar bahosi yuqori darajada bo'lgan. Davlat va xususiy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlar bir xil bo'lmaganligi tufayli o'quvchilar har xil bilimlarga va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, o'quv jarayonidagi bunday shakllarning mavjudligi davlat va jamoat o'rtasiga turli munosabatlarni yuzaga keltirib, demokratik tamoyillardan uzoqlashib bordi.

Havaskorlik sport gimnastika harakati. Maktablar hamda o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya va sport bilan bir qatorda havaskorlik sport-gimnastika harakati ham birmuncha taraqqiy eta boshladi. Ularning bir necha rivojlanishi yo'nalishlar bo'yicha davom etdi. Ko'pgina mamlakatlarda milliy jihatdan tashkil qilinadigan sport harakati yo'q hisobi. Shu sababdan, sport tashkilotlari yo'nalish va mavjud faoliyatlarga qarab turlarga ajratilgan.

Ishchilar sporti. Bir qator mamlakatlar urush davrigacha mavjud bo'lgan sport tashkilotlariga egadir. Bunga Fransuz sport-gimnastika ishchilar federatsiyasi (FSJT), Fin ishchilari sport uyushmasi (TUL), Italiya xalq sporti uyushmasi (UISP), Avstriya jismoniy tarbiya va sport ishchilar uyushmasi (ASKB) misol bo'lishi mumkin.

1946-yilda Xalqaro ishchilar sport qo'mitasi (KSIT) tashkil topib, u Lyutsern sport internatsionalining davomchisi sifatida faoliyat ko'satdi. Ishchilar sport harakatini birlashtirish va unga rahnamolik qilish ko'zda tutildi. Bu tashkilot davlat va jamoat tashkilotlaridan moddiy yordam ololmaganligi uchun qiyin sharoitlarni boshidan kechirishga to'g'ri keldi. Ishchilar sport uyushmalari asosan kasaba uyushma tashkilotlari va sport klublari bilan yaqin aloqa hamda hamkorlikda ish tutdi.

Urushdan keyingi yillarda Olimpiya o'yinlari yana davom ettirildi. 1948—1952-yillarda Olimpiya o'yinlarida AQSH g'olib chiqdi va keyingi o'yinlarda esa ikkinchi o'ringa tushib

ketdi, ya'ni Melburn (1956), Rim (1960), Myunxen (1972), Barselona (1992) olimpiadalarida ikkinchi o'rinni egallaganlar. Uchinchi o'rinlarni esa 1976-yilgi qishki (Insburg) va yozgi (Monreal), 1988-yilda Seulda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida oldilar. Amerika sportchilari ko'proq yengil atletika, suzish, o'q otish, basketbol, boks, figurali uchish kabi turlarda doimo ustun bo'lib kelmoqda.

AQSHda futbol, boks, basketbol, xokkey, ketch, beysbol kabi turlar bo'yicha professionallik keng rivoj topgan.

AQSHda ma'lum doiradagi mutaxassislar orasida sportchilarda qo'llaniladigan doping va boshqa man etilgan vositalardan foydalanishga qarshi harakatlar ham kuchayib bormoqda. 2001-yil 11-sentabrda terrorchilar tomonidan Nyu-Yorkdagi Xalqaro savdo markazi va uning atrofidagi ko'p qavatli binolar samolyot bilan urib xonavayron qilingach, xalqaro tahdid soluvchi yovuz kuchlarga, ularning giyohvandlik faoliyatlariga qarshi AQSHda jiddiy tadbirlar olib borilmoqda. Bu, o'z navbatida, faqat Amerika mintaqasidagina emas, balki butun jahondagi xalqlarning tinch-osoyishta yashashlari hamda sportchilarning musobaqalarini betashvish o'tkazishlariga kafolat sifatida xizmat qilmoqda.

Olimpiya sporti urushdan keyingi G'arb mamlakatlarida keng miqyosda rivojlanib ketdi. Bunga, asosan, bu mamlakatlarda ikki yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi sabab bo'ldi. Shu asosda gimnastika, dzyu-do hamda qishki sport turlari Yaponiyada; konkida uchish va chang'i sport turlari, xokkey Kanada, Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiyada; konkida figurali uchish, tog' chang'i sporti Fransiya, GFR va Avstraliyada; futbol—Braziliya, Angliya, GFR, Gollandiya, Italiya, Argentina va boshqa mamlakatlarda rivoj topdi.

Umuman olganda, jahonda jismoniy tarbiya va sport rivoji bir xilda bo'lmadi. G'arbda sport bilan shug'ullanuvchilarning ijtimoiy guruhlari ko'p qirralidir.

«Sport hamma uchun». So'nggi 20—30 yil mobaynida ba'zi bir G'arb mamlakatlarida «Sport hamma uchun» harakati avj ola boshladi. Uning tarqalishi Madaniy aloqalar

bo'yicha Kengashning Yevropa iqtisodiy hamjamiyati doirasida tarkib topishi bilan bog'liqdir. 1975-yilda «Sport hamma uchun» Yevropa xartiyasi (Nizom) qabul qilindi, unda jamiyatning kelgusi taraqqiyot dasturi ishlab chiqildi. «Sport hamma uchun» harakatining umumahamiyatga ega bo'lgan dasturida yugurish, yurish, aerobika, atletik gimnastika, oddiy musobaqalar uyushtirish, turli xil o'yinlar, shahardan tashqariga sayohat va sayrlar asosiy mashg'ulot bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonlar yangi davrda vujudga kelgan rekreatsion harakatning davomi desa bo'ladi. Bu harakat turli mamlakatlarda har xil nom bilan yuritila boshladi. Masalan, Norvegiya va Germaniya Federativ Respublikasida «Trimm», Italiyada — «Biz sizlarga taqlid qilamiz», AQSHda «Jismoniy faollik» kabi.

«Sport hamma uchun» harakati rekreatsion jismoniy mashqlar shaklidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotidir. Bu, o'z navbatida, mehnatkashlar ommaviy-jismoniy madaniyatining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bu harakatni keng targ'ibot qilishga ommaviy axborot vositalari jalb qilindi. Ko'p sonli ishlab chiqarish firmalari, aholining turli xil jismoniy tarbiya vositalariga qiziqishini hisobga olgan holda juda ko'p miqdorda sport buyumlari, kiyimlarini bozorga chiqarmoqda.

Sport va cherkov. Cherkovlar sportdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildi. Urushdan keyingi davrlarda cherkov xodimlari davlat yordamida yoshlarni cherkovga jalb qilishda sport imkoniyatlarini keng qo'lladilar. AQSHda xristian yoshlarining birlashgan harakati (tashkilot), talaba-katolik milliy tashkilotlari jismoniy tarbiya va sport ishlari bilan shug'ullandi. Germaniyada 40-yillarda «Doyche-Yugendkrift» («Germaniyaning yosh kuchlari») va «Eyxenkroys» («Dub xoch») tashkilotlari Vatikan bilan kelishilgan holda tuzilgan edi. Italiyada katolik spotchilari uyushmasi faoliyat ko'rsatdi. Sportdan keng foydalanuvchi eng yirik cherkovlardan biri, xristianlarning Xalqaro assotsiatsiyasi (IMKA) hisoblanadi. Cherkovlar, ayniqsa, Vatikan yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash vositasi sifatida sportni tan oldi. 1952-yilda papa Piy II Xalqaro sport ilmiy Kongressiga

yo'llagan xatida «Cherkov sportining texnika, gigiyena, fiziologiya tomonlari bilan qiziqmaydi. Katolik cherkov xodimlari sportning tana va ruhni tarbiyalaydigan vositalarini tan oladi», - deydi. 1968-yil papa Pavel VI Vatikanda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi qatnashchilarini qabul qildi. U o'z nutqida «Cherkov sportining rivojlanishiga sidqidillik bilan qiziqadi, chunki din va Olimpiya o'yinlari orasida ziddiyatlar ko'rinmaydi», - degan edi.

Shunday qilib, cherkov hozirgi zamon dunyosiga qo'shilishiga majbur bo'ldi, deyish mumkin.

Olimpiya sportining rivojlanishi. G'arb mamlakatlarining ko'pchiligi Olimpiya sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda edi. Urushdan keyingi yillarda G'arb davlatlarida Olimpiya sport turlarini rivojlantirishda bir qator asosiy yo'nalishlar vujudga keldi.

Birinchidan, Olimpiya sportini rivojlantirishda davlatlarning roli o'sib bordi. Ikkinchidan, Olimpiya sportiga ta'sir etuvchi monopoliyalar, korporatsiyalar, firmalarning moliyaviy ta'minoti davlat bilan birgalikda amalga oshirildi. Uchinchidan, katta sportda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari keng qo'llanila boshladi. To'rtinchidan, sportchilarni tayyorlash maqsadida maxsus markazlar, bir necha davlatlar birlashib mashg'ulotlar o'tkazish joylari amalda qo'llanildi. Bunday holatlar, ayniqsa, AQSHda ko'proq uchramoqda. AQSHda Olimpiya sportiga rahbarlik bir qator tashkilotlar tomonidan olib boriladi.

Bunda Oliy o'quv yurtlariaro Milliy assotsiatsiya (NKAA), Havaskorlik atletika jamiyati (AAYU), Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) faol ishtirok etadi. Uzoq vaqtlar bu uch tashkilot o'rtasida mustahkam aloqa bo'lmagan, chunki o'zaro kelishmovchiliklar kuchli bo'lgan edi. Bunda moliyaviy ta'minot, milliy jamoani tarkib toptirish, Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish, boshqa xalqaro musobaqalarda qatnashish kabi masalalarda o'zaro kelisha olmaganlar. Bunday holatlarni tugatishga AQSHda «Havaskorlik sporti haqida»gi qonunning qabul qilinishi (1978) sabab bo'lgan. Shu qonun asosida AQSH MOQ mamlakatdagi barcha havaskorlik sport

uyushmalarini o'ziga birlashtirib olgan. Shu sababdan, barcha masalalarni MOQ hal etadi. AQSHda Olimpiya va Panamerika o'yinlarida jamoalarning qatnashish-qatnashmasligini MOQ hal etadi. AQSH MOQsi Olimpiya va Panamerika o'yinlariga jamoalarni tayyorlash, qatnashish va barcha faoliyatlarga rahbarlikni amalga oshiradi. Bunda moddiy-texnik bazani mustahkamlash, sportchilarning mashg'ulotlarini tashkil etish, ilmiy-uslubiy tavsiyalar tarqa-tish va boshqalar muhim o'rin tutadi.

AQSHda Olimpiya sportining deyarli barcha turlari mavjud. Ular orasida suzish, velosport, o'q otish, boks, yengil atletika kabi turlar kengroq tarqalgan. Ma'qul bo'lgan sport turlaridan ot va yelkan sporti, golf, qilichbozlik kabilar hisoblanadi. Bu turlar bilan ko'pincha xususiy sport klublari shug'ullanadi. Ularga badavlat kishilar a'zo bo'ladilar. Shular qatorida baliq ovi, sayohat (turizm), amerikacha futbol, Sokker (Evrona futboli) beysbol va regbi ko'p qo'llaniladi. Amerika terma jamoalarini tayyorlash o'quv mashg'ulot markazlari Kolorado-Springs va Skvo-Vellida o'tkaziladi. Kolorado-Springs sport majmuida bir yo'la 800 sportchi shug'ullanishi mumkin. Olimpiya sportining yuqori natijalarga ko'maklashuvchi masalalarini Agoya, Arizona, Janubiy Kaliforniya universitetlarining laboratoriyalarida o'rganiladi.

Sport va biznes. Urushdan keyingi yillarda jahonda jismoniy tarbiya va sportga monopoliyalar, trestlar, matbuot homiylari, kino va televideniya rahbarlarining qiziqishi ortib bordi. Katta tijorat (biznes) uchun tadbirkorlar professional sportdan keng foydalandilar. Ular boks, futbol, xokkey, beysbol, avtosport va boshqa turlarni daromad manbaiga aylantirib yuborishdi. Professional sportchilarni mol (tovar) kabi sotib olish va sotish kuchaydi. Professional sport ham, havaskorlik sporti ham siyosat bilan uzviy bog'lanib qoldi. AQSHda professional sportchilardan prezident va senatorlarni saylashda keng foydalandilar. Turnirlarda siyosiy arboblar professional sportchilar bilan birga chiqadilar. Bu siyosiy partiyalarda, turli kompaniyalarda o'z mavqelarini yaxshilash yo'lida ularga manfaat keltiradi.

Siyosatdan yiroqlik, insonparvarlik, havaskorlik. Urushdan keyingi davrlarda G'arb mamlakatlari sport-gimnastika harakatining nazariy-amaliy faoliyatida sportdagi asosiy tamoyillardan yuz o'girish holatlari yuzaga keldi. Ya'ni siyosatdan yiroqlashuv, insonparvarlik va havaskorlik yangi yo'nalishlarda davom etdi. Sportda kamsitish, chegarala-nishga yo'l qo'yilmaslik g'oyalari rivojlandi. Lekin kamsitish o'rniga siyosiy jihatdan b'azi mamlakatlarni o'z yo'lidan qaytarishga kirishildi. Bu xalqaro sport maydonlaridagi ba'zi davlatlarni siqish, xalqaro ahvolning keskinlashuvi (Vengriyadagi – 1956, Chexoslovakiyadagi – 1968, Afg'onistondagi – 1979 voqealar va h.k.) sabab bo'ldi. Bunday holatlar sportdagi gumanizm tamoyillariga ham ta'sir o'tkazdi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda insonparvarlik g'oyalaridan uzoqlashishning asosiy sabablaridan biri sportchilarning yuqori natijalarni ko'rsatishi uchun doping ishlatilishi (giyohvandlik), sportga aloqador bo'lmagan turli xil musobaqalarning uyushtirilishi (xotin-qizlar, odamlarning itlar bilan olishuvi va h.k.) sabab bo'ldi.

Havaskorlik harakatining halokatga uchrashi esa urushdan so'nggi davrlardagi milliy va tashqi sabablar bilan bog'liqdir. Ichki sabablardan biri shuki, har yili sportda eng yuqori natijalarni ko'rsatish talabi kuchayadi, sportdan keladigan daromadlarni yo'q qilish, bunda ommaviy axborot vositalarini ishga solish kuchaydi. Tashqi sabablar esa sportdagi havaskorlikning susayishi, xalqaro sport maydonlarida kuchlar tengligining o'zgarishlari hisoblanadi.

Shu sababdan, havaskorlik sport tamoyillarini saqlash eski yo'lga qaytdi, ya'ni havaskorlik sporti professional sport chegarasi doirasida rivoj topa boshladi. Olimpiya xartiyasidan «Havaskorlik» atamasi o'chirib yuborildi. 1984-yilda Los-Anjelesda o'tkazilgan XXIII o'yinlardan boshlab, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) va bir qator sport federatsiyalarining (XSF) ruxsati bilan professional sportchilar Olimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini oldilar. Asosan, ular futbol, basketbol, xokkey tennis, figurali uchish kabi turlarda ishtirok etdilar.

Tushkunlik (krizis) holatlaridan ustun kelish yo'lida sportda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini qo'llash amalga oshirildi. Bu sportdagi yuksak natijalarga erishish yo'llarida ko'mak bo'ldi. AQSH, GFR, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Italiya kabi taraqqiy qilgan yirik mamlakatlarda tibbiyot, fiziologiya, psixologiya sohalarida ilmiy tadqiqot o'tkazildi. Sportga o'rgatish va mashg'ulotlarni tashkil qilish usullari ishlab chiqildi. Ilmiy tadqiqot natijalariga asosan, universitetlar va kollejlarning majmualarida hamda yuqori malakali sportchilarni jalb etish yo'li bilan ilmiy markazlarda katta sinov-tajribalar amalga oshirib borildi.

Xulosa shundan iboratki, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport jahonning barcha mamlakatlarida tezlik bilan rivojlandi. Eski usullardan voz kechildi. Xalqaro sport harakati va Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi yoshlarni sportga jalb etish, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va ularning sport mahoratlarini oshirishda katta rag'batlantiruvchi kuch bo'ldi. Bu jarayonlar AQSH, GFR, Fransiya, Italiya, Skandinaviya mamlakatlari hamda Sharqda Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlarda keng quloch yoydi.

5.2. Taraqqiyot yo'lidagi davlatlar

Milliy mustaqillik uchun xalqlarning kurashi Ikkinchi jahon urushidan keyin, ayniqsa, kuchaydi. Bunda Fashistlar Germaniyasining yakson qilinishi, Yaponiya militarizmining yo'q qilinishi, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi xalqlarning milliy ozodlik harakatlari asosiy sabab bo'lib hisoblandi. Natijada, imperializmning mustamlakachilik tizimi tushkunlikka uchradi. Taraqqiy etib kelayotgan davlatlar milliy mustaqillikni qo'lga kiritdi. Shu bilan o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun kurash olib borishdi. Taraqqiy etib kelayotgan mamlakatlarda milliy-demokratik kuchlarning o'sishi ta'sirida jismoniy tarbiya va sportda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi va u davom etmoqda. Jismoniy tarbiya va sport milliy madaniyatning uyg'onishi hamda rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Bu, o'z navbatida, yosh davlatlar xalqlarini taraqqiyot yo'lidan borishga undamoqda.

Bunday mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi munosabatlar, asosan, mustamlakachilik tizimidagi asoratlardan qutulish, milliy kamsitishlarga to'la barham berish, milliy jismoniy tarbiya tizimini yaratishga qaratilmoqda. Jismoniy madaniyat sohasida erishilgan yutuqlar milliy g'urur va mamlakat iftixori sifatida baholanmoqda. Ularni xalqaro miqyosda mustahkamlash yo'lida harakat qilinmoqda.

Afrika mintaqasi. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi Afrika mamlakatlarida namoyon bo'lmoqda. Afrika mintaqasining xalqlari bir necha asrlar mobaynida o'zining milliy madaniyati va uning tarkibiy qismi sifatida jismoniy madaniyatni ham yuzaga keltirdi. Lekin mustamlakachilik tizimi bu yurtlarda iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ancha orqada qoldirdi. Jismoniy madaniyat taraqqiyotining to'xtab qolish sababi, asosan, aholini yo'qchilik, qashshoqlik holati bilan bog'liq edi. Jismoniy tarbiya va sport o'yinlari bilan shug'ullanish mustamlaka egalari hamda mahalliy boylargagina nasib etgan edi, layoqatli va eng yaxshi sportchilar faqat metropoliylar, ya'ni mustamlakachilar (Fransiya, Angliya, Italiya va boshqa davlatlar) terma jamoalari tarkibidagina musobaqalarda qatnashganlar.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar yangi hayot qurish, jismoniy madaniyatni keng omma orasiga yo'llashga kirishdi. Ko'pgina davlatlarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha rahbarlik davlat doirasida olib borildi. Jismoniy tarbiya maktab va boshqa o'quv yurtlarining dasturlariga kiritildi. Yoshlarni tarbiyalashda an'anaviy milliy o'yinlar, jismoniy mashq turlari keng qo'llanildi. Bu jarayonlar arab mamlakatlari: Aljir, Liviya, Tunis, Marokko, shuningdek, Gana, Mali, Gvineya va boshqalarda namunali hisoblandi. Afrika mintaqasidagi davlatlarda xalqlar turmushi orasidagi farqlarni kamaytirishda jismoniy tarbiya va sport muhim vosita sifatida xizmat qildi, ijtimoiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Jismoniy tarbiya taraqqiyotini muvofiqlashtirish va rahbarlikni amalga oshirish

yo'lida yagona tartibni ishlab chiqish amalga oshirildi. 1965-yilda Afrika Oliy sport Ittifoqi (Kengashi) tashkil etildi. Bu Afrika sportchilarini birlashtirish va yagona Afrika birligini ta'minlashga xizmat qilib keldi, mustamlakachilik va irqchilikka qarshi kurash olib bordi. Bu Kengash sportda milliy kamsitish va irqchilikka qarshi faoliyatlarni yuritdi. Shu asosda mintaqadagi musobaqalar va o'yinlarga sportchilarni tayyorlash amalga oshirilmoqda.

Bu mintaqada sport harakatini rivojlantirishda Afrika o'yini muhim ahamiyatga egadir. O'yinlar birinchi marotaba 1965-yilda Kongo markazi Brozzavilda o'tkazilgan. Unda 17 mamlakatdan 1500dan ortiq sportchi ishtirok etgan. O'yin dasturida basketbol, voleybol, gandbol, tennis, futbol, yengil atletika, velosiped, boks, suzish, dzyu-do kabi turlar o'rin olgan edi. O'yinlarda yaxshi natijalarni Misr, Nigeriya, Keniya, Senegal, Fil suyagi qirg'og'i va Aljir sportchilari namoyish etgan. Afrika yoshlari birinchi o'yinlarda o'zlarining yakdillik, hamkorlik, birlik yo'lidagi intilishlarini ko'rsatdi. 1973-yil Lagosdagi (Nigeriya) ikkinchi Afrika o'yinlarida 34 mamlakatdan 4000dan ortiq sportchi ishtirok etgan. 1978-yil Aljir shahrida uchinchi Afrika o'yinlari tashkil etildi. Bu o'yinlar XXII Olimpiya o'yinlariga (Moskva, 1980) tayyorgarlikning asosi bo'lib hisoblandi. Keyingi yillarda o'tkazilgan o'yinlar ham mintaqada hozirgi zamon sport turlarining rivoj topayotganliklarini namoyish etdi. Olimpiya o'yinlari va sport turlari bo'yicha jahon chempionatlarida, xalqaro turnirlarda ishtirok etayotgan afrikalik sportchilar soni tobora ko'payib bormoqda.

Osiyo mintaqasi. Osiyodagi taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarda davlat va jamoat tashkilotlari jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga katta e'tibor berdilar. Mustaqillikni qo'lga kiritgan Hindiston, Afg'oniston, Birma, Indoneziya, Livan va boshqa mamlakatlardagi sport tashkilotlari juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Jismoniy tarbiya va sportga qiziqish bu mamlakatlarda yil sayin oshib bordi. 1954-yilda Hindistonda hukumat tomonidan sport va jismoniy tarbiyani o'rgatish Milliy Kengashi tuzildi. Uning Dasturi hind yoshlarini

jismoniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishga qaratildi. 1963-yildan boshlab «Jismoniy takomillashtirish milliy harakati» musobaqalari doimiy o'tkazib borilmoqda. Ularda 2 mln. gacha kishi ishtirok etadi. Taraqqiy qilayotgan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tay-yorlash, sportning moddiy-texnik bazasini yaratishga jiddiy e'tibor berib, katta mablag'lar sarflanmoqda. 1960-yil Qobulda (Afg'oniston) maktablar va boshqa o'quv yurtlari uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash maktabi tashkil etildi. 1975-yilda jismoniy tarbiya instituti ochildi. Oliy toifadagi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlovchi institutlar Hindiston, Eron va boshqa Osiyo mamlakatlarida mavjuddir. Osiyo mamlakatlarida sport-gimnastika va o'yinlarni rivojlantirish maqsadida 1949-yilda Osiyo o'yinlar uyushmasi (federatsiya) tashkil etildi. Bu uyushma Osiyodagi 20 dan ortiq mamlakatlarni o'ziga birlashtiradi. Osiyo o'yinlari uyushmasining Ustavi Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Xartiyasiga (Ustav) mos keladi. 1951-yilda birinchi Osiyo o'yinlari tashkil etildi. U Dehlida (Hindiston) o'tkazilib, har 4 yilda bir marotaba tashkil qilinmoqda.

Osiyo o'yinlari g'oyat qizg'in va keskin kurashlar bilan an'anaga aylandi. Bu mintaqalardagi mamlakatlarda milliy jismoniy mashqlar va o'yinlar (gimnastika, xatxa-yog, langar va tayoqlar bilan mashq qilish – malkxamb, ritmik gimnastika, ot o'yinlari, kurash va h.k.) keng qo'llaniladi.

Osiyo o'yinlari keyingi yillarda yanada tantanali ravishda o'tkazib borilmoqda. Bunga, ayniqsa, 1991-yilda sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqil davlat bo'lib, Osiyo o'yinlarida ishtirok etishlari ham asos bo'lmoqda.

1994-yil kuzida Xirosima (Yaponiya) shahrida o'tkazilgan XII Osiyo o'yinlarida O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari muvaffaqiyatli qatnashdilar. O'zbekiston futbol jamoasi oltin medal sovrindori bo'ldi.

1998-yilda Bangkokda (Tayvan) o'tkazilgan navbatdagi Osiyo o'yinlarida barcha mamlakatlar qatori Markaziy Osiyo

davlatlari yana ishtirok etib, o'zlarining sportdagi mahoratlarini namoyish etdilar. O'zbekistonlik bokschilar, sharqona yakka kurashchilar, yengil atletikachilar yaxshi natijalarni qo'lga kiritishdi.

Osiyo o'yinlari Markaziy Osiyo respublikalarining sportdagi nufuzlarini yanada balandroq ko'tarish yo'lida katta xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, sport turlari bo'yicha Osiyo chempionatlari, Xalqaro turnirlarni o'tkazishga hamda jahon birinchiliklari va Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik-saralash musobaqalarida teng huquqli ravishda ishtirok etish, sportchilar mahoratini oshirish, eng muhimi, mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport harakatini yanada takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Lotin Amerikasi mintaqasi. Urushdan so'nggi davrda bu mintaqada jismoniy tarbiya va sportning o'sishi sezilarli darajada ko'zga ko'rindi. Bunda Amerika va Karib dengizi, Panamerika o'yinlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'yinlar ilk bor 1951-yilda tashkil etilgan. Shular qatorida Boliviya o'yinlari ham mavjuddir. Bu o'yinlarning dasturida futbol, basketbol, yengil atletika, suzish, boks, kurash, velosport, o'q otish, qilichbozlik, tennis va boshqa sport turlari, ya'ni Amerika qit'asida keng tarqalgan o'yinlar mavjuddir.

Xalqaro sport va Olimpiya harakatida taraqqiyot yo'lida borayotgan mamlakatlar doimiy ravishda faol ishtirok etib kelmoqda. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarining aksariyatida Milliy Olimpiya qo'mitalari tashkil etilgan va ular katta faoliyat ko'rsatmoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shmoqda. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqalaridagi Milliy sport tashkilotlari juda ko'p xalqaro sport uyushmalarining a'zosi hisoblanadi, ya'ni Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro sport federatsiyalari tarkibidan o'z o'rinlarini haqli ravishda egallaganlar.

Taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarning sportchilari Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Hindiston sportchilari 1948, 1952, 1956, 1964, 1980-yillarda chim xokkeyi bo'yicha Olimpiya chempioni unvoniga sazo-

vor bo'lishgan. Rimda va 1964-yilda Tokioda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida Efiopiya yuguruvchilariga marafonchilar Abebe Bekila, Moskvadagi (1980) o'yinlarida M.Ifter 5 va 10 km.ga yugurish bo'yicha bellashuvlarda shuhrat keltirgan edi. Myunxenda (1972) o'tkazilgan XX Olimpiya o'yinida Jon-Akip-Bua (Uganda) 400 m.ga to'siqli yugurishda jahon rekordini o'rnatib chempion bo'ldi. Shuningdek, Keniya, Marokko, Eron va boshqa mamlakatlar ham Olimpiya o'yinlarida yaxshi natijalarga erishadi.

Ta'kidlash zarurki, 2000-yil Sidneyda (Avstraliya) o'tkazilgan XXVII Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston bokschilari 1 ta oltin va 2 ta kumush medalni qo'lga kiritdi. Andijonlik Muhammadqodir Abdullayev (71 kg) vaznda Olimpiya chempioni unvoniga sazovor bo'ldi.

Taraqqiyot yo'lida borayotgan mamlakatlardagi jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirish, mutaxassis kadrlar tayyorlash, yangi usullar asosida mashg'ulotlar o'tkazish hamda tashkiliy sohalarda sobiq sotsialistik mamlakatlarning o'zaro yordami muhim o'rinlarni egalladi.

5.3. XX asr oxirida jahon mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport

So'nggi 10 yilliklar davrida jahondagi yirik mamlakatlarda davlatning milliy sport harakati bilan uzviy ravishda hamkorlik qilish faoliyatlari ko'zga tashlanmoqda. Buning negizida, asosan aholining salomatligini yaxshilash jamoatchilik tartibi hamda milliy xususiyatlarni himoya qilish maqsadlari mujassamlashmoqda. Shu asosda ko'pgina mamlakatlarning hukumat doiralari sport harakati faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda sportning eng yuqori natijalariga erishish tizimini ham ma'qullamoqda.

Ko'p davlatlarda sport vazirligi faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina Yevropa mamlakatlarida bunday vazirliklar 14 taga yetib bordi. Ba'zi davlatlarda bu vazifalar vazirlikka o'xshash sport bo'yicha Oliy Kengash zimmasida, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Gretsiya, Portugaliya, Finlyandiya, Es-

toniya kabi mamlakatlarda esa ta'lim, madaniyat vazirligi nazoratidadir. Ularda mavjud maxsus bo'limlar hukumat vazifasini bajaradi.

Davlat idoralari va jamoatchilikka tegishli jismoniy madaniyat-sport tashkilotlarining mustahkam aloqadorligi ommaviy jismoniy madaniyat va sport sohasida umummilliy siyosatni shakllantirishga qaratilgan.

90-yillarda ko'pgina mamlakatlarda sportning oliy tizimini, ya'ni davlat va jamoat organlarini birlashtirish munosabatlari kuzatildi. Daniya va Niderlandiyada Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) sport konfederatsiyasi bilan birlashtirildi. 1995-yil boshida Norvegiyada ham shu holat yuz berdi. Shunga o'xshash faoliyatlar taraqqiyot yo'lidagi barcha mamlakatlar, Sharqiy Yevropa mamlakatlari hamda ba'zi sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil respublikalarda ham uchraydi.

Sport sohasi bo'yicha vazirlikka ega bo'lmagan davlatlar, ya'ni GFR va Shveysariyada jismoniy tarbiya va sport ishlari Ichki ishlar vazirligi, Shvetsiyada – Moliya vazirligi, Yaponiyada – Ta'lim va madaniyat vazirligi tomonidan boshqariladi. Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlarda esa bunday tuzilish bir-biriga birlashtirilgan.

Sport vazirliklari huzurida maxsus qo'mitalar tashkil etilgan bo'lib, ular zimmasiga barcha tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borish yuklatiladi, ya'ni klublardan tortib to vazirliklargacha ular rahbarligi ostida bo'ladi.

90-yillarda yirik mamlakatlarda sportni moliyalashtirish bilan birgalikda sport inshootlarini qurish, ularni o'z ixtiyorida saqlash, sog'lomlashtirish markazlari, sport klublar, yuqori darajadagi sportchilarni tayyorlash, ularni muhofaza qilish, kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot, axborot, sportni mavjud qonunlar asosida ta'minlash kabi muhim masalalarni o'z ixtiyoriga olgan.

Sport to'g'risida Shveysariya (1972), Gretsiya (1975), AQSH (1978), Finlyandiya (1980), Fransiya (1975, 1984, 1992), Italiya (1984), Ispaniya (1988, 1990), O'zbekiston (1992, 2000) mamlakatlarida maxsus qonunlar qabul qilingan

hamda ko‘p mamlakatlarda sport mavzusi konstitutsiyalarga kiritilgan.

Juda ko‘p davlatlarda sport tashkilotlari davlat soliqlaridan ozod etilgan yoki ularga imtiyozlar berilgan, AQSHda bunday imtiyozlar 1933-yilda joriy qilingan. 1959-yilda AQSH Kongressi Milliy Olimpiya qo‘mitasini yuridik shaxs sifatida tan olib, uni soliqlardan ozod etdi. Sportga o‘z mablag‘larini (kapital) sarflaydigan tijoratchilar ishlab chiqarish firmalari soliq masalasida imtiyozlarga egadir. Bunday holatlarning ko‘p mamlakatlarda joriy etilishi sababli, mehnatkashlar kuchi va mablag‘larini sportga sarflashga jalb etmoqda. Bunday tadbirlar ijobiy natijalarga yo‘llamoqda.

GFRda sport o‘z tarkibiga 21 mln.dan ortiq kishini birlashtirgan. Ularga 200 mingdan ortiq xodim xizmat qiladi. Davlat sport inshootlarini kengaytirish, mashg‘ulotlarning joylarini yaxshilashga qiziqish bilan e’tibor berib kelmoqda.

Juda ko‘p mamlakatlarda maktablar, oliy o‘quv yurtlari, aholi istiqomat joylari, istirohat hamda ko‘ngil ochish bog‘lari, katta poliklinikalar va kurortlar tarkibidagi sog‘lomlashtirish sport klublariga davlat tomonidan yaqindan yordam beriladi.

Qiziqarli tomoni shundaki, sportklublar xilma-xilligi, ya’ni bolalar, o‘rta yoshdagi, katta yoshdagi kishilar, nogironlar uchun, shuningdek, oilaviy klublar takomillashmoqda. Ularda tanlangan sport turi bo‘yicha yoki tavsiya etiladigan dasturlarda aerobika klubi, yugurish, bouling, bodibilding, golf, tennis, suzish, basketbol klublari alohida faoliyat ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda qator mamlakatlarda ko‘p maqsadli klublar tashkil etilmoqda. Ular minglab shug‘ullanuvchilar (mijoz) xohish-istaklarini qondirmoqda. Chunki suzish havzalari, o‘yinlar uchun sport zallari, trenajer zallari, yugurish yo‘laklari, bolalar uchun zallar va h.k.ga egadirlar. Ularning ba’zilari kecha-yu, kunduz xizmat ko‘rsatishga qodirlar.

XX asr oxirlarida jismoniy madaniyat va sport barcha besh qit’ada takomillashdi. Buni barcha qit’alarning sportchilari xalqaro miqyosdagi musobaqalarda, ayniqsa, jahon

birinchiliklari va olimpiya o'yinlarida doimo qatnashib kelayotganliklari bilan isbotlashlari mumkin. Futbol, boks, yengil atletika va boshqa sport turlari bo'yicha jahon chempionatlarida barcha davlatlar faol ishtirok etmoqda.

Sport ishqibozlari tennis bo'yicha o'tkazilayotgan nufuzli xalqaro turnirlari: Avstraliya ochiq chempionati, Fransiya, AQSH, Angliya kabi yirik mamlakatlarning xalqaro turnirlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Kubogi va h.k.ni doimiy ravishda ko'rib, kuzatib bormoqda.

Stenli kubogi uchun shaybali xokkey bo'yicha amerika-kanada xokkey ligalarining musobaqalari jahonda keng tomoshabinlar ommasini o'ziga jalb etmoqda.

Asr oxirlarida juda ko'p mamlakatlarda sport fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari ancha kuchayib ketdi.

Olimlar sportning tibbiy-biologik, psixo-pedagogik, tarixiy-sotsialogik hamda iqtisodiy jihatlari, sport mashg'ulotlarining nazariyasi va uslubiyati, sportchilarning ovqatlanishi, ularning charchoqlarni chiqarish – quvvatni qayta tiklash kabi tomonlarga jiddiy e'tibor berib, tadqiqot ishlarini kuchaytirmoqda. Ularning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga katta mablag'lar sarf etilmoqda. AQSHda sportga doir ilmiy tadqiqot ishlari uchun har yili 1 milliard dollar ajratiladi. Germaniyada Ichki ishlar vazirligi xazinasidan (byudjet) sport ishlari uchun har yili 12 mln. marka ajratiladi. Katta ilmiy tadqiqot ishlari Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Angliya, Rossiya va boshqa davlatlarda olib borilmoqda. Ana shu davlatlar XX asr oxirida sport olamida peshqadamlik qilib keldi.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda, ayniqsa, XX asr oxirlarida jahonda sport taraqqiyoti misli ko'rilmagan darajada ravnaq topdi. Bunday taraqqiyot, asosan, turli tizimlar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy sharoitlari bilan bevosita bog'liq holda amalga oshirildi.

90-yillarning boshlarigacha mamlakatlar sotsialistik va kapitalistik tizim deb atalgan ikkita katta guruhga ajralib taraqqiy qildi. G'arb davlatlari, AQSH, Yaponiyada jismoniy tarbiya va sport o'ziga xos tarzda, sobiq Ittifoq va uning ta-

rafdorlarida yana o'zgacha sharoit va imtiyozlar doirasida rivojlandi.

Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi qit'alaridagi taraqqiyot yo'lidan borgan mamlakatlarda hozirgi zamon sport harakati uchinchi yo'nalish bo'yicha borib ancha takomillashmoqda.

Bularning eng muhim sabablari shundaki, xalqaro sport musobaqalari, jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlari yuqori saviyada o'tkazib borildi.

Sobiq Ittifoqning barham topishi tufayli (1991) mustaqil davlatlar ko'paydi. Sotsialistik tuzumdagi mamlakatlar milliy sport harakatlarini jahon an'analariga moslashtirmoqda.

O'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha savollar

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin yirik mamlakatlarda jismoniy madaniyat va sport sohasida qanday o'zgarishlar bo'lgan?
2. G'arb mamlakatlaridagi jismoniy madaniyat va sport sohasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. G'arb mamlakatlarida sportning asosiy yo'nalishlari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarda jismoniy madaniyat va sport harakatining rivojlanish xususiyatlari nimada?
5. XX asr oxirlarida mamlakatlarda jismoniy madaniyat va sport taraqqiyotining xususiyatlari nimalardan iborat?

VI bob. ROSSIYA VA SOBIQ SSSRDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

6.1. Qadimgi Rusda jismoniy madaniyat (IX–XVII asrlar)

Eng avvalo e'tirof etish lozimki, jismoniy madaniyat va sport tarixiga doir darsliklar (1968-yildagi tarjima), V.V.Stolbov rahbarligi tahriri ostida tayyorlangan, keyingi darsliklar (1983, 1989 va boshqa ruscha) birmuncha eskirdi.

V.V.Stolbov tahriri ostida 2000-yilda nashrdan chiqqan «Istoriya fizicheskoy kulturi i sporta» darsligi (uchinchi qayta ishlangan) birmuncha ixcham, voqealar oydinlashgan, so'nggi yillardagi o'zgarishlar, dalillar oddiy qilib bayon etilgan.

Eradan avvalgi IV–III asrlarda shimoliy rus xalqi mehnat va turmushda chang'idan ko'p foydalangan. Sibir va Uzoq Sharq xalqlari yugurish, nayza uloqtirish, boltani mo'ljalga otish, eshkak eshish, ayiq o'yinlari va jismoniy harakatlarning boshqa turlari bilan mashg'ul bo'lishgan.

Qadimgi slavyanlarning jismoniy mashqlari va turli xil o'yinlari alohida ajralib turgan. Sharqiy slavyan xalqlari quldorlik tuzumini deyarli boshdan kechirmaganlar. Ular chorvachilik, yer haydash, ovchilik, mayda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Qadimgi slavyanlarda qizlarni onalar, o'g'il bolalarni esa otalar tarbiyalashgan. Har bir o'g'il bolaning jangchi bo'lishi uchun tayyorlanishi ko'zda tutilgan. Tarbiya ikki yoshdan boshlanib, bola to'rt yoshga yetganda, uni otga o'tqazganlar. 10 yoshga to'lgan bolalar qilichbozlik qilib, barcha hunarlarni yaxshi egallagan.

Slavyanlar Volga, Dnepr daryolari va Qora dengizda suzish, eshkak eshishni yaxshi o'rganishgan. Sharqiy slavyan xalqlar o'zlarining an'analari va marosimlarida «Ayiq jangi»,

«Ho'kiz bilan olishuv», «Ovda» kabi o'yinlarni ijro etishdi.

Ta'kidlash lozimki, Rossiyaning madaniyat hamda jismoniy tarbiyasi davrlar o'tishi bilan rivojlangan. Bu Oktabr to'ntarishidan keyin (1917) ham bevosita Rossiyada va mustamlaka mamlakatlarida (Kavkaz, Markaziy Osiyo, Boltiq bo'yi va h.k.) davom ettirildi. Rossiya Federatsiyasi va sobiq SSSRning jismoniy tarbiya va sport tarixi bir hisoblanadi. Shuning uchun Rossiya Federatsiyasi va sobiq SSSR jismoniy tarbiya va sport tarixi birgalikda ifoda etildi.

Pedagogikaga doir adabiyotlarda jismoniy tarbiya masalalari. Rus davlatining taraqqiy etishi va mustahkamlanishi bilimning turli sohalariga doir adabiyotlarga ijtimoiy ehtiyoj tug'dirdi. Tabiatshunoslik, meditsina va pedagogikaga oid har xil kitoblar chiqa boshladi.

Yoshlar jismoniy tarbiyasiga salbiy munosabatda bo'lgan ruhoniylar bu masalaga doir adabiyotlarning Rusda tarqatishiga xalaqit berardi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, XVII asr oxirlarida jismoniy tarbiya masalalari haqida ham to'xtalib o'tilgan pedagogik asarlar paydo bo'ladi. Ularning orasida eng yirigi olim, monax Yepifaniy Slavineskiyning (1676-yilda vafot etgan) «Bolalar odatlarini tarkib toptirish» nomli kitobi edi. Muallif o'zining bu kitobida «Domostroy»da (Turmush qoidalari va bolalar tarbiyasi to'g'risida maslahatlar to'plami) bayon qilingan tarbiya g'oyalaridan tubdan farq qiluvchi yangi insonparvar pedagogika g'oyalarini ilgari surdi. Slavineskiyning asari bolalar shaxsiga hurmat bilan sug'orilgan edi. U bolalar tarbiyasiga, harakatli o'yinlarga alohida e'tibor berdi. Slavineskiy harakatli o'yinlarga faqat bir ermak deb qaramadi, balki ularni sog'liqni mustahkamlash va ma'naviy jihatdan kamol toptirish vositasi deb hisobladi.

Yepifaniy Slavineskiy Rusda birinchi bo'lib o'yinlarni bolalar tarbiyasida qo'llash uchun kerakli va keraksiz guruhlarga ajratib, ularni toifalashga intildi. U to'p o'yini, yugurish va har xil sakrash o'yinlarini birinchi guruh o'yinlariga; pul yutish va yutqizish bilan bog'liq bo'lgan oshiq va qarta o'yinlarini, shuningdek, firibgarlik, shuhratparastlik va

boshqa nuqsonlarning ildiz otishiga sabab bo'ladigan o'yinlarni ikkinchi guruh o'yinlariga kiritdi. Slavineskiy «O'yinni nima bezaydi?» degan savolga shunday javob beradi: «Barqarorlik, haqiqiy quvonch, jonlilik va tafakkur kuchi o'yinni bezaydi. Odamlar aytganidek, o'yinda ko'zbo'yamachilik va ayyorlik bilan emas, balki halollik va to'g'rilik bilan g'alaba qilish kerak». Uning xatosi shuki, suzish va kurashni sog'liq uchun zararli deb hisobladi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya xalqlarning jismoniy tarbiyasi eng qadimgi vaqtlardan boshlab to XVIII asrga qadar ular hayotining iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari ta'siri ostida taraqqiy etdi. Vatanimiz hududidagi ilk quldorlik davlatlarida jismoniy tarbiya bilan quldorlargina shug'ullanar edilar. Qullar esa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning har qanday imkoniyatlaridan mahrum etilgan edilar. Erkin dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, quldorlar qo'shinga olinuvchi aholigina o'zini jismoniy jihatdan o'stirish va harbiy tayyorgarlik ko'rish maqsadida jismoniy mashqlar va o'yinlardan foydalanar edi.

Avlod-ajdodlarimiz bo'lmish sharqiy slavyanlarda jismoniy tarbiya o'ziga xos mustaqil yo'l bilan taraqqiy etdi. Slavyanlar o'z ijtimoiy taraqqiyotlarida quldorlik tuzumini chetlab o'tdilar. Shuning uchun ham ularning jismoniy tarbiyasiga qadimgi quldorlik jamiyati ta'sir etmadi. Slavyanlar jismoniy tarbiyasining taraqqiyoti quldorlik davlatlaridagi jismoniy tarbiya taraqqiyotiga qaraganda harbiy ishlar ta'sirida emas, balki ko'proq mehnat faoliyati ta'sirida sodir bo'lardi. Slavyanlarda jismoniy tarbiya umumxalq xarakterida edi. Jismoniy mashqlar va o'yinlarning har xil turlari yuksak jismoniy va irodaviy sifatlar, harbiy-amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga yordam berdi.

Kiyev Rusida jismoniy tarbiya o'z tarixining ilk davrlarida mehnat va harbiy faoliyat orqali tarkib topgan qadimiy mustaqil negiz va an'analar asosida taraqqiy etdi. Jismoniy tarbiya feodal aslzodalar uchun harbiy tayyorgarlik vositalaridan biri bo'ldi va uning keng xalq ommasi ustidan o'z hokimiyatini mustahkamlashi uchun xizmat qildi. Vaqt o'tishi bilan feodallar jismoniy

tarbiyada foydalanadigan xalq jismoniy mashqlari turlari borgan sari hukmron sinf ehtiyojlariga moslasha bordi. Buning natijasida feodallar jismoniy tarbiyasi xalq jismoniy tarbiyasidan ajralib qoldi va sinfiy xarakter kasb etdi.

Jismoniy tarbiya markazlashgan Rus davlatida, ayniqsa, sezilarli taraqqiy etdi. Biroq feodal zulm, xalq ommasining shafqatsizlik bilan ekspluatatsiya qilinganligi sababli jismoniy jihatdan taraqqiy etish imkoniyatlari chegaralanib qolgan edi. Feodallar va rus podshohlari hukmron sinf jismoniy tarbiyasiga g'amxo'rlik qildilar va mehnatkashlar jismoniy tarbiyasini taraqqiy ettirishga yordam bermadilar. XVII asrning ikkinchi yarmida rus podshohlari xalq jismoniy mashqlari va o'yinlarini hatto taqiqlab qo'ydilar. Cherkov dehqonlar va quyi tabaqadagi shahar aholisi o'rtasida jismoniy mashqlar va o'yinlarning rasm bo'lishiga qattiq qarshilik ko'rsatdi.

6.2. Rus dvoriyanlari muhitida jismoniy tarbiya

Dvoryanlar muhitida jismoniy tarbiya taraqqiyoti, birinchi navbatda, armiya, flot va davlat muassasalari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash zarurati bilan belgilanar edi.

1717-yili Pyotr I ning topshirig'i bilan dvoryanlar oilaviy hayoti va turmushi tartibini belgilab bergan «Domostroy» o'rniga jamoatchilik orasida xulq-atvor qoidalari hamda dvoryanlar bolalari hayoti va turmushiga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan «Yoshlikning haqiqiy ko'zgusi» nomli yangi qo'llanma nashr etildi. Mazkur kitobda shunday deyilgan edi. «Agar yosh dvoryan mashq qilishda (ta'lim olishda), xususan, til bilish, ot minish, raqs tushish, shamshir bilan olishish sohasida kamolotga yetgan bo'lsa, shu bilan birga, chiroyli gapira oladigan va ko'p kitob o'qigan bo'lsa, u o'zining ana shu fazilatlari tufayli bevosita saroy amaldori bo'la olishi mumkin». Bundan ko'rinib turibdiki, saroy amaldori chet tillarni bilish, raqs tusha olish va nutq san'atini egallash bilangina cheklanib qolmasligi, balki otda yurish va shamshir bilan olishish san'atini ham mukammal egallagan bo'lishi kerak edi.

O'quv yurtlarida jismoniy tarbiya. Rus davlatida XVIII asrning birinchi choragida o'tkazilgan islohotlar va o'zgarishlar tizimida harbiy va fuqaro o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning joriy etilishi Rossiyada jismoniy tarbiyaning taraqqiy etishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etdi. Qilichbozlik, otda yurish, eshkak eshish, kema arqonlaridan tirmashib chiqish jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari bo'lgan.

Yuqorida eslatib o'tilgan matematika va novigatsiya fanlari maktabi jismoniy tarbiyani majburiy o'quv fanlaridan biri sifatida joriy etgan birinchi o'quv yurti bo'ldi. Maktabda boshqa fanlar bilan bir qatorda yelkanni boshqarish, eshkak eshish, rapirada olishishni (qilichbozlik) mashq qilish fanlari ham o'rganilar edi. Maktab binosi Suxarev minorasida qilichbozlik mashg'ulotlari uchun maxsus zal jihozlab qo'yilgan edi.

1703-yili Pyotr I ning topshirig'i bilan Moskvada asir olingan nemis pastori Ernest Glyukning xususiy gimnaziyasi ochildi. Bu gimnaziyada boshqa o'quv fanlari bilan bir qatorda jismoniy tarbiya (otda yurish, chavandozlik) mashg'ulotlari ham o'tkazilar edi.

Dengiz akademiyasida qilichbozlik, qo'l jangi usullari jismoniy tarbiya vositalari hisoblanardi.

Ruhoniylargina emas, balki davlat muassasalari uchun amaldorlar tayyorlaydigan diniy o'quv yurtlarida ham jismoniy tarbiya joriy etiladi. Ammo diniy seminariyalarda jismoniy tarbiya fani boshqa fanlar bilan bir qatorda o'quv dasturi bo'yicha o'tkaziladigan dunyoviy o'quv yurtlaridan farqli ravishda harakatli o'yinlar va sayrlar shaklida bo'lib («halol va badanni harakatlantiruvchi sayrlar...»), uning uchun har kuni darsdan tashqari 2 soat vaqt ajratilar edi.

XVIII asr o'rtalarida dvoryan bolalarini harbiy xizmatga tayyorlash maqsadida dvoryanlar uchun maxsus o'quv yurtlari ochildi. 1731-yilda quruqlikdagi shlyaxta kadet korpusi, 1752-yilda dengiz shlyaxta korpusi, pajlar korpusi va boshqalar tashkil etildi. Jismoniy tarbiya bu o'quv yurtlari dasturiga ham kiritilgan edi. Quruqlikdagi kadet korpusida ot

minish, qilichbozlik, raqslar, kurash, eshkak eshish va yelkan ishlari jismoniy tarbiya vositalari vazifasini o'tagan bo'lsa, pajlar korpusida esa otda yurish, qilichbozlik, to'p o'yini, kegli, raqslar jismoniy tarbiya vositalari bo'lib xizmat qilgan. Kadetlar jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor berilar edi. Bu sohada ko'proq yutuqqa ega bo'lgan kishilar rag'batlantirilib turilar edi. Kurash va qilichbozlik bo'yicha o'quv musobaqalarida muvaffaqiyat qozonganlarning nomlari saf oldida e'lon qilinardi. Otda yurish, qilichbozlik va raqslardan xalq oldida har yili ikki marta imtihon olinar edi.

1755-yilda buyuk rus olimi M.V.Lomonosovning tashabbusi bilan Moskva universiteti barpo qilindi. Bu universitetning o'quv fanlari orasida qilichbozlik va raqs ham bor edi. M.V.Lomonosov asarlarida shaxsiy-ijtimoiy gigiyena, sog'liqni saqlash va kishi umrini uzaytirish masalalariga doir ko'rsatmalar bayon qilingan.

Universitet qoshida o'quv rejasida qilichbozlik va raqsga har haftada 8 soat (qilichbozlik uchun 4 soat va raqs uchun 4 soat) vaqt ajratilgan gimnaziya ochildi. Qilichbozlikdan xalq oldida imtihonlar olinar edi. Boshqalardan ko'proq ajralib turgan gimnast-qilichbozlar shpaga bilan mukofotlanardi.

Jismoniy tarbiya litseylarda, xususan, Sarskoye selo litseyida nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Bu o'quv yurtlarda jismoniy tarbiya majburiy o'quv fanlari jumlasiga kirar hamda uning mazmunini qilichbozlik va gimnastika tashkil etar edi. Bundan tashqari, litsey o'quvchilari bo'sh vaqtlarida yugurish va kurash tushishdan musobaqalashar edilar.

Biroq jismoniy tarbiya imtiyozli va pul bilan yaxshi ta'minlangan o'quv yurtlaridagina amalga oshirilar edi. Masalan, raznochinlar gimnaziyalarida jismoniy tarbiya bilan mutlaqo shug'ullanilmas edi. 1804-yilgi maktab islohotidan keyin universitetlar ustaviga «Imkoniyat bo'lgan joylarda raqs, muzika mashg'ulotlari va jismoniy mashqlar o'tkazilsin» deb yozilgan edi. Universitet va gimnaziyalarda jismoniy tarbiya uchun mablag' ajratilmas edi. F.F.Ushakov (1744–1817), M.I.Kutuzov (1795–1813) kabilar A.V.Suvorovning milliy harbiy va jismoniy tayyorgarlik ta'limotini davom ettirdi.

Dvoryanlar pedagogikasi namoyandasi, Rossiyadagi tarbiya o'yinlarining asoschisi L.L.Betskoy (1704—1795-yillar) o'zining bir qancha asarlarida yosh avlod jismoniy tarbiyasi va yosh avlodni jismoniy chiniqtirish masalalariga e'tibor berdi. U tarbiya vositalaridan shaxsiy gigiyena, chiniqtirish, sezgi organlarini rivojlantirish va jismoniy mashqlarga, ayniqsa, o'yinlarga alohida e'tibor berdi. U o'yinlarda jismoniy kamolot, shuningdek, bolalar tashabbuskorligini o'stirish vositalarini ko'rdi. XVIII asr oxiridagi Rossiya jamoat arboblaridan biri «Moskovskiye vedomosti»ning nashiri N.I.Novikov (1744—1818-yillar) pedagogika masalalariga, xususan, jismoniy tarbiya masalalariga alohida ahamiyat berdi.

N.I.Novikov o'zining «Umummaktab bilimlarini yoyish va umum salomatligi uchun bolalar tarbiyasi va kayfiyati to'g'risida» nomli asarida shu narsani ko'rsatib o'tdi: «Bolalik chog'ida harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblanadi. Olimlar tarbiyaning bu sohasini jismoniy tarbiya deb ataydilar». Novikov faol harakatlar, yurish, yugurish, harakatli o'yinlar, chiniqtirish mashqlari, ovqatlanish va dam olish rejimini jismoniy tarbiya mazmuniga kiritadi. U jismoniy mashqlarni qo'llashnigina emas, balki ularning foydasini tushuntirib o'tishni ham maslahat berdi.

Buyuk rus ma'rifatchisi, inqilobchi va materialist faylasuf A.N.Radishchyev (1749—1802-yillar) o'zining ta'lim-tarbiyaviy va falsafiy asarlarida takabbur oliftalar tayyorlashni nazarda tutuvchi dvoryanlar tarbiyasining joriy etilishiga qat'i qarshi chiqdi. U tarbiyaning asosiy maqsadi o'z yurti vatanparvarlari — xalq baxt-saodati uchun faol kurashchilarni tayyorlash deb bildi. Uning fikricha, jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasi organizmni chiniqtirish va uning barcha organlarini taraqqiy ettirish yo'li bilan odamning jismoniy kuchi hamda ma'naviy qobiliyatlarini takomillashtirishdir.

Radishchyev mehnatni hamda yugurish, uloqtirish yoki irg'itish, sakrash, otda yurish kabi xalq jismoniy mashq turlarini jismoniy tarbiya vositalari deb hisobladi. U jismoniy tarbiya metodlari, birinchi navbatda, odam organizmini har

taraflama takomillashtirishga, odamda har xil hayot, mehnat va turmush sharoitida ham tadbirkorlik bilan ish tuta olish xislatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lmog'i kerak, degan oqilona fikrga keldi.

Rus olimlarining bir qancha asarlari jismoniy tarbiyaga doir ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarni taraqqiy ettirish bilan bir qatorda jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslarini rivojlantirish uchun ham katta ahamiyat kasb etdi.

Akademik A.P.Protasov 1765-yili Rossiya Fanlar akademiyasining ilmiy majlisida so'zga chiqib: «Bolalar jismoniy tarbiyasi haqida» va «Sog'liqni saqlash uchun harakatlanish kerakligi to'g'risida» ma'ruza qildi. U o'zining bu ma'ruzalarida odam organizmini o'stirish va mustahkamlash uchun jismoniy mashqlarning muhim rolini ko'rsatib o'tdi.

V.G.Belinskiy (1811–1848 y.) o'z asarlarida jismoniy tarbiya masalalari haqida to'xtalib o'tib, usti yaltiroq va formalistik ruhdagi burjua gimnastika sistemasini qattiq tanqid qildi. U Rossiyadagi hukmron sinf vakillarini G'arbiy Yevropa mamlakatlariga taklif qilinganliklari uchun tanqid ostiga oldi hamda jismoniy tarbiyaning rus xalqiga xos vositalarini o'rganishga va ulardan foydalanishga chaqirdi.

V.G.Belinskiy jismoniy tarbiyaga, uni odam hayotining ijtimoiy sharoitidan ajratgan holda qarab bo'lmasligini ta'kidlab o'tdi. Tarbiyaga, shu jumladan, jismoniy tarbiyaga ham xalq ishi uchun kurashishga qodir bo'lgan inson manfaati yo'lidagi muhim soha deb qaramoq kerak. Bunday kishini tarbiyalash ishi har tomonlama bo'lmog'i lozim, aks holda, u tarbiya o'zining butun ma'nosini yo'qotadi, - deb ta'kidladi. V.G.Belinskiy tarbiyaning har bir tomoni deganda aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya birligini nazarda tutdi. V.G.Belinskiy tarbiyaning serqirrali g'oyasi, ma'naviy va jismoniy tarbiyaning bir-biriga bog'liqligi g'oyasi biror narsa vositasida o'ylab chiqilgan formula emasligini, inson organizmidagi ruhiy jarayonlar uning jismoniy holatiga tabiatan bog'liqligini ko'rsatib o'tdi. Belinskiyning fikricha, jismoniy tarbiya aqliy va axloqiy tarbiyaning dastlabki asosi bo'lmog'i darkor. Jismoniy tarbiya odam sog'lig'ini mustahkamlash

hamda uning jismoniy va irodaviy fazilatlarini o'stirish vazifalarini o'tashi kerak. Biroq jismoniy tarbiya, V.G.Belinskiy ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchilarning anatomik-fiziologik xususiyatlariga qat'iy muvofiq ravishda o'tkazilgan, tarbiyaning boshqa sohalari bilan uzviy ravishda bog'lab olib borilgan taqdirdagina kutilgan natijalarni berishi mumkin.

V.G.Belinskiy yugurish, sakrash, «Gimnastika ermaklar» va ayniqsa, xalq o'yinlarini jismoniy tarbiya vositalari deb hisobladi, zeroki, boshqa hech qanday jismoniy mashq o'yinlar singari kishida iroda, tashabbuskorlik, faollik kabi fazilatlarni rivojlantira olmaydi.

XVIII asrning birinchi choragida Rossiyada yuz bergan iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar hukmron sinflar jismoniy tarbiyasini taraqqiy ettirish uchun sharoit yaratdi. Jismoniy tarbiya elementlari rus dvoryanlari turmushiga kengroq joriy qilina boshladi. Harbiy va ayrim fuqarolar bilim yurtlarida jismoniy tarbiya majburiy fan tariqasida joriy etildi. O'quv yurtlari va harbiy bilim yurtlarida maxsus jismoniy mashqlar dasturlari kiritildi. Bunda P.F.Lesgaftning (1837—1909 y.) hissasi va xizmati kattadir. Harbiy kuchlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligi yanada taraqqiy etdi. Jismoniy tarbiyaning ta'lim-tarbiyaviy va tabiiy-ilmiy asoslari tarkib topa boshladi.

Xalq ommasi jismoniy tarbiyasida feodalizmning buzilishi va kapitalistik munosabatlarning taraqqiy eta boshlashi davrida deyarli o'zgarishlar yuz bermadi. Rus mehnatkashlari ommasi va Rossiyadagi boshqa xalqlar ayovsiz ekspluatatsiya, qashshoqlik va siyosiy huquqsizlik sharoitida bolalar hamda yoshlarni jismonan o'stirish va sog'lomlashtirish maqsadida jismoniy mashqlardan keng foydalanish imkoniyatidan mahrum edilar. Xalq hayotida jismoniy mashqlar va chiniqtirish metodlarining an'anaviy xalq turlari saqlanib qoldi.

O'quv yurtlarida jismoniy tarbiya. Krepostnoy huquq bekor qilinganidan keyin fuqaro bilim yurtlarida jismoniy tarbiyaning yo'lga qo'yilishi qoniqarsiz ahvolda qolaverdi. Chor hukumati yosh avlod tarbiyasiga unchalik g'amxo'rlik qilmas edi. Biroq ijtimoiy ta'lim-tarbiyaviy harakat ta'siri ostida 1864-yilning 19-noyabrida qabul qilingan yangi

maktab ustaviga muvofiq gimnaziya va progimnaziyalarda gimnastkani joriy etish mo'ljallandi.

1864-yilgi o'rta maktab islohoti jismoniy tarbiyani taraqqiy ettirish ishida ma'lum darajada oldinga tomon qadam qo'yilganligini anglatardi. Ammo bu islohot moddiy baza va kadrlar bilan mustahkamlanmagan edi. Shuning uchun ham u bilim yurtlari o'quvchilarining jismoniy tarbiyasini yaxshilash imkonini bermadi.

1889-yilda maktab o'quvchilari va harbiy tayyorgarlikka chaqiriluvchilar jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadida xalq maorifi vaziri tomonidan «Erkaklar bilim yurtlarida gimnastika o'qitish qo'llanmasi va dasturi» tasdiqlandi. Unda yoshlar jismoniy tarbiyasining vazifalari to'g'risidagi umumiy qoidalar, darslarni o'tish metodikasi va maktab majburiy fan sifatida joriy qilgan jismoniy mashqlar ro'yxati berilgan. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari sifatida gimnastika va o'yinlar tavsiya etilgan edi. Bilim yurtlarida gimnastikani joriy etish oson ish bo'lib chiqmadi. Undan dars bera oladigan kishilar yo'q edi. Gimnastika darslarini o'tishga ofitserlar va hatto unter-ofitserlar taklif qilina boshladi. Bu hol shunga olib keldiki, grajdan bilim yurtlarida harbiy gimnastika joriy etildi. Uni o'rgatuvchi o'qituvchilar juda oz maosh olishar, shuning uchun ham gimnastika o'qitishga tasodifiy bir mashg'ulot deb qarardilar. Faqatgina ayrim gimnaziyalarning direktorlari jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini tushunar, bu ishga tajribali o'qituvchilarni taklif qilish yo'llarini axtarar edilar.

Ko'pchilik olimlar, pedagoglar va shifokorlar jurnal sahifalarida bilim yurtlaridagi jismoniy tarbiyaning mavjud ahvolini tanqid qilishar edi. 1899-yili Moskva universiteti huzuridagi pedagoglar jamiyatining yig'ilishida N.S.Filitis o'zining o'rta maktabda gimnastika o'qitish haqida qilgan ma'ruzasida quyidagi xulosalarga keldi: «1889-yilda belgilangan gimnastika sistemasida yaxshi narsalar ham, shu bilan birga ko'pgina yomon narsalar ham bor. Biroq undagi yaxshi narsalar maktablarda qo'llanilmaydi, yomon narsalar esa qo'llaniladi. Ana shuning uchun ham o'rta maktab dasturlarini qayta ko'rib

chiqish bo'yicha Moskva pedagoglarining yaqindagina bo'lib o'tgan majlisida tuzilgan jismoniy tarbiya masalalarini aniqlash komissiyasi bir ovozdan gimnastikaning hozirgi ahvolda o'rgatilishini zudlik bilan yo'q qilishni iltimos etishga qaror qildi».

Rasmiy doiralar maktabda jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yishni yaxshilash yuzasidan choralar ko'rmadilar. Faqat ayrim pedagoglarning tashabbusi bilan maktablarda jismoniy tarbiyani yaxshilash harakati boshlandi. Sankt-Peterburg (1892-yil), Odessa (1892-yil); Kiyev (1893-yil), Moskva (1893-yil) va boshqa shaharlarda tuzilgan o'quvchi yoshlar jismoniy kamolotiga yordam beruvchi jamiyatlar bu sohada katta rol o'ynadi. Ular o'yin maydonchalari ochdilar, o'quvchilar uchun sayr va ekskursiyalar uyushtirdilar. Jamoat tashkilotlari, ilg'or pedagoglar, shifokorlar va adabiyotchilarning qattiq turib talab qilishlari natijasida xalq maorifi vaziri 1902-yilning 15-avgustida farmoyish chiqarib, bu hujjatda maktablarda harakatli o'yinlar, harbiy gimnastika, buyumlar bilan bajariladigan gimnastika, konki va chang'i, suzish va eshkak eshish, velosipedda yurish, qilichbozlik, qo'l mehnati, raqs va ashulani joriy etishni nazarda tutdi. Unda maktab gimnastika bayramlari o'tkazish zarurligi ham ko'rsatib o'tilgan. Jismoniy mashqlar mashg'ulotlarini har kuni 30 minut davomida va, albatta, o'quv kunining o'rtalarida o'tkazish, o'quv kunining dastlabki va oxirgi darslarida o'tkazilishiga sira yo'l qo'ymaslik tavsiya etilar edi. 1904-yilning 10-iyunida chiqarilgan yangi farmoyishda o'quvchilarning o'qituvchilar va qarindosh-urug'lar bilan sayr etishlari ham qo'shimcha qilinib, bu imkoniyatlar yanada kengaytirildi. Unda suv sportini keng yoyish, suzish maktablari tashkil qilish tavsiya etilar, yuqori sinf o'quvchilarini o'q otadigan qurol bilan tanishtirish nazarda tutilardi.

Biroq ish «tavsiya etish» va farmoyish berishdan nariga bormadi. Chunki bu ishlarni amalga oshirish uchun zaruriy sharoit yo'q edi. Malakali pedagoglar va moddiy baza yo'q, o'quv va o'quvchilarning o'qishdan tashqi hayoti umuman normal tartibga solinmagan edi. Gimnastika mashg'ulotlari

maxsus ma'lumotga, hatto yaxshiroq umumiy ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar boshchiligida chang-to'zoni ko'tarilib yotgan yo'lak yoki dam olish zallarida o'tkazilgan vaqtda o'quvchi yoshlar jismoniy tarbiyasining bu tarzda yo'lga qo'yilishi o'quvchilarda fanga qiziqish va rahbarga ishonch tug'dira olmas edi.

Armiya va harbiy-o'quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik. Rossiyaning Qrim urushidagi mag'lubiyati rus armiyasining tayyorgarlik, tashkiliy va texnik jihatdan qurollanishida jiddiy kamchiliklar borligini ochib tashladi. Biroq chor hukumati tub islohot o'tkazish yo'lidan bormadi, balki qo'shinlar ta'limi, tarbiyasi va jismoniy tayyorgarligi sohasida ba'zi bir yangiliklar joriy etish bilangina cheklandi.

1856-yili chor hukumati qo'shinlar ta'limining yangi dasturini joriy qildi, ustavni birmuncha soddalashtirdi va armiyadagi jismoniy tayyorgarlikni qonunlashtirdi. 1859-yili «Qo'shinlarda gimnastika o'rgatish qoidalari» tasdiqlandi. Unda jismoniy mashqlar uch guruhga ajratilgan edi: 1) gavda mushaklarini o'stirish uchun tayyorgarlik mashqlari; 2) yugurish; 3) harbiy-amaliy mashqlar hamda snaryadlarda: xoda, arqon, zina, xari, brusya, konda bajariladigan mashqlar, balandlikka va uzunlikka sakrash mashqlari, xoda ustida muvozanat saqlash va tirmashib chiqish mashqlari.

1874-yilda amalga oshirilgan qurolli kuchlar islohoti armiyaga chiqariluvchilar sonini ko'paytirdi va haqiqiy xizmat muddatini cheklab qo'ydi. Bu tadbirlar askarlar jismoniy tarbiyasini yaxshilashni shart qilib qo'ydi. Yo'l-yo'riqlar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqila boshlandi. 1879-yildayoq «Qo'shinlarga gimnastika o'rgatish yo'l-yo'riqlari va ochiq joyda bajariladigan gimnastika» qo'llanmasining ikkinchi nashri chiqdi. Ochiq joyda bajariladigan gimnastika askarlarni jismonan tayyorlashning suvorovcha metodi elementlari, xususan: o'ng'ir, chuqurlikdan sakrab o'tish, emaklash, tirmashish, o'rmalash, tezlashtirilgan marshlar, suzish, suvdan hosil topgan to'siqlarni yengish va shu singarilar kirardi.

Harbiy ministr D.S.Milyutinning eng yaqin yordamchisi M.I.Dragomirov (1830–1905-yillar) janglarda harbiy-amaliy

malakalar hosil qilish, chidamlilik, epchillik va harakatchanlik xislatlarini tarbiyalashga yordam beradigan jismoniy tayyorgarlikni joriy etish tarafdori edi. Dragomirovning fikricha, gimnastika yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saqlash, tirmashish va to'siqlarni yengish malakalarini takomillashtirishga imkon berishi kerak. U gimnastika mazmuniga yurish, yugurish, sakrash, tirmashish, to'siqlarni yengish, muvozanat saqlash va nayza bilan jang qilish mashqlarini kiritdi. Armiyada zovur, xoda, gulzor, o'ngir, g'or singari to'siqlardan iborat hujum doirasini egallash mashq-larini joriy etishni ham M.I.Dragomirov taklif qilgan edi.

P.F.Lesgaft harbiy qo'shinlar jismoniy tayyorgarligi nazariyasini taraqqiy ettirishga talaygina hissa qo'shdi. P.F.Lesgaft 1875–1876-yillarda harbiy vazirlikning topshirig'i bilan G'arbiy Yevropadagi bir qancha mamlakatlarda bo'lib, u yerlarda jismoniy tarbiyaning qanday yo'lga qo'yilganligi va gimnastika o'qituvchilarini tayyorlash ishlari bilan tanishgan edi. 1877-yili u Rossiyaga qaytishi bilan harbiy gimnaziyalar uchun jismoniy tarbiya dasturini ishlab chiqdi va 12 ta harbiy bilim yurtida bu dasturning amalga oshirilishini kuzatib bordi. Lesgaft harbiy gimnaziyalar uchun gimnastika o'qituvchilari tayyorlash kurslari (1877-yil) hamda gimnastika va qilichboz o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarini (1884-yil) tashkil qilishda faol ishtirok etdi. U jismoniy tayyorgarlikka baho berar ekan, jismoniy mashqlar qo'shinlar harbiy tayyorgarligining muhim vositasidir, degan fikrga asoslandi. Lesgaft jismoniy tayyorgarlik mazmuniga oddiy harakatlar (bukish va yozish) irg'itish yoki uloqtirish va to'siqlardan oshib yugurish, og'ir narsalarni ko'tarib mashq qilish, suzish va sakrash (hamma turlari), kurash, o'yinlar, snaryadlarda bajariladigan mashqlarni kiritdi.

General A.D.Butovskiyning (1838–1917-yillar) faoliyati armiyada jismoniy tayyorgarlik nazariyasi va amaliyotini taraqqiy ettirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. General Butovskiy 1888-yili – kadetlar korpuslarida jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish komissiyasining a'zosi bo'lgan vaqtida – «Sinfdan tashqari mashg'ulotlar qo'llanmasi»ni yozdi. Bu

qo'llanmada kadet korpuslarida tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtlarini har xil o'yinlar va jismoniy mashqlarga bag'ishlashi nazarda tutildi.

A.D.Butovskiy kadet korpuslarini jismoniy tarbiyadan malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida 1890-yili maxsus kurslar tashkil qildi va 16 yil davomida ularga o'zi rahbarlik qildi. U kurslarda jismoniy mashqlar tarixi va metodikasidan ma'ruza o'qidi. A.D.Butovskiy jismoniy tayyorgarlik o'tkazish metodikasiga ko'pgina yangiliklar kiritdi. U jismoniy tarbiyada vositalar emas, balki ulardan foydalanish metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlab o'tar edi. A.D.Butovskiy gimnastika, o'yinlar va qo'l mehnatini jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari deb hisobladi.

Progressiv arboblarning zo'r berib qilgan harakatlariga qaramasdan, armiya va harbiy bilim yurtlarida jismoniy tayyorgarlik qoniqarsiz ahvolda qolaverdi. Ayrim harbiy qismlar va bilim yurtlarining ijobiy tajribalaridan foydalanilmadi. Armiya va harbiy bilim yurtlari uchun jismoniy tayyorgarlik bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimida birlik bo'lmaganligi jismoniy tayyorgarlikning nazariy va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqishga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida jismoniy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslarini taraqqiy etishi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada jismoniy tarbiya nazariyasi anchagina taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi. O'sha vaqtda rus milliy madaniyatining yuksalishi va ilg'or ijtimoiy harakat bunga sabab bo'lgan edi. Jismoniy tarbiya nazariyasining progressiv taraqqiy etishida rus revolyutsion demokratlaridan N.G.Chernishevskiy (1828–1889-yillar) va N.A.Dobrolyubov (1836–1861-yillar) asarlari juda muhim rol o'ynadi.

Chernishevskiy va Dobrolyubov o'zlarining materialistik va revolyutsion dunyoqarashlariga hamda tabiiy fanlar bilimlariga to'la asoslangan holda odamning aqliy, axloqiy va jismoniy kuchlarini mutanosib sur'atda taraqqiy ettirish zaruriyatini isbotlab berdilar. Ular to'g'ri tarbiya berish bilan samoderjaviyega qarshi hamda insoniyatning porloq kelajagi

uchun faol, jasur va mardonavor kurashchilar tayyorlash mumkin ekanligiga qattiq ishonar edilar. Ular, jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasi revolyutsioner-kurashchi, o'zida yaxshigina jismoniy kamolot, aniq fikr, mustahkam iroda va xalqqa sadoqat fazilatlarini birgalikda mujassamlantiruvchi kishini tarbiyalashdir, deb hisobladilar.

Chernishevskiy odam shaxsini ikki: ruhiy va jismoniy qismga ajratuvchi o'sha vaqtdagi hukmron idealistik nazariyalarga qat'iylik bilan qarshi chiqdi.

U jismoniy tarbiya vositalarini tanlashda jismoniy mashqlarning tabiiy turlarini ilgari surdi va yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg'itish, suzish, eshkak eshish, konki, chanada yurish kabi mashqlarni shular jumlasiga kiritdi. U to'g'ri kundalik tartib hamda sayr qilish, yugurish, sakrash, kurash va raqs shaklidagi mashqlarni sog'liqni mustahkamlash uchun foydali vosita deb hisoblab, shaxsiy gigiyenaga ham alohida e'tibor berdi. Chernishevskiy jismoniy tarbiyaning uydirma vositalari va metodlariga qarshi keskin kurashdi.

Dobrolyubov inson umumiy tarbiyasida jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berdi. U ham Chernishevskiy singari odam organizmining materialistik birligi va bir butunligi pozitsiyasida turdi «Biror tomoni boshqa bir tomon hisobiga taraqqiy etayotgan organizmni mutlaqo sog'lom organizm deb bo'lmaydi», - deb yozgan edi Dobrolyubov. U jismoniy mashqlarning tabiiy turlarini jismoniy tarbiya vositalari deb hisobladi. U gimnastikaning foydali mashg'ulot ekanligini inkor etmay, nemis gimnastikasining sun'iy mashqlarga haddan tashqari berilib ketishiga keskin qarshi chiqdi.

Demokrat, ma'rifatchi, tanqidchi va publisist D.I.Pisaryev (1840–1868-yillar) jismoniy tarbiya nazariyasi taraqqiyotiga talaygina hissa qo'shdi. Pisaryevning jismoniy tarbiya masalalariga doir fikrlari asosini tashkil etuvchi g'oyalar bolalar sog'lig'ini ilk yoshlik chog'idan boshlab asrash, ularni jismoniy jihatdan o'stirish va chiniqtirishni o'z ichiga olar edi. Bunday maktablarda o'yinlarni jismoniy tarbiyani taraqqiy ettirish imkonini beruvchi vositalar sifatida

joriy etish tarafdori edi. Pisaryevning bola tarbiyasining gigiyenik shartlari va jismoniy tarbiyani yoqlab chiqishi umuman o'sha vaqtda katta ahamiyatga ega edi.

Buyuk rus pedagogi va olimi K.D.Ushinskiy (1824–1870-yillar) ham jismoniy tarbiyaning faol tarafdorlaridan edi. Uning «Odam tarbiya predmeti sifatida» nomli asari jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslarini taraqqiy ettirishga anchagina ta'sir ko'rsatdi. Ushinskiy jismoniy tarbiya anatomiya, fiziologiya va psixologiya sohasida olingan chuqur bilimlar asosiga qurilmog'i darkor, deb hisobladi. Uning fikricha, jismoniy tarbiya odam faoliyatining hamma sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Ushinskiyning fikriga qaraganda, jismoniy mashqlar bola xotirasini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Ushinskiy maktabda jismoniy tarbiyaning zarurligi haqidagi masalani ilgari surish bilangina cheklanmadi, balki o'yinlar va jismoniy mashqlar bolalarning bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazadi hamda ularda salbiy xislatlarini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi, deb hisoblab, jismoniy tarbiyaning zo'r tarbiyaviy ahamiyatini isbotlab berdi. Ushinskiyning jismoniy tarbiya sohasidagi xulosalari revolyutsion-demokratlar N.G.Chernishevskiy va N.A.Dobrolyubovlarning jismoniy tarbiya masalalariga doir xulosalari darajasiga ko'tarila olmadi. Chunki u jismoniy tarbiyani ijtimoiy-siyosiy muhit sharoitidan ajratib qo'ydi.

N.I.Pirogov (1810–1881-yillar) va I.M.Sechenov (1829–1905-yillar) asarlari jismoniy tarbiya masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berishda katta ahamiyat kasb etdi.

Buyuk rus jarrohi N.I.Pirogov anatomiyada yangi yo'nalish – dinamik anatomiyaning asoschisi bo'ldi. U odam tanasining anatomik tuzilishini o'rganish asosida odam tanasi organlarining tuzilishi ularning funksiyasiga bog'liq ekanligini aniqlab berdi. Bu jismoniy tarbiyaning anatomik asoslarini ishlab chiqishda, jumladan, mashg'ulotlarning odam tanasi rivojlanishiga va tana shaklining o'zgarishiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ajoyib rus fiziolog-olimi I.M.Sechenov o'tgan asrning 70-yillarida bir qancha kashfiyotlar qildi. Ular Sechenovga odam organizmi birligining materialistik nazariyasini asoslab, uni taraqqiy ettirish yo'llarini ochish imkonini berdi. Ana shu nazariyaga ko'ra, ruhiy va moddiy hodisalar organizm ishchanligi shaklidan iborat bo'ladi. Ulardan moddiysi birlamchi, ruhiy hodisalar esa ikkilamchidir. Sechenovning malaka hosil qilish nazariyasi va boshqa ilmiy kashfiyotlari odam organizmini har tomonlama mutanosib sur'atda rivojlantirish zarurligini asoslab berdi. Sechenovning fikricha, jismoniy tarbiya har taraflama tarbiya berishning muhim qismidir, odam ongining moddiy asosini mustahkamlash, taraqqiy ettirish va takomillashtirishning muhim vositasidir.

Sechenov o'zining inson harakatlari fiziologiyasiga doir tadqiqotlari bilan hozirgi zamon eng muhim fanlaridan biri — mehnat fiziologiyasiga asos qo'ydi. Bu tadqiqotlar sport fiziologiyasi uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Sechenovning «Sezgir nervlar qo'zg'alishining odam mushak ishlariga ko'rsatadigan ta'siri haqidagi masalaga doir» asarida mehnat fiziologiyasi va sport mashqlari fiziologiyasining asosiy masalalaridan biri bo'lgan charchash va dam olish masalasini chuqurroq o'rganish ishlarini boshlab berdi.

Shifokorlardan Ye.A.Pokrovskiy (1834—1895-yillar) va Ye.M.Dementyev (1850—1918-yillar) jismoniy tarbiya nazariyasini rivojlantirish sohasida ko'pgina ish qildilar.

Taniqli bolalar shifokori va «Vestnik vospitaniya» («Tarbiya xabarchisi») jurnalining redaktori Ye.A.Pokrovskiy oila va maktabda bolalar jismoniy tarbiyasi g'oyalarini targ'ib qiluvchi otashin kurashchi edi. Pokrovskiy, o'yinlar va jismoniy mashqlar bola sog'lig'ini mustahkamlaydi, uning jismoniy kuchi va bilimini taraqqiy ettirish imkonini beradi, deb ta'kidlar edi. U oila va maktabda bolalarni ilk yoshdan boshlaboq har tomonlama kamol toptirishga alohida e'tibor berilmog'i kerak, der edi. Pokrovskiy o'yinni bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy vositasi deb hisoblardi. Gimnastika bilan, - der edi u, - maktabning yuqori sinflaridagina shug'ullanish mumkin. Uning fikricha, gimnastika mashqlari bolalarni jismoniy

o'stirishda harakatli o'yinlardek foyda bermaydi. Harakatli o'yinlar o'sayotgan bola organizmini taraqqiy ettirish talabalariga javob beradi va bolalarga zo'r quvonch baxsh etadi. O'yinlar bola hayotiga quvnoqlik va xushchaqchaqlik olib kirish bilan birga bola organizmining mustahkamlanishiga yordam beradi. O'yinlar bolalarni intizomli bo'lishga, umumiy talablar yoki qoidalarga bo'ysunishga, o'z istaklarini hammaning istagi bilan muvofiqlashtirishga odatlantiradi. Pokrovskiy milliy o'yinlarni jismoniy tarbiya tizimiga kiritishning muhimligini ham ko'rsatib o'tdi.

Pokrovskiy o'zining «Turli xalqlar, asosan, Rossiya xalqlari bolalari jismoniy tarbiyasi» (1884-yil) nomli asarida shunday deb ta'kidlaydi: «O'yinlar va o'yinchoqlar, garchi unchalik katta bo'lmasa-da, xalq poeziyasi, afsonalari, ertaklar, maqollar, topishmoqlar va boshqalar singari xalq ruhida muvofiq ravishda muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi». Pokrovskiy tarbiyaning hukmron sistemasiga qarshi chiqib, liberal burjuaziya tomonida turdi.

Shifokor Ye.M.Dementyev B.A.Pokrovskiyning safdoshi edi. 1882—1884-yillarda u Moskva guberniyasi zavod va fabrikalarining sanitariya holatini birinchi bor tekshirish qatnashchisi bo'ldi. Shu asosda «Odamning umumiy jismoniy kamoloti natijasida odam mushak kuchlarining taraqqiy etishi» mavzuida dissertatsiya yoqladi. Unda ishchi yoshlarning og'ir mehnati va jismoniy o'sishi sharoitini yoritdi.

Dementyev «Gimnastika yoki o'yinlar», «Hozirgi maktab tarbiyasi tizimi munosabati bilan yoshlar jismoniy tarbiyasi» kabi kitoblarini yozdi. Bunda o'yin va tabiiy mashqlarni birinchi o'ringa qo'ydi.

U chor Rossiyasidagi mavjud tarbiyaning har qanday tizimiga ham salbiy munosabatda bo'ldi va mehnatkashlar ommasining turmushi og'irligi uchun uni yaxshilash haqida g'amxo'rlik qildi.

Chor hukumati va rasmiy rus pedagogikasi namoyandalari jismoniy tarbiya nazariyasi masalalariga e'tibor bermadilar. Shu sababdan, bu sohadagi ilmiy-nazariy bilimlar turmushga deyarlik tatbiq etilmadi.

6.3. P.F.Lesgaftning jismoniy tarbiya ta'limi

Petr Fransevich Lesgaft (1837–1909-yillar) ajoyib olim va revolyutsiyadan oldingi Rossiyadagi jismoniy tarbiyaning eng faol ijodkori, jismoniy tarbiya ilmiy sistemasining asoschisidir. U o'zining ilmiy asarlarida jismoniy tarbiya jarayonining hamma tomonlarini aks ettirdi.

P.F.Lesgaft 1861-yilda meditsina-xirurgiya akademiyasini tamomladi va shu akademiyaning o'zida anatomiya o'qituvchisi bo'lib ishlay boshladi. U 1865-yillarda birinketin ikkita dissertatsiya yoqladi hamda meditsina doktori va xirurgiya doktori degan ilmiy darajalarni oldi. Lesgaft dissertatsiyalar tayyorlayotgan vaqtidayoq antropologiyani odam haqidagi fan sifatida keng ma'noda tushundi va uni o'rganishga kirishdi. Xuddi shu vaqtning o'zida u odam organizmining taraqqiy etish nazariyasi asoslari ustida ham ishlay boshladi. U bu ishga taraqqiyotning materialistik g'oyasini asos qilib oldi. Bu g'oyaga ko'ra, odam organizmi asosan tashqi muhit ta'siri bilan to'xtovsiz o'zgargani holda taraqqiy eta boradi. Lesgaft mashqlarni butun organizmni va uning ayrim qismlarini taraqqiy ettiruvchi yagona vosita deb bildi. Gavdaning barcha a'zolarini uyg'un ravishda mashq qildirilganda, organizm juda yaxshi taraqqiy etadi. Bu narsa Lesgaftni, jismoniy tarbiyaning ilmiy ravishda asoslangan tizimini yaratish zarur, degan fikrga olib keldi. U bu ishga ikkinchi dissertatsiyasini yoqlaganidan so'ng bir necha yil o'tgach kirishdi. P.F.Lesgaft 1872-yildan boshlab doktor Berglinning xususiy davolash gimnastika ishxonasida konsultant sifatida ishladi. 1874-yilda Lesgaft o'zining gimnastika masalalariga doir birinchi maqolasini chop ettirdi. Maqolada gimnastikaning asoslari haqida, asosan, uning organizmga ta'siri to'g'risida gap borar edi. So'ngra Lesgaft harbiy vazirlikning topshirig'i bilan bir yil mobaynida Yevropaning turli mamlakatlarida bo'ldi. Bundan maqsad o'sha mamlakatlarda jismoniy tarbiyaning qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish edi.

P.F.Lesgaft 1876-yilda o'zining «Anatomiyaning jismoniy tarbiyaga munosabati va maktabda jismoniy ta'limning asosiy vazifasi» degan asarini nashrdan chiqardi. Endilikda bu asarda jismoniy tarbiyaning vazifalari anchagina kengroq bayon qilingan edi. U jismoniy tarbiyaning bilim sifatidagi xarakterini ta'kidlab o'tishga harakat qilib, uni jismoniy tarbiya deb emas, balki jismoniy ta'lim deb atadi. Undan keyingi yillarda Lesgaft «Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasiga doir qo'llanma» (1-qismi 1888-yilda, 2-qismi esa 1901-yilda yozilgan), «Nazariy anatomiya asoslari», «Oila tarbiyasi» va boshqa yirik-yirik asarlarini yozdi. Lesgaft o'z nazariyasini yarata borib, jismoniy tarbiyani turmushga tatbiq qilish sohasida zo'r tashabbus ko'rsatdi. U 1874-yildan boshlab ko'p yillar mobaynida harbiy o'quv yurtlari o'quvchilarining jismoniy tarbiyasiga rahbarlik qildi. Xuddi shu yillar ichida u jismoniy tarbiya rahbarlari tayyorlash kurslarida jismoniy tarbiya materiallariga doir bir qancha ma'ruzalar o'qidi. P.F.Lesgaft garchi o'quvchi yoshlar jismoniy tarbiyasiga yordam berish jamiyatida faqat kotib bo'lib hisoblansa ham, aslida uning rahbariga aylanib qolgan edi.

P.F.Lesgaftning jamiyat ishlarida ishtirok etishi shunga olib keldiki, jamiyat faoliyati demokratik xarakter kasb etdi. Jamiyatning bolalar maydonchalariga kichik xizmatchilar va hatto ishchilarning bolalari ham qo'yila boshlandi. Bolalar bilan harakatli o'yinlar, ekskursiyalar va sayrlar o'tkazdilar, qishda konki va chanalarda uchilar, yozda esa qayiq va kemalarda suzishar edi. Ayni vaqtda jamiyat aholi orasida bolalar jismoniy ta'limga doir ilmiy bilimlarni yoyish sohasida katta ish olib bordi, bu masala yuzasidan ilmiy munozaralar o'tkazib turdi.

1894-yil boshlarida jamiyat Lesgaftning tashabbusi bilan jismoniy mashqlar rahbarlarining kurslarini ochish haqidagi masalani xalq maorifi vazirligi oldiga qo'ydi. Vazirlik kurslari erkaklar bilan ayollarning birgalikda ta'lim olishlariga qat'iy ravishda qarshi chiqdi. Vazirlik boshqa to'siqlarni ham

yuzaga keltirdiki, ularni bartaraf qilishga ikki yil ketdi. 1896-yilning yanvar oyidagina «Jismoniy mashqlardan ayol rahbarlar tayyorlash uchun muvaqqat kurslar» ochishga ruxsat etildi. Lesgaft kurslarning mudiri qilib tayinlandi. 1898-yilda uning iltimosi bilan kurslarda o'qish muddati 3 yil bo'lgan «Jismoniy ta'limning ayol tarbiyachilari va rahbarlari kurslari» nomi ostida qayta tashkil etildi. Kurslar qayta tashkil etilganidan keyin jamiyat faoliyati kengayib ketdi. Bolalar o'yinlari va jismoniy mashqlariga kurslarning o'quvchilari ishlab chiqarish amaliyoti tartibida rahbarlik qila boshladilar. Kurslarni tamomlaganlar Rossiyaning ko'pgina shaharlariga borib, bolalar orasida olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlarni yo'lga qo'ya boshladilar.

Birinchi rus revolyutsiyasi yillari davrida Lesgaft kurslar o'rniga Oliy erkin maktab yaratdi. U yerda o'sha davrdagi eng yaxshi olimlar leksiyalar o'qidilar. Maktab binosida talabalarning har xil yig'ilishlari, ishchilarning yig'ilishlari o'tkazilar edi. Ishchi deputatlarning soveti o'z ishini shu yerda olib borgan. 1907-yil oxirida hukumat Oliy erkin maktabini yopib qo'ydi.

P.F.Lesgaftning butun hayoti va faoliyati chorizm reaksion kuchlari bilan uzluksiz kurashdan, butun insoniyat manfaatlari yo'lda fan tantanasi uchun kurashishdan iborat bo'ldi. Lesgaft biologiya, antropologiya, pedagogika, anatomiya, tarix va jismoniy tarbiya sohasida ish olib borib hamda o'z ilmiy faoliyatini amaliyot bilan uzviy ravishda bog'lab, o'zining jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasining asosiy tamoyillarini taraqqiy ettirdi.

P.F.Lesgaft ishlab chiqqan jismoniy ta'lim nazariyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Aqliy ta'lim ham, jismoniy ta'lim ham odamni butun jamiyat baxt-saodati uchun serunum mehnat qilishga tayyorlash imkonini berishi kerak. Har qanday ta'limning asosiy maqsadi odamning shaxsiy manfaatini emas, balki jamiyatga foyda keltirishni birinchi o'ringa qo'yishiga erishishdan iborat bo'lmog'i lozim. Odam deydi Lesgaft, butun umrida ijodkor bo'lishi, yodaki uslublardan

foydalanmasligi darkor. Shunday qilingan taqdirdagina odamning uzluksiz shaxsiy kamolotiga va butun jamiyat madaniyatining taraqqiyotiga erishish mumkin.

2. Inson aqliy faoliyatida ham, jismoniy faoliyatida ham ijodiy faollikka qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun vositalar ongli ravishda tanlangan taqdirdagina erishish mumkin. Shuning uchun Lesgaft mashq qilish natijasida hosil bo'lgan narsalarni bir-biridan farq qila olishga odatlanishni, ularni o'zaro bir-biri bilan taqqoslay olish hamda ularga baho bera bilish, ya'ni tahlil qila olishni jismoniy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri deb hisobladi. Lesgaft ana shu nuqtai nazardan mashqlarni ko'rsatib berishni emas, balki ularni tushuntirib berishning o'zi bilan cheklanishni tavsiya qildi. Bu narsa o'quvchini bajargan harakatini ko'r-ko'rona takror qilib berishga emas, balki uning haqida ongli tasavvur hosil qilishga, undan keyin esa o'sha harakatni takror bajarishga majbur etadi. Odam ongi deydi Lesgaft, uning har bir faoliyatini oldindan bajarishi kerak.

3. «Hech qanday kamchiligi yo'q normal organizm»ga ega bo'lgan odamning har taraflama kamol topishigina serunum va mahsuldorroq mehnat qilishga qodirdir. Har taraflama kamol topishgina juda oz kuch sarflab, juda qisqa vaqt ichida eng yaxshi natijalarga erishib ishlash imkonini beradi.

4. Lesgaft kishining har taraflama kamol topishi deganda, odamning aqliy va jismoniy kuchlarini bir-biriga qo'shib, to'g'ri taraqqiy ettirishni, ong yetakchi rol o'ynagan paytda kishi faoliyatida bu kuchlarning faol ishtirok etishiga imkon beruvchi ulardagi uzviy bog'liqlikni nazarda tutdi.

5. Har bir odam jismoniy kamolotining yosh, jinsiy va individual xususiyatlarini hisobga olib, kuch sarflashdagi astasekinlik va izchillik tamoyiliga rioya qilgan taqdirdagina har tomonlama jismoniy kamolotga erishish mumkin.

6. Jismoniy ta'limning ilmiy jihatdan asoslab berilgan tizimi yordamida ish tutgan taqdirdagina to'g'ri jismoniy o'sishiga erishish mumkin. Jismoniy ta'limning tajriba tizimi ko'pchilik avlod tajribasida sinab ko'rilganidan keyingina

to‘g‘ri tajriba deb tan olinishi mumkin.

7. Jismoniy ta’lim tizimining o‘zi esa har xil sharoitda va har xil shaklda qo‘llanuvchi, ta’lim-tarbiyaviy vazifalarga qarab asta-sekin o‘zgaruvchi uncha ko‘p bo‘lmagan harakatlar tizimidan tarkib topadi. Lesgaft yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg‘itish, kurash, oddiy gimnastik mashqlar, o‘yinlar va ekskursiyalarni ana shunday mashqlar deb hisobladi.

P.F.Lesgaft jismoniy ta’lim jarayonining o‘zini quyidagicha tasavvur etar edi:

A. Bola oddiy harakatlar qilib, ularni bir-biri bilan o‘zaro taqqoslaydi, ular o‘rtasidagi farqni anglaydi, ya’ni ularni tahlil qiladi va tushuna boshlaydi. Harakatlarning bolalar tomonidan ongli ravishda bajarilishiga erishish uchun ular ko‘rsatilishiga qarab emas, balki tushuntirish asosida bajariladi. Mashqlarning bu oddiy guruhi asosan maktabning boshlang‘ich sinflarida bajariladi.

B. Keyinchalik bola ortib boradigan qiyinchiliklarni hamda ancha murakkabroq to‘siqlarni asta-sekin yenga olishga o‘rganadi. Buning uchun ko‘tariladigan yoki irg‘itiladigan buyumlar vazni asta-sekin orttirib boriladi, yurish va yugurishda bosib o‘tilishi lozim bo‘lgan masofaga ajratilgan vaqt qisqartiriladi, yurish yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg‘itish paytida bosib o‘tilishi lozim bo‘lgan masofa ko‘paytiriladi, sakrab o‘tish uchun qo‘yiladigan to‘siqlar ko‘tariladi, qarshilik ko‘rsatuvchi kuchlar (masalan, sherik qarshiligi) orttiriladi, harakatlarning o‘zi esa murakkablashtiriladi. Bola har xil sharoitda umumiy harakatda o‘zi uchun tanish harakatlarni bajarib, nisbatan juda qisqa vaqt ichida iloji boricha kamroq kuch sarflab asta-sekin va ko‘proq va og‘irroq to‘siqlarni yengadi, borgan sari ko‘proq kuch sarflashni talab etadigan bu mashqlar ko‘pgina maktablarning o‘rta sinflarida qo‘llaniladi.

D. Undan keyin o‘smir tevarak-atrofdagi buyumlarni hisobga olgan va natijalarni oldindan ko‘z oldiga keltirgan holda o‘z harakatlarini vaqt va makonga moslashga o‘rganadi. U bu xildagi mashqlar yordamida o‘z mushak hislarini o‘stiradi va har qanday sharoitda ham durustroq hara-

kat qilishga o'rganadi. Makon munosabatlarini o'rganish va ishni vaqtga qarab taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan, bu mashqlar maktabning yuqori sinflarida qo'llaniladi.

E. Ayni vaqtda bola yoki o'smir o'yin o'ynash, ekskursiya va og'ir harakatlar qilish paytida murakkab harakatlardan foydalanib, o'zi hosil qilgan ko'nikmalarini tekshirib ko'radi va ularni mustahkamlab oladi. Murakkab harakatlar ko'rinishidagi bu mashq tizimlari maktabning barcha sinflarida mashqlarning datlabki uchta guruhi bilan parallel ravishda qo'llaniladi.

P.F.Lesgaft o'zining jismoniy ta'lim tizimini yaratib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari jismoniy tarbiya tizimini qattiq tanqid qildi. U bu gimnastika tizimi mashqlari bola organizmining anatomik tuzilishiga mos emasligini isbotlab berdi. Olim nemis va shved gimnastikasini tanqid qilishda me'yordan oshmadi va umuman, o'zidan keyingi olimlar, jumladan, F.Lagranj (Fransiya) singari gimnastikaning ahamiyatini kamsitmadi. Aksincha, gimnastika mashqlarini keng qo'llagan holda jismoniy ta'limning ilmiy jihatdan asoslab berilgan tizimini yaratish ustida ishladi. U olimlar va pedagoglarni ijodiy faol bo'lishga, gimnastika va sportning odat tusiga kirgan chet el tizimi rus yoshlari jismoniy ta'limiga kirib kelishiga tanqidiy ko'z bilan qaramaslikka qarshi kurashishga da'vat etdi.

P.F.Lesgaft tizimining asosiy kamchiligi shundaki, u jismoniy tarbiyaning sinfiy xarakterini tushunmadi, uni faqat biologik nuqtai nazardan tushuntirib berdi. Bundan tashqari, u boshqa xatolarga ham yo'l qo'ydi. Masalan, u sport musobaqalari va bolalar uchun gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlarning foydali ekanligini inkor etdi, jismoniy mashqlarga o'rgatishda ko'rsatishning ahamiyatini kamsitdi. U o'zining jismoniy tarbiya tarixiga doir asarlarida rus xalqi badan tarbiyasini tekshirishga yetarlicha e'tibor bermadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Lesgaft asarlari hozirgi kunga qadar o'zining ilmiy qiymatini saqlab keladi.

XIX asrning ikkinchi yarimida kapitalizmning qaror topishi ta'sirida Rossiyada bunyodga kelgan yangi ijtimoiy mu-

nosabatlar, mehnatkashlar bilan ekspluatatorlar o'rtasidagi kuchli sinfiy kurash va 60–90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy harakat mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning taraqqiy etishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Rossiyada kapitalizmning qaror topishi davrida mamlakatda sport-gimnastika harakati paydo bo'ldi; sportning ayrim turlari bo'yicha to'garaklar va klublar tashkil etildi, birinchi ishchilar sport to'garaklari vujudga keladi. Shafqatsiz ekspluatatsiya va proletariatning og'ir moddiy ahvoli proletariat orasida jismoniy tarbiya va sportni keng taraqqiy ettirish imkonini bermadi. Dehqonlar masalasiga kelganda, dehqonlarning jadallik bilan sinfiy tabaqalanishi va kapitalistik ekspluatatsiyaning avj olishi sharoitida ular o'ziga xos xalq jismoniy mashqlari turlarini yoyish uchun juda ham cheklangan imkoniyatiga ega edilar.

Mehnatkashlarni sog'lomlashtirishning keng tadbirlari va jismoniy tarbiyaning zarurati haqida gap yuritgan Rossiya progressiv doiralarining vakillari, ilg'or olimlar, pedagoglar, shifokorlar va jamoat arboblari jismoniy tarbiyaning shakllarini hamda xalq jismoniy tarbiyasi usullarini qo'llab-quvvatladilar. Ular jismoniy tarbiyadan ekspluatatsiya va qo'pol harbiy mashqlar sifatida foydalanishga qarshi faol kurashdilar, boshlang'ich va o'rta ta'lim bilim yurtlarida jismoniy tarbiyaning yo'lga qo'yilishini tubdan yaxshilashni talab etdilar.

6.4. Rossiyaning Olimpiya harakati yo'lidagi intilishlari

XIX asr oxirida Rossiyada jismoniy madaniyat va sportning rivojlanishi, uning xalqaro sport harakatiga qo'shilishiga da'vat etdi. Bu esa Olimpiya o'yinlarining kelib chiqish sabablari haqidagi ma'lumotlarni o'rganishga qiziqish uyg'otdi.

Ma'lumki, qadimgi grek Olimpiya o'yinlari haqidagi ma'lumotlar deyarli jahonning barcha mintaqalarida uzoq yillardan buyon tarqalib, ko'pchilikning diqqat-e'tiborini tortib kelgan.

XV asrda bolgar yozuvchisi Isayi grek faylasufi Dionisiy Arepogitning asarini tarjima qilib tarqatgan edi. Bu esa qadimgi ruslarga ham ma'lum bo'lgan. Bu ma'lumotlar XVII–XVIII asarlarda yanada kengaygan. Olimpiya o'yinlariga o'xshash tadbirlarni Rossiyada o'tkazishni taklif qilgan M.V.Lomonosov hisoblanadi. U «Sog'liqni saqlash haqidagi mulohazalar»ida (1741–1742y.) o'yinlarning mohiyatini tan oladi, lekin uning Olimpiya o'yinlarini o'tkazish haqidagi g'oyalari amalga oshmay qolib ketdi.

1860-yil Rassomlar Akademiyasida ko'rgazma tashkil etildi. Unda V.O.Vereshagin, N.D.Dmitriyevlarning Olimpiya o'yinlari haqidagi rasmlari namoyish etildi. Ular oltin medallar bilan taqdirlandi. Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari juda ko'p yozuvchilar, shoirlar, pedagoglarning asarlarida ifoda etilgan. P.F.Lesgaft ham «Tarixiy lavhalar» asarida Olimpiya o'yinlari haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 1894-yil Parijda o'tkazilgan Kongressida rus generali A.R.Butovskiy (1818–1917) qo'mitaga a'zo qilib saylandi, 1900-yilgacha u mazkur lavozimni egallab turdi. A.R.Butovskiy rus harbiysida xizmat qilgan va jismoniy tarbiyani yaxshi o'zlashtirgan kishi sifatida taniqli bo'lgan. U Fransiya, Belgiya, Daniya, Shvetsiya, Germaniya kabi mamlakatlarda bo'lib, gimnastika-sport o'yinlari harakati va tizimini o'rgangan, yosh olim Pyer de Kubertenning ishlari bilan qiziqqan. Ular Olimpiya harakati haqida ko'p mulohazalar yuritganlar.

E'tiborli tomoni shundaki, 1994-yil 23-iyulda Sankt-Peterburgda Xuan Antonio Samaranch (o'sha vaqtda XOQ Prezidenti) ishtirokida Pyer de Kuberten va A.R.Butovskiylar xotirasiga bag'ishlab yaratilgan haykallarning (skulptor M.Anikdjin) ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ta'kidlash lozimki, rus sportchilari xalqaro sport musobaqalari va Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyat bilan qatnashdilar. Bunda Xalqaro Olimpiya qo'mitasidagi (XOQ) Rossiyaning ikkinchi a'zosi graf G.I.Ribopyer (1900–1913), knyaz S.K.Belosolskiylar (1900–1908-yillar) katta xizmat qilishdi.

1908–1910-yillarda S.A.Trubeskoy XOQ a'zoligida bo'ldi. 1910-yildan XOQ a'zosi etib saylangan knyaz L.V.Urusov Oktabr inqilobini qabul qilmadi va Fransiyaga borib yashadi. Shunday bo'lsa-da, u to 1933-yilgacha XOQ a'zosi sifatida faoliyat ko'rsataverdi.

L.V.Urusov 1923-yilda Rossiya (emigrant) va sovet sport jamoalarining mustaqil ravishda Parijda o'tkazilgan VIII Olimpiya o'yinlarida qatnashishlarini taklif etdi. Bu masala Rimda 23-XOQ sessiyasida ko'rib chiqildi. Vatanparvarlik ruhida qilingan Urusovning harakatlarini XOQ Prezidenti Pyer de Kuberten ma'qulladi. Lekin Xartiyaga (ustav) asosan sovet va Emigrant rus jamoalarining o'yinida qatnashishi mumkin emas edi.

Rus Olimpiadachilari uchun A.R.Butovskiy katta xizmat qildi. 1896-yil u Kiyev sport tashkilotining vakili N.Ritter bilan I Olimpiada o'yinida (Afina) bo'ldi. Shu asosda rus sportchilarining Olimpiya o'yinlaridagi ishtirokini ta'minlashga qarata tadbirlar tashkil qildi. 1892-yil 17-oktabrda Peterburgda 10 ta sport va gimnastika tashkilotining yig'ilishi o'tkazildi. II Olimpiyada o'yinlariga (Parij) sportchilarni qatnashtirish uchun astoydil kirishildi. Lekin na II, na III Olimpiyada o'yinlarida ularning qatnashishiga imkoniyat bo'lmadi, chunki hukumat tomonidan moddiy yordam berilmadi.

1908-yil Londondagi IV Olimpiyada o'yinlari yaqinlashishi bilan Rossiya sportchilarining ahvoli birmuncha yaxshilandi, shug'ullanuvchilar va yaxshi natija ko'rsatuvchilar soni ancha oshdi. Rossiyada Olimpiya qo'mitasi bo'lmaganligi sababli sportchilar birma-bir alohida o'yinlarga yetib boradi. Guruhda 8 kishi bo'lib, N.Panin (figurali uchish), N.Orlov, A.Petrov, Ye.Zamotin va G.Demin (kurash), G.Lind, A.Petrovskiy (yengil atletika) va martineonlardan (velosport) iborat edi. Figurali uchish bo'yicha N.Panin Olimpiya chempioni bo'ldi. Keyingi (Stokgolm) o'yinlarda rus sportchilarini boshqa davlatlar tan ola boshladi.

1911-yil 16-martda Rossiya Olimpiya qo'mitasi (ROQ) tashkil etildi. Uning tarkibiga G.I.Ribopyer, G.A.Dyupperon

(XOQ a'zosi sifatida), A.P.Lebedev (Sankt-Peterburg havaskorlik sport klubi), R.F.Fulda (Moskva, futbol uyushmasi), A.P.Chaplinskiy (S.Peterburg, og'ir atletika uyushmasi), A.K.Lindemut (Riga, Boltiq Olimpiya qo'mitasi), V.N.Shustov (Moskva, konkida uchish uyushmasi), S.V.Ivanov (S.Peterburg, chang'i uyushmasi) kiritildi.

ROQ raisi etib V.I.Srunevskiy (1893–1937) saylandi. U xotin-qizlar bilim yurti direktori, Peterburg uchish havaskorlik jamiyati raisi edi.

1912-yil Stokgolmda Rossiya sportchilari rasmiy ravishda XOQ a'zosi sifatida qatnashdi. Bunda 170 ga yaqin vakillar, shundan 50 ga yaqin sportchilar bor edi. Lekin natijalar yaxshi bo'lmadi. N.Kleyn (kurash) va o'q otish jamoasi (4 kishi 12 ta) kumush medallarini olishgan – chang'ichilar esa 2 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi.

V Olimpiadadan keyin o'yinlarga juda puxta tayyorlanish zarurligi ma'lum bo'ldi. Shu sababdan, 1912–1913-yil uchun musobaqalar o'tkazish rejalari tuzildi.

Rossiya rahbarlari 1916-yilgi Olimpiya o'yiniga qadar to'rtta umumrossiya o'yinlarini: 1913-yil – Kiyevda, 1914-yil – Rigada, 1915-yil – Sankt-Peterburgda va 1916-yil – Moskvada o'tkazishni mo'ljalladilar.

Kiyev va Rigadagi Olimpiya o'yinlari hukumatni (imperiya) ancha qiziqtirdi. Bu o'yinlar dasturiga Olimpiya sport turlarining barchasi kiritildi, asosiy diqqat esa yengil atletika va futbol musobaqalariga qaratildi.

1914-yil 1-avgustda Germaniya Rossiyaga qarshi urush e'lon qildi. Shu sababdan, sport tashkilotlarining barcha faoliyatlari urushga qarshi qaratildi.

1916-yil iyunda Rossiyada 23 ta harbiy-sport qo'mitasi mavjud edi. Shunga qaramasdan 1915–1916-yilda Moskva, S.Peterburg shaharlarida chang'i va konkida uchish, yengil atletika, og'ir atletika va boshqa turlar bo'yicha Rossiya chempionatlari o'tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiyada eng qadimgi davrlardan boshlab to oktabr inqilobigacha (1917) bo'lgan uzoq davrlarda jismoniy madaniyat Yevropa mamlakatlaridagiga

o‘xshab rivoj topdi. Xalq ichida ommalashgan bug‘u ovi va boshqa o‘yinlar takomillashdi.

Ijtimoiy tuzumlar oqibatida ruslarning kaltak, tayoq, cho‘qmor, bolta, nayza va boshqa qurollardan, keyinchalik nayzabozlik, o‘q otar qurollardan foydalanuvchi turnirlar o‘tkazildi. Shvetsiya, Germaniya, Chexiya va boshqa davlatlarning sport-gimnastika tizimidan keng foydalanildi.

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari va ularning jismoniy rivojlanishidagi mohiyatlarini pedagoglar, olimlar, harbiy sarkardalar mohirlik bilan baholadilar.

Rossiyada imperializmning rivojlanishi jismoniy madaniyat va sportga ham ma’lum darajada ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Rus sportchilari xalqaro uchrashuvlar, turnirlar, Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etib, yuksak darajadagi tajribalarga ega bo‘ldi. Rus Olimpiya o‘yinlari o‘tkazila boshladi.

Birinchi jahon urushi tufayli Rossiyada sport taraqqiyoti birmuncha susayib, u harbiy-jismoniy tayyorgarliklar tusini oldi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Rus davlatida qaysi jismoniy mashqlar va o‘yinlar turmush sharoitida o‘z ifodasini topgan?
2. Qadimgi rus davlatlarida jismoniy tarbiya qanday amalga oshirilgan?
3. Tibbiyot va pedagogika fanlarida jismoniy tarbiyaga qanday baho berildi?
4. Qachondan boshlab va qaysi o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya dars sifatida majburiy o‘qitila boshlandi?
5. Rus askarlarida jismoniy tarbiya qanday shakllandi?
6. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning negizida qanday o‘quv qo‘llanmalari yaratildi?
7. Pedagogika, falsafa va boshqa fanlarning (sohalar) jismoniy tarbiya masalalariga munosabati qanday edi?
8. XIX asrning oxirida jismoniy tarbiya va sport qanday holda edi?
9. Jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari (N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov va N.I.Pirogov, I.M.Sechenev

va boshqa) qanday rivoj topdi?

10. P.F.Lesgaftning jismoniy tarbiya ta'limi va uning hayoti.

11. Rossiyada sport klublarining tashkil etilish sabablari.

12. Rossiya Olimpiya harakatiga qo'shilishi va Rossiyada o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari haqida nimalarni bilasiz?

6.5. Sobiq SSSR davrida jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiya harakatining yangi shakllari va rahbarlik usullari (1917–1941-yillar)

1917-yildagi Oktabr inqilobini tashkil etgan va uning oqibatlari o'laroq yuz bergan o'zgarishlar faqat Rossiyagagina taalluqli ekanligini hozirgi davrda hech kim hech yerda inkor qilmaydi. Rossiya XIX asrning o'rtalari va ayniqsa, ikkinchi yarmida Kavkaz, Markaziy Osiyo va boshqa hududlarni zo'ravonlik bilan mustamlakaga aylantirganligi ham bugungi kunda u yerlarda mavjud bo'lgan mustaqil respublikalargina emas, butun jahon hamjamiyatidagi davlatlarga ayondir.

Sobiq SSSR sifatida (1922-yil) Rossiya va uning mustamlakalaridagi respublikalarda jismoniy tarbiya nafaqat shakl va mazmun jihatdan, balki barcha usullar bilan rus tuzumi (tizimi) asosida amalga oshirildi. Shu tufayli Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yi, Kavkaz va Markaziy Osiyodagi Respublikalarning jismoniy tarbiya va sport tizimida tashkiliy va boshqaruv jihatdan deyarli farq yo'q edi. Shularga asosan sobiq Ittifoqda rivoj topgan jismoniy tarbiya va sport barcha mintaqalarga mansubdir. Uning asosini esa Rossiya tashkil etar edi.

Ana shularga tayangan holda sobiq Ittifoqdagi sport Rossiya sporti degan xulosa bilan tarixiy voqeliklarga umumiy holda tushunchalar berildi. Ba'zi joylarda milliy respublikalar haqida qismangina ma'lumotlar bayon qilindi.

E'tirof etish kerakki, sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalarning jismoniy tarbiya va sport tarixlari har bir respublikaga alohida o'qitilmoqda. Shu sababdan ham, ularning tarixiga doir batafsil to'xtab o'tilmadi.

Mutaxassislar, yosh ijodkorlar va talabalar imkoniyat doirasida ular haqidagi o'quv va boshqa qo'llanmalarni topib o'qishlari maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning jismoniy tarbiya va sport tarixiga doir ma'lumotlar so'nggi qismda alohida bayon etiladi. 1917-yil oktabrda bolsheviklar rahbarligida Rossiyada inqilob g'alaba qildi va yangi sovetlar Ittifoqi davlati tuzildi. Davlatni mustahkamlash va ruslarning mavqeini yanada oshirish maqsadida harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlari kuchaytirildi. Bunda eski mutaxassislardan foydalanish va yangi kadrlar tayyorlash ishlari tez amalga oshirildi. Buning yana bir sababi shundaki, 1918-yil fuqarolar urushi boshlandi. Shu sababdan, 1918-yilning aprelidan boshlab harbiy majburiy ta'lim (Vsevobuch) e'lon qilindi. Unda faqat harbiy tayyorgarlikkina emas, balki jismonan sog'lom aholini majburiy ravishda o'qitish amalga oshirildi.

1919-yil aprelda jismoniy tarbiya, sport va chaqiriqqa tayyorgarlik bo'yicha I Umumrossiya syezdi (qurultoy) o'tkazildi.

1920-yil avgustda davr talablari asosida Vsevobuch tarkibida Jismoniy tarbiya oliy kengashi (VSFK) ta'sis etildi. Uning raisi etib N.I.Podvoyskiy (1880–1948) tayinlandi. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishida uning xizmatlari kattadir.

1918-yil Moskvada va 1919-yil Petrogradda jismoniy tarbiya institutlari tashkil etildi.

Shu yillarda maktablarda jismoniy tarbiyani tashkil etish ishlari amalga oshirildi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, 1918-yilda sport klublarida 38 ming kishi a'zo bo'lib, ular sport turlari bilan shug'ullanishgan. 1920-yilga kelib esa ularning soni 143,5 mingga yetadi. Undan tashqari 1,5 mln. kishi harbiy chaqiriq mashg'ulotlarida shug'ullangan.

Inqilobdan keyin ko'p joylarda «Olimp», «Olimpiya», «Olimpiyachi» kabi sport klublari vujudga kelgan edi.

Rossiya Xalqaro Olimpiya qo'mitasi a'zosi sifatida o'yinlarda qatnashib kelgan edi. Lekin inqilobdan keyin si-

yosiy voqealar va davlat tizimi o'zgarishi tufayli XOQ tarkibidan chiqarildi.

Fuqarolar urushining tugashi tufayli Vsevobuch tarkibidagi Jismoniy tarbiya oliy kengashi ham 1921-yilda tugaydi. Uning o'rniga yoshlar ittifoqi (komsomol) va kasaba uyushmalari ittifoqi jismoniy tarbiya va sportga rahbarlik qila boshladi. Shu tufayli yoshlar ittifoqi «Chumoli» («Muravey»), «Spartak», «Yoshlar floti» kabi sport jamiyatlarini tuzadi.

Yoshlar ittifoqining tashabbusi bilan Butunrossiya Markaziy ijroiya qo'mitasi (VSIK) 1923-yil 27-iyunda «Jismoniy tarbiya va Oliy Kengash»ni tuzishga qaror qabul qildi.

Oliy kengashga sog'liqni saqlash komissari I.A.Semashko (1874–1899) tayinlandi. Kengashning zimmasiga ilmiy, o'quv va tashkiliy faoliyatlarni muvofiqlashtirib olib borish yuklatildi.

Shu yili «Dinamo» jamiyati ham tashkil etildi.

Sanoatning turli tarmoqlarida sport to'garaklari, klublar paydo bo'ldi. «Jismoniy tarbiyaga – 24 soat» va boshqa juda ko'p shiorlar vujudga keldi. Ular ishchi va mehnatkashlar ommasini sportga jalb qilishga qaratildi. 1925-yilga kelib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar soni 668,2 mingga yetdi.

1923-yil 6-noyabrda «Jismoniy tarbiya va sport» nashriyoti ta'sis etildi. «Jismoniy tarbiya xabarlari», «Qizil sport», «Proletar sporti» kabi jurnallar nashr etila boshladi.

Ko'p sonli sport musobaqalari va bayramlari jismoniy tarbiya hamda sport jarayonlarini ilmiy-uslubiy asoslashni taqozo etdi. Bu sohada V.V.Gorinevskiy shifokorlar nazorati, futbol, yengil atletika va boshqa sohalarda tadqiqotlar olib bordi. Petrogradlik bir guruh olimlar (L.A.Orbeli, A.N.Krestovnikov va boshqa) jismoniy mashqlar fiziologiyasi ustida ilmiy tadqiqotlar o'tkazdi. Shu tariqa ilmiy anjumanlar o'tkazila boshladi. Eng yetuk va iqtidorli olimlardan iborat ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, markazlar tashkil etildi. Jismoniy tarbiya va sport tizimida keskin bahslar vujudga keldi. Ba'zi rahbarlar gimnastikani oldinga qo'yishni taklif etishsa, boshqalari esa mehnat gimnastikasi, shuningdek, shved, sokol, nemis, fransuz gimnastika tizimlarini ma'qul ko'rishdi.

Harbiylar tarafidagi mutaxassislar esa gimnastika va sportni rad etishdi, ya'ni faqat jismoniy mashqlar bilangina shug'ullanishni tavsiya etishdi.

Markaziy jismoniy tarbiya instituti olimlari bu sohada katta tadqiqotlar olib bordi. Ularning natijalari bo'yicha sovet jismoniy tarbiya tizimi ishlab chiqildi.

1925-yil professor M.P.Kuljinskiy (Markaziy institut) futbolning pedagogik mohiyati haqida maqola o'qib, unda futbol ingliz burjuaziyasi ishlab chiqqan va u aldash bilan bog'liqdir, biz yoshlarni aldamchilikka o'rgatmasligimiz kerak, - degan g'oyani olg'a surdi.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishda turli-tuman usullardan foydalanish zaruriyati vujudga keldi.

Bu sohada partiya va hukumatning maxsus qarorlari (1925, 1929 va h.k.) ham qabul qilindi. Shu qarorlar asosida mavjud bo'lgan sport to'garaklari o'rniga sport seksiyalarini (sho'ba) tashkil etish tavsiya etildi. Lekin bu tajribalar hayotda juda sekin amalga oshirildi.

1928-yil avgustda Umumittifoq I spartakiadasi Moskvada o'tkazildi. Unda barcha ittifoqchi respublikalar va ba'zi bir chet mamlakatlarning sportchilari ishtirok etdi. 7225 qatnashchi orasida 600 dan ortiq inglizlar, argentinalik, germaniyalik, norvegiyalik, urugvaylik, finlyandiyalik, fransiyalik, chexiyalik sportchilar bor edi. Ikki hafta davomida yengil atletika, gimnastika, kurash, o'q otish, gorodki, eshkak eshish va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar davom etdi. Spartakiadada yosh sportchilar M.Shamonova, N.Ozolin, D.Markov, V.Dyatkov, T.Korniyenko va boshqalar muvaffaqiyatli qatnashdilar. Ta'kidlash kerakki, ularning ko'pchiligi keyingi davrlarda taniqli murabbiy va iste'dodli olimlar bo'lib yetishdi.

Umumiy yakunlar bo'yicha spartakiadada Rossiya – birinchi, Ukraina – ikkinchi, Belorussiya – uchinchi, O'zbekiston – to'rtinchi, Kavkazorti–beshinchi va Turkmaniston – oltinchi o'rinni egallashdi.

1929-yildan boshlab «Umumittifoq jismoniy tarbiya ikki haftaligi» kasaba uyushmalari tomonidan o'tkazila boshladi va bunda qishloq sportchilarining ham ishtiroki amalga oshirildi.

Partiya va hukumatning 1929-yil 23-sentabr hamda 1930-yil 1-aprel qarorlariga asosan mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qilish tartiblari kuchaytirildi. Markaziy Ijroiya qo'mita (MIQ) tarkibida Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashi tashkil etildi.

Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi (1936) bilan bu kengash «Butunittifoq jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qo'mita»ga aylantirildi.

1930-yildagi anjumanga asosan klublar tizimidan jismoniy tarbiya ishlab chiqarishga yo'naltirildi. Yangi ishchilar sport klublari o'rniga jismoniy tarbiya jamoalari (kollektivi fizkulturi) tuzila boshladi. Bunda «Har bir jismoniy tarbiyachi — ilg'or, har bir ilg'or — jismoniy tarbiyachi» shiori keng tarqaldi.

1935—1936-yillarda ko'ngilli sport jamiyatlari tashkil etila boshlandi. «Dinamo» (1923), «Spartak», «Lokomotiv», «Krasnoye Znamena» (1935) jamiyatlarining ilg'or tajribalariga tayanib, Kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi qaroriga asosan 64 ta ko'ngilli sport jamiyatlari (DSO) vujudga keldi.

30-yillardagi jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining muhim tomonlaridan biri siyosiy va davlatni himoya qilish tarafiga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

1930-yil Butunittifoq yoshlar tashkilotining (komsomol) tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan «SSSR mehnat va mudofaasiga tayyor» (GTO) jismoniy tarbiya majmui tashkil etildi. 1931-yil martda MIQ qoshidagi jismoniy madaniyat Oliy kengashi GTO majmuining I bosqichi va 1933-yilda II bosqichini tasdiqladi. 1934-yilda esa BGTO («Bud gotov k trudu i oborone») majmui bolalar uchun ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Bu uch bosqichli jismoniy madaniyat majmuida (kompleks) asosan, barkamollik va salomatlik yo'nalishlari mujassamlanib, sovet jismoniy tarbiya tizimining asosini tashkil

etdi. Shu sababdan, barcha joylarda bu majmuaning talablari hamda me'yorlarini bajarishga bo'lgan qiziqish, intilish kuchaytirildi.

1940-yilda bu majmua yangidan qabul qilindi. Bunda majburiy va tanlov tartibiga imkoniyat berildi. Majburiy turlarga: gimnastika mashqlari, to'siqlarni oshib o'tish, suzish, chang'i sporti, yugurish, o'q otish, gigiyenik bilimlar asosini va jismoniy tarbiya tizimini bilish talab qilib qo'yildi. Tanlab olish turlarida 7 guruh mashqlar tavsiya etildi. Bunda kuch, tezlik, chidamlilik, epchillik, botirlik va qat'iylik kabi sifatlarni, himoya va hujum, uloqtirish hamda otish usullarini rivojlantiruvchi mashqlar ko'zda tutildi.

Vatan himoyasi va mudofaasi bilan bog'liq «Havo hujumi va kimyoviy muhofazaga tayyor» (PVXO), «Sanitar himoyasiga tayyor» (GSO), «Alpinist SSSR», «Parashyutist SSSR», «Turist SSSR» kabi normativlar va nishonlar ham joriy etildi.

1938-yilda Sovet Ittifoqi qahramonlari V.Chkalov, V.Vodopyanov, G.Bayyaunov, V.Malokov va deputat A.Staxanovlarning taklifiga ko'ra qizil harbiylar kunining 21 yilligiga bag'ishlab harbiy-texnik sport turlari bo'yicha umumittifoq bayrami o'tkazildi.

Ta'kidlash lozimki, 1929-yilda xalq komissarligi maktablarda 2 soatlik jismoniy tarbiya darslarini joriy etgan edi. Shu bilan birga bolalar sport maktablarini tashkil etish haqida qaror qabul qilgan edi. «Dinamo», «Spartak» sport jamiyatlari tarkibida sport maktablari tashkil qilingan. 1937-yilda 200 dan ortiq bolalar sport maktablari mavjud edi.

Maktab o'qituvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalarining umumittifoq sport musobaqalari tashkil qilindi.

Sovet jismoniy tarbiya tizimining ilmiy asoslari tobora rivoj topa boshladi. 1925, 1927, 1929-yillarda o'tkazilgan Butunittifoq ilmiy anjumanlarning xulosalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya tizimini ilmiy asoslashni yanada takomillashtirish kerak edi. Aksariyat ko'pchilik olimlarning diqqat-e'tibori hamon shug'ullanuvchilar ustidan tibbiy nazorat o'tkazib borishni yanada yaxshilashga qaratildi. Sportchilar-

ning mushaklari rivojlanishi, yurak, o'pka va boshqa a'zolarining funksiyalari ustida V.V.Gorinevskiy, A.N.Krestovnikov, I.M.Sarkizov-Serazin va boshqalar katta tadqiqotlar o'tkazishdi. GTO (MMT) jismoniy madaniyat majmui va sport turlarining tayanch, sog'lomlashtirish va tarbiyaviy jarayonlarini hal etishga qaratilgan tadqiqotlar ham paydo bo'ldi.

Shu tariqa jismoniy tarbiya va sportning nazariya hamda amaliyotiga oid ishlar ko'paydi. A.N.Krestovnikovning «Sport fiziologiyasi» (1939), V.V.Belinovichning «Jismoniy tarbiya uslubiyati asoslari» (1939), A.D.Novikovning «Jismoniy tarbiya vositalari va usullari» (1941), professor N.A.Bernshteynning sportdagi harakat va texnikalarni o'rganishga bag'ishlangan kitoblari va ishlari yuzaga keldi. Sport jarohati sohasida A.N.Landa, I.A.Kryachkolarning ishlari e'tiborga loyiq bo'ldi. Sportchilarning ma'naviy-irodaviy sifatlari va xulqlarini ilmiy jihatdan o'rganishda G.G.Shaxverdov, P.A.Rudik, A.S.Puni kabi pedagog va psixolog olimlarning xizmatlari kattadir. 30-yillarda gimnastika, yengil atletika, boks, suzish, sport o'yinlari, qilichbozlik va boshqa sport turlari bo'yicha ilk bor darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratildi.

Eng e'tiborli jihatlaridan biri shuki, havaskorlik jismoniy tarbiya harakatida Butunittifoq ko'rik-tanlovlar o'tkazib borildi. Bunda markaziy shaharlar, sport jamiyatlari, sport klublari, jismoniy madaniyat jamoalari kengashlarining ilg'or tajribalarini ommalashtirish an'anaga aylandi. «Dinamo», «Spartak» va boshqa sport jamiyatlari juda katta tadbirlar o'tkazib, g'oliblikni qo'lga kiritdi, shu asosda hukumatning medal va yorliqlariga sazovor bo'ldi.

1932-yilda Butunittifoq kasaba uyushmalarining I spartakiadasi o'tkazilib, unda 3850 kishi qatnashdi.

1935—1937-yillarda yagona Butunittifoq sport tasnifi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi, bu esa sport maktabining asosiga aylandi. Shu sababdan, u yoshlarning sport tayyorgarligini oshirishning yagona tamoyili bo'lib xizmat qila boshladi. Keyinchalik bu tasnif qayta ishlab chiqilib, u ancha ta-

komillashtirildi va o'z ichiga 34 sport turini oldi.

1937-yilda birinchi marotaba jismoniy tarbiya xodimlarining Butunittifoq namoyishi o'tkazildi. U har to'rt yilda o'tkazishga mo'ljallandi. 1939-yil 27-mayda «Xizmat ko'rsatgan sport ustasi» unvoni ta'sis etildi. 1939-yildan boshlab hukumat qarori asosida Butunittifoq jismoniy tarbiya xodimlari kunini o'tkazish odatga aylandi.

1940-yilda bu bayramga bag'ishlab o'tkazilgan tantanalarda mamlakatdagi 62 ming jismoniy madaniyat jamoasida 5.3 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanayotganligi aytib o'tilgan. Bu davrda 6 ta institut va 25 ta texnikum jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda faoliyat ko'rsatdi. Shuningdek, 378 stadion, 70 mingdan ortiq katta va kichik sport zallari qurildi.

30-yillarning qatag'oni (repressiya) sportni ham chetda qoldirmadi. Sport rahbarlari, yirik pedagog-olimlar begunoh jazolandi. Ular orasida Butunittifoq jismoniy madaniyat kengashi raisi A.K.Antipov, Butunittifoq jismoniy madaniyat va sport qo'mitasi raisi I.I.Xarchenko, Qizil sport internatsionalining Sovet sho'basi (seksiya) raisi M.S.Kedrov, Markaziy jismoniy tarbiya institutining rektori A.A.Zigmund va boshqalar bor edi.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi 10 yillik davrda sovet sportchilarining xalqaro miqyosidagi obro'-e'tibori ancha oshdi. Sportchilarning yuqori natijalari va ommaviy sport tadbirlari jahonga tarqala boshladi. Bu esa sport tashkilotlarining xalqaro aloqalarini ta'minladi va ularni rivojlantirishga katta xizmat qildi.

Ittifoq sportchilari urush va fashizmga qarshi kuchlarni boshqarishda o'ziga xos faoliyat ko'rsatdilar, 1934-yilda Parijda bo'lib o'tgan fashizmga qarshi sportchilar slyotida, 1937-yilda Antiverpenda o'tkazilgan III xalqaro ishchilar Olimpiadasida ishtirok etdilar. Ittifoq sporti xalqaro ishchilar sport harakatining oldingi safida dadil bordi.

Sobiq Ittifoq hukumati va sport tashkilotlari chet mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik va do'stlik faoliyatlariga ma'lum darajada e'tibor berib bordi. 1938—1940-yillarda

mamlakatga 250 dan ortiq chet el sportchilari tashrif buyurishdi. O'z navbatida esa ittifoq sportchilaridan 175 nafar kishi chet mamlakatlarda bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, o'sha davrda sovet mamlakati chet mamlakatlar bilan turli sabablarga ko'ra mustahkam aloqada emas edi va bu sportga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Shu sababdan, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ), Xalqaro sport uyushmalari va chet mamlakatlarning burjuaziya tashkilotlari ularni o'zlariga dushman deb bilishdi. Bu esa reaksion (sotsialistik tuzum dushmanlari) kuch sifatida tushunilar edi. Shu kabi sabablarga ko'ra, sovetlar mamlakatiga xorijiy davlatlarning deyarli hech biri xayrixohlik bilan qaramas edi. Ularning ko'pchiligida hatto sovetlarni yakson qilish g'oyasi mavjud bo'lib, u Ikkinchi jahon urushi davrida aynan namoyon bo'lganligi sir emas.

Xulosa qilib aytganda, sobiq sovetlar mamlakati (Rossiya) 1917–1941-yillar davomida jismoniy tarbiya va sportni yo'lga qo'yish, uni rivojlantirish masalalariga doir juda ko'p muhim tarixiy tadbirlarni amalga oshirdi. Sovet sportini jahonga tanitish maqsadida 1928-yilda o'tkazilgan I Butunittifoq spartakiadasi shular jumlasidan edi. Uning an'analarini kasaba uyushmalari tashkilotlari keyinchalik davom ettirdi. Ilg'or tajribalar va sinov-tekshirishlar asosida sovet jismoniy tarbiya tizimining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi.

XX asrning 30–40-yillar (davomida) sovet sportchilari chet mamlakatlar bilan o'zaro aloqalar bog'lashga urindi.

Yoshlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini oshirish va jismonan barkamollikni ta'minlash yo'lida «Mehnat va mudofaaga tayyor» (GTO) jismoniy madaniyat majmui ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. «Dinamo» sport jamiyati qachon tuzildi?
2. I Spartakiada qachon qayerda o'tkazildi, uning ahamiyati?

3. Jismoniy tarbiya va sport sohasining asosiy yo'nalishlari (tendensiya) 30-yillarda nimalardan iborat edi?

4. Ikkinchi jahon urushi oldidan sportni siyosiylashtirish va harbiylashtirishdan maqsad nimada edi?

5. O'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari qanday olib borildi?

6. 30-yillardagi asosiy ilmiy tadqiqotlar va olimlar haqida nimalarni bilasiz?

7. Sportdagi qatag'on (repressiya) haqida tushunchalar bering.

8. Sovet sportchilarini Yevropa, Xalqaro sport musobaqalari va Olimpiya o'yinlarida ishtirok etmaganligining sabablari nimada edi?

Ikkinchi jahon urushi davrida jismoniy tarbiya va sport

1941-yil 22-iyunning erta tongida fashistlar Germaniyasi urush e'lon qilmasdan, to'satdan havo hujumini boshladi. Urush millionlab sovet kishilarini qirib tashladi. Unga qarshi barcha sovet kishilari safida sport tashkilotlarining rahbarlari, deyarli barcha taniqli sportchilar faol ishtirok etdi. Ularning ko'plari xalq, Vatan yo'lida jonlarini fido etdilar.

Urush yillarida asosan jangchilar va front orqasidagi mehnatkashlarni, ayniqsa, yoshlarni harbiy-jismoniy tayyorlash ishlariga katta e'tibor berildi.

1941-yilning sentabrida umumiy harbiy tayyorgarlik joriy etildi. Harbiy-o'quv punktlari tashkil etilib, uning mashg'ulotlari 110 soatlik reja asosida o'tkazildi. Mashg'ulotlarda tig' (shtik) sanchish, miltiqni ishlatish, granata uloqtirish, to'siqlardan oshish kabi mashqlar o'rgatildi. Dastur asosida shug'ullanuvchilar turli ixtisosliklar bo'yicha guruhlarga ajratilib o'qitildi. Bunda qo'l jangi - 25 soat, chang'i janglari - 20—40 soat, tog'dan otishish - 30 soat davomida o'rgatilar edi.

Yozgi mavsumda suzish va suvda yuklarni o'tkazish, cho'kayotganlarni qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish kabi mashg'ulotlar tashkil etilgan.

1942-yilda GTO talablari harbiy-jismoniy tayyorgarlikka moslashtirib qayta ishlab chiqildi va amalda qo'llanildi.

Urush yillarida kasaba uyushmalari «Dinamo», «Spartak» sport jamiyatlari, o'quv yurtlaridan 28 ming jismoniy madaniyat jamoalari faol ishtirok etdi. Rossiyaning barcha hududlari, shuningdek, Kavkaz va Markaziy Osiyo Respublikalarining sportchi yoshlari urushda qatnashdi. Moskva, Peterburg (Leningrad) va boshqa shaharlardagi jismoniy madaniyat institutlarida harbiy ofitserlarni tayyorlash va ularni urushga jalb etish amalga oshirildi.

Urush boshlangan yillarda maktablarning VIII–X sinflarida harbiy jismoniy tarbiya darslari o'tkazila boshladi.

Shu tariqa sportchilar harbiylar qatorida matonat bilan jangga kirib, fashistlarga zarba berishda oldingi saflarda borishdi.

Ma'lumotlarga qaraganda urushning birinchi kunlaridanoq o'z ixtiyori bilan jangga otlangan kasaba uyushmalari, «Dinamo», «Spartak» sport jamiyatlari va boshqa jamoalardagi yetuk sportchilar soni ko'p bo'lgan. Ular orasida taniqli bokschilar N.Korolev, L.Temuryan, B.Galushkin, kurashchi G.Pilnov, og'ir atletikachi N.Shatov, konkida uchuvchi A.Kopchinskiy, suvda suzuvchi – eshkak eshuvchi A.Dolgushin, chang'ichi ayol L.Kulkova va boshqalar juda ko'p bo'lgan.

Belorussiya, Ukraina va unga yaqin bo'lgan chet mamlakatlarning o'rmon va tog'larida partizanlar xizmat qilgan. Ular safida sobiq sportchilar ham anchagina bo'lganligi ma'lum.

Harbiy qismlarda jangchilarning harbiy-jismoniy tayyorgarligi va barqarorligini mustahkamlashda harbiy sarkardalar G.K.Jukov, I.S.Konev, A.M.Vasilevskiy kabilarning ta'limtarbiyalari muhim o'rin tutganligini e'tirof etish zarurdir.

Yana shuni ham ta'kidlash zarurki, urush yillarida front orqasida mehnat qiluvchi aholi o'rtasida jismoniy madaniyat va sport ishlari o'z faoliyatini to'xtatgan emas. Bunga ba'zi e'tiborli misollarni keltirish mumkin, ya'ni 1941-yil dekabrda rus xokkeyi bo'yicha Moskva kubogi o'tkaziladi. Bunda qizil

harbiy markaziy uyi jamoasi (SDKA) g'olib chiqadi.

1943-yil frontda jiddiy o'zgarishlar, olg a siljishlar yuz berganligi tufayli mamlakatda ommaviy sport ishlari jonlanadi. Ba'zi sport turlari bo'yicha respublikalar va umumittifoq miqyosda birinchilik uchun sport musobaqalari tashkil etiladi. 1943-yilda gimnastika bo'yicha umumittifoq sport musobaqasi tashkil etildi. Shuningdek, bu an'ana yengil atletika, konkida uchish, chang'ida yurish, suzish, velosport, og'ir atletika va qo'l jangi (rukopashniy boy) kabi turlarda davom ettirildi. Bunday musobaqalar Kavkazorti, O'rta Osiyo, Uzoq Sharq, Ural va Sibir hududlarida ham o'tkazilgan.

O'quv yurtlarida ham jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari qayta tiklana boshladi va sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

1942-yilda 140 sport maktabi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1943-yilda esa ularning soni 280 taga yetdi. Maktablar, hunar-texnika bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlarida chang'ida yurish, yengil atletika, tig' (shtik) jangi va boshqa harbiy jismoniy mashg'ulotlar bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

1944-yilda sportning 14 turi bo'yicha mamlakat birinchiligi o'tkazildi. Shuningdek, futbol bo'yicha mamlakat kubogi uchun musobaqa o'tkazilib, «Zenit» (Leningrad) jamoasi g'olib chiqdi. Sport musobaqalarida ko'p rekordlar o'rnatildi. Bu, o'z navbatida, aholining jipsligi va urushda g'oliblik uchun olib borilgan barcha tadbirlarning namunasi hamda ijobiy samaralari edi.

Xulosa qilib aytganda, sobiq Ittifoq jismoniy tarbiya tizimi hamda uning barcha ishtirokchilari fashistlar ustidan g'alaba qilishga bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar va g'olib keldilar.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Ikkinchi jahon urushi davrida jismoniy tarbiya va sport ishlarining qanday xususiyatlari mavjud edi?

2. Urush yillaridagi harbiy-jismoniy mashqlar haqida ma'lumot bering.

3. Urush davrida maktablar va boshqa o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya ishlari qanday amalga oshirildi?

4. Urush maydonlarida jasorat ko'rsatgan taniqli sportchilardan kimlarni bilasiz?

5. Front orqasida mehnat qilayotgan aholi o'rtasida qanday sport tadbirlari o'tkazildi?

6. Urush yillarida Kavkaz, O'rta Osiyo sportchilari va harbiy-jismoniy xizmatchilar qanday qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar?

7. Qo'shimcha adabiyotlarni mustaqil o'qish.

Urushdan keyingi davrdan to SSSRning inqirozga uchrashi davrigacha bo'lgan yillarda jismoniy tarbiya va sport (1946–1991-yillar)

Urushdan keyingi davrlarda jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qilishni tubdan yaxshilash (1948, 1959, 1966, 1968), sport inshootlarini ko'paytirish hamda mutaxassis kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish (1966), jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish (1972, 1981), madaniy sport majmualarini qurish va kengaytirish (1985) kabi muammolarni hal etishga qaratilgan edi. Sobiq Ittifoq davrida jismoniy tarbiya va sport sohasida erishilgan ichki (mamlakat birinchiliklari, spartakiadalar) va tashqi (Yevropa va jahon birinchiliklari, Olimpiya o'yinlari) yutuqlar jahondagi eng taraqqiy qilgan mamlakatlar bilan raqobatlashish va ularni ancha orqada qoldirishga asos bo'ladi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda erishilgan eng e'tiborli yutuqlardan biri shuki, 1951-yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Sovetlar mamlakatini o'z a'zoligiga qabul etdi va mamlakatda Milliy Olimpiya qo'mitasi tashkil etildi. Bu, o'z navbatida, sovet sportchilarining Olimpiya o'yinlaridagi deyarli doimiy g'alabalarni ta'minlashga xizmat qildi.

1937-yildan buyon har 4-yilda bir marta o'tkazib kelingan umumittifoq jismoniy tarbiyachilar namoyishi

so‘nggi marotaba 1954-yilda tashkil etildi. Sportchilarning ommaviy harakatlari va yuksak mahoratlarini ko‘rsatuvchi bu namoyish o‘rniga 1956-yildan boshlab sobiq SSSR xalqlari spartakiadasi o‘tkazila boshladi. Bu ulkan tadbir ham Olimpiya o‘yinlariga o‘xshash har 4 yilda bir marotaba o‘tkazib borildi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sport tashkilotlari rahbarlarining o‘rni nihoyatda kattadir.

Urushdan keyingi yillarda mamlakatda mutaxassis kadrlar tayyorlash va ularning ish faoliyatlarini davr talablari asosida olib borishda yoshlar ittifoqi muhim rol o‘ynaydi. Juda ko‘p sohalarda sobiq yoshlar ittifoqi rahbarlarini boshqaruv ishlariga qo‘yish odat edi. Shu sababdan, Butunittifoq jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi (sportqo‘mita) raisligiga yoshlar ittifoqining sobiq bosh kotibi N.N.Romanov tayinlanadi. Keyinchalik esa (1948-yil) bu lavozimni A.N.Apollonov egallaydi.

1953–1958-yillar mobaynida sport qo‘mitasi sog‘liqni saqlash vazirligi tarkibida ish olib bordi.

1983–1990-yillar davomida sport qo‘mitasi raisi bo‘lib M.V.Gramov ishladi. Uning bu lavozimga tasodifan (Yu.V.Andropov tavsiyasi bilan) kirib qolganligi tezda ma’lum bo‘ldi, chunki u jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, katta sportda hech qanday tushunchaga ega emas edi. Uning aybi bilan, ya’ni o‘sha davrlardagi siyosiy vaziyat tufayli sovet sportchilari 1984-yilda Los-Anjelesda (AQSH) o‘tkazilgan XXIII Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etmadi.

Mamlakat rahbarlarining talab va tavsiyalariga ko‘ra M.V.Gramov Milliy Olimpiya qo‘mitasi raisi (1983–1990) Xalqaro Olimpiya qo‘mitasidagi huquqiy a’zosi (1988–1992) ham edi.

Mamlakatda jismoniy madaniyat va sport ishlarini yanada yaxshilash va ularni boshqarishda sport jamiyatlari asosiy o‘rinni egallaydi.

1957-yil oxirida Butunittifoq kasaba uyushmalari federatsiyasi Markaziy Kengashi (VSSPS) ko‘ngilli sport

jamiyatlarining tuzilishi va tarkibini o'zgartirishga qaratilgan qaror qabul qildi. Mavjud bo'lgan ko'p sonli ko'ngilli sport jamiyatlari (DSO) o'rniga hududiy (territorial) sport jamiyatlari tashkil etildi. Bunda har bir respublikada o'zlarining mustaqil sport jamiyatlarini tashkil etishga ruxsat berildi. Shu asosda «Trud» (Rossiya), «Avangard» (Ukraina), «Krasnoye znamya» (Belorussiya), «Gantiad» (Gruziya), «Mehnat» (O'zbekiston) va hokazo tuzildi.

E'tirof etish kerakki, qishloq sportini rivojlantirishga ham jiddiy e'tibor berildi. 1966-yilda Butunittifoq «Urojay» (hosil) tarmoqli sport jamiyati tuzildi va uning tarmoqlari bo'lgan, Ukrainadagi «Kolos» (boshoq), Belorussiyadagi «Urazshay», O'zbekistondagi «Paxtakor», Latviyadagi «Varpa» kabi ko'pgina sport jamiyatlari rasmiylashtirildi.

Ko'ngilli sport jamiyatlarining markazlashtirilishi va respublikalarda tarmoqli sport jamiyatlarining tashkillashtirilishi yirik korxonalar va xo'jaliklarda sport klublarining yangi shakl va mazmunda vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ular yil sayin ko'payib bordi. Urushgacha bo'lgan davrda jismoniy madaniyat institutlari atigi 6 ta bo'lsa, 1958-yilga kelib, ularning soni 16 taga yetdi. Yangidan Yerevan, Lvov, Almati, Kaunas, Riga, Toshkent (1955 y.), Bishkek (Frunze), Volgograd, Omsk, Smolensk kabi shaharlarda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ishlari boshlandi.

1959-yil 1-yanvardan boshlab GTO majmuining yangi mazmuni joriy etildi. Bunda urush yillaridagi harbiy-jismoniy mashqlar chiqarib tashlandi va aholi uchun zarur bo'lgan sport turlarining unsurlari (elementlari) kiritildi. Shunday bo'lsa-da, uning negizi va mazmunida harbiy-jismoniy tayyorgarlik («Mehnat va mudofaaga tayyor») maqsadi mujassamlashgan edi. Sovet jismoniy tarbiya tizimining ustunligi va unga partiya hamda hukumat tomonidan e'tiborning kuchayishi natijasida jahonga mashhur sportchilar va mutaxassislar vujudga keldi.

Jahon sport musobaqalari va Olimpiya o'yinlarining g'oliblari V.Chukarin va M.Goroxovskaya (gimnastika), V.Kus va G.Zibina (yengil atletika), M.Isakova va

Ye.Grishin (konkida uchish), L.Kozireva va V.Kuzin (chang'i sporti), A.Vorobyev va Yu.Vlasov (og'ir atletika), G.Shatkov va V.Yengibaryan (boks), V.Bobrov (futbol va xokkey), E.Strelsov va L.Yashin (futbol) kabi juda ko'p sportchilar jahonga mashhur bo'ldilar.

Partiya va hukumat qarori asosida jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, shuningdek, respublikalardagi sport qo'mitalari ham davlat sport qo'mitasiga aylantirildi. Bu, o'z navbatida, sport tashkilotlarining nufuzini oshirishga qaratildi. Qayta qurish yillarida, shuningdek, kasaba uyushmalari tarkibidagi ko'ngilli sport jamiyatlarida ham o'zgarishlar yuz berdi. 1981-yilda mavjud bo'lgan 33 ko'ngilli sport jamiyati (KSJ-DSO) 1987-yilda 8 taga birlashtirildi, ya'ni «Burevestnik», «Spartak», «Trud», «Vodnik», «Lokomotiv», «Urojay» kabi KSJlari tugatildi. Ular shu nomlar bilan respublika va viloyat klublariga aylantirildi. Ammo bu tadbirlar keyinchalik jismoniy tarbiya va sportning moliyaviy ta'minlanishi, sport inshootlarini kengaytirish, musobaqalarni o'tkazish ishlariga ta'sir etdi.

Spartakiadalar. 1955-yildagi hukumat qarori asosida 1-sobiq SSSR xalqlari spartakiadasi 1956-yil yozida Moskvada tashkil etilib, unda barcha Ittifoqchi respublikalarning yetuk sportchilari ishtirok etdi. Shu yili Lujnikida eng yirik sport majmui qurilib, spartakiada shu joyda ochildi. Ikki hafta davomida sportning 21 turi bo'yicha 9244 nafar sportchi bellashdilar. Shu asosida qishki spartakiadani o'tkazish ham (1962 y.) an'anaga aylandi. Ikkala spartakiadada erishilgan yaxshi natijalarni quyidagi jadvallardan ko'rish mumkin:

Yozgi spartakiada

Terma jamoalar kuchli 6 o'rin	1956	1959	1963	1967	1971	1975	1979	1983	1986	1991
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Moskva	1	1	1	1	2	2	2	2	3	-
Rossiya	2	2	2	2	1	1	1	1	1	1

Leningrad	3	3	4	4	5	4	5	3	2	-
Ukraina	4	4	2	3	3	3	2	4		2
Gruziya	6	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Estoniya	5	5	5	5	-	-	-	-	-	-
Belorussiya	-	6	6	6	4	5	2	-	-	3
Qozog'iston	-	-	-	-	-	6	6	-	-	-

Qishki spartakiada

Terma jamoalar kuchli beshlik	1962	1966	1974	1978	1982	1986	1990
	I	II	III	IV	V	VI	VII
Moskva	1	1	2	1	1	1	3
Rossiya	2	-	-	-	-	3	1
Leningrad	3	2	1	2	3	2	
Ukraina	4	5	-	5	5	-	2
Qozog'iston	5	4	4	-	-	-	

E'tiborli jihati shundaki, 1953-yilda «Jismoniy tarbiya nazariyasi» o'quv qo'llanmasi ilk bor nashrdan chiqarildi. Moskva va Leningrad jismoniy madaniyat institutlarining pedagogik jamoalari tomonidan (1959, 1960) bu o'quv qo'llanmasi mukammal ishlab chiqildi.

Jismoniy tarbiya tizimining ilmiy asoslari yanada mustahkamlandi. I.M.Sarkizov-Serazinning davlat jismoniy tarbiyasi, chiniqish va sport uqalashlari (massaj); M.F.Ivanskiyning dinamik va plastik (tekis) anatomiyasi; P.A.Rudik va A.S.Punilarning sport psixologiyasi; S.P.Letunovning sport tibbiyoti kabi yangi tadqiqot ishlari yuzaga keldi. 1951–1955-yillarda P.F.Lesgaftning besh tomlik tanlangan asarlari va V.V.Gorniyevskiyning tanlangan asari nashrdan chiqarildi.

Sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanda sportchilarning XV–XVII yozgi va VII–VIII qishki Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki keng muhokama qilindi. Unda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tajriba-sinovlarning ijobiy xususiyatlari ma'qullandi. Bu keyinchalik sport mashg'ulotlarini ilmiy-

nazariy asosida tashkil qilish yo'llariga keng imkoniyat ochib berdi.

Jismoniy tarbiya sohasidagi ilm-fanning rivojiga Moskva, Leningrad, Malaxovka, Kiyev, Minsk, Omsk, Lvov jismoniy madaniyat institutlari, shuningdek, Moskva, Leningrad va Gruziya ilmiy tekshirish institutlari katta hissa qo'shdi.

Mamlakatda ilmiy maktab shakllandi. Sportning tibbiy-biologik masalalari bo'yicha A.N.Krestovnikov, V.S.Farfel, M.F.Ivanskiy, S.P.Letunov, A.G.Dembo, I.M.Sarkizov-Serazini, N.V.Zimkin va boshqalar o'z ilmiy maktablarini yaratdilar.

Sport biomexanikasi sohasida N.A.Bernshteyn, D.D.Donskiy, V.M.Zasiorskiylar katta tadqiqotlar olib bordi.

XX asrning 60—70-yillarida jismoniy tarbiya nazariyasi va sport psixologiyasi sohalarida ilmiy maktablar shakllandi. Bunda A.R.Novikov, N.I.Ponomarev, L.P.Matveyev, V.P.Filin, P.A.Rudik, A.S.Puni va ularning shogirdlari - izdoshlari katta faoliyat ko'rsatdilar.

Ta'kidlash lozimki, 1986-yilgi (VIII) spartakiada ishtirokchilari uchta guruhga bo'linib (Rossiya hududlari; Kavkaz hududlari; O'rta Osiyo hududlari), musobaqalar turli shaharlarda, qisman Toshkentda ham o'tkazildi. 1991-yilgi X (so'nggi) spartakiada ham turli hududlarda (Rossiya, Ukraina, Belorussiya) tashkil etildi.

1991-yilda «Sovetskiy sport» gazetasi spartakiadaning avvalgi mavqei yo'qolayotganini ochiq yoritgan edi. Chunki mamlakatdagi qayta qurish jarayonlarining izdan chiqishi, siyosiy voqealar, ochiq demokratiyaning keng yoyilishi ko'pchilik qatorida sportchilarni ham tashvishga solib qo'ydi. Shu sababdan, spartakiadada yetuk sportchilarning aksariyat ko'pchilik qismi startlarga chiqmagan edi.

Xulosa shundan iboratki, dastlabki, spartakiadalar barcha ittifoqchi respublikalarda sportning ommalashishi va mahoratli sportchilarning yetishib chiqishda katta ahamiyat kasb etdi. Buning negizida esa sport inshootlarining kengayishi, mutaxassis kadrlar tayyorlashning kuchayishi, mehnatkash yoshlarni sportga jalb etish yo'lidagi sport jamiyatlarning jonbozliklari yotar edi.

Jismoniy tarbiya va sport haqidagi fanlarning taraqqiyoti

Mamlakatda jismoniy madaniyat va sportning taraqqiyoti shu sohadagi fanlarning rivojlanishiga kuchli va ijobiy ta'sir o'tkazdi.

1956-yilda Stalin shaxsiga sig'inishni fosh etishga qaratilgan jiddiy tadbirlar jismoniy tarbiya va sport sohadagi olimlarning erkin va ijodkorlik bilan mehnat qilishiga sharoit yaratib berdi.

Eng avvalgi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda anatomiya, fiziologiya, gigiyena masalalariga qaratilgan tibbiy yo'nalishlar keng muhokama qilina boshladi. Mashqlarni o'rgatish va sport mashg'ulotlarini olib borishning yangi yo'l-yo'riqlari haqida K.V.Gradapolovning «Boks» (1950), G.V.Vasilyev va N.G.Ozolin tahriridagi «Yengil atletika» (1952, 1953), P.T.Kashur tahriridagi «Sport o'yinlari» (1953), A.T.Brikin tahririda «Gimnastika» (1950) darsliklar va o'quv qo'llanmalari chop etildi.

Muhim tomoni shundaki, bu davrlarda ba'zi bir sport turlari nazariyasi va usullari bo'yicha yirik tadqiqotlar amalga oshirilib, mukammal ishlangan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar yaratildi. Bunda N.G.Ozolin va V.M.Dyachkovlarning (yengil atletika), M.L.Ukran, A.M.Shlyomin, V.M.Smolevskiy (gimnastika), N.J.Bulgakova, M.Ya.Nabatnikov (suzish) va h.k.ning xizmatlari beqiyos katta bo'ldi.

Jismoniy tarbiya va sport tarixini yaratishda F.I.Samoukov, D.A.Kradman, I.G.Chudinov, G.D.Xarabuga, N.I.Panomarev, V.V.Stolbov va boshqa yirik olimlarning qator darsliklari, o'quv qo'llanmalari qayta-qayta nashrdan chiqarildi.

E'tirof etish kerakki, V.V.Stolbov uzoq yillar davomida jahon va sovet jismoniy tarbiyasi tarixini o'rganish yo'lida tinimsiz mehnat qilib keldi. Uning rahbarligi va tahriri ostida jismoniy tarbiya institutlari uchun (1975, 1983, 1989, 2000) jismoniy tarbiya fakultetlari va jismoniy madaniyat texnikumlari uchun yaratilgan darsliklar qayta-qayta nashrdan chiqarildi.

«Jismoniy tarbiya va sport tarixi» dasrligi (2000-yildagi va avvalgi nashrlari) sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalar, ya'ni hozirgi mustaqil davlatlardan keng foydalanilmoqda.

O'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport. Urushlar tugagach (1945), mamlakatdagi deyarli barcha turdagi o'quv yurtlarida harbiy tayyorgarlik darslari bekor qilindi. Uning o'rniga jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilishning yangi yo'llari vujudga keldi. Darslarning mazmuni sport turlari bilan boyitildi. Yangi dasturlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi va ular amalda keng qo'llanildi.

Ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiya darslari asosan «Mehnat va mudofaaga tayyor» (GTO) jismoniy tarbiya majmuiga asoslandi.

Maktab o'quvchilarining sport turlariga qiziqishi kuchaydi, ularga keng shart-sharoitlar yaratib berildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablarining tarmog'i kengaydi va ularning miqdori barcha hududlarda tobora osha boshladi.

1946-yilda bolalar va o'smirlar sport maktablarining (DYuSSh) soni 460 ta bo'lsa, 1957-yilga kelib 1220 taga yetdi.

Sport maktablari asosan «Dinamo» va «Spartak» sport jamiyatlari tarmog'ida tashkil etildi.

1968-yildagi Butunittifoq o'qituvchilar qurultoyi (syezd) o'quvchi yoshlarni faqat ma'naviy jihatdangina emas, balki jismoniy jihatdan ham tarbiyalashni keng ko'lamda olib borilishini, bolalarni har tomonlama chiniqtirish zarurligiga katta e'tiborni qaratdi. Shu asosda maktabgacha tarbiya muassasalarida jismoniy tarbiyani keng qo'llash usullarini takomillashtirish masalalari ham ta'kidlandi.

Bu jihatlar bog'cha va maktablarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan diqqat-e'tiborni ancha kuchaytirdi.

1961-yilda yirik shaharlarda sport internat-maktablarni ochish odatga aylandi. Shu asosida 1963-yilda Toshkentda ham respublika sport internat-maktabi tashkil etildi.

Maktablar, tuman, shahar, viloyat, respublika hamda umumittifoq maktab o'quvchilarining spartakiadalari tashkil etildi.

Kasb-hunar bilim yurtlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish «Mehnat zaxiralari» («Trudoviye rezervi») sport jamiyati tomonidan amalga oshirib borildi. Ular tarkibidagi mohir sportchilar ham o'quvchi yoshlar jismoniy tarbiya harakatini o'stirish ishiga katta hissa qo'shdilar.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarning jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari va ommaviy sport tadbirlarini yo'lga qo'yishda Oliy ta'lim vazirligi, «Burevestnik» sport jamiyati rahnamolik qilishdi. Talabalarga 1–2-kurslarda Mehnat Mudofaasiga tayyorgarligini I va II bosqichlari talabalarni bajarish vazifa qilib qo'yildi.

Qayta qurish yillari davrida umumta'lim maktablarida, shuningdek, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yangi islohotlar amalga oshirila boshlandi. Yangi ishlab chiqilgan dasturlar 1985-yil 1-sentabridan kuchga kirdi. Jismoniy tarbiya darslari 2–3 soatni tashkil etdi.

Turg'unlik yillari davridagi o'ziga xos vaziyat o'quv yurtlari faoliyatini tubdan o'zgartirishga imkoniyat bermadi. Chunki moddiy-texnik yetishmovchiliklar va ayniqsa, siyosiy ahvol islohotlarga keng yo'l ochib berilishiga to'g'anoq bo'ldi.

Xulosa shundayki, sobiq Ittifoq, sovetlar mamlakatini yangi yo'ldan borishga qanchalik undagan bo'lsa-da, ular amalga oshmadi. Jismoniy madaniyat va sport ishlari ham faqat Rossiya, Ukraina, Belorussiya hududlari hamda markaziy shaharlardagina ancha rivoj topdi.

Sobiq SSSR va Rossiya federatsiyasi sportchilarining xalqaro aloqalari (40–80-yillar oxiri va 2000-yil)

Sovet xalqining fashizm ustidan g'alaba qilishi jahon mamlakatlarini tashvishga, hatto chuqur larzaga soldi. AQSH boshchiligidagi kapitalistik tuzum va sovetlar boshchiligidagi sotsialistik tuzum orasidagi raqobat sovuq urush tahdidiga zamin hozirladi. Shu tariqa bu mamalakatlar sportchilari orasida ham uzoq yillar nosog'lom raqobat va dushmanlik mu-

nosabatlari avj oldi.

Sobiq Ittifoqning Davlat sport qo'mitasi rahbari N.N.Romonov o'tgan davrlarni xotirlab, «Olimpiya yo'lidagi mashaqqatli yillar» (1987) va «Olimpiya cho'qqisiga chiqish» (1991) kabi estalik asarlarda sovet sportchilarining xalqaro sport va Olimpiya harakatidagi ulkan faoliyatlarini mahorat bilan yoritdi.

1946-yilda sovet mamlakatiga 18 mamlakatdan sport vakillari tashrif buyurgan bo'lsa, o'z navbatida, sovet sportchilari 14 mamlakatga chiqish qilgan. Bu raqamlar 1951-yilda 29–49 taga yetadi, ya'ni sovet sportchilari safar qilgan xorijiy mamlakatlar soni SSSRga o'z vakillarini jo'natgan mamlakatlar soniga qariyib 2 baravar o'sdi.

Sovet sportchilari ilk bor (1946) Xalqaro futbol federatsiyasi (DIFA) tarkibiga a'zo bo'lib kirdi. Keyinroq ular og'ir atletika, yengil atletika, (IAAF), kurash (FILA), basketbol (FIBA), suzish (FIIA), chang'i (ISU), shaxmat (FIDE kabi sport turlari bo'yicha ham xalqaro sport federatsiyalari hamda uyushmalari tarkibiga kiritildi (1997).

1947-yilda I.Kotkas, K.Koberidze, N.Belov kabi kurashchilar, N.Isatov, I.Mexanik, I.Azdarov, G.Novak, Ya.Kusenko singari og'ir atletikachilar Yevropa chempioni unvoniga sazovor bo'lishdi.

1948-yildan boshlab konkida uchuvchilar ham jahon musobaqalariga kira boshladi. M.Shakova Finlyandiya (1948), Norvegiya (1941) va Moskvada (1950) o'tkazilgan jahon birinchiliklarida g'olib bo'ldi.

1947–1951-yillarda gimnastikachilar ham jahonga tanildi. Pragada (Chexoslovakiya) o'tkazilgan I jahon yoshlari va talabalari festivalida qatnashgan gimnastikachilar, o'sha davrning eng kuchli sportchilari bo'lgan Finlyandiya, Shvetsiya, Shveysariya mamlakatlarini orqada qoldirdi.

Bunday ulkan natijalar xalqaro sport va Olimpiya harakatida tan olindi. Sovet sportchilari uchun Olimpiya o'yinlari darvozalari keng ochildi.

Olimpiya hamjamiyatiga qaytish. O'tgan boblarda Rossiyaning Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) tarkibiga a'zo

bo'lganligi va keyin sovetlar hokimyati inqirozi tufayli uning a'zoligidan chiqarib tashlanishi ta'kidlangan edi. Shu sababdan, endi olimpiya harakatini olimpiya hamjamiyatiga qaytish iborasi bilan yuritish mantiqan to'g'ri bo'ladi, chunki sovetlar mamlakatini jahondagi ko'pchilik mamlakatlar asosan Rossiya davlati deb tanishar va buning zamirida siyosiy, iqtisodiy boshqaruv faoliyatining u yoki bu sabablari yotar edi.

Shunga asosan 1952—1991-yillar oralig'idagi Olimpiya harakatida asosan Moskva (Rossiya) rahbarligining faoliyati ustun turar edi. Bu jismoniy tarbiya va sport tarixida o'z ifodasini to'laligicha topgan deyish mumkin.

1951-yil 21-aprelda Olimpiya qo'mitasi ta'sis etildi. Olimpiya qo'mitasining birinchi raisi K.A.Andropov (1910—1988) edi. Qo'mita tarkibidagi umumittifoq seksiya rahbarlari saylandi, ya'ni V.Andreyev (chang'i sporti), G.Baklanov (gimnastika), V.Grantkin (futbol) va boshqalar. Shuningdek, uning tarkibida xizmat ko'rsatgan sport ustalari M.Isakova, Z.Bolotova, F.Vanin, B.Arkadyev, A.Mazur, N.Ozolin, Z.Romonova ham bor edi.

K.A.Andropov to 1975 yilgacha Sovet mamlakati Olimpiya qo'mitasi raisi ham XOQning a'zosi sifatida juda ko'p xizmat qildi.

A.O.Romanov 1952-yilda XOQ a'zoligiga saylandi va 1971-yilgacha shu lavozimda ishladi.

S.P.Pavlov 1975—1983 yillarda, M.V.Gramov 1983—1990-yillar oralig'ida, V.G.Smirnov 1990—1991-yillar davomida Olimpiya qo'mitasi raisi vazifasida faoliyat ko'rsatishdi.

Sovet mamlakati Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga yo'llanma yubordi. Natijada, 1951-yil 7-mayda Venadagi XOQning sessiyasida bu masala ko'rib chiqildi va XOQ prezidenti Otto Mayer talabning qoniqtirilishini ma'lum qildi.

Shu tariqa sovet sportchilari Xalqaro Olimpiya o'yinlarining eng faol ishtirokchilariga aylandi.

1952-yil Xelsinki (Finlyandiya). Sovet sportchilari jahonning eng kuchli sportchilari bilan ilk bor uchrashib, kuch sinashdi. Bunda sportchilari (XV Olimpiya o'yinlari) sportchilar 2 ta jahon va 6 ta Olimpiya rekordlarini o'rnatdi. Bu bilan 22 ta oltin, 30 ta kumush va 19 ta bronza medallariga sazovor bo'ldilar. AQSH sportchilari 44 ta oltin medal (sovetlarga nisbatan ikki barobar ko'p) olishdi.

Birinchi sovet oltin medal egasi N.Romashkova (disk uloqtirish) edi. 29 sportchi chempion unvonlariga sazovor bo'lishdi. O'yinlarda ilk qatnashish umuman zafarli bo'lsada, suzish, qilichbozlik, ot sporti, futbol kabi ayrim sport turlarida sportchilar ancha sust qatnashdi.

1956-yil. Kortino-d-Ampesio, Melburn. Qishki Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari ilk bor Kortino-d-Ampesioda (Italiya) o'tkazilgan VII Olimpiya o'yinlarida ishtirok etdi. Konkida uchuvchilar 4 ta oltin medal egasi bo'lishdi. Xokkeychilar birdaniga Olimpiya, jahon va Yevropa chempioni unvoniga sazovor bo'lishdi. Chang'ida yurish (2 ta oltin) ham yomon bo'lmadi. Sportchilar jami 7 ta oltin, 3 ta kumush va 6 ta bronza medallarini egallab, eng kuchli deb hisoblandi.

XVI yozgi Olimpiya o'yini 1956-yil (noyabr oxiri va dekabr boshi) Melburnda (Avstraliya) o'tkazildi va unda sovet sportchilari 37 ta oltin, 20 ta kumush, 32 ta bronza medallarini olishga muyassar bo'ldi. 58 sportchi Olimpiya chempionlari nomini oldi. V.Kus 5 va 10 km.ga yugurishda jahon sportchilarini hayratda qoldirdi.

1960-yil Skvo-Velli, Rim. Qishki VIII Olimpiya o'yinlari va XVII yozgi Olimpiya o'yinlari (Rim)da ishtirok etgan sovet sportchilari 50 ta oltin, 34 ta kumush va 40 ta bronza medallariga sazovor bo'lishdi. Umumiy ochkolar bo'yicha sovet sportchilari AQSH va boshqa kuchli mamlakatlarning sportchilarini ortda qoldirdi. Olimpiya chempionlari tarkibida P.Bolotnikov, R.Shavlakadze, opa-singillar Tamara va Irina Press (yengil atletika, Samarqand shahar maktabining sobiq o'quvchilari, urush yillarida Leningarddan ko'chirib yuborilgan), V.Kapitonov (velosport), B.Shaxlin, L.Latinina (gim-

nastika), S.Filatov (ot sporti), Yu.Vlasov (og'ir atletika), V.Ivanov (eshkak eshish), Ye.Grishin va L.Skoblikova (konkida uchish) kabilar bor edi.

1964-yil Insburk, Tokio. IX qishki (Insburk) va XVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida (Tokio) sovet sportchilari yana bir bor o'zlarining mahoratlarini tantanavor namoyish etishdi. Ochkolar bo'yicha jamoalar orasida sovet sportchilari g'olib deb topildi. V.Brumel (yengil atletika), B.Grishin va L.Skoblikova (konkida uchish), V.Popenchenko (boks), G.Promenshikova (suzish) kabilar Olimpiya chempioni bo'lishdi.

1968-yil. Grenobl, Mexiko. Qishki Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari 5 ta oltin, 5 ta kumush va 3 ta bronza medali sovrindori bo'lishdi.

Mexiko (Meksika)da o'tkazilgan XIX yozgi Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari avvalgi davrlardagiga nisbatan past natijalar ko'rsatdilar. O'yinlarda qatnashgan 322 sportchi atigi 29 ta oltin, 32 ta kumush va 30 ta bronza medaliga sazovor bo'lishdi. Ular orasida B.Lagutin (boks), A. Medved (kurash), N.Kuchinskaya va M.Varonin (gimnastika), V.Saneyev, Ya.Lusis, V.Golubinchiy (yengil atletika), B.Novikova, M.Rakip, G.Goroxova (nayzabozlik), V.Kurensov, L.Jabotinskiy (og'ir atletika) bor edi. Umumiy medallar soni bo'yicha AQSH birinchilikni egalladi.

1972-yil Sapporo. Qishki Olimpiya o'yinlari Yaponiyada (Sapporo) tashkil etildi. Sovet sportchilari 8 ta oltin, 5 ta kumush va 3 ta bronza medallarini egallashdi. Bu ularni birinchi o'ringa chiqardi.

Myunxenda (Germaniya) o'tkazilgan XX Olimpiya o'yinlari yana sovet sportchilarining ustunligida o'tdi. Unda sovet sportchilari 500 kishi bo'lib, AQSHni ikkinchi o'rinda qoldirdi, ya'ni sovet sportchilari 17 ta sport turi bo'yicha va AQSH 7 ta sport turidan g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Sovet sportchlaridan 103 kishi oltin medallar bilan taqdirlandi. 183 sportchi o'yinlarning shohsupasiga ko'tarildi. Sportchilardan V.Alekseyev (og'ir atletika), A.Medved (erkin kurash), V.Saneyev (yengil atletika), N.Avilov (o'nkurash),

O.Korbut (gimnastika), L.Bragina (yengil atletika), S.Belov (basketbol), F.Melnik, N.Gishova (yengil atletika) kabilar shon-shuhratga erishdilar.

1976-yil Insbruk. 1976-yil fevralida sovet sportchilari XII qishki Olimpiya o'yinlarida (Insbruk - Avstriya) ishtirok etib, unda 79 sportchi o'z mahoratini namoyish etdi. Ular 13 ta oltin, 6 ta kumush va 8 ta bronza medallari sohibi bo'lib, o'zlarining avvalgi birinchi o'rinlarini matonat bilan saqlab qolishga erishdilar.

1976-yil yozida (Monreal - Kanada) XXI yozgi Olimpiya o'yinlarida ham sovet sporti katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

O'yinlarda 409 nafar sportchi qatnashdi. Ular uylariga 125 olimpiya medali (49 ta oltin, 41 ta kumush va 35 ta bronza) bilan qaytishdi. Olimpiya chempionlari tarkibida N.Andrianov, N.Kim, L.Turishcheva (gimnastika), V.Saneyev, Yu.Sedix, T.Kazankina (yengil atletika), L.Tediashvili, I.Yarigin (erkin kurash), N.Balboshin (klassik kurash), V.A.Lekseyev (og'ir atletika), V.Krovopuskov (qilichbozlik) bor edi.

1980-yil Leyk-Plesid. Yil boshida sovet sportchilari Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun Leyk-Plesid (AQSH) shahriga boradilar. U yerda muvaffaqiyatli chiqishlar qilib, 22 ta mukofatga (10 ta oltin, 6 ta kumush va bronza medallari) erishadilar. N.Zimlyatov 30, 50 km.ga chang'ida quvish sportida, A.Tixonov (biatlon-estafeta), I.Rodnina (konkida figurali uchish), V.Zozulya (chana sporti) kabilar shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarilishdi. O'yinlarda AQSH sportchilari g'olib kelishdi.

XXII yozgi Olimpiya o'yinlari Rossiyaning markazi Moskvada 1980-yil 19-iyuldan 3-avgustga qadar o'tkazildi. Bu o'yinlar sotsialistik tizimdagi barcha mamlakatlar uchun joy va mavqe jihatdan birinchi bo'lib hisoblandi.

Olimpiya o'yinlarida 81 mamlakatdan kelgan sportchilar jami 203 ta medal uchun kurash olib bordi.

Sovet sportchilarining soni 500 dan ortiq edi. Ularning tarkibida Ittifoqchi Respublikalarning yetakchi sportchilari ishtirok etdi. O'yinlarda maydon egalari (mezbonlar) 80 ta

oltin, 69 ta kumush va 46 ta bronza medaliga sazovor bo'lishdi.

Ta'kidlash zarurki, o'sha vaqtdagi siyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, harbiy tahdid haqidagi turli xil uydirmalarning ortib borishi sovetlar va AQSH o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirgan edi. Bu, o'z navbatida, AQSH hukumatining Moskvadagi Olimpiya o'yinlarini boykot qilishiga olib keldi. Shu sababdan, AQSH sportchilari Moskvadagi o'yinlarda qatnashishdan mahrum bo'ldilar. Bu butun jahon ahlining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etdi, chunki ikki ulkan davlat o'rtasidagi tinchlik, totuvlik muvozanatlari ochiqdan-ochiq buzilgan edi.

XIV (Sarayevo, 1984) va XV (Kalgari, 1988) qishki Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilarining ishtiroki va g'alabalari sport tarixida katta iz qoldirdi. Bu o'yinlarda yosh sportchilarning mahoratlari va kelajagi namoyish etildi.

1984-yil Los-Anjelisda (AQSH) o'tkazilgan XXIII Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari ishtirok etmadi, chunki yuqorida qayd etilgan siyosiy va harbiy tahdidlar, ayniqsa, AQSH sportchilarining Moskvadagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etmaganligiga javob tariqasida shunday xulosalarga kelingan edi. Bu davrda qilingan xatolarning achchiq oqibatlari faqat keyinroq ma'lum bo'ldi va yuzaga chiqdi. Sovet mamlakati rahbarlari bundan tegishli xulosalar chiqardi va jahonda tinchlikning barqaror bo'lishi yo'lidagi aqliy harakatlarga qo'shildi. Ularning natijalari esa keyingi Olimpiada o'yinlarida o'z ifodasini topdi.

1988-yil Seul. Yozgi XXIV Olimpiya o'yinlari Seulda (Janubiy Koreya) tashkil etildi. Sovet va AQSH sportchilari jahondagi eng kuchli sportchilarning birgalikdagi bellashuvlari yana davom etdi. O'yinlarda 160 mamlakat sportchilari ishtirok etdi. Sovet sportchilari 55 ta oltin, 31 ta kumush va 46 ta bronza medallarni egallab, eng oldingi o'rinda karvonboshilik qildi.

32 yillik (1956 y.) tanaffusdan so'ng sovet sportchilari Olimpiya chempioni bo'ldi.

1992-yil Barselona (Ispaniya) shahrida XXV Olimpiya o'yinlari o'tkazildi. Bunda sobiq sovet sportchilari so'nggi bor uyushgan terma jamoalarni tuzib, o'yinlarda muvaffaqiyat bilan ishtirok etdi.

1996-yil (Atlanta), 2000-yil (Sidney) Olimpiya o'yinlarida Rossiya va sobiq respublikalar mustaqil ravishda o'yinlarda ishtirok etishdi.

Xulosa shuki, xalqaro olimpiya o'yinlarida sovet sportchilarining ishtiroki jahon sportchilari mahoratini oshirish va Olimpiya g'oyalarini demokratlashtirish yo'lida katta xizmat qildi.

Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, Ikkinchi jahon urushidagi sovetlarning g'alabasi jahondagi turli xil sport tadbirlarida sovet sportchilarining ishtirok etishiga katta yo'l ochib berdi.

Yevropa va jahon chempionatlarida sovet sportchilarining g'alabalari hech kimni e'tiborsiz qoldirmadi.

1960-yilda sovet futbolchilari va voleybolchilari Yevropa kubogi sohibi bo'ldi, 1961-yilda SSSR yengil atletikachilari navbatdagi an'anaviy uchrashuvda SSSR g'olib keldi. A.V.Brumel va D.Tomas (AQSH) balandlikka sakrashda AQSH chempioni unvonini olishdi. Sovet mamlakatlari sportchilari 1980-yilda 100 dan ortiq (1958-yilda 63 mamlakat) mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatdi.

Shu davrlarda sovet sportchilari 150 dan ortiq Xalqaro sport uyushmalariga (XSU-MSO) a'zo edi.

Gimnastika, yengil atletika, qishki sport turlari bo'yicha sovet sport klublari jahonda eng kuchli hisoblanadigan bo'ldi.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Rossiya 1952-yilda atigi bitta (N.A.Panin) Olimpiya chempioniga ega bo'lgan bo'lsa, 1988-yilga kelib, ularning soni 549 taga yetdi.

Xulosa qilib aytganda, sobiq sovetlar mamlakatining sportchilari Yevropa, jahon birinchiliklari, turli xil xalqaro sport turnirlarida g'oliblikni ko'p marotaba qo'lga kiritishdi. Bu esa sovet sportchilarining xalqaro maydonlaridagi shon-shuhratlari tantana qilishiga asosiy sabab bo'ldi.

Sovet Ittifoqining inqirozidan keyingi Rossiya Federatsiyasida jismoniy tarbiya va sport. Sobiq sovetlar mamlakatining tugatilishiga asosiy sabablardan biri shundaki, Rossiya tepasiga kelgan yangi rahbarlar (B.N.Yelsin) hokimiyatni boshqarishning yangi yo'llarini qidirdi. Mavjud bo'lgan hokimiyat, ayniqsa, qayta qurish ijodkorlarining (M.S.Gorbachev) ish usullari ularga ma'qul bo'lmadi. Shu asosda sobiq Ittifoq inqirozga uchradi. Rossiya hukumati o'z atrofida sobiq respublikalarning mustaqil davlat sifatida tarkib topishiga monelik ko'rsatmadi. Chunki garchi Mustaqillik kurtaklari allaqachon ochilgan va o'z samaralarini ko'rsata boshlagan bo'lsa-da, sobiq qardosh respublikalar Rossiyadan yiroqlashmaslikni ma'qul ko'radilar. Ayni vaqtda Rossiya ham yaqin kelajakda ularni yana birlashtirishni ko'zda tutdi. Shu sababdan, u 1991-yilda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (SNG) ni tuzishga muvaffaq bo'ldi. Bu hamdo'stlik ba'zi bir mamlakatlarda mazmun va mohiyat jihatdan o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Rossiya barcha sohalar bo'yicha jahonda o'zining ustuvorligini ko'rsatish yo'lida bor kuch qudrati va imkoniyatini ishga solmoqda. Jumladan, sportda ham olg'a siljish, eski mavqelarni boy bermaslik yo'lida jiddiy harakatlar qilmoqda. Lekin ularning ko'pchiligi amalga oshmayotir. Rossiyada hozirda 23 ta Olimpiya sport turi federatsiyalari va 89 ta hududiy jismoniy tarbiya-sport tashkiloti, 19 ta federal-idoraviy tashkilot va 12 ta Olimpiya akademiyasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Rossiya Olimpiya qo'mitasi (ROQ) uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan aloqadadir. 1994-yilda Milliy Olimpiya qo'mitalarining bosh Assambleyasini o'tkazishda Olimpiya hamdo'stligi assotsiatsiyasi (SNG doirasida) tashkil etildi. Uning raisi etib ROK Prezidenti V.G.Smirnov saylandi.

Rossiyada Olimpiya harakati va ta'limini o'rganish bo'yicha maxsus qarorlar chiqarildi. O'quvchi yoshlar uchun «Sening Olimpiya darsliging» nomli rangli kitob chop etildi. (1999 y).

Xalqaro Olimpiya qo'mitasida Rossiyaning ikki vakili, ya'ni V.G.Smirnov va Sh.A.Torpishyev a'zo hisoblanadi.

Rossiyada jismoniy madaniyat-sport jamoatchilik tashkilotlari ham yangi tuzilishda faoliyat yuritmoqda.

Kasaba uyushmalari sport tashkilotlarini saqlab qolish va ularni takomillashtirish yo'lida sport tashkilotlari xalqaro konfederatsiyasi (STXK-MKSO)- profsport va Rossiya sport tashkilotlari konfederatsiyasi (RETK-PSOR) tuzildi. Uning tarkibida 11 ta davlatning tarmoqli tashkilotlari va bir qator tarmoqli jismoniy madaniyat-sport uyushmalari birlashgan.

STXQ-MKSO Ustavida a'zolarining Xalqaro sport konfederatsiyasi (XMSK-KSIT) va Xalqaro universitetlar sporti federatsiyasi (XTSF-FISU) tarkibiga kirishlari ham ko'zda tutilgan edi.

Yuqorida ta'kidlangan jamoatchi sport tashkilotlarining Prezidenti etib avvaldan mashhur bo'lgan kasaba uyushmalari sport rahbari B.N.Rogatin saylandi.

Bu tashkilotlar Rossiyada sport klublari faoliyatini yaxshilash, ommaviy sportni rivojlantirish, sport inshootlarini kengaytirish ishlari bilan shug'ullanmoqda.

Rossiyada bu tashkilotlar 77 ta respublika, o'lkalar, hududiy kengashlarni o'z ichiga oladi. Ularning ixtiyorida 11157 ta stadion, 856 ta suv havzasi, 8 ming sport zali, 31 ming turli xil maydonlar mavjud. Jismoniy madaniyat bo'yicha 42,5 ming shtatli xodim xizmat qiladi.

Rossiyada nogironlar sportiga e'tibor ancha katta hisoblanadi. Rossiya mudofaa-texnik tashkiloti (RMTT-Rosto) sobiq DOSAAFga o'xshash tashkilot bo'lib, yoshlarga harbiy-texnik bilim berish va mudofaa ishlariga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Rossiya mustaqil davlat sifatida ham bir qator o'zgarishlar yaratdi. Prezident B.N.Yelsinning farmoniga binoan 1991-yil 28-noyabrda Olimpiya harakatiga ko'maklashuvchi qo'mita tuzildi. Bu qo'mita sportchilarni qishki va yozgi Olimpiya o'yinlariga tayyorlashga harakat qildi, ya'ni Rossiya federatsiyasi sport qo'mitasi va ko'maklashish qo'mitasi birgalikda faoliyat yuritdi. Navbatdagi Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ishlari tugagach,

Olimpiya harakatiga ko‘maklashuvchi qo‘mita ham o‘z faoliyatini tugatdi. 1992-yil oxirida jismoniy madaniyat bo‘yicha Rossiya federatsiyasi qo‘mitasi tashkil etildi.

1993-yil «Jismoniy madaniyat va sport to‘g‘risi»da qonun qabul qilindi. 1994-yil 1-iyundagi Prezident farmoniga asosan jismoniy madaniyat va turizm bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. 1995-yil 27-aprelda bu qo‘mitaning nizomi tasdiqlandi. Uning zimmasiga aholi orasida ommaviy sog‘lomlashtirish ishlari, spartakiadalar uyushtirish, hududlarda yoshlar o‘rtasida ko‘riklar, klublar orasida tanlovlar, festivallarni tashkil etish yuklatildi.

Rossiya Olimpiya qo‘mitasi va Davlat jismoniy madaniyat va turizm qo‘mitasi sport maktablari tizimida (DYuSSh, SDYuSShOR, ShVEM, Olimpiya rezervlari bilim yurtlari va h.k.) yoshlarni sport va turizmga tayyorlash, mutaxassis kadrlar tayyorlashni amalga oshirish, ularni ilmiy tekshirish institutlari nazoratiga o‘tkazishni amalga oshirmoqda.

90-yillarda jismoniy taribiya ta’limi tizimida 13 ta oliy o‘quv yurti faoliyat yuritdi. Ularning 7 tasi jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha davlat akademiyalaridir, ya’ni Rossiya Davlat jismoniy tarbiya akademiyasi, Volgograd, Kuban, Sibir, Sankt-Peterburg, Moskva jismoniy madaniyat akademiyalari hisoblanadi.

«Rossiya federatsiyasida jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonun Davlat Dumasi va Federal Kengashda 1999-yilda qabul qilindi va 29-aprelda Prezident farmoni bilan tasdiqlandi. («Sovetskiy sport gazetasi, 1999-yil, 6-may soni»).

Rossiya Prezidenti V.Putin jismoniy madaniyat, sport va turizm bo‘yicha Rossiya federatsiyasi davlat qo‘mitasini ta’sis etdi (20-mart, 2000-yil).

1992-yil avgustdan boshlab Butunrossiya Olimpiya qo‘mitasining (VOK) nomi Rossiya Olimpiya qo‘mitasi (OKR) deb yuritila boshladi. Uning qaramog‘ida qishki va yozgi Olimpiya o‘yinlari sport turli bo‘yicha 45 ta umumrossiya federatsiyalari birlashtirildi. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi fani oldida katta qiyinchiliklar vujudga keldi.

Mamlakatda umumiy daromadlar 2 %ga o'sgan bo'lsa-da, jismoniy tarbiya va sport ishlariga atigi 0,55% moliyaviy mablag' ajratiladi. 1993-yildan boshlab ilmiy xodimlar soni 16,9 %ga kamaygan. Davlat jismoniy tarbiya va turizm qo'mitasi tarkibidagi fan va sport tibbiyoti boshqarmasi 1997-yilda tugatilib, u sport fani va ilmining o'sishiga jiddiy salbiy ta'sir etdi. Shunga qaramasdan, taniqli olimlar o'z faoliyatlarini davom ettirmoqda. Ayniqsa, sport mashg'ulotlarini o'tkazish nazariyasi, mashg'ulotlar saviyasini va sifatini oshirish (L.P.Matveyev, V.I.Zasiorskiy, I.P.Ratov, N.N.Volkov, Yu.V.Verxoshanskiy, F.P.Suslov, V.P.Filin, V.K.Balsevich), sport mashg'ulotlarida turli harakatlar jarayonida yuklash masalalari (V.A.Rogazkin, R.R.Seyfulla, F.A.Iordanskaya, V.L.Karpman) bu sohalarga kirdi.

Rossiyada yosh sportchilarni tanlash, ularni tarbiyalash hamda ularning sport mahoratlarini oshirish yo'lida turli xil sport maktablarini ko'paytirish, ularning faoliyatini har tomonlama ta'minlash ishlariga alohida e'tibor beriladi.

Ishchi va mehnatkashlarning dam olishi, jismoniy mashq-lar va sport turlari bilan ularning sog'lig'ini mustahkamlash bo'yicha ham olib borilayotgan ishlar e'tiborga loyiqdir. Shu asosda sport klublar, sport inshootlarida sog'lomlashtiruvchi ommaviy sport musobaqalari doimiy ravishda tashkil etib boriladi.

Nogironlar sporti asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Sportning qishki turlari va olimpiya o'yinlari dasturidagi turlar bo'yicha terma jamoalar mavjud bo'lib, u xalqaro miqyosda o'tkaziladigan nogironlar musobaqalarida yaxshi natijalarga erishmoqda.

Sportning ko'pgina turlari bo'yicha professionallik yo'liga o'tilgan. Chunki Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) futbol, xokkey, ot sporti, tennis, basketbol bo'yicha professional sportchilarning Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishiga 1986-yilda rasmiy ravishda ruxsat bergan. Shuningdek, jahonning ko'pchilik mamlakatlari professional sport qadimdan mavjud bo'lib, ular tobora yoyilmoqda. Bunday holatlar kuchli raqobat talab etadi. Rossiya ham bu raqobat va taraqqiyot yo'lidan borishga jiddiy kirishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ikkinchi jahon urushidan keyingi tinch qurilish yillari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotlar mobaynida Rossiyada (sobiq Ittifoqning asosi) jismoniy madaniyat va sport ishlari yaxshi yo'lga tushib ketdi. Buning bosh sababalari juda ko'p. Eng muhimi, mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish hamda uni rivojlantirish bilan bog'liq qator qarorlarning qabul qilinishi, sport tashkilotlarining tinimsiz faoliyatlari sobiq Ittifoqning Xalqaro Olimpiya qo'mitasi va Xalqaro sport uyushmalari tarkibiga kirishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ittifoq va respublikalar miqyosida spartakiadalar, turli musobaqalarning tashkil etilishi, barcha turdagi o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlarining o'tkazilishi, bolalar va o'smirlar sport maktablarining tarmoqlari tobora kengayishi sportni ommalashtirish va yetuk sportchilarni tayyorlashga katta ulush qo'shdi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar jismoniy tarbiya tizimining ilmiy asoslarini ancha mustahkamladi. Ularning natijalari asosida yangi darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar tayyorlandi. Bu, o'z navbatida, iste'dodli yosh ijodkor olimlarning safini yanada kengaytirdi hamda mustahkamladi.

1952-yildan boshlab sportchilarning Olimpiya o'yinlari va jahon birinchiliklarida faol ishtirok etishlari jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotiga madad berdi.

Sobiq Ittifoqning inqirozga uchrashi (yemirilishi) ittifoqchi respublikalarning mustaqil davlatlarga aylanishiga zamin tayyorladi. Bu esa mustaqil davlatlarning taraqqiyot yo'lida dadil borishi, xalqaro olimpiya va sport harakatida o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minladi. Shular qatorida Rossiya federatsiyasi ham Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (SNG)da karvonboshi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda, o'zining mavqeini jahondagi kuchli mamlakatlar orasida har tomonlama ko'rsatishga urinmoqda. Bunga asoslardan biri — mamlakatning kattaligi, sanoati taraqqiy qilgan ulkan davlat hisoblanishidir. Bu esa jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Sovet sportchilari xalqaro sport maydonlarida qachondan buyon ishtirok etgan?
2. SSSR Olimpiya qo‘mitasi qachon tuzildi?
3. Sovet sportchilarning Olimpiya o‘yinlari va jahon sport musobaqalari erishgan yutuqlaridan namunalar keltiring.
4. Rossiya sportchilarining sovetlar jismoniy tarbiyasi harakatiga qo‘shgan ulushlari nimadan iborat?
5. Sobiq Ittifoq yemirilgach, Rossiyada qanday muammolar vujudga keldi?
6. Rossiyada sport tashkilotlarining qayta shakllantirilishi nimalardan iborat bo‘ldi?
7. Rossiyadagi spartakiadalar va boshqa shakllardagi sport musobaqalariga tavsif bering?
8. Rossiyaning xalqaro sport va Olimpiya harakatidagi faoliyatlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi–T.: 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni – T.: 2000 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori; 1999-yil 27-may.
4. I.A.Karimov O‘zbekiston kelajagi - buyuk davlat – T.:1992 y.
5. I.A.Karimov – bizdan ozod va obod Vatan qolsin – T.: 1992 y.
6. I.A.Karimov – O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda – T.: 2000 y.
7. Jismoniy tarbiya tarixi, darslik (tarjima) –T.: 1968 y.
8. V.V.Stolbov. Istoriya fizicheskoy kulturi i sporta – M. 2002 g.

9. A.K.Akramov. O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi; o‘quv qo‘llanma, –T.: 1997-y.

10. R.Abdumalikov, J.E.Eshnazarov (ajdodlar jismoniy ma-daniyati tarixini o‘rganish masalalari) o‘quv qo‘llanma– T.: 1993 y.

11. A.Q.Hamraqulov, G.T.Yusupov va boshqalar. Olim-piya bilimlari asoslari, o‘quv qo‘llanma T.:2002 y.

12. B.X.Haydarov, R.Abdumalikov (talaba) sport klubi– T.: 2004 y.

IKKINCHI BO'LIM. XALQARO SPORT VA OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

VII bob. XALQARO SPORT VA OLIMPIYA HARAKATINING VUJUDGA KELISHI HAMDA DASTLABKI RIVOJLANISHI

7.1. Xalqaro sport va olimpiya harakatining vujudga kelish sabablari

Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelishi XIX asrning oxirgi yillariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda tarix sahnasida nisbatan osoyishtalik hukm surayotgan bir payt edi. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablari ko'pgina rasmiy manbalarda izohlangan. Ularni quyidagicha sharhlash mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. Xalqaro sport aloqalarining vujudga kelish sabablaridan biri, jahondagi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning rivojlanishida, deb bilish zarur bo'ladi. XIX asrning oxirlarida Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Italiya kabi taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuqori darajaga ko'tarildi. Bu davrda ishlab chiqarish, fan, ta'lim tez rivojlandi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish, xalqaro uyushmalar, trestlar, sindikatlarni va bir qator boshqa yangi tarmoqlarni tashkil etish bilan birgalikda davom etdi. Yevropa mamlakatlari va Amerikada ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonining mahsuli sifatida aloqa va kommunikatsiya vositalari yuzaga keldi. Chegaralangan kichik doiradagi milliy jarayonlar jamoat taraqqiyotiga putur yetkaza boshladi. Bunday sharoitda turli sohalar bo'yicha xalqaro munosabatlarni kuchaytirish, ya'ni iqtisodiy, ilmiy, madaniy va sportdagi aloqalarni bog'lash qonuniyat darajasiga yetdi.

XIX asrning oxiri nisbatan tinchlik-osoyishtalik bilan o'tdi. Fransiya-Yaponiya urushidan (1870–1871) va Parij Kommunasidan (1871) boshlab, rus-yapon urushigacha (1904–1905) va Rossiyadagi birinchi inqilobgacha (1905–1907) jahonda hech qanday yirik urushlar bo'lmagan edi. Bunday holat mamlakatlararo aloqalar va sportni rivojlantirishga qulaylik yaratdi.

Jamoat harakatlari yoshlar orasida jismoniy tarbiyani rivojlantirish bo'yicha jamoatchilik (ommaviy) harakatining yuzaga kelishi ham bunga katta sabab bo'ldi. XIX asrning so'nggi choragi jamoat arboblari, tibbiyotchilar, pedagoglarning yoshlarga ta'lim berish, jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan umumiy harakatlari, faoliyatlari ancha kengaygan davr edi.

Bu jarayonlarda jismoniy tarbiya va sportning yangi shakllari, usullarini izlash boshlandi. Ba'zi mutafakkirlar milliy jismoniy tarbiya va sport bilan chegaralanib qolmasdan, balki xalqaro sport aloqalarini o'rgatishni tavsiya etib maydonga chiqdilar. Bu yo'lda Fransiya, Yunoniston, Angliya, Germaniya, Rossiya, AQSH, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarning jamoatchiligi o'z faoliyatlari bilan alohida ajralib turar edi. Yoshlarni jismoniy tarbiyalash maqsadida olimpiya o'yinlaridan foydalanish kabi fikrlar ham bildiriladi. Bu to'g'rida chex pedagogi Ya.A.Komenskiy, nemis gimnastika maktabining asoschilari I.X.Guts-muts va G.Fit, rus jismoniy ta'limi tizimining asoschisi P.F.Lesgaft va boshqalar bir necha bor ta'kidlashgan. Ular qadimgi yunon olimpiya o'yinlari kabi musobaqalarni tashkil etish – yoshlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash yo'lida ko'p xizmat qilishi mumkinligini e'tirof etganlar.

Olimpiadalarga oid arxeologik qazishlar. Yoshlarni jismoniy tarbiyalashning modeli (namuna) sifatida qadimgi Olimpiya o'yinlaridan foydalanish g'oyalari ommalashib bordi. Bunda qadimgi Olimpiya qishlog'ini arxeologik qazishlar natijasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XVIII asrda arxeolog olimlarning diqqat-e'tiborini qum va loyqalar bosib yotgan qadimgi Olimpiada o'yinlarining o'rni o'ziga jalb et-

gan edi. Eng avvalo, qadimgi Olimpiya joyini Bernard de Monfakon (Fransiya), keyin nemis olimi Ioaxim Vinkelman, ingliz arxeologi Richard Gandmer va boshqalar aniqladi. XIX asr boshida birinchi qazish ishlari o'tkazildi. Nemis arxeologi Ernest Kurside (1814–1896) boshchiligida o'tkazilgan qazish ishlari ancha muvaffaqiyatli o'tdi. Olti marotaba tashkil etilgan ekspeditsiya (1875–1881) natijasida Olimpiyada ko'p sonli arxitektura inshootlari va haykallarning qoldiqlari topildi. 1887-yilda arxeologik qazish ishlarining natijalari matbuotda e'lon qilindi. Bu esa qadimgi olimpiya o'yinlariga bo'lgan qiziqish va havasni oshirib yubordi. Shu asosda jamoatchilik doirasida olimpiya harakatini tiklash g'oyalari tug'ildi.

Sportning rivojlanishi va XSUni tuzish. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablaridan eng muhimi–sportni rivojlantirish va xalqaro sport uyushmalarini (XSU) tuzish harakati bo'ldi. Hozirgi davr sporti XVIII–XIX asrlardagi yirik ijtimoiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonidagi inqiloblar, harbiy ishlar, fan, madaniyat va san'atdagi taraqqiyot mahsulidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida juda ko'p hozirgi zamon sport turlari va o'yinlari vujudga keldi. Turli mamlakatlarda sport klublari tashkil etildi, musobaqalar o'tkaziladigan bo'ldi, sport inshootlari (tomosha joylari) qurildi. Angliyadagi Temza daryolarida va Rossiyaning Niva daryosida eshkak eshish hamda yelkan sportini rivojlantirish uchun boy tajribalar to'plangan edi. XIX asrning boshidan buyon maxsus sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazib borilgan. 1829-yil Angliyada Kembridj va Oksford universitetlari o'rtasida eshkak eshish bo'yicha musobaqa uyushtirildi. 1838-yildan boshlab esa Xenleyn parus va eshkak eshish regatasi o'tkazila boshlądi.

Rossiyada 1847-yilda Peterburgda yelkan sporti bo'yicha birinchi rasmiy musobaqa o'tkazildi. AQSHda 1852-yilda (Vinnipeg ko'li) eshkak eshish bo'yicha musobaqa tashkil etishdi. Vengriya, Yunoniston, Amerika, Avstraliya va boshqa bir qator mamlakatlarda suzish bo'yicha musobaqalar tashkil etila boshlanadi.

1845-yilda Itonda (Angliya), birinchi yengil atletika musobaqalari o'tkaziladi. 1860-yilda Angliyada 15 ta klub mavjud bo'lib, ular o'rtasida, ayniqsa, universitetlar orasida musobaqalar o'tkazish an'anaga aylandi. 1876-yilda Vengriyada va bir yildan keyin Nyu-Yorkda birinchi yengil atletika musobaqalari uyushtiriladi. Bu sport turi Germaniya, Fransiya va Yunonistonda ham rivoj topdi. Boshqa mamlakatlarda esa u o'z rivojini birmuncha qiyinroq boshlaydi.

Rossiya, Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya xalqlari orasida chang'i va konkida uchish sporti keng tarqalgan edi. 1769-yilda Oslo shahri yaqinida jahonda birinchi marotaba chang'ida yugurish musobaqasi o'tkazilgan edi. XIX asrning 60-yillarida bu sport turlari bo'yicha muntazam ravishda musobaqalar o'tkaziladi. Chang'ida sakrash uchun birinchi tramplinlar vujudga keldi.

Bu davrlarda ko'pgina sport o'yinlari ham rivojlanadi. Futbol texnikasi va taktikasi ancha takomillashtiriladi. Bunda puflab to'ldiriladigan rezinali kameraning yaratilishi (50-yillar) muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

1863-yilda Angliyada futbol ligasi tashkil etiladi. Bu hozirgi davr futbolining yaratilish asosini tashkil etgan edi.

Kegli o'yini, Laun-tennis va kriket ham rivoj topadi hamda ular uchun maxsus o'yin maydonlari quriladi. 1883-yil Regbi shahrida (Angliya) charm to'p o'yini boshlanadi. Bunda bir o'yinchi to'pni qo'l bilan ushlab oladi va darvoza tomon yugurib borib, uni otadi. Futboldagi qoidani buzgan bu o'yinchining harakati asosida yangi o'yin turi paydo bo'ladi. Bu o'yin shu shahar nomi (Regbi) bilan atala boshlanadi. Keyinchalik bu o'yin boshqa mamlakatlarda ham tez rivojlanadi. AQSHda bu o'yin amerika futboliga aylanadi.

Bu davrlarda rivoj topgan sport turlaridan yana biri boks edi. Angliyada bu sport turi keng tarqalib, XIX asrda professional turga aylanib ketadi.

Fransiya, Italiya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Angliya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda shpaga va rapirada qilichbozlik xalq tarixiga chuqur singib ketgan tur hisoblanar edi. Taniqli kishilar orasida ot sporti, miltiq, to'pponcha va kamondan o'q

otish ham rivojlangan edi. Otchoparlar, otish tirlari qurila boshlanadi va poyga, o'q otish musobaqalari uyushtiriladi. XIX asrning 60-yillarida ba'zi bir mamlakatlarda velosport bilan shug'ullanishi vujudga keldi. Rossiya, Germaniya Yunoniston, Vengriya kabi asosan kurash mashur edi.

XIX asr oxirlariga kelib jismoniy mashqlar, sport, gimnastika, o'yinlar va sayohatlarni (turizm) bir-biridan ajratish va turlariga bo'lish tizimiga asos solindi.

XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmida ayrim mamlakatlarda Olimpiya o'yinlarini amaliy jihatdan tiklashga harakat qilindi. 1834—1836-yillarda Shvetsiyaning Ramiyoz shahrida ikki marotaba Skandinaviya Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Uning dasturidan qisqa va o'rta masofalarga yugurish, balandlikka va langar cho'p bilan (shest) sakrash, kurash kabi turlar joy olgan. Bu o'yinning tashabbuskori Lind universitetining professori Gustav Iogann Shartau bo'lgan. Uning taklifi bilan qadimgi olimpiadalar haqida ma'ruzalar o'qilgan.

Yunonlarning olimpiya o'yinlariga qiziqishi, albatta, ma'lumdir. XIX asrda Yunoniston tomonidan qadimgi olimpiya o'yinlarini qayta tiklash haqidagi takliflar ko'p takrorlangan. Mamlakat mustaqilligi tarafdori bo'lgan Evangelis Sappas har to'rt yilda o'yinlarni o'tkazish va unda sport, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'rgazmalarini tashkil etishni taklif qilgan edi. U olimpiya o'yinlari jarayonida ko'rgazmalar asosida savdo, iqtisod va madaniy aloqalarning o'zaro kuchayishini ko'ra bilgan. U o'z mablag'lari hisobiga ko'rgazma zallari va savdo shaxobchalarini quradi. Uning tashabbusi bilan 1859-yilda Afinada Panorek o'yinlari o'tkazilib, unda faqat yunonlargina ishtirok etgan. Moddiy ta'minotning talabga javob bermagani sababiga ko'ra, bu o'yinlar ahyon-ahyonda (1870, 1875, 1888-yil) o'tkazilgan. Bu o'yinlar musobaqa sifatida yuqori saviyada bo'lmasa-da, olimpiya harakatining qayta tiklanishiga muhim hissa qo'shgan edi.

Mamlakatlardagi sport klublari asta-sekin milliy uyushmalar va ligalarga birlasha boshladi. 1868-yilda Germaniyada barcha gimnastika uyushmalari Nemis gimnastika uyushmasiga birlashdi. 1888-yil AQSHda havaskor atletik uyushma, 1903-yil

Shvetsiyada – umumshved sport uyushmasi tashkil etildi. Umummilliy sport tashkilotlari boshqa mamlakatlarda ham yuzaga kela boshladi. Bu uyushmalarning boshida asosan yirik kapital egalari turar edi. Ular ko'pincha metsenat (homiy) sifatida klublar, ligalar, uyushmalarning faoliyatini taqdirlash bo'yicha ishtirok etishgan.

XIX asr oxirida mamlakatlardagi sport tashkilotlarining o'zaro tajriba almashish faoliyatlari yuzaga kelib, keyinchalik ular Xalqaro sport uyushmalariga asos solganlar.

1881-yilda jahonda birinchi marotaba Yevropa gimnastika uyushmasi tashkil etilgan. Shu yilning o'zida esa Xalqaro gimnastika federatsiyasi (DIJ) tashkil topgan. 1882-yilda Konkida uchish Xalqaro uyushmasi (ISU) va Xalqaro eshkak eshish federatsiyasi (FISA), 1900-yilda Xalqaro velosport uyushmasi (USI), 1904-yilda Xalqaro futbol federatsiya-assotsiatsiyasi (FIFA), 1908-yilda Xalqaro havaskorlik suzish federatsiyasi (FINA), va Xalqaro muz ustida xokkey ligasi, 1912-yilda Xalqaro yengil atletika havaskorlik federatsiyasi (IAAF), 1913-yilda Xalqaro nayzabozlik federatsiyasi (FIB) tashkil etilgan.

1885-yilda Xalqaro Xristian yonlar uyushmasi (UMSA) sport departamenti bilan birgalikda tashkil etildi. 1902-yilda esa «Makkabi» uyushmasi, ya'ni yahudiylar tashkiloti tuzildi.

Shu tariqa xalqaro sport uyushmalari va olimpiya qo'mitasini tashkil etishiga sharoitlar yaratiladi.

7.2. Birinchi xalqaro Kongress

Qadimgi olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi to'xtatilganidan keyin (394 y.) roppa-rosa bir yarim ming yildan oshiq vaqt o'tdi. 1894-yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tashkil etilishi va 1896-yil I Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi bilan sport olamining yangi tarixiy davri boshlandi. Bu ikki katta sohaning tashkil etilishi fransuz jamoat arbobi, pedagog va ma'rifatchi baron Pyer de Kuberten (1863–1937) faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

U zodagon (aristokrat) oilasida tug'ilib, tarbiya oladi. Uning dunyoqarashi demokratiyaga ishonch, sportdagi irq,

millatchilik va kamsitishlarga nafrat ruhida shakllangan. Bir qancha yillar fransuz sport uyushmasida kotib bo'lib xizmat qilgan. U jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qator kitoblarning muallifidir.

Pyer de Kuberten olimpiya o'yinlariga (1912) bag'ishlab o'tkazilgan san'at tanlovida «Sport madhiyasi» poemasi uchun oltin medal bilan taqdirlangan edi. Kubertenning xalqaro olimpiya harakati rivoji uchun qilgan xizmatlari hech bir narsaga almashtirib bo'lmas darajada bebahodir.

Birinchi xalqaro atletik kongress 23-iyun 1894-yilda Parijdagi Sorbonna univresitetida o'tkaziladi. Keyinchalik bu tadbir I Olimpiya Kongressi deb ataladi.

Kongressda 12 mamlakat vakillari ishtirok etadi. 21 mamlakat esa yozma ravishda o'z roziligini bildiradi. Katta mamlakat hisoblangan Germaniya bundan bosh tortadi, chunki mamlakat tepasidagi harbiylar Olimpiya o'yinlari g'oyalariga qarshi edilar.

Kongressda asosan to'rtta masala muhokama etiladi, ya'ni:

1. Havaskorlik va professional sport haqida.
2. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash to'g'risida.
3. O'yinlarning dasturi va uni o'tkazish tartiblari haqida.
4. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tarkibi haqida.

Kongressda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tuzilganligi haqida qaror qabul qilindi. Uning tarkibiga Yunoniston, Fransiya, Rossiya, Angliya, AQSH, Shvetsiya, Vengriya, Chexiya, Belgiya, Argentina, Yangi Zelandiya vakillari kiritildi. Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti etib yunonistonlik Demetrius Vikelas (1894—1896) saylandi. Keyinchalik uning o'rnini Pyer de Kuberten egalladi va to 1925-yilgacha XOQ Prezidenti sifatida faoliyat ko'rsatdi. So'nggi 12 yil davomida u XOQ Faxriy Prezidenti deb hisoblandi.

Kongressda Olimpiya xartiyasi (Ustav) tasdiqlandi. Unda XOQning maqsad va vazifalari, o'yin qoidalari va ular bilan bog'liq asosiy masalalar ifoda etilgan edi.

I Kongress Xalqaro Olimpiya harakatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning mohiyati keyingi Olimpiya harakatini rivojlantirishda asosiy o'rinda turadi. Kongress kun

tartibidagi barcha masalalarni ko‘rib chiqib, tegishli qarorlarni qabul qildi.

7.3 Olimpiya g‘oyalarining amalga oshishi

Olimpiya Kongressida I Olimpiya o‘yini Afinada o‘tkazish haqida qaror qabul qilingan edi. Antik Olimpiya o‘yinlari vatani yunoniston bo‘lganlgi va D.Vikelasning XOQ Prezidenti qilib saylanishi buning asosiy sababi edi.

1896-yil 6-aprelda Afinada I Olimpiya o‘yini ochildi. O‘yinlarga 14 mamlakatdan 245 nafar sportchi keldi. Ular Avstraliya, Avstriya,Bolgariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Yunoniston, Daniya, Italiya, AQSH, Fransiya, Chili, Shveysariya, Shvetsiya mamlakatlarining vakillari edi. O‘yinlar dasturiga ko‘ra 9 tur: yengil atletika, gimnastika, suzish, yuk (tosh) ko‘tarish, kurash, o‘q otish, qilichbozlik, velosiped poygasi va tennis bo‘yicha kurashlar olib borildi. Yengil atletika turida AQSH sportchilari 9 ta (12 tadan) yuqori natijalarni qo‘lga kiritdi. Uch hatlab sakrashda D.Konnoli birinchi Olimpiya chempioni bo‘ldi. Gimnastika turida Germaniya sportchilari g‘olib bo‘ldi. K.Shuman tayanib sakrashda eng yaxshi natijaga erishdi. Velopoygada fransuz P.Masson g‘olib keldi.

Tennisda ingliz D.Boland, suzish venger A.Xayosh ustunlik qilishdi. Otish va qilichbozlik bo‘yicha ochkolar to‘plashda yunonlar yuqori ko‘rsatkichlarga erishib, g‘olib bo‘lishdi. Yunonlar umumiy ochkolar bo‘yicha birinchilikni egalladi. Amerikalik R.Garret disk uloqtirishda va yadro irg‘itishda g‘olib bo‘ldi. Shuningdek, u uzunlikka sakrashda ikkinchi va balandlikka sakrashda uchinchi o‘rinni egallab, barchaning e’tiborini qozonishga sazovor bo‘ldi. Qiziqarli tomoni shundaki, Garret o‘yinlarga tasodifan tushib qolgan. Chunki u Yunonistonda o‘z ta’tilini o‘tkazib yurganda, Olimpiya o‘yinlari haqidagi xabarni eshitadi va jamoa ro‘yxatiga o‘z ism-sharifini kiritadi. U umrida disk uloqtirmagan, faqat o‘yindan 3 kun oldin mashq qilib o‘rgangan. Uning tabiiy qobiliyati va sport-dagi faoliyatlari Olimpiya chempioni bo‘lishga sabab bo‘lgan.

70 ming tomoshabin sig'adigan stadiondagilarning e'tiborini yunon dehqoni Sandros Adis jalb etadi. U marafon yugurishida g'olib kelgan (Marafon shahridan Afinagacha bo'lgan masofa – 42 km. atrofida).

Afinadagi Olimpiya o'yinlari maqsaddagidek bo'lib o'tdi. Kubertenning boshlagan harakati to'la amalga oshdi. Bu XX asrning eng diqqatga sazovor tadbirlaridan biriga aylandi va Olimpiya o'yinlarining har to'rt yilda o'tkazib borilishiga asos soldi.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro sport uyushmalarining tashkil etilishi va xalqaro sport musobaqalarining o'tkazilishi qadimgi yunon olimpiya o'yinlarini qayta tiklashga sabab bo'ldi. Bu yo'lda Yevropa mamlakatlarining hissasi g'oyat kattadir.

Xalqaro Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishdagi harakatlarda fransuz jamoat arbobi Pyer de Kubertenning tinimsiz va mashaqqatli mehnatlari hamda yunon xalqining o'z an'analariga sodiqligi tarixda o'chmas iz qoldirdi.

I Olimpiya o'yinlari faqat ishtirok etgan davlatlarninggina emas, balki jahondagi juda ko'p mamlakatlarning sportchilari, yoshlari va mutaxassislarini dadil qadamlar bilan Olimpiya harakatini rivojlantirishga rag'batlantirdi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Hozirgi zamon xalqaro sport va olimpiya harakatining yuzaga kelishiga qanday sabablar bo'ldi?
2. I Xalqaro atletik kongressi qachon va qayerda o'tkazildi?
3. Pyer de Kubertenning Olimpiya o'yinlarini tiklashdagi asosiy faoliyatlari nimadan iborat edi?
4. I Olimpiya o'yinlari haqida batafsil gapirib bering.
5. I Olimpiya o'yinlari chempioni va marofon yugurishidagi chempionlar kimlar edi?
6. I Olimpiya o'yinlarining kelgusi o'yinlar uchun qanday ahamiyati bo'ldi?
7. Qo'shimcha ma'lumotlarni (marafon haqida tushuncha) izlab toping.

VIII bob. XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XALQARO SPORT VA OLIMPIYA HARAKATI

8.1. Xalqaro sport harakatining kengayishi

XX asrning birinchi yarmida jismoniy madaniyat va sport ma'lum darajada rivoj topdi. Xalqaro sport federatsiyalari faoliyati yo'lga tushib, ancha takomillashdi. Yangidan xalqaro sport uyushmalari tuzila boshladi. XX asrning 20–30-yillarida tarkib topgan va rivojlangan sport turlari bo'yicha Xalqaro sport uyushmalari (XSU) tashkil topdi. Bunda xalqaro og'ir atletika sport federatsiyasi (IVF, 1920), ot sporti (FES, 1921), chang'i sporti (FIS, 1924), chim xokkeyi (DIX, 1924), shaxmat (FIRE, 1924), stol tennisi (ITTF, 1926), kamondan o'q otish (FITA, 1931), alpinizm (UIIA, 1932), basketbol (FIBA, 1932), badminton (IBF, 1934), regbi (FIRA, 1934) kabilar o'z maqomiga ega bo'ldi. 1924-yilda Sport matbuoti xalqaro assotsiatsiyasi, 1928-yilda Sport tibbiyoti xalqaro assosiatsiyasi tuzildi. 1920–1941-yillar mobaynida 43 ta xalqaro sport tashkilotlari tashkil etilgan edi. Ularning 32 tasi sport turlari bo'yicha edi. Xalqaro sport musobaqalarining kalendar rejalari ancha kengaydi. Olimpiya o'yinlari yana tiklanib, davom etdi. Jahon va Yevropa miqyosida ba'zi bir sport turlari bo'yicha chempionatlarni o'tkazish davom etdi.

Kalendarlarda 20–30-yillarda xalqaro ishchi olimpiadalari, spartakiadalar, slyotlar, hududiy musobaqalarni tashkil qilish boshlandi.

Xalqaro talabalar sporti. Sport olamida sifat jihatdan yangi yo'nalish, ya'ni talabalar sport harakati vujudga keldi. Bunda jahon talabalarining chempionati e'tiborga loyiqdir.

Talabalar sporti Angliya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda keng rivojlandi. Lekin

Birinchi jahon urushi bunga to'sqinlik qildi. Urushdan keyin bu harakat qayta tiklanadi. 1923-yilda fransuz jamoat arbobi Jon Potijonning tashabbusi bilan Parijda Xalqaro talabalar sport uyushmasi tashkil etildi. U qishki va yozgi Xalqaro chempionatlarni universitetlar orasida o'tkazishni o'z zimmasiga oladi. Shu tariqa 1924-yilda yozgi va 1928-yilda qishki sport turlari bo'yicha chempionatlarni o'tkazishga asos solindi.

Mintaqaviy regional o'yinlar XX asrning birinchi yarmidagi kalendarlarda sportni ommalashtirish maqsadida turli mintaqalarda musobaqalar o'tkazishni ko'zda tutdi. Bu, o'z navbatida, sportni baynalmilallashtirishga qaratilgan edi. Ularga ilk bor o'tkazilgan Uzoq Sharq o'yinlari misol bo'la oladi. 1913-yilda boshlangan o'yinlar 20—30-yillarda davom ettirildi. Shaxmat (1921), Osaka (1923), Manila (1925), Tokio (1930) va boshqa shaharlarda o'yinlar o'tkazildi. Harbiy harakatlarning kuchayishi oqibatida bu o'yinlar to'xtab qoldi.

Markaziy Amerika va Karib dengizi o'yinlari ham o'tkazildi. 1926-yilda Meksikada, 1930-yilda Kubada, 1935-yilda Salvadorda, 1938-yil Panamada bunday o'yinlar tashkil etilgan edi.

Shuningdek, I Bolivar o'yinlarida Shimoliy va Janubiy Amerika sportchilari ishtirok etdi. 20—30-yillarda Bolqon o'yinlari ham tarkib topdi.

Jahon va Yevropa chempionatlari. XX asrning birinchi yarmida xalqaro sport musobaqalari kalendariga muvofiq sport turlari bo'yicha jahon va Yevropa chempionatlarining o'tkazilishi muhim voqealardan bo'ldi. Jahon chempionatlari kalendarida shaybali xokkey (1924-yildan boshlab), futbol (1930-yildan boshlab), kamondan o'q otish (1931), qilichbozlik (1937), baydarka va kanoeda eshkak eshish (1938) kabi sport turlari mavjud edi. Yevropa birinchiliklari esa boks, suzish, suvga sakrash, suv polosi, yengil atletika, basketbol, baydarka va kanoeda eshkak eshish va boshqa sport turlari bo'yicha o'tkazildi.

Xotin-qizlar o'rtasida musobaqalarni o'tkazish eng qiziqarli tadbirlardan biriga aylandi. Kamondan o'q otish

(1931), konkida uchish (1936), qilichbozlik (1937) kabi turlar bo'yicha jahon chempionatlari o'tkazildi. Yevropa birinchiliklari esa suzish (1927), qilichbozlik (1929), konkida uchish (1930), yengil atletika (1938) kabi turlar bo'yicha an'anaga aylandi.

Ishchilar sport harakati. Ishchilar sporti inqiloblarning ko'tarilishi tufayli bir qator mamlakatlarda oldingi safga qo'yila boshladi va ishchilar sport tashkilotini tuzish hamda Xalqaro sport harakatini muvofiqlashtirish masalalari kuchaydi. Birinchi urinish 1913-yilning qiyin sharoitlarida boshlangan edi. 1920-yilda Lyusernda (Shveysariya) ishchilar sport tashkilotlarining Kongressi o'tkazildi. Unda Germaniya, Avstriya, Fransiya, Vengriya, Belgiya, Finlyandiya kabi mamlakatlarning vakillari ishtirok etdi. Bunda Xalqaro ishchilar sporti va jismoniy madaniyat uyushmasi ta'sis etildi. Uni kongress o'tkazilgan shahar (Lyusern) nomi bilan atashdi. Yangi tashkilot Lyusern sport internatsionali (LSI) deb yuritila boshladi. Rahbarlikni II Internatsional boshliqlari (Germaniya, Avstriya, Belgiya sotsial-demokratlari) olib borishdi.

O'z navbatida 1921-yilning iyulida Moskvada III Kommunistik internatsionalning xalqaro ishchilar sport tashkiloti kongressi bo'lib o'tdi. Unda Rossiya, Chexoslavakiya, Germaniya, Fransiya, Vengriya, Finlyandiya, Italiya kabi mamlakatlarning vakillari qatnashdi. Kongressda ishchi-dehqon jismoniy tarbiya tashkilotlarining xalqaro uyushmasi ta'sis etildi va uning nomi Qizil sport internatsionali (QSI) deb yuritildi. Uning rahbari etib harbiy N.I.Podvoyskiy saylandi. Shu tariqa QSI Xalqaro ishchilar fronti mustahkamlanib bordi. Bu tashkilot sportni fashistlashtirish va militarizatsiya qilishga qarshi tashabbus bilan chiqdi. Bu, o'z navbatida, ikki tizimdagi xalqaro ishchilar sporti harakatining bir-biriga qarama-qarshi amaliyotini vujudga keltirdi, ya'ni LSK burjua sotsial-demokratik oqimda, QSI (KSI) esa kommunistik siyosiy harakatlar oqimida faoliyat ko'rsatishdi.

1924-yil boshlarida chet mamlakatlar sportchilari sovet sportchilari bilan aloqa o'rnatib, bir qator uchrashuvlar

o‘tkazdilar. 1922–1923-yillarda fin sportchilari SSSRga tashrif buyurishdi. 1924-yilda sovet yengil atletikachilari Fransiya va Germaniyaga borishdi. Futbol bo‘yicha xalqaro uchrashuvlar boshlandi.

1925-yilda LSI Frankfurt-na-Mayneda Xalqaro ishchi-sportchilarning olimpiadasini o‘tkazdi. Bunga QSI (KSI) vakillari qo‘yilmadi.

1928-yilda Moskvada o‘tkazilgan Umumittifoq I spartakiadada 14 mamlakatdan 612 sportchi ishtirok etdi.

1931-yilda KSI va LSI Sotsialistik ishchi sport internatsionali (SISI-SASI) nomiga aylantirildi.

1934-yil Parijda sportchilarning fashizmga qarshi Xalqaro anjumani o‘tkazildi. Bunda sovetlarning vakili ishtirok etib, fashizmga qarshi kurashni kuchaytirishni ma’qulladi.

1937-yil Antverpenda (Belgiya) Xalqaro ishchi-sportchilar III olimpiadasi o‘tkazildi. U jahon ishchi-sportchilarining birlik bayrami bo‘ldi. Unda sovet sportchilarining katta bir guruhi ishtirok etdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Xalqaro ishchi-sportchilar uyushmalari o‘z faoliyatlarini to‘xtatishga majbur bo‘ldilar. Urush davrida Xalqaro sportchilar uyushmalarining namoyandalari bo‘lmish yetuk sportchilarning ko‘pchiligi fashistlarga qarshi janglarda mardonavor kurashib g‘olib bo‘lishdi.

8.2. Yozgi va qishki Olimpiya o‘yinlari

Yozgi Olimpiya o‘yinlari Afinadan Stokgolmgacha. P.Kubertenning g‘oyasi bo‘yicha olimpiya o‘yinlari turli shaharlarda o‘tkazila boshladi, bu olimpiya harakati xalqaro tus oldi.

XX asr o‘yini sifatida II Olimpiya o‘yinlari 1900-yil Parijda tashkil etildi. O‘yinlar 3 oy davom etdi. (Afinadagi I Olimpiya o‘yinlari 10 kunda tugagan edi). O‘yin dasturiga akademik eshkak eshish, 200 m.ga yugurish, bosqon uloqtirish, yelkan sporti, suv polosi, regbi, futbol, otda yurish, kamondan o‘q otish, golf o‘yini kabilar yangidan kiritildi. Ochkolar to‘plash bo‘yicha Fransiya sportchilari

ustun kelib, birinchi bo'lishdi.

III Olimpiya o'yini Sent-Luisda (AQSH) 1904-yilda o'tkazildi. Unda 13 mamlakatdan 687 sportchi ishtirok etdi. Tashkilotchilar qizil tanlilar uchun o'yinlarga alohida kun ajratishdi va ularni «antropologik» deb atashdi. Bunga P.Kuberten qarshi chiqdi, ya'ni irqiy kamsitishlarga sportda yo'l qo'yilmasligini ta'kidladi.

Bu o'yinda yangidan boks, minoradan suvga sakrash, erkin kurash bo'yicha ham musobaqalar tashkil etildi.

1906-yil Yunonistonda I Olimpiadaning 10 yilligini nishonlash uchun «Olimpiada oralig'i» musobaqalari o'tkazildi. U milliy doiradagina tashkil etildi va 20 davlatdan 2 ming kishi qatnashdi.

IV Olimpiada 1908-yilda Londonda tashkil etildi. Unda 22 davlatdan 2035 sportchi ishtirok etdi. Angliya sportdagi eski an'analar va ilg'or tajribalarga ega bo'lgan barcha tadbirlarni o'yinlarda namoyish etdi.

Rus sportchilari birinchi marotaba (8 kishi) Olimpiya o'yinlarida ishtirok etdilar.

V Olimpiada 1912-yil Stokgolmda tashkil etildi va unda 28 mamlakatdan 2437 sportchi qatnashdi. Masobaqalar dasturiga yangidan hozirgi zamon beshkurashi, 5-10 km.ga yugurish, yengil atletika estafetasi (4x100 va 4x400 m.) kiritildi. Xotin-qizlar suzish bo'yicha birinchi marotaba ishtirok etishdi.

VI Olimpiya o'yinlari 1916-yil Berlinda o'tishi lozim edi lekin Birinchi jahon urushining davom etishi, uning sababchisi Germaniya ekanligi tufayli bu o'yinlar o'tkazilmadi. Lekin XOQning qarori bilan o'yinlarning tartib soni (VI o'yin) hisobda saqlanishi ko'zda tutildi.

VII Olimpiada Antverpen (Belgiya) shahrida 1920-yilda o'tkazildi. O'yinlarga Germaniya sportchilari qo'yilmadi, shuningdek, yosh sovetlar mamlakati ham o'yinlarga taklif etilmadi. Chunki avvalgi Rossiya xalqaro miqyosda o'z mavqeini yo'qotgan edi.

O'yinlarda 23 mamlakatdan 2607 nafar sportchi ishtirok etdi. Yengil atletika turlarida AQSH sportchilari ancha ustun

keldi, Finlandiya sportchilari ham muvaffaqiyatli qatnashdi. Norasmiy hisoblarga ko'ra, ko'p ochko to'plagan AQSH jamoasi birinchi, Shvetsiya – ikkinchi, Angliya – uchinchi va Finlyandiya – to'rtinchi o'rinlarni egalladi.

VIII Olimpiada Parijda 1924-yilda o'tkazildi. O'yinlarda 44 mamlakatdan 3072 sportchi qatnashdi. Ko'pgina sport turlari bo'yicha AQSH sportchilari yaxshi natijalarga erishib, ustunlikka ega bo'lishdi.

IX Olimpiada Amsterdamda 1928-yilda tashkil etildi, unda 46 mamlakatdan 2884 sportchi ishtirok etdi.

X Olimpiada Los-Anjelesda (AQSH) 1932-yilda o'tkazildi. Bunda 38 mamlakatdan 1873 sportchi qatnashdi. Yengil atletika va boshqa sport turlarida juda ko'p rekordlar o'rnatildi. E.Tollan (AQSH) 100 m. masofaga yugurishda 10,3 soniya bilan rekord o'rnatdi. Bu natija XVII Olimpiada o'yinlarigacha (1960) o'zgarmadi. Suvda suzish bo'yicha yaponlar 5 ta oltin medalga sazovor bo'lib, AQSH sportchilaridan ustun keldi.

XI Olimpiada Berlinda 1936-yilda o'tkazildi. Lekin bunda XOQ va Xalqaro sport federatsiyalari qatnashmadi, chunki Germaniyada fashizm rivojlanib borayotgan edi. Bu millatchilik va bosqinchilikka qaratilgan edi. Shunday bo'lsada, 43 mamlakatdan 3936 sportchi o'yinlarda ishtirok etishdi. Amerikalik yengil atletikachi Jessi Ouens 4 ta oltin medal olishga erishdi, ya'ni u 100, 200 m.ga yugurish, uzunlikka sakrash va 4x100 m. estafetada g'olib chiqdi.

XII va XIII Olimpiya o'yinlari (1940, 1944-yillar) Ikkinchi jahon urushi tufayli o'tkazilmadi.

XIV Olimpiada Londonda 1948-yil tashkil etildi. Unda 53 mamlakatdan 4092 sportchi ishtirok etdi. Bu o'yinga XOQ Germaniya va Yaponiyani qo'ymadi, chunki ular Ikkinchi jahon urushining boshlanishi hamda rivojlanishining bosh sabachilaridan emas, balki jangovor rahbarlari edi. Bu o'yin urush yillarida kam talafot ko'rgan mamlakatlarga katta g'alabalar keltirdi. Medallar soni va ochkolar hisobi bo'yicha AQSH birinchi, Shvetsiya – ikkinchi, Fransiya – uchinchi va Vengriya – to'rtinchi o'rinni egalladi.

Xullas, XX asrning birinchi yarmida o'tkazilgan II–XIV Olimpiya o'yinlari (1916, 1940, 1944-yillar mustasno) jahon sporti taraqqiyotining eng muhim bosqichlari bo'lib hisoblandi. Bu o'yinlar haqida qisqa ma'lumotlar berildi. Shu sababdan, Xalqaro Olimpiya harakati bilan qiziquvchi yoshlar va havaskorlar rus tilidagi o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanishlari mumkin (adabiyotlar ro'yxatiga qarang).

Qishki Olimpiya o'yinlari. Qishki sport turlari va ularning xususiyatlari mazmunan jismoniy barkamollikni tarbiyalashdagi o'rni bebahodir. Lekin afsuski, bu turlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida deyarli rivojlanmagan. Tog'li hududlardagi qorlarda chang'ida uchayotgan yoki chang'ida akrobatik sakrashlarni bajarayotgan kishilar uchrab turadi, albatta. Lekin ular ham o'ta qisqa vaqt mobaynidagina tog' bag'rida shug'ullanadigan havaskor yoki professional sportchilardir. Bu sport turlari aholi orasida keng ommalashmagan, qolaversa, ijtimoiy-madaniy turmush va milliy xususiyatlarga yaqin bo'lmagan turlardir. Shu sababdan ham, qishki Olimpiya o'yinlaridagi ulkan yutuqlar, tengi yo'q ilg'or tajribalar haqida batafsil to'xtalishga hojat yo'q. Lekin mutaxassislar, yosh ijodkorlar va talabalar mustaqil ravishda boshqa ma'lum adabiyotlardan (ayniqsa, Moskvada rus tilida nashr etilgan) unumli foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Shamoni. Fransiyaning tog'li hududi bo'lgan Shamonida I qishki Olimpiya o'yinlari tashkil etildi. Musobaqa dasturida konkida uchish, chang'i poygasi, slalom, tramplindan chang'ida sakrash, shaybali xokkey, bobsley va konkida figurali raqslar (kartansh) mavjud edi. Ta'kidlash lozimki, Parij 1924-yilda yozgi VIII Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga bag'ishlab Xalqaro sport haftaligini (I qishki Olimpiada) tashkil qilgan edi. Buni XOQ 1925-yilda (bir yildan keyin) haqiqiy Olimpiada deb tan oldi va tasdiqladi.

O'yinlarda finlardan K.Tunberga ikkita oltin medal oldi. 12 yoshli norvegiyalik qiz S.Xeni ham ishtirok etadi. Keyinchalik u uch marotaba olimpiya chempioni bo'lgan. Finlar konkida uchishda birinchi o'rinni egalladi. Figurali uchishda Shvetsiya va chang'ida Norvegiya g'olib bo'lishdi. Xokkeyda

esa Kanada g'olib keldi.

1924-yil Shveysariyada II qishki Olimpiya o'yinini tashkil etildi. Norvegiyaning figurali uchuvchi qizi S.Xeni Olimpiya chempioni bo'ldi. Xokkey bo'yicha Kanada jamoasi g'olib chiqdi.

Leyk-Plesid. III qishki Olimpiya o'yini 1932-yil AQSHda bo'ldi. O'yinlarda umumiy hisobda AQSH g'olib deb topildi.

Garmish-Partenkirxen (Germaniya) — 1936-yil IV qishki o'yinlar Germaniyada tashkil etildi. Fashistlar Olimpiya o'yinlaridan o'z maqsadida foydalandilar.

Ikkinchi jahon urushi va xalqaro siyosiy qarama-qarshiliklar tufayli keyingi yillarda qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilmadi. V qishki Olimpiya o'yinlari 1948-yil Shveysariyada o'tkazildi. Chang'i va konkida uchish turlari bo'yicha ustunlik an'anaviy ravishda shimoliy mamlakatlarga mansub bo'lganligi tufayli Olimpiya o'yinlarida ular g'olib kelishdi. Tog' chang'isi sportida — fransuzlar, shveysariyaliklar va avstraliyaliklar ustun chiqdi. Shaybali xokkeyda Kanada va Chexiya sportchilari finalga yetib kelishdi. Ba'zi bir ustunliklarga (hisoblar teng edi) asoslanilgan holda Kanada sportchilari g'olib deb topildi.

Yakka holda konkida figurali uchishda erkaklar va ayollar bahsida AQSH birinchi marotaba qatnashdi. Richard Batton (AQSH) va Barbara Enn Skott (Kanada) g'olib chiqishdi. Jamoalar hisobida teng ochkolarga (10:4-3-3) ega bo'lgan Shvetsiya va Norvegiya g'olib deb hisoblandi.

Xulosa. XX asrning birinchi yarmida o'tkazilgan yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari jahon mamlakatlarida sportning tobora taraqqiy etib borayotgani va sportchilarni tayyorlashda yangi-yangi usullarning kelib chiqayotganini namoyish etdi. Shu bilan birgalikda, Olimpiya g'oyalarining tinchlik va osoyishtalikni ta'minlovchi amaliy mohiyatlarini isbotladi. Lekin Yevropa mamlakatlaridagi siyosiy va iqtisodiy kurashlar, qarama-qarshiliklar fashizmni vujudga keltirib, jahon urushlariga sababchi bo'ldi. Bunday paytlarda Olimpiya harakati o'z kuchi va g'oyalarini o'tkaza olmadi. Buning sa-

bablaridan biri shundaki, xalqaro sport uyushmalari, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi hamda Milliy Olimpiya qo'mitalari tepasida burjuaziya, kapitalistik tuzum vakillari turar edi. Ular o'z manfaatlari uchun Olimpiya o'yinlaridan ko'ra urushlarni ma'qul ko'rishdi. Shunga qaramasdan, jahon sport hamjamiyati va sportchilarning sa'y-harakatlari bilan Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan Olimpiya o'yinlari an'analari yana davom etdi.

E'tirof etish kerakki, yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari natijalari sportning taraqqiy etishi va ularning turlari bo'yicha olimpiya dasturlarining kengayishiga ham sabab bo'ldi. Barcha o'yinlarda g'oliblik uchun mamlakatlar o'rtasida keskin bahslar rivojlandi.

XX asrning birinchi yarmidagi Olimpiya o'yinlari haqida asosiy ma'lumotlar

T.r	O'tkazilgan yillar	O'tkazilgan joylar	Qatnashgan mamlakatlar	Sportchilar soni	Birinchi o'rinni egallagan mamlakatlar
Yozgi					
I	1896	Afina (Gretsiya)	14	245	Yunoniston
II	1900	Parij (Fransiya)	19	1078	Fransiya
III	1904	Sent-Luis (AQSH)	13	678	AQSH
IV	1908	London (Angliya)	22	2035	Angliya
V	1912	Stokgolm (Shvetsiya)	28	2037	Shvetsiya
VII	1920	Antverpen (Belgiya)	29	2067	AQSH
VIII	1924	Parij (Fransiya)	44	3072	AQSH
IX	1928	Amsterdam (Gollandiya)	46	2884	AQSH
X	1932	Los-Anjeles (AQSH)	37	1883	AQSH
XI	1936	Berlin (Germaniya)	49	3936	Germaniya
XIV	1948	London (Angliya)	59	4092	AQSH
Qishki					
I	1924	Shamoni (Fransiya)	16	258	Norvegiya
II	1928	Sankt-Moris	25	464	Norvegiya

		(Shveysariya)			
III	1932	Leyk-Plesid (AQSH)	17	252	AQSH
IV	1936	Garmish-Partenkirxen (Germaniya)	28	668	Norvegiya
V	1948	Sankt-Moris (Shveysariya)	28	669	Shvetsiya

Eslatma: Birinchi jahon urushi tufayli 1916-yil VI olimpiada, Ikkinchi jahon urushi sababli XII–XIII yozgi va qishki (1940, 1944-yillar) olimpiada o'yinlari o'tkazilmagan.

8.3. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) va uning prezidentlari Olimpiya Kongresslari

XX asrning birinchi yarmida Xalqaro siyosiy voqealar qanchalik murakkab bo'lmasin, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) o'z faoliyatini yuksak darajada olib bordi. Bunda XOQ rahbarlarining xizmatlari juda katta bo'lganligini o'z davrining mutaxassislari e'tirof etishgan. Shu sababdan, bu davrdagi XOQ prezidentlari haqida ba'zi bir ma'lumotlarni keltirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon olimpiya o'yinlarining asoschisi Pyer de Kuberten olimpiya harakatiga 20 yil (1896–1925) rahbarlik qildi. Ta'kidlanganidek, u hozirgi zamon Olimpiya o'yinlarini o'tkazish yo'lda juda ko'p mehnat qildi, 1925-yilda o'z ixtiyori bilan prezidentlik vazifasidan ozod etildi. U o'z arizasida kelajak uchun vasiyat sifatida olimpiya g'oyalarini rivojlantirish, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, sportning tinch va ozod mehnat qilish yo'lidagi mohiyatini kuchaytirish zarurligini uqtirdi. Kuberten 1937-yil vafot etdi. Uning qabri Lozanna shahrida, yuragi esa vasiyatiga ko'ra, Olimpiya shahrida saqlanib kelinmoqda.

1925-yilda XOQ Prezidenti etib graf Andri de Baye-Latur (1876–1942) saylandi. U Belgiya davlati va Xalqaro sport arbobi bo'lib, 1906-yil Belgiya milliy Olimpiya

qo'mitasini tashkil etuvchilardan biri hisoblanadi.

Baye-Latur XOQni 17-yil boshqardi. U XI Olimpiya o'yinlari arafasida Gitlerning Olimpiya o'yinlari qatnashchilari va g'oliblarini tabriklash uchun minbarga chiqishiga rozilik bermagan. Shunday bo'lsa-da, u bolshevizmga chinakam qarshi edi. Shu sababdan, sovet sportchilari Olimpiya o'yinlarida qatnashishdan mahrum etilgan.

1942–1946-yillarda olimpiya harakatining faollaridan shved Zigfrid Edstryom (1882–1964) XOQni vaqtincha boshqardi, 1946-yilda esa IV prezident qilib saylandi. U AQSH, Shveysariya va Shvetsiyada ta'lim olgan, ixtisosiga ko'ra elektrik-muhandis edi. Talabalik yillarida qisqa masofalarga yugurish bo'yicha Shvetsiya rekordchisi ham bo'lgandi. U 1920-yil XOQga a'zo qilib saylandi. 1921-yildan ijroqo'm a'zosi va 1931-yildan boshlab XOQ vitse-prezidenti bo'lgan. U 1952-yilda 70 yoshida prezidentlikdan ozod etildi. 1964-yil 18-martda vafot etdi.

Olimpiya o'yinlari davomida XOQning faoliyatlari rivojlandi. XOQ rahbarlarining xizmati yana shundaki, o'yinlarda xalq irodasi va sportchilarning faoliyatlarini turli ramzlar (simvollar) va atributlar bilan ifoda etishda yangiliklar yaratdilar. Quyidagi ana shu belgilar va ramzlar haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Olimpiya ramzi – bir-biriga ulangan besh halqa. Ular yashil, qora, qizil, sariq va ko'k rangda tasvirlanib, besh qit'ani bildiradi. Bu 1913-yilda Kuberten taklifi bilan tasdiqlangan.

Olimpiya belgisi (emblema) – besh halqa ramzi bilan birga qo'shib, yil, shahar nomi va mamlakatning Olimpiya harakatidagi belgilari (nishon) ifodalanadi.

Olimpiya mash'alasi – Olimpiya shahrida quyosh nuridan maxsus usulda mash'ala yoqiladi. U turli vositalar orqali Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan joyga yetkazib beriladi. Bu an'ana 1936-yil XI Olimpiya o'yinlaridan buyon davom etib keladi.

Olimpiya shiori (deviz): «Tezroq, balandroq, kuchliroq!» («Sitius, altius, fertius!») – Olimpiya harakatini bildiradi. Bu shior 1895-yil Kubertenning safdoshi va o'rtog'i Dominikan

ordeni sohibi, din xodimi Martin Xidon tomonidan taklif etilgan va 1913-yilda bu shior XOQ tomonidan tasdiqlangan. 1920-yilda VII Olimpiadada birinchi marotaba bu shior o'qiladi.

Olimpiya qasamyodi. Sportchilarning Olimpiya qasamyodi Kuberten tomonidan ishlab chiqiladi va VII Olimpiya o'yinlarida (1920) amalga oshiriladi. Shu o'rinda aytish lozimki, Olimpiya o'yinlari hakamlari ham qasamyod qiladilar. Bu esa 1968-yildan buyon amalda qo'llanib kelinmoqda.

Olimpiya gimni. Gimn 1896-yilda yaratilgan. Kostas Palomov so'zi va Sipros Samar musiqasi bilan yaratilgan Olimpiya gimni rasmiy ravishda 1957-yilda XOQ tomonidan tasdiqlanadi.

Olimpiya medallari va yorliqlari: oltin medal – kumushdan yasalib, uning usti 6 g. oltin bilan qoplangan. Kumush medal esa 925 probali kumushdan tarkib topgan. Bronza medali. Ular 1, 2, 3-o'rinlar uchun mo'ljallangan. Diplomlar (yorliq) 1-6-o'rinlarni egallagan sportchilar va jamoalarga taqdim etiladi.

Olimpiya mukofotlari: orden va kubok. Ordenlar oltin, kumush va bronzalardan iborat bo'lib, Olimpiya harakatiga qo'shgan ulkan hissalari uchun rahbar shaxslarga yuksak sport natijalariga ega bo'lgan sportchilarga beriladi. Bu 1975-yilda tasdiqlangan. Olimpiya kubogi 1906-yilda tasdiqlanib, Olimpiya sport turlarida katta yutuqlarga erishgan jamoalarga beriladi.

Olimpiya nishonlari (atributlar): nishonlar (znachok), tamg'alar (monet), ramzlar (talismon), piktogrammalar va h.k. hisoblanadi. Bu nishonlar Olimpiya o'yinlarini o'tkazuvchi shahar va tashkiliy qo'mita tomonidan tayyorlanadi.

Ma'lumki, Olimpiya Xartiyasi birinchi kongressda (1894 y.) qabul qilinib, ko'p sohalarda keyinchalik o'zgartirishlar kiritilgan. Shunday bo'lsa-da, uning asosi (Kuberten ishlab chiqqan mazmuni) hozirgi davrda ham o'z kuchini yo'qotgan emas.

Xartiya asosida XOQ Milliy Olimpiya qo'mitalari, Xalqaro sport federatsiyalari, xalqaro sport uyushmalari va boshqa aloqador tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Olimpiya kongresslari. Birinchi XOQ kongressi (1894) haqida o'tganligi boblarda bayon etildi. 1897-yil ikkichi kongress Gaagada o'tkaziladi. U sport pedagogikasi va gigiyenasiga bag'ishlangan. Uchinchi kongress 1905-yilda Bryusselda o'tkaziladi. Unda maktablar, universitetlar, shahar va qishloq jamoalari (obshina), armiya va xotin-qizlar orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Keyingi uchta kongress (1906-yil Parijda, 1913-yil Lozannada, 1914-yil Parijda) dasturlariga san'at, adabiyot va sport, sport psixologiyasi, olimpiya qoidalari kiritilgan edi.

Olimpiya o'yinlari va harakatining obro'-e'tiborini oshirishda keyingi o'tkazilgan kongresslar katta rol o'ynagan. VII kongress 1921-yil Lozannada, VIII kongress – 1925-yil Pragada, IX kongress – 1930-yil Berlinda o'tkazilgan. Ularda havaskorlik sporti, o'yinlarining muddatlari, dasturlari, xotin-qizlarning sportda qatnashishi, yoshlar sportini rivojlantirish va boshqa masalalar muhokama etilgan.

Kongresslardagi g'oyalar va muammolar omma orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

Bu bobda qisqacha xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asrning birinchi yarmi jahon sport jamoatchiligi hayotida juda katta burilish bo'ldi. Olimpiya o'yinlari Yevropa va Amerika mamlakatlarida keng quloch yozdi, taniqli va iqtidorli sportchilar soni ko'paydi.

Yozgi va qishki Olimpiya o'yinlaridagi natijalar, ko'tarilgan g'oyalar, shiorlar va o'tkazilgan boshqa turli xil madaniy tadbirlar yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlari, intilishlarini tobora kuchaytirib yubordi.

Xalqaro Olimpiya harakatini rivojlantirishda Milliy Olimpiya qo'mitalari (MOQ) va XOQ prezidentlari, rahbar xodimlarining faoliyati olqishlarga sazovor bo'ldi.

XOQning faoliyatini mustahkamlashda o'tkazilgan kongresslar muhim ahamiyat kasb etdi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. XX asrning birinchi yarmidagi xalqaro ahvol sport va olimpiya harakatiga qanday ta'sir o'tkazdi?
2. Xalqaro sport harakatida qanday yangiliklar yuz berdi?
3. Xalqaro ishchilar sporti harakatida qanday yangiliklar vujudga keldi?
4. Bu davrda o'tgan Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari nimada?
5. Olimpiya o'yinlarining eng yaxshi sportchilaridan kimlarni bilasiz?
6. XX asrning birinchi yarmidagi XOQ prezidentlari kimlar edi?
7. Olimpiya ramzlari va belgilari nimalardan iborat?
8. Olimpiya kongresslari va ulardagi muhokama qilingan asosiy masalalar nimalardan iborat edi?
9. Olimpiya g'oyalari qanday qilib kengaydi?

XI bob. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA XALQARO SPORT VA OLIMPIYA HARAKATI

9.1. Ikki tuzum qarama-qarshiligi va birligi

Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro ahvol ancha murakkablashdi. Chunki SSSR boshchiligida bir qator Yevropa mamlakatlari (Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi va h.k.) hamda Osiyoda Xitoy, Shimoliy Koreya (KXDR), Vetnam, Mongoliya va keyinchalik Afrikada (Kongo, Nigeriya, Tanzaniya va b.q.) ham ba'zi davlatlar sotsialistik tizim yo'lidan borishdi. AQSH boshchiligida esa Angliya, Italiya, Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya va juda ko'p boshqa davlatlar imperialistik tizim yo'lidan yura boshladi. Bu ikkala yirik tizim siyosiy jihatdan bir-biriga ashaddiy dushman sifatida kurashlar olib bordi. Bu esa Xalqaro sport va Olimpiya harakatiga ham o'zining tazyiqini o'tkazib bordi. Ya'ni XOQ va sport turlari bo'yicha Xalqaro sport federatsiyalarining ustav hamda nizomlarini ishlab chiqish, ularni tasdiqlash hamda amalga oshirishda imperiyalistik kuchlar ancha ustunlik qildi. Lekin shunga qaramasdan, SSSR va uning safdoshlari Xalqaro sport hamda Olimpiya harakatini demokratlashtirish yo'lida tinmay harakat qilishdi. Natijada, SSSR Milliy Olimpiya qo'mitasining tuzish (1951-y.), sportchilarning jahon birinchiliklari Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishlariga (1952 y.) erishildi. Shuningdek, sotsialistik tizimdagi davlatlar ham yuqoridagi eng nufuzli sport musobaqalarida ishtirok eta boshladi. Bu esa, o'z navbatida, sotsialistik tizimining ustuvorligini ta'minlash hamda sportchilarning mahoratlarini oshirishga zamin tayyorladi. Davlatlarning ikki yirik tizim sportchilari orasidagi g'alaba uchun kurashlarini, ya'ni kim ustun ekanligini isbotlash yo'lida katta maktab bo'lib qoldi.

Chunki siyosiy qarama-qarshiliklar qancha kuchli bo'lmasin, sportchilar birgalashib musobaqalashdilar. Ular do'stona vaziyatda kuch sinashib, ilg'or tajribalarini o'rtoqlashdilar. Bu Xalqaro sport va Olimpiya harakatining yanada kengayishi hamda takomillashishiga yetaklaydi.

Xullas, bu bahslar va kurashlarda ba'zi bir haqqoniy masalalar hal etildi. Shular qatorida havaskor sportchilarning bir qator maqomlari (statusi) ijobiy hal etildi.

Xalqaro sport va Olimpiya harakatining kengayishi. Urushdan keyingi yillarda Xalqaro sport (XS) harakati miqyosi ancha kengaydi. 1946-yilda gandbol va kanoe sporti bo'yicha Xalqaro federatsiyalar tashkil topdi. 1956-yilda Xalqaro dzyu-do federatsiyasi (FID), 1958-yilda – Xalqaro jismoniy tarbiya va sport Kengashi (SIYePS), 1969-yilda Yevropa yengil atletika assotsiatsiyasi (YeAA), 1970-yilda Yevropa havaskorlik boks assotsiatsiyasi (YeHBA) tashkil etildi.

Hozirgi davrda jahonda 200 dan ortiq Xalqaro sport uyushmalari mavjuddir. Ularga 5 qit'adan minglab milliy sport tashkilotlari va bir necha yuz millionlab sport ixlosmandlari birlashgan. Urushdan keyingi dastlabki davrlarda jahon yoshlari va talabalarining do'stlik o'yinlari an'anaga aylandi. Bu o'yinlar jahon yoshlari festivallari dasturidan o'rin egalladi. Bu, ayniqsa, 1957-yil Moskvada o'tkazilgan III Jahon yoshlari festivalida yaqqol namoyon bo'ldi.

1959-yilda umumjahon talabalarining Universiadasi o'tkazildi. Universitetlar sporti Xalqaro fediratsiyasi (USXF - FISU) universiadalarni yozgi va qishki sport turlari bo'yicha o'tkazib kelmoqda.

Qit'alarda sport o'yinlarini o'tkazishga 1951-yilda asos solingan edi. Bu o'yinlar har 4 yilda bir marotaba tashkil etiladi.

Panamerika o'yinlari Shimoliy va Janubiy Amerika mintaqalari sportchilarining o'z kuch sinashuvidir. Shuningdek, Afrika, Britaniya, Osiyo, Bolqon, O'rta yer dengizi, Skandinaviya o'yinlari ham doimiy ravishda o'tkazib borilmoqda.

Mintaqaviy o'yinlar agar XOQ xartiyasiga xilof ravishda ish olib borilmasa, XOQ himoyasida o'tkaziladi.

1958-yildan boshlab o'tkaziladigan AQSH va SSSR yengil atletikachilarning xalqaro musobaqalari jahonda «Ulkanlar uchrashuvi» («Match gigantov») deb yuritiladi.

1975-yilda Xelsinkida Yevropa, AQSH va Kanada davlatlarining 35 vakili ishtirokida Yevropada xavfsizlik va hamdo'stlik masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Uning maqsadi va vazifalari mazmunida sportdagi o'zaro aloqalar ham qayd etildi va yaxshi bitimlarga kelishildi.

Xalqaro jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yunesko (ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha bo'limi) tashkiloti faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Yunesko tarkibida 1958-yildan boshlab Jismoniy tarbiya va sport xalqaro kengashi (JTSXK-SIYePS) mavjud bo'lib, u xalqaro sport harakatida salmoqli o'rinni egallab turibdi. 1978-yilda Yuneskoning Bosh konferensiyasida hukumatlararo jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi tashkil etilib, u Yuneskoning jismoniy tarbiya va sport xalqaro xartiyasini (nizomini) ma'qulladi. Xartiyada hukumatlararo tashkilotlarda jismoniy madaniyat va sport ishlarini yaxshilash, xalqaro sport harakatiga har tomonlama ko'maklashish va boshqa zarur masalalar ifoda etilgan edi. Bu Yuneskoning jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi hamda xalqaro sport aloqalari tajribalarini almashtirish yo'lidagi yangi turtki bo'lib hisoblandi.

Xalqaro sport harakatini demokratik yo'llarga burishda Yevropa sport konferensiyalari (1973–1987-yilgacha 2 yilda bir marta) muhim ahamiyat kasb etdi. Bu anjumanlar hozirgi zamon jamiyatida insoniyat uchun sportning ahamiyati muhim ekanligi va Yevropada xalqaro sport aloqalarini yanada rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Sport mahoratlarining oshishi. Yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari, jahon va Yevropa chempionatlari, mintaqalardagi o'yinlar va boshqa xalqaro sport musobaqalari XX asrning so'nggi 10 yilida sportchilarning rekordlari, yuqori mahoratlarini namoyish qilish bilan birga inson omilidan yanada

maqsadliroq foydalanish yo'llarini ochib berdi. Yengil atletika, og'ir atletika, suvda suzish, konkida uchish kabi sport turlarida misli ko'rilmagan rekordlar o'rnatildi. Gimnastika, futbol, xokkey, basketbol, voleybol, kurash, boks va boshqa sport turlarida sportchilar eng yaxshi natijalarga erishdi. Bunday natijalarga erishishning omili iqtidorli sportchilar, iste'dodli murabbiylar, tibbiy xodimlar va mutaxassis olimlarining uzviy hamda o'zaro hamkorlikda mehnat qilishi bilan bog'liqdir.

Ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari o'rgatish mashg'ulotlarining usullarini takomillashtirishga imkoniyat yaratdi. Bu esa sportchilarning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarliklarini yana yuqori pog'onalarga ko'tarishni talab etmoqda.

Sport natijalarining yuqori darajada bo'lishida yangi texnik vositalar, jihozlar, asbob-uskunalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Urushdan keyingi davrlardagi xalqaro sport haraktining o'sishi insoniyat jamiyati taraqqiyotining qonuniyatlari bilan bog'liqdir.

9.2. Olimpizm, XOQ va uning prezidentlari

Olimpizm tushunchasi ko'proq siyosatdonlar, xalqaro hamjamiyat tashkilotlari va boshqa sohalardagi arboblar, mutaxassislar, xodimlar hamda yosh ijodkorlar faoliyatida ko'proq qo'llanib kelinmoqda. Qisqa qilib aytganda, olimpiya tarafdorlari uning g'oyalarini ommalashtirish, ijtimoiy turmush madaniyatiga tobora chuqur singdirish maqsadidadir.

Jismoniy madaniyat tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va sport harakati amaliyotida «olimpizm», «olimpiya harakati» va «olimpiya o'yinlari» tushunchalari xalqaro hayotda ijtimoiy harakat bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Olimpizm — bu hayot falsafasi, ya'ni inson tanasi, irodasi va tafakkurini (ongi) birlashtiruvchi qadriyatdir. Shuningdek, sport falsafiy, axloqiy-ma'naviy, pedagogik va tashkiliy tamoyillarning yig'indisi

bo‘lib, umuminsoniy munosabatlar mahsulidir.

Olimpizm g‘oyalari va mafkuralariga quyidagilar kiradi:

– sport va sport faoliyatlaridan tinchlik va tinchlikning barqarorligini ta’minlashda foydalanish;

– barcha mamlakatlar va mintaqalardagi sportchilarning do‘stligi va ongli munosabatlarini ta’minlash;

– shaxsni har tomonlama barkamollikka yetishtirish;

– irqchilik, millatchilik, siyosiy qarashlar, ijtimoiy sharoitlar va yashash joylari bo‘yicha insonlarni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;

– sportda millatchilik, siyosatchilik va giyohvandlikka (doping) qarshi kurash;

– hozirgi davrda sport insonlarni o‘zaro xayrixohlikka (gumanizm) intilishlarni doimiy ravishda mustahkamlash.

Olimpiya harakati – bu jamiyat taraqqiyoti bo‘lib, u olimpiya g‘oyalari va mafkurasi tamoyillariga tayanadi, shu asosda insonlar va tashkilotlarni ularning millati, irqi va yashash joylaridan qat’i nazar o‘ziga birlashtiradi. Ularning sport, sport gimnastika va o‘yinlarni o‘zlarining asosiy faoliyati deb bilishlariga ko‘maklashuvchi ijtimoiy faoliyatdir.

Olimpiya harakatining asosiy vazifalari quyidagicha:

– Olimpiya g‘oyalarining tamoyillarini jahonga yoyish;

– Olimpiya sport turlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;

– Sportni targ‘ibot qilish, imkoniyat doirasida ulardan jismoniy, ma’naviy va estetik tarbiyada foydalanishni ifodalash;

– «Olimpiya birdamligi» (solidarnost) dasturini tarqatish (singdirish) yo‘lida sharoitlar yaratish;

– har to‘rt yilda bir marotaba Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik va uni o‘tkazish.

Olimpiya o‘yinlari – bu sportchi-olimpiyachilarning majmuiy xalqaro musobaqasidir. Jahon yoshlarining buyuk (ulug‘) bayramidir. O‘yinlar barcha mamlakatlarning kuchli sportchilarini birlashtiradi va musobaqalarda halol va teng huquqlilik asosida qatnashishlarini ta’minlaydi.

Olimpiya o'yinlari barcha mamlakatlar va ularning sportchilaridagi sport mahorati, axloqiy, estetik va insonparvarlik g'oyalarini namoyon etuvchi ko'zgu sifatida xizmat qilmoqda.

XOQ tarkibida 1950-yilda Milliy Olimpiya qo'mitalarining soni 68 ta bo'lsa, 1997-yilda 197 va 2000-yilga kelib esa ularning soni 200 dan oshib ketdi. Bu olimpiya harakatining baynalmilallik yo'lidagi ijobiy faoliyatlaridan biridir.

Olimpiya o'yinlari bu sport mahorati maktabidir. Olimpiya o'yinlari ta'lim-tarbiya tizimidagi shaxsning barkamollikka erishuvi yo'lidagi barcha faoliyatlarni takomillashtirishga bevosita yordam beradi.

Olimpiya o'yinlari xalqaro olimpiya harakatining eng yuqori cho'qqisidir.

XOQ va uning prezidentlari. XX asrning ikkinchi yarmida sovuq urush hukmron bo'lgan paytlarda Xalqaro Olimpiya harakati va u bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlar, rahbarlar ancha mashaqqatlarga duch keldilar. Ularni tinchlik-osoyishtalik, hamdo'stlik yo'liga chaqirishda XOQ prezidentlari, uning doirasidagi mutasaddilar ko'p mehnat qilishdi. Ta'kidlash lozimki, bu davrda rahbarlik qilgan arboblar va xodimlar P.Kubertenning g'oyalari, vasiyatlariga sodiq bo'lib qoldilar. XX asrning ikkinchi yarmidagi XOQ prezidentlari quyidagilardan iboratdir:

Everi Brindej (AQSH) – 1952–1972,

Maykl Maris Killanin (Irlandiya) – 1972–1980,

Xuan Antonio Samaranch (Ispaniya) – 1980–2000.

Jak Rogg (Belgiya) – 2001-yildan boshlab.

E'tibor qilish lozimki, mazkur prezidentlar o'z davrining siyosiy-madaniy, ijtimoiy va sport doirasidagi eng yetuk arboblardan hisoblangan. Ular asosiy faoliyatlarini Olimpiya o'yinlarini eng yuqori saviyada o'tkazish, sportchilar, murabbiylar, hakamlar, Milliy Olimpiya qo'mitalarining (MOQ) vakillarini rag'batlantirish, olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish, ixtiloflarni adolatli hal qilishga yo'naltirmoqdalar. Barcha prezidentlarning ijtimoiy faoliyat-

lari bilan to'la tanishishni istaganlar rus tilida Moskvada nashr etilgan (2000 y.) darslik, «Olimpiya bilimlari asoslari» (T., 2002) boshqa adabiyotlardan foydalanishlari mumkin.

XX asrning so'nggi choragida Olimpiya harakatida ixtiloflar kuchaydi. Ular haqida yuqorida bayon etildi. Ana shu ixtiloflarni tugatish va Xalqaro Olimpiya harakatidagi jipslikni mustahkamlashda xuddi P.Kuberten kabi Xuan Antonio Samaranchning ham xizmati g'oyat katta bo'ldi. Shu sababdan, bu haqda qisqa ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir.

Xuan Antonio Samaranch – yettinchi prezident hisoblanadi. U 1920-yilda Ispaniyada tavallud topgan. Uning Olimpiya harakati cho'qqilariga eltuvchi yo'ldagi dastlabki qadamlari 40–50-yillarga to'g'ri keladi. U Barselona munisipalitetida sport bo'yicha maslahatchi, keyin rolikli (g'ildirakli) konki bo'yicha milliy federatsiya prezidenti bo'lib xizmat qildi. 1956-yildan boshlab Ispaniya terma jamoalariga rahbar sifatida qishki va yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadi. 1963-yilda (43 yosh) Ispaniya oliy sport kengashi raisi va 1967-yilda Milliy Olimpiya qo'mitasi Prezidenti lavozimida faoliyat ko'rsatgan. U 1966-yilda XOQ a'zosi etib saylandi. Shu davrdan XOQning protokol (qaror) bo'limi boshlig'i va matbuot ishlari komissiyasi raisi vazifalarini bajaradi. 1974–1978-yillarda XOQ vitseprezidenti bo'ladi. 1977–1980-yillarda Ispaniyaning SSSRdagi elchisi sifatida ish olib boradi. U uzoq yillardan buyon filatelizm (marka, znachok va h.k. yig'ini) bilan mashg'uldir.

Samaranch XOQda faol ishladi. 1980-yil Moskvada o'tkazilgan 83-sessiyaning birinchi tur saylovida ko'p ovozga ega bo'ldi. U 2001-yilning boshlarigacha (20 yildan ortiq) XOQ prezidenti bo'ldi. Uni Olimpiya islohotchisi deyish mumkin. 1992-yil Angliyada Devid Millerning «Olimpiya inqilobi» kitobi nashr etiladi. Unda Samaranchning to'la tarjimai holi (biografiya) aks ettiriladi.

Samaranch islohotlari quyidagicha ifoda etilgan, ya'ni:

– Sharq va g'arbning o'zaro munosabatlaridagi barqarorlik:

– Janubiy Afrika Respublikasining (JAR) Olimpiya o'yinlarida qatnashishini man etgan qarorni olib tashlash;

– yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarini turli yillarda (avvalgidek) o'tkazish;

– qit'alardagi Milliy Olimpiya assotsiatsiyalari bilan mustahkam aloqani o'rnatish;

– XOQ tarkibiga xotin-qizlarni jalb etish;

– XOQ tarkibidagi komissiyani Olimpiya chempionlaridan tarkib toptirish;

– Olimpiya xartiyasidagi 26 bobni to'la o'zgartirish. ya'ni professional sportchilarning Olimpiya o'yinlarida foyda keltirishi;

– giyohvandlikka qarshi kurash;

–XOQning moddiy va moliyaviy manbaini ta'minlashda kommersiya va bozor munosabatlarini kengaytirish;

– MOQ va Xalqaro sport uyushmalari rahbarlari bilan shaxsan uchrashish faoliyatlari;

– XOQ ma'muriy (administratsiya) tuzilishiga o'zgartirishlar kiritish va Lozannada Olimpiya muzeyini yaratish, shuningdek, Toshkent hamda boshqa shaharlarda ham shu kabi muzeylarni tashkil etishda amaliy yordamlar va h.k.

9.3. Olimpiya o'yinlari

Xelsinkidan to Afinagacha. Urushdan keyingi yillarda jahon jamoatchiligi Xelsinkida bo'ladigan Olimpiya o'yinlarini sabrsizlik bilan kutar edi. Chunki unda ilk bor SSSR sportchilari ham qatnashishi aniq edi.

1952-yilda Xelsinkida (Finlyandiya) o'tkazilgan XV Olimpiya o'yinlarida Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) hech qanday to'sqinliklarsiz ishtirok etdi. Lekin Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) o'yinlarga qo'yilmadi. Olimpiadada 11 ta jahon va 47 ta Olimpiya rekordlari o'rnatildi. Sovet shtangachilari, gimnastikachilari, kurashchilari, o'q otuvchi va eshkakchilari katta yutuqlarga erishdi. Olimpiada medallari uchun kurash asosan SSSR,

AQSH, Vengriya va Shvetsiya mamlakatlari o'rtasida keskin ravishda o'tdi. AQSH – 76 va SSSR – 71 medalni qo'lga kiritdi. Vengerlar 16 ta oltin, 10 ta kumush va 16 ta bronza medallariga sazovor bo'lishdi va uchinchi o'rinni egallashdi. Chexiya sportchisi Emil Zatopek marafonda va 5, 10 km.ga yugurishda g'olib chiqdi.

XVI Olimpiya o'yinlari (1956-yil Melburn Avstraliya). O'yinlar o'tkazilishi xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi davriga to'g'ri keldi. Shunday bo'lsa-da, o'yinlar keskin kurashlar ostida olib borildi. Yengil atletika, suzish, og'ir atletika, o'q otish turlari bo'yicha 14 ta jahon va 65 ta olimpiada rekordlari o'rnatildi. V.Kus (SSSR) 5 km va 10 km. masofaga yugurishda g'olib chiqdi. Sovet sportchilari 98 ta oltin, kumush va bronza medallariga ega bo'lib, 624,5 ochko bilan Olimpiada chempioni bo'lishdi. Shu sababli Avstraliya matbuot: «SSSR Amerikaning Olimpiya o'yinlaridagi 60 yillik hukmronligini puchga chiqardi», - deb yozishgan edi.

Vengriya, Chexoslavakiya, Ruminiya, Polsha va GDR (GFR bilan qo'shilgan holda) muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

XVII Olimpiya o'yinlari. 1960-yil Rimda sovet sportchilari 103 ta oltin, kumish va bronza medallarini olishga erishdi. AQSH sportchilari esa 71 medalni qo'lga kiritdi.

Sovetlarning 11 yengil atletikachisi oltin medal sohibi bo'ldi. R.Shavlakadze va V.Brumel balandlikka sakrashda jahon rekordchisi D.Tomas (AQSH) ustidan g'olib kelishdi. Gimnastikachilar 5 ta oltin va og'ir atletikachilar 1 ta kumush medalga sazovor bo'lishdi. Yu.Vlasov uchkurashda 537,5 kg. (jahon va Olimpiadaning yangi rekordi) natija bilan eng yaxshi sportchi deb tan olindi. Shuningdek, qilichbozlar, velosipedchilar, yelkan va ot sportchilari ham oltin medallarga muyassar bo'lishdi. Olimpiadada Ruminiya, Vengriya, Polsha, Chexoslovakiya, Bolgariya, GDR (qo'shma jamoa) yaxshi natijalarni qo'lga kiritishdi. Efiopiya, Marokka Gana kabi Afrika mamlakatlarining ba'zi sportchilari ham yaxshi natijalarga erishdi.

XVIII Olimpiada o'yinlari, 1964-yil Tokio. AQSH va boshqa bir qator mamlakatlar o'tgan Olimpiada o'yinlaridagi

mag'lubiyatlari tufayli bu o'yinlarga shiddatli ravishda tayyorgarlik ko'rishgan edi. O'yinlarda 94 mamlakatdan 93 jamoa ishtirok etdi. (GDR va GFR bir jamoada qatnashdi). Tokioga Yevropadan 28, Afinadan 22, Osiyodan 20, Amerikadan 21 va Avstraliya hamda Okeaniyadan 2 ta jamoa kelishdi. SSSR 96 ta medal olib peshqadamlik qildi. AQSH ikkinchi va qo'shma Germaniya jamoasi – uchinchi o'rinni egalladi.

XIX Olimpiada o'yinlari, 1968-yil Mexiko. Bu shahar dengiz sathidan 2240 m. balandlikda joylashgan bo'lib, uning iqlim sharoiti sportchilarga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sovet sportchilari umumjamoa hisobida AQSHga yutqazdi. AQSH – 106 va SSSR – 91 ta medalga sazovor bo'lishdi. Olimpiada o'yinlarining natijalari Afrikada sportning rivoj topayotganligini namoyish etdi. Efiopiya, Keniya, Tunis va boshqa mamlakatlarning sportchilari yaxshi natijalar ko'rsatadi.

XX Olimpiya o'yinlari, 1972-yil Myunxen (Germaniya). O'yinlarda 11 ta mamlakat yangidan qatnasha boshladi. Shular safida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) ham bor edi. O'yinlarda 46 ta jahon rekordi o'rnatildi. SSSR – 50 ta oltin, 27 ta kumush, 22 ta bronza, jami – 99 medalga, AQSH esa – 33 ta oltin, 30 ta kumush, 30 ta bronza, jami – 93 medalga sazovor bo'lishdi. GDR 66 ta medalga ega bo'lib, uchinchi o'ringa chiqdi. Sovet sportchilari L.Turisheva (gimnastika), V.Borzov (sprinter), Kubalik T.Stivenson (boks), AQSH suzuvchisi M.Spits kabilar alohida ajralib turdi. O'yinlar jarayonida politsiyachilar bilan terrorchilar orasidagi otishma natijasida 11 ta isroillik sportchilar halok bo'ldi. O'yinlar vaqtincha to'xtatildi.

XXI Olimpiya o'yinlari, 1976 y. Monreal (Kanada). O'yinlar ochilishida Afrika mamlakatlarining 28 jamoasi norozilik ifodasi sifatida chiqib ketdi. Chunki Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) bilan ular aloqador bo'lsa-da, o'yinga taklif etilgan edi. O'yinlarda 34 ta jahon va 82 ta Olimpiada rekordlari o'rnatildi. Medallar soni bo'yicha SSSR, AQSH, GDR yuqori o'rinlarni egalladi.

(SSSR – 125, AQSH – 94, GDR – 90 ta medal).

XXII Olimpiada o'yinlari, 1980-yil, Moskva. Bu o'yinlarga Vyetnam, Angola, Zimbabve, Mozambik kabi mamlakatlar birinchi marotaba tashrif buyurishdi. 25 ta sport turi bo'yicha 203 ta medallar shodasi (komplekt) uchun kurash olib borildi. O'yinlarga AQSH va boshqa bir qator kapitalistik mamlakatlardan sportchilar qatnashmadi. Bu haqda o'tgan boblarda bayon etildi.

Olimpiada dasturi o'tgan o'yinlarga nisbatan keng va boy edi. O'yinlarda 80 dan ortiq davlatlarning sportchilari ishtirok etdi. 36 ta jahon, 74 ta Olimpiada rekordlari o'rnatildi.

XXIII Olimpiada o'yinlari, 1984-yil. Los-Anjeles (AQSH). O'yinlarda SSSR va bir qator sotsialistik davlatlar (SSSR tarafdorlari) ishtirok etishmadi. Buning sababi AQSHga boykot javobi bo'lsa, ikkinchidan AQSH hukumati sportchilar xavfsizligini o'z bo'yniga olmadi. O'yinlarda AQSH sportchilari oldingi safda bordi.

XXIV Olimpiada o'yinlari, 1988 y. Seul (Janubiy Koreya). Avvalgi boblarda ta'kidlanganidek, XOQ Prezidenti Xuan Antonio Samaranch va xalqaro sport uyushmalarining rahbarlari tomonidan olib borilgan faol harakatlar tufayli SSSR va AQSH sportchilari yana sport maydonlarida kuch sinasha boshladilar. O'yinlarda 159 mamlakatdan 8473 sportchi ishtirok etdi. AQSh – 612, SSSR – 518, Janubiy Koreya – 467, GFR – 407, Kanada – 382, Buyuk Britaniya – 370, Xitoy – 293, GDR – 288 sportchi bilan qatnashdi. Olimpiadada SSSR 132 medal (oltin – 55, kumush – 31, bronza – 46 ta) bilan oldingi o'ringa chiqdi. GDR 102 ta (37–35–30) va AQSH) 94 ta medal bilan (36–31–27) keyingi o'rinlarni egalladi.

XXV Olimpiada o'yinlari, 1992-yil. Barselona (Ispaniya). Bu o'yinlarda sobiq SSSR o'rniga Rossiya bilan hamkorlikda sobiq ittifoqdosh Respublikalarning (MDH) sportchilari so'nggi marta birgalikda ishtirok etishdi. O'yinlarda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH, AQSH, Germaniya, Xitoy, Kuba, Vengriya mamlakatlarining sportchilari shiddatli kurashlar olib borishdi. MDH – 112 medal

(45 ta oltin, 38 ta kumush, 29 ta bronza) bilan birinchilikni egalladi. AQSH – 108 medal (37–34–37), Germaniya – 82 medal (33–21–28), Xitoy – 54 medal (16–22–6), Kuba – 31 medal (14–6–11) va Vengriya – 30 medal (11–12–7) olishga muvaffaq bo'ldi.

XXVI Olimpiada o'yinlari, 1996-yil, Atlanta (AQSH). Bu o'yinlar 19-iyuldan 4-avgustgacha davom etdi. Ularda 197 milliy Olimpiya o'yinlari qo'mitalarining 10305 nafar sportchilari ishtirok etdi. Bu Olimpiada o'yinlari tarixida eng yuqori natija edi. Musobaqalar 26 sport turi bo'yicha o'tdi. Kurashlarda AQSH 44 ta oltin, Rossiya – 26, Germaniya – 20, Xitoy – 16, Fransiya – 15, Italiya – 13, Avstraliya – 9, Kuba 9 ta oltin medallarni sovrindori bo'lishdi.

Bu yerda ham ko'ngilsiz hodisa yuz berdi. 27-iyul kechasi Istirohat bog'ida bomba portladi. Natijada, 44 yoshli amerikalik ayol va 40 yoshli turk telekommentator vafot etdi. AQSH Prezidenti Bill Klinton chiqish qilib, mintaqaning barcha hududlaridagi qo'poruvchilarni qoraladi. XOQ bir daqiqa motam sukutini o'tkazib, o'yinlarni davom ettirishga qaror qildi.

XXVII Olimpiada o'yinlari – 2000 y. Sidney (Avstraliya). O'yinlar noyabr oxiri va dekabr oyining boshida o'tkazildi. Bu o'yinga 200 dan ortiq milliy olimpiya qo'mitalarining 11 ming sportchisi ishtirok etishdi. Medallar soni bo'yicha AQSH (oltin – 39, kumush – 25, bronza 33) birinchi, Rossiya (32–28–28) – ikkinchi va Xitoy (28–16–15) uchinchi o'rinni egalladi. To'rtinchi o'rinni Avstraliya (16–25–17) va beshinchi o'rinni Germaniya (14–17–26) egallashga muvaffaq bo'ldi. Bu Olimpiada XX asrning oxirigi o'yini sifatida tarixda qoldi.

XXVIII, ya'ni Yangi, XXI asr Olimpiada o'yinlari Afinada 2004-yilda o'tkazildi. Ta'kidlash lozimki, barcha Olimpiya o'yinlari ochilishi marosimi katta tantana bilan boshlanadi. Afinada qadimgi greklarning milliy an'analari va hozirgi zamon texnik vositalari faqat ishtirokchilarnigina emas, balki televideniya orqali tomosha qilgan millionlab kishilarni ham hayratga soldi.

XX asrning ikkinchi yarmida va XXI asr boshida o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlari haqida ma'lumotlar

Olimpiya o'yinlari	Yillar	O'tkazilgan joylar	Mamlakatlar soni	Sportchilar soni	Birinchi o'rinlar
XV	1952	Xelsinki (Finlyandiya)	69	5429	AQSH
XVI	1956	Melburn (Avstraliya)	67	3178	SSSR
XVII	1960	Rim (Italiya)	83	5313	SSSR
XVIII	1964	Tokio (Yaponiya)	93	5133	SSSR
XIX	1968	Mexiko (Meksika)	112	5428	AQSH
XX	1972	Myunxen (GFR)	121	7121	SSSR
XXI	1976	Monreal (Kanada)	92	6043	SSSR
XXII	1980	Moskva (SSSR)	81	5283	SSSR
XXIII	1984	Los-Anjeles (AQSH)	140	6802	AQSH
XXIV	1988	Seul (Janubiy Koreya)	159	8473	SSSR
XXV	1992	Barselona (Ispaniya)	169	9368	SNG
XXVI	1996	Atlanta (AQSH)	197	10305	AQSH
XXVII	2000	Sidney (Avstraliya)	200	11147	Rossiya
XXVIII	2004	Afina (Gretsiya)	203	11800	AQSH

9.4. Olimpiada an'analarining davom etishi

XX asrning ikkinchi yarmida o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining jahon sporti taraqqiyotini namoyish etish bilan birga turli qit'alar hamda mintaqalarda olimpiya o'yinlari, uning g'oyalariga mos keladigan yirik musobaqalarni ham vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ularga dalil sifatida ko'rsatish uchun quyidagi sport musobaqalari haqida ba'zi bir ma'lumotlarni keltirish mumkin.

«Do'stlik-84». Jahon sportchilari Los-Anjelesda (1984, AQSH) bo'ladigan XXIII Olimpiya o'yinlariga astoydil tayyorlangan edi. Lekin undagi u yoki bu sabablar bilan ancha mamlakatlar qatnashishdan mahrum bo'ldi. Shu sababdan, SSSR taklifi bilan shu yili Olimpiada o'yinlari davom etayotgan bir paytda Moskvada «Do'stlik-84»

musobaqalari boshlandi. 50dan ortiq mamlakatlarning sportchilari 28 sport turi bo'yicha bellashdilar. Shunisi e'tiborliki, bu musobaqalar SSSR, Bolgariya, Vengriya, Shimoliy Koreya, Kuba Polsha, Mo'g'iliston va Chexoslovakiya kabi mamlakatlarda o'tkazildi.

Ma'lumotlarga qaraganda, XXIII Olimpiada o'yinlariga nisbatan «Do'stlik-84» musobaqalarida ko'proq rekordlar va yuqori natijalar qayd etilgan. Bu o'yinlar «sportdagi do'stlikdan —jahonda tinchlik uchun» shiori ostida tashkil etilgan edi. Shu shior ostida 1986-yil iyul oyida Moskvada «Yaxshi niyat o'yinlari» o'tkazildi.

«Yaxshi niyat o'yinlari»ni o'tkazishga 1985-yilning avgustida Amerikaning Teda Terner «Ti-Bi-Es» telekompaniyasining tashabbusi va SSSR Sport qo'mitasi hamda teleradiokompaniyasining roziligi bilan bir qarorga kelingan edi. Buning yana bir sababi shundaki, SSSR va AQSH sportchilarning ko'p sonli sport turlari majmui (kompleks) bo'yicha 10 yil davomida (XXI Monreal Olimpiadasidan keyin) o'zaro uchrashmagan, kuch sinashmagan edilar. Shu asosda Moskvaga 80 ta mamlakatdan 3 ming sportchi tashrif buyurdi. Bu ulkan sport tadbirining ochilishida sovet mamlakati rahbarlari o'zlarining xayrxohligi va sport orqali jahon xalqlarining do'stligini mustahkamlashga doim tayyor ekanliklarini izhor etishdi.

Buning yana bir razmiy ma'nosi shundaki, 1985-yilni Birlashgan Millatlar tashkiloti Xalqaro tinchlik yili deb e'lon qilgan edi.

Bu o'yinlarda mehmon sifatida XOQ Prezidenti Samaranch va ko'pgina milliy olimpiya qo'mitalarining prezidentlari ham ishtirok etishdi. O'yinlarni televideniya orqali to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatishni AQSH, Yaponiya, Braziliya, Gretsiya, Fransiya, GDR va boshqa davlatlar amalga oshirdi.

Musobaqalarda 6 ta jahon rekordi o'rnatildi. 28 mamlakat sportchilari oltin, kumush va bronza medallari sohibi bo'lishdi. Eng yuqori natijalarni S.Bubka, V.Salnikov (SSSR), E.Mozes va D.Joyner (AQSH), aka-uka Kastro (Portugaliya) va juda

ko‘p boshqa taniqli sportchilar ko‘rsatdilar.

Bu o‘yinlar yaxshi an’anaga aylandi. Ular keyinchalik ham 1990-yilda SIETL (AQSH), 1994-yilda Sankt-Peterburg (Rossiya), 1998-yilda Nyu-York (AQSH), 2004-yilda AQSH shaharlarida zo‘r tantanalar bilan o‘tkaziladi.

Mintaqaviy va boshqa o‘yinlar. Sport sohasida Xalqaro hamjamiyat so‘nggi 10 yillikda yangi musobaqa turlari bilan boyidi.

1981-yildan boshlab Olimpiada sport turi bo‘lmagan jahon o‘yinlari davom etdi. 1997-yilda Laxti (Finlyandiya) shahrida V o‘yin tashkil qilindi. VI o‘yin esa 2001-yil Yaponiyada o‘tkazildi. Shuningdek, har ikki yilda bir marotaba Arktika qishki o‘yinlarni tashkil etish ham an’anaga aylandi. U ilk bor 1975-yilda o‘tkazilgan edi.

1993-yildan boshlab Islom davlatlari xotin-qizlarining sport xayrxohligi o‘yinlari o‘tkazib borilmoqda. («Islom o‘yinlari»).

1994-yilda Islom davlatlari talabalarining birinchi o‘yini («Islom o‘yinlari») o‘tkazilgan. Unda yoshlar basketbol, voleybol, erkin kurash, futbol, stol tennisi bo‘yicha bellashganlar.

1995-yilning sentabridan boshlab (Rim) Umumjahon harbiylar o‘yinlari o‘tkazilmoqda. Uning dasturida 100 ga yaqin davlatlar ishtirok etmoqda.

Mintaqalardagi o‘yinlar yanada an’anaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika-Osiyo o‘yinlari, Hind okeani orollari o‘yinlari, Boltiq o‘yinlari, Yevropadagi kichik mamlakatlar o‘yinlari, O‘rta yer dengizi o‘yinlari, Yevropa o‘yinlari e’tiborga molikdir.

Butunjahon yoshlari o‘yinida 132 mamlakatdan 7000 sportchi ishtirok etdi. Unda sportning 15 turi dasturlashtirildi, ya’ni basketbol, voleybol, erkin kurash, grek-rim kurashi, gandbol, sport gimnastikasi va badiiy gimnastika, dzyu-do, yengil atletika, og‘ir atletika, suzish va suvda raqslar (sinxron suzish), tennis, stol tennisi, qilichbozlik, futbol bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi.

O‘yinlar Moskvaning sport inshootlarida bo‘lib o‘tdi. 43 mamlakat sportchilari faxriy shohsupaga ko‘tarildilar. Bir-

inchi o'nlikda Rossiya (123 medal), Ukraina (151), Xitoy (132), Polsha (25), Belorussiya (24), Gruziya (17), Braziliya (16), JAR (15), Italiya (15), Janubiy Koreya (13) mamlakatlari eng yaxshi jamoalar deb topildi.

Jahon jamoatchiligi diqqatida bu o'yinlar katta taassurotlar qoldirdi va XXI asrda ham bu an'analarning davom etishiga umid bildirdilar.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, har to'rt yilda bir marotaba o'tkaziladigan Osiyo o'yinlari boshqa qit'alar, hatto Xalqaro sport uyushmalari (XSU) hamda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ)ni diqqat-e'tiborini jalb etmoqda. Buning eng asosiy sabablaridan biri shundaki, Osiyo mintaqalaridagi deyarli barcha katta va kichik mamlakatlarda sport tez rivoj topmoqda. Shuningdek, mustaqil davlat sifatida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston 1994-yil Xirosimada o'tkazilgan XII, 1998-yil Bangkokda bo'lgan XIII, 2002-yildagi XIV, 2004-yilda Janubiy Koreya (Pusan) Osiyo o'yinlarida faol ishtirok etmoqda. Bu mamlakatlarning bokschilari, sharqona yakka kurash ustalari, yengil atletika va sport o'yinlari bo'yicha o'tkazilayotgan Osiyo birinchiliklari, Xalqaro turnirlar, o'zaro musobaqalashish va boshqa faoliyatlarda ularga raqobatchi, hatto ba'zi turlarda ulardan ustun ekanliklarini namoyish etmoqdalar.

O'zbekiston tennis, kurash va boshqa turlar bo'yicha o'zida xalqaro turnirlar o'tkazib, faqat Osiyo sportchilarinigina emas, hatto butun jahon sportchilarini ham taklif qilmoqda. Shu asosda o'zbek milliy kurashi (buxorocha usuli) jahon sportiga aylandi. 1999-yildan buyon har yili shu sport turi bo'yicha jahon birinchiligi (1999 y. Toshkent, 2000 y. Antaliya, 2001 y. Vengriya, 2002 y. Armaniston, 2005 y. Toshkent) o'tkazilmoqda. Bunday jarayonlar umumjahon jismoniy madaniyat va sport tarixini boyitishga xizmat qilishi muqarrardir.

9.5. Olimpiada kongresslari va hozirgi davr muammolari

Hozirgi davr olimpiada harakati va olimpiada o'yinlari katta qarama-qarshiliklar zamonida rivoj topmoqda. Davr taqozosi bilan olimpizm mavjudligi haqida XOQ rahbarlari davlat arboblari, ba'zi sport uyushmalari xodimlari har xil nazariyalar, dasturlar (konsepsiya) Olimpiya harakati va olimpiya o'yinlari, ulardagi tijorat ishlari, kelajakdagi o'yinlarni o'tkazadigan joylar haqida o'zlariga katta baho berishmoqda, turli bashoratlar qilishmoqda.

Olimpiya kongresslari, 1973 y. Varnada (Bolgariya) o'tkazilgan X Olimpiya kongressi olimpiya harakati muammolarini butunlay hal qilishga kirishdi. Uning kun tartibida: hozirgi davr olimpiya harakati va uning rivojlanish istiqbollari; XOQ, XSF va MOQning o'zaro munosabatlari, keyingi olimpiya o'yinlarining qiyofalari kabi masalalar muhokamaga qo'yildi. Kun tartibidagi masalalarning barchasini hal etisha olmagan bo'lsa-da, uch tomonlama (XOQ, MOQ va XSF) komissiya tuzildi. Shuningdek, kongress yakuni hujjatlari («Uch tomonlama komissiyaning xulosalari», «Jahonning barcha sportchilariga murojaat») olimpiya harakatining keyingi demokratlashishiga ancha turtki bo'ldi, kongress dunyodagi barcha sportchilarga murojaat qabul etib, ularni xalqaro tinchlik va do'stlikni mustahkamlash hamda Olimpiya harakatining sofligi yo'lida kurashishga chaqirdi.

Olimpiya harakatini yanada rivojlantirishda 1981-yilda Baden-Badenda (Germaniya) o'tkazilgan XI kongress muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda uchta masala muhokamaga qo'yildi: keyingi olimpiya o'yinlari; sportda xalqaro do'stlik aloqalari; olimpiya harakatining istiqbol yo'llari. Muhokama jarayonida keyingi olimpiya o'yinlarini o'tkazish masalasi munozaralar, bahslarga sabab bo'ldi, turli munosabatlar izhor etildi. Shuningdek, hozirgi davr olimpiya harakati xususida ham har xil fikrlar bildirildi.

Kongressda XOQning 82 a'zosi, XSFning 37 vakili va Milliy Olimpiya qo'mitalarining (MOQ) 149 vakili ishtirok etdi. Kongressda ilk bor 34 nafar olimpiya chempionlari ham

qatnashdi.

Kongress tomonidan yakunlovchi qaror (deklaratsiya) qabul qilinib, unda quyidagi jihatlar bayon etilgan edi:

– Olimpiya o'yinlarida «ochiq o'yinlar» uchun joy yo'q;

– Olimpiya o'yinlariga sportchilarni qo'yish tamoyillari («26-qoida» Olimpiya xartiyasi) saqlanib qolaveradi;

– Olimpiya (marosimlari) har doimgidek davom etadi;

– Olimpiya o'yinlarini turli mamlakatlarda o'tkazish amaliyoti davom ettiriladi;

– Olimpiya o'yinlarini tashkil qiluvchi qo'mita va XOQ, XSF, MOQlarining o'zaro munosabatlari yanada mustahkamlab boriladi;

– doping iste'mol qiluvchilarni yanada qattiqroq jazolash choralari ishlab chiqiladi;

– sportda kamsitish faoliyatlariga qarshi kurash davom ettiriladi;

– «Olimpiya birdamligi» dasturini bajarishda qatnashuvchilar sonini ko'paytirish, taraqqiy etayotgan mamlakatlarga ko'maklashish tadbirlari rejalashtiriladi;

– matbuot, teleradio orqali sport harakatidagi ijobiy jihatlarni ko'proq yoritish, yoshlarning sportga qiziqishini tarbiyalashga e'tibor berish;

– mamlakatlarning hukumatlaridan olimpiya harakatini rivojlantirishda ko'mak so'rash;

– Xotin-qizlarning sport harakatiga rahbarlik qilishlariga keng yo'l ochish;

XX asrda Olimpiya harakati rivojlanishi asosiy yakunlarini 1994-yil 29-avgust – 3-sentabrda Parijda o'tkaziladigan XII Olimpiya kongressi ko'rib chiqdi. Bunda 3000 kishi ishtirok etdi, ya'ni XOQ (101), XSF (132), MOQ (407), shuningdek, murabbiylar, sportchilar, olimlar, ommaviy axborot vositalari, davlat va nodavlat tashkilotlarining vakillari qatnashdi.

Kongressga X.A.Samaranch raislik qildi. Bunda to'rtta masala muhokama etilib, har biri bo'yicha tavsiyalar qabul qilindi, ya'ni:

1. Hozirgi (davr) Olimpiya harakatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qo'shayotgan ulushlari (hissalari).

2. Jamiyatda sportchining o'rni va roli.

3. Sport ijtimoiy hayotda (sport va siyosat, sport va iqtisod, sport barcha uchun, taraqqiy etayotgan mamlakatlarda sport).

4. Sport va ommaviy axborot vositalari.

Kongressdagi mulohazalar, muzokaralarda XX asr davomida sportchilar mahoratini oshirish, yoshlarni tarbiyalashda olimpiya harakati, olimpiya o'yinlari g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi ta'kidlangan.

Katta sportda sportchilarni tayyorlashda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari, zamonaviy uskunalardan keng foydalanish zarurligi alohida qayd etildi.

Sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va iqtisodiy salohiyati tobora oshib borayotganligi tufayli davlat rahbarlariga uni tobora rivojlantirishda yordam ko'rsatib turishlari, tavsiya etildi. Jismoniy tarbiya va sportning mohiyati, olimpiya g'oyalarining ahamiyati o'sib borayotganligini e'tiborga olgan holda, matbuot, teleradio faoliyatlarini maqsadli yo'naltirish ham taklif etildi.

Hozirgi zamon xalqaro sport va olimpiya harakatida XII Kongressdan keyin ham qator jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligi ma'lum bo'ldi. Ulardan biri dopingdan foydalanish, 2-si Olimpiya o'yinlari va boshqa musobaqalarda hakamlikdagi odillik masalasi edi.

Hozirgi davrda sport natijalarining o'sishi tufayli sportchilarni tayyorlashda ma'lum qiyinchiliklar vujudga kelmoqda. Shu sababdan, ba'zi bir murabbiylar sportchilar faoliyatini sun'iy ravishda (doping asosida) kuchaytirmoqda. Olimpiya o'yinlarining yaxshi an'analarini saqlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotganlar bu yo'lda qattiq kurashlar olib bormoqda.

Turli xil moddalarni qabul qilish sportchilar salomatligiga putur yetkazadi, o'zaro munosabat, do'stlik va hamkorliklarga barham beradi. Shu sababdan, 1962-yil Moskvada bo'lib o'tgan XOQ sessiyasida maxsus rezolutsiya qabul qilin-

gan, unda dopinga qarshi kurashda faol ishlash zarurligi uqdirilgan edi. Shunga qaramasdan, bu nuqson kamayish o'rniga tobora kengaymoqda. 1970–2005-yillar orasida har xil sport turlarida o'nlab jiddiy, hatto fojiaviy hodisalar hisobga olingan. IX Panamerika mintaqaviy o'yinlarda AQSHning 13 ta yengil atletikachisi doping ishlatganligi uchun o'yinlardan chetlashtirilgan.

XII Osiyo o'yinlarida (Xirosima, 1994) 11 ta xitoy sportchisi (qizlar ham) man etilgan gormonal preparatlarni ishlatganligi uchun musobaqalardan ozod qilingan. Shu sababdan, XOQ tomonidan so'nggi olimpiya o'yinlarida dopinga qarshi xizmat komissiyalari tuzildi. Xalqaro sportda doping ishlatish hollarining ko'payishi sababli XOQ 1999-yil 2–4-fevralda Xalqaro konferensiyada buni maxsus masala qilib ko'tarib chiqdi. Sportda bellashuvlarning halol, odilona bo'lishini ta'minlashda hakamlik omili ancha ustuvor turadi. XOQ xartiyasi va XSFlarning nizomlarida hakamlarning haqqoniy, adolatli bo'lishi alohida ta'kidlangan. Shunga qaramasdan, olimpiya o'yinlari xalqaro sport musobaqalari va ular bilan aloqador faoliyatlarda hakamlar, tashkilotchi rahbarlar orasida g'irromlik, vijdonsizlik, hatto sotqinlik holatlari ko'p uchramoqda. Ularni butunlay yo'q qilish yo'lida mutaxassislar, axborot vositalari izchil kurash olib bormoqda.

Konkida figurali uchish, badiiy va sport gimnastikasi, boks, kurash, sport o'yinlarida natijalar bir yoki bir necha hakamlarning subyektiv fikrlari bilangina baholanadi. Bunday holatlarda ko'pincha chalkashlik yuz beradi yoki ataylab tarafkashlik qilish kuzatiladi. Bu holatlar maxsus yig'ilishlarda ko'rib chiqiladi va nohaq hakamlar jazolanadi. Shu sababdan, hakamlik muammolari ilmiy-texnik jihatdan o'rganilib, eng zamonaviy texnik vositalardan foydalanishga o'tilmoqda. Ularning dalillari esa hakamlar hay'ati va nazorat qo'mitalarining ko'z oldida qayta namoyish etiladi. Bu o'rinda futbol o'yinidagi jiddiy harakatlarni video tasvirga olish va qayta ko'rsatishni misol tariqasida keltirishning o'zi kifoyadir.

Olimpiya harakatida o'yinlar dasturi masalasi qattiq kurashlarga sabab bo'lmoqda. Sportning u yoki bu turini kamaytirish yoki ko'paytirishga qaratilgan harakatlar o'yinlarning to'xtatilishi darajasigacha olib borishi mumkin. Shu sababdan, sport turlari hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotiga mos kelishi lozim. O'yinlar ilmiy-texnika taraqqiyoti, umumiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini hisobga olmog'i, sportning kurashchanlik, go'zallik, hamjamiyatlik, do'stona muhitini yaratish tamoyillariga tayanishi shartdir.

Hozirgi davr muammolaridan biri, XOQ, MOQ, XSF faoliyatlarini muvofiqlashtirib turishdan iborat. Keyingi olimpiya o'yinlarining talab darajasi tashkil qilinishi shunga bog'liq bo'lib qolmoqda.

MOQ hukumat tashkilotlari bilan, XOQ esa YuNESKO va BMT bilan uzviy aloqada ish olib bormog'i kerak.

XX asr oxirida jahonda yuzaga kelgan tub o'zgarishlar xalqaro sport va olimpiya harakatida yo'nalishlari, tamoyillari va me'yorlarning qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda. Bu holatlar ijodkorlik g'oyalarini siyosiy va sport harakatida qo'llashni talab etadi.

Olimpiya xartiyasi, XSU va SIYEPS nizomlarida umuminsoniylik, axloq, olijanoblik tamoyillari va me'yorlari o'z ifodasini topmog'i kerak. Buning uchun hozirgi zamon olimpiya sporti modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozircha bu model kommersiya va u bilan bog'liq jarayonlarga asoslanmoqda. Bu esa ayrim sportchilarni g'alaba uchun kurashda hech qanday yo'ldan qaytmaslikka, hatto olimpiya o'yinlarining yuksak g'oyalariga zid harakat qilishga ham undayapti.

Xalqaro Olimpiya harakati sportga tijorat ishi sifatida ortiqcha qarash tufayli ko'p zarar ko'rmoqda. Olimpiya o'yinlari chog'ida ba'zi firmalar o'z mahsulotlarini namoyish qilish, sotishni (yarmarka) tashkil etayaptilar, bu yirik sport tadbiri ishbilarmon va tijoratchilarning foydasiga xizmat qilishi mumkinligi xavfi tug'ilmoqda.

Kommersiya faoliyati olimpiya o'yinlarining insonparvarlik va tarbiyaviy qiymatini yo'qotish va hatto Olimpiya hara-

katini buzishgacha olib borishi mumkin.

Bu jihatlar XOQning ba'zi a'zolari ichida ham mavjudligi tabiiydir. Ular korrupsiya (poraxo'rlik) bilan shug'ullanadilar. Navbatdagi olimpiya o'yini shahrini tanlash, turli mahsulotlarni namoyish qiluvchi firmalar, tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, o'yinlarda yuqori o'rinlarga chiqish va h.k. uchun xizmat qilishlari mumkin. Bu sohalarda millionlab dollarlar «oyoqqa» turadi.

1998-yil dekabrida 80 yoshli M.Xodler XOQ a'zosi, Qishki sport turlari xalqaro assotsiatsiyasining prezidenti, o'tmishda XOQ vitseprezidenti sifatida XOQning ba'zi a'zolarini poraxo'rlikda aybladi. Bunda 1998-yilda Solt-Leyk-Siti shahrining 2002-yil Olimpiya o'yinlari joyi qilib tanlanishi va shuningdek, o'tgan Olimpiya o'yinlari shaharlari Atlanta va Naganoni tanlashda ham qo'yilgan xatolar dalil qilib ko'rsatildi.

XOQning maxsus komissiyasi Prezident X.A.Samaranch taklifi bilan buni o'rganib chiqdi va dalillar tasdiqlandi.

1999-yil 17–18-martda Lozannada favqulodda 108-sessiya chaqirildi. Unda X.A.Samaranch taklifi bilan komissiya xulosalari muhokama etildi. Ba'zi a'zolar XOQ tarkibidan o'chirildi, ba'zilarga qattiq hayfsan e'lon qilindi.

Bu sessiyaning qarori keyingi olimpiya o'yinlarini o'tkazish, xalqaro olimpiya harakatini boshqarishda o'rnak bo'lishiga ishonch bildirildi.

2000-yil kuzida XOQ prezidenti X.A.Samaranchning lavozimdagi muddati tugadi. Lekin Sidneyda (Avstraliya) bo'ladigan XXVI Olimpiya o'yinlarini o'tkazish va uni yakunlashgacha u o'z lavozimida faoliyat ko'rsatdi. X.A.Samaranch yoshi 80 dan oshganligi tufayli iste'foga chiqishini ma'lum qildi. 20 yildan (1980–2000 y.) ortiq davr mobaynida u XOQ Prezidenti sifatida xalqaro sport va olimpiya harakatining rivojlanishi yo'lida katta mehnat qildi. Buni sport olamining yetakchi va rahbar xodimlari tan olishdi. 2001-yil 13-iyulda Moskvada XOQning 112-sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada asosan navbatdagi (2008 y.) o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlari shahrini belgilash va yangi prezidentni

saylash kabi masalalar muhokama etildi.

Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga nomzod bo'lgan shaharlar anchagina edi. Ovozga Osaka, Parij, Istambul, Pekin va Toronto shaharlari qo'yildi. Natijada, Pekin ko'pchilik ovoz olib, XXIX Olimpiya o'yinlarini qabul qiladigan bo'ldi.

Yangi prezident lavozimiga amerikalik huquqshunos ayol Anita Dafranta, koreyalik diplomat Kim Yong Un, kanadalik iqtisodchi Richard Padid, vengriyalik sobiq qilichboz Pal Shmit va belgiyalik shifokor Jak Rogg nomzodlik qilishgan edi. Ovoz berish ikki bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqichda Amerika vakili nomzodi tushib qoldi. Ikkinchi bosqichda esa belgiyalik 59 yoshli shifokor Jak Rogg ko'p ovoz olib, barcha nomzodlar ustidan g'olib chiqdi. «Sport» gazetasining (№ 56–57-son 2001 y. 18-iyul, O'zbekiston) ma'lumotlariga qaraganda, Jak Rogg 1942-yil 2-may kuni Gent shahrida tug'ilgan. U tibbiyot fanlari doktori, jarroh; ingliz, fransuz, nemis, golland va ispan tillarida gaplasha oladi. Regbi va yelkanli kema sporti bilan shug'ullangan. Yelkanli kema sporti bo'yicha 6 marta Belgiya chempioni, uch bor olimpiada (1968, 1972, 1976-yillar) o'yinlari ishtirokchisi. U Yevropa Olimpiya qo'mitasi Prezidenti (1989 y.) Insbruk, Kalgarida o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari missiyasi rahbari, Moskva (1980), Los-Anjeles (1984) va Seul (1988) olimpiadalari missiyasi rahbari bo'lgan. Dopingga qarshi Butunjahon Ittifoq agentligi (ADA) a'zosi, 1991-yildan XOQ a'zosi, olimpiada harakati, dasturi va komissiyasi a'zosi. XXVII va XXVIII Olimpiada o'yinlarini muvofiqlashtirish komissiyasining rahbari bo'lgan.

Xulosa shundan iboratki, XX asrning ikkinchi yarmida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari, kongresslari va turli sport tadbirlari Olimpiya harakatini rivojlantirishi hamda uni davr talablari asosida demokratlashtirish yo'llari ancha ijobiy bo'ldi. Bunda XOQ prezidenti X.A.Samaranch, Xalqaro sport uyushmalari rahbarlari, eng muhimi Olimpiya o'yinlarini o'tkazuvchi mamlakatlarning hamkorliklari ancha kuchaydi. Hozirgi davr sport muammolarini hal etishda jahon jamoatchiligi birdamligi yuzaga keldi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi olimpiya va xalqaro sport harakatidagi o‘zgarishlar nimadan iborat?
2. «Olimpizm», «Olimpiya harakati», «Olimpiya o‘yinlari»ni izohlang.
3. Olimpiya o‘yinlaridagi kuchlarning o‘zgarish sabablari nimada?
4. XXII Olimpiya o‘yinlarning ahamiyati?
5. X–XII Olimpiya kongresslarining asosiy natijalari nima berdi?
6. «Do‘stlik-84» va «Yaxshi niyat o‘yinlari (Igri dobroy voli)» musobaqalarining ahamiyati?
7. XOQ va uning prezidentlari Olimpiya harakati rivojiga qanday hissa qo‘shdi?
8. Hozirgi davr olimpiya harakati muammolari nimadan iborat?
9. XOQning 8-Prezidenti kim va u qachon saylandi?
10. 2008–2012-yil.da Olimpiya o‘yinlari qayerda o‘tadi?

Umumjahon jismoniy tarbiya va sport tarixi haqidagi eng muhim voqealar

Yangi eragacha bo‘lgan 40–25 minginchi yillar.	Mehnat jarayonidagi jismoniy mashqlar va o‘yinlarning inson faoliyatida mustaqil ravishda qo‘llanilishi.
Yangi eradan oldingi XII–VI ming yillik.	Kamon (yoy) va nayzaning (o‘q) ixtiro etilishi, kamondan o‘q otishning vujudga kelishi.
Yangi eradan oldingi IV–III ming yillik.	Shimoliy mintaqa xalqlarida chang‘ida yurish (ov)ning boshlanishi.
Yangi eradan avvalgi II–I minginchi yillar.	Misr hududidagi Bani-Xassanda olib borilgan qazilma ishlari natijasida turli mashqlar va o‘yinlarning qo‘llanishi haqi-

	dagi ma'lumotlar.
Eradan oldingi XII–VIII asrlar.	Gomeming «Iliada» va «Odesseya» asarlarida ifoda etilgan mashqlar o'yinlar va musobaqalarning qo'llanilishi.
Eradan oldingi 1-ming yillik.	Kavkaz va boshqa hududlarda jismoniy mashqlar, o'yinlarning mavjudligi haqidagi xabarlar.
Eradan avvalgi 776 y.	Qadimgi Gretsiyaning Olimpiya o'yinlari o'tkazilishi.
Eradan avvalgi VI–IV asrlar.	Olimpiya o'yinlarining ravnaq topishi.
Eradan oldingi 264 y.	Qadimgi Rimda gladiatorlar jangi.
394 y. (yangi era) 404 y.	Qadimgi yunon Olimpiya o'yinlarining to'xtatilishi.
VI–VIII asrlar.	Sharqiy slavyanlarda jismoniy tarbiya elementlarining shakllanishi.
IX–XII asrlarda.	G'arbiy Yevropada qilichbozlik va o'q otish uyushmalarining vujudga kelishi.
XV–XVI asrlarda.	Gumanistlar va ilk sotsial-utopistlarning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlari.
XVIII–XIX asrlarda.	G'arb va Sharq mamlakatlarida jismoniy tarbiya, o'yinlar, gimnastika va sport haqidagi ta'lim tizimlarining paydo bo'lishi.
1863 y.	Angliya futbol ligasining tashkil etilishi.
1863–1937-yillar.	Pyer de Kuberten, XOQ prezidenti (1896–1925).
1894	Xalqaro Olimpiya qo'mitasining (XOQ) tashkil etilishi.
1896	I Olimpiya o'yinlarining tash-

	kil etilishi, Afina. O'yinlar har 4-yilda bir marta o'tkaziladi. Urushlar tufayli 1920, 1940, 1944-yillar Olimpiya o'yinlari o'tkazilmagan
1904	Xalqaro futbol federatsiyasining (FIFA) tashkil etilishi.
1912	Kubertenning «Oda sporti» poemasining yaratilishi.
1931–1934	«Mehnat va mudofaaga tayyor» (GTO) majmuining joriy etilishi.
1951	Sobiq SSSR Milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil Xelsinkida o'tkazilgan XV Olimpiya o'yinlari sobiq SSSRning birinchi marotaba qatnashishi.
	Sobiq SSSR xalqlarining I Spartakiadasi.
	Sobiq SSSR xalqlarining II Spartakiadasi.
	Sobiq SSSR xalqlarining III Spartakiadasi.
	Sobiq SSSR xalqlarining IV-yubiley spartakiadasi
(1917–1967).	Sobiq SSSR xalqlarining V Spartakiadasi.
	Sobiq SSSR xalqlarining VI Spartakiadasi.
	Sobiq SSSR xalqlarining VII Spartakiadasi.
1980	XXII Olimpiya o'yinlarining Moskvada o'tkazilishi. Sobiq SSSR xalqlarining VIII Spartakiadasi. Sobiq SSSR xalqlarining IX Spartakiadasi. Sobiq SSSR xalqlarining X, so'nggi Spartakiadasi.

1992	Barselona (Ispaniya)da XXV Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi. Parijda XII Olimpiya Kongressining o'tishi.
1996	Atlanta (AQSH) XXVI Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi.
1998	Nyu-Yurkda IV-«Yaxshi niyat o'yinlari» o'tkazilishi. Moskvada jahon yoshlar o'yinining tashkil etilishi
2000	Sidneyda (Avstraliya) XXVII Olimpiya o'yinlarining tashkil qilinishi.
2001	Jak Rogg (Belgiya) XOQning yangi 8-prezidenti etib saylanishi.
2002 31-may 30-iyun.	Tokio (Yaponiya) va Seul (Janubiy Koreya)da futbol bo'yicha jahon chempionatining o'tkazilishi.
2004 y. iyul-avgust	Afmada (Gretsiya) Olimpiya o'yinlarning dastlabki (1896 ochilishi va 100 yil to'lishi bag'ishlab Xalqaro anjuman hamda XXVII Olimpiya o'yinlari o'tkazildi.

UCHINCHI BO'LIM. O'ZBEKISTONDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT TARAQQIYOTI TARIXI

X bob. UZOQ VA YAQIN O'TMISHDAGI AJDOD HAMDA AVLODLARIMIZNING JISMONIY MADANIYATI TARIXIGA OID SHARHLAR

10.1. Eng qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati haqidagi manbalar

Hozirgi O'zbekistonning hududlari va unga yaqin bo'lgan qo'shni mamlakatlarning (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston va h.k.) deyarli ko'p joylarida istiqomat qilgan qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmushi, ayniqsa, turli marosimlar, an'analar, bayram-sayllarni o'tkazishda kurash, ot o'yinlari, dorboz, harakatli o'yinlardan keng foydalanganlar. Ular haqida «O'zbekiston xalqlari tarixi», «O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi» va boshqa ko'pgina darsliklar, monografiyalar, ilmiy tadqiqotlarning natijalarida batafsil bayon qilingan. Bu yilda sobiq Ittifoq davrida atoqli arxeolog olim Ya.G'ulomov, tarixchi-matematik akademik Qori-Niyoziy va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir.

E'tirof etish lozimki, ibtidoiy jamoa tuzumi va keyingi davrlarda jismoniy tarbiyaning vujudga kelish jarayonlarini N.I.Ponomaryev, V.V.Stolbov (sobiq SSSR) kabi iqtidorli rus olimlari izchil o'rganishlari natijasida qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratishdi. Ularning mazmunida oz bo'lsa-da, yurtimiz hududlarida yashagan qadimgi kishilarning jismoniy tarbiyasi tilga olinganligi ham e'tiborga loyiqdir.

Qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida jismoniy tarbiya vositalarining (turli o'yinlar, otda

yurish, kurash, nayza uloqtirish va h.k.) qo'llanilishi haqida «Avesto», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Qirqqiz», shohnoma; «Manas», «To'maris afsonasi» kabi tarixiy manbalar hamda xalq og'zaki ijodi guvohlik beradi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning tarkib topishi va ijtimoiy tuzumlar asosida uning rivojlanishiga doir mukammal ishlangan o'quv qo'llanmalar darslik deyarli yo'q.

R.Ismoilov va Yu.Sholomitskiy ilk bor (1968 y.) «O'zbekistonda fizkultura tarixi» o'quv qo'llanmani yaratgan. Unda qadimgi ajdodlarimizning jismoniy tarbiyasi haqida jiddiy ma'lumotlar uchramaydi. X.A.Botirov (1993 y.) va A.K.Akramovlarning (1997 y.) «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» ommabop va o'quv qo'llanmalarida ham ajdodlarimiz jismoniy madaniyati hamda tarbiyasi to'laqonlik bilan mazmun topmagan. R.Abdumalikov, J.E.Eshnazarovlarning «Ajdodlar jismoniy madaniyati tarixini o'rganish masalalari» (1993 y.) o'quv qo'llanmasida ham asosan xalq og'zaki ijodi durdonalari, tarixiy muzeylardagi ashyolar, Rossiya olimlarining tadqiqotlari natijalaridagi ba'zi ma'lumotlarga tayangan holda mazkur muammoga ozroq bo'lsa-da, oydinlik kiritilgan.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida yashagan eng qadimgi ajdod va avlodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmushi haqida ma'lumotlarga oid doimiy ashyolar ko'p uchraydi. Ularning eng muhimlari Toshkent, Samarqand, Termiz va boshqa shaharlardagi tarix, arxeologiya va san'at muzeylarida saqlanib kelinmoqda.

Ajdodlarimizning ijtimoiy hayotida turli xil jismoniy mashqlar, o'yinlar ko'p qo'llanilgan. Ular asosan ijtimoiy mehnat va tarbiya jarayonida keng qo'llanilgan.

Rasmiy manbalarga qaraganda mamlakatimizda yashab, hayot kechirgan ilk ajdodlarimiz bundan 40 ming yillar avvalgi davrga to'g'ri keladi. Ular haqidagi ma'lumotlar Samarqand shahrining janubidagi tog'lar orasidagi Omonqo'ton g'ori (1940 y.y.da ochilgan). Surxondaryoning Dalvarzin tepa, Teshik tosh, Afrosiyob (Samarqand), Toshkent viloyatining Sirdaryo sohillari va boshqa joylarda

o'tkazilgan arxeologik topilmalar guvohlik beradi.

Qurama tizma tog'lari (Toshkent viloyati), Nurota, Turkiston, Hisor tizma tog'lari oraliqlaridagi yassi va silliq toshlarga chizilgan tasvirlarda (rasmlar) kishilarning ov qilishdagi shakl va harakatlari, ov qurollari, hayvonlar aks ettirilib, ularning tarixi ham bir necha o'n ming yillik davrlarni o'z ichiga oladi. Lekin afsuski, ular jismoniy madaniyat mutaxassislari tomonidan ilmiy-nazariy va pedagogik va tarixiy jihatdan izchil o'rganilmagan. Professor Yu.S.Sholomitskiy rahbarligida o'tkazilgan ba'zi bir tadqiqotchilar (J.T.Toshpo'latov, Termiz, 1978, S.V.Faxriddinova, Toshkent, 1978, J.E.Eshnazarov, Samarqand, 1978) ajdodlarimiz jismoniy madaniyati haqida mulohazalar bildirishgan. H.A.Botirov (Buxoro, 1993), A.K.Akramov (Toshkent, 1997) va yana bir qator tadqiqotchilar, yosh ijodkorlar ham o'zlarining o'quv-uslubiy qo'llanmalarida qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyatini tilga olishgan. Ular ham umumiy tushunchalardan boshqa yangi ma'lumotlar berish, dalilliy ashyolarni sharxlash bo'yicha jiddiy harakat qilishmagan.

Kelajakda yosh ijodkorlar bu muammolarga alohida e'tibor berishlari, ayniqsa, milliy kurashlarimiz, ko'pkari-uloq otda poyga va xalq milliy harakatli o'yinlarining kelib chiqish sabablari, davrlari va ularning rivojlanish tarixini astoydil izlanishlar asosida o'rganishlari lozim bo'ladi. Zero, milliy o'yinlarimiz xuddi o'zbek kurashi kabi jahon yuzini ko'rsa, ularning ijtimoiy-tarbiyaviy mohiyatlari jahon xalqlari orasida keng tarqalsa ajab emas. Bu, o'z navbatida, barcha xalqlarning o'zaro madaniy aloqalari, hamdo'stligi, tinch-totuv yashashlarini ta'minlashi mumkin.

«Xalq so'zi», «O'zbekiston ovozi», «Turkiston», «Sport» va boshqa gazetalar hamda turli jurnallardagi ulug' sanalar, eng muhim an'analar haqidagi lavhalar, maqolalarni tahlil qilish, turli muammolarga bag'ishlab o'tkazilgan respublika xalqaro anjumanlarning materiallarini o'rganish asosida ajdodlar jismoniy madaniyatidan ba'zi bir ma'lumotlar havola etildi.

Ayniqsa, taniqli olimlar U.Qoraboyev (falsafa-madaniyat), M.Murodov (adabiyot-tarix), I.Abdurahmonov (san'at-madaniyat) va b.q.ning monografiyalari, o'quv-uslubiy qo'llanmalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ajdodlar jismoniy madaniyati milliy qadriyatlarimiz mezonidir. Bu uzoq davrlar davomida shakllanib va rivojlanib hozirgi kunda ular davr taqozosi bilan kengayib boyib borayotgan ijtimoiy-madaniy va pedagogik jarayonga aylanmoqda.

Jahonda buyuk tarixiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu yo'lda O'zbekiston mustaqil davlat maqomini o'z qo'liga kiritdi. Shu sababdan, mamlakatimiz jahondagi buyuk va eng taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya va h.k.) bilan yelkama-yelka bo'lib faoliyat ko'rsatmoqda. Shular qatorida Arab mamlakatlari, Hindiston, Yevropa va boshqa mintaqalardagi davlatlar bilan ham madaniy aloqalarni kuchaytirmoqda.

Ta'kidlash lozimki, dunyodagi juda ko'p mamlakatlar hozirgi O'zbekiston va uning tarixiy o'tmishini yaxshi bilishadi va yanada chuqurroq o'rganish maqsadida ularning rasmiy vakillari yurtimizga tez-tez tashrif buyurishmoqda. Bu jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va boshqa rasmiy rahbarlar hamda mutaxassislarning 1991–2000-yillarda chet ellarga qilgan rasmiy safarlarida, ayniqsa, ko'proq namoyon bo'ldi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq I.A.Karimov hozirgi davrga yuqori baho bergan edi, ya'ni: «Hozir bizning jamiyatimiz tarixiy chorrahada turibdi. Respublikani milliy-davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishimiz zarur. «Hozir yashab turganlarning taqdirinigina emas, balki ularning farzandlari, nevaralarining ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog'liq bo'ladi».[1]

Aytish lozimki, milliy madaniyat taraqqiyotida O'zbekiston dunyo davlatlari, hatto butun Markaziy Osiyo

[1] Karimov I.A. «O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», T., «O'zbekiston», 1992, 8-bet.

mamlakatlari orasida o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

O'zbekiston o'zining geografik va tabiat qulayliklariga ko'ra qadimdan insoniyat tarixining ilg'or madaniy xo'jalik markazlaridan joy olib kelgan.

Tarixchilar va mutaxassis olimlarning ta'kidlashiga qaraganda qadimgi yunon va sharq manbalarida, xususan, «Avesto», «Alpomish», «Shohnoma; Go'ro'g'li» va boshqa manbalarda madaniyat o'choqlari (markazlar) sifatida Sug'diyona o'lkasi, Xorazm, Choch va Parkana viloyatlari hamda Baqtriya podsholigining katta qismi aynan respublikamiz mintaqalariga to'g'ri keladi.

«Afrosiyob muzeyi»dagi (Samarqand) saqlanayotgan changda ishlangan rangli tasvirlar shohona saroylar, qadimgi buyuk ipak yo'li (VIII asr), Quva ibodatxonasi (VII asr); Bolaliktepa va Varaxshadan topilgan bebaho tasviriy san'at obidalari (o'ymakorlik, haykaltaroshlik va h.k. VI—VII asrlar) jahon madaniyati xazinasiga durdona bo'lib kirdi. Bu esa o'zbek diyorini jahonning qadimiy madaniyat markazlaridan biri sifatida olamga tanitdi.[1]

O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi juda ko'p manbalarda o'z ifodasini topgan. Ularning mazmunida umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy madaniyat bilan bog'liq ba'zi bir dalillar, ashyolar bayon etilganligi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

E'tirof etish kerakki, boshqa maqsad va niyatlar bilan Rossiyadan yurtimizga kelgan olimlar, generallarning tadqiqotlarida o'rganilishi lozim bo'lgan bir qator dalillar bayon etilgan. Ular o'tmish tariximizni o'rganish va hozirgi davr g'oyalari asosida tahlil qilishga muhim omil bo'la oladi.

Ilmiy ekspeditsiyalar, arxeologik qazishlar va boshqa faoliyatlarda rus olimlari V.V.Bartold, Ya.Yu.Yakubovskiy, V.E.Bertele, O.P.Tolstov, V.V.Grigoryev, I.M.Umnikov, Z.D.Kastelskaya, V.A.Vyatkin, A.Shishkin kabilar juda ko'p ilmiy meroslar qoldirgan. Keyinchalik ularni o'zbek olimlari Ya.G'.G'ulomov (arxeolog) I.Mo'minov (falsafa), Qori-

[1] Asqarov A., Izlanish davom etadi. «Sovet O'zbekistoni» gazetasi, 1979 y., 11-avgust soni.

Niyoziy (tarix, matematika), B.Axmedov (tarix) A.Asqarov, G.A.Hidoyatov (tarix) kabi ularning tadqiqotlarini rivojlantirdi. Ularning monografiyalari, ilmiy asarlari, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalarida qadimgi avlodlarimiz madaniyati keng yoritildi.

Ularning asoslab berishicha ajdodlar madaniyati va taraqqiyot jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish bilan chambarchas bog'lanib kelgan. Bu esa insonlarning madaniy turmush sharoiti, jismoniy madaniyati ham rivojlanib borganligini tasdiqlaydi. Shunga asosan ajdodlarimizning jismoniy madaniyatini va uning rivojlanish tarixini turli ijtimoiy tuzumlar davridagi madaniyat, ma'rifat, tarixiy voqealar, urf-odatlar, an'analardan alohida ajratib o'rganish qiyindir. Ajdodlar ijtimoiy-madaniy turmush sharoiti, ma'lum davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va b.q. faoliyatlari tarkibiga kirib ketgan jismoniy madaniyat jarayonlarini hozirgi davr talablari asosida o'tmishga bog'lab o'rganish, uni o'qitish hamda yoshlarga singdirish maqsadga muvofiqdir.

O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, sobiq Ittifoq davrida Markazda (Moskva) tayyorlangan va uzoq vaqtlar amalda qo'llanilib kelingan darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarda O'zbekistonning qadimgi xalqlari jismoniy madaniyat tarixi deyarlik tilga olinmagan. Faqat Abu Ali ibn Sinoni eslatar ekan, uni ham sharq mutafakkiri deb umumiy ravishda bayon etilgan edi.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli, o'tmish tariximizni qayta o'rganish, unga haqiqiy baho berishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu asosda o'tmish tariximizdagi jismoniy madaniyat va uning rivojlanishidagi bosh sabablardan ba'zi bir tomonlarini esga olish zarurdir. Buning uchun O'zbekiston xalqlari tarixi (eski nashrdagi tomlar), O'zbekistonning yangi tarixi (uch qism), ba'zi tadqiqot natijalari hamda muzeylardagi daliliy ashyolarga bevosita murojaat qilish kerak bo'ladi. Rasmiy manbalarga qaraganda bundan 150—140 ming yil (o'rta paleolit) Muz davrida muzlanish keng tarqalgan. Odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar. Toshlardan qurol yasashni

takomillashtirib, yirik hayvonlarni va baliq ovlashga kirishgan. O‘t chiqarish vositalarini ixtiro qilib, yashash uchun g‘or, yer to‘la, chayla, kapa va boshqa boshpanalardan foydalanishgan. Bu jarayonlar esa tabiiyki, barchaning jismonan baquvvat, epchil, kuchli, chaqqon bo‘lishini talab etgan.

Ilmiy tadqiqotlarning guvoh berishicha, Teshiktosh (Surxondaryo), Omonqo‘ton, Afrosiyob (Samarqand), Alisher Navoiy nomidagi Milliy istirohat bog‘i (Toshkent, sobiq Komsomol ko‘li), Xo‘jakent, Obirahmat (Toshkent viloyati), Farg‘ona shahri atrofidagi qal’ada (So‘x daryosi bo‘yidagi makonlar) va boshqa joylarda topilgan va muz davriga mansub bo‘lgan yodgorliklar, turli ashyoviy dalillar o‘rganilgan.[1] Tadqiqotlarning natijalariga qaraganda yuqorida nomlari qayd qilingan hududlarda odamlar turli qurollardan hayvonlarni ov qilish uchun foydalanishgan. Jismoniy chiniqish va o‘ljani qo‘lga kiritish uchun turli murakkab harakatlarni (yugurish, olishish, uloqtirish, sakrash, himoya qilish va hokazo) bajarishga to‘g‘ri kelgan. O‘z navbatida, bolalarni ham bunday faoliyatlarga tayyorlaganlar. Natijada, hozirgi zamon jismoniy tarbiyasining ayrim namunalari (sakrash, yugurish, kurashish, uloqtirish, suzish va h.k) yuzaga kela boshlagan.

Yuqori Paleolit davri miloddan oldingi 40 ming yillikdan keyingi 12 ming yillikka qadar davom etadi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Qozog‘istonda iqlim quruq, o‘zgarib turuvchi bo‘lgan. Sovuq iqlim sharoitida yashagan hayvonlar—serjun karkidonlar, yovvoyi otlar, kiyiklar va boshqalar paydo bo‘lgan.

Poda-poda bo‘lib yashaydigan hayvonlarni ovlashga ixtisoslashuv o‘sha davr odamlarining yashash manbalariga aylangan. Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi oqimidagi qator ko‘llarda baliq ovi bilan shug‘ullanish, ularning o‘troq holda yashashiga sabab bo‘lgan.

Markaziy Osiyoning nihoyatda boy ovchi va baliqchi jamoalari yodgorliklari ichida Markaziy Farg‘onaning neolit

---

[1] Омонжулов Т., «Мастерские памятники Ташкентского оазиса», автореферат дис. на соис. уч. степ. канд. истор. наук, Ленинград, 1984 год.

yodgorliklari (Zambar, Taynoq, Yangiqadam, Madiyor, Sariqsuv Ming buloq) kabilar ajralib turadi.[1]

Ibtidoiy podadan yuqori paleolitga o'tilishi bilan ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasida o'zgarishlar paydo bo'lgan. Bu davrga kelib, mehnat qurollari ancha takomillashgan, suyak va shoxdan yasalgan buyumlar; igna, bigiz, qarmoq, kamon o'qi va har xil bezaklar shakllangan. Tosh va suyaklarni parmalaganlar. Toshlarga, sopol idishlarga odamlar, hayvonlarni rasmini chizganlar. So'nggi poleolit davrining yutuqlaridan biri— nayzaning ixtiro qilinishi bo'ldi. Nayza tufayli ovchilik rivojlandi, tirik hayvonlarni birgalashib ovlash keng ahamiyat kasb etadi.[2]

Ma'lumki nayzani ushlash tartiblari, uni mo'ljalga olib, uzoqqa otish (uloqtirish) qulay hamda oson emas. Uning texnik qoidalari, uslublari bo'ladi. Shuningdek, yetarli darajada chaqqonlik va chidamlilikni talab etadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu natijalarga erishish uchun maxsus tayyorgarliklar, ularni o'rgatuvchilar, tarbiyachilar bo'lgan.

Hayvonlarni birgalashib tutish, ularni quvib yetish ham oson emas. Shu sababdan, oilalarda bolalarni maxsus tayyorgarlik ishlarini ko'rishgan va jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlari olib borilgan.

Oilada bolalarni tarbiyalashda tabiiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, suvda suzish va h.k.) va turli harakatli o'yinlar eng asosiy vosita va amallardan biri bo'lib xizmat qilgan. Bolalarning yoshi, jismoniy rivojlanish holatlarini hisobga olgan holda, ularni guruhlarga ajratib o'ynatish o'sha davrlardayoq ma'lum maqsad yo'lida vujudga kelgan. Masalan: kichik yoshdagi bolalarga «Mushuk va sichqon», «Qushlar pirr etib uchdi», «G'ozlar va o'rdaklar» kabi o'yinlarni o'rgatish boshlangan. O'rta yoshdagi bolalarga «Kalxat keldi», «Xo'rozlar jangi», «Kim chaqqon» kabi o'yinlar, estafetalar, to'siqli yugurishlar qo'llanilgan. Katta

[1] O'zbekiston xalqlari tarixi, 1 jild, T., «Fan» 1992 y., 13-bet.

[2] O'zbekiston tarixi va madaniyati, T., «O'qituvchi» 1992 y., 17-bet.

yoshdagi bolalarga esa tez yugurish, kuch sinashish (kurash, mushtlashish, tosh ko'tarish kabilar), daraxtlarga tirmashib chiqish, suvda tez suzish, hayvonlarga nayza sanchish (belgilangan doiralar, buyumlar va h.k.) kabi murakkab o'yinlar, mashqlar o'rgatilgan.

Markaziy Osiyo miloddan avvalgi 11–1 ming yilliklarda yirik quldorlik davlatlari Baqtriya, So'g'd, Xorazm paydo bo'ldi. Ular Rim va Gretsiyadagi quldorlik tuzumidan o'ziga xos ravishda anchagina farq qilgan.

Ya'ni Markaziy Osiyodagi davlatlarda ishlab chiqarish yuqori darajada bo'lmaganligi uchun asosan dehqonchilik, chorvachilik va mayda hunarmandchilik asosida qullar (yollanuvchilar) majburiy ishlatilgan.

Gerodotning «Tarix» kitobida massagetlar (hozirgi Markaziy Osiyo xalqlari) malikasi To'marisning Eron shohi Kir bilan olib borgan jang voqealari tasvirlangan. Jangda To'maris g'olib chiqib, Kirning boshini olib, qon bilan to'ldirilgan meshga soladi. «Sen umr bo'yi qonga to'ymading. O'z ontim bo'yicha seni qon bilan sug'ordim», deydi.[1] To'maris misolida o'sha davrlarda ayollardan sarkardalar chiqqanligini va janglarda har tomonlama kuch ko'rsatganligini guvohi bo'lamiz. O'z o'rnida aytish lozimki, hozirgi davrdagi mahalliy millat qizlarini oilada, turmush va hayotda ma'naviy - jismoniy jihatdan yetuk bo'lishga otlantirish, bu bilan ularning jamiyatga faol xizmat qilishlarini ta'minlash lozim.

Shuni eslatish lozimki, VI asrda Eron Ahmoniylari, keyinchalik (329–327-yillarda) Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) Markaziy Osiyoni bosib olib, o'zlarining madaniyati, dini va ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish ish usullarini o'rnatganlar.

O'sha davrlarda Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar bosqinchilarga qarshi qo'zg'olonlar ko'targan, jiddiy kurashlar olib borgan. Bunday hollarda askarlar va xalqning asosiy jangovorlik qurollari kamondan o'q otish, nayza bilan

[1] O'zbekiston tarixi va madaniyati, T., «O'qituvchi», 1992 y., 31-bet.

sanchish, qilichbozlik, turli xil vositalar (to'qmoq, kaltak, bolta, pichoq va h.k.) bo'lgan. Jangchilarning ma'lum qismi otda yurishgan. Bu holat jangchidan ot ustida turib barcha qurol vositalari bilan jang qilish, otni choptira bilish hamda boshqa imkoniyatlardan o'ta ustalik bilan foydalanishni talab etgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy 334-yilda (miloddan avval) 30000 piyoda va 5000 otliq askar bilan kichik Osiyoga, keyin Markaziy Osiyoga jangovor yurish qilgan. 327-yilda hozirgi Buxoro, Samarqand, (Marokand), Panjakent hamda Sirdaryo oqimi atrofidagi yerlarni bosib oladi. Bunda lashkarboshi Spitamen kelgindilarga katta qarshilik ko'rsatadi. Lekin uning xotini xoinlik qilib, Spitamenning boshini kesib, Aleksandr Makedonskiyga topshiradi. Podshoh bu bevafo xotinni ham hamda 120 ming aholini ham qirib tashlaydi. Chunki uning ta'biri bo'yicha yeriga, eliga vafolik qilmagan ayol boshqalarga vafodor bo'lolmaydi.

Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumi, madaniyati haqidagi ma'lumotlar Xitoy manbalarida ham uchraydi. Eradan avvalga 138-yilda Markaziy Osiyoga kelgan Xitoy elchisi—Chjansyan ajoyib ma'lumotlar qoldirgan. O'sha davrlarda Farg'onani Davon deb ataganlar. So'g'ddagi Kattaqo'rg'on dastavval Kushon davlatining poytaxti bo'lgan.[1]

Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi.

Markaziy Osiyodan qadimgi ipak yo'li o'tganligi (Sharq mamlakatlar bilan g'arb davlatlari o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalar) bu yerdagi xalqlarning madaniy hayotida katta burulishlar yasagan. Shu o'rinda eslatish zarurki, O'zbeksiton mustaqillikka erishgach, «Buyuk ipak yo'li» xalqaro jamg'arma jamiyatini tuzdi. Bu dunyo xalqlari o'rtasida madaniy, savdo, siyosiy aloqalarni mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqda.

---

[1] O'zbekiston tarixi va madaniyati, T., «O'qituvchi», 1992 y., 31-bet.

Sopol idishlar, amaliy san'at buyumlari, zebi-ziynatlar, mehnat va jang qurollarini yasash, mato to'qish ancha rivojlangan. Kamon, nayza, xanjar, tosh otish, qurollaridan keng foydalanilgan.

Termiz yaqinidagi Ayritom, Xorazmdagi Tuproqqal'a va boshqa joylardan topilgan buyumlar, suyak, tosh, sopolga chizilgan rasmlarda qadimgi kurash, nayza uloqtirish, qilichbozlik, otda jang qilish kabi tadbirlar aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston hududida qadimgi yashagan xalqlarning turmush sharoitlarida qurilish, turli bezakli buyumlarni yasash, savdo aloqalari hamda o'z vatanlarini himoya qilishda jismoniy tarbiya vositalarida foydalanish kabi madaniy hamda jangavorlik faoliyatlari alohida o'rin tutadi. Bu davrdagi yashagan yirik xalqlar o'rtasida jangavorlikni oshirish o'z hududlarida osoishtalikni ta'minlash hamda xalq farovonligini yuksaltirish uchun o'tkazgan diniy, madaniy marosimlar, to'ylar va turli an'analarida kamondan o'q otish, qilichbozlik va nayzabozlik qilish, kurash, ot o'yinlari hamda boshqa xalq milliy harakatli o'yinlari bilan mashhur bo'lganlar.

VIII asr boshlarida arab bosqinchilarining asosiy diqqati Markaziy Osiyo yerlariga qaratildi. 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlandi. U Movaraunnahr yerlarini egallab, arab xalifaligiga qaratish istagi bilan yashadi. 705-yildan Markaziy Osiyo hududiga bostirib kirdi va Buxoro, Yettisuv, Samarqand, So'g'd, Farg'ona, Sirdaryo yerlarini egalladi.

Shuni eslatish lozimki, arablarga qarshi mahalliy xalqlar uzoq yillar davomida urush olib borganlar. Lekin kuchlar teng bo'lmasligi oqibatida arablar bu yerlarni to'la istilo qilib, o'z dini va madaniyatini o'rnatishgan.

Rasul Muhammad alayhissalomga nozil qilingan «Qur'oni Karim»ning keng va chuqur tarqalishi Markaziy Osiyo xalqlarini Islom diniga bo'ysunishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, xalqning jipslashishi, odob-oqibatli bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Lekin ayollarning erkinligi, ochiq yuz bilan yurishi, avvalgidek erkaklar bilan birgalikda

teng mehnat qilishi, kurash, ot o'yinlarida bellashuvi taqiqlandi.

Islom qadriyatlari xalq ma'naviy hayotining uzviy qismi sifatida uning turmush tarzidan, xatti-harakatidan munosib o'rin oldi.

Shuni ham e'tirof etish zarurki, musulmon ahlining diniy e'tiqodlari, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi kimgadir, nimagadir ishonishi, xalq o'rtasida jipslik, o'zaro hurmat, mehnatning qadriga yetish kabi hayotiy tushunchalar mazmuni mantiqiy tarkib topa boshladi.

Islom dunyosining kengayishi xalqlarini yagona xudoga sig'inish, har kim o'zini toza tutish, begonalar va og'a-ini-qarindoshlar orasida bu g'oyalarni tiklash mavqeyi kuchaydi. Musulmonlar jismni toza tutish, uxlash, dam olish, ovqatlanish, bolalarni yoshlikdan odobli bo'lishga o'rgatishga da'vat qilindi.

«Avesto», «Alpomish», «Go'ro'g'li» dostonlari va boshqa manbalarda jismoniy tarbiya haqidagi ma'lumotlar

O'zbekiston mustaqilligi yillarida milliy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy meroslar, xalq og'zaki ijodiyotining durdonalari, badiiy, diniy manbalarni chuqur o'rganish va ularning ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarini ommaga, ayniqsa, o'quvchi yoshlarga singdirish masalalari oldinga surilmoqda.

Respublika Prezidenti I.A.Karimovning «Alpomish» dostonining yaratilishiga 1000 yil, «Avesto» kitobining 3000 yilligi va b.q. haqidagi munozaralari, mulohazalari va farmonlari bunga dalildir.

«Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati tomonidan madaniyatimiz tarixida ilk bor «Avesto» kitobi mukammal suratda nashr etildi.

Umuman olganda, qadimgi ajdodlar ijtimoiy turmush madaniyati, ayniqsa, sihat-salomatlik, jismonan chiniqish, mehnat hamda uzoq umr ko'rib yashash uchun yaratgan ta'lim-tarbiya jarayonlari «Avesto»da chuqur ma'no va o'rin egallagan.

Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, ko'proq ifodalanadi. Bularni «Alpomish» dostoni misolida tan olishga to'g'ri keladi. «Alpomish» dostonida kurash, otda poyga, kamondan o'q otish va merganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun, sevikli yori uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug' insoniy fazilatlar madh etilgan.

«Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, bundan bir necha ming yillar mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarining bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o'ta barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan.

«Go'ro'g'li» to'g'risida o'nlab katta dostonlar mavjud. Ular Markaziy Osiyo, Kavkaz va boshqa hududlarda ham mashhurdir. Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, yigit va qizning muhabbatlari orqali xalq irodasi, an'analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichlashish, tog', daryo, chakalakzorlarda quvlanib o'tish, kurash, kamondan o'q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan.

«Qirq qiz» dostonida hozirgi Qoraqalpog'iston hududidagi janglar o'z ifodasini topgan. Bunda o'z ota-onalari, qavm-qarindoshlari uchun o'ch olishda dushmanlar bilan mardonavor jang qilishgan qizlar timsoli tasvirlanadi: «Rustam», «Tohir va Zuhra» kabi xalq og'zaki dostonlarida ham xalq irodasi, yovuz kuchlar va yigit-qizlarining sevgi-muhabbat yo'lida qurbon bo'lganliklari bayon etilishi bilan birgalikda, jasur, botir, pahlavon, chavondoz kabi sifatlar ham o'z ifodasini topgan.

Qadimgi davrlar jismoniy tarbiyasi haqida yana fikr yuritilganda, Ibn Sino haqida mulohazalar bildirishga to'g'ri keladi.

Jahon tibbiyot olamining buyuk sultonlaridan biri, Abu Ali ibn Sinodir (980–1037). U falsafa, adabiyot, musiqa va boshqa ko'p sohalarni ham mukammal bilgan donishmanddir.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari beqiyos ko'p. Ular ichida «Tib qonunlari» alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarni deyarlik barcha xalqlar o'z tillariga tarjima qilishgan. O'zbek tiliga ilk bor 1153-yilda, keyinchalik (1956, 1980, 1993) bir necha bor qayta nashr etildi.

Ibn Sinoning ijodiy faoliyati, «Tib qonunlari» va boshqa asarlarini ilmiy jihatdan o'rgangan, tahlil qilgan va ularning mohiyatini ochib bergan taniqli olimlar juda ko'p. Birgina O'zbekiston sharoitida ularning soni 100 dan oshib ketadi.

Buyuk allomaning ilmiy-pedagogik meroslarini chuqur o'rganishda taniqli pedagog S.R.Rahimov (Samarqand DU), respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor O.A.Rixsiyeva (O'zDJTI 16) va boshqalarning xizmati kattadir.

Respublika hukumati va mas'ul davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlarining tashabbusi bilan 1980-yilda Buxoroda Abu Ali ibn Sinoning tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan katta ilmiy anjuman o'tkazildi. Bunda tibbiy xodimlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqalarning Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari haqida ma'ruza qildilar. Anjumanning materiallari respublikada jismoniy tarbiya ilmini takomillashtirishda salmoqli hissa qo'shdi, desa bo'ladi.

Ibn Sinoning ta'biri bilan aytganda «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri – badan tarbiya»dir.

Mutafakkir adibning 30 dan ortiq tibbiy asarlari shu kungacha yetib kelganligi ma'lum. Ularning hammasida ham, muallifning jismoniy mashqlarga oid ilg'or fikrlari va amaliy mashqlar mazmuni uchraydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Ibn Sino jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni hamda uning mohiyatlarini gigiyena, sog'liqni saqlash va kasalni davolashdagi majmuiy tadbirlarda berib boradi. Bu esa har bir insonning jismoniy mashqlar bilan qachon va qaysi tartibda shug'ullanishini belgilab beruvchi ta'limdir. Masalaga shunday yondashish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

«Tib qonunlari» haqida mulohaza qilinadigan bo'lsa, kitobning birinchi qismi (tomi) deyarli inson salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag'ishlangan. Eng muhim tomoni shundaki, kitobda inson tanasi va uning a'zolari, insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar, fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan. Bu holatlarni bilish, shu asosda insonlar o'z-o'zini tarbiyalashdek muhim bo'lgan ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarni hayotda qo'llash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Ibn Sinoning jismoniy mashg'ulot kishining yoshiga, jinsiga, sog'-salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va uslublarda o'tkazish kerakligi haqidagi g'oyalari juda o'rinlidir. Shuningdek, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik g'oyalarida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalalarini alohida uqtiradi. Bu ilmiy-pedagogik ta'lim merosi jahon xalqlari jismoniy madaniyati tarkibiga singib ketgan ijtimoiy turmush voqealigidir, desa bo'ladi. Bu holatlarni barcha oilalar, ayniqsa, mahalliy millat vakillari, shuningdek, barcha tarbiyaviy maskanlar, o'quv yurtlarida qayta-qayta o'rganishlari lozimdir.

Ibn Sino ta'limining eng yuksak va hayotiy jihatlardan biri shundaki, «Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakat» mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaganligini bashorat qilib bergan.

Ibn Sinoning turli xil kasalliklarni oldini olish va uni davolashda badantarbiya mashqlaridan foydalanish tajribalarini respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi tibbiyot fanlari doktori professor O.A.Rixsiyeva (16—12) ham ma'qullaydi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi ingichka og'riq (a'zolarning torayishi) kasaliga uchraydi, chunki harakatsizlik natijasida uning

a'zolari zaiflashadi.

U badantarbiya turlarini asosan ikki guruhga bo'ladi:

1. Odamning ish jarayonlarida qiladigan harakatlari.
2. Maxsus badantarbiya harakatlari.

Buyuk olim badantarbiya deganda, asosan maxsus badantarbiya harakatlarini nazarda tutadi. Shu sababdan, badantarbiya turlari juda ko'p bo'lib, ular tez, nozik, yengil, kuchli va hokazo tarzlarda bajarilishini eslatadi. Bu, albatta, ilmiy nuqtai nazardan olganda har bir shug'ullanuvchi uchun asosiy ta'limdir.

Ibn Sino tortishish, mushtlashish, yoydan o'q otish, tez yurish, nayza otish, osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik, nayzabozlik va otda yurishlar badantarbiyaning tez bajariladigan turlariga kirishini aytadi.

Nozik va yengil turiga arg'imchoq uchish, belanchakda tik yoki yotib uchish, qayiq va kemalarda sayr qilish va boshqa harakatlardir, deydi u.

Badantarbiyaning kuchli turiga, kishining o'z soyasi bilan olishishi, katta va kichik koptoklar bilan chavgon o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish kabilarni kiritadi.

Ibn Sinoning tavsiyasiga ko'ra badantarbiya vaqtida tez va shiddatli harakatlar, yengillari bilan doim almashtirib turish, shuningdek, ma'lum bir harakatni uzoq vaqt bajarmaslik uslublarini uqdiradi.

Tan olish kerakki, bundan ming yillar oldin amaliy tajribada sinalgan va ilmiy jihatdan asoslangan jismoniy (badan) tarbiya Xalqaro sport harakatining muhim mezonlariga aylanganligi barcha sport turlari bo'yicha murabbiylarni lol qoldiradi.

Yana e'tiborli tomonlardan biri shundaki, turli kasalliklarni davolashda ruhiy ozuqa berish (xursandchilik) yo'llarini, ya'ni turli xil sayrlar, sayohatlar, kemalarda suzish, tabiat manzaralaridan bahramand bo'lish omillarini ishlatishni tavsiya etgan.

Ibn Sino har bir a'zoning kasalini tuzatish uchun maxsus harakatlar — jismoniy mashqlar borligini eslatadi. Bunda

uqalash (massaj) mashqlarini ko'zda tutadi va ularni quyidagi turlarga bo'ladi:

1. Gavdani baquvvat qiluvchi – kuchli uqalash.
2. Gavdani yumshatuvchi kuchsiz uqalash.
3. Ozdiruvchi – davomli uqalash.
4. Gavdani o'stiruvchi – mo'tadil uqalash.

Olimning ta'kidlashicha, uqalash dag'al yoki yengil bo'ladi. Dag'al uqalash dag'al latta bilan amalga oshiriladi. Yengil uqalashni yengil (yupqa) latta bilan bajariladi. Uqalashlar asosan bo'shashgan a'zolarni zichlatish, yumshoqlarini qotirish, dag'alini mayin qilish va qattiqlarini yumshatish maqsadida qilinishini bildiradi.

Bundan tashqari, badantarbiya bilan bog'liq uqalashlar to'g'risida ham ta'lim beradi:

1. Badantarbiyaga tayyorlovchi deb atalgan uqalash (sport trenirovkalari, musobaqalari oldidan hozirgi davrda qo'llaniladi).

2. Badantarbiyadan keyin qilinadigan uqalash. Buni badanning o'z holiga keltiruvchi uqalash yoki tinchlantiruvchi uqalash deyish mumkin. Bu hol ortiqcha toliqqan, o'ta ko'p og'ir mashqlar (trenirovka, musobaqa) bajargandan keyin qo'llaniladi. Ayniqsa, ko'pkari (uloq), poyga, kurashdan keyin uqalash mashqlari hayotda ko'p qo'llaniladi.

Uqalash mashqlarining qon aylanish tizimini tezlatish (maromiga yetkazish), nafas olishni yaxshilash, hazm qilish a'zolarining ish faoliyatlarini to'g'ri yo'lga solishda muhim ahamiyat kasb etishi allomaning ilmiy-amaliy ta'limida to'la mazmun topganligining shohid bo'lish mumkin.

Shuni ham eslatish zarurki, Ibn Sino salomatlikni saqlash va uni mustahkamlashda dam olish, uyqu va me'yorida ovqatlanish hayotiy zaruriyatligini eng asosiy omillardan deb biladi.

Ibn Sinoning badantarbiya haqidagi ta'limida eng asosiy o'rinlardan birida kurash turlari turadi. Ya'ni «Kurashning turlari ham bir nechadir. Ulardan biri: ikki kurashuvchining har biri o'z raqibining belbog'idan ushlab tortadi, shu bilan birga kurashuvchi o'z raqibidan qutilishning chorasini qiladi.

Ikkinchisi esa qo'yib yubormaslikka harakat qiladi. Boshqa turi: ikki kurashuvchidan biri ikkala qo'li bilan ikkinchisini mahkam quchoqlab o'ziga tortadi va yonga ag'daradi, bu vaqtda birinchi kurashuvchining o'ng qo'li ostidan o'tishi kerak, (kurashuvchilar) goh qadlarini tiklab, goh egiladilar (kurash) turlari yana ko'krak bilan zarbani qaytarish, ikkinchi bir kishining bo'ynidan ushlab egish, bir-birovlarining oyoqlarini o'z oyoqlari bilan chalkashtirib, chalib yoki oyoqlari bilan ikkinchisining oyoqlarini yirib qilinadigan va polvonlar ishlatadigan harakatlar ham kiradi».

Ibn Sinoning inson salomatligini jismoniy tarbiya vositalari bilan yaxshilash va uni kamolotga yetkazishdagi mutafakkirligi yana shunda ayon bo'ladiki, u gavdaning har bir qismi uchun maxsus harakatlar borligini bashorat bilan aniq misollarda ko'rsatib bergan. Qo'l va oyoq harakatlari, ko'krak va nafas a'zolarining boringki, barcha a'zolarning tabiiy harakatlarini ishga soluvchi mashqlar majmuasini o'z asarlarida mujassamlashtirgan. Bunda tovush - og'iz bo'shlig'idagi barcha a'zolarni harakatlantirish (baland-past ovoz chiqarish, tilni chiqarish, tortish, burash, tuflash va h.k.) mashqlarini bergan. Ichki a'zolarni ishga tushirish mashqlariga belanchakda uchish, titratish, aravalarda yurish va b.q.ni tavsiya etadi.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslarida jismoniy tarbiyaning eng muhim vositalari sifatida hammomda cho'milish, sovuq suvda cho'milish, suv va ichimliklarni iste'mol qilish, ovqatlanish, uyqu va dam olish mazmunlari ham joy olgan. Keksalik davridagi jismoniy tarbiya va umuman safar (sayohat) vaqtlarida fasllarga qarab harakat qilish asoslarini ham ko'rsatadi.

Umuman olganda, Ibn Sinoning jismoniy tarbiya sohalaridagi ilmiy-pedagogik ta'limotini chuqur o'rganish, uni insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy turmush sharoiti va e'tiqodlariga qarab qo'llash usullarini hozirgi davr talabi asosida keng yo'lga qo'ymoq zarur. Buning uchun esa, eng avvalo, jismoniy tarbiya ta'limini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, uning insonlar salomatligini yaxshilash hamda jis-

moniy kamolotga eltuvchi mohiyatlarini barcha kishilar ongiga singdirish lozim bo'ladi.

Sog'lom avlod tarbiyasi va kamolotini ta'min etuvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy-ommaviy risolalarni ko'paytirish, xalq milliy o'yinlari bo'yicha ommaviy sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tez-tez tashkil qilish, ularni ma'naviy boyligimizni oshirishga xizmat qildirish zarur bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temurning jangovorlik faoliyatlarida harbiy-jismoniy mashqlar

Yevropa va Osiyoda mo'g'ul tatarlarning, ayniqsa, Chingizxonning istilochilik urushlari, uning oqibatlari qariyb 300 yil davom etadi. Bunday qullikdan ozod etish, mustaqil davlatlar sifatida rivoj topish va madaniyatning taraqqiy etishida Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Ta'kidlash zarurki, sobiq Ittifoq davrida Amir Temurning ijobiy xislatlari va amalga oshirgan tadbirlari tilga olinmadi. Aksincha, u josus, bosqinchi, mustamlakachi deb qaraldi. Shunday bo'lsa-da, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi yirik mamlakatlarda Amir Temur haqida tarixiy dalillar asosida romanlar yozildi, opera va dramalar namoyish etildi. Ular o'sha paytlarda xalqimizga yetib kelmadi.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli Sohibqiron Amir Temurning haqiqiy faoliyati xalqimizga to'la ayon bo'ldi. 1996-yilda uning tavalludiga 660 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro anjumanlar va yurtimizdagi an'analar uning nomini ochiqcha ilk bor tarannum etishga muvaffaq bo'ldi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurga bag'ishlab katta xiyobonlar qayta bezatildi va uning haykallari o'rnatildi. Bu milliy qadriyatlarni qay tarzda tiklash va milliy madaniyatimizni yuksak cho'qqilar kabi yanada baland ko'tarishning buyuk namunasi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada shunday degan edi: «Bugun bunyod

etilgan bobokalonimiz haykalida teran ramz bor – go'yoki jahongir tulporining jilovini tortib turibdi, qilichsiz qo'lini oldinga cho'zib jahon xalqlariga omonliq sog'inmoqda, «Kuch - adolatdadir»[1] demoqda.

Jahonga dong'i ketgan buyuk sarkarda Amir Temurning yoshlarni harbiy, jismoniy va jangovorlikka tayyorlashdagi amaliy faoliyatlarini o'rganish va ularni o'quv jarayonlarida qo'llash ishlab chiqildi.

Jahongir Amir Temur hayoti va faoliyatiga mansub adabiy manbalar juda ko'p. Ularning barchasi arab alifbosida hamda turk tilida chop etilgan. O'tgan asrning oxirlarida «Temur tuzuklari» (209) ilk bor rus tiliga tarjima qilinib, (1894, 1934) u Markaziy Osiyo xalqlariga ham yetib kelgan. U qayta nashr etilmaganligi uchun deyarlik sobiq Ittifoq davrida (Akademik I.Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni» risolasini – 1968 hisobga olmaganda) Amir Temur to'g'risida bironta ijobiy baho beruvchi kitobni yoshlar o'qimaganligi ma'lum.

Barchaga ma'lumki, Amir Temur o'z saltanatini idora qilganligi va jahon xalqlariga Islom dini ma'rifatini yoyish haqida amalga oshirgan faoliyatlarini «Temur tuzuklari» kitobida bayon qilib bergan. Biz bu haqda faqat O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdagina ogoh bo'ldik, xolos va hozirgi kunda u haqda ancha chuqur ma'lumotlar berilmoqda. Bu o'rinda akademik B.Axmedovning «Amir Temur» tarixiy hujjatli romani (1995) e'tiborga sazovordir.

«O'zbekiston tarixi va madaniyati» (1992), «O'zbekiston xalqlari tarixi» (1992, 1-qism) va boshqa manbalarning guvoh berishicha, Amir Temur yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan bo'lib, o'zi ham faol urushlarda bir necha bor qatnashib tajriba orttirgan va mohir jangchi bo'lib yetishgan. Shuningdek, farzandlari Jahongir, Mironshoh, Umarshayx, Shohruh Mirzo hamda nabiralari Pirmuhammad, Xalil Sulton, Muhammad Sulton va Mirzo Ulug'beklarga ham jangovorlik sir-asrorlarini bevosita o'zi

[1] «Turkiston» gazetasi, 1993-yil 1-sentabr.

janglarga tayyorgarlik paytlari hamda katta janglar jarayonida o‘rgatgan.

«Temur tuzuklari»da (1991) piyoda va otda jang qilish, qilichbozlik va nayzabozlik (21, 22-betlar), jangchining harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarligi (101, 102-betlar), eng baland tog‘li joylardan o‘tish (20-bet), daryolardan o‘tish (28-bet) va h.k. haqida batafsil bayon qilinganligining guvohi bo‘lish mumkin. Amir Temurning Boysun, Hisor, Hindiqush, Turkiston, Chotqol, Kavkaz tog‘lari, hozirgi Qozog‘iston va Rossiya hududlaridagi cho‘llar, vodiylar hamda Sirdaryo, Amudaryo, Dajla, Volga, Ganga va boshqa juda ko‘p daryolardan kechib o‘tishning o‘zi bo‘lmagandir. O‘sha davrlardagi piyoda, otda yurish hamda jang qilish jarayonlarini ko‘z oldingizga keltirib ko‘ringda, mulohaza va xulosa qiling. Bir necha kunlab tinmay piyoda yurish, qilich, nayza, to‘qmoq, xanjar va boshqa qurol-aslahalarni ishlatish, dushmanni yengishda oyoq-qo‘l, gavda kuchlari, epchillik, tezlik, hushyorlikni talab etgan. Fursat kelganda raqibi bilan yelkama-yelka ushlashib, kurashib uni yiqitish, taslim qilish uchun qanchadan-qancha amaliy kuch, mahorat, ustomonlik, jasurlik kerak bo‘lgan. Ha, bularni Amir Temur o‘zining amirlari, favjlari, mingboshi, yuzboshi, o‘nboshi va alp yigitlari, bahodirlariga o‘zi o‘rgatgan, shogirdlar tayyorlagan. Otda jang qilishda qilich, nayza, kamon-yoy, to‘qmoq, kaltak, qamchi, arqon va hokazolardan foydalangan. Bu qurollar bilan jang qilish oson emas. Har bir jangchi kuchli, epchil, jasur, mergan bo‘lgan. To‘g‘ri kelganda yakkama-yakka ot ustida olishuv, tortishuv, og‘darish, savalashish kabi tabiiy harakatlardan ham mardonavor foydalanganlar. Bu faoliyatlarni ham Amir Temur va uning maxsus sarkardalari jangchilarga qunt bilan o‘rgatgan, ta’lim bergan. Amir Temur dam olish vaqtlarini ov qilish, sahro va tog‘larga sayr qilish bilan o‘tkazgan. Bunday hollarda otda va piyoda tog‘larga chiqish, arqon, tayoqlardan foydalanish usullarini o‘ylab topgan. Jangchilarga dam olish bergan paytlarda ularni poyga, kurash, qilichlashish, ko‘pkari kabi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga da’vat etgan.

Shaharlardagi qal'alarni egallashda narvon, arqondan osilib chiqish, tushish usullaridan keng foydalanganlar. «Amir Temur» tarixiy romanida tog'dagi yurish va janglar haqida shunday deyiladi. «Hammayoq yaxmalak edi. Shuning uchun ba'zilar arqon, narvon vositasida, arqoni yo'qlar sirpanib daraga tushdilar. Hazrat Sohibqiron maxsus o'zi uchun yasalgan bir yuz ellik gazlik cho'p narvon yordamida daraga tushdi... ertasi kuni quyosh tig' urmasdan, yana bir tog' cho'qqisiga ko'tarildilar. Yana ikki kun shu tariqa kechdi» (465–466-betlar). Tezkor va katta daryolardan kechib o'tish oson emas, albatta. Amir Temur bunday paytlarda meshlar, yog'ochlardan yasalgan sollar, arqon tortib undan ushlashib o'tish usullari va boshqalardan foydalanganlar. Jangovorlik faoliyatida tog', o'rmon, sahrolarda, ayniqsa, kechasi va tuman kunlarida manzilga adashmay topib borish, chamalay bilish quyosh, oy, yulduz, soya, shamol va boshqa omillardan foydalanishni yaxshi bilgan. Xullas Amir Temur faoliyatida harbiy-jismoniy mashqlardan foydalanish eng ustuvor tadbirlardan biri bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660-yilligi (1996) munosabati bilan «Temuriylar davri tarixi» muzeyining tashkil etilishi O'zbekiston tarixida olamshumul voqea bo'ldi. Undagi eksponatlarda temuriylar davridagi jangovorlik faoliyatlarda qo'llanilgan qurol-aslohalar va jismoniy chiniqishda ishlatilgan vositalar, usullar o'rin egallagan. Shuningdek, Olimpiya shon-shuhrati muzeyining tashkil etilishi va undagi eksponatlar majmui nafaqat talabalar, balki aholining barcha tabaqalari uchun namunaviy ko'rgazmadir. Bularni jismoniy tarbiya tarixi darslarida doimiy ravishda ko'rsatish va kinofilmlar, videofilmlardan maqsadli foydalanish faoliyatlari yo'lga qo'yildi.

Ulug' adiblarning tarixiy va badiiy asarlarida jismoniy tarbiya va xalq milliy o'yinlarining ifodalanishi

O'rta asr davrida Zamaxshariy, A. Jurjoniy, Muhammad Solix, Ali Shoshiy, Imom Buxoriy, Abdurahmon Jomiy,

Sakkokiy, Vasifiy singari ilm-urfon hamda madaniy arboblarning yetishib chiqqanligini bilamiz. Bunday buyuk allomalar orasida ulug' bobomiz Alisher Navoiyning (1441–1501) o'rni alohida ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiyning daholigi Sharq klassik adabiyotida an'ana tusini olgan yirik asar–xamsachilikda namoyon bo'ldi. U 1483-yilda «Xamsaning birinchi dostoni» «Hayratul-Abror» (yaxshi kishilarning hayratlanishi). 1484-yilda «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai Sayyor», (Yetti Sayyora), 1485-yilda «Saddi Iskandariy» (Iskandar Devori) dostonlarini yozdi. Bu dostonlarda qahramonlar siymosida xalqning ezguniyatlarini namoyish qilish bilan birga, ularning botirligi, jangovorligi qo'rqmasligi, yuksak darajada tarannum etiladi. Birgina Farhod siymosida yoshlarning bilim va hunar o'rganishi, mehnat orqali cho'llarga suv chiqarish, zabardast, kuchli qo'llari bilan toshlarni o'yish kabi jasoratlar madh etilgan.

Yuqorida qayd qilganimizdek, temuriylar orasida davlatni idora qilish, madaniy-marifiy jihatdan tarixda katta o'rin egallagan Zahriddin Muhammad Boburdir. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300-yildan ortiqroq hukm surgan.

Boburning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi, Farg'ona davlatining hokimi bo'lgan. Bobur yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqqan, Dovyurakligi va jasuriigi uchun u yoshligidan «Bobur» (Sher) taxallusini olgan. Otasining vafotidan keyin (1494 y.), 12 yoshida taxtga o'tirgan. Qisqa qilib aytganda, u taxt uchun bo'lgan kurashlarda mag'lubiyatga uchrab, o'z yaqinlari va askarlari bilan Afg'oniston, Hindistonga yurish qiladi va bir umr o'sha yerda qolib ketadi. U o'z hayoti, zamonasi va barcha voqealarni «Boburnoma» asarda yozib qoldirilgan. Unda Hindikush tog'laridan otda uzoq mamlakatlarga o'tgani, tog'u-toshlarda chiniqish uchun yalangoyoq yurgani, kuch-g'ayrat to'plab jang qilgani haqida hikoya qiladi.

Taniqli adib Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» (1980 y.), «Bobur», «Avlodlar davoni» (1989 y.), tarixiy romanlarida faqat tarixiy voqealar, Bobur hayotinigina emas, balki o'sha

davr madaniyati, urf-odatlari, mashaqqatlarga bardosh berishi, jismonan chidamli va kuchli bo'lishlik kabi ijtimoiy-tarbiyaviy tomonlarga katta e'tibor bergan. Bu esa hozirgi avlodlar, ayniqsa, yoshlarni vatan tuyg'usi, uni himoya qilish, jangovarlik ruhini mustahkamlashda xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq va yaqin o'tmishimizda xalqimizning jismoniy madaniyati mazmun jihatdan ijtimoiy-tarbiyaviy sohada o'ziga xos milliy xususiyatlar bilan boyib kelgan. Ularning tarixiy yo'nalishlari hamda ilmiy-nazariy jihatlarini o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslarida mukammal o'rganishlarini davr talabalari asosida ta'minlash bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

10.2. Chor Rossiyasi va Sovetlar hukmronligi davrlarida (1865–1991) jismoniy tarbiya va sport

Chor Rossiyasi davrida (1865–1917) O'zbekistonga zamonaviy sport turlarining kirib kelishi

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida sobiq Ittifoq davrida nashr etilgan o'quv qo'llanmalar va turli manbalarni o'rganishda xolisona va tanqidiy yondashishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan olganda R.I.Ismoilov, Yu.S.Sholomitskiy (1964–1968), F.M.Isxakov (1974–1976), S.V.Faxriddinova (1978), R.Abdumalikov (1975), J.T.Toshpo'latov (1978), J.E.Eshnazarov (1978), T.X.Xoldorov (1991) va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalari, ilmiy ommabop risolalari O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi tarixini birmuncha yoritilganligi muhim ahamiyatga egadir. Shunga qaramasdan, milliy xususiyatlarimizni toptash (kamsitish), aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishini ta'minlashda bir tomonlama yondashganlik tanqidiy ravishda ifoda etilmagan. Aksincha, barcha tadbirlar va muammolar faqat partiya va hukumat arboblarining faoliyatlari bilangina amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Shu sababdan, tarixiy jarayonlar va ularni hozirgi davr talablari asosida talqin qilish, ba'zi bir mulohazalarni

bildirishga to‘g‘ri keladi.

Sobiq ittifoq davrida Turkiston o‘lkasidagi tarixiy voqeliklar ataylab buzib ko‘rsatildi. Chunki Chor Rossiyasining bu o‘lkaga turli bahonalar bilan kirib kelishining asosiy sababi bosqinchilik edi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq (1991-yil 1-sentabr) mamlakat tarixini qayta yoritish va barcha voqeliklarni ochiq-oydin ko‘rsatish vazifa qilib qo‘yildi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi» - degan so‘zlari asosida «O‘zbekistonning yangi tarixi» (3 ta kitob, 2000 y.) nashrdan chiqarildi. Tarixiy jarayonlar bu kitoblarda «Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» (1-kitob), «O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida» (2-kitob), «Mustaqil O‘zbekiston tarixi» (3-kitob) o‘z nomi bilan asosli ravishda ifoda topdi.

Turkiston o‘lkasida 1890–1900-yillarda maktablarda jismoniy tarbiya mashqlarini o‘tkazish ancha jonlandi. Harbiy maktab va bilim yurtlarida gimnastika, qilichbozlik, otish va turli o‘yin mashg‘ulotlari tashkil qilinib, u asta-sekin mahalliy millat yoshlarining faoliyatiga o‘ta boshladi. Bu paytlarda maxsus o‘quv yurtlari, harbiy xizmat joylarida gimnastika, tennis va boshqa turlardan kichik musobaqalar o‘tkaziladi.

Taniqli jamoat arbobi, Respublika sport qo‘mitasining raisi, O‘zbek Davlat jismoniy tarbiya institutining sobiq rektori R.I.Ismoilov va professor Yu.S.Sholomitskiylarning ma’lumotlariga[1] qaraganda, Turkiston o‘lkasida 1910-yilda «Poteshniye polki» deb ataluvchi qismlar tashkil qilingan. U yarim sport va yarim harbiy yo‘nalishdagi tashkilot bo‘lib, maqsad – yoshlar kuch-g‘ayratini harbiylashtirishga yo‘llash, ularni «Din-podshoh va vatan uchun» xizmat qildirishga qaratilgan.

---

[1] R.Ismoilov, Yu.Sholomitskiy, «O‘zbekistonda fizkultura tarixi» T., «O‘qituvchi», 1969, 17–32-betlar.

1911-yilda Toshkentda «Okrug qilichbozlik-gimnastika maktabi» ochilgan unda qilichbozlik, asboblar ustida gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilgan. Mutaxassis xodimlarning tanqisligini hisobga olib, 1912-yilda jismoniy tarbiya o'qituvchilari tayyorlaydigan birinchi gimnastika va harbiy saf kursi ochilgan. Shunga qaramasdan o'quv yurtlari, ayniqsa, aholi o'rtasida jismoniy tarbiyani rivojlantirishga kam e'tibor berilgan.

1914-yilda Turkiston o'lkasida 160 ta maktab bo'lib, ularda 17 ming bola ta'lim olgan.

Oktabr inqilobigacha Turkiston o'lkasidagi maktablarda jismoniy tarbiya muvaqqat bo'lib, hech qanday tizimga asos solinmagan, chunki jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bo'lmagan.

1916-yil 1-oktabrda «Sport safarbarligi» degan tashkilot ish boshlaydi. Bunga erlar gimnaziyasi, seminariyasi, real bilim yurti, kommersiya (tijorat) va hunar bilim yurtlarining talabalari bir oy muddatga safarbar etilar edi. Harbiy qo'shinlar uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya dasturi bu kursda qo'llanilgan. Buning asosiy maqsadi yoshlarni harbiy-jismoniy tayyorlash va ko'rikdan o'tkazish bo'lgan.

Bu davrlarda Toshkentda velosport, qilichbozlik, gimnastika, yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan saralash musobaqalarida faqat harbiylar, rus amaldorlarigina ishtirok etishgan. Ularning asosiy maqsadi Stokgolmda o'tkaziladigan (1912), xalqaro olimpiya o'yinlarida qatnashishi uchun rus komandalarini to'ldirish kerak edi.

«Toshkent havaskor velosipedchilar jamiyati» (1895), «Toshkent gimnastika va mashq havaskorlari jamiyati» (1904 y.), «Sokol» (Lochin, 1906) yengil atletika guruhi tashkil etilishi va ularda bir to'dagina kishilar shug'ullansa-da, buni Turkiston o'lkasida sport bilan shug'ullanishga ham e'tibor berildi, deb aytish mumkin.

1913-yilda tashkil etilgan «Toshkent sport havaskorlari jamiyati» Turkiston o'lkasidagi eng yirik sport tashkiloti edi.

E'tiborli tomonlardan biri shuki, 1908-yildan boshlab Turkistonda professional polvonlar qatnashadigan

chempionatlar o'tkaziladi. Bularga jahonga taniqli Zaikin, Poddubniy, Baxturov, Shvalye, Bul kabi ko'pgina polvonlar qatnashgan.

1911-yilda o'tkazilgan bunday musobaqalarda mahalliy millat polvonlari ham ishtirok etganlar. Ulardan Ahmad polvon, Azimxo'ja polvon, Haydar Ali polvon, Abdurahmon polvon, Xayitov, A'loyev kabilar Toshkent sirkida bellashuvda qatnashganlar.[1]

Taniqli jurnalist, Respublika kurash federatsiyasining sobiq raisi, To'lqin Obidovning (marhum) «O'zbek polvonlari» (T., 1979-yil) kitobida kurashchilar haqida yaxshi dalillar keltirilgan. Ya'ni 1895-yil mashhur nemis polvoni Rippel Toshkentga kelib, sirkda o'z kuchi, mahoratini ko'rsatib, hamma tomoshabinlarni qoyil qoldirib yuradi. Uning og'irligi sakkiz yarim pud (133 kg.) bo'lib, sakkiz pudlik cho'yanni ikki qo'li bilan, 16 pudlik cho'yanni kifti bilan ko'tarib tomosha ko'rsatgan. O'sha paytlari Toshkentning Beshyog'och daha, Choqar mahallasida o'tgan Ahmad polvon Topilboy o'g'lining O'rta Osiyoda kurashib, yiqitmagan pahlavoni qolmagan edi. Mehmon Ahmad polvonning dovrug'ini eshitib, u bilan kurashish istagini izhor etgan. Kim yiqilsa, «yonidan 50 so'm beradi», deb garovlashibdi. Shu yil 23 iyunda odamlar sirkda yig'ilishibdi. 28 yoshli Ahmad polvon egnida oq yaxtak, belida belbog' bog'lab o'rtaga chiqadi. «Kim yiqilib, mayib bo'lsa, o'z gardaniga» deb shart ham qo'yiladi. Rippel belida tasma belbog' bilan chiqadi. Ikki polvon bel tutib, o'rtada aylanadi. Sirkda shunday sukunat hukm surardiki, pashsha uchsa ham bilinardi. Ahmad polvonning «Yo pirim» degan nidosi eshitiladi. Shu lahzada yer larzaga kelgandek tuyuldi. Charxpalak bo'lib tushgan Rippel yerda uzala tushib yotardi.

1904-yilda quvalik Xo'ja polvon Toshkentga kelib, «manman» degan polvonlarni bitta qo'ymay yiqitib yurgan. Bu paytlar Ahmad polvon belida yarasi bilan betobroq edi. Nomus kuchlilik qilib, Xo'janing shashtini qaytarmasdan

[1]A.R.Toymurodov «O'zbek milliy kurashi», T., Ibn Sino 1990, 12-bet.

kurashga tushadi. Ahmad polvon Xo'janing belbog'idan ushlab, bir silkitib ko'kragiga bosdida, muallaq ko'tarib, maydonni aylandi, so'ngra uni sekin yerga qo'yib: «Mehmonsiz, siyladim», degan. Ahmad polvonning olijanobligi tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. Ahmad polvon 1911-yil fransuz qoidalari bo'yicha o'tkazilgan klassik kurashda Germaniya chempioni Giber ustidan g'alaba qozondi.

Bunga o'xshagan polvonlar O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida juda ko'p bo'lgan. Bu haqdagi dalillarni yana «O'zbek kurashi» (mustaqil O'zbekiston bo'limi)da bayon etildi (qarang).

1906-yildan boshlab O'rta Osiyoda futbol rasmiy ravishda tarkib topa boshlaydi. 1911-yildan boshlab esa Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlarda turli xil musobaqalar, o'zaro futbol uchrashuvlari o'tkaziladi.

1911—1915-yillarda harbiy okrug qoshidagi bosmaxona kishilari o'zlarining gimnastika to'garaklarini tashkil qilishdi.

Turkiston general gubernatori mahalliy millat vakillarining sport jamiyatini tuzishga qat'iy qarshilik qiladi.

Shunga qaramasdan, xalq o'zlarining milliy o'yinlarini tashkil qilishni davom ettirdi. Kurash, poyga, uloq, darbozlik, akrobatika, harakatli o'yinlar keng tarqaldi. «Navro'z», hosil bayrami va boshqa udumlarga bag'ishlangan xalq sayllari hamda katta to'ylarda polvonlarning bellashuvi, mohir chavandozlarning chaqqonligi, darboz o'yinlari, arqon tortishish, tosh ko'tarish kabi o'yin va namoyishlari hammani hayratga solar va juda qiziqarli bo'lgan. Ta'kidlash joizki, bu davrlardagi jismoniy tarbiya va sport ishlari mutaxassis olimlar H.A.Botirov, A.K.Akramov va boshqalarning o'quv qo'llanmalarida batafsil ifodalangan.

Xulosa qilganda, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashagan ajdod va avlodlarimizdan meros qolgan juda ko'p boy manbalar mavjud. Ular o'tmishdan asrab-avaylab, yanada boyitib bizgacha yetib kelishini ta'minlaganlar. Bunday tugamas boyliklar orasida jismoniy madaniyat

alohida ahamiyat kasb etadi. Jismoniy madaniyat insonlarni bolalikdan sog'lom qilib o'stirish, ularning jismoniy va madaniy kamolotini ravnaq toptirishi, sog'lom turmush kechirish, mehnat qobiliyatini oshirish, uzoq umr ko'rishga ko'maklashuvchi muayyan faoliyatdir. Bunda ajdodlarimizning ov qurollarini yasash, tog', daryo, cho'llarda vahshiy hayvonlarni tutish uchun kuch-quvvat, epchillik, merganlikni o'rganganlar. Bunda otda turib kamondan o'q otish, nayza sanchish, kurashish, piyoda yugurish, to'siqlardan o'tish, an'anaviy urf-odatlar, ommaviy sayllarda harakatli o'yinlarni tashkil qilish kabi murakkab mashqlarni bajarganlar. Turli janglarda bu qurollardan mohirona foydalanganlar.

Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimiyatni boshqaruvchilar o'z jangchilarini faqat jang qilish san'atinigina emas, balki ularni jangovorlik ruhida tarbiyalashning asosiy mazmuni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo'lishga ham o'rgatganlar. Bunga yuqorida qayd etilgan jismoniy tarbiya vositalarini maqsad yo'lida ishlatganlar.

Xalq o'z udumlari va an'analarida kurash, ot o'yinlari, qilichbozlik, darboz, poyga va turli harakatli o'yinlardan foydalanganlar. Bu tadbirlar yoshlarni kuchli bo'lishi, Vatanni sevish, kasbni egallash va uddaburonlikka chorlagan.

Sovet hokimiyati yillarida (1918–1991) O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish

Dastlabki sport klublari va jismoniy madaniyat harakatini boshlanishi (1918–1990)

Turkistonda 1918-yildan sport to'garaklari ishlay boshladi. Toshkentda ochilgan «Bolalar mehnat klubi»da sport to'garaklari tuzilib, har xil o'yinlar, gimnastika turlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilib turildi. Sportchi-ovchilar uyushmasi tuzildi.

Ma'lumki, Chor Rossiya davrida O'zbekistonning yirik shaharlari, ya'ni Temur yo'l orqali Rossiya bilan bog'lanish imkoniyati bo'lgan hududlarda ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yildi. Bu jarayonda asta-sekinlik bilan mahalliy millat yoshlari ham faoliyat ko'rsata boshladi. Aholining diqqat-e'tiborini ishlab chiqarish va turli madaniy tadbirlarga jalb qilishda ancha ishlar amalga oshirildi.

Xalq Universiteti huzurida jismoniy madaniyat to'garaklari tashkil etildi. Ularda suzish, yengil atletika, gimnastika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi hamda futbol jamoasi tuzildi. «Sokol», «Sever» kabi gimnastika jamiyatlari mavjud edi.

O'sha davrdagi yoshlar ittifoqi va sport to'garaklari rahbarlarining tashabbusi bilan 1920-yilda O'rta Osiyo olimpiadasi o'tkazildi. Unda poyga, gimnastika, yengil atletika, og'ir atletika, futbol, o'q otish kabi turlar bo'yicha bahslar bo'ldi. Olimpiadada 174 sportchi ishtirok etadi va 50 ming kishi tomosha qiladi.

Turkiston umumta'lim boshqarmasi huzurida jismoniy madaniyat Markaziy Kengashi tuzildi. Uning maqsadi barcha jismoniy madaniyat tashkilotlarini birlashtirish va mehnatkashlarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlariga yordamlashish edi.

1921-yilda II O'rta Osiyo olimpiadasi bo'ldi. Unda yengil atletika, og'ir atletika (boks, kurash, shtanga), basketbol, gimnastika, futbol va shaxmat bo'yicha sportchilar musobaqalashishdi.

1922-yilda Toshkentda maktablarga qarashli 2 ta sport maydonchasi bo'lib, ularda 2 ming kishi sport turlari bilan shug'ullanadi. Turkiston o'lkasi bo'yicha 4 ming 797 jismoniy madaniyatchi bo'lib, shundan 382 tasi xotin-qizlar edi. Mahalliy millat sportchi xotin-qizlari esa deyarli yo'q edi. O'lka jismoniy madaniyat Kengashi hisobida 2 ta gimnastika zali, 34 ta sport maydonchasi mavjud edi.

1924-yilga kelib, Turkistonda jismoniy madaniyatchilar soni ancha ko'paydi. Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida 48 ta sport to'garagi bo'lib, ularda 3500 kishi shug'ullangan.

1924-yilda umumturkiston olimpiadasi tashkil etildi. Unda Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlarning sportchilari ishtirok etdi. Sirdaryo viloyati g'oliblikka erishdi. Ta'kidlash lozimki, bu olimpiada Turkiston o'lkasining (Respublika) so'nggi yirik sport musobaqasi sifatida tarixda eslab o'tiladi. Chunki 1924-yilning oxiri va 1925-yil boshida Turkiston mustaqil respublikalarga (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va keyinchalik – 1928-yilda Tojikiston) ajratildi.

1924-yil 27-oktabrda O'zbekiston Mustaqil Respublika deb e'lon qilingan edi. O'sha davrda O'zbekiston Turkiston muxtor Respublikasi tarkibida bo'lib, barcha ishlarga ittifoq miqyosidagi idoralar, tashkilotlar tomonidan ko'rsatma berilar edi. Shu sababli 1918–1924-yillarda asosan, Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro shaharlaridagi temiryo'l ishchi xodimlari, zavod-fabrikalari, ba'zi bir rus maktab yoki gimnaziyalarida sport klublari tashkil etilgan edi. U joylarda futbol, boks, velosiped, yengil atletika kabi sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etilib, musobaqalar uyushtirilar edi. Tarixiy manbalarning tasdiqlashicha, bu musobaqalarda mahalliy millat vakillari deyarli ishtirok etishmagan.

1923-yilda «Dinamo» sport jamiyatining tashkil qilinishi Samarqand va Toshkent shaharlarida turli o'yin maydonlari, ayniqsa, «Dinamo» o'yingohlarining qurilishiga (1925–27 y.) asos soldi. Shu sababdan, mahalliy millat vakillari ham rus xalqi olib kelgan futbol, voleybol, sakrash, yugurish, granata uloqtirish mashqlari bilan shug'ullanadi. Mahallalarda terma jamoalar tuzilib dam olish kunlari, bo'sh vaqtlarda o'zaro musobaqalar uyushtirish odat bo'lib qoldi. 1927-yilda 1 Umumo'zbek spartakiadasi tashkil qilinib, futbol, yengil atletika, kurash, gimnastika kabi sport turlari bo'yicha terma jamoalar tayyorlandi. O'zbekiston sport vakillari 1928-yilda Moskvada 1 Butunittifoq spartakiadasida qatnashdi. Bunda O'zbekistondan 193 sportchi ishtirok etib, bulardan 44 kishi mahalliy millat sportchilari edi. Dunayev O., Ovsyannikov I., Tikunova hamda Murashko, Rikovalar yaxshi natijalar ko'rsatdi. O'sha davrlarda respublikada, uning joylarida jis-

moniy madaniyat va sportni tashkil etish, uni aholi o'rtasida targ'ibot qilish ishlarida S.S.Asfandiyorov – O'lka fizkultura Kengashi raisi, Xidiraliyev – Turkiston Markaziy Ijroiya komitetining raisi, Testeles N.M. kabi boshliqlar katta faoliyat ko'rsatdilar.

1927-yil Toshkentda 1 Umumo'zbekiston spartakiadasi o'tkazilgan va respublika sportchilarining Moskvadagi 1 Umumittifoq spartakiadasida (1928) ishtirok etishi o'quvchi va ishchi yoshlar o'rtasida sportning rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Shuningdek, ittifoq va respublika partiya va hukumatining qator qarorlari (1925, 1929, 1930) jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, unga rahbarlik qilish yo'llarini takomillashtirishga katta yo'l ochib berdi.

1929-yilda «Pravda Vostoka» va «Komsomoles Uzbekistana» gazetalari sovrini uchun birinchi marta yirik estafeta tashkil etildi. Unda turli tarmoqlarning sportchilari faol ishtirok etdi. «Dinamo», «Pechatnik», «Svyazist», «Jeleznodorojnik», «Kafanova», «Metallist», «Stroitel» kabi sport jamoalaridan 500 kishi qatnashdi.

Shu yili Farg'ona «Krasniy sportintern» stadioni qurib, ishga tushirildi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, milliy kurashga ham alohida e'tibor berildi. 1929-yil. Qo'qonda 1 jismoniy madaniyat milliy bayrami bo'lib o'tadi. Unda kurash bo'yicha polvonlar ko'rigi tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sovet mustamlakachiligining dastlabki yillarida (1917–1924) Turkiston Respublikasida Yevropa jismoniy madaniyati va hozirgi zamon sport turlari shakllandi. Markaziy Osiyoda O'zbekiston Respublika sifatida (1924 y.) o'quv yurtlarini tashkil qilish, yoshlarni kasbga tayyorlash, ishchi yoshlarning salomatligini yaxshilash hamda ularni sportga jalb etishda ancha ilg'or tajribalar to'plandi.

Maorif, madaniyat va sport sog'liqni saqlash tizimlarida jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor berildi.

Toshkent (1926), Samarqand (1927), Farg'ona (1929) va boshqa sanoat shaharlarida stadionlar qurildi, o'yin maydonlari va sport zallari yuzaga keldi. 1 Umumo'zbek spar-

takiadasi (1927) o'tkazildi, unda yurtning oqsoqoli Y.Oxunboboyev yoshlarga qarata murojaat qilib, jismoniy kamolot yo'lida muvaffaqiyatlar tiladi.

Jismoniy madaniyat harakatini ommalashtirishning dastlabki omillari (1931–1941)

Respublikada besh yillik rejalarning ilk bor qo'llanilishi (1929–1933) natijasida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi jismoniy madaniyat va sport sohasida ham jiddiy tadbirlar amalga oshirildi. Aslida barcha tadbirlarning yo'nalishi va ularning mazmunlari sovetlar mustamlakachiligining ta'siri asosida amalga oshirib kelingan. Mahalliy millat rahbarlari ijodiy va mustaqil mehnat qilishga jur'at etmagan. Shunday bo'lsa-da, xo'jaliklarni birlashtirish (kolxoz), fan, adabiyot va boshqa sohalarda rahbarlar, tashkilotchilar, ijodkor ziyolilar tahdid ostiga olinadi. Keyingi yillarda esa ular nohaq ravishda qatl qilinadi. (A.Ikramov, F.Xo'jayev, A.Qodiriy va juda ko'p taniqli kishilar).

Shunday og'ir va dahshatli yillarda kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi, sport qo'mitalari o'z faoliyatlarini u yoki bu darajada yuritishga muvaffaq bo'ladi. Buning asosiy sababi shundaki, Sho'rolar hukumati tomonidan mo'ljallangan barcha tadbirlar joylarda amalga oshirilishi majburiy bo'lganligi tufayli, unga so'zsiz amal qilgan tashkilotlar va rahbarlar ma'lum darajada tahdidlardan birmuncha ozod bo'lganlar yoki shubhadan chetda qolganlar. Bu yilda sport tashkilotlari va deyarli barcha sportchilar sharoitlarga moslashishga majbur bo'lganlar.

Ma'lumki, 1931–1934-yilda «Mehnat va mudofaaga tayyor» (GTO) jismoniy madaniyat majmui Sovet mamlakati bo'yicha joriy etilgan edi. U O'zbekistonda ham asosiy tadbir sifatida amalga oshirildi.

Respublika GTO nishondorlari 1931-yilda 2000, 1935-yilda 54.500 va 1940-yil oxiriga kelib esa 90.000 dan oshib ketadi.

1933-yilda Umumo'zbekiston spartakiadasi o'tkazildi. Unda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Andijon, Termiz, Qo'qon va Namangan shaharlaridan 8 ta terma jamoa ishtirok etdi.

1934-yil 5-sentabrda 1-besh yillikning zafarli yakunlariga bag'ishlab, I O'rta Osiyo spartakiadasi katta namoyish bilan boshlandi. Unda Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston terma jamoalari qatnashadi. Toshkentda o'tkazilgan bunday katta musobaqa namoyishida 36 ming jismoniy madaniyatchilar qatnashdi.

1935-yilda Ijroqo'm raisi Y.Oxunboboyev ko'rsatmasi bilan Toshkentda jismoniy madaniyat texnikumi ochildi.

Respublika sport qo'mitasi raisi, mashhur polvon Asqar Otaboyev rahbarligida shaxmat ustalaridan biri Zokir Xo'jayev shaxmatchilar maktabini tashkil qildi.

Shu yillarda deyarli barcha viloyatlarning markazlarida sport qo'mitalari tashkil etildi.

Xalq maorifi komissarligi, sport qo'mita, kasaba uyushmalari va yoshlar ittifoqi tashkilotlarining hamkorligida mutaxassislar tayyorlash maqsadida bir yillik jismoniy tarbiya kursi tashkil etildi. 1940-yil oxirida bu kursni 300 dan ortiq kishi bitirib chiqdi. Kurslar va texnikumni yaxshi tamomlagan sportchilarning bir qismi Moskva va Leningrad jismoniy madaniyat institutlariga o'qishga yuborildi.

1940-yilga kelib, jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanuvchilar soni 140 mingdan oshib ketadi va ular 30 ta sport jamiyatlariga birlashadi. Shu yillarda sportchilar orasida yetakchi va taniqli kishilar paydo bo'la boshladi. Ulardan A.A.Arzumanova, N.G.Sig, T.I.Prinsev, A.I.Fadeyev, S.A.Mkrtumyani, S.N.Freyman, S.P. Yevlachkov kabilar mamlakat sport ustasi unvoniga sazovor bo'lishdi. A.Xo'jayev, T.Odilov, I.Rizayev, F.Xasanova kabilar ham mashhur bo'lishadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari va keyingi qayta tiklash davrida jismoniy tarbiya va sport (1941–1950)

Sobiq Ittifoqning barcha mintaqalaridagi kabi, O'zbekistonda ham o'quvchi va ishchi yoshlar o'rtasida harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlariga jiddiy e'tibor berildi. Chunki urush sharpalari eshik qoqmoqda edi. Bunday jarayonlarda asosan MMT (GTO) jismoniy madaniyat majmuining mazmuni va talabalari davr sharoitiga moslashtirildi. Oradan uncha ko'p vaqt o'tmasdanoq bu majmua deyarli to'la harbiy tayyorgarlik mashqlari bilan to'ldirildi.

Gitlerchi nemis bosqinchilarining 1941-yil 22-iyundagi to'satdan jang qilishi O'zbekiston aholisini ham larzaga soldi. Deyarli barcha jismonan sog'lom yigit va katta yoshdagilar urush va mehnat frontiga safarbar etildi.

O'quvchi yoshlarga jismoniy va harbiy mashqlar o'rgatila boshlandi. Deyarlik barcha sport jamiyatlari harbiy xizmatga o'rinbosarlar tayyorlashga kirishdi. «Spartak» sport jamiyatida 1941-yilda 198 ta pulemyotchi, juda ko'p chavandozlar tayyorlandi. «Dinamo» sport jamiyatida 6412 granatamyotchi, 242 chavandoz, 102 avtomashina va mototsiklni haydovchilarni tayyorlab chiqardi.

1942-yil Farg'ona viloyatida 44247 granatamyotchi, 21266 nayzaboz jangchi, 16500 pulemyotchi 2021 tank yondiruvchi, 35 avtomatchi va 65 mergan tayyorlandi. Bunday hollar Samarqand, Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlarda ham amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida yoshlar va katta yoshdagi kishilar orasida MMT (GTO) nishondorlarini tayyorlash eng muhim tadbirlardan biriga aylanadi. Ularning natijalari haqida quyidagi dalillar guvoh bo'la oladi, ya'ni:

	BGTO	GTO-1	GTO-2
1942 yilda -	25334	53312	1313
1943 yilda -	29391	53854	1313
1944 yilda -	32339	52292	943
1945 yilda -	-	79741	2469

Ta'kidlash lozimki, bo'lajak jangchilarning harbiy tayyorgarlik va MMT (GTO) nishoniga tayyorlashda vatanparvarlik, jasurlik va dushmanga ayovsiz zarba berish to'g'risida harbiy boshliqlar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda ota-onalar doimiy ravishda murojaat qilishdi. Shu sababdan, mamlakatimiz jangchilari urush yillarida jonlarini fido qilib, qahramonliklar ko'rsatdi. Ular orasida N.Kochnyev, S.Salnikov, Yu.Yevdakimov, M.Maslakov, P.Klyaus, A.Barzenko, A.Sirojyev, X.Maksimov, H.G'ulomov, Sh.Qurbonov, J.Usmonov kabi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylari bor edi. Ularning ko'pchiligi urushdan omon qaytib, o'z faoliyatlarini yana muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

1945-yil 12-avgustda Moskvada «Dinamo» stadionida Butunittifoq jismoniy madaniyatchilar namoyishi o'tkazildi. Unda yuzdan ortiq O'zbekiston sportchilari ham ishtirok etdi. Urushdan keyingi tinch, qayta qurish yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari asta-sekin izga tusha boshladi. 1946–1947-o'quv yilidan boshlab maktablar, bilim yurtlari, texnikumlar va Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslari o'tkazila boshladi, lekin ularning mazmunida hali ham harbiy-jismoniy mashqlar asosiy o'rnida turar edi. Chunki yangi dastur ishlab chiqilmagan edi.

Sport jamiyatlarida ham ishlar ancha tiklanib musobaqalar tashkil qilish, ularga yoshlarni jalb etish qizg'in olib borildi. A.Kashayev (shtanga), S.Popov (to'siqli yugurish) va N.Shulga (motokross) kabi ittifoq chempionlari yetishib chiqdi.

Bu davrlarda respublika partiya va hukumati rahbarlari jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor berdi. 1950-yil mart oyida respublika qishloq sportchilarining «Paxtakor» ko'ngilli sport jamiyati ta'sis etildi. Unda 1969 ta boshlang'ich jamoa bo'lib, 100 mingdan ortiq qishloq yoshlarini o'ziga jalb etgan.

1949-yilda o'tkazilgan Butunittifoq jismoniy madaniyatchilar namoyishida Oliy o'quv yurtlari talabalari ham ishtirok etgan. Ular orasida Orif Ikromov (O'zGU-hozirgi SamDU) qatnashgan edi. Keyinchalik bu kishi Samarqand, QarshiDPI rektori, professor, filologiya fanlari doktori dara-

jasiga yetadi. U kishining eslashicha «Paradda qatnashish minglab kishilar orzusi edi, lekin tanlovlarda saralab olinganligi uchun juda oz kishi unga muyassar bo'lar edi» - deydi.

Sport jamiyatlarining tashkil etilishi va rahbarlik usullari (1951–1956)

Urushdan keyingi yillarda tarmoqli jismoniy madaniyat va sport jamiyatlari tiklanib, ular o'z faoliyatlarini sportning ommaviyligini amalga oshirishga harakat qildi. Oliy o'quv yurtlarida «Nauka» («Fan»), O'rta maxsus o'quv yurtlari va mayda ishlab chiqarish korxonalarida (fabrika, savdo shahobchalari va h.k.) «Iskra» («Alanga»), «Lokomotiv», «Dinamo», «Paxtakor» kabi respublika va viloyatlarning sport jamiyatlari faol ish olib borishdi.

1951–1956-yillarda sport jamiyatlarining birinchiliklari, tarmoq spartakiadalari va turli xil sport musobaqalarida sport jamiyatlarining tashkilotchilik ishlari sezila boshladi.

1951-yil Samarqand, Xo'jayli, Kosonsoy, Termiz va Angren shaharlarida jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtlari tashkil etildi. Ular boshlang'ich va yetti yillik (o'sha davrda) maktablar uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda yangidan ish boshladi.

1952-yil Toshkent DPI tarkibidagi (1949 y.) jismoniy tarbiya fakulteti mustaqil bo'ldi. 1954-yil Farg'ona, 1956-yil Nukus DPIda ham jismoniy tarbiya fakultetlari ochildi.

1955-yil sentabr-oktabr oylarida O'zbek Davlat jismoniy madaniyat instituti tashkil etilib, iqtidorli sportchilarni talabalikka ilk bor qabul qildi.

1956-yil O'zbekiston sport tarixida salmoqli o'rinni egallaydi. Ya'ni shu yili yozda «Paxtakor» sport majmui qurilib bitkazildi va unda O'zbekiston sportchilarining eng katta bayrami bo'lib o'tdi. Bu tantana 1956-yilga SSSR xalqlarining 1-spartakiadasiga ko'rik-sinov tajribasini o'tadi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda respublika va viloyatlardagi «Dinamo», «Spartak»,

«Paxtakor», «Fan», «Alanga» va boshqa sport jamiyatlari yangi usullar bilan faoliyat ko'rsatdi. Bunda yoshlarni sport unvonlari va darajalarini olishga bo'lgan qiziqishlari, yangi sport kiyimlari bilan ta'minlash, nishonlar (emblema) bilan sport maydonlariga chiqishga havas uyg'otish ustuvor edi.

Ta'kidlash lozimki, Butunittifoq jismoniy madaniyatchilar namoyishiga tayyorgarlikda davlat va sport jamiyatlarining katta mas'uliyati zarur edi. Shu sababdan, unga maxsus tayyorgarlik ishlari 1—2 yil davom etar edi. Eng so'nggi (1954 y.) namoyishga tayyorlanish va unda qatnashish juda qiziqarli hamda muvaffaqiyatli bo'lgan edi. Namoyishga 300 dan ortiq yigit va qizlar ishtirok etdi. Ular orasida Samarqandlik M.Haqberdiyeva va jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtining talabalari A.Abduhakimov, D.Sharopov, N.Rahimovlar ham bor edi.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport sohasida ulkan yutuqlarga erishildi. Sport jamiyatlarining markazlashgan rahbarlik faoliyatlari (1957, 1987) sportga rahbarlik qilishning davlat jamoatchilik (1959—1968) usullari birmuncha markazlashtirildi va takomillashtirildi. Sport bilan shug'ullanuvchilarning ko'payishi, mutaxassislar tayyorlashning yangi yo'lga qo'yilishi (1966 y. qaror asosida), sport inshootlarining qurilish ko'lami oshishi ancha ortdi (A.K.Akramov, 1997-yil).

O'zbekiston sportchilari ittifoq miqyosidagi yirik musobaqalarda yaxshi natijalarga erisha boshladi. Bir qator iste'dodli sportchilar Ittifoq terma jamoalar tarkibida jahon sport musobaqalari hamda Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib, yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Opa-singil Tamara va Irina Presslar (yengil atletika). V.Bandarenko (suzish), R.Sarkisovning gimnastika maktabi o'nlab iqtidorli sportchilarga (S.Diamidov, E.Saddi, T.Ibrohimov,E.G'iyosov va h.k.) oq yo'l berdi.

Turli davrlarda respublika sport shuhratini suzuvchi S.Babanina, kurashchi R.Qozoqov, sambochi S.Qurbonov, bokschi R.Risqiyev, velosipedchi A.Yudin, yengil atletikachi V.Ballod, basketbolchi R.Salimova, voleybolchi V.Duyunova,

chavandoz M.Ismoilov, qilichboz S.Ro'ziyev kabilar munosib himoya qilishdi.

80-yillar boshida respublika va ittifoqqa tanilgan sportchilar viloyatlardagi jamoalarda ko'paydi.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlarini yanada ommalashtirishga qaratilgan (1972. 1981. 1985) GTO (MMT) majmuasini yangi pog'onaga ko'tarish, aholining barcha tabaqalarini ommaviy sportga jalb etish va ayniqsa, madaniy-sport majmuasi inshootlarini yangidan qurish, ularni yanada kengaytirishga qaratildi. Toshkentdagi «Traktor», «To'qimachi», «Temir yo'lchi», «Start», «O'z milliy banki» sport inshootlari va barcha viloyatlardagi sport inshootlari yangi talab asosida KSK (madaniyat sport majmuasi) deb ataldi.

Bu o'sha davrning baland parvoz ishlari edi, xolos. Lekin stadion peshtoqida KSM deb yozilgani bilan uning atrofi va ichkarisida deyarli hech narsa yo'q edi.

Sovetlar mustamlakachiligiga xos ravishda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha turli komissiyalar tashkil etila boshladi. Bunda Respublika bosh rahbari Sh.R.Rashidov ancha tashabbus ko'rsatdi. O'sha davrdagi asosiy rahbarlar sportning u yoki bu turiga mas'ul etib tayinlandi. Bu faoliyatlar viloyatlar va tuman, shaharlarda ham aynan shu maqsadda tashkil etildi. Natijada, viloyatlar va cho'l hududlaridagi xo'jaliklarda o'nlab stadionlar, suv havzalari, yuzlab futbol maydonlarining qurilishini ta'minladi.

O'zbekiston sportchilarining Butunittifoq spartakiadalaridagi ishtiroklari (1956–1991)

Eng avvalo e'tirof etish lozimki, o'sha davrlarning taniqli sportchilari va rahbar xodimlari O'zbekiston sportchilarining SSSR xalqlari spartakiadalaridagi ishtiroki haqida maxsus qo'llanmalar yaratishgan. Ular orasida Yu.S.Sholomitskiy, R.Ismoilov va K.P.Ten kabilarning ishlari e'tiborga loyiqdir. Ularning eng asosiy tomonlari yuqorida bayon etildi.

Oradan 28 yil (1928) o'tgach, 1956-yilning avgustida SSSR xalqlarining 1 spartakiadasi bo'lib o'tdi. Unga tayyorgarlik uchun O'zbekiston IX spartakiadasi tashkil etilib, saralab olingan sportchilardan terma jamoalar tuzildi.

Spartakiadada ba'zi sportchilar yuqori natijalarga erishdi. A.Beliskiy ot sportining ikki turida 1-o'rinni egalladi. V.Ballod balandlikka sakrash bo'yicha chempion unvoniga sazovor bo'ldi. Respublika sportchilari dasturdagi barcha sport turlari bo'yicha ishtirok etib, umumjamoa hisobida 11-o'rinni egalladi. Basketbol—erkaklar-14, ayollar-15, boks-15, erkin kurash-12, klassik kurash-10, veloshosse-8, suv polosi-10, voleybol-erkaklar-14, ayollar-15, gimnastika-8, baydarka va kanoe haydash-16, suvga sakrash-8, merganlik-9, stendga otish-16, tennis-13, og'ir atletika-7, qilichbozlik-14, futbol-11, ot sporti-4, yengil atletika-9, suzish-9 o'rinlardan joy olgan edi.

II spartakiada 1959-yil o'tkazilgan, uning dasturlarida 22 sport turi bor edi. Birinchi o'rinni Moskva, ikkinchi o'rinni Rossiya, uchinchi o'rinni Leningrad jamoalari egalladi.

O'zbekiston esa 12—13-o'rinni egalladi. Spartakiada R.Abloyev (67 kg) klassik kurashda birinchi, Yu.Zelenin (73 kg), ikkinchi o'rinni egalladi. K.Vayshteyn (boks, 67 kg) ikkinchi, A.Tangiy (79 kg) to'rtinchi o'rinni egalladi. O.Ryaxovskiy (uch xatlab sakrash). 2-o'rin, V.Ballad (balandlikka sakrash) 3-o'rin, N.Chuvilin (langarda sakrash) 4-o'rinni, I.Abdullayev (erkin kurash, 52 kg) 3-o'rinni egalladi.

Sport turlarida: basketbol—erkaklar-15, ayollar-13, boks-8, erkin kurash-10, klassik kurash-8, velosport-6, suv polosi-8, voleybol-erkaklar-15, ayollar-11, gimnastika: erkaklar-7, ayollar-7, baydarka va kanoe haydash-13, ot sporti-12, yengil atletika-12, suzish-9, suvga sakrash-7-11 o'rinlar, zamonaviy besh kurash-13—17, merganlik-8, stendga otish-9, tennis-18, stol tennisi-13, og'ir atletika-8, qilichbozlik-13, shaxmat-12 o'rinda edi.

Sportchilarimiz SSSR tashkil topganining 60 yilligiga bag'ishlangan yoshlarning Butunittifoq III sport o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Bu musobaqalarda

O‘zbekiston sport delegatsiyasi umumjamoa hisobida yettinchi o‘rinni egallab, 37 ta oltin, kumush va bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

O‘zbekiston hukumati yoshlarning Butunittifoq III sport o‘yinlarida respublikamiz sportchilari erishgan ko‘rsatkichlarini yuqori baholadi. Namuna ko‘rsatgan sportchi va trenerlar O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoniga ko‘ra taqdirlanishdi: 13 kishi O‘zbekiston SSR Faxriy unvoniga ega bo‘ldi, 33 kishi O‘zbekiston SSR Oliy soveti prezidiumining Faxriy yorliqlari bilan mukofotlanishdi.

Yoshlar Butunittifoq o‘yinlarining yakunidan ma’lum kamchiliklar, mutaxassislarning xato va yanglishishlari oqibatida sportning ayrim turlari bo‘yicha terma jamoalar yoshlar o‘yinlarida o‘z imkoniyatlaridan past darajada qatnashishdi. Basketbolchi, futbolchi, chavandozlarimiz va stol tennisi bo‘yicha jamoamiz ko‘rsatkichi past bo‘ldi. Yelkanchi va kamonchilarimiz natijalari baholanmadi, ham.

Qiyosiy ma’lumotlardan ko‘rinib turganidek, barcha hududiy sport tashkilotlari III yoshlar o‘yinlarida avvalgisiga nisbatan umumjamoa jamg‘armasiga ko‘proq hissa qo‘shdilar.

Yoshlarning I, II, III, Butunittifoq sport o‘yinlarida respublikamiz terma komandalari ishtiroki

1-jadval

T.r	Sport turi	Egallagan o‘rinlar		
		1-o‘yinlar	2-o‘yinlar	3-o‘yinlar
1	Basketbol (o‘smirlar)	14	10	11
2	Basketbol (qizlar)	15	16	10
3	Klassik kurash	12	6	6
4	Erkin kurash	14	11	7
5	Dzyu-do kurashi	15-17	16	6
6	Sambo kurashi	o‘tkazil-magan	3	4
7	Boks	7	5	6
8	Voleybol (o‘smirlar)	6	14	6
9	Voleybol (qizlar)	4	7	6

10	Suv polosi	3	7	3
11	Shosseda velosiped poygasi	5	1	3
12	Trekda velosiped poygasi	6	9	7-8
13	Akademik eshkak eshish	10	9	12
14	Baydarka va kanoeda eshkak eshish	10	10	4
15	Sport gimnastikasi	9	12	9
16	Ot sporti	14	6	12
17	Yengil atletika	8	8	8
18	Yelkanli sport	12	ochkosiz	ochkosiz
19	Suzish	7	7	6
20	Suvga sakrash	8	ochkosiz	9
21	Qo'l to'pi (o'smirlar)	6	7	8
22	Qo'l to'pi (qizlar)	9	5	6
23	Zamonaviy besh kurash	12	ochkosiz	13
24	O'q otish	8	5	10
25	Stendga otish	10	ochkosiz	5
26	Kamondan otish	ochkosiz	ochkosiz	ochkosiz
27	Og'ir atletika	10	3	2
28	Qilichbozlik	10	8	11
29	Futbol	o'tkazilmagan	4	12
30	Shaxmat	6	8	6
31	Badiiy gimnastika	o'tkazilmagan	o'tkazilmagan	3
32	Xokkey (o'smirlar)	-	-	4
33	Stol tennisi	-	-	11
34	Xokkey (qizlar)	-	-	1
35	Sinxron suzish	-	-	7
36	Tennis	-	-	5

Toshkent shahri: 2—o'yinlarda 856,7 ochko, 3—o'yinlarda 1054 ochko, Toshkent viloyati: 198,2—421,3, Farg'ona viloyati: 51,9—277,3, Andijon viloyati: 126,7—159,9, Samarqand viloyati: 93—98,3, Navoiy viloyati:

qatnashmagan–61, Sirdaryo viloyati: 37–51,9, Surxandaryo viloyati: 19,6–29,3, Namangan viloyati: 1,7–27, Qoraqalpog'iston Respublikasi: 0,66–26,8 Jizzax viloyati: 0,66–22,5, Buxoro viloyati: 230,8–17,56, Qashqadaryo viloyati: 2–11,5 ochko. Xorazm viloyati esa birorta zachyot ochkosiga ega bo'lmadi.

Ko'ngilli sport jamiyatlari va idoraviy jismoniy madaniyat tashkilotlarining qiyosiy ma'lumotlari quyidagicha: «Mehnat»: 479,7–527, «Burevestnik»: 305,3–446, Qurolli Kuchlar: 192–368,6, «Spartak»: 131,7–271,6, «Mehnat rezervlari»: 118–259,6, «Dinamo»: 183,4–227,7, «Zenit»: 18,5–148,1, «Lokomotiv»: 71,6–138,3, «Paxtakor»: 142,3–92, «Yosh kuch»: 26,7–71,3.

III spartakiada 1963-yil bo'lib o'tdi. Bu musobaqalarga tayyorgarlik va sinov sifatida O'zbekiston XII spartakiadasi tashkil etildi.

Uning barcha bosqichlarida 3.200.000 kishi qatnashdi. 128 nafar kishi sport ustasi unvoniga sazovor bo'lishdi.

IV spartakiada 1967-yil avgustda tashkil etilib, u SSSRning 50 yillik yubileyiga bag'ishlandi. O'zbekiston 22 ta medallarni egallab 9-o'ringa chiqdi.

V spartakiada 1971-yil bo'lib o'tdi. O'zbekiston avvalgi musobaqalarga nisbatan past darajada qatnashib, 11-o'ringa erishdi.

VI spartakiada 1975-yil 17 ta shaharda o'tkazilib, 27 sport turi bo'yicha bahslar bo'lib o'tdi. Spartakiadaning asosiy shiori MMT (GTO) talabalarini ommaviy ravishda bajarishga chaqirish bilan tantanali ko'rgazmalar tashkil etildi.

O'zbekiston terma jamoalari 9-o'ringa chiqib olishdi.

1979-yil SSSR xalqlarining VII spartakiadasi Moskvada bo'ladigan XXII Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik va sinov edi. Shu sababdan, barcha ittifoqchi respublikalar qatori O'zbekiston o'zining VII spartakiadasini eng yuqori saviyada o'tkazdi. Uning tantanali ochilishi va yakunlariga bag'ishlab «Paxtakor» stadionida juda katta sport bayram-namoyishi o'tkazildi.

VII spartakiada 1979-yilda o'tkazilib, u Moskvada bo'ladigan (1980) XXII Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik taraddusi bilan olib borildi. A.Qiyomov spartakiadada bronza medaliga sazovor bo'ldi. Chim xokkey bahslarida «Andijon» jamoasi Moskva viloyatning «Spartak» jamoasi bilan final uchrashuvida g'olib chiqib, chempion bo'lishdi. Jamoa tarkibida A.Kondratenko, R.Mustafayeva, G.Mamutova, X.Ismboyeva, M.Platonova, V.Zazdrovnik, Z.Chausi, M.Haydarova, N.Garbatkova, A.Xam, L.Axmerova, F.Qodirova, M.Lyashchenko, E.Orifjonova, S.Rissolova kabilar o'ynadi.

Umumjamoa birinchiligida O'zbekiston ilk bor 7-o'rinni (5307,4 ochko) egalladi. Sportning deyarli barcha turlarida O'zbekistonning sportchilari haqli ravishda faxrli o'rinlardan joy olishdi.

VIII spartakiada 1983-yil sport turlari bo'yicha Moskva, Toshkent, Almati, Tallin, Dnepropetrovsk, Vilnyus, Lvov, Kaunas, Ryazan, Tula va Ivanova shaharlarida o'tkazildi.

Spartakiadaning dasturi asosida ilk bor uch guruhga bo'lib musobaqalar tashkil etildi. Birinchi guruhda: Rossiya, Moskva, Leningrad, Ukraina, Belarussiya jamoalari edi. Ikkinchi guruhda: Qozog'iston, Gruziya, O'zbekiston, Litva, Latviya jamoalari bo'lib, ular orasida Qozog'iston g'olib chiqdi. Uchinchi guruhda: Armaniston, Ozarboyjon, Moldaviya, Estoniya, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston jamoalari o'zaro musobaqalashdi va Armaniston g'olib chiqdi.

IX spartakiada 1987-yil 23 ta shaharda tashkil etilib, ularda sportning 37 turi bo'yicha kurash olib borildi. Rossiya sportning 17 turi (1-o'rin), Ukraina-12 turi (II) va Moskva shahri esa 7 tur bo'yicha (III) g'oliblikni qo'lga kiritdi. Leningrad, O'zbekiston, Ozarboyjon, Tojikiston va Turkmaniston sportchilari juda sust qatnashdi.

X spartakiada (eng so'nggi) 1991-yil. 6-iyulda Lujnikidagi Bosh Olimpiya stadionida ochildi. Bu spartakiada avvalgilaridan farqli o'laroq uch dasturdan iborat edi.

Birinchi dasturda voleybol, mini futbol, badminton, tennis, gorodki, tosh (gir) ko'tarish, yengil atletika, sportcha chamalash (Oriyentirovaniye), bilak kuchini sinash, shaxmat-shashka va bir qator boshqa turlar bo'yicha xohlagan kishi ishtirok etishi mumkin edi. Bu musobaqalar «O'zingni sina» («Ispitay sebya») shiori ostida o'tadi.

Ikkinchi dasturida «Hordiq chiqaring» («Otdixayte»), «Mashg'ul bo'ling» («Razvlekaytes») shiori ostida musobaqalar bo'lib o'tdi. Bu asosan startga chiqish, namoyish, maslahatlar berish (konsultatsiya) va noan'anaviy mashg'ulotlarining 23 turidan (akrobatik rokn-roll, sheyping, kikboksing, taekvando, toshlarni (girlar) o'ynatish, atletik gimnastika, trial, lapta, motobol, aykido va h.k.) musobaqalar, ko'rsatuv-namoyishlar bo'lib o'tadi.

Uchinchi dasturda «Sevimli» («Lyubopitno»), «qiziqarli» («Interesno»), «chorlovchi» («uvlekatelno») shiori ostida taniqli sportchilar, sport jurnalistlari, sport tashkilotlarning rahbarlari bilan uchrashuvlar, muloqotlar o'tkazildi.

Bu tadbirlar 6—13-iyulda stadionda xalq festivali tarzida o'tdi. Iqtisodiy va siyosiy tushkunliklar ta'sirida spartakiada ko'ngildagidek o'tmadi. Eng kuchli sportchilar bu tadbirlarda ishtirok etmadi. O'zbekiston sportchilari ham bu tadbirlarda ishtiyoqsizlik bilan qatnashdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sportchilari har bir davrda o'zlarining spartakiadalarini o'tkazib, eng iqtidorli sportchilarni tanlab va tarbiyalab SSSR xalqlari spartakiadalariga (1959—1991) muntazam ravishda jiddiy tayyorgarliklar ko'rishgan. Bu yo'lda hukumat qarorlarini amalga oshirish bilan sport inshootlari kengaytirildi. Mutaxassislar soni va sifati oshirildi. Yetuk sportchilar respublika shuhrati uchun kurash olib bordi va o'z mahoratlarini namoyish etish-di. Minglab iste'dodli sportchilar va yetakchi murabbiylar tarbiyalandi. Ular keyingi davrlarda yoshlarga o'z tajribalarini singdirish bilan muvaffaqiyatli ravishda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Ta'kidlash lozimki, spartakiadalarning g'oliblari Olimpiya o'yinlarining ishtirokchisi yoki murabbiy sifatida keyingi

boblarda alohida tilga olinadi.

E'tirof etish lozimki, O'zbekiston sportchilarini SSSR xalqlari spartakiadalari, ayniqsa, Xalqaro sport musobaqalari, Olimpiya o'yinlariga tayyorlashda sobiq mahoratli sportchilar, ya'ni keyingi murabbiylarning xizmatlari g'oyat kattadir. O'zbekiston sport taraqqiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan murabbiylardan biri, I.I.Chuvilin hisoblanadi. U 20 yil davomida respublika terma jamoasida ishtirok etib, langar cho'pda sakrash va o'n kurashda respublikaning rekordchisi, bir necha marta chempioni bo'lgan. 1968-yilda 18-marotaba chempion bo'lgan. I—II va III SSSR xalqlari spartakiadasining sovrindori va SSSR chempioni bo'lgan. Umrining so'nggi davrida Toshkent militsiya Oliy maktabining katta o'qituvchisi va kafedra boshlig'i bo'lib ishlagan va podpolkovnik unvoniga ega bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya va sobiq sovetlarning mustamlakachilik davrida O'zbekistonda jismoniy madaniyat harakatida salbiy va ijobiy ta'sirlar amalga oshirildi. Salbiy ta'sirlardan biri shundaki, mahalliy millat yoshlarini sportga jalb etish, ulardan mutaxassis tayyorlashga jiddiy e'tibor berilmadi. Ikkinchidan esa milliy o'yinlarni (ot o'yinlari, harakat o'yinlar) taqib ostiga olindi.

Ijobiy tomoni shundaki, o'quv yurtlari tashkil etilib, ularda jismoniy tarbiya darslari o'tkazildi. Sport turlari aholi o'rtasiga singib bordi. Musobaqalar tashkil etildi. Sport inshootlari qad ko'tardi. Ittifoq miqyosidagi sport musobaqalar va spartakiadalarga qatnashish imkoniyati yaratildi.

Majburiy bo'lsa-da, jismoniy tarbiya tizimi amalga oshirildi. Bu esa aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratdi.

Respublika partiya va hukumat rahbarlari jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida mutaxassis tayyorlash amalga oshirildi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida yetakchi olimlar, murabbiylar soni ancha oshdi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Hozirgi O‘zbekiston hududlarida qadimgi davrda yashagan ajdodlarimizning jismoniy tarbiyasi qaysi manbalarda ko‘proq ifoda etilgan?

2. Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston o‘lkasida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha qanday muhim tadbirlar o‘tkazildi?

3. Sobiq Ittifoqning dastlabki yillarida (1918–1924–1928) O‘zbekistonda sportning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?

4. 1928-yilda Moskvada qanday yirik sport musobaqasi o‘tkazildi, unda O‘zbekistonliklarning ishtiroki haqida so‘zlang?

5. Ikkinchi jahon urushigacha sport sohasida qanday muhim rivojlanishlar bo‘ldi? Mehnat va mudofaaga tayyor (GTO) majmui haqida nimalarni bilasiz?

6. Ikkinchi jahon urushi yillari (1941–1945) va keyingi tinch qurilish davrida (1946–1950) O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning holati qanday darajada edi?

7. O‘zbekiston spartakiadalari, «Paxtakor» sport jamiyati faoliyati haqida qanday yangiliklar yuz berdi?

8. SSSR xalqlari spartakiadalarida O‘zbekiston sportchilari qanday ishtirok etdi?

9. Kadrlar tayyorlash, sport inshootlarini qurish, ommaviy sport musobaqalarini tashkil qilishda qanday muhim tadbirlar o‘tkazildi?

XI bob. O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI DAVRIDA (1991–2005) JISMONIY TARBIYA VA SPORT TARAQQIYOTINING TARIXIY XUSUSIYATLARI

11.1. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni hamda Respublika hukumatining qarorlari

Ma’lumki, sobiq SSSRning inqirozga uchrashi XX asrning so‘nggi 10 yilligi boshlaridayoq jahon miqyosida namoyon bo‘lgan edi. Markazdagi rahbarlar o‘rtasida keskin ixtiloflar yuz berishi oqibatida 1991-yil avgustida davlatni to‘ntarish tashkil etildi. Lekin uning natijasi kutilganidek bo‘lmadi. Natijada esa sobiq Ittifoqchi respublikalar o‘zlarini mustaqil davlatlar, deb e’lon qildilar. Ular qatorida birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston ham respublika Prezidenti I.A.Karimovning 1991-yil 31-avgustdagi Farmoniga asosan mustaqil Respublika deb rasmiy ravishda e’lon qilindi. Shunga asosan 1991-yil 1-sentabrda umumxalq bayrami, ya’ni mustaqillik kuni deb shodiyona sifatida katta tadbir tashkil qilindi. Har yili 31-avgust va 1-sentabr kunlari butun O‘zbek xalqi katta bayramni o‘tkazib kelmoqda. Bunday ulug‘vor kunni yurtimizdagi barcha millatlar ham o‘zilarining eng quvonchli bayrami deb his qiladilar.

Mustaqillik, erkin fikr yuritish, adolat va teng huquqlik yurtdoshlarimizga yangi baxt-saodat keltirdi.

Bunda jismoniy madaniyat va sport harakati ham o‘zining haqli ravishdagi milliy maqomiga ega bo‘ldi.

Respublikaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy salohiyatida jismoniy madaniyat va sport ham o‘z o‘rni hamda mavqeiga egadir. Bunda Prezident I.A.Karimov va hukumatimizning g‘amxo‘rligi olqishga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti mustaqillikka erishish va uning istiqbolida aholi salomatligining o‘ta qimmatliligini va unga ega bo‘lish yo‘llarini katta ko‘tarinkilik bilan izhor qilib bergan, ya’ni: «Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrlashganda, avvalo, chin yurakdan salomatlik tilashgan... Zaminimiz polvonlar va botirlarini mehr bilan tarbiyalab kelmoqda. Bugungi kunda hamma joyda sportning milliy turlari qayta tiklanmoqda... o‘zining salomatligi haqida shaxsan g‘amxo‘rlik qilib borish madaniyatini yoshlikdan, maktab, mahalla, sog‘liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sportning ko‘magida singdirish kerak»,[1] - deb haqli ravishda aytgan.

E’tirof etish kerakki, mustaqil O‘zbekistonning jismoniy madaniyat va sportini yanada rivojlantirishga asos bo‘luvchi eng muhim tadbirlar ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni (1992-yil 14-yanvar) barcha aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berishni kafillikka oladi. Bu qonun 2000-yilda yangi tahrirda qayta qabul qilindi.

Shu qonunga muvofiq «Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalari va o‘quv yurtlari har yili kamida bir marta maktabgacha yoshdagi bolalarning hamda o‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini ko‘rikdan o‘tkazish belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, qonunda umumta’lim maktablarida, boshqa o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha imtihonlar o‘tkaziladi».[2] – deb ko‘rsatilgan. Bu esa o‘quvchi yoshlarning salomatligini mustahkamlash, jismoniy kamolotini oshirish, ularni mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli kishilar qilib tarbiyalashga qaratilgandir. Bu imkoniyat va talablarni har bir o‘quvchi yoshlar o‘z tafakkurlari bilan tushunishlari, mustaqil O‘zbekistonning

---

[1] I.A.Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», T., «O‘zbekiston», 1992 y. 69–70-betlar.

[2] «Xalq so‘zi» gazetasi 1992-yil 19-fevral.

istiqboliga hissa qo'shish uchun bor imkoniyatlarni ishga solish, o'z burchlarini ado etishlari kerak. Ma'lumki, Respublika Oliy Kengashining sessiyasida (1992-yil iyul, 1997-yil 29-avgust) «Ta'lim to'g'risidagi» qonun qabul qilinib, unga ta'lim oluvchilarning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratish, o'qish, mehnat qilish, dam olish uchun ta'lim muassasalari mas'uldir deyilgan.[1] Bu ikki qonunning mazmun va mohiyati o'zaro mujassamlashib, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgandir.

O'quvchi yoshlarning ta'lim olishlari va ularni doimo sog'lom bo'lishlarini davlat qonunlari bilan muhofaza qilish, bo'lajak mutaxassislarning porloq kelajagini ta'minlash, deb talqin qilish lozim. Shu tufayli barcha o'quvchi yoshlar qayerda ta'lim olmasin, ularga berilgan imtiyozlardan foydalanish, jismoniy kamolotni ta'minlash, uning ijtimoiy mohiyatlarini yanada ko'tarish, uni imkoni boricha, inson hayotidagi yuksak omilkor ekanligini kelajakka meros qilib qoldirish kerakdir.

Shu sababdan, respublika sportining istiqbolidagi asosiy manbalarning holati va uni rivojlantirish omillaridan xabardor bo'lish muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston jismoniy madaniyat va sport taraqqiyotining ba'zi bir ko'rsatkichlari quyidaglardan iborat.

[1] «Xalq so'zi», gazetasi, 1992-yil 23-iyul, 1997-yil 3-sentabr sonlari.

1-jadval

Respublikada jismoniy tarbiya va sport bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar

	Maktablar soni			O'quvchilar soni			Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni			Maxsus tibbiy guruhda shug'ullanuvchilar soni			Sport seksiyalarida shug'ullanuvchilar soni		
	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002
Jami:	9661	9668	9662	5.734.828	5.967.046	6.041085	5.624.776	5.935.028	5.929.338	14066	18564	20210	1.317.094	1.463344	1.573.613
Tafovut	-	+7	+24	-	+232218	+74039	-	+310252	+269069	-	+4498	+1646	-	+146250	+110269

Sport inshootlari

	Stadionlar			Sport zallari			Basketbol			Voleybol			Qo'l to'pi		
	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002
Jami:	19	30	29	4361	4872	4980	6259	6443	6501	9263	9430	9406	4530	4731	4899
Tafovut	-	+11	-1	-	+511	+108	-	+184	+58	-	+167	+24	-	+201	+168

Sport inshootlari

	Tennis korti			Futbol maydoni			Mini-futbol maydoni			Yengil atletika			Suv havzasi		
	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002
Jami:	130	172	155	4676	4957	4932	3395	3314	3386	161	236	331	112	130	145
Tafovut	-	+42	-17	-	+281	-25	-	-81	+75	-	+75	+95	-	+18	+15

Respublikadagi 14577 ta jismoniy madaniyat jamoalarida 5 mln. 549 ming 908 kishi shug'ullanadi. Shu jumladan, 64 ta oliy o'quv yurtida 134977 kishi, 225 ta o'rta maxsus o'quv yurtlarida 147664 kishi, 449 ta hunar-texnika bilim yurtlarida 211061 kishi, 8302 ta maktablarda esa 4 mln. 510 ming 403 o'quvchi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadilar. O'zbekistondagi ishlab chiqarish korxonalarining 5545 tasida boshlang'ich jismoniy madaniyat tashkilotlari va 60 dan ortiq sport klublari mavjud bo'lib, ularda 543946 kishi muntazam ravishda sport turlari, sog'lomlashtirish mashqlari bilan shug'ullanadilar. Sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mehnat va mudofaaga tayyor (MMT-GTO) majmuasi o'zining mazmunan zarurligi va mohiyatini ancha vaqtgacha o'z kuchini saqlab keldi. Keyingi paytlarda respublika muhiti va sharoitlariga qarab, uning shakli va normativ talablariga ba'zi bir o'zgarishlar kiritildi va konsepsiya (dastur) ishlab chiqildi. Shu asosda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari joriy etildi (2000 y.).

Ma'lumki, MMT majmuasini asosiy turlari va me'yoriy darajalari o'quvchi yoshlarni har tomonlama jismonan kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu sababdan, respublikada bu majmua yoshlarni jismoniy tayyorlashda katta ishlarni amalga oshirishga poydevor yaratdi. Buning dalili sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin. Respublika bo'yicha 1991-yilda 1 mln. 33 ming 815 kishi MMT nishondori bo'ldi. Shu jumladan, oliy o'quv yurtlari talabalaridan 12743 kishi o'rta maxsus o'quv yurtlarida 36867 kishi, hunar-texnika bilim yurtlarida 69650 kishi, umumta'lim maktablarida 832962 o'quvchi va ishlab chiqarish korxonalarida 81593 kishi bu majmuaning barcha talabalarini bajaradilar.

Respublikadagi jismoniy madaniyat jamoalari, sport klublari, sport jamiyatlari va turli vazirliklar, davlat idoralaridagi jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish, qiziqarli sport musobaqalarini uyushtirish, yuqori sport natijalariga erishishda alohida o'rin tutadi.

Bu faoliyatlar sport turlari bo'yicha mahoratli sportchilarni tarbiyalash va ko'paytirishga katta hissa qo'shadi. Ular haqida quyidagi ma'lumotlar guvohlik berishi mumkin.

Erkin kurash bo'yicha 775 kishi yuqori darajadagi sport talablarini bajargan. Shuningdek, voleybol-383, boks-422, futbol-680, dzyu-do-339, basketbol-240, qo'l to'pi-185, shaxmat-120 va boshqa turlarda ham yuqori ko'rsatkichlarga erishildi.

Quyidagi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor berish lozim. Sportning akrobatika turi bo'yicha 19 ta jamoada to'garak tashkil etildi. Ularda 1923 kishi shug'ullanib, ularning 1342 nafari sport maktablarining o'quvchilaridir. Ularga atigi 43 ta trener biriktirilib, ularning 33 tasi oliy ma'lumotlidir. Shuningdek, ularning 21 tasi jamoatchi trenerlardir.

Eng ommaviy va sevimli sport turi bo'lgan futbol bo'yicha 7904 ta jamoa bo'lib, ularda 266767 nafar kishi shug'ullanadi. Ularning 4345 nafari sport maktablarining o'quvchilari hisoblanadi. Ularni tarbiyalash va mahoratini orttirishida 682 trener qatnashib ularning 497 tasi maxsus ma'lumotga egadir. Shuningdek, 9048 kishi jamoatchilik asosida trenerlik qiladi.[1]

Voleybol sport turi bo'yicha 343, boks-313, erkin kurash-249, sambo kurashi-229, qo'l to'pi-229, dzyu-do-193, basketbol-162, klassik kurash-172, stol tennisi-131 va shu kabi sport turlarida anchagina trenerlar xizmat qiladi.

Respublikadagi sport taraqqiyotining ko'rsatkichlarini tahlil qilganda quyidagi mulohazalarni bayon qilishga to'g'ri keladi.

Futbol eng sevimli va shug'ullanish uchun qulay sport turlaridan biridir. Bu sohadagi ko'rsatkichlarni o'rtacha qilib olsak, quyidagi holatni ko'rish mumkin. Ya'ni har bir jamoada o'rtacha miqdorda 378 kishi (266-767; 7904=378) futbol bilan shug'ullanar ekan.

Har bir trenerga esa 390 dan ortiq futbolchi to'g'ri keladi.

---

[1] Respublika Davlat sport qo'mitasining 1991-yilgi hisobotidan olindi.

Shuningdek, erkin kurash bo'yicha 656 jamoada 31567 kishi shug'ullansa, ularga 259 trener rahbarlik qiladi. O'rtacha olganda har bir trenerga 120 nafar kurashchi to'g'ri keladi.

Bu holatlarni voleybol (269433 : 343 = 758 kishi) — 758, shaxmat (129264 : 96 = 1346) 1346, basketbol (141719 : 182 = 778) kabi turlarida ham ko'rish mumkin.

Bu ko'rsatkichlarga oddiy ko'z bilan qaraganda murakkab narsalar ko'rinmaydiganga o'xshaydi. Lekin bitta trener futbolda 390, erkin kurashda 121, voleybolda 758, shaxmatda 1346, basketbolda 788 kishining to'g'ri kelishi ajablanarli holdir. Voleybol, shaxmat, basketbol kabi turlarda jamoatchi trenerlar ham rahbarlik qilishi mumkin. Biroq bu holatlar sportchilarning mahoratini yetarli darajada oshira oladi, deb xulosa qilish qiyin. Bunday ko'rsatkichlar keyingi davrda birmuncha ijobiy tomonga siljidi.

Xullas, bu ko'rsatkichlarning haqiqatan ancha uzoq ekanligi ayondir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, qaysi bir jamoalarda trenerlar va sportchilar mahsuldorlikka erishmoqda, ko'pchiligida esa umuman yaxshi natijalar yo'q hisobi. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin.

Futbol bo'yicha 680, shaxmat 120, qo'l to'pi 125 kishi yuqori darajadagi (SUN, 1 darajada) sportchilar tayyorlangan. Ularni umumiy shug'ullanuvchilar soniga solishtirilsa, ish sifati yaxshi emasligini bilish qiyin emas.

E'tirof etish lozimki, O'zbekiston mustaqilligini o'n yili davomida (1991—2001) jismoniy tarbiya va sport ishlari ancha rivoj topdi. Ommaviylik asosida sport mahoratlarni oshirish ancha o'sdi.

Futbol, tennis, o'zbek kurashi, boks, sharqona yakka kurashlar (karate, dzyu-do, taekvando, ushu, qo'l to'pi va h.k.) yoshlar orasida tobora ommalashmoqda. Buning eng asosiy sabablari shundaki, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonun hamda qator qarorlarni (1993, 1996, 1999, 2000, 2002, 2003 va h.k.) amalga oshirishda katta tadbirlar o'tkazildi. Ularning natijalari esa respublikada o'tkazilgan sport musobaqalari, xalqaro turnirlar va

sportchilarning Osiyo va jahon birinchiliklarida ishtirok etishi, erishilgan yutuqlar mazmunida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda futbolni rivojlantirish (1993, 1996), tennis, boks va kurash bo'yicha xalqaro turnirlar o'tkazish (1993–2000) haqidagi hukumat qarorlari muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi qarori barcha davlat idoralari hamda nodavlat va jamoat tashkilotlari oldiga katta mas'uliyatlarni yukladi. Shu asosida aholining barcha tabaqalari va ishlab chiqarish, savdo, tijorat, tarbiya, o'quv muassasalari sohalarida jismoniy tarbiya va sportni keng yo'lga qo'yish masalalari jiddiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Jismoniy madaniyat va sport taraqqiyotining 10 yillik davridagi ko'rsatkichlarning natijalari bilan quyida tanishish mumkin bo'ladi.

Jismoniy madaniyat jamoalarining soni 1991-yilda 14.577 ta bo'lsa, 1995-yilda 14408 ta va 2000-yilda esa 15.863 taga yetadi, ba'zi yillarda jamoalar sonining kamayishiga sabab shundaki, ba'zi korxonalar va muassasalar birlashtirilgan yoki tugatilgan. Keyinchalik esa ularning soni osha boshlagan.

Jismoniy tarbiya va sport, sayohat hamda xalq o'yinlari bilan shug'ullanuvchilar soni 1991-yilda – 5.549966 nafar kishi bo'lsa, 1995-yilda - 5.640085 va 2000-yilda - 6.862790 nafar kishini tashkil etgan.

Bevosita sport turlari bilan shug'ullanuvchilar soni 1991-yilda – 1.491511, 1995-yilda – 1.256958 va 2000-yilda – 1.856181 kishiga yetadi.

Fubol bilan shug'ullanuvchilar soni – 439344, voleybol – 296801, yengil atletika – 172047, kurash – 93985, boks – 26551, tennis – 14504 kabilar tashkil etmoqda. Sport bilan shug'ullanuvchilar maktablarda 1992-yilda 737641, 1995-yil – 828072, 2000-yil – 1196091 kishini takshil qildi. Bunday ko'rsatkichlar kolledjlar va litseylarda: 1992-yil – 42027, 1995-yil – 47353 va 2000-yil – 81649 kishi, oliy o'quv yurtlarida esa bunday natijalar ancha yuqori edi.

Bolalar va o'smirlar sport maktablarida shug'ullanuvchilar soni 1992-yilda – 244483, 1995-yilda – 245347 va 2000-yilda esa 272262 nafar yosh sportchilarni tashkil qildi. Respublika BO'SM soni 1992-yilda – 472 ta, 1995-yilda – 522 va 2000-yilda esa 538 taga yetkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezedenti va hukumatining mamalakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasidagi g'amxo'rliklari tufayli o'quvchi yoshlarni sportga jalb etish, sportchilarning mahoratlarini oshirishga katta imkoniyatlar yaratib berdi.

Mustaqillikning 10 yilligi davrida respublikada sportning taraqqiyoti, iste'dodli sportchilarning xalqaro sport maydonlarida erishgan g'alabalarini aks ettiruvchi nufuzli tarixiy manbalar yaratildi. Ular orasida 10 yillik yubileyga hadya etilgan. «XXI asr: Istiqbolimiz timsollari» kitobi e'tiborni jalb etadi. Eng muhimi shundaki, uning tarkibidagi dunyoga sport orqali mamlakatimizni tanitgan, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, madhiyamizni yangratishga hissa qo'shgan sportchilar munosib o'rin olgan.

Kitobning «Xalqimizning qadri baland o'g'il-qizlari» bo'limida I.A.Karimovning «O'zbek millatining, o'zbek farzandlarining qobiliyat, zehn-zakovat, tirishqoqlik borasida boshqa hech bir millat yoki xalqdan qolishadigan joyi yo'q», deb bergan bahosi bilan boshlanadi. Shu o'rinda jahon chempioni, XXVII Olimpiya o'yinlarining boks bo'yicha oltin medal sohibi M.Abdullayevning yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, mag'rurona turishi yurtimiz yo'lboshchisining fikrlariga hamohang bo'lib turibdi. Ayniqsa, Prezidentning M.Abdullayevni tabriklashi va unga zarli to'n kiygizishi sportchilar mehnatini ulug'lashdagi eng yuksak qadriyat ekanligini namoyish etmoqda.

Bokschi Ruslan Chagayevning ham qisqa bo'lsa-da, mehnatlari bu kitobdan o'rin olgan. U 1978-yil 19-oktabrda Andijon shahrida tug'ilgan. Ikki karra Osiyo va jahon chempioni. Osiyo o'yinlari g'olibi «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi», «O'zbekiston iftixori» faxriy unvonlari, «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

U 2002-yilda professional boks bo'yicha o'z vaznida jahon chempioni unvoniga erishdi.

Rustam Saidov, 1978-yil 6-fevralda tug'ilgan. Boks bo'yicha Markaziy Osiyo o'yinlari g'olibi. Osiyo chempioni, Sidney Olimpiadasi bronza medalini qo'lga kiritgan.

Sergey Mixaylov, 1976-yil 5-martda tug'ilgan. Boks bo'yicha ikki marta Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlari g'olibi, Sidney Olimpiadasining bronza medali sovrindori. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoniga ega.

O'tkirbek Haydarov, 1974-yil 25-yanvarda Andijonda tug'ilgan. Boks bo'yicha jahon chempioni. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi», «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoniga sazovordir.

Dilshod Yorbekov, 1974-yil 5-yanvarda Samarqand shahrida tug'ilgan. Boks bo'yicha Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlarining kumush va bronza medallari sovrindori. Jahon chempionati va kubogi hamda yaxshi niyat o'yinlari bronza medallari sovrindori. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustasi», «Do'stlik ordeni», «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Artur Grigoryan, 1967-yil 20-oktabrda Toshkentda tug'ilgan. Boks bo'yicha yaxshi niyat o'yinlari g'olibi, jahon chempionati kumush medali sovrindori. Professional bokschilar o'rtasida 16 marta (2002 y.) jahon chempioni. «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi», «O'zbekiston iftixori» faxriy unvonlari hamda «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Mirjalol Qosimov, 1970-yil 17-sentabrda Toshkentda tug'ilgan. Futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon va Yevropa chempioni. XII Osiyo o'yinlari g'olibi.

Akobir Qurbonov, 1975-yil 29-iyulda Buxoroda tug'ilgan. Sambo bo'yicha to'rt karra Osiyo chempioni. Jahon unversiadasi g'olibi, jahon kubogi sohibi, jahon chempioni, milliy kurash bo'yicha jahon chempioni. «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni hamda «O'zbekiston belgisi» ko'krak

nishoni bilan taqdirlangan.

Nurxon Nafasov, 1965-yil 5-yanvarda tug'ilgan. Milliy karate federatsiyasining rahbari. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi.

Qiziqarli tomoni shundaki, keyingi yillarda kichik yoshdagi bolalar o'rtasida sharqona yakka kurashlar bo'yicha musobaqalar uyushtirilmoqda. Shu sababdan, bunday turlarga qishloq va uzoq hududlardagi bolalar katta ixlos bilan kirib kelmoqda.

A'zam, Farrux va Parviz Abdulmanovlar Bekobod tumanidagi Zarif qishlog'ida tug'ilgan. Eng kattasi 13 yoshda (2000-yil ma'lumot), o'rtanchasi 12 va kichigi 9 yoshda. Bu aka-ukalar karate bo'yicha O'zbekiston, Osiyo va dunyo chempionatlari, qator xalqaro turnirlarda g'olib chiqishgan.

Rustam Qosimjonov, 1979-yil 5-dekabrda Toshkentda tug'ilgan. Shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni, jahon chempionati mintaqaviy musobaqasi g'olibi, Butunjahon shahmat Olimpiadasida shaxsiy hisobda bronza medaliga sazovor bo'lgan. Xalqaro grossmester. 2004-yilda jahon chempioni unvoniga ega bo'ldi. «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni hamda «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Ibrohim Hamroqulov, 1982-yil 29-iyulda Samarqand shahrida tug'ilgan. Shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon va Osiyo chempioni. «Universiada - 2000» musobaqasining g'olibi sifatida prezidentimiz sovg'asi «Tiko» avtomashinasi bilan taqdirlangan, xalqaro miqyosdagi sport ustasi.

Lina Cheryazeva 1968-yil 1-noyabrda Toshkentda tug'ilgan. Fristayl (chang'ida akrobatik sakrashlar) bo'yicha jahon chempioni, ikki karra jahon kubogi g'olibi, Lillexammer qishki Olimpiadasi chempioni. «O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi», «O'zbekiston iftixori» faxriy unvonlariga ega.

Iroda To'laganova 1982-yil 17-yanvarda Toshkentda tug'ilgan. Tennis bo'yicha qizlar o'rtasida «Uimbildong» turniri va AQSH ochiq chempionati g'olibi, Osiyo

chempioni. Butunjahon o'smirlar o'yinlarining bronza medali sovrindori. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi», «Shuhrat» medali sohibasi.

Sevara Qodirova 1983-yil 3-yanvarda Namanganda tug'ilgan. Xalqaro toifadagi sport ustasi. Stol tennisi bo'yicha xalqaro musobaqalar g'olibi. Jahon o'yinlari (Shvetsiya, 1999-yil), «Universiada - 2000» musobaqalari g'olibi. Kitobning «Millat g'ururi, mamalakat iftixori» bo'limida I.A.Karimovning «Yoshlarni sog'lom, matonatli, jasur qilib tarbiyalashda sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyati beqiyos» - deb bergan bahosi olqishga sazovordir. Shu joyda yangidan qurilgan «Jar» sport majmuining ichki ko'rinishi, qator gilamlarda kurashchilarning olishuvlari, minglab tomoshabinlarning musobaqalarni kuzatishlari rangli tasvirda ifoda etilgan.

Sahifalarda Prezident I.A.Karimovning yetuk sportchilar davrasidagi tasviri, XXVI Olimpiya o'yinlarida boks bo'yicha bronza medali sovrindori Karim To'laganov, boks bo'yicha to'rt karra respublika chempioni, Osiyo chempionatining kumush va bronza medallari sohibi, Osiyo o'yinlari bronza medali egasi, jahon kubogi g'olibi jizzaxlik Lazizbek Zokirovning rangli suratlari berilgan. U xalqaro sport ustasi va «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoniga egadir. Shular qatorida bokschi To'lqinboy Turg'unov 2 marta Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlari, jahon kubogi va jahon chempionatining kumush medallari sovrindori; Tatyana Malinina (muzda nafis uchish) qishki Osiyo o'yinlarining oltin va kumush medallari sovrindori; Erkinboy Quttiboyev (kik boks) Yevropa chempioni, muay-tay bo'yicha uch karra jahon chempioni, Osiyo o'yinlari g'olibi; Temur To'lakov (boks) qit'a chempionati va Osiyo o'yinlari kumush medallari sohibi, yaxshi niyat o'yinlari g'olibi kabilar ham o'z o'rinini olishgan.

Kitobning keyingi sahifalarida Oksana Chusovitina, sport gimnastika bo'yicha XXV Olimpiya chempioni, Osiyo o'yinlari va «Jahon yulduzlari» xalqaro musobaqalari sovrindori; Armen Bagdasarov, dzyu-do bo'yicha Olimpiya

o‘yinlari kumush medali sovrindori, to‘qqiz marta O‘zbekiston Respublikasi chempioni, Butunjahon universiadasining kumush medal sovrindori; Bahrom Avazov, milliy kurash bo‘yicha Amir Temur va Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro musobaqalarning mutloq g‘olibi, jahon chempioni; Kamol Murodov, dzyu-do bo‘yicha Osiyo o‘yinlari bronza medali egasi, milliy kurash bo‘yicha birinchi jahon chempioni, xalqaro miqyosidagi sport ustasi; Shuhrat Xo‘jayev, sambo bo‘yicha jahon va to‘rt karra Osiyo chempioni, ikki marta jahon va qit’a kubogi sohibi, milliy kurash bo‘yicha jahon chempionati bronza medali sohibi.

Toshtemir Muhammadiyev, Surxondaryolik (1968-yil tug‘ilgan), kurash bo‘yicha jahon chempioni. «El-yurt hurmati» ordeni sohibi.

Mahtumquli Mahmudov, kurash bo‘yicha qator xalqaro turnirlar g‘olibi, jahon chempioni. 1969-yil Surxondaryoda tug‘ilgan. «O‘zbekiston iftixori» faxriy unvoniga ega bo‘lgan mashhur sportchilar o‘rin olgan. Umuman olganda, 10-yil davomida O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Osiyo, jahon sport musobaqalari va Olimpiya o‘yinlarining sovrindorlari hamda qatnashchilari e’tibordan chetda qolmagan. Ularning xizmatlari va faoliyatlari O‘zbekiston jismoniy madaniyat tarixidan munosib joy egallagan. Ular orasida iste’dod egasi va kelajakda katta umid kutish mumkin bo‘lgan yoshlar juda ko‘p. Ayniqsa, Yulduz Hamroqulova (1989-yil Jizzaxda tug‘ilgan), shahmat bo‘yicha qizlar o‘rtasida uch marta O‘zbekiston birinchiligi g‘olibi, Osiyo birinchiligining bronza medali sovrindori, jahon birinchiligining qatnashchisi, barchaning diqqatiga sazovordir.

Abdulla Tangriyev (1981-yil Surxondaryo) dzyu-do bo‘yicha yoshlar o‘rtasida Osiyo birinchiligi g‘olibi, Sidney olimpiadasi qatnashchisi, xalqaro miqyosidagi sport ustasi. Kurash bo‘yicha 2001—2005-yillarda o‘tkazilgan xalqaro turnirlar va jahon birinchiligining g‘olibidir.

Manzura Inoyatova (1982-yil Navoiy viloyati), stol tennisi bo‘yicha Butunjahon o‘smirlar o‘yinining bronza

medali sovrindori, jahon o'yinlari va Yevropa ochiq kubogi g'olibi. Xalqaro miqyosidagi sport ustasi.

Nodir Xo'jayev, 1989-yil 4-iyulda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. Karate bo'yicha 1-dan sohibi. O'zbekistonning ikki marta chempioni, jahon kubogi g'olibi.

Saida Iskandarova 1980-yil 12-martda Toshkentda tug'ilgan. Suzish bo'yicha ikki marta Markaziy Osiyo o'yinlari g'olibi, Osiyo – Okeaniya chempionati oltin medal sohibi, Osiyo o'yinlarining kumush medali sovrindori, Sidney olimpiadasi qatnashchisi. Xalqaro toifadagi sport ustasi.

Saida Burxonxo'jayeva, 1984-yil 12-iyunda Toshkentda tug'ilgan. Stol tennisi bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Butunjahon o'smirlar o'yinining bronza medali sohibasi, jahon o'yinlari g'olibi, ikki marta O'zbekiston chempioni.

Xulosa qilib aytganda, bunday yutuqlar va iste'dodli sportchilar mamlakatda olib borilayotgan ulkan tadbirlarning dastlabki samaralaridir.

Respublika jismoniy madaniyat harakatining salmoqli tarmoqlari umumta'lim maktablari, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari (litsey, kollej va h.k.)dan iboratdir. Shu sababdan, sportchi o'quvchi yoshlar va talabalarning soni boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha ustuvordir. Ular bilan olib borilayotgan jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari hamda turli xil sport musobaqalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Bu jihatlar, ayniqsa, mustaqillikning keyingi yillarida (2001–2005) yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi (litsey, kollej) jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotini ta'minlovchi ba'zi bir rasmiy ma'lumotlarni keltirish zarurdir. Bu haqda O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligining joriy hisobotlari dalolat bo'la oladi. Ularni quyidagi jadvallarda ko'rish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini kengaytirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda

jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori (1999-yil 27-may) katta voqea bo‘ldi. Unga ilova qilingan davlat dasturida (konsepsiya) aholini ommaviy ravishda sportga jalb etish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish, ayniqsa, eng zamonaviy sport majmualarini (kompleks) yangidan qurish bosh vazifa qilib qo‘yildi. Respublika sportchilarini xalqaro sport musobaqalariga tayyorlash, ularning g‘alabalarga erishishlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish, bunda murabbiylar, mutasaddi sport tashkilotlari hamda davlat idoralari rahbarlarining mas’uliyatlarini oshirish alohida qayd etildi.

Buyuk kelajak yosh avlodlar taqdirida bo‘lishi tabiiydir. Sport olamida ham bunday g‘oya va talablar ancha ustuvor turadi. Respublikamiz sportining ravnaqini ta’minlash yo‘lida Respublika Prezidenti tomonidan «O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish» jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi Farmoni (2002-yil 24-oktabr) e’lon qilindi. Farmon bo‘yicha O‘zRVM maxsus qaror qabul qildi va respublika, viloyat va tuman-shahar tashkilotlari faoliyati ishga tushdi. Uning samaralari kun sayin tobora oshib bormoqda.

Ayniqsa, bolalar sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy-texnik bazani kengaytirish, sport inshootlari va jihozlarini davr talablari asosida qurish hamda qayta ta’mirlash kabi muhim sohalarga davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini qaratish aniq belgilangan.

Respublika Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining quyi tarmoqlarini (viloyat, shahar-tuman) tashkil etish, ularning moliyaviy-xo‘jalik yuritish faoliyatlarini mustaqil ravishda olib borilishi jismoniy madaniyat tarixida muhim voqea hisoblandi.

Iqtidorli bolalarni sportga jalb etishda oila, maktab, mahalla va boshqa turli jamoat tashkilotlarining faol va amaliy harakatlarini qaratishga keng o‘rin berildi. Shu sababdan, «Bolalar va o‘smirlar sport maktablari»ning (BO‘SM) tarmog‘ini kengaytirish, xalqaro sport musobaqalari, ayniqsa, Olimpiya o‘yinlari dasturidagi sport

turlari bo'yicha tayyogarlik hamda tarbiyaviy ishlarni xalqaro andozalar talabi asosida olib borishga da'vat etilmoqda.

Mazkur qaror asosida qizlarimizni sportga qiziqtirish, ularni tarbiyalash va Xalqaro sport musobaqalari hamda Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishga tayyorlash ishlari qizg'in olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlaridagi faol harakatlarni yanada sifatliroq o'tkazish, ularni xalq milliy o'yinlari bilan shug'ullanishlarini ta'minlash, bu yo'lda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida mutaxassis xodimlarni va ularning malakalarini oshirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Umuman olganda, mazkur qaror o'quvchi yoshlarning sportga qiziqishini oshirishda muhim omil sifatida tarixiy jarayonga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi bolalar va o'smirlar sport maktablarida 2001-yilda sportning 37 ta turi va 2002-yilga kelib sportning 40 ta turi bo'yicha seksiya va bo'linmalarda o'quvchilar shug'ullanib kelishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi BO'SMlarda 2001-yilda sport turlari bo'limlar soni 1351 ta bo'lsa, 2002-yilga kelib, 1443 taga yetgan, o'quv guruhlar soni 2001-yilda 7062 ta, 2002-yilda esa 7290 taga yetgan, o'quv-mashq qiluvchi guruhlar soni 2001-yilda 7330 ta bo'lib 2002-yilda 8499 tani tashkil etgan, sport mahoratini oshirish guruhlari 2001-yilda 245 ta bo'lgan, 2002-yilda 20 taga kamaygan, ya'ni 224 tani tashkil etgan, oliy sport mahorati bo'limida esa 2001-yilda 26 ta bo'lib 2002-yilda 30 taga yetkazilgan.

Seksiya va bo'limlarda shug'ullanuvchilar soni guruhlarning ko'payishi yoki kamayishiga nisbatan ma'lum miqdorida o'zgargan:

1. Boshlang'ich tayyorlov guruhi 2001-yil -105973, 2002-yil-110125.

2. O'quv-mashq qiluvchi guruh 2001-yil-83605, 2002-yil-99751.

3. Sport mahoratini oshirish guruhi 2001-yil-1950, 2002-yil-1827.

4. Oliy sport mahorati guruhi 2001-yil-116, 2002-yil-143.

Bo'linmalarda shug'ullanuvchilar sonining ko'payishiga sabab, boshlang'ich tayyorlov guruhlari va o'quv mashq guruhlarida murabbiylarning ko'payishi hamda shug'ullanuvchilarning ortishi bilan bog'liq bo'lsa, sport mahoratlarini oshirish guruhi va oliy sport mahorati guruhlarni sonining oshishiga esa sportchilarning mahoratlari oshishi yoki boshqa jamiyatlardan qo'shilgan sportchilar sababkor bo'ladilar.

Umuman bolalar o'smirlar sport maktablariga qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, quyidagilarni aniqlaymiz:

1. Bolalar va o'smirlar sport maktabi 2001-yilda 309 ta bo'lgan 2002-yilga kelib, 336 tani tashkil etgan.

2. Ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktablari soni 2001-yilda 32 ta bo'lgan bo'lsa, 2002-yilga kelib, 34 taga yetgan.

Sport maktablaridagi shtatli ma'muriy xodimlarga kelsak 2001-yilda 901 ta bo'lgan bo'lsa, 2002-yilga kelib, 1006 taga ko'paygan. Shulardan oliy ma'lumotlilari 2001-yilda 689 ta bo'lgan bo'lsa, 2002-yilda 774 taga yetgan. Ulardan ayollarni aniqlaganimizda 2001-yilda 152 ta, 2002-yilda esa 158 taga yetgan.

Bolalar va o'smirlar sport maktabining sport bazalari 2001-yilda 1709 tani tashkil etgan, 2002-yilga kelib, 1405 taga kamaygan. Shulardan 2001-yilda 243 tasi xususiy bo'lib, 1466 tasi ijaraga olingan, 2002-yilda esa 196 tasi xususiy bo'lib 19009 tasi ijaraga olingan.

Sport bazalarining kamayishi ijaraga sport inshootlarini olish qimmatligi, mablag'ning yetishmasligi sabablidir.

Bolalar va o'smirlar sport maktablarida 2001-yilda tayyorlangan razryadli sportchilar quyidagicha ifodalanadi: ommaviy razryadlar – 60970 ta, birinchi razryadlilar – 2028 ta, sport ustaligiga nomzod – 969 ta, sport ustasi – 108 ta, xalqaro toifadagi sport ustasi 6 ta. Shuningdek, 2002-yilda tayyorlangan razryadli sportchilar: ommaviy razryadlilar – 60851 ta, birinchi razryadlilar – 1997 ta, sport ustaligiga nomzod – 855 ta, sport ustasi – 84 ta, xalqaro toifadagi sport ustasi 12 ta tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi sport maktablari bo‘yicha 2002-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan MA’LUMOT

T/r	Viloyatlar	BO‘SM lari soni	Ixtisos-lashgan IBYO OZM	Shu jumladan, qishloq joylarda	
				BO‘SM lar soni	Ixtisoslash-gan IBYO OZM
1	Qoraqalpog‘iston	25	1	21	-
2	Andijon	47	1	32	-
3	Buxoro	21	5	14	2
4	Jizzax	17	-	9	-
5	Qashqadaryo	21	-	19	-
6	Namangan	30	3	17	-
7	Navoiy	12	-	9	-
8	Samarqand	38	3	27	-
9	Surxondaryo	16	-	14	-
10	Sirdaryo	15	-	9	-
11	Farg‘ona	36	1	26	-
12	Xorazm	17	-	14	-
13	Toshkent viloyati	32	2	15	-
14	Toshkent shahri	9	18	-	-
	Jami	336	34	226	2

11.2. Ko‘p bosqichli ommaviy sport tadbirlarining sog‘lomlasbtiruvchi va tarixiy ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 1993-yil martda «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ta’sis etildi. Uning nizomida ifodalanishicha ta’lim-tarbiya hamda tibbiyot maskanlarida a’lo darajada xizmat qilgan xodimlar, rahbarlar va bu sohaga ulkan hissa qo‘shgan shaxslarga I—III darajali ordenlar berilmoqda. Respublikaning deyarli barcha viloyatlardagi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, BO‘SMning murabbiy va rahbarlari, sport tashkilotlarining mas’ul xodimlari bu orden bilan mukafotlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni (1997-yil 10-oktabr), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi qarori va boshqa rasmiy hujjatlar asosida «Sog‘lom avlod» davlat dasturi» ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Dasturning asosiy yo‘nalishi tibbiyot, ta’lim, mahalla va boshqa sohalarda aholining salomatligini muhofaza qilish, sog‘liqni yaxshilash bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini yanada yaxshilash, bunda oila, mahalla va mehnat jamoalarda ijtimoiy turmush sharoitni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni maqsadli o‘tkazish ko‘zda tutildi. Eng avvalo, «Sog‘lom ona va sog‘lom bola» shiori ustuvor bo‘lishi ta’kidlangan.

Bunday umum madaniy va tarbiyaviy jarayonlarning salmoqli mazmuni jismoniy tarbiya bilan bog‘langanligi muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan ham bolalar bog‘chalari, umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylar va oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya dasrlari, sport mashg‘ulotlari hamda ommaviy sport musobaqalarni tashkil etishga katta e’tibor berilmoqda.

Yana e’tiborli tomoni shundaki, maxsus maktablar (nogiron va jismonan ojiz) va nogironlar sport klublarida jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor berilib, ularning salomatligini saqlash, yaxshilash va rivojlantirish yo‘lida o‘ziga xos tadbirlar, mashg‘ulotlar va hatto sport musobaqalari ham tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida «Umid nihollari-2003» sport musobaqalarining 1-bosqich natijalari samarali bo‘ldi.

Respublika bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablar soni 96900 ta bo‘lib, jami o‘quvchilar soni 6.258.796 tani tashkil etadi. Barcha viloyatlar, tuman (shahar)lardagi maktablarda o‘tkazilgan «Umid nihollari - 2003» sport musobaqalarining 1-bosqichida 9690 ta maktabda 6.116.930 nafar o‘quvchi ishtirok etgan. Viloyatlar bo‘yicha ishtirok etuvchilar quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi.

2-jadval

T.r	Viloyatlar	Maktablar soni	O'quvchilar soni	1-bosqich ishtirokchilari			Jami
				1-4	5-7	8-11	
1	Qoraqalpog'iston	763	377271	122681	121529	121349	365559
2	Andijon	741	565323	209765	156650	161809	528224
3	Buxoro	531	347108	119084	105909	96345	321338
4	Jizzax	537	268315	99070	71460	60170	230700
5	Qashqadaryo	1083	623578	244302	184145	173456	601903
6	Namangan	672	512999	211791	155122	146208	513121
7	Navoiy	375	205966	70678	84201	88730	243609
8	Xorazm	534	349834	107271	99448	102597	309316
9	Farg'ona	906	691769	285780	206712	193040	685532
10	Samarqand	1195	744237	282501	247893	145529	675923
11	Toshkent viloyati	896	529280	180243	155540	130960	466743
12	Surxondaryo	822	515579	196094	147608	104824	448526
13	Sirdaryo	308	159613	51830	42337	2654	96821
14	Toshkent shah.	327	367224	189311	223442	216862	629615
	Jami	9690	6258796	2568569	2001996	174533	6.166.930

1. «Umid nihollari» sport musobaqalarining 1-maktab bosqichida umumta'lim maktablarida 12 sport turining barcha turlarini o'tkazish imkoniyati yo'qligi ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir. Muammolarni bartaraf qilish uchun tumanlardagi BO'SMlarning sport turlari bo'yicha murabbiylarini umumta'lim maktablariga biriktirish hamda maktablarda o'qiyotgan ma'lum sport turlari yo'nalishi bo'yicha yuqori sport ko'rsatkichlariga ega bo'lgan o'quvchilarni hakamlikka jalb etish, mahallalarda yashayotgan sport fidoyilaridan maqsadli foydalanish zarurdir.

Avval an'ana bo'lgan maktab o'quvchilari, mehnatkashlarning spartakiadalari, talabalarning «Haftalik» musobaqalari va umum respublika spartakiadalari o'rniga mustaqillik jarayonida kashf etilgan ko'p bochqichli sport musobaqalari o'tkazib borilmoqda.

1. 2001-yilda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 608500 nafar bolalar, 65862 pedagog va boshqa xodimlar bor. Ularda «Quvnoq bolalar», «Polvonchalar» kabi turli toifadagi (tuman-shahar va jamoalar) musobaqalar o'tkazilmoqda. Bunda, eng avvalo, bolalarni sog'lom qilib tarbiyalash, sport elementlarini bajarishga o'rgatish hamda qiziqtirish, o'zining harakat faoliyatlarini kuzatish, nazorat qilish kabi muhim tarbiyalash jarayonlari mujassamlashtirilgan.

2. Umumta'lim o'rta maktablar, maxsus maktablarda nogiron va jismonan ojiz bolalar 5.992.364 o'quvchi, 440762 o'quvchi mavjud, sport turlari bo'yicha ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish. Bunday musobaqalar 2000-yildan boshlab o'tkazilayogan «Umid nihollari» O'zbekiston maktab o'quvchilarining eng yuqori bosqich dasturlari negizida tashkil etilmoqda. 2002-yildan musobaqalarda 5,5 mln. o'quvchi qatnashdi.

3. 200 ta kasb-hunar kollejlari 46 ta akademik litseylar va o'rta maxsus o'quv yurtlarining 69346 o'quvchilari orasida «Barkamol avlod» sport musobaqalari 1999-yildan boshlab (Jizzax shahri), (2001-yilda Farg'ona) jamoalar, tuman-shahar, viloyatlar miqyosida o'tkazilib, yuqori bosqichi — respublika finali bilan yakunlanmoqda. Bo'limlarda 2001-yilda 500 ming o'quvchi ishtirok etdi.

4. 64 ta oliy o'quv yurtlarida 5055 nafar magistrlar va 178435 bakalavrlar bo'lib talabalarning (2000-yil Namangan, 2002-yil Buxoro, 2004-yil Samarqand) ham avvalo har bir oliy o'quv yurtlarida, keyinchalik shahar-tuman (viloyat) miqyosida oliy o'quv yurtalriaro musobaqalar shaklida o'tkazilmoqda. Ularning yakunlovchi qismi — finali respublika miqyosida tashkil etilmoqda.

E'tirof etish kerakki, bu bosqichlardagi respublika musobaqalarini boshlash va yakunlash qismlari bayram tusini

olmoqda. Taniqli san'atkorlar, yozuvchi-shoirlar, fan va madaniyat arboblari ishtirok etib, tantanalarga fayz kiritmoqda. Bu, albatta, mustaqillik in'om etgan ulkan madaniy tadbirlarning biridir. Buxoroda o'tkazilgan ikkinchi universiada qatnashchilarini O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov shunday tabrikladi.

«Universiada – 2002» sport o'yinlari ishtirokchilariga[1]

Aziz o'g'il-qizlarim!

Sizlarning barchangizni qadimiy Buxoro shahrida bunyod etilgan mana shu zamonaviy va muhtasham sport majmuida O'zbekiston talaba yoshlarining «Universiada – 2002» musobaqalarining tantanali ochilishi munosabati bilan chin qalbimdan tabriklash menga alohida mamnuniyat baxsh etadi.

Mamlakatimizda ikkinchi bor o'tkazilayotgan ushbu universiada nainki uning qatnashchilari, balki butun xalqimiz, avvalambor, yoshlarimiz hayotida yorqin iz qoldiradigan muhim bir voqeadir.

Bugungi kunda Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, farovon hayotga erishish, xalqaro maydonda munosib o'rin egallashdek ezgu maqsadlarga yetish yo'lida biz tayanchimiz va suyanchimiz bo'lmish yoshlarimizga beqiyos orzu-umidlar bilan qaraymiz.

Biz uchun davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ustuvor vazifa –nafaqat ma'naviy yetuk, zukko va bilimdon, shu bilan birga sport va kurash maydonlarida toblangan, qiyinchiliklarni yengishga qodir, iroda va e'tiqodi baquvvat, bellashuvlarda chiniqqan mard farzandlarni tarbiyalash – bu bir-birini to'ldiradigan, bir-biridan ajralmas yagona maqsad bo'lishi darkor.

Jismoniy tarbiya va sport yurtimizning har qaysi shahar va qishlog'iga, har bir xonadonga kirib borishiga erishish, shu asosda hayotimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish

[1] «Xalq so'zi» gazetasi 28-may 2002-yil.

bizning olijanob orzu-intilishlarimizning uzviy bir qismiga aylanishi zarur.

Shu ma'noda, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o'yinlarini o'z ichiga olgan uch bosqichdan iborat yaxlit tizimning amalga oshirilishi ana shu yo'lda qilayotgan salmoqli ishlarimizning yaqqol namoyoni, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bu tizimning yuqori bosqichi bo'lgan universiada, ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekiston yoshlarining o'ziga xos sport olimpiadasidir.

Mana shu unutilmas daqiqalarda siz — butun borlig'idan kuch-g'ayrat yog'ilib turgan sog'lom va navqiron yoshlarimizning ochiq chehrangizga boqib, ushbu muazzam, zamonaviy stadionda sizlarning ming-minglab tengdoshlaringizni, sizlarga katta havas va umid bilan qaratayotgan barcha o'g'il-qizlarimizni ko'rgandek bo'laman va bunda ko'pchilik qatori mening yuragim quvonch va g'ururga to'lishini izhor etmoqchiman.

Ertangi umidimiz, iftixorimiz bo'lgan siz kabi yoshlarni voyaga yetkazgan ota-onalaringizga, hayotga yo'llanma berayotgan ustoz-murabbiylaringizga samimiy minnatdorlik bildiraman va sizlarga qarata yana shuni aytmoqchimanki, bugun hayotga qadam qo'yar ekansiz belni qattiq bog'lab, kurash maydoniga chiqayotgan ekansiz, oldingizga qo'ygan marralaringiz doimo baland va yuksak bo'lsin, irodangiz baquvvat, ishonchingiz mustahkam bo'lsin.

Shuni unutmangki, sizlarning ortingizda har qarich tuprog'i mo'tabar Vataningiz, bag'rikeng, matonat va qudrat sohibi bo'lmish xalqingiz bor.

Aziz farzandlarim!

Yoshlik, go'zallik va sport bayrami — universiada musobaqalari yuksak safarbarlik, sog'lom raqobat, halol kurashchanlik ruhida o'tadi, deb ishonaman.

Umid qilamanki, bu musobaqalar kelajakda o'zbek sportchilarining jahon olimpiadasi shohsupalariga ko'tarilishi uchun bamisoli zinapoya bo'lib xizmat qiladi.

Siz, universiada qatnashchilariga baland ruh, azmu shijoat, qat'iyatlik, shu bilan birga bag'rikenglik va mardlik, haqiqiy sportchilarga xos xususiyat va fazilatlar doimo yor bo'lishini istab qolaman.

Sizlarga sihat-salomatlik, hayotdan kutayotgan barcha ezgu orzu-niyatlaringiz ro'yobga chiqishini tilayman.

Islom Karimov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Universiada yakunlari haqida quyidagi ma'lumotlar keltirildi. Umumjamoalar bo'yicha egallangan o'rinlar quyidagicha:

1. Toshkent shahri – 248 ochko
2. Buxoro viloyati – 203,5
3. Namangan viloyati – 172
4. Farg'ona viloyati – 161
5. Toshkent shahri – 2 – 155
6. Samarqand viloyati – 148
7. Andijon viloyati – 144
8. Xorazm viloyati – 130
9. Toshkent shahri –1- 105
10. Toshkent viloyati – 101,5
11. Qoraqalpog'iston – 98
12. Qashqadaryo viloyati – 91
13. Surxondaryo viloyati – 91
14. Namangan viloyati – 88
15. Jizzax viloyati – 88
16. Sirdaryo viloyati – 27

Eslatma: Toshkent shahar – 1-jamoasi futbolda 2-o'rinni egallab, qolgan barcha turlarda 1-o'rinni egalladi.

Buxoro futbolchilari universidada chempioni bo'lishdi. Andijonlik qizlar voleybol jamoasi ham universiada g'olibi bo'lishdi.

2004-yilda Samarqandda talabalarning uchinchi universiadasi ham zo'r tantana bilan o'tdi. Bu musobaqalar avvalgi universiadalardagi kamchilik va xatolarga barham berishining namunasi bo'ldi.

E'tirof etish lozimki, talabalarning universiadalariga tayyorgarlik jarayonlarida asosiy faoliyatni «Talaba» sport

klubi kengashi a'zolari va rahbarlari hamda ularda bevosita murabbiylik vazifasini bajaruvchilar, jismoniy tarbiya kafedralarining o'qituvchilari katta xizmat qilishmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mehnatkashlar, qishloq yoshlari, aholi istiqomat qilayotgan joylarida ham zamonaviy sport turlari va xalq milliy o'yinlari bo'yicha turli-tuman sport musobaqalari tashkil etilmoqda. «Navro'z», «Mustaqillik kuni», «Hosil bayrami» va turli ulug' sanalarga bag'ishlab o'tkazilayotgan an'anaviy bayramlar, madaniy tadbirlarda kurash, boks, qo'l kuchini sinash, tosh (gir) ko'tarish, sharqona yakka kurashlar va boshqa xalq milliy o'yinlari, ayniqsa, ko'pkari — uloq, poyga, darboz kabi tomoshabop o'yinlar ham namoyish etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilish yo'li bilan aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlarning ma'naviy va jismoniy barkamolligini oshirishga qaratilgandir. Bu esa sog'lom avlod dasturining bosh mezonidir.

Ta'kidlash lozimki, aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng yoyish, o'quvchi yoshlarning jismoniy jihatdan barkamol bo'lib o'sishi, iqtidorli va iste'dodli sportchilarning mahoratlarini oshirish yo'lida Xalq ta'limi va Oliy ta'lim vazirliklari, respublika Madaniyat sport ishlari vazirligi, «Dinamo», «Yoshlik», «Talaba» kasaba uyushmalari sport jamiyati («O'zbekiston»), «Vatanparvar» sport uyushmalari hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Ekosan», «Mahalla», «Navro'z», «Sog'lom avlod uchun» kabi o'nlab jamg'arma uyushmalari, homiylar katta xizmat qilmoqda.

Tadbirlarni uyushtirish va maqsadli o'tkazishda sport turlari bo'yicha respublika hamda viloyatlardagi sport federatsiyalari, hakamlar kengashlari, sport klublar, jismoniy madaniyat jamoalari kengashlari, ulardagi mutaxassis va jamoatchi kadrlarning xizmatlari g'oyat kattadir.

11.3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari yo'nalishida jismoniy tarbiya va sport

Respublika mustaqilligining istiqbolli barcha sohalar kabi jismoniy madaniyat harakatining ko'pgina tarmoqlari va tizimlarida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning ish malakalarini davr talablari asosida olib borishni talab etmoqda.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997) va uning tarmoqlar hamda sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash ishlarida jismoniy tarbiya va sport sohasining ham o'ziga xos xususiyatlari va mohiyatlari mavjud.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti (O'zDJTI), viloyatlardagi Oliy o'quv yurtlarining 16 ta jismoniy tarbiya fakultetlari, pedagogika kasb-hunar kollejlaridagi jismoniy tarbiya bo'limlari, har bir viloyat markazida yangidan (1999–2001 y.y.) tashkil etilgan olimpiya zaxiralari tayyorlash kasb-hunar kollejlari oliy va o'rta ma'lumotli jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlamoqda. Shuningdek, A.Avloniy nomidagi Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish Markaziy institutining jismoniy tarbiya kafedrasi, viloyatlardagi Xalq ta'limi boshqarmalari tarkibidagi malaka oshirish institutlarining jismoniy tarbiya kafedralari, O'zDJTI qoshidagi malaka oshirish fakulteti, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda respublika kasaba uyushmalari ko'ngilli sport jamiyatlari Markaziy Kengashi qoshidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash kurs-seminarlari va boshqalar jismoniy madaniyat hakarati tizimidagi barcha mutaxassislarning malakalarini oshirishda katta faoliyat ko'rsatmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yo'nalishlarida quyidagi sohalar bo'yicha mutaxassislar faoliyat ko'rsatmoqda, ya'ni:

1. Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylar va oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari.

2. Barcha turdagi va bosqichdagi sport maktablari, sport turlari bo'yicha terma jamoalarda shahar-tuman, viloyat va respublika miqyosidagi murabbiylar.

3. Sport qo'mitalari va sport jamiyatlaridagi (tuman-shahar, viloyat va respublika bo'yicha) rahbar hamda mas'ul xodimlar.

4. Ishlab chiqarish korxonalari, aholi istiqomat joylari, xo'jaliklar va o'quv yurtlaridagi sport klublarning rahbarlari, murabbiy-yo'riqchilari va h.k.

Sog'lom avlod dasturi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi rasmiy ko'rsatmalar, qarorlar asosida tarbiya va tibbiy muassasalarda jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi (metodist), mahallalarda jismoniy tarbiya va xalq milliy o'yinlarini uyushtiruvchi tashkilotchilar, xotin-qizlar bilan bevosita shug'ullanuvchi jismoniy tarbiya mutaxassislariga ehtiyoj kuchaymoqda. Ya'ni bu sohalar bo'yicha viloyatlardagi jismoniy tarbiya fakultetlari, bo'limlari, olimpiya o'rinbosarlari, kasb-hunar kollejlarida maxsus kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish lozimdir. Shu bilan birga, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport turlari bo'yicha murabbiylar ham ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport, xalq milliy o'yinlari va sayohatlar bo'yicha zarur nazariy bilim hamda amaliy malakalar hosil qilishni yanada chuqurlashtirishlari lozim bo'ladi.

Ma'lumki, mutaxassis kadrlar hisobidan va sport ixlosmandlaridan sport turlari bo'yicha hakamlar, jamoatchi murabbiy-yo'riqchilar ham tayyorlashni davr taqozo etadi. Shu sababdan, shahar-tuman sport tashkilotlari quyi jamoalarda jamoatchi faollarni ko'paytirishlari, ularning amaliy faoliyatlariga yaqindan yordam berishlari, mehnatlariga yarasha o'z vaqtida rag'batlantirish, taqdirlash ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishlari zarurdir.

O'rni kelganda aytish zarurki, mutaxassis kadrlar tayyorlashda O'zDJTI (rektorlar: A.Q.Hamroqulov 1985 – 2001; R.Q.Qudratov 2001-yildan boshlab) katta faoliyat olib bormoqda. 20 dan ortiq kafedralarda 10 dan ortiq fan doktorlari, professorlar, 100 ga yaqin fan nomzodlari va

dotsentlar, o'nlab xizmat ko'rsatgan sport murabbiylarning nomlari mamlakatimizda mashhurdir. Ulardan R.S.Salomov, T.T.Yunusov, R.D.Xolmuhammedov (boks), A.Rasulova, G.G.Arzumonov (yengil atletika), G.B.Abdurasulova (qilichbozlik), O.O.Po'latov (voleybol), Z.H.G'affurova (pedagogika va psixologiya), Sh.Isroilov (jismoniy tarbiya nazariyasi), O.R.Toymurodov (sport kurashi), U.R.Niyozbekov (gimnastika) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

O'zDJTI 1955-yilda tashkil topgan. O'tgan davrda 20 mingga yaqin oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorladi. Ular orasida Osiyo, Yevropa va jahon chempionlari, olimpiya o'yinlari g'oliblari, iste'dodli olimlar, sport tashkilotlarining rahbarlari yetishib chiqdi. 2005-yil 17–20-noyabrda instutitning 50 yillik yubileyi va xalqaro ilmiy anjuman katta tantana bilan o'tkazildi.

Viloyatlardagi jismoniy tarbiya fakultetlarida uzoq vaqtlardan buyon mehnat qilayotgan ijodkor olimlar J.E.Eshnazarov, H.T.Rafiyev (Samarqand DU), H.A.Botirov, A.Q.Atayev (Buxoro DU) Sh.H.Xonkeldiyev, A.A.Abdullayev (Farg'ona DU), J.T.Toshpo'latov, O'.Ibrohimov, (Termiz DU) T.X.Xoldorov, H.A.Meliyev, B.Bo'riboyev (Jizzax DPI), K.M.Mahkamjonov, N.N.Malinina (Nizomiy nomidagi Toshkent DPU), yosh olim B.Boyboboyev (Namangan DU) va boshqalarni tilga olish zarur bo'ladi.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda Samarqand davlat universiteti jismoniy tarbiya fakultetining ham hissasi g'oyat kattadir. Unda taniqli murabbiylar, tajribali o'qituvchilar mehnat qilishgan. Samarqand DU talabalarining sog'lomlashtirish sport oromgohi Omonqo'ton tog'li-o'rmon xo'jaligida joylashgan. Har yili oromgoh spartakiadasi bo'lib o'tadi.

Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2001-yil boshidagi hisobotida ko'rsatilishicha, 1991-yilda 29134 nafar jismoniy madaniyat va sport sohasida kadrlar mavjud bo'lsa, 10 yillik oxirida u 34952 nafarga yetdi. Bulardan 21557 tasi maktablarning jismoniy tarbiya o'qituvchilari,

1023 tasi kasb-hunar kollejlari, 932 tasi o'rta maxsus o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya o'qituvchilaridir. Oliy o'quv yurtlarida 877 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyat ko'rsatgan. Barcha sohalardagi murabbiylarning soni 6353, sport tashkilotlarining rahbarlari, mas'ul xodimlari va boshqa sohalardagi kadrlar esa 4210 nafar kishini tashkil etgan. Umumta'lim maktablarda 11983 ta oliy ma'lumotli o'qituvchilar ta'lim bermoqda. Kasb-hunar kollejlarida – 1624, oliy o'quv yurtlari – 874, murabbiylar – 3413 boshqa sohalarda esa oliy ma'lumotli mutaxassislar soni 2300 dan oshadi.

Ta'kidlash joizki, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular asosan jismoniy tarbiya darslari, sport turlari bo'yicha o'tkazilayogan mashg'ulotlar, turli-tuman sport musobaqalarining mazmunida o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning sport sohasidagi farmonlari hamda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining shu yo'nalishdagi qator qarorlari, xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirishga da'vat etmoqda. Shu sababdan, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning 1999–2005-yilga mo'ljallangan dasturi (Konsepsiya) ishlab chiqilib, u amalda o'z samaralarini bermoqda.

11.4. Davlat ta'lim standartlari mazmunida jismoniy tarbiya va sport

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (1997), «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Sog'lom avlod» davlat dasturi asosida «Umumta'lim davlat ta'limi standartlari» (andozalari, 1999 y.) amalga oshirilmoqda. Bunda uzluksiz ta'lim jarayonini ta'minlash va o'qitish, ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatishni va oliy ta'lim tizimi bilan bog'lash belgilab berildi. Uning mazmunida

barcha fanlar kabi «Jismoniy tarbiya» fani ham mavjuddir. Davlat ta'lim standartlari asosida umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylar va oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaga alohida o'quv soatlari ajratilib, bunda o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy rivojlanishi, har tomonma barkamollikka erishishlari uchun davlat yo'li bilan darslar o'tkazishni ko'zda tutgan.

1999-yil pedagogika fanlari doktori professor T.S.Usmonxo'jayev rahbarligida umumta'lim maktablari uchun «Jismoniy tarbiya» dasturi ishlab chiqildi va u amalda qo'llanilmoqda. Dasturning mazmunida sinflar, o'quvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy jihatdan tayyorgarliklarini hisobga olgan holda gimnastika, yengil atletika, sport va harakatli o'yinlar, suzish, kurash, milliy raqslar va boshqa mashqlar o'z ifodasini topgan. Lekin bu mashqlar va ularni tashkil qilish yo'llari respublikaning barcha hududlarida birdek amalga oshirilishi mumkin emas. Chunki sport inshootlari, jihozlari va buyumlari hamma joyda ham yetarlik darajada, deb bo'lmaydi. Dasturda milliy o'yinlar va ba'zi turlarga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ular o'quvchi yoshlarning, ayniqsa, qishlodlarda ehtiyoj va qiziqishlarni to'la qondira olmaydi.

Dasturni qayta tayyorlash va unda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus talablaridagi turlar, me'yorlarni hisobga olish lozim bo'ladi. Chunki unda o'q otish, sayohat va suzish turlari alohida o'ringa ega bo'lib, yoshlarni mehnat, kasb-hunar va mudofaa ishlariga tayyorlash vazifalari mavjuddir.

Ta'kidlash lozimki, «Jismoniy tarbiya» fani bo'yicha ko'plab darsliklar tayyorlangan. Darsliklarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirishi, mustaqil tayyorlanishiga katta yordam beradi.

Ma'lumki, 2000-yildan buyon barcha hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlariga aylantirildi. Ko'p sohalar bo'yicha yangidan litseylar tashkil etilmoqda. Bu ham, o'z navbatida, barcha fanlar kabi jismoniy tarbiyada o'qitish-o'rgatish va jismoniy rivojlanishini oshirishda yangicha usullardan keng

foydalanishni taqozo etmoqda. Ular uchun markazlashgan holda yangi dasturlar to'la ishlab chiqilmagan, Ilg'or tajribaga ega bo'lgan va ijobiy ishlashga o'rgangan o'qituvchilargina o'z dasturlariga yangiliklar kiritib, darslarni o'tkazmoqda. Ularning ish faoliyatida futbol, o'zbek kurashi va sharqona yakka kurashlardan maqsadli foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmoqda.

Ilg'or tajribalarga tayanilgan holda ko'pchilik universitetlar va institutlarda jismoniy tarbiya darslari talabalar xohishi, qiziqishiga qarab futbol, voleybol, basketbol, kurash, yengil atletika kabi turlardan ko'proq foydalanilmoqda. Asbob-uskunalarining yetishmasligi, mutaxassislarning kamligi va boshqa sabablarga ko'ra, gimnastika, akrobatika, badiiy gimnastika, suzish, milliy o'yinlarning ancha orqada qolib kelayotganligi va bugungi kunga kelib, bu sohalarga e'tibor berilayotganligini alohida ta'kidlash kerak.

Oliy ta'lim vazirligi qoshidagi «Ta'lim markazi»da jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, ularni darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishlarini yaxshilash talab etiladi.

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari

O'tgan boblarda sobiq Ittifoq davrida «Mehnat va mudofaaga tayyor» (MMT-GTO) jismoniy madaniyat majmuasi va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumotlar berildi. Ta'kidlanganidek, majmuaning (kompleks) turlari, talab me'yorlari takomillashtirib qo'llanilib kelinmoqda.

Mustaqillik g'oyasi va milliy xususiyatlarimiz yoshlarni mehnat, kasb-hunar va Vatan mudofaasiga tayyorlanishining izchil tizimga ega bo'lgan omillar, usullarni ishlab chiqish, ularni amalda sinab ko'rish hamda eng ilg'or va yaxshi tajribalarni hayotga singdirishni talab etdi. Bu asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror, sog'lom avlod davlat dasturi va boshqa bir qator rasmiy hujjatlarda

aks ettirilgan.

O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaxshi tasavvur qilgan, aholining barcha tabaqalarida salomatlikni yaxshilash, o‘quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini ta’minlovchi jismoniy mashqlarning afzalliklarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan to‘la tasavvur etgan bir qator mutaxassis olimlar, o‘qituvchilar va yo‘riqchilar «Alpomish», «Barchinoy» maxsus testlari majmuini ishlab chiqishdi (1999) va 2000-yil 1-martdan boshlab uni amalga oshirishga mutasaddi davlat va jamoat idoralari maxsus qaror qabul qildi.

Maxsus testlarning turlari va talab me’yorlari bugungi kun talablariga javob beradi. Faqat bunda 6 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lganlar yoshi, jinsi va jismoniy jihatdan o‘sish tamoyillariga (anatomiya, fiziologiya) qarab juda ko‘p guruhlarga bo‘lib yuborilgan. Bu bir jihatdan mantiqiy to‘g‘ri deb hisoblansa, ikkinchi tomondan esa ularni amalga oshirish, rasmiylashtirish ishlarida ortiqcha mehnat, vaqt talab etadi. Maxsus testlar asosan uchta bosqichga, ya’ni: I bosqich – 6–17 yosh, II bosqich – 18–34 yosh va III bosqich – 35–60 yoshga mo‘ljallangan. Ularning turlari va talab me’yorlari maxsus qo‘llanmalarda ifoda etilganligi uchun bu yerda ularga batafsil izoh berishni hojati yo‘q. Lekin ba’zi bir tomonlarni hisobga olish, keyingi qayta ishlov va nashr ishlarida ularni e’tiborga olishga to‘g‘ri keladi. Ya’ni:

1. «Alpomish» va «Barchinoy» ramziy nom bo‘lsa-da, «Alpomish» dostonida tavsif etilgan kurash, otda poyga xalq orasida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Deyarlik barcha kishilar bunday turlar bilan shug‘ullanish, belgilangan talablar va me’yorlarni qiziqib bajarishlarga shubha yo‘q. Qishloq sharoitlarida otda poyga boshqa ot o‘yinlarini bajarish imkoniyatlari yomon emas. Kurash esa barcha joyda birdek tashkil qilinmoqda. Ana shu jihatlarni e’tiborga olgan holda, maxsus testlar tarkibiga bu ikki turni kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Kalibrli yoki pnevmatik miltiqlardan o‘q otishni «Kamondan o‘q otish» deb qaraladigan bo‘lsa («Alpomish bir

o‘yini»), unga yarasha sharoitlar yaratish lozim bo‘ladi. Lekin iqtisodiy, moddiy jihatlar hisobga olinsa, o‘q otish turlari va qurollari juda qimmatga tushadi. Uning o‘rniga oddiy tol va boshqa daraxtlarning novda shoxlaridan (daraxtlarni yanada ko‘paytirish evaziga, bu katta muammo emas) oddiy yoy (kamon) yasab, xavfsizlikni ta’minlab, musobaqalar tashkil etish qulay va arzonga tushadi.

3. Sayohatlar va sayrlar juda o‘rinli kiritilgan. Buning xususiyati shundaki, o‘quvchi yoshlarni tabiat qo‘yniga olib chiqish bilan ularni chiniqtirish (piyoda yurish bilan) va o‘lkani o‘rganish, topografik bilimlarni kengaytirish amalga oshiriladi. Bu, o‘z navbatida, harbiy chaqiriq yoshidagilar va umuman har bir kishi uchun zarur tadbirdir.

O‘zbekistonning chegaralari asosan tog‘li va dasht-sahro bilan o‘ralganligi sababli harbiy xizmatdagilarni shu sohada tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bunda sayohatlar orqali olinadigan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni tarbiyalash imkoniyati mavjuddir.

Sayohatlarni qishloq joylarida uyushtirish muammolari unchalik murakkab emas. Shahar sharoitlarida sayohatlarni xiyobonlar, istirohat bog‘lari, ochiq-yalanglik joylar va hatto stadionlar, futbol maydonlarida ham o‘tkazish mumkin. Faqat bunda musobaqalarni aniq belgilash va imkoniyat darajasida kichik g‘ildirakli aravachalardan (rolik) maqsadli foydalanish mumkin.

4. Suvda suzish musobaqalarini o‘tkazish muammosi ham mavjud. Faqat yoz oylarida o‘quvchi va mehnatkashlar uchun maxsus musobaqalar («Chiniqish» salomatlik va uzoq umr omili) orqali vazifalarni bajartirish lozim.

11.5. Xalq milliy o‘yinlari – qadriyatlar timsoli

Xalq milliy o‘yinlari milliy qadriyatlar tarkibidagi xalqning eng sevimli ommaviy ma’naviy tadbirlaridan biridir. «Navro‘z», hayit, to‘ylar va turli xil an’anaviy marosimlar, udumlar qadimdan kurashsiz, ko‘pkarisiz (uloq), poygasiz va boshqa ko‘p milliy o‘yinlarisiz o‘tmagan. Bunday

tadbirlar xalq og'zaki ijodining barcha turlarida, dostonlarda ifoda etilgan. Ular ulug' allomalar Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va undan keyingi o'tgan adiblar, shoirlarning asarlarida qiziqarli hamda to'la bayon etilgan.

Yaqin o'tmishda va ayniqsa, mustaqillik yillari davrida xalq milliy o'yinlarini o'rganish va ularni qayta tiklash bilan o'quvchi yoshlarning ma'naviy hamda jismoniy kamolotlarini tarbiyalashda ulardan maqsadli foydalanish amalga oshirildi. Bu yo'lda madaniyat va san'at arboblari, taniqli olimlar M.Murodov, U.Qoraboyev, T.S.Usmonxo'jayev, J.Toshpo'latov, R.Abdumalikov, F.N.Nasriddinov kabilarning xizmatlari g'oyat katta bo'ldi.

Xalq milliy o'yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko'p janrlardagi san'at ancha ustun turadi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan qator harakatli o'yinlar va sportga xos o'yinlar ham juda ko'p. Ularni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin, ya'ni:

1. Kurashchilar (Buxoroga, Farg'onaga, Xorazmga va h.k.).
2. Ot o'yinlari (ko'pkari-uloq, poyga (yayov), qiz quvmoq, otdan ag'darish, chovg'on va h.k.).
3. Dorboz (dor ustidagi mashqlar, hazil va aytishuvlar).
4. Tosh (gir) ko'tarish.
5. Arqon tortishish.
6. Bilak kuchini sinash.
7. Harakatli o'yinlar (quloq cho'zma, eshak mindi, yelkada kurash, xo'rozlar jangi, chillik, poda to'p va h.k.).

Bunday o'yinlarning deyarli barchasi hozirgi davrdagi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanmoqda. Ularning mazmunlari xalqqa ma'lum. Shuningdek, ular ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar ilmiy ommabop risolalarga ham kiritilgan.

Ba'zi bir tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan harakatli o'yinlar umumta'lim maktablarning «Jismoniy tarbiya» dasturiga ham kiritilib, ular o'quvchi yoshlar orasida ommalashmoqda. Qolaversa, T.S.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev

va boshqa bir qator mualliflar tomonidan «Harakatli o'yinlar» (1963–1981), «1001 o'yin» (1991) kabi to'plamlar yaratilgan.

Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va boshqa viloyatlarning tog'li hududlari va yangi o'zlashtirilgan joylarida bo'layotgan katta to'ylarda kurash, ko'pkari-uloq, poyga va turli xil harakatli o'yinlar doimiy ravishda qo'llanilmoqda. Bu o'yinlar to'ylarga fayz, baraka kiritish bilan birgalikda tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lmoqda, ayniqsa, o'quvchi yoshlarning milliy o'yinlar, zamonaviy sport turiga qiziqishini tobora oshirmoqda.

Boshida ta'kidlanganidek, xalq milliy o'yinlarini o'rganish va amalda qo'llash borasida katta tadbirlar amalga oshirildi. U.Qoraboyev tashabbusi bilan 1991-yil 25-aprelda Forish tumanida (Jizzax viloyati) ilk bor xalq milliy o'yinlari respublika musobaqasi tashkil etildi. Bunda Respublika Davlat sport qo'mitasi, Jizzax viloyati hokimligi, Jizzax DPI jamoasi katta faoliyat ko'rsatib, moddiy, moliyaviy va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirdi. Bunday o'yinlar har yili aprel, may oylarida yana Forishda takrorlandi. 1994–1996-yillarda o'tkazilgan bu o'yinlar «Xalq milliy o'yinlari respublika olimpiadasi» nomi bilan yuritildi.

1996-yil may oyida. Forish tumani markazi Yangiqishloq yaqinidagi Qizilqir sayilgohida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan II respublika xalq o'yinlari olimpiadasi katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi. Unda 11 jamoa 9 tur hamda umumiy hisobda g'oliblikni qo'lga kiritish uchun maydonga tushdi. Musobaqani minglab jizzaxliklar qatori mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan kelgan, shuningdek, AQSH, Norvegiya, Qozog'istondan tashrif buyurgan mehmonlar ham kuzatishdi. Olimpiadaning tantanali ochilish marosimida qatnashchilarni O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari Shavkat To'laganov, Jizzax viloyat hokimi o'rinbosari Shirin Chilg'ashyev, Forish tumani hokimi Bostanqul Saidqulov tabrikladi. So'ngra Vatanimiz madhiyasi

yangrab musobaqa bayrog'i ko'tarildi.

Tantanali ochilish marosimida jamoalar maydonda saf-saf bo'lib o'tadi.

O'yin dasturida 1991–1994-yildagi turlar o'z o'rnini egalladi.

Respublika olimpiadasida peshqadam jamoalar oxirgi tur oldidan quyidagicha ochko to'plashgan: Jizzax-157, Surxondaryo-103, Qashqadaryo-87, Samarqand-80, Farg'ona-68 ochko. Ko'rinib turibdiki, sovrindor jamoalar muddatidan ilgari ma'lum edi.

Jizzax sharafini himoya qilgan Forish jamoasi viloyat birinchiligidagi chavandoz turida 9-o'rindan joy olgan edi. Respublika olimpiadasida esa hech bir qiyinchiliksiz g'olib bo'ldi. Forishliklar bir tayoq o'yinida viloyatda 5-o'rin bilan kifoyalanishgan edi. Respublika olimpiadasida ular barcha raqiblarini yirik hisobda mag'lub etdi. Final uchrashuvida ular samarqandliklarni eng yirik hisobda (7:0) mag'lubiyatga uchratishdi.

Musobaqa davomida turlar bo'yicha 1–3-o'rinlarni egallagan jamoalarga O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi diplomlari va chiroyli ishlangan oltin, kumush,bronza medallari tantanali suratda topshirib borildi. Olimpiada so'nggida sovrindor jamoalarning har bir a'zosiga qo'mitamizning qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

Respublika hukumatining roziligiga va sport tashkilotlarining taklifi bilan alpomish o'yinlari olimpiadasini har ikki yilda o'tkazishga kelishildi.

«Alpomish» dostonining yaratilishiga 1000 yil to'lishini nishonlashga bag'ishlab Termizda («Alpomish vatani») xalq milliy o'yinlari, «Alpomish o'yinlari respublika festivali» o'tkazildi. 2000-yildagi o'yinlar Farg'ona shahrida tashkil etildi. Uchinchi festival esa Guliston shahrida 2002-yil iyul oyida o'tkazildi.

Xalq milliy o'yinlari respublika musobaqalari (1991–1996) va «Alpomish» o'yinlari respublika festivallari (1998) dasturlarida kurash, otda poyga, ko'pkari (uloq), «Bo'ron», Arqon tortishish, bilak kuchini sinash, «Mindi», qirq tosh

(qizlar o'yini) va boshqa harakatli o'yinlar bor edi. O'yinlar va festivallarning ochilishi va yakunlarida mahalliy havaskor san'atkorlar, respublikaning taniqli san'atkorlari, shoirlar, madaniyat arboblari, turli sohadagi adiblar ishtirok etib, u katta bayram tariqasida o'tkazildi. Bu tadbirlar teleradio kompaniyasi va «O'zbektelefilm» ijodkorlari tomonidan maxsus video va kinofilmlar qilib yaratildi. 1998-yil (Termiz) va 2000-yil (Farg'ona)da o'tkazilgan festivallar televideniya orqali olib ko'rsatildi. Video tasvirga yozib olib, bir necha bor takror namoyish etildi. Bunday umumxalq milliy bayramlar va o'yinlar milliy qadriyatimizning naqadar boy, mazmunli va tarbiyaviy jihatdan yuksak darajadagi mohiyatini namoyish etish bilan manzur bo'lib qoldi.

Milliy qadriyatlarni qayta tiklash yo'lida O'zbekiston Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifiat» jamoatchilik markazini tuzishga qaratilgan farmoni (1993-yil) va Respublika hukumatini bu sohadagi maxsus qarorlari (1993–1995) asosida «Ayollar yili» (1999-yil), «Sog'lom avlod yili» (2000-yil), «Onalar va bolalar yili», «Qariyalarni qadrlash yili» (2002-yil) kabi muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, ijtimoiy turmush va madaniy hayotimizda ayollarning o'rni beqiyos katta ahamiyat kasb etmoqda. Qadimgi ajdodlar madaniyatini eslash, o'tgan ulug' ajdodlar ruhini shod etish maqsadida 1999-yil Jizzaxda Ayollar yiliga bag'ishlab «To'maris o'yinlari respublika festivali» tashkil etildi. Bu tadbir ham o'ta ko'tarinkilik ruhida o'tkazilib, bayramona tus oldi. Respublikaning barcha viloyatlaridan xotin-qizlar jamoalari yig'ilib, gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va boshqa sport turlari bo'yicha masobaqalar o'tkazishdi. Bunday festival yana 2001-yil Shahrisabzda (Qashqadaryo viloyati) tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, xalq milliy o'yinlari (Jizzax, Termiz, 1992-yil), «Alpomish o'yinlari» respublika festivallari (1998, 2000, 2002), «To'maris o'yinlari respublika festivallari» (1999, 2001, 2003)ga bag'ishlanib, respublika ilmiy-amaliy anjumanlari ham o'tkazildi. Ularda xalq milliy o'yinlarining mazmunlari yoritildi. Shuningdek, milliy qadriyatlar

mazmunida xalq milliy o'yinlarining o'rni, ularning tarbiyaviy ahamiyatlariga qaratilgan juda ko'p ma'ruzalar jamlandi. Ularning qisqacha mazmunlari anjumanning ilmiy to'plamlariga kiritildi.

Shunga qaramasdan, ko'pkari-uloq, otda poyga va boshqa o'yinlarni yoshlarga o'rgatish masalalari ancha orqada qolmoqda. Qishloq yoshlari o'rtasida ot sporti klublari tashkil etilib, kichik yoshdan boshlab ot o'yinlariga o'rgatish yo'lga qo'yilsa, chaqiriq yoshidagi yigitlarga esa otda bajariladigan harbiy-jismoniy mashqlar o'rgatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. E'tirof etish kerakki, 2000-yilda ishlab chiqilgan ikki qismli «Alpomish» kinofilmi (rejissyor Usmon Azimov) milliy qadriyatlar mazmunini to'la ifodalab bergan. «Alpomish» va «Barchinoy»ning kurash, otda poyga, merganlikdagi amaliy faoliyatlarini yaxshi tasvirlagan. Bundan yoshlar yaxshi xulosa qilishlari lozim.

Turli xil sakrashlar, yugurishlar va bajarish qiyin bo'lgan gimnastika mashqlari o'rniga qizlarga milliy harakatli o'yinlarni darslarda o'rgatib borilsa, ularning jismoniy kamolotini o'stirishda muhim tadbirlardan biri bo'lish mumkin.

Shuningdek, oila va bolalar bog'chalarida sevimli harakatli o'yinlar va mashg'ulotlar tarkibida milliy harakatli o'yinlardan foydalanishni yo'lga qo'yilsa, yaxshi bo'ladi.

Xulosa shundaki, xalq milliy o'yinlari inson kamoloti va yoshlar tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan, o'quvchi yoshlarga xalq milliy o'yinlarining ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq singdirish zarurdir.

11.6. Sport turlari haqida qisqacha bayonlar

Madaniyat va sport ishlari vazirligining yillik yig'ma – (statistik) hisobot varag'ida 50 dan ortiq sport turlari mavjuddir.

Aholi o'rtasida futbol, voleybol, kurash, yengil atletika, boks, tennis kabi o'nlab sport turlari keng rivojlangan. Ko'pgina sport turlari o'quv yurtlarining «Jismoniy tarbiya»

dasturiga kiritilgan. Harbiy va ichki xizmat hamda turli sohalardagi maxsus xizmatlarda (qutqarish, o‘t o‘chirish, parashyut, avtomotosport va h.k.) juda ko‘p amaliy va texnik sport turlari mavjud.

Eng muhimi shundaki, barcha mamlakatlardagi kabi O‘zbekistonda ham Osiyo va jahon birinchiliklari, Olimpiya o‘yinlari sport turlari bo‘yicha sport jamoalarini tayyorlash eng muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu asosda sportchilarni tarbiyalash, ularning texnik va taktik tayyorgarligini mustahkamlashga katta e’tibor berilmoqda.

Futbol kattayu-kichikning tomoshabop, sevimli o‘yinidir. Futbol o‘ynamagan kishining topilishi qiyin. Hozirgi yoshlarning aksariyat ko‘pchiligi bo‘sh vaqt topganda, albatta, futbol o‘ynashadi. Bironta sport turi yo‘qki, mashg‘ulotlar boshlanishi yoki uning so‘nggida futbol o‘yinlaridan foydalanilmasa.

O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish maqsadida Respublika hukumati qator qarorlar (1993—1996) qabul qildi. Shu asosda viloyatlarning markazlarida futbol maktab-internatlari tashkil etildi. Tuman shahar sport jamiyatlari, xalq ta’limi tizimlaridagi bolalar va o‘smirlar sport maktablarida (BO‘SM) futbol bo‘limlari mavjud. Ishlab chiqarish jamoalari, turli muassasalar, o‘quv yurtlarida futbol jamoalari (to‘garak-seksiya-komanda) tashkil etilgan. Tuman, shahar va sport klublarning terma futbol jamoalari har yili viloyatlar va respublika chempionatlari, kubok uchun musobaqalari va turli xil turnirlarida ishtirok etib kelmoqda.

Tuman, shahar va viloyatlardagi futbol jamoalari respublikadagi II—I va oliy ligalarda qatnashmoqda. Farg‘onaning «Neftchi»; Namanganning «Navbahor», Toshkent viloyatining «Do‘stlik» jamoalari ancha mashhur bo‘lib keldi. XXI asr boshida esa «Nasaf» (Qashqadaryo), «Traktor» (Toshkent traktor zavodi - TTZ), «Paxtakor» va boshqa jamoalar peshqadamlikka da’vogar sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Respublika terma jamoasi 1994-yil Xirosimada (Yaponiya), o‘tkazilgan XII Osiyo o‘yinlarining chempioni bo‘ldi. 2002-yilda o‘tkazilgan futbol bo‘yicha jahon

chempionatiga saralash o'yinlarida Osiyo mintaqalari jamoalari o'rtasidagi o'tkazilgan o'yinlarda yaxshi natijalarga erisha boshladi. Lekin yarim final o'yinlariga yaqinlashganda futbolchilarimizning omadi yurishmadi. Bu holat 2006-yilda o'tkaziladigan jahon chempionatiga saralash holatlari (2005-yil) yana takrorlandi.

Respublika hukumati va sport tashkilotlarining g'amxo'rligi va amaliy faoliyatlari yosh futbolchilarni tarbiyalashga katta yordam bermoqda.

Respublikada futbol bilan shug'ullanuvchilar soni 2001-yil boshida 439344 kishini tashkil etdi. Bu raqam 1991-yilda 266767 ni tashkil etgan edi.

Bundan 15–20 yil avval, respublika futbolida Birodar Abduraimov eng mashhur futbolchi hisoblangan bo'lsa, mustaqillik yillarida Mirjalol Qosimov jahon futbol olamiga tanildi. Yaqin o'tmishda taniqli futbolchilar ancha bor edi. Hozir ham iste'dodli futbolchilar yetishib chiqmoqda. Umuman futbol tarixi va respublika futboli haqida qiziquvchilar R.A.Akramov (1996–1998), R.E.Nurimov (1999–2001) kabilarning monografiya, o'quv qo'llanmalariga murojaat qilishlari mumkin.

O'zbekiston futbolida iqtidorli sportchilar va iste'dodli murabbiylar soni tobora oshib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, milliy futbolimiz xalqaro tajribalarga to'la erishaolganlari yo'q. Buning uchun esa katta mehnat va moddiy-texnik asoslarni yaratish lozimdir.

Tennis ham o'z navbatida juda qiziqarli va yuksak mahorat talab etuvchi sport turidir.

O'zbekiston tennisini shakllanishida va mahoratli tennischilarni tayyorlash 50-yillarda faoliyat ko'rsatgan. A.Ye.Plotnikov, A.V.Kaplan, Ye.Ye.Kozlov, M.F.Yachmyeneva kabi murabbiylar alohida o'rin egallaydi. Ayni paytda G.Sh.Dashevskiy, V.A.Pushkarev, I.G.Limakina, N.I.Prokofeva, A.G.Yelxinlar yuqori malakali tennischilarni yetishtirishda sezilarli xizmat ko'rsatib kelmoqdalar.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida tennis bo'yicha mutaxassislar tayyorlash 1959-yildan boshlangan.

Hozirgi kungacha institut 200 ga yaqin mutaxassislar tayyorladi.

Ko'pgina tennischilarimiz sobiq Ittifoq davrida va hozirgi kunda ham yuqori natijalarga erishganlar. Jumladan, Ye.Larina, A.Kolyaskin, A.Podolskiy, V.Kaplan, V.Bezverxov, N.Prokofyeva, I.Limakina, G.Sorokotyaga, V.Ovchinnikov, R.Almakayeva, S.Yurchenko, V.Bogatirev, O.Ogorodov, N.Stepanova, F.G'ulomov, T.G'aniyev, D.Tomashevich va boshqalar O'zbekiston tennisini yuqori cho'qqilarga chiqishga munosib ulush qo'shganlar.

So'nggi yillarda, ayniqsa, Vatanimiz istiqlolga erishgandan keyin O'zbekiston tennisini taraqqiyoti keng tus ola boshladi.

O'g'il bolalar o'rtasida T.Xonxo'jayev, T.G'aniyev, A.Kakurin, A.Nenashev, A.Volkov, D.Shvedenko, A.Gerasimov va boshqa iste'dodli tennischilar yetishib chiqqan bo'lsa, qizlardan O.Yarikova, P.Kraves, L.Biktyakova va boshqa qator sportchilarimiz tennis kelajagini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Mazkur tennischilarimiz respublikamizning yetakchi va tajribali ustalari bilan birlikda «Satellit», «Chelenjer», Prezident kubogi va boshqa qator xalqaro musobaqalarda o'z mahoratlarini ko'rsatib, faxrli o'rinlarni egallashga muyassar bo'lmoqdalar.

Yurtimizning yetakchi tennischilari bo'lmish O.Ogorodov va D.Tomashevich 1996-yilda AQSHning Atlanta shahrida o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston tarixida ilk bor ishtirok etishdi.

2002-yil 16-iyunda Avstriyaning Vena shahrida tennis bo'yicha ayollar o'rtasida to'rtinchi toifaga kiruvchi, mukofoti 170 ming AQSH dollaridan iborat xalqaro turnir nihoyasiga yetdi. Xabaringiz bor o'tgan yili aynan ushbu musobaqada hamyurtimiz Iroda To'laganova barcha raqiblarni mag'lubiyatga uchratib, bosh sovrinni qo'lga kiritgan edi. Ammo finalda Iroda, isroillik Anna Smashnova bilan uchrashib, ikki setda bir xil 4:6 hisobidagi natija bilan raqibiga imkoniyatni boy berdi. Hamyurtimiz Vena

turniridagi ishtiroki tufayli poytaxtimiz Toshkentda bo'lib o'tgan turnirda qatnasha olmadi. Tennischimiz Venadagi turnirda finalga chiqqanligi bois o'z ochkolarini 63 ochkoga ko'paytirib, jami 1349 ga yetkazdi va ilk bor kuchli 16 nafar tennischilar qatoridan joy oldi. Anna Smashnova esa bu yilgi mavsumda uchinchi marta VTA tasnifidagi musobaqalarda g'olib keldi. I.To'laganova jahon tennischilari safidan salmoqli o'rin oldi.

Respublikada tennis bilan shug'ullanuvchilar 1991-yilda – 3301 kishi 1995-yilda – 2766 va 2000-yilda esa 14504 kishini tashkil etdi. Stol tennisi bo'yicha ham o'z navbatida shug'ullanuvchilar soni muvofiq ravishda 86276, 59400, 84627 ni tashkil etdi.

Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2000-yil hisobotiga ko'ra tennis kortlari 659 tani tashkil etdi. Ular Qorag'alpog'istonda – 15, Andijonda – 61, Buxoroda – 31, Jizzaxda – 34, Qashqadaryoda – 41, Navoyida – 18, Namanganda – 39, Samarqandda – 43, Surxondaryoda – 49, Sirdaryoda – 19, Toshkentda – 18, Farg'onada – 63, Xorazmda – 78, Toshkent shahrida – 150 dan iborat.

Yengil atletika. O'quvchi yoshlar va mehnatkashlar ommasi orasida yengil atletika eng ommaviy sport turlaridan biridir. Shu sababdan, bu turlar bilan 172047 kishi shug'ullanishi 2000-yildagi hisobotlarda qayd etilgan. Maktab o'quvchilarining «Umid nihollari», kasb-hunar kollejlari, litseylar va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilarining «Barkamol avlod» va talabalarning «Universiada»lari dasturlarida eng ko'p sonli qatnashuvchilar yengil atletikaga to'g'ri keladi. Bahorgi, yozgi va kuzgi krosslar, turli xil musobaqalar va respublika birinchiligiga tayyorgarlik musobaqalarida qatnashuvchilar soni ham boshqa sport turlariga nisbatan ancha ustun turadi.

Tuman-shahar markazlarida yengil atletika bo'yicha BO'SM tarkibida va viloyat markazlaridagi yengil atletika sport maktablarida shug'ullanuvchilar ham boshqa sport turlariga nisbatan ancha ko'pdir.

O‘zbekiston Respublikasi yengil atletika Federatsiyasining ijroiya qo‘mitasi komissiyasi, murabbiylar kengashi hamda hakamlar hay’ati taqdim etgan hujjatlar asosida 2001-yil natijalariga ko‘ra 5 yo‘nalishda tanlov g‘oliblarini aniqladi. Quyi-da har bir yo‘nalish bo‘yicha kuchli o‘nlikni diqqatingizga havola qilamiz.

Eng yaxshi yengil atletikachilar

1. Zamira Amirova – Toshkent, KU, sport ustasi – 330 ochko.
2. Rustam Husniddinov – Toshkent, «Dinamo», sport ustasi – 300 ochko.
3. Leonid Andreyev – Toshvil. «Yoshlik» (R.O.Z.K.) – 275 ochko.
4. Svetlana Klimina – Toshkent, KU, sport ustasi – 270 ochko.
5. Olga Shukina – Toshkent, MXSK, sport ustasi – 240 ochko.
6. Go‘zal Xubbiyeva – Toshkent «Yoshlik» x.m. sport ustasi – 230 ochko.
7. Lyudmila Dmitriadi – Sirdaryo, MXSK, x.u. sport ustasi – 230 ochko.
8. Andrey Kornichenko, Toshkent MXSK, sport ustasi – 230 ochko.
9. Dmitriy Kiprishin, Toshkent, MXSK, sport ustasi – 208 ochko.
10. Ilnur Sibagatullin – Toshkent, MXSK, sport ustasi – 200 ochko.

Eng yaxshi murabbiylar

1. German Kutyanin – Toshkent, R.O.M.S.M., XKU – 789 ochko.
2. Vladimir Andreyev – Toshkent, ROMSM, XKU – 670 ochko.
3. Gennadiy Arzumanov – Toshkent, O‘zDJTI, XKU – 518 ochko.

4. Svetlana Karvaseskaya – Toshkent, ROMSS, XKU – 423 ochko.

5. Yuriy Totchin – Toshkent, KU – 330 ochko.

6. Natalya Yegorova – Toshkent, ROZK – 294 ochko.

7. Sergey Arkashin – Toshkent «Dinamo» – 290 ochko.

8. Galina Kazakova – Toshkent, ROMSM – 287 ochko.

9. Andrey Larin – Toshkent, 1-BO'OO'MSM – 265 ochko.

10. Lyudmila Lisovskaya – Toshkent ROZK, sport ustasi – 240 ochko.

Eng yaxshi o'smir yengil atletikachilar

1. Andrey Podurov – Toshvil, «Yoshlik»; 1-BO'OUMSM, XTB. s.u. – 239 ochko.

2. Doniyor Sinagatullin – Quvasoy, Farg'ona viloyati, KUROO'MBO'SM, s.u.n. – 190,8 ochko.

3. Anna Urazayeva – Chirchiq, «Yoshlik», 1-BO'OO'MSM, Toshvil, XTB, s.u.n. – 190 ochko.

4. Olga Xogolyeva – Chirchiq, «Yoshlik», 1-BO'OO'MSM Toshvil, XTB, 1r. – 162 ochko.

5. Anna Sidorova – Toshkent, KUROO'MBO'SM s.u.n. – 161 ochko.

6. Zarina Islomova Samarqand, KU, ROZK, s.u.n. – 160 ochko.

7. Dmitriy Shuman – Chirchiq «Yoshlik», 1-BO'OO'MSM Toshvil. XTB, 1r. – 145 ochko.

8. Yekaterina Strelsova – Samarqand «Yoshlik» ROZK s.u.n. – 141 ochko.

9. Gayana Beglaryan – Samarqand «Yoshlik», ROZK – 109 ochko.

10. Svetlana Radzivil – Toshkent, KU, ROO'MBO'SM – 90 ochko.

O'rinbosarlar bilan ishlash borasidagi eng yaxshi murabbiylar

1. Vladimir Burmatov – Toshkent K.U. ROO'MBO'SM, XKU – 401 ochko.
2. Svetlana Arzumanova – Toshkent, ROZK, s.u. – 284 ochko.
3. Svetlana Tyapugin – Toshkent, ROZK, s.u. – 284 ochko.
4. Nadejda Manko – Toshkent, ROO'MBO'SM, KU – 280 ochko.
5. German Kutyanin – Toshkent, ROMSM, X.K.U. – 268,5 ochko.
6. Irina Mixaylyans – Samarqand viloyati. XTB – 183 ochko.
7. Natalya Yegorova – Toshkent, ROZK – 181,5 ochko.
8. Sergey Xogolyev – Chirchiq, 1-BO'OO'MSM Toshkent viloyati. XTB, s.u. – 152 ochko.
9. Igor Kirsanov – Toshkent, 1-BO'OO'MSM Yunusobod tumani – 151 ochko.
10. Valentina Beglaryan – Samarqand, BO'OO'MSM, XTB – 139 ochko.

«Eng yaxshi sport maktabi» konkurs natijalari

1-guruh

1. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi jismoniy tarbiya va sport jamiyati qoshidagi Respublika Olimpiya o'rinbosarlar maxsus bolalar va o'smirlar sport maktabi – 1586 ochko.
2. Toshkent viloyati 1-sonli Bolalar va o'smirlar Olimpiya o'rinbosarlari sport maktabi – 1313 ochko.
3. Toshkent shahri Yunusobod tumani 1-BO'OO'MSM – 853 ochko.
4. Samarqand viloyati RO'OMSM XTB – 574 ochko.
5. Respublika o'smirlar oliy sport mahorati maktabi – 225 ochko.

Andijon viloyati BO'OO'MSM – 154 ochko.

2-guruh

1. Toshkent shahar kasaba uyushmalari qoshidagi BO'OO'MSM – 116 ochko.

2. Sirdaryo shahri BO'SM – 113 ochko.

3. Yaypan shahri BO'SM – 67 ochko.

4. Jizzax shahri BO'SM – 41 ochko.

Eng yaxshi hakamlar

1. Gennadiy Arzumanov – Toshkent, O'zDJTI, milliy toifadagi hakam, (M.T.) sport bo'yicha faxriy hakam.

2. Lyubov Cheprunova – Toshkent, «Yoshlik», XTB, RO'OMSM, M.T.

3. Natalya Krimskaya – Toshkent viloyati «Yoshlik» 1-BO'OO'MSM, XTB, M.T.

4. Klara Shokirjonova – Toshkent, KU, ROO'MBO'SM, M.T.

5. Alisher Tolipov – Jizzax, KU, RT.

6. Nikolay Svetkov – Toshkent, KU, ROO'MBO'SM, M.T.

7. Nikolay Arzumanov – Toshkent, KU, M.T.

8. Vera Ivanova – Tyurina – Toshkent, KU, ROO'MBO'SM, M.T.

9. Gennadiy Suxachyev – Namangan, KU, BO'SM, M.T.

10. Naira Andreyeva – Toshkent viloyati, «Yoshlik» 1-BO'OO'MSM, XTB, R.T.

O'zbekiston terma jamoalar tarkibida iqtidorli yosh sportchilar ko'payib bormoqda. Ularning natijalari bundan 10–15 yil avvalgi natijalarga nisbatan ancha yaxshi.

Boks. Respublikada boks sportning eng sevimli turlardan biri sifatida yoshlar orasida tobora rivoj topmoqda. Respublikamizda 26500 dan ortiq bokschi bor. Viloyatlardagi boks sport maktablarining faoliyati yuqori darajada olib borilishi iste'dodli bokschilar yetishib chiqishini

ta'minlamoqda. Olimpiya sport turlari bo'yicha jahon chempionlari orasida bokschi Muhammadqodir Abdullayev, O'tkirbek Haydarov, Ruslan Chagayev, To'lqinboy Tug'unov, Hikmatulla Ahmedov, Dilshod Yorbekov turli xil musobaqalar sovrindori Nariman Otayev L.Zokirov Olimpiya o'yinlari sovrindorlari Muhammadqodir Abdullayev (XXVII Olimpiya o'yini, oltin medali), Karim To'laganov (XXVI Olimpiya o'yini, bronza medali), Rustam Saidov, Sergey Mixaylov (XXVII Olimpiya o'yini, bronza medali), O'tkirbek Haydarov (XXVIII Olimpiya o'yini, kumush medali) kabilar respublika sharafi uchun kurashib kelmoqda.

2002-yilda Artur Grigoryan professional boks bo'yicha 16 marta jahon chempioni bo'ldi.

O'zbekiston boksi Osiyo va jahon sport jamoatchiligida o'ziga xos xususiyatlari bilan tanilmoqda.

Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, qo'l to'pi va h.k.) o'quvchi yoshlar va mehnatkashlarning doimiy ravishda o'tkazib borilayotgan qiziqarli mashg'ulotlaridir. Qaysi tur va darajada bo'lmasin, yirik musobaqalar tarkibida sport o'yinlari doimo qo'llanib kelinmoqda.

Ayniqsa, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» va respublika birinchiliklarida voleybol, qo'l to'pi, basketbol, stol tennisi kabi o'yinlar yuqori ko'tarinkilik ruhida o'tkazib borilmoqda.

Shaxmat va shashka o'yinlari ham aholi o'rtasida mazmun va mohiyat jihatdan o'z mavqyeini rivojlantirmoqda. Viloyatlarda yosh shaxmatchilar soni ko'paymoqda. Yu.Hamroqulova (Jizzax) jahon birinchiliklari qatnashchisi, R.Qosimjonov Xalqaro grosmeyster, jahon chempioni (2004-yil) unvoniga egadir.

Sharqona yakka kurashlar (dyuz-do, karate, ushu, kikboksing va h.k.) respublikada tobora keng rivojlanmoqda. Deyarlik barcha viloyatlarda bu kurashlar bo'yicha sport maktablari mavjud: Yosh sportchilar Xalqaro turnirlar, Osiyo va jahon birinchiliklarida muvaffaqiyatli qatnashib, medallar shodasi bilan qaytib kelmoqdalar. Ularni tarbiyalashda yosh va iste'dodli murabbiylar N.Nafasov (karate) kabilar katta

faoliyat ko'rsatmoqdalar.

O'zbek karatechilarining muvaffaqiyatlari tufayli so'nggi besh yil davomida xorijiy ellarda Vatanimiz madhiyasi oz emas, ko'p emas, 100 marta yangradi. Bu shuncha oltin medal degani. Kumush va bronza medallarini ham qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, ularning soni 250 dan oshadi.

Sharqona yakkakurash turlaridan biri bo'lgan karate sporti Yaponiyaning Okinava orolida XVII asrda paydo bo'lgan. Va yetmishinchi yillarning o'rtalarida O'zbekistonga kirib kelgan. Alisher Turg'unov, Tal'at Nigmatulin, Vladimir Mironov, Valmir Ligay, Rustam Ilhomov, Rashid Xalidov, Arslon Ilov va boshqalar birinchilar qatori karate bilan shug'ullanib, uning mamlakatimizdagi rivojiga poydevor qo'ygan kishilar hisoblanadi.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyida har yili bo'lib o'tgadigan Respublika Karate milliy federatsiyasining hisobot-saylov konferensiyasida erishilgan yutuqlar va kelajakdagi rejalar oshkor aytilmoqda.

O'zbekiston Karate milliy federatsiyasi 155 ta mamlakatning turdosh sport tashkilotlari tomonidan tan olingan. Ular bilan Internet axborot tarmog'i orqali yaqin aloqani yo'lga qo'ygan federatsiya (Butunjahon karate federatsiyasi) va (Osiyo karate federatsiyasi)ning to'laqonli a'zosidir.

Federatsiya ommaviy axborot vositalari bilan ham uzviy hamkorlikda ishlaydi. Mustaqilligimiz tengdoshlari bo'lgan 10 yoshli sportchilar o'rtasida «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalari sovrini uchun o'tkazilgan turnir ham ana shu hamkorlikning mevasidir. Yuksak saviyada o'tkazilgan mazkur musobaqada 200 dan ortiq yoshlar ishtirok etishdi. G'oliblarga qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

O'zbek kurashi. Kurashimiz tarixi uch ming yildan ham avvalgi davrlarga to'g'ri keladi. Bu haqda «Avesto»da ham ba'zi ma'lumotlar aks ettirilgan. Ayniqsa, «Alpomish», «To'maris», «Qirqqiz» va boshqa dostonlarda keng ifoda etilgan.

O‘zbek kurashi va kurashchilar XX asr boshlarida ham jahonga dong‘i ketgan.

Jurnalist T.Obidovning (1979-yil) ta’rificha Ahmad polvon Topilboy o‘g‘li XX asrning birinchi choragida kurashga tushib, yelkasi yerga tegmagan va O‘rta Osiyoda dong‘i ketgan polvonlardan biri edi. U o‘ziga juda ko‘p yosh polvonlarni ergashtirib to‘ylar, tomoshalar, sirk o‘yinlarida ishtirok etadi. Keyin ular o‘z ustozining izidan borib, O‘rta Osiyoda nomi ketgan polvonlarga aylanadi.

1890-yilda Toshkentda (Shayxontohur mahalla) bir kambag‘al oilada o‘g‘il tug‘ildi uning ishtahasi juda katta bo‘lib, shu sababdan, uni otasi mardikorlik va boshqa yumushlarga birga olib borib qornini to‘ydirgan. Shuningdek, ota-bola turli xil to‘y-tomosha, sirklarni ko‘radi. Keyin uyida ko‘rganlarini takrorlab, tinimsiz mashqlar qiladi. 12—13 yoshida o‘z tengdoshlari orasida kuchli bo‘ladi. U polvon deb nom oladi. 15—16 yoshida 25—26 yoshga to‘lgan polvonlarni ham yiqitadi. 1906-yilda Toshkentda o‘spirin yoshlar ustidan mutloq g‘olib kelib, Toji polvon nomini oladi. 1919-yilda o‘tkazilgan klassik kurash bo‘yicha musobaqada qatnashib g‘olib chiqadi. Bu o‘zbek kurashchilari uchun yangilik bo‘lib, keyin u an’anaga aylandi.

U yoshligidan sirk tomoshalariga juda qiziqqan va yana u yerda tez-tez bo‘lib, o‘yinlarda qatnashib boradi.

1912-yilda tashkil etilgan milliy sirkka ishga kirib, o‘z mahoratlarini oshiradi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ladi. Ikki pudlik toshlar (gir), ikki boshli zo‘ldir (shar-shtanga) va boshqa og‘ir buyumlarni ko‘tarib tomosha ko‘rsatgan.

Kurash bo‘yicha respublika federatsiyasining sobiq raisi, nashriyotchi To‘lqin Obidov «O‘zbek polvonlari» nomli ocherklar (lavhalar) to‘plamida (1979-yil, 29-bet) shunday hikoya qiladi, ya’ni: O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston tog‘li joylarida xalq orasida bitta ajoyib odat bor. Tog‘ qishlog‘i tomon borayotgan yo‘lovchining ko‘zi yo‘l yonida qator tizilib yotgan toshlarga tushadi. Bularni tog‘lardan

sirg'alib tushgan yoki soyning suvlarida oqib kelgan deb o'ylab qolasiz. Ammo diqqat bilan nazar tashlansa, bunga inson aralashganligi, toshlar tartib bilan tizilib turganligi ko'rinib qoladi. Qishloq yigitlari va mehmonlar bu toshlarni ko'tarib, o'z kuchlarini sinab, xuddi o'zlarini bir musobaqada qatnashayotgandek his etadilar. Toshlarning og'irligi 80 dan tortib 160 kg.gacha bo'lgan. Eng katta tosh polvon tosh deb atalgan. Odatda, birinchi toshni ko'tarsa, ikkinchisiga o'tiladi, uni ko'targandan keyin uchinchisiga. Birinchi marotaba tosh unga og'irlik qilsa, boshqa safar o'tib ketayotgan vaqtida uni ko'tarishga urinib ko'radi. Shu yo'sinda yoshligidan to ulg'aygunicha o'z bilagini, butun tanasini chiniqtirib boradi. Yozilmagan qoidalarga ko'ra, toshni faqat yerdan olishgina emas, balki ko'kragigacha, hatto bosh ustiga ko'tarish lozim. Bo'lmasa, hisob emas. Ammo polvon toshni faqat chiniqqan, epchil va haqiqiy polvongina ko'tara oladi. Polvon toshni quchog'iga olib bir necha metrga (qadam) eltib qo'ygan bahodirning nomi tezda barcha qishloqlarga tarqaladi, u hurmat bilan tilga olinadi.

Ehtimol, ota-bobolarimizdan qolgan va yigitlarning jismoniy tarbiyasiga ta'sir etgan bu odat borib-borib polvonlarning tosh ko'tarish tomoshalarining bunyodga kelishiga, zamonaviy sportning kashf etilishiga sabab bo'lgandir. Shunga o'xshash turli xil tomosha o'yinlari yurtimizning ko'pchilik hududlarida mavjud bo'lgan. Masalan, Jizzax shahri atroflarida yaqin yillargacha yangidan tug'ilgan erkak buzoqlar va tuyalarning bo'taloqlarini hovlidan boshqa maydonga, uzoqroq o'tloq joylarga ko'tarib olib borib boqish va yana ko'tarib uyiga keltirishni ancha yillar mashq qilishgan. Natijada, katta ho'kiz va tuyalarni ko'tarish, sayl bayramlarda namoyish qilish odati bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi arafasida va urushdan keyingi yillarda Samarqandda Jumapolvon Usmonov, Shohimardon Qurbonov degan polvonlar o'tgan. Ular kurash, tosh ko'tarish, yelka, oyoq va qo'llarda 10—15 kishini ko'tarib (piramida shaklida) teatr va istirohat bog'larida tomoshalar ko'rsatgan. Juma polvon esa yerga shishalar sinig'ini to'shab,

uning ustida yotgan holda toshlarni ko'tarib o'ynatgan. 5–10 kishi uning ustiga chiqib turgan. Qalin taxtani ko'krak, qorin va oyoqlari ustida yotgan holda qo'yib, uning ustida yuk mashinani o'tkazish tomoshalarini namoyish etgan. Ular faqat o'sha davrdagi kishilar, yoshlar xotirasidagina saqlanib qolgan. Ilmiy tadqiqotlar ular haqida qimmatli ma'lumotlarni bersa-da, sport tashkilotlari ularga e'tiborsizlik bilan qarab kelmoqda.

Hozirgi kurash sport maktablari, mahallalar nomini Ahmad polvon, Toji polvon nomlari bilan atashsa, yaxshi bo'lar edi.

O'zbek milliy kurashlari (Buxoro va Farg'ona qoidalar) haqida taniqli olimlar A.Q.Atoyev, F.A.Kerimov, iste'dodli murabbiylar O.R.To'ymurodov, J.M.Nurshin, O.O'.Utenov kabilarning darsliklari, o'quv-uslubiy qo'llanmalari e'tiborga loyiqdir. B.Abdiyev (Angren), M.Rahimov (Urganch) va boshqalarning kurashlar bo'yicha o'tkazgan ilmiy tadqiqotlari ham tarixiy ahamiyatga egadir.

To'ylar, bayramlar, an'anaviy bayramlarda kurashning keng va maqsadli qo'llanishi, uning aholi o'rtasida ommalashuviga olib kelmoqda.

Kurash milliy qadriyatlar mazmunining eng ardoqli omillaridan biri sifatida Respublika Prezidenti va hukumatining diqqatini o'ziga qaratdi.

Milliy kurashlarimiz jahon sportiga aylanmoqda. Respublika Prezidenti tashabbusi bilan Amir Temur xotirasi (1996-yil), Hakim Termiziy (1992-yil), Jaloliddin Manguberdi (1999) va boshqa ulug' allomalar xotirasiga bag'ishlab kurash bo'yicha Xalqaro turnirlar, Prezident sovrini uchun yirik musobaqalar tashkil etilmoqda.

Mustaqillik kuni, Navro'z va hosil bayramlarida kurash asosiy mazmunga aylanmoqda. Shu asosda 1999–2004-yillarda jahonning 40 dan ortiq mamlakatlari, Yerevan kabi shaharlarda va Amerika, Yevropa hamda Avstraliya qit'alarining ba'zi shaharlarida o'zbek kurashi bo'yicha Xalqaro uchrashuvlar o'tkazildi. Bularning natijalari esa kurash bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiya (2000-yil) tuzilishiga

zamin tayyorladi. Deyarlik barcha qit'alarda kurash federatsiyalari tashkil etildi, ularning soni 70 dan oshib ketdi. Bunday faoliyatlar kurash bo'yicha jahon chempionatlarini o'tkazishga sababchi bo'ldi. Birinchi jahon chempionati 1999-yil Toshkentda, 2000-yil Antaliya (Turkiya), 2001-yil Vengriya va 2002-yil Yerevanda bo'lib o'tdi.

Kurash bo'yicha jahon chempionatlarining 2003–2004-yilda (1999–Toshkent, 2000–Turkiya, 2001–Vengriya, 2002–Armaniston, 2005–Toshkent) o'tkazilishi, eng avvalo O'zbekistonning istiqloli barqarorligi va milliy qadriyatlarning mustahkam va juda boyligini jahonga namoyish etdi. Kamol Murodov, Akobir Qurbonov, Toshtemir Muhammadiyevlar birinchi chempion bo'lishdi. Keyingi yillarda Abdulla Tangriyev kabi jahon chempionlari kashf etildi. 2005-yil noyabrda Toshkentda kurash bo'yicha V jahon chempionati o'tkazildi.

«Belbog'li kurash» ham respublika chempionatlari va xalqaro turnirlarning markaziga aylanib, jahon maydonlari sari qadam tashlamoqda.

Sayohat sporti eng ommaviy sog'lomlashtiruvchi omillardan biridir. Bu to'g'rida olim T.X.Xoldorov o'z mulohazalarini bildiradi.

Jahon xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmushida sayohat (turizm) juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tabiatning go'zal go'shalariga sayr qilish, tog'larga sayohat, xushmanzara joylarda miriqib hordiq chiqarish, tarixiy va madaniy obidalar sirlarini o'rganish insonga zavq-shavq baxsh etibgina qolmay, salomatligini yaxshilash, jismoniy kamolotini rivojlantirish, ma'naviy olamini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga va amaliy harakatlar nafas olish, qon aylanish hamda ovqatni hazm qilish a'zolarining ish faoliyatlarini yaxshilaydi. Bizning respublikamizda ham ana shunday ko'ngilochar, hayratomuz, havosi tanga rohat beruvchi sayohatbop joylar ko'p. Ayniqsa, tarixiy obidalar, sehrli g'orlar, buloqlar, shifobaxsh giyohlarga boy mintaqalar tarixi o'quvchi yoshlarning jismoniy kamoloti, o'lkamiz tarixini o'rganishlarida boy manba hisoblanadi. Lekin bu

jarayonlar ilmiy-pedagogik jihatdan hali mukammal tadqiq qilingan emas. O'quvchi-yoshlarning darsdan tashqari mashg'ulotlar va bo'sh vaqtlarida ommaviy sayohatlarni tashkil qilish shu asosda ularning jismoniy va ma'naviy kamolotlarini sinov-tajriba tarzida o'rganish hozirgi kunning muhim va dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Shohimardon, Arslonbobo, Chotqol, Chimyon, Zomin, Baxmal, Nurota, Omonqo'ton, Bobotog', Hisor va boshqa juda ko'p tog'li hududlarda o'quvchi-yoshlarning dam olish va hordiq chiqarish oromgohlari joylashgan. Ularda har yili bir necha o'n minglab maktab o'quvchilari, talabalar, sog'lig'i zaif kishilar va mahoratli sportchilar dam olishib, sog'liqlarini yaxshilash, jismoniy chiniqish bilan mashg'ul bo'ladilar. Tabiiyki, bunday oromgohlarda ommaviy sayohatlar asosiy mashg'ulot va tadbirlarning mazmunini tashkil etdi.

Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Jizzax va boshqa shaharlardagi oliy o'quv yurtlarining ommaviy sayohatlarni tashkil qilishdagi tajribalari e'tiborga loyiqdir.

Farg'ona Davlat universitetining Shohimardonda, Samarqand Davlat universitetining Omonqo'ton va Ohalikda, Jizzax Davlat pedagogika institutining Forish tumanidagi Uchma qishlog'ida talabalarning sport sog'lomlashtirish maskanlari (lager) joylashgan. Bu maskanlarda har yili iyun-iyul-avgust oylarida avvalo jismoniy tarbiya fakulteti talabalari (iyun-iyul) keyingi sog'lig'i qisman zaif, dam olishga ehtiyoji bor talabalar bilan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ko'p yillik tajribalar asosida bu maskanlarda talabalarning sog'lig'ini saqlash, jismoniy kamolotini oshirish va sport mahoratlarini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlarni kundalik tartibga kiritganlar:

1. Erta tongda tog'ning sof havosida badantarbiya qilish, bunda past-baland joylarda yugurish, turli to'siqlardan o'tish, umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlarni bajarish, kuch yig'ish mashqlarini takrorlash (tosh ko'tarish, osilish va h.k.) va nihoyat muzday buloq suvlarida cho'milish yoki o'z holatlariga qarab yuvinish shart.

2. Haftaning kamida uch kunida atrof-muhitni o'rganish va jismoniy chiniqish maqsadida sayohatlarga chiqishni uyushtirish. Bunda har safar 8—10 km. tog'li so'qmoqlardan yurish, jar, qir va turli to'siqlardan tirmashib o'tish kabi murakkab mashqlar bajariladi. O'z navbatida, tabiatning xushmanzara joylarida hordiq chiqarish va o'simlik, hayvonot dunyosini kuzatish, joylarning nomlarini o'rganish va maxsus chizmalar tayyorlash bilan shug'ullaniladi.

3. Deyarli har kuni 1—2 marta maxsus tartib (jadval) asosida o'zlari sevgan sport turlari bilan musobaqa tariqasida shug'ullanadilar, boshqa sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarni tashkil qilishda bevosita ishtirok etib, hordiq chiqaradilar.

4. Oromgohda ta'lim-tarbiya va ommaviy tadbirlar dasturida yana turli ommaviy o'yinlar, harakatli o'yinlar, mustaqil ravishda mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Bular ham dam oluvchilarinng jismoniy va ma'naviy kamolotlarini takomillashtirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

5. Dam olish va jismoniy chiniqish muddatlari tugash arafasida har doim katta gulxan uyushtiriladi. Gulxan atrofida oromgoh rahbarlari o'tkazilgan barcha tadbirlarga yakun yasaydi va talabalarning kelajakda ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, sport va sayohat bilan muntazam shug'ullanib borishlarini tavsiya etib, ularga maslahatlar berishadi.

O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar va aholining ijtimoiy-milliy xususiyatlari jahondagi ko'pgina mutaxassislar, sayohatchilarning nigohiga tushmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi tarixiy-arxeologik yodgorliklar, Toshkent, Navoiy, Termiz shaharlari va Farg'ona vodiysidagi ziyoratgohlar xorijlik sayyohlar e'tiboriga tushib, qadimgi ipak yo'lida joylashgan tarixiy shaharlarimiz bilan qiziqayotganlar soni yildan-yilga ko'paymoqda. O'z navbatida, respublikamiz fuqarolari ham sharq va g'arb mamlakatlariga turistik sayohatlarga intilmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirligi Mahkamasi shuni nazarda tutib «O‘zbekturizm» milliy kompaniyasini tuzish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi. Shu asosda Samarqandda sayohat kolleji ochildi. Barcha viloyatlar va yirik shaharlarda sayohat ishlarini tashkil qilish bilan bog‘liq maxsus bo‘limlar, jamoat tashkilotlari, sayohat klublari, faoliyat ko‘rsatmoqda. Qisqa qilib aytganda, mamlakatimizda xalqaro sayohatga (turizm) keng yo‘l ochildi. Bu faoliyatlarni rivojlantirishga «Ipak yo‘li» jamg‘arma uyushmasi va u bilan bog‘liq juda ko‘p davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, hatto xalqaro uyushmalar ham o‘z hissalarini qo‘shmoqda. Bu albatta, aholi o‘rtasida, ayniqsa, o‘quvchi yoshlarning ommaviy sog‘lomlashtiruvchi sayohatlarini muntazam ravishda va qiziqarli shaklda tashkil qilishga da’vat etadi.

11.7. Sport inshootlari

O‘zbekistonda sport inshootlarining qurilishi va rivojlanishi yaqin o‘tmish bilan bog‘liqdir. Eng yirik sport inshooti sifatida «Paxtakor» sport majmui 1956-yilda qurilib, keyinchalik uning atrofida «Yoshlik» yengil atletika yopiq binosi, qilichbozlik va kamondan o‘q otish yirik zallari qurildi. Markaziy harbiy sport majmui (sobiq «Mehnat rezervlari»), Mitrafanov nomidagi suv sport saroyi va boshqalar qayta ta’mirlanib, xalqaro andozalarga moslashtirildi. Mustaqillik yillari viloyatlarning markazlaridagi stadionlar va boshqa sport qurilmalari ham yangidan ta’mirlanib, ular ancha kengaytirildi.

Respublika Prezidenti sovrini uchun tennis bo‘yicha xalqaro turnirlarning boshlanishi (1994) va davom etishi Toshkentda «Yunusobod», «Jar», «O‘zbekiston» va boshqa sport majmualarining qurib bitirilishiga sababchi bo‘ldi. Ularda faqat respublika musobaqalari va tennis bo‘yicha xalqaro turnirlargina emas, hatto boks, kurash, sharqona yakka kurashlar va boshqa turlar bo‘yicha Osiyo va jahon birinchiliklari ham o‘tkazilmoqda. Tennis kortlari va yirik sog‘lomlashtirish sport markazlari barcha viloyatlarning

markazlarida qurib bitkazildi. Ularning tarkibida yirik sport zallari, suv havzalari, futbol va boshqa sport o'yinlari maydonlari mujassamlashgan.

«Yunusobod» sport majmuasi. Xalqaro musobaqalarni o'tkazish bo'yicha jahon andozalariga mos keladigan kompleksda tomoshabinlar madaniy hordiq chiqarib dam olishi, sportchilar esa o'z kuchlarini sinab ko'rishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan.

Aholi o'rtasida o'yin maydonlari, sport zallari va yugurish, dam olish yo'laklarini qurish davom etmoqda.

E'tiborli tomoni shundaki, kasb-hunar kollejlari, litseylar uchun yangidan qurilayotgan o'quv binolari tarkibida katta sport zallari, suv havzalari mavjuddir.

Deyarli barcha oliy o'quv yurtlari yirik sport majmualariga ega bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish korxonalari, turli muassasalarda (soliq tizimi, qurilish, aloqa va h.k.) yangidan majmualarini qurish an'anaviy tus olmoqda.

Respublikada mavjud bo'lgan sport inshootlarining soni haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin (2001-yil boshidagi yig'ma hisobotlar asosida keltirildi.)

3-Jadval

T.r	Viloyatlar	Umumiy sport inshootlari	Stadionlar	Sport zallar	Suv havzasi
1	Qoraqalpog'istonda	3483	13	405	2
2	Andijon viloyatida	4184	25	533	24
3	Buxoro viloyatida	2538	22	382	6
4	Jizzax viloyatida	2234	5	187	3
5	Qashqadaryo viloyatida	4455	19	473	7
6	Navoiy viloyatida	1495	12	143	13
7	Namangan viloyatida	4414	28	473	21
8	Samarqand viloyatida	4844	41	457	12
9	Surxondaryo viloyatida	3514	23	310	6
10	Sirdaryo viloyatida	1615	14	227	11

11	Toshkent viloyatida	3765	38	551	15
12	Farg'ona viloyatida	4920	36	605	121
13	Toshkent shahrida	2173	16	556	32
14	Xorazm viloyatida	2847	1	419	3
Respublika bo'yicha		46487	305	5721	276

Mustaqillik yillarida futbol maydonlari yanada ko'paydi. 1991-yilda O'zbekiston respublika bo'yicha 5664 ta, 1995-yilda 4841 ta va 2000-yil oxirida esa ularning soni 6804 taga yetdi. Shuningdek, tennis kortlarining soni ham ancha oshdi. 1991-yilda 184 ta, 1996-yilda 285 ta va 2001-yil boshida esa 659 taga yetkazildi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar va dalillar respublikadagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish va aholining salomatligini yaxshilash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlar nishonasidir.

Xulosa qilib aytganda, sport tashkilotlari, xodimlari, aholining ijtimoiy-madaniy va salomatligini saqlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, mas'ul xodimlar, ayniqsa, sport inshootlaridan unumli, maqsadli foydalanishlari lozim bo'ladi.

11.8. Xotin-qizlar jismoniy tarbiyasi va sporti

Jahon xalqlari orasida onalarga e'tibor, mehr-muhabbat eng yuqori o'rinda turadi. O'zbek xalqi onalar, xotin-qizlarini e'zozlash, ularga, xizmat qilishda o'ziga xos alohida xususiyatlarga egadir.

Oilada barcha kishilar, ayniqsa, farzandlar onaning hurmatini hamma narsadan ustun qo'yadi. Xotin-qizlarga mehr-oqibat g'oyat kuchlidir. Ayniqsa, qizlarning turmushga chiqishi, oila qurishi va doimo sog'lom oqibatli, oila a'zolariga sadoqatli bo'lishga o'rgatiladi. Aksariyat xotin-qizlar bunday e'tibor va hurmatga yaxshi munosabatda bo'ladi, asosiy ishonchlarni sabr-qanoat bilan oqlashadi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash, aholining ma'naviy va ma'rifiy jihatdan boyitish yo'lida juda katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Faqat katta yoshdagi-

largina emas, balki kichik yoshdagi qizlar va o'quvchi qizlar orasida milliy iftixor va g'ururni egallashda siljishlar bo'lmoqda. Islom dini olamidagi eng ibratli va foydali jihatlar xotin-qizlar orasida singib bormoqda. Bularning negizida sog'lom oila yaratish, farzandlarni jismonan va ma'naviy jihatdan barkamol qilib o'stirish tadbirlari tobora kengaymoqda.

Mustaqillikning sharofati tufayli sportchi xotin-qizlarimiz chet ellarga tez-tez borib kelmoqda. Bunday jarayonlar milliy madaniyatimizni boyitishga xizmat qilmoqda. I.To'laganova (tennis), S.Burxonxo'jayeva (tennis), Yu.Hamroqulova (shaxmat) jahon sporti yulduzlariga aylanmoqda.

Respublika Prezidentining farmonlari (1993, 1996, 1999, 2002) hamda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining ko'pgina qarorlari asosida ayollarning salomatligini, ijtimoiy-moddiy jihatdan ta'minlanishi va ularga doimiy ravishda tibbiy xizmatlarni yaxshi yo'lga qo'yish kabi masalalarga olib borilayotgan turli-tuman tadbirlar katta ahamiyatga egadir.

E'tirof etish kerakki, jismonan zaif yoki kasalmand xotin-qizlarga tibbiy yordamlar doimiy ravishda berib borilmoqda.

Jismonan ojiz va kasalmandlikning sabablari tug'ma yoki oziq-ovqatlarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik bilan ko'proq bog'liqdir. Shuningdek, og'ir vaznli (ortiqcha semiz) xotin-qizlar ham oz emas. Bu ikki holatda barcha dori-darmonlarga nisbatan jismoniy mashqlar, turli o'yin (raqs) bilan shug'ullanish natijasida sog'lom bo'lish holatlari ilmiy-amaliy jihatdan tajribada isbotlangan. Shu sababdan, markaziy shaharlarda turli kasalliklarni davolash yo'lida jismoniy mashqlar vositasidan foydalanish usullari, sog'lomlashtirish maskanlari kun sayin ko'paymoqda.

Yaqin o'tmishimizda sport kiyimlari bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar ancha ko'paygan edi. Bu jihatlar jismoniy tarbiya dasrlarining majburiyligi va sport musobaqalarining qoidalarida qat'iy chegaralangan edi, lekin keyingi yillarda milliy xususiyatlar, urf-odatlar natijasida odmiroq (mos) kiyimlardan foydalanish amalda

qo'llanilmoqda. Bu jihatlar milliy xususiyatlarni rad etmagan holda yanada takomillashmoqda.

Ta'kidlash lozimki, teleko'rsatuvlar, matbuot xabarlari, ayniqsa, chet ellarga sayohat qilish, tijorat va boshqa zaruriyatlar bilan borib-kelish, tajriba almashish natijalari kiyinish, bezaklar berish, muomila sohalarida yoshlar o'rtasida yangi yo'nalishlar ta'siriga tushib qolish kuchaymoqda. Bunday jihatlar sportda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Sport maktablari va turli jamoalarda (komanda) mahalliy millat qizlarining qiziqib va faollik bilan shug'ullanishlari kengaymoqda. Kurash, sharqona yakka kurashlar, kikboksing, futbol, hatto og'ir atletika bilan kuchini sinash kabi erkaklar sporti bilan shug'ullanish rivojlanmoqda. Bunday jihatlar oila, qolaversa, Vatan shon-shuhratini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu boisdan ham ota-onalar qizlarining gimnastika, suzish, yengil atletika, voleybol, qo'l to'pi, tennis kabi sport turlari bilan shug'ullanishlariga monelik qilmayotir.

Jismoniy mashqlar, ayniqsa, sport turlari xotin-qizlarning jismonan barkamol bo'lishi, sog'lom, tetik bo'lib, sog'lom farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishlarida eng muhim omillardan biridir. Bu jihatlar barcha oilalarga, ayniqsa, yosh oilalarga tobora tez singib bormoqda.

Bunga qaramasdan ko'pchilik keksa avlodlar, shuningdek, zamonaviy yosh oilalarda ham xotin-qizlarning jismoniy tarbiyasiga e'tiborsizlik hamon kuchliroq.

Buning eng asosiy sabablari shundaki, urf-odatlarni ro'kach qilib (bahona) xotin-qizlarga ertalab yoki bo'sh vaqtlarda gimnastika, o'yinlar bilan shug'ullanishni erkaklar ep ko'rmayotir. Qolaversa, erkaklar va ayollarning ko'pchiligi jismoniy mashqlarni ishlatish yo'llari, ularning salomatlikni yaxshilashdagi tarbiyaviy jihatlarini yaxshi bilmaydi.

Shu sababdan ham, eng avvalo, oila, mahallalarda xotin-qizlarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishiga tegishli shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xotin-qizlar uchun maxsus mashqlar majmuasi, osonlashtirilgan texnik qoidalar bo'yicha sport turlarini ishlab

chiqib, amalda joriy etish lozim. Bu yo'lda teleradio va ommaviy axborot vositalari orqali mutaxassis olimlar, shifokorlar, ayniqsa, xotin-qizlarning ma'ruzalar bilan chiqishini tashkil etish lozim. Shuningdek, xotin-qizlar qo'mitalari sport tashkilotlari bilan hamkorlikda xotin-qizlar jismoniy tarbiyasi va sportini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari lozim. Umuman aytganda, xotin-qizlar orasidan gimnastika va harakatli o'yinlar bo'yicha o'rta maxsus ma'lumotli xodimlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish davr talabidir.

Pirovardida ta'kidlash lozimki, xotin-qizlar o'rtasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda mahalliy millat xotin-qizlaridan R.A.Qoziyeva (jismoniy tarbiya tarixi), O.Sobirova (suvda suzish, marhum), K.T.Rahimjonova (Shokirjonova – yengil atletika), G.B.Abdurasulova (qilichbozlik, O'zDJTI), R.A.Qosimova (qo'l to'pi, Samarqand DU) kabi olimlarning hissasi kattadir. Bu kabi iste'dodli olimlarni ko'paytirish kelajakda juda ham zarurdir. Shu o'rinda xotin-qizlarning kundalik turmush sharoitida shug'ullanishga doir amaliy taklif sifatida «To'maris o'yinlari» Respublika festivallari (1999-yil – Jizzax, 2001-yil – Shahrisabz, 2003-yil – Namangan) dasturidagi ba'zi turlarning qisqacha mazmunini havola etish joizdir.

1. «Tortishmachoq»: Uzun arqon maydonda chizilgan joyga qo'yiladi. Arqonning o'rtasiga rangli (oq yoki qizil) latta bog'lanadi. Bu chegaralarda o'tganligini bildiradi. Ikki tomonda 5–10 kishi arqonni ko'tarib «ruxsat» berilgach, o'z tomonlariga tortishadi. Belgilangan chiziqdan arqon belgisi o'tib ketsa o'yin to'xtatiladi.

2. «Qo'l kuchini sinash»: bu tur jahon sport turlari qatoriga kirgan va «armrestling» deb ataladi. O'yinchilar yuzma-yuz stolga tirsaklarni qo'yib, kaftlarni qisib stulda o'tirishadi. «Ruxsat» berilgach, har bir kishi raqibining bilagini qayirishga harakat qiladi. Kimning kuchi ko'p bo'lsa, raqibining bilagini qayirib, stolga tekkazadi.

3. «Arg'imchoq»: «Arg'imchoq» (skakalka—sakragich) o'yinning turlari juda ko'p. Ya'ni: yakka holda turli xil sakrashlar, juft bo'lib sakrashlar. Eng qizig'i shundaki, uzunroq arqonning. ikki uchidan ushlab aylantirilgan holda kim ko'p sakrashi (xato qilmasdan) musobaqa tarzida o'tkaziladi. Sakrashda ikki va uch kishi bo'lib birdaniga sakrash mumkin. Arqonni esa 4—6 kishi bo'lib aylantirish zarur bo'ladi.

4. «Otib qochar»: to'pni otish chizig'ida «Uy» belgilandi. 30m. qarama-qarshi tomonda chegara chizig'i bo'ladi. O'yinchilar yuza chizig'ida turishadi. «Uy»dan uzoqqa to'p otiladi va urgan kishi qarshi chiziqqa yetib olishi kerak. Agar to'pni tutib olib, uni ursa o'yinchilardan boshqasi yana boshlaydi. Xullas, tez yugurish, epchillik bilan yana o'z joyiga qaytib kelish o'yinchidan talab etiladi. Bu o'yinni qizlar va yosh juvonlar ko'proq o'ynashlari lozim bo'ladi.

5. «Qirq tosh»: start chizig'idan boshlab, uzunasiga har bir o'yinchini hisobga olib 5m.dan parallel ravishda chiziq tortiladi va uning har 5m.dan so'ng doiraga belgilanadi. Ruxsat berilgach, o'yinchilar to'pni doirachalarga qo'yib qaytadi. Bunda eng oldindagisi so'nggi doiraga (uzoqdagi) qo'yib keladi. Qolganlari ham shu tarzda o'z doiralariga to'pni qo'yib, orqaga yugurishadi. Bu o'yin vaqtga qarab g'olibni belgilaydi.

6. «Otishma»: o'yinchilar (6—8 kishi) ikki jamoa bo'linib, keng doira chiziladi. Qur'a tashlashdan keyin boshlovchilar aniqlanadi. Boshlovchilar doira tashqarisida va raqiblar doira ichida bo'lishadi. Doira ichidagilarni to'p bilan urib, o'yindan chiqarish kerak. 5—6 daqiqa ichida qaysi jamoa ko'proq yutuqqa erishsa, o'sha g'olib, deb topiladi.

7. «Barchinoy» test-sinovlari: qatnashchilar yoshiga qarab yugurishlar (60m., 100m.), 50m.ga suzish, miltiqdan o'q otish, uzunlikka sakrash, tennis koptogini uloqtirish (12—15 yosh), 16 yoshdan yuqori bo'lganlarga 100m., 1000m. yugurish, 50m.ga suzish, miltiqdan o'q otish, uzunlikka sakrash, granata uloqtirish turlari qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan o'yinlarni qizlar va ayollar yaxshi bilishlari, imkoniyat doirasida ular bilan doimiy ravishda shug'ullanishlari zarur bo'ladi. Yoshlar jismoniy barkamollikka yetishish va o'z jamoalari, tuman-shahar, viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok etishni maqsad qilib qo'yishlari, «Barchinoy» maxsus test-sinovlarini bajarishga tayyor bo'lishlari lozimdir.

Katta yoshdagi ayollar turli xil mashqlar, o'yinlar orqali o'z salomatligini yaxshilash va oilada kichik bolalarni o'yinlar bilan shug'ullanishga o'rgatishlari hayotiy zaruriyatdir.

11.9. Nogironlar sporti

Jahonning turli mamlakatlarida nogironlikning turiga qarab shifokorlar tomonidan jismoniy mashqlar vositalari orqali ularni davolash usullari keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, qo'li yoki oyoqlari yo'q nogironlar trenajyorlarda turli mashqlarni bajarib, sportning u yoki bu turi bilan (hatto avtomotosport bilan) shug'ullanishga kirishdilar. Futbol bo'yicha musobaqalar tashkil qilish qiziqarli va e'tiborli bo'lib o'tmoqda.

Yevropa mamlakatlarida futbol, yengil atletika, qo'l bilan bajariladigan xilma-xil mashqlar (tosh, gir ko'tarish, osilish, bilak kuchini sinash va hokazo) bo'yicha birinchilik musobaqalari tashkil etilmoqda. Musobaqalarning mazmun va qoidalari birmuncha ixchamlashtirilmoqda.

Bunday tadbirlar O'zbekistonda ham ancha vaqtlardan buyon rivoj topib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya to'g'risida»gi qonun va boshqa bir qator qarorlar, nizomlar asosida nogironlar sporti bo'yicha federatsiyalar ham tuzilgan.

1997–2001-yillarda O'zbekistonning «Matonat» futbol jamoasi bir necha bor xalqaro turnirlar, o'rtoqlik uchrashuvlari va MDH (SNG) birinchiliklarida sovrinli o'rinlarni egallab olmoqda.

Bu sohada ham ma'lum darajada muammolar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta yoshdagi nogiron bolalarni

jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, ular shug'ullanish mumkin bo'lgan sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish, shart-sharoitlar yaratish, murabbiylar bilan ta'minlashda mavjud bo'lgan sportklublar katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Kasalliklar va nogironlikning turlariga qarab jismoniy mashqlar mazmun va sport turlarining mazmuni hamda qoidalari to'la ishlab chiqilmagan.

Nogironlarni jismoniy jihatdan tarbiyalash va ularni ma'naviy jihatdan ruhlantirishda sport klublarning sohaviy turlarini ko'paytirish, homiylik ishlarini kuchaytirish lozim bo'ladi.

«Sport» gazetasining 1991-yil yanvar sonida[1] e'lon qilingan maqola ana shu jihatlarni ifodalaganligi bilan tarixiy ahamiyatga egadir. Unda mamlakatimizda nogironlar futboliga bo'lgan munosabat haqida gap boradi. Jumladan, sportning bu turini mamlakatimizda rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan toshkentlik tashabbuskorlar haqida iliq so'zlar aytilgan. Toshkentning «Matonat» komandasi tashkil etilgan Mehr-shafqat kubogi o'yinlaridan keyingi o'yinlar bayon qilingan.

Kubok o'yinlari o'tayotgan paytda «Nogironlar uchun futbol» xalqaro dasturining direktori amerikalik Bill Berri Sietlda o'tkazilgan «Jahon kubogi-90» musobaqalarining tashkiliy qo'mitasi a'zolari bilan birga yurtimizga tashrif buyurishgandi. Ular shu yil oktabr oyida jahon chempionatini Toshkentda o'tkazish imkoniyatlarini o'rganib chiqdilar. Bundan tashqari, ular toshkentlik ishbilarmon kishilar bilan hamkorlikda mahalliy «Jasur» shirkatida Amerika texnologiyasi bo'yicha nogiron futbolchilar uchun maxsus qo'ltiqtayoqlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar.

---

[1] «Sport», 1991-y., 8-yanvar.

11.10. Ommaviy sportni targ'ibot qilishning hozirgi davr talablari

Targ'ibot, tashviqot ishlari muayyan voqealarni keng yoyish va ommaga chuqur singdirish quroli ekanligi sir emas. Boshqa sohalar kabi jismoniy madaniyat harakatida targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillikning muhim talablaridan biri sifatida sportni keng ommaga yoyishda teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar hamda bevosita muloqotlar mazmun va shakl jihatdan tobora kengaymoqda. Ularning mazmuni aholining qiziqishlari va talablariga to'la mos ekanligini inkor qilish mumkin emas.

Ma'lumki, ko'pchilik sport ishqibozlari, ashaddiy muxlislar respublika sport maydonlaridagi musobaqalarni bevosita borib tomosha qilishadi. Bundan orom oladi, ruhiy va jismoniy oziqlanadi.

Teleko'rsatuvlardagi turli xil sport musobaqalarini, ayniqsa, futbol, kurash, boks, suzish, badiiy gimnastika kabi sport turlarini miriqib tomosha qiluvchilar kun sayin ko'paymoqda. Bunga qaramasdan, yirik sport inshootlari (stadion, sport komplekslari, o'yin maydonlari va hokazo) nufuzli sport musobaqalarida joylar bo'm-bo'sh bo'lib turadi, ya'ni tomoshabinlar soni juda oz bo'ladi. Buning u yoki bu sabablari bor, albatta.

Mustaqillik tufayli aholining ijtimoiy-madaniy turmush darajasini ko'tarish, sog'lom avlod tarbiyasini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularni boyitishda sport turlarining o'ziga xos o'rni borligini inkor qilib bo'lmaydi. Lekin bu muammolarni hal etishda jiddiy kamchiliklar ham oz emas.

Jismoniy tarbiya va sportning mohiyatini keng ommaga singdirish, kundalik turmush sharoitimizda ulardan oqilona foydalanish maqsadlarini amalga oshirish yo'lida respublika hukumati hamda davlat idoralari va sport tashkilotlarining olib borayotgan ishlari, amaliy ish faoliyatlari diqqatga sazovordir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-

sining «Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (2003-yil 4-noyabr) muhim ahamiyatga egadir. Bunda, eng avvalo, respublika ommaviy axborot vositalari, O'zteleradio kompaniyasi, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlarning vazifalari aniq belgilab berildi. Eng muhimi shundaki, mazkur qaror asosida O'zbekiston telekompaniyasida maxsus «Sport» telekanali 2004-yil 1-yanvardan ish boshladi.

Sport mavzusi nufuzli gazetalar, jurnallar, telekanallar, radiolarda oldingi sahifalardan o'rin egallamoqda. Bunday ijtimoiy-madaniy voqealar davlat siyosatining mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Kuzatishlar, mulohazalar, tahlillarning natijalari asosida aytish mumkinki, ommaviy sport targ'ibot ishlari asosan markazda va viloyat markazlaridagina sezilmoqda. Kichik shaharlar, qo'rg'onlar, qishloqlarda mazkur qaror asosida ishlarni jonlantirish talab darajasida emas. Ya'ni amaliy targ'ibot ishlari ancha sust, ularning ta'sir kuchlari ommaga to'la singib bormayotir. Ularning ba'zilarini quyidagicha ifoda etish mumkin, ya'ni:

1. Stadionlardagi futbol o'yinlari, o'yin maydonlaridagi voleybol, basketbol, qo'l to'pi, yengil atletika, sport zallaridagi kurash, boks, qilichbozlik va boshqa sport turlari bo'yicha tomoshabinlar juda kam.

2. «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiadalarning birinchi va ikkinchi bosqichlarida qatnashuvchi o'quvchilar, talaba yoshlar 10-15% dan oshmaydi.

3. «Alpomish o'yinlari», «To'maris o'yinlari» respublika festivallari, «Mahalla polvonlari», «Sog'lom oila sport musobaqalari» va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchilar o'ta chegaralangan, ya'ni musobaqalar nizomi ommaviylikdan chetda qolmoqda.

4. Tashkil etilayotgan ommaviy va nufuzli sport musobaqalari jarayonlarida afishalar, targ'ibot manbaalari ko'pchilikni qiziqtirmaydi. Har bir kishining diqqatini jalb etuvchi e'lonlar, rag'batlantirish, tadbirlar, lotolar musobaqalarda tashkil etilmaydi.

5. O‘quv yurtlari, turli muassasalar, ishlab chiqarish mehnat jamoalari, ayniqsa, mahalla va qishloq sharoitlarida ommaviy sportni targ‘ibot qilish, tomoshabinlarni ko‘paytirish chora-tadbirlariga kam e’tibor berilmoqda.

6. Xalq milliy o‘yinlarini ommalashtirishda moddiy-texnik bazalar, asbob-uskunalar bilan ta’minlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash va ular bilan bog‘liq faoliyatlarga yetarli darajada e’tibor berilmayotir.

11.11. Jismoniy tarbiya ta’limi va sport taraqqiyotining ilmiy-amaliy asoslari.

Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining ilmiy asoslari

Ilmiy asoslar deganda, tadqiqot-tajribalar o‘tkazish yo‘li bilan olingan yangi natijalar, mehnat mahsullari tushuniladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o‘ziga xos tajriba-sinovlar (eksperiment), ilmiy jihatdan izlanish-tahlillar mavjud.

Ma’lumki, sobiq Ittifoq davrida Jismoniy tarbiya sport amaliyoti nazariyasi va uslubiyati bilan bog‘liq bo‘lgan fiziologik, biologik, biomexanika, pedagogika va boshqa sohalardagi ilmiy tadqiqot ishlari asosan Moskva, Leningrad, Kiyev, Omsk kabi markaziy shaharlarda olib borilgan. O‘zbekistonlik yosh ijodkorlar, tadqiqotchilar, aspirantlarning aksariyat ko‘pchiligi o‘sha maktablarda tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O‘zbekistonda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash rejalarida jismoniy tarbiya va sport muammolari deyarli uchramagan. Faqat Nizomiy nomidagi Davlat pedagogika institutida hozirgi universitet tarkibida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha aspirantura tashkil etilgach (1960-yil ikkinchi yarmi va 1975-yil boshlari) respublikada ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni amalga oshirildi. Lekin ularning ko‘pchiligi pedagogika nazariyasi va pedagogika tarixi (13.00.01) bilan cheklangan edi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va sport mashg‘ulotlari (13.00.04) yo‘nalishi bilan bog‘liq tadqiqot natijalari (dissertatsiyalar) faqat Moskvada

muhokama qilinar edi. Bu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan ba'zi bir e'tiborli tadqiqotlarning mualliflarini tarixiy jihatdan tilga olish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni: N.P.Rudchenko (kurash, 1964, Samarqand), Yu.S.Sholomitskiy (jismoniy tarbiya va sport tarixi, 1964, Toshkent DPI), M.U.Tojiyev (akrobatika, 1968), Sh.N.Zokirov (boks, 1968, O'zDJTI) kabilardir.

Jismoniy tarbiya va sportning fiziologik yo'nalishida A.N.Liviskiy, Sh.H.Xonkeldiyev, Yu.M.Yunusova va boshqa o'nlab yoshlar biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajalariga sazovor bo'lishdi. Bunda O'zDJTI professori A.N.Yaroskiyning amaliy yordami e'tiborga loyiqdir.

Nizomiy nomidagi Toshkent DPI (hozirgi universitet) ixtisoslashtirilgan ilmiy Kengashida jismoniy tarbiya va sport muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan dissertatsiyalarni muhokama qilish imkoniyati yaratildi. Shu sababdan H.T.Rafiyev (1972), R.Abdumalikov (1975), J.Toshpo'latov (1978), J.Eshnazarov (1978), S.V.Faxritdinova (1978) kabilar pedagogika fanlari nomzodi (13.00.01) ilmiy darajalarini olishga muvaffaq bo'lishdi.

Keyinchalik Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti qoshida ham jismoniy tarbiya va sport sohasida (13.00.04) aspirantura tashkil etildi. Uni tamomlagan yoshlarning aksariyati barchasi Moskva, Leningrad, Omsk kabi shaharlardagi ilmiy Kengashlarda dissertatsiyalarini yoqlagan.

Sobiq ittifoq hokimiyati davrida jismoniy tarbiya nazariyasi va sport mashg'ulotlari (13.00.04) bo'yicha yagona fan doktori A.Q.Atoyev (Buxoro) edi. Sport tibbiyoti bo'yicha esa O.A.Rixsiyeva fan doktori ilmiy darajasiga ega edi, xolos.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga keng yo'l ochildi. Shu tufayli Sh.X.Xonkeldiyev (Farg'ona DU), L.R.Ayrapetyans (O'zDJTI), F.A.Kerimov (O'zDJTI), D.J.Sharipov (Toshkent DPU), T.S.Usmonxo'jayev (Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji), H.Q. Yo'ldoshyev (Xalq ta'limi vazirligi), R.S.Salomov (O'zDJTI),

A.Seytxalilov (Pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti) kabilar fan doktori ilmiy darajasini olishga erishdilar.

O‘zDJTI qoshida ixtisoslashgan ilmiy Kengashining ochilishi aspirantura va doktoranturaning tashkil etilishi (1996) hamda magistrlar qabul qilishning (1997) boshlanishi ilmiy-pedagogik kadrlarni ko‘paytirish va olimlarning ilmiy-ijodiy faoliyatlarini takomillashtirishga ko‘mak bermoqda. Bu yo‘lda O‘zDJTI olimlari A.Q.Hamroqulov, R.D.Xolmuhammedov, R.S.Salomov, F.A.Kerimov, L.R. Ayrapetyans, farg‘onalik Sh.H.Xonkeldiyev, buxorolik A.Q.Atoyev yosh tadqiqotchilarni tanlash, ularga amaliy yordam berishda katta faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ta’kidlash lozimki, yoqlangan dissertatsiyalarning natijalari o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida nashr etilib, ular kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yaqindan yordam bermoqda. Futbol, kurash, yengil atletika, sport o‘yinlari va boshqa sport turlari bo‘yicha o‘quv-mashq tadbirlarini rejalashtirish hamda tashkil etish bilan bog‘liq tadqiqot natijalari yurtimizda terma jamoalarning ish faoliyatlari hamda bolalarni sport bilan shug‘ullantirishda ijobiy samaralarni bermoqda.

Jismoniy tarbiya ta’limi va sport taraqqiyotining amaliy asoslari

Jismoniy tarbiya ta’limi va sport taraqqiyotining amaliy asoslari deganda, faqat sport mashg‘ulotlari (trenirovka), musobaqalarnigina tushunish kerak emas. Balki ularni ilmiy tadqiqotlarning natijalari (dissertatsiya, ilmiy ommabop risolalar, ilmiy-uslubiy maqolalar) asosida tashkil qilishni ham bilish joizdir.

Jismoniy tarbiya ta’limining amaliy asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin, ya’ni:

1. Barcha o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan «Jismoniy tarbiya» darslarining dasturlari (o‘quv programmalar).

2. O‘quv yurtlari uchun nashrdan chiqarilgan «Jismoniy tarbiya» darsliklari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar.

3. Ma'ruzalar, seminarlar uchun tayyorlangan ma'ruzalarning matnlari.

4. Xalqaro, respublika va viloyatlar miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarning ilmiy to'plamlari (materiallari).

5. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining sinov-tajriba (normativ) talablari.

6. Barcha toifadagi sport musobaqalarining kalendar rejalari va nizomlari.

7. Sport turlari bo'yicha musobaqa qoidalari.

8. Musobaqalarning qaydnomalari.

Ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiya ta'limi va sport taraqqiyotining ilmiy-amaliy asoslarida ilmiy anjumanlarning materiallari (to'plamlar) muhim ahamiyatga egadir. Chunki ularda ko'p qirrali sport turlari va ular bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarining natijalari aniq beriladi. Shuningdek, dolzarb muammolarning yechimlari, amaliy taklif, tavsiyalar ko'proq bayon etiladi. Shu sababdan, mustaqillik yillarida o'tkazilgan ilmiy anjumanlarning eng muhim va e'tiborlilari ro'yxati havola etildi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarining to'plamlari

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari, 14–15-may 1993, 96-bet.

2. Sog'lom avlod tarbiyasi – buyuk davlat qurish zaminidir, 1–3-qism, 1994.

3. Jismoniy tarbiya, sport va ma'naviyat, T., 1995, 200-bet.

4. Sog'lom avlod yiliga va 2000-yil Sidneyda bo'lib o'tadigan XXVII Olimpiada o'yinlariga tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan V respublika ilmiy-amaliy anjumani, T., 2000, 408-bet.

5. O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolari, xalqaro konf., Termiz, 14–15-dekabr 2001, 90-bet.

6. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda amaliyotining muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, T., 2001, 148-bet.

7. Bolalar sportini rivojlantirishga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumani mat., Farg'ona, 2003, 186-bet.

8. Jismoniy madaniyat ta'lim-tarbiyasi jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishni takomillashtirish muammolari, respublika ilmiy-amaliy konf.mat., Samarqand, 30—31-may 2003, 156-bet.

9. Akademik, litsey va kasb-hunar kollejlarida jismoniy tarbiyani takomillashtirish muammolari, Andijon, 2003, 134-bet.

10. O'zDJTIning 50 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman, T., 17—20-noyabr 2005-yil.

Eslatma: «Alpomish o'yinlari», «To'maris o'yinlari» respublika festivallari hamda «Barkamol avlod», universiadalarga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarning to'plamlari ham muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagilardir:

1. 1991-yil Jizzax, 1992-yil Termiz, 2001-yil Shaxrisabz, 2002-yil Namangan shaharlarida bo'lib o'tgan, respublika anjumanlarini ham kiritish mumkin.

2. O'zDJTI (2003-yil noyabr), Buxoro DU (2002-yil), Termiz DU (2003-yil 20-noyabr) va SamDUda (2004-yil iyul) bo'lib o'tgan respublika ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamlarini kiritish lozim.

Xulosa qilib aytganda, respublikada ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda jismoniy tarbiya ta'limining ilmiy asoslari yangi yo'nalishda dadil qadam tashlamoqda. Olimlar, yosh ijodkorlarning ilmiy-nazariy jihatdan salohiyatlari sezilarli darajada takomillashmoqda.

Sport taraqqiyotini ta'minlashda tashkiliy faoliyatlarni maqsadli ravishda olib borilayotgan sa'y-harakatlar davr talablariga mos kelmoqda. Ayniqsa, turli tadbirlar va sanalarga bag'ishlab o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar hatto qiziqish hamda bahslarga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan, yosh mutaxassislar va o'quvchi yoshlar jismoniy

tarbiya hamda sport tarixi bilan bog'liq manbalarni qunt bilan o'rganishlari lozimdir.

Ta'kidlash lozimki, mustaqillik davrining barcha bosqichlarida jismoniy tarbiya va sportga e'tibor nisbatan ancha kuchaydi. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonun (1992, 2000) va qator qarorlar (1993, 1996, 1999, 2000) qabul qilindi.

Sog'lom avlod davlat dasturi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari asosida bosqichli sport musobaqalari («Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» va hokazo) tashkil etilmoqda.

O'zbek kurashi bo'yicha jahon chempionatlari (1999–2005) o'tkazib kelinmoqda. Xalq milliy o'yinlariga bag'ishlab «Alpomish o'yinlari» va «To'maris o'yinlari» nomi bilan respublika festivallari o'tkazilmoqda. Futbol va boshqa sport o'yinlari, sharqona yakka kurashlar keng rivoj topmoqda.

Respublikada yangidan qurilgan «Yunusobod», «Jar», «O'zbekiston» va viloyatlarda yirik sport inshootlari qad ko'tardi. Xotin-qizlar va nogironlar sportiga qiziqish hamda e'tiborlar kuchaymoqda.

Aholi o'rtasida ommaviy sportni targ'ibot qilish yo'li bilan barcha kishilarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga da'vat etilmoqda. Buning negizida sog'lom avlodni tarbiyalash, xalqaro andozalarga mos keluvchi kasb-hunar egalarini tarbiyalash va nihoyat fuqarolarning jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishlarini ta'minlashdek, davlat siyosati mujassamlashganligi e'tiborga loyiqdir. Jismoniy tarbiya ta'limi va sportning rivojlanishini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash yo'llari davr talablari hamda xalqaro andozalarga mos ravishda amalga oshirilmoqda.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
2. Sog'lom avlod davlat dasturida jismoniy tarbiya va sportning qanday o'rni bor?

3. Kadrlar tayyorlash va umumta'lim davlat standartlari haqida hikoya qiling.

4. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari qachon tayyorlandi va uning qanday bosqichlari bor?

5. Xalq milliy o'yinlarining tarixiy kelib chiqishini tasvirlab bering.

6. Mamlakatda qaysi sport turlari keng rivojlangan?

7. Sport inshootlarini tavsiflang?

8. Xotin-qizlar sporti qanday bo'lishi kerak?

9. Nogironlar sporti haqida nimalarni bilasiz?

10. Ommaviy sportni targ'ib qilishda qanday tadbirlar amalga oshirildi?

11. Jismoniy tarbiya ta'limi va sportning rivojlanishini ilmiy asoslash deganda, nimalarni tushunasiz?

XII bob. O‘ZBEKISTONNING XALQARO SPORT ALOQALARI

12.1. Sobiq Ittifoq davrida sportchilarning xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishi

O‘zbekistonda jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirishda sport tashkilotlarining xalqaro aloqalari muhim ahamiyat kasb etish bilan birgalikda, ular tarixiy jarayon sifatida tilga olinmoqda.

Sportchilarning bu sohadagi asosiy faoliyati haqida professor A.Yaroskiy va O‘zbekiston Respublikasi Davlat sport qo‘mitasining mas’ul xodimi A.Poddubniy (1980-yil), keyinchalik esa O‘zbekiston Respublika olimpiya qo‘mitasining Prezidenti S.Ro‘ziyev, professor E.Shaternikov va MOQning bosh direktori I.Barabanlar (2001-yil) tomonidan yaratilgan ommabop va uslubiy qo‘llanmalarda bayon etilgan.

O‘zbekistonning xalqaro sport uchrashuvlariga 1931-yil 4-oktabrda futbolchilar, yengil atletikachilar, suzuvchilardan iborat jamoalarning Norvegiya ishchi-sport delegatsiyasi bilan uchrashuvi natijasida asos solingan edi. Keyinchalik esa boshqa mamlakatlarining sportchilari bilan aloqalar bog‘langan edi. Lekin Ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyatlarning keskin o‘zgarishi va urushlar tufayli bunday faoliyatlar uzilib qoladi.

1948-yilda respublika hukumati tomonidan «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlarini yaxshilash choralari to‘g‘risida» qaror qabul qilinadi. Bunda respublika sportchilarining xalqaro aloqalarini qayta tiklash masalalari ham qayd etiladi. Shunga asosan sport aloqalari yana boshlanadi. Ulardan ba’zi bir e’tiborga loyiq dalillarni eslash mumkin. Ya’ni 1955-yilda «Paxtakor» futbol jamoasining Efiopiya jamoasi bilan o‘rtoqlik uchrashuvi bo‘ldi. 1958-yilda «Paxta-

kor»chilar Xitoy Xalq Respublikasi, 1960-yilda Yaponiya futbolchilari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Shu yillari Yaponiya, Finlyandiya, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Vetnam Demokratik Respublikasi va boshqa mamlakatlarning sportchilari yurtimizga tashrif buyurishgan edi.

O'zbekistondan sobiq Ittifoq terma jamoalari tarkibiga sportchilar jalb etila boshlandi. 1947-yil A.Kashayev Yevropa va Finlyandiya birinchiligida qatnashib, ilk bor mamlakatimizga bronza medalini hadya etdi. 1950-yilda G.Gamarnik kurash bo'yicha jahon chempioni unvoniga sazovor bo'ldi. 1952-yil G.Shamray XV Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib, sovrinli (jamoada) o'rinni egalladi. V.Ballod balandlikka sakrash bo'yicha XVI–XVII Olimpiya o'yinlarining qatnashchisidir.

1966–1970-yillarda O'zbekiston sportchilaridan 283 kishi chet mamlakatlardagi sport musobaqalarida ishtirok etadi. O'z navbatida chet ellik sportchilarning 360 dan ortiq vakili O'zbekistonda bo'ladi.

Tokioda o'tkazilgan XVIII olimpiya o'yinlarida 4 kishi, Monrealda (XXI Olimpiya o'yini) 11 kishi qatnashadi. Boks bo'yicha jahon chempioni R.Risqiyev olimpiadaning kumush medali, futbolchi V.Fedorov bronza medalini qo'lga kiritadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston sportchilari Yevropa va jahon chempionlari ro'yxatiga kiradi. Ulardan A.Alimov va (stendga otish), S.Qurbonov (sambo), R.Prokopenko, Salimova, (basketbol), O.Rudenko (kamondan otish), K.Fatxulin (klassik kurash), M.Ismoilov (ot sporti), A.Abduramonov (klassik kurash) kabilarni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, S.Diomidov (gimnastika), M.Kolyushev (velotrek), A.Prokopenko (basketbol), R.Kazakov (klassik kurash), S.Xodiyev (sambo kurashi), S.Ro'ziyev (qilichbozlik), S.Qurbonov (sambo) va boshqalar jahon chempioni unvoniga sazovor bo'lishdi.

1965-yildan boshlab respublika sportchilari Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Birma, KXDR, Suriya, Keniya, Efiopiya, Marokash, Nigeriya, Senegal va boshqa mamlakatlarga borishdi.

1971-yil O'zbekiston yengil atletikachilari Tunisda bo'lib, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

1976-yil voleybol bo'yicha respublika jamoasi Afg'onistonda o'rtoqlik uchrashuvini o'tkazadi va sport mahoratlarini namoyish qiladi. Shuningdek, basketbolchilar ham Birmada bo'lib (1975-yil) o'zlarining tajribalarini yuqori saviyada ko'rsatgan. Bokschilar, erkin kurashchilar Nigeriya va Qobulda uchrashuvlar o'zkazib kelgan. Har bir safardan keyin chet mamlakatlarining rahbarlari yurtimizga maktub yo'llab, yaxshi taassurotlar olganliklarini qayd qilish bilan birgalikda yana uchrashuvlar o'tkazishni taklif qilishgan.

Turkiya, Birma, Suriya Arab Respublikasi va boshqa mamlakatlarning hukumat doiralari O'zbekiston bilan (SSSR ruxsati orqali) turli shartnomalar tuzishadi. Shu asosda iqtidorli mutaxassislar Sh.N.Zokirov (boks) bilan A.Koshyev Suriya Arab Respublikasida, A.Granatkin (boks) bilan M.Muhitdinov (shohmot) Afg'onistonda bo'lib, ularga murabbiylik va boshqa sohalar bo'yicha tajribalar o'rgatib qaytadilar. Bu an'analar keyinchalik yana davom etadi. Z.G'.G'afforov (qilichbozlik, sport psixologiyasi) 1989–1991-yilda Aljirda, R.A.Akramov (futbol, olim) 1991–1992-yil Aljirda bo'lishdi.

1966–1976-yillarda xalqaro sport aloqalarining ba'zi ko'rsatkichlari

T.r	Yillar	Mamla-katlar soni	Sport turlari soni	Safarga chiqqan-lar	O'zR jamoalari tarkibida	SSSR terma jamoa-larida
1	1966–1970	34	11	823	145	129
2	1971–1976	75	25	836	439	343
Jami:		109	36	1659	584	472

Shuni ham ta'kidlash lozimki, 1966–1980-yillarda Yevropa, Amerika va boshqa mintaqalarning alpinistlari Pomir, Hindikush cho'qqilariga chiqish oldidan avval

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona shaharlarida mehmon bo'lishgan. Ular O'zbekiston alpinistlariga o'z tajribalarini o'rgatganlar. Ularga V.Rasekning bir qator risolalari bag'ishlangan. Xalqaro sport aloqalarining xususiyatlari va istiqbollari haqida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xalqaro ilmiy anjumanlarning to'plamlarida bu muammolar yoritildi. Issiq mintaqali joylarda oliy toifali sportchilarni tayyorlash (I.A.Yaroskiy), falsafa, tarix, sotsiologiya sohalarida M.F.Is'hoqov, E.K.Shatemikov, Yu.S.Sholomitskiy, K.P.Ten, R.Yakubov kabilar katta faoliyat ko'rsatdi. Pedagogika-psixologiya sohasida T.S.Usmonxo'jayev, A.R.Imomxo'jayev, issiq iqlimda xotin-qizlarning mashq qilish qobiliyatiga bag'ishlab M.B.Frank, A.A.Turikov, yoshlarning mashq bajarishida yurakning holati muammolari bo'yicha O.A.Risqiyeva kabilar ham o'z taqdiqotlarini xalqaro sport aloqalari bilan bog'ladi. Bu olimlarning bir qismi chet ellarda bo'lib tajriba orttirdi va sportchilarni olimpiya o'yinlariga tayyorlashda tajriba-sinovlarni o'tkazib, ularning yuqori natijalarga erishishlariga zamin tayyorlaydi.

E'tiborli tomonlardan yana biri shundaki, O'zbekiston sportchilarining xalqaro aloqalari va sportchilarning erishgan yutuqlari haqida bir qator ommabop kitoblar nashrdan chiqarildi. Ularga A.Sunnikning «Na stadionax 4 x kontinentov» («Yosh gvardiya», 1966), S.Ostonovning «Sovrindorlar» («Yosh gvardiya», 1976), M.O'zbekov va E.Dolkartlarning (Olimpiskiye zvyozdi) («Yosh gvardiya», 1983) kitoblarini misol keltirish mumkin. Ularning mazmunida o'zbekistonlik olimpiada o'yinlari va jahon chempionatlarining qatnashchilari haqida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston sportchilari olimpiada o'yinlarida

1952. Xelsinki

Galina Shamray (sport gimnastikasi) – jamoada chempion. Jamoa musobaqalarida kumush medal.

Sergey Popov (yengil atletika) – qatnashchilar orasida 4-o'rin.

1956. Melburn

Sergey Popov (yengil atletika) — qatnashchi.

Valentina Ballod (balandlikka sakrash) — qatnashchi.

1960. Rim

Valentina Ballod (yengil atletika, balandlikka sakrash) — qatnashchi.

1964. Tokio

Sergey Diomidov (sport gimnastikasi) — jamoada 2-o'rin.

Svetlana Babanina (suzish) — bronza medali.

Natalya Ustinova (suzish) — bronza medali.

1968. Mexiko

Vera Duyunova (Galushka) — voleybol 1-o'rin.

Svetlana Babanina (suzish).

Sergey Konov (suzish).

Natalya Ustinova (suzish).

Mixail Kolyushyev (velosport).

1972. Myunxen

Vera Duyunova (voleybol) 1-o'rin.

Rustam Kazakov (klassik kurash) — yarim yengil vaznda chempion.

Elvira Saadi (sport gimnastikasi) — jamoada 1-o'rin.

Nikolay Anfimov (boks) — 4-o'rin.

Aleksandr Yudin (velosport).

Mamajon Ismoilov (otda uchkurash).

1976. Monreal

Rufat Risqiyev (boks) — 75 kilogrammgacha bo'lgan vaznda «kumush» medal.

Vladimir Fedorov (futbol) — 3-o'rin.

Sobir Ro'ziyev (qilichbozlik, rapira).

Valeriy Dvoryanikov (otda uchkurash).

1980. Moskva

Erkin Shagayev (suv polosi) — 1-o'rin.

Larisa Pavlova (voleybol).

Yuriy Kovshov (ot sporti) — jamoada 1-o'rin, shaxsiy hisobda ikkinchi.

Olga Zubaryeva (qo'l to'pi) — 1-o'rin.

Rustam Yambulatov (harakatlanayotgan nishonga otish)

– 2-o'rin.

Aleksandr Panfilov (velosport) – 2-o'rin.

Sobir Ro'ziyev (qilichbozlik, rapira) – jamoa 2-o'rin.

Natalya Butuzova (yoy) – 2-o'rin.

Leyla Axmerova, Valentin Zazdravnix, Nelli Gorbatkova, Alina Xam (chim xokkey) – bronza medallari.

Tatyana Biryulina (yengil atletika, nayza otish).

Aleksandr Xarlov (yengil atletika).

Anatoliy Dimov (yengil atletika).

1988. Seul

Arsen Fadzayev (erkin kurash) – 68 kilogrammgacha bo'lgan vaznda g'olib.

Maxarbek Xadarsyev (erkin kurash) – 90 kilogrammgacha bo'lgan vaznda g'olib.

Radion Gataullin (yengil atletika, balandlikka sakrash) – kumush medal.

Noil Muhammadyorov (og'ir atletika) – kumush medal.

Sergey Zabolotnikov (suzish) – bronza medal.

Jamoliddin Abdujabborov (velosport).

Anatoliy Tankov (ot sporti).

Igor Davidov, Nikolay Sankoves (chim xokkey).

1992. Barselona

Oksana Chusovitina (sport gimnastikasi) – jamoada chempion.

Rozaliya Galiyeva (sport gimnastikasi) – jamoada chempion.

Marina Shmonina (yengil atletika) – jamoada g'olib.

Anatoliy Asraboyev (miltiqdan o'q otish) – kumush medal.

Sergey Sirsov (og'ir atletika) – kumush medal.

Valeriy Zaxarevich (qilichbozlik) – jamoada 3-o'rin.

Ramil Ganiyev (yengil atletika ko'p kurash).

Yelena Svetensova (nayza uloqtirish).

Sergey Usov (yengil atletika, 110m.ga to'siqlararo yugurish).

Artur Grigoryan (boks).

Aleksandr Krasnoyarsyev (chim ustida xokkey).

Igor Mullajonov (chim ustida xokkey).
Aleksandr Domasheyev (chim ustida xokkey).
Aleksandr Tyurin (eshkak eshish).
Igor Kireyev (eshkak eshish).
Valeriy Zaysyev (yengil atletika).
Dmitriy Polyunin (yengil atletika).

Ma'lumki sport turlari ichida erkaklar va ayollar sport gimnastikasi o'z mazmuni va murakkabligi hamda bajarilish shakllari bilan barchani o'ziga jalb etadi. Bunda o'ta yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik talab etiladi. Shu sababdan, sportning bu turi bilan shug'ullanishga har kim ham jur'at qilavermaydi.

O'zbekistonlik gimnastikachi Sergey Diomidovning nomi faqat O'zbekistondagina emas, hatto olimpiya o'yinlari tarixidan ham joy olgan.

U 1942-yil To'rtko'lda (Qoraqalpog'iston) tug'ilgan. 1956-yilda u Toshkentga keladi va R.T.Sarkisov qo'lida gimnastika bo'yicha shug'ullanadi. 1960-yil «Dinamo» Markaziy sport jamiyati musobaqalarida yoshlar o'rtasida sport ustasi unvoni talablarini bajardi 1962-yil SSSR terma jamoasi tarkibiga kiritildi. 1964-yil brusda mashq bajarish bo'yicha SSSR chempioni bo'ladi. 1966-yilda Brusyada jahon chempioni bo'ladi. Uning bajargan «Bir qo'lda burilish» (vertushka) elementi jahon gimnastika mashqlari tarkibiga «Diomidov vertushkasi» nomi bilan kiritildi. U Tokio va Mexiko olimpiya o'yinlari qatnashchisidir. 1964-yilda xalqaro klassikdagi sport ustasi va 1965-yilda xizmat ko'rsatgan sport ustasi unvonlariga ega bo'ldi. Keyinchalik u Markaziy harbiy sport klubida murabbiylik qildi.

Elvira Saadi 1952-yil Toshkentda tug'ilgan. Yoshligidan gimnastika bilan shug'ullanib, respublika sport-internatida (hozirgi olimpiya o'rinbosarlari kasb-hunar kolleji) ta'lim oladi.

U O'zbekiston va SSSR terma jamoalari tarkibida juda ko'p xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etib, doim g'oliblikka erishib kelgan.

XX Olimpiya o'yinlarida qatnashib jamoa tarkibida olimpiada chempion unvoniga erishadi. Katta iste'dod egasi bo'lganligi uchun u Moskvada murabbiylik lavozimida ishlab qoladi.

12.2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining tashkil qilinishi va uning xalqaro sport aloqalari

XX asrning so‘nggi 15–20 yili mobaynida xalqaro sport harakatida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) a’zoligiga kirgan mamlakatlar soni oshib bordi. Ayniqsa, sobiq SSSRning inqirozi tufayli sotsialistik hamjamiyatdagi davlatlar, shuningdek, ittifoqchi respublikalar mustaqil davlat sifatida XOQ tarkibidan joy olishdi. Bu jarayonlar jahon sport hamjamiyatlari, ayniqsa, XOQning demokratik tamoyillari asosida amalga oshirilishi siyosiy va tarixiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o‘rin egallashga bor imkoniyatlarini ishga soldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat» shiorini faqat yurtimizdagina emas, balki taraqqiy qilgan mamlakatlar orasida ham chuqur va keng tarqalishiga erishdi. Bunda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari kabi jismoniy tarbiya va sport harakatiga ham alohida e’tibor berildi.

O‘zbekiston sobiq Ittifoq davrida jahon sport hamjamiyatlariga a’zo bo‘lgan emas. Sharq va g‘arb mamlakatlari bilan sport aloqalar u yoki bu darajada olib borilgan bo‘lsa-da, u ham faqat sho‘rolar hukumati ruxsati va nazorati ostida o‘tkazilgan.

Xalqaro sport va Olimpiya harakatining keng rivojlanishi, qit’alarda turli xil sport musobaqalari, qit’a o‘yinlarining o‘tkazilishi, jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlarining an’anaviy tashkil etilishi har bir mamlakatda sport turlarini rivojlantirishni qadimdan taqozo etib kelgan.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro sport hamjamiyatlariga a’zo bo‘lib kirish maqsadida, eng avvalo, Milliy Olimpiya qo‘mitasini tashkil etdi. Bu 1992-yil 21-yanvardagi birinchi ta’sis majlisida amalga oshirildi. XOQ xartiyasi asosida va jahon sport harakatining ilg‘or tajribalariga tayanilgan holda MOQ nizomi (ustavi) ishlab chiqildi va qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi MOQ prezidenti etib O.Nozirov

saylandi. U bir vaqtda respublika Davlat sport qo'mitasining raisi ham edi. Bu XOQ xartiyasi va O'zbekiston Respublikasi MOQ nizomiga to'g'ri kelmas edi. Shunday bo'lsa-da, respublika sharoiti va moddiy-texnik hamda moliyaviy ta'minlashning ba'zi bir sabablariga ko'ra rahbarlik ishlari davom etdi. Avval MOQ vitseprezidenti bo'lgan S.Ro'ziyev keyinchalik (1994) MOQ Prezidenti etib saylandi. Bu esa xartiya va nizom talablariga to'la asoslandi. Nizomga ko'ra MOQ faoliyatini yurituvchi ijroqo'm, a'zolari, Olimpiya akademiyasi va boshqa tuzilmalar tashkil etildi.

Respublika MOQ o'zining Kongresslari va boshqa rasmiy yig'ilishlarida eng muhim masalalarni muhokama qilmoqda. Bunda rejalarni tasdiqlash, ijrolar natijalarini eshitish, xalqaro Olimpiya harakatida ishtirok etish, olimpiya g'oyalarini keng yoyish eng muhimi sportchilarni Osiyo, jahon chempionatlari, xalqaro turnirlar va olimpiya o'yinlariga tayyorlash bilan bog'liq masalalarni doimiy ravishda muhokama qilib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi MOQning ichki tuzilishi va asosiy maqsad hamda vazifalari. Olimpiya bilimlari asoslari (Hamroqulov A.Q., Yunusov T.T. va boshqa, T., 2002-yil) o'quv qo'llanmasida to'la ifodalangan shu sababli bu soha batafsil bayon etilmadi.

Respublikaning xalqaro sport tashkilotlari bilan olib borayotgan o'zaro munosabatlari va aloqalarida Prezident I.A.Karimovning hissasi g'oyat kattadir. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining bosh shtabida Prezidentimizning Olimpiada oltin ordeni bilan mukofatlanishi, XOQ Prezidenti X.A.Samaranchning ikki marotaba yurtimizga tashrifi, (1994–1995), Arab mamlakatlari, Osiyo o'yinlari Kengashining Prezidenti va Yunesko kabi xalqaro nufuzdagi tashkilotlarning rahbarlari, mas'ul xodimlari O'zbekistonga kelishlari muhim voqealar bo'ldi. Shular natijasida 1996-yil avgustda Toshkentda «Olimpiya shon-shuhrat» muzeyi ochildi. Unda mamlakatimiz sport tarixi, olimpiya harakati, sportchilarning erishgan yutuqlari o'z ifodasini topdi. O'tgan davrlarda muzeyni tomosha qilish uchun Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya, Shvetsiya, Rossiya, Bolgariya va juda ko'p Yevropa,

Osiyo Afrika, Amerika, Avstraliya qit'alaridagi mamlakatlarning rasmiy kishilari, sayohatchilari va sportchilari kelib ketishdi. Mazkur muzey respublika sportini targ'ibot qilishning markaziy maskanlaridan biriga aylanmoqda.

Respublika Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) xodimlari, sport federatsiyalarning rahbarlari, olimlar va boshqa rasmiy kishilar XOQ joylashgan Lozzana va juda ko'p mamlakatlarning MOQ huzurida bo'lib, Kongresslar, sessiyalar va ilmiy anjumanlarda ishtirok etmoqda.

Ayniqsa, O'zbek kurashini o'rganish va o'rgatish borasida respublika murabbiylari Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi, Avstraliya, Afrika, Amerika va Yevropa qit'alariga borib kelishmoqda. O'z navbatida barcha qit'alarning rasmiy vakillari O'zbekistonda bo'lib, kurash va boshqa sport turlari bo'yicha tajribalar almashishmoqda. Bu esa sportchilarning xalqaro turnirlar, o'rtoqlik uchrashuvlar va boshqa musobaqalarni tashkil qilishga zamin tayyorlamoqda.

Xuslosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi MOQning tashkil etilishi xalqaro sport aloqalarni yanada kengaytirish, olimpiya g'oyalarini aholi o'rtasida singdirish va eng muhimi, sportchilarni xalqaro sport musobaqalariga tayyorlashda muhim voqea bo'ldi.

12.3. Respublika sportchilarining Markaziy Osiyo, Osiyo o'yinlari va jahon musobaqalaridagi ishtiroki

Mustaqillik tufayli respublika sportchilari dastlabki yillardan boshlaboq xalqaro miqyosdagi rasmiy hamda nufuzli sport musobaqalarida faol ishtirok etish, yuksak g'alabalarni qo'lga kiritishga musharraf bo'lishdi.

1994-yil 11–19-aprelda Toshkentda Markaziy Osiyo respublikalari futbol jamoalarining birinchi turniri bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston 4 ochko bilan oldingi o'rinni egalladi. Turkmaniston va Qozog'iston futbolchilari esa 2 tadan ochkoga ega bo'lib, keyingi 2–3-o'rinlarni egalladi.

1995-yil 3–8-sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyo respublikalarining birinchi o'yini bo'ldi. Bunda XOQ prezidenti

X.A.Samaranch tabrik so'zi bilan qatnashdi. O'yinlar dasturida tennis, og'ir atletika, boks, qilichbozlik, suzish, yengil atletika va boshqa turlar bor edi. Tennis, boks, og'ir atletika, basketbol va boshqa turlarda O'zbekiston yaxshi natijalarga erishdi. Umumjamoalar o'rtasida Qozog'iston 42 ta oltin, 37 ta kumush va 17 ta bronza, jami 96 ta medalni egallab birinchi bo'lishdi. O'zbekiston: 37, 35 va 25, jami – 97 ta medalga ega bo'lib ikkinchi va Qirg'iziston esa 11, 10, 27 – jami 48 ta medal olib, uchinchi o'rinni egalladi. Tojikiston (1 ta oltin, 1 ta kumush, 8 ta bronza) 10 ta va Turkmaniston 23 ta (8 ta kumush, 15 ta bronza) medallar bilan keyingi o'rinlarni egalladi.

Futbol, yengil atletika, kurash, boks, tennis, basketbol, ot sporti va boshqa sport turlari bo'yicha Markaziy Osiyo respublikalari sportchilarning xalqaro turnirlari, o'zaro o'rtoqlik uchrashuvlari qizg'in bo'lib o'tmoqda. Ayniqsa, Osiyo o'yinlariga tayyorgarlik va saralash rasmiy musobaqalarida O'zbekiston va Qozog'iston bilan teppa-teng bo'lib kelmoqda.

1999-yil oktabrda Bishkekda Markaziy Osiyo respublikalarining uchinchi o'yini bo'lib o'tdi. Unda sportning 9 turi bo'yicha 96 kishi qatnashdi. Umumiy hisobda O'zbekiston uchinchi o'rinni egalladi.

Shu yili kuzda Toshkentda boks bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Unda D.Yo'ldoshev, A.Raximov, T.Turg'unov, S.Mixaylov, R.Chagayev, R.Saidovlar o'z vaznlarida oltin medalga sazovor bo'lishdi.

1994-yil 2–15-oktabrda Yaponiyaning Xirosima shahrida XII Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda ilk bor O'zbekiston sportchilari ham ishtirok etdi. Futbol bo'yicha respublikamiz terma jamoasi (bosh murabbiy R.Akramov) xitoyliklar bilan so'nggi uchrashuvda g'olib kelib, ularning shuhrati Osiyoda keng tarqaldi. Respublikamiz barcha bellashuvlarda 40 ta medalni (10 ta oltin, 11 ta kumush va 19 ta bronza) qo'lga kiritdi.

Sportchilar orasida A.Avazboyev (baydarka), O.Maskayev (boks), Sh.Ahmedov, N.Ripichev, E.Osmonov (o'q otish), O.Yarigina (nayza uloqtirish), R.Ganiyev (o'n kurash) va boshqalar chempionlik unvoniga sazovor bo'lishdi.

1994–2005-yilda Respublika Prezidenti kubogi uchun tennis bo'yicha xalqaro turnirlar, boks bo'yicha Osiyo chempionati (sentabr – 1996) va kurash, boks, sharqona yakka kurashlar, sport o'yinlari bo'yicha juda ko'p rasmiy musobaqalar, turnirlar Toshkentda o'tkazildi.

1991–2005-yillar davomida at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' allomalar, sarkardalar xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan kurash hamda boshqa turlar bo'yicha xalqaro turnirlar O'zbekiston sport tarixidan keng joy oldi.

Sharqona yakka bellashuvlar (karate, taekvando, ushu, kikboksing va hokazo) bo'yicha juda ko'p yosh sportchilar (ular orasida 9–11–13 yoshli Abdumavlonovlar ham bor) xalqaro turnirlar va jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda. Ularning mehnati va shuhrati Prezident hamda Respublika hukumati tomonidan haqli ravishda taqdirlanmoqda.

1998-yil Moskvada birinchi xalqaro yoshlar o'yini bo'lib o'tdi. Unda 131 mamlakatdan sportchilar qatnashadi. O'zbekiston yoshlari safida 109 kishi bo'lib, sportning 11-turida ishtirok etishdi. Umumjamoalar orasida O'zbekiston faxrli 13-o'rinni egalladi. Kurashchilar o'yindagi 10 ta medalning 8 tasini (1 ta oltin, 3 ta kumush va 4 ta bronza) egalladi. Dilshod Mansurov erkin kurashda oltin medal sohibi bo'ldi. 1998-yil XIII Osiyo o'yinlarida (Bangkok) respublika sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etadi. 41 mamlakat sportning 36 turi bo'yicha o'z vakillarini yuborgan edi. Faqat Xitoy, Yaponiya Tailand va Koreya to'la dasturda ishtirok etdi. O'zbekiston sportchilari 21 tur bo'yicha qatnashdi. Umumiy hisobda respublikamiz sportchilari 10-o'rinni egalladi.

Bu Xirosimadagi o'rindan ikki barobar past edi. Uning sababi shundaki, shtanga, gimnastika, o'q otish, tennis, sinxronli suzish, taekvando va xokkey sport turlarida o'z imkoniyatlaridan foydalana olmadilar. V.Shin boshchiligidagi M.Abdullayev, S.Mixaylov, R.Chagayev boks bo'yicha chempion bo'ldi. Suv sporti turlarida jamoalarimiz 2–3-

o'rinlarni egalladi. Yengil atletikachilar O.Veretelnikov (o'n kurash) va S. Voinov (nayza uloqtirish) oltin medalga sazovor bo'lishdi. Umumiy medallar soni 40 ta edi, 6 ta oltin, 22 ta kumush va 12 ta bronza.

1999-yilda IV qishki Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz qatnashdi.

1999-yil Xyustonda boks bo'yicha jahon chempionati bo'ladi. O'.Haydarov va M.Abdullayevlar jahon chempionati unvonini egalladi.

«Yunusobod» sport majmuida Prezident kubogi bo'yicha 6-xalqaro turnir o'tkazildi.

2002-yil Janubiy Koreyaning Pusan shahrida XIV Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan bokschilar, suv sporti vakllari, yengil atletikachilar va boshqa sportchilar muvaffaqiyatli qatnashdilar. Sharqona yakka kurashlar, boks, milliy kurash, futbol va boshqa sport turlari bo'yicha respublikamiz sportchilari AQSH, Angliya, Rossiya, Janubiy Koreya, Tailand va boshqa ko'pgina mamlakatlarda turli xil turnirlar birinchiliklari hamda rasmiy musobaqalarda ishtirok etishdi.

Umuman aytganda, O'zbekiston sportchilarining nufuzi jahondagi barcha mamlakatlarga tanildi.

12.4. Mustaqil O'zbekiston olimpiadachilari

O'zbekiston hali XOQ tarkibiga rasmiy ravishda a'zo bo'lmaganligi va sobiq Ittifoq o'rniga mustaqil davlatlar hamdo'stligining (MDH-SNG) tashkil etilishi tufayli 1992-yilgi Olimpiya o'yinlarida Barselonada Ittifoq MOQ (SNG) terma jamoalari tarkibida ishtirok etgan edi.

Olimpiya o'yinlarida yurtimizning 17 nafar sportchisi muvaffaqiyatli qatnashdi. O.Chusovitina va Rozaliya Galiyevalar jamoa tarkibida chempion unvoniga erishdi. Yengil atletikaning estafeta (4x100) turida qatnashgan M.Shmonina oltin medalga sazovor bo'ldi. S.Sirsov og'ir atletika bo'yicha ikkkinchi o'ringa erishdi. O'q otish sport turida ham A.Asroboyev kumush medalni egalladi. Qilichbozlikda V.Zaxaryevich bronza medalini olishga muvaffaq bo'ldi.

Medal nasib etmagan bo'lsa-da, D.Polyunin, V.Zaysev, R.Ganiyev, S.Usov, (yengil atletika); A.Tyurin va I.Kirsov (grebli), chim xokkey bo'yicha: A. Krasnoyarsyev, I.Mullajonov, A.Domashov kabilar yaxshi natijalar ko'rsatdi. olimpiada qatnashchilarini respublika sport jamoatchiligi qizg'in kutib oldi va ular taqdirlandilar.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, 1994-yil fevralida XVII qishki olimpiya o'yinlarida respublikamiz sportchilari mustaqil ravishda birinchi marotaba qatnashdi. Unda chang'ida akrobatik sakrash bo'yicha hamyurtimiz L.Cheryazova yana bir bor o'zining mahoratini (u jahon chempioni hamdir) namoyish qilib, oltin nishon sovrindori bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarish va respublika madhiyasining jaranglashini ta'minladi. Bu xizmatlari uchun L.Cheryazova O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning faxriy yorliq va qimmatbaho mukofotlariga sazovor bo'ldi. Shuningdek, 1994-yil aprelida Toshkentga tashrif buyurgan Xalqaro olimpiya qo'mitasining prezidenti X.Samaranch va Respublika Prezidenti I.A.Karimovning tabrik va olqishlariga ham sazovor bo'ldi.

O'zbekiston sportchilari mustaqil jamoa sifatida 1996-yil XXVI olimpiya o'yinlarida (Atlanta, AQSH) birinchi marta qatnashdi. Unda 76 nafar sportchilar ishtirok etib, 13 sport turi bo'yicha bellashuvlarda o'zlarini sinadilar. Suv sport turlarida 17 kishi, yengil atletikada 12 kishi, suzishda 10 kishi, boks va dzyudoda 7 kishi, erkin kurashda 6 kishi, grek-rim kurashida 4 kishi, og'ir atletikada 5 kishi, gimnastikada 2 kishi (1 ayol, 1 erkak), tennisda 2 kishi, o'q otish, velosport, qilichbozlikda bittadan sportchi qatnashgan edi.

Ular shahar va viloyatlar miqyosida ko'rib chiqilsa: Toshkent-37, Qoraqalpog'iston-1, Toshkent viloyati-14, Andijon-5, Samarqand-6, Farg'ona-6, Navoiy-5, Buxoro-2, Sirdaryo-2, Qashqadaryo-1, Xorazm-1 tadan to'g'ri keladi. Qolgan viloyatlardan esa sportchilar ishtirok etmadi.

O'zbekiston medallar soni bo'yicha 197 mamlakat ichida 58-o'rinni egalladi. A.Bagdasarov dzyu-do kurashi bo'yicha (68 kg) kumush medaliga sazovor bo'lgan bo'lsa, Karim

To'laganov esa boks bo'yicha (71 kg) bronza medalini yurtimizga hadya qildi. Dzyudochi V.Shmakov 7-o'rinni, Alisher Muxtorov 9-o'rinni egalladi. Boks bo'yicha D.Yorbekov (75 kg), N.Atoyevlar 5–8-o'rinni egalladi. Boshqa sport turlarida ham sportchilarimiz yaxshi natijalarga erishib, kuchli o'nlikdan joy olishga muvaffaq bo'lganlar.

Respublika hukumati olimpiya qatnashchilarini orden va medallar bilan mukofotladi. «Mehnat shuhrati» ordeni bilan A.Bagdasarov va K.To'laganov, «Do'stlik» ordeni bilan N.Atoyev, R.Ganiyev, O. Chusovitina, D.Yorbekov, «Shuhrat» medali bilan Sh.Axmedov, A.Ochilov, D.Zaxardinov, A.Shturbabinlar taqdirlandi.

Murabbiylardan S.Kuznetsova (gimnastika), X.Muhammedov (boks), V.Pyatayev kabilar faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi.

Navbatdagi olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ishlari, eng avvalo, o'tgan o'yinlardagi xato va nuqsonlarni tugatish, egallangan tajribalarni keng qo'llash bilan amalga oshirildi. Sportchilarni Sidney (Avstraliya)da bo'ladigan XXVII olimpiya o'yinlariga tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan Prezident farmoni (2000-yil 7-iyun) e'lon qilindi. G'oliblikni qo'lga kiritish uchun astoydil g'ayrat ko'rsatishga da'vat etuvchi mukofotlar ta'sis etildi, ya'ni oltin medal uchun–100 ming, kumush medal uchun–50 ming va bronza medali uchun 25 ming Amerika dollari belgilandi. Bu, o'z navbatida, murabbiylarning g'ayratini oshirib yubordi.

Uzoq qit'adagi (Avstraliya) Sidney shahrida XXVII olimpiya o'yinlari 2000-yil 15-sentabrdan 1-oktabrgacha davom etdi. Bu o'iynlar XX asrning so'nggi o'yini va olimpiya o'yinlari tarixida esa eng ko'p sportchi qatnashganligi (199 mamlakatdan 11147 kishi) bilan tilga olinadi.

Bu o'yinlarda O'zbekistondan 125 kishi, shundan 77 nafar sportchi ishtirok etdi. Ular sportning 13 turida qatnashdi. Sportchilarni tayyorlashda «Dinamo» (18) – barcha medallilar ular hisobida, MHSK (26), «Yoshlik» (12), kasaba uyushmalari sport jamiyati (21) katta hissa qo'shdilar. Boshqa viloyatlar safiga Jizzax va Namangan viloyatlari ham

o‘z sportchilarini qatnashtirish bilan qo‘shildi.

Umumiy medallar soni bo‘yicha O‘zbekiston 41-o‘rinni egalladi. Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida esa 7-o‘rinda edi.

Boks bo‘yicha sportchilarimiz g‘oyat qattiq kurash olib borishdi. Muhammadqodir Abdullayev (Andijon) oltin medal sovrindori bo‘ldi. Kumush medal sovrindori esa erkin kurashchi Artur Taymozovga nasib etdi. Bokschilar Sergey Mixaylov (Andijon) va Rustam Saidov (Toshkent)lar bronza medallarini egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Ta’kidlash lozimki, uzoq Sidneydan kelgan g‘alaba haqidagi xabarni eshitib, Prezidentimiz I.A.Karimov tabrik telegrammasini yubordi. Uni olgan M.Abdullayev qayta-qayta o‘qib chiqib, o‘z minnatdorchiligini Prezidentga izhor etgan.

O‘zbekiston qishki sport turlari bo‘yicha ham o‘z jamoalarini tayyorlashni davom ettirdi. 1998-yil XVIII qishki olimpiya o‘yinlari Nagono shahrida o‘tkazildi. Unda 72 ta davlat vakillari ishtirok etishdi, o‘zbekistonlik sportchilar 13 kishidan iborat edi. Ular 14 turdan 3 tasida qatnashdi. 32 mamlakatdan qatnashgan 30 nafar figurali uchish turida T.Malinina 8-o‘rinni egalladi. Chang‘ida akrobatik sakrash (fristayl) turida L.Cheryazova 24 sportchi ichida 13-o‘rinni egallaydi. Bunda uning avvalgi olgan jarohat asoratlari o‘z ta’sirini ko‘rsatgan edi. Komil O‘rinboyev 50 sportchidan 28-o‘rinni oldi. U erkaklar orasida figurali uchishda 24 davlatning 29 sportchisi orasida 19-o‘rinda edi.

Sovrindor olimpiadachilar haqida so‘z yuritilsa, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin, ya’ni:

1994-yil XXVII qishki olimpiada, Cheryazova L. 1-o‘rin.

1996-yil XXVI yozgi olimpiada, (AQSH): A.Bagdasarov dzyu-do, 2-o‘rin; K.To‘laganov boks, 3-o‘rin.

2000-yil XXVII yozgi olimpiada, (Avstraliya): M.Abdullayev boks, 1-o‘rin; A.Taymazov erkin kurash, 2-o‘rin; S.Mixaylov boks, 3-o‘rin; R.Saidov boks, 3-o‘rin;

2004-yil XXVIII yozgi olimpiada, (Gretsiya): A.Doktorashvili Yunon-rum kurashi, 1-o‘rin; A.Taymazov erkin kurash, 1-o‘rin; M.Ibragimov erkin kurash, 3-o‘rin; O‘.Haydarov boks, 2-o‘rin; B.Sultonov boks, 3-o‘rin.

Ta'kidlash lozimki, gimnastika, suvda suzish, yengil atletika, boks va boshqa bir qator sport turlari bo'yicha ishtirok etgan iqtidorli sportchilarimiz medallarga ega bo'la-olmasalarda, lekin kuchli 10,6 o'rinlar safidan joy olib, olimpiya o'yinlari tarixining zarvaraqlariga nomlari yozilib qoldi.

Xulosa shundan iboratki, O'zbekistonda sovetlar mustamlakachiligidan ozod etilganligini 1991-yil 1-sentabrdan buyon har yili tantanali ravishda bayram qilib kelinmoqda.

Mamlakatimizning istiqloli va istiqboli «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»da (1992-yil 8-dekabr) batafsil ifoda etildi.

Respublikada jismoniy madaniyat harakatini yangi yo'lga qo'yish, sport tashkilotlarining xalqaro aloqalarini o'rnatish hamda Markaziy Osiyo, Osiyo va jahon miqyosidagi barcha sport musobaqalarida vakillarimizning ishtiroki va g'alabasini ta'minlash yo'llari eng muhim vazifa qilib qo'yildi. Bunday ulug'vor va keng qamrovli murakkab muammolarni hal etish maqsadida 1992-yil 14-yanvarda «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» qonun qabul qilindi, keyinchalik u qayta ishlab chiqilib, yangi tahrirda yana (2000-yil) qabul qilindi. Respublikamiz olimpiadachilari imkoniyat darajasida yurtimiz shon-shuhratini baland ko'tarib kelmoqda. Xalqaro sport aloqalarni mustahkamlash va sportchilarning xalqaro sport maydonlarida ishtirok etishlarini ta'minlash uchun nufuzli va nodavlat maqomiga ega bo'lgan Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) 1992-yilda ta'sis etildi. Bunday faoliyatlarni to'la amalga oshirish yo'lida O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari (1993, 1996, 1998, 1999, 2000, 2002, 2003-yil va hokazo) qabul qilindi. Bunda «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (1999-yil 27-may) mazmun va mohiyat jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan bir qatorda kelajakda buyuk burilishlar yasash, yoshlarni ma'naviy va jismoniy barkamollikka erishtirish, aholining salomatligini doimiy ravishda muhofaza qilish yo'lida eng zarur omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar va dalillar respublikadagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish va aholining salomatligini yaxshilash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlar nishonasidir.

Xulosa qilib aytganda, sport tashkilotlari xodimlari, aholining ijtimoiy-madaniy va salomatligi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, mas'ul xodimlar, ayniqsa, aholining barcha qatlamlaridagi kishilar sport inshootlaridan unumli, maqsadli foydalanishlari lozim bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston sportchilari qanday xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etdi?
2. Jahon chempionlari, Olimpiya o'yinlari sovrindorlaridan kimlarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) qachon tashkil etildi, uning prezidentlari kim bo'lgan? MOQning tuzilishi va maqsad hamda vazifalari nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi milliy olimpiya akademiyasi haqida nimalarni bilasiz? Uning zimmasiga qanday mas'uliyatlar yuklatilgan?
5. Markaziy Osiyo o'yinlari va unda O'zbekiston sportchilarining ishtiroki qanday?
6. Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz ilk bor qachon qatnashdi va ularning naijalari qanday bo'ldi?
7. XIII–XV Osiyo o'yinlari qayerlarda o'tkazildi, ularda O'zbekiston sportchilari qanday natijalarga erishdi?
8. Kimlar va qachon jahon chempionatlarida ishtirok etishdi, ularning erishgan yutuqlari qanday bo'ldi?
9. O'zbekiston sport jamoalari mustaqil ravishda olimpiya o'yinlarida qachondan boshlab ishtirok etib kelmoqda, ularning natijalari qanday bo'ldi?
10. M.Abdullayev, A.Doktorashvili, A.Bagdasarovlar qaysi olimpiya o'yinlarida oltin medal olishga sazovor bo'lishdi?

XIII bob. JISMONIY MADANIYATNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Zamonaviy taraqqiyotning barcha jarayonlari, shuningdek, insoniyat jismoniy madaniyati jarayoni ham aniq tashkiliy reja va boshqaruvni talab etadi. Respublikamizda aholi jismoniy madaniyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos, takrorlanmas tizimi tashkil etilgan. Buning asosida kishilarni bolalik chog'laridanoq jismoniy madaniyat bilan ongli shug'ullanishni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish, uni kishilarning keyingi hayoti davrlarida ham muntazam davom etishni ta'minlash turadi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan mamlakatimiz aholisini jismoniy madaniyatni tashkil etish va boshqarishga katta e'tibor berildi. Prezidentimiz I.A.Karimov «faqat sog'lom avlodgina buyuk kelajakni qurishga qodir» ekanligini o'zining ma'ruzalarida bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Aholini jismoniy madaniyatini tashkil etish va boshqarishni yo'lga qo'yish maqsadida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida birinchi bo'lib «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, 2000-yildan aholini salomatlik va jismoniy tayyorgarlik darajasini belgilovchi «Alpomish» va «Barchinoy» salomatlik testlari kishilarimiz kundalik hayotiga tatbiq etildi. Bugungi kunda har uch yilda navbati bilan o'tkazilayotgan «Umid nihollari», «Barkamol avlod o'yinlari» va «Universiada» kabi uch bosqichli musobaqalar jismoniy madaniyat tizimini tashkil etish va boshqarishning ilmiy, amaliy va uslubiy asosini tashkil etadi. Bu tizim respublikamiz o'quvchilari va yoshlarini jismoniy madaniyat bilan muntazam shug'ullanib sog'lom turmush tarzini shakllantiradi. Unumli mehnatga va vatan himoyasiga puxta tayyorlanishlariga samarali xizmat qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2002-yil 24-oktabrda qabul qilingan «O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Qarori ham jismoniy madaniyat harakatini tashkil etish va boshqarishda tub burilish yasadi. Qarorgacha maktab yoshidagi bolalarning 7–8% sport to'garaklariga qarab olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich bugungi kunda 40%ga yetadi.

Jismoniy madaniyat bugungi kunda eng muhim ijtimoiy hodisa sifatida mamlakatimiz xalq xo'jaligi hayotida katta o'rin tutadi. Shu bois u davlat miqyosidagi tarmoq sifatida sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, qurolli kuchlar, ichki ishlar, xavfsizlik xizmati, mehnat va boshqa markaziy idoralarning ishidagi eng muhim muvofiqlashtiruvchi kundalik omil hisoblanib, u bo'yicha ishlar turli darajada (shahar, tuman, viloyatlar va respublika) rejalashtiriladi va boshqariladi. Ularning natijalari kundalik, haftalik, oylik, kvartal va yillik hisobotlarda aks ettiriladi.

Respublikamizda jismoniy madaniyatni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining respublika Kengashi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi «Talaba» sport uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, shuningdek, viloyatlar va tumanlar hokimliklari hozirgi madaniyat va sport ishlari boshqarmalari asosiy idoralardir. Ular respublikamizda jismoniy madaniyat ishlarini tashkil etish va boshqarishdagi yuqori tashkilotlar hisoblanadi. Jismoniy madaniyat harakatini tashkil etish va boshqarishda quyi tashkilotlarga har bir ishlab chiqarish va noishlab chiqarish korxonalari maktabgacha ta'lim muassasalari, umum ta'lim maktablari, mahallalar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari kiradi. Asosiy ish aynan shu jamoalarda olib boriladi va ular respublikamiz aholisining jismoniy madaniyat tarbiyasini amalga oshirib, kishilarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishni, uzoq umr ko'rib samarali hayot kechirishni ta'minlaydi. Bu jamoalarda jismoniy madaniyat ishlarini tashkil qilish havaskorlik, yakka tartibda mashq qilish,

omma bo'lib mashq qilish va boshqa shakllarda olib boriladi.

Jismoniy madaniyat harakatini tashkil qilish va boshqarish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan, ularning natijalari amaliy tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar sifatida chop etilgan. Bularga quyidagilarni misol keltirish mumkin: -T.T.Yunusov, R.A.Abdumalikov «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni tashkil etish yo'llari», Toshkent, 1992; J.E.Eshnazarov — «Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish», Samarqand, 1994; K.D.Yarashev «Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish», Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2002-yil va b. Bulardan tashqari, 2000—2006-yillarda Toshkentda, Samarqandda va boshqa shaharlarda jismoniy madaniyatni tashkil etishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan res-publika ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy anjumanlarning to'plamlarida ham ko'plab maqolalar, tezislar joy olganki, ular ham jismoniy madaniyatni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishga katta hissa qo'shadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan madaniyatni tashkil etish va boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega. U, eng avvalo, kishilarni ma'lum kasb-korga, mablag'ga ega bo'lishiga asoslanadi.

Ko'plab kishilar, ayniqsa, sportchilar, murabbiylar jismoniy madaniyat sohasi bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, jismoniy madaniyat majmualari, sport inshootlari soliqqa tortilmaydi yoki qisman tortiladi. Chunki ular respublikamiz aholisini sog'lomlashtirish ishlarida faol qatnashayotgan majmualardir. Shunga qaramasdan, bugungi kunda soha bo'yicha tadbirkorlik, tashabbuskorlik ishlari keng rivojlangan. Aksincha, bu masala chet mamlakatlarda, masalan, AQSH, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. AQSHda jismoniy madaniyat va sportga sarflanadigan mablag'ning 100% o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydi va sarflaydi.

Ularda jismoniy madaniyat va sport menenjmenti (boshqaruv tizimi) va marketingi (bozor munosabatlari) yaxshi

rivojlangan. Menenjment va marketing birinchi navbatda kishilarni ehtiyojini o'rganish, reklama va ularga namunali, ishonchli xizmat ko'rsatishga asoslanadi. Kelgusida bu sohalar alohida fan sifatida shakllanib boradi.

13.1. Jismoniy madaniyat harakatini boshqarishning vazifalari

Respublika va quyi sport tashkilotlari o'z faoliyatlarida juda ko'p vazifalarni amalga oshiradi. Ularda eng muhimlari quyidagicha:

1. Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotini bashorat qilish (prognoz) va rejalashtrish. Bunda uch yillik va undan ham uzoq muddatlarga belgilangan rejalarni ishlab chiqadi, belgilaydi. Qisqa muddatlarga aniq rejalarni belgilaydi.
2. Kadrlarni tayyorlash va joylashtirish. Jismoniy tarbiya o'quv yurtlarining maxsus kadrlar tayyorlashdagi tizimlarini boshqarib boriladi.
3. G'oyaviy mafkuraviy ishlar. Bunda hukumat va jamoat tashkilotlari aholini davlat siyosati asosida tarbiyalash uchun olib borilayotgan g'oyaviy-siyosiy, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va rahbarlik ishlariga to'la amal qilingan holda ish tutishi ko'zda tutiladi.
4. Jismoniy madaniyat va sportni targ'ibot qilish. Aholining barcha tabaqalariga qarab, ularning hayotida jismoniy tarbiya va sportni singdirish masalalari bo'yicha faol ish olib borish masalalari qo'yiladi.
5. Boshqaruvchilik mehnati faoliyatini ilmiy tashkil qilish. Bunda rahbar kadrlar ish faoliyatida yangi ish usullari, vaqtdan unumli foydalanish, ilg'or, sinalgan tajribalarga tayanib, ish samaralarini ko'paytirish maqsadida barcha mehnat faoliyatlarini ilmiy asoslangan usullar asosida olib borish zarurdir.
6. Quyi tarmoqdagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash.
7. Aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommaviy ravishda rivojlantirish.

8. Turli to'garaklar, musobaqalar tashkil qilish, yoshlarning sport mahoratini oshirish.

9. Aholining kundalik turmushiga va faoliyatiga jismoniy tarbiya va sportni tobora kengroq singdirib borish.

10. Sobiq Ittifoqdagi respublikalar va jismoniy tarbiya va sport harakati faoliyatlarini o'zaro tajriba almashish yo'li bilan tanqidiy o'rganish va zarurlarini qo'llash.

11. Davlat, kasaba uyushmalari, tijorat, xo'jalik daromadlarini hisobiga sport bazalarini rivojlantirish.

12. Sport tashkilotlarini moliyaviy, moddiy texnika bilan ta'minlash.

13. Tashkilotlardagi kadrlar va faollardan ko'proq foydalanish, ularni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish.

14. Zamon talablari asosida jismoniy tarbiya tizimini va uni boshqarish tartiblarini yanada takomillashtirish.

15. Ilmiy-nazariy anjumanlar o'tkazish, jismoniy tarbiya va sport ishlarini ilmiy asoslangan holda olib borish, ilmiy kadrlarni ko'paytirish.

Respublikada jismoniy madaniyat harakatini boshqarish vazifalari rahbarlik qilish faoliyatida alohida ajralib turadi. Jismoniy tarbiya va sport Davlat qo'mitasi huzuridagi turli boshqarmalar, bo'limlarning rahbarlik vazifalari bunga misol bo'la oladi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish uchun sport tashkilotlari rahbariyatlari, ularning quyi jamoalari kengashlari qilinadigan ishlar yuzasidan tegishli qarorlar ishlab chiqadilar. Buning uchun quyidagi tadbirlarni bajarish lozim:

1. Bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish (Nizom, kalendar reja va h.k.ni tasdiqlash).

2. Yig'ilsh muddati va kun tartibini belgilash.

3. Ma'ruza yoki axborot matnini tayyorlash (rais yoki biror mas'ul xodim).

4. Yig'ilish yoki kengashda masalani muhokama qilish. Muzokaralar bo'lishi shart.

5. Bir qarorga kelish, uni tasdiqlash (spartakiada Nizomi tasdiqlansin, qisqa vaqt ichida jamoalarga yuborilsin degan mazmunda).

6. Qaror va tadbir haqidagi matnlarni tegishli tashkilotlarga yuborish.

7. Qarorning bajarilishini belgilangan muddat bo'yicha nazorat qilish, tekshirish, axborotlar yig'ish va h.k.

13.2. Jismoniy madaniyat harakatini rejalashtirish

Jamiyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishidagi muhim taraqqiyotlar alohida ahamiyatlar kasb etadi. Bu esa jismoniy madaniyat harakatiga ham taalluqlidir. Shu sababli, O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sportning rivojlanish sohalarini avvaldan mo'ljallash va rejalashtirish katta ahamiyatga egadir.

Bashorat qilish (prognoz atamasi) keng ma'noda jismoniy madaniyat va sport sohasidagi taraqqiyotni ilmiy asosda avvaldan ko'ra bilish demakdir. Bular, albatta, bor imkoniyatlar asosida belgilanadi.

Jismoniy madaniyat harakatidagi kelgusida bo'ladigan jarayonlarni avvaldan aytish uchun bu sohani chuqur o'rganish, ilmiy tadqiqot va mo'tadil istiqbolli rejalarni ko'rib chiqishni, fan va texnikaning erishgan yangi yutuqlariga tayanishni taqozo qiladi. Shu asosda barcha rejalar tuziladi.

Avvaldan mo'ljallashning (bashorat qilishning) ikki yo'nalishi mavjud:

1. Tadqiqot o'tkazish.
2. Norma belgilash (normativ).

Tadqiqot o'tkazishda jismoniy madaniyat va sport sohasidagi barcha imkon va sharoitlar nazariy jihatdan o'rganib chiqiladi. Normativ turida esa shu sohalardagi asosiy belgilar, ilg'or tajribalar, kelgusi vazifalarga norma-talab qo'yiladi.

Bular respublikada jismoniy madaniyat va sportning taraqqiyot belgi va normalarni joylarda tartib bilan bajarilishini belgilab beradi. Bashoratlar maxsus tajribalar orqali tekshiriladi.

Ilmiy tadqiqot va normativ bashoratlari taqqoslash asosida (yillar va joylar h.k.) barcha jarayonlarni rejalashtirishga asos bo'ladi.

Jismoniy madaniyat va sport sohalarini bashorat qilish (mo'ljallash) jarayonlari quyidagilarga tegishlidir:

- jismoniy madaniyat va sportining barcha sohalarini rivojlantirish;
- jismoniy madaniyat harakatlarining turli normalarini tarmoqlar va idoraviy mo'ljallash;
- fanni rivojlantirish;
- turli sport buyumlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish;
- ixtisoslik kadrlarga bo'lgan talablar;
- jismoniy tarbiya o'quv yurtlari tarmog'ini kengaytirish;
- kishilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- rekord natijalari;
- jismoniy tarbiya tizimlarini takomillashtirish.

Mo'ljallash va rejalashtirish uchun axborotlarning zudlik bilan yig'ilishini talab etuvchi majmuaviy faoliyat juda zarurdir.

Jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirishning mo'ljallash modelini (namuna, shakl) tuzishning quyidagi davrlari bo'lishi mumkin:

- jamiyat hayotida jismoniy tarbiya va sportning hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib beruvchi nazariy dasturlar ishlab chiqish;
- jismoniy madaniyat va sport rivojlanishini nazariy dasturlari va tarixiy tahlil asosida boshlang'ich hisoblarni yozish;
- jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishning yo'nalishi va asosiy tomonlarini, ya'ni amaliyotning aniq holatini yuzaga chiqarish;
- jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirishning avvalgi davrlardagiga asoslanib mo'ljallangan modelini, shuningdek, aniq amaliyot natijalarini tahlil qilishni hisobga olgan holda aniqlangan rivojlanish tomonlarini va qo'yilgan vazifalarni ishlab chiqish;
- mo'ljallangan modellar namunalari olimlar va mutaxassislar tomonidan tekshirib ko'rilishi va ma'qullanishi zarur;
- modellarning namunasini sinab ko'rish (ekspert) asosida baholash;

- jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishning rejasini tuzish takliflarini ishlab chiqish;

- barcha jamoalar va sohalarning ish faoliyatini rivojlantirish kabi jismoniy madaniyat jamoalari kengashining ish rejalarini tuzishda katta ijodiy yondoshishni talab etadi. Chunki jismoniy tarbiya, sport va sayohat ishlari ko'p karrali faoliyatlardan iboratdir.

Odatda, bir yillik yoki ko'p yillik (perspektiv) ish rejalarini tuzish uchun o'tgan yilgi (davrdagi) qilingan ishlarni tahlil qilish, unga to'g'ri baho berishni talab etadi. Shu sabaga ko'ra, rejalashtirishni lozim bo'lgan sohalarini miqdori, muddati hamda bajaruvchilarning ish qobiliyati jamoaning ish sharoiti va boshqa zarur tomonlari hisobga olinadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, jamoa bir yillik ish rejasini tuzishda quyidagi asosiy talablar (prinsip)ga amal qilishi lozim bo'ladi:

1. Davlat taraqqiyoti ko'rsatkichlari va talablari.
2. Ilmiylik.
3. Bor imkoniyatni hisobga olish.
4. Aniqlik.

Bu talablarni quyidagicha izohlash mumkin:

Davlat taraqqiyoti talabi — deganda, jamiyatimizning ijtimoiy taraqqiyot qonunlari, prezident va hukumatninig chiqargan qarorlari va Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan qonunlarga to'la rioya qilish va unga amal qilish tushuniladi.

Ilmiy talabi esa barcha faoliyatlardagi tajribalarda sinovdan o'tgan, qo'llanilishga tavsiya etgan natijalar, fan yutuqlari asosida ish olib borishni anglatadi. Bu fanda sport inshootlarini qurish, aholini jismoniy tarbiya va sport, sayohatga ko'plab jalb etish, yetuk sportchilar yetishtirish va shu kabilardagi erishilayotgan tajribalarni keltirish mumkin.

Bor imkoniyatlarni hisobga olish (obyektivlik) talabi hamma sohalarni hisobga olgan holda qilinadigan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bunda jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitalari, sport jamiyatlari kengashlari va ularga aloqador davlat idoralari hamda jamoatchi tashkilotlarning o'zaro

hamkorlikda ishlari talab etiladi.

Aniq rejalashtirish eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki rejalashtirilayotgan barcha tadbirlarning zaruriyati, bajarilish muddatlari, ularning miqdorlari va ijrochilar, jamoa muhiti hamda imkoniyatiga qarab aniq belgilashni talab etadi. O'quv yurtlari hamda ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar va barcha tashkilotlardagi jismoniy madaniyat jamoalari kengashlarining bir yillik ish rejasi va kalendar rejalarini tuzishda yuqorida ijtimoiy muhit talablariga to'la amal qilishlari lozim.

Ish rejalarini tuzishni avvalo nimadan boshlash kerak?

Yilning (o'quv yili) oxiri yaqinlashganda jamoa kengashi navbatdagi yig'ilishida kelgusi yil uchun reja ishlab chiqishni barcha a'zolariga vazifa qilib qo'yadi. Kengash raisi umumiy rahbarlik qiladi va belgilangan muddatda a'zolardan tuzilgan rejalarni yig'ib olib chuqur o'rganib chiqadi. Zarur bo'lganda esa ularni yordam yoki maslahatga chaqiradi.

Jamoa kengashining ish mazmuni va tuzilishi bo'yicha har bir kengash a'zosi o'ziga yuklatilgan komissiya (bo'lim, sektor) rejasini tuzishga kirishadi. Unda quyidagi talablar va shartlarga rioya qilishga to'g'ri keladi.

1. Rejaning ko'rsatkichlarini belgilab olish.
2. Rejaning umumiy tuzilishini (modeli) aniqlash.

Rejaning ko'rsatkichlarini belgilash deganda, barcha turlar va faoliyatlarning ketma-ketligi va tartibini belgilashni tushunish lozim. Ya'ni to'garaklarda shug'ullanish, musobaqalarda qatnashish, razryad va hakamlarni tayyorlash.

Rejaning umumiy tuzilishi deganda, ko'rsatkichlar va qilinadigan ishlarning umumiy tuzilishi yo'nalish va belgilari tushuniladi.

Keyingi taraqqiyotimiz davrida respublikada jismoniy madaniyat va sportning asosiy ko'rsatkichlarini rivojlantirishda quyidagi talablarga tayanish maqsadga muvofiqdir (har bir jamoaning ishlovchi yoki o'qiydigan kishilarining umumiy soniga nisbatan foiz hisobida):

	1. O‘quv yurtlarida	2. Ishlab chiqarish jamoalarida va muassasalarda
- jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar	- 100	30–50
- jismoniy taraqqiyot nishondorlari	- 60–70	20–25
- razryadli sportchilar	- 30–35	15–20

- jamoatchi-instruktorlar har - 10–15 kishiga bittadan.

Bu talablarning haqqoniyligi, aniqligi shu bilan asoslanadiki, hozirgi kunda barcha o‘quv yurtlari, korxonalarda sport inshootlari yetarli darajada mavjud. Mutaxassis kadrlar, jamoatchi konstruktorlar yil sayin oshib bormoqda. Aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari, ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari aniq kalendar rejalar asosida olib borilmoqda. Respublika hukumati hamda kasaba uyushmalari, sport tashkilotlari jismoniy madaniyat, sport va sayohat ishlari rivojlantirish uchun turli tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jamoalarning sport musobaqalari kalendar rejasini tuzishda ham ba’zi bir holatlarni aniq hisobga olmoq kerak. Bunda, avvalo, sevimli sport turlari bo‘yicha to‘garaklar tashkil qilish, shug‘ullanuvchilar uchun shart-sharoitlar yaratish, rahbarlarning bunga mas’uliyatini qaratish muhim ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda iqlim sharoitlari, ish turlari (mehnat xususiyatlari) va bo‘sh vaqtlarni hisobga olmoq kerak.

Har bir bo‘lim va sohalar bo‘yicha rejalar tuzilib bo‘lgach, ularni yig‘ib, yagona reja to‘la muhokama qilinadi va uning yakuni sport jamiyati a’zolarining umumiy yig‘ilishida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Taqsimlangan rejaning ijro etilishi yuzasidan nazorat kengash raisi tomonidan muntazam ravishda olib boriladi.

Ijroni nazorat qilishda quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

1. Kengash yig‘ilishlarida topshiriq berilgan kishilarning vazifalarini bajarish haqidagi axborotlarni eshitib borish.

2. Maxsus komissiyalar tuzilib, zarur ish bo'limlarining faoliyatini o'rganish va tekshirib turish.

3. Devoriy gazeta va tirajli gazetalarda ishlarni bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish.

4. Kamchiligi bor joylarda ishlarni tezda tuzatish va yaxshilash.

5. Trenerlar, o'qituvchilar, instruktorlar-tashkilotchilarning ish faoliyatini tez-tez ko'rsatish, ularning hisobotlarini eshitish.

6. Musobaqa yakunlari, razryad normativlarini topshirish natijalari haqida hisoblarni tez-tez eshitib borish.

Talabalar va o'quvchi yoshlar ishlarining bu tomonlarini amaliy o'rganishlari uchun amaliyot jarayonida sinchiklab kuzatib borishlari, kengash qarorlarini o'qib-o'rganishlari lozim bo'ladi.

Jismoniy madaniyat va sport harakatining asosini boshlang'ich jamoalar tashkil qiladi.

Jismoniy madaniyat jamoasini tashkil qilish ularning ish faoliyatini to'g'ri boshqarishda kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi yaqindan yordam beradi. Tuman sport qo'mitalari, ko'ngilli sport jamiyatlari kengashlari, jamoatchi tashkilotlar quyi jamoalarga amaliy yordam berish bilan birgalikda, ularning boshqarish huquqlari, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, o'quvchi yoshlarni mehnat va mudofaaga tayyorlanishlarida yo'l-yo'riq ko'rsatib beradi.

Ommani jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishda, ular bilan turli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazishda, sog'lomlashtirish va umumiy jismoniy tayyorgarlik guruh mashg'ulotlari hamda sport to'garaklarining ish mazmunini yaxshilashda mutaxassis xodimlar o'z rejalarini hozirgi kunning talabi bo'yicha tuzib boradi.

Jamoalarning ish faoliyatini tobora yaxshilashda uning kengashlari tomonidan tuzilgan yillik ish rejasi va sport musobaqalarining kalendar rejalari asosiy bosqichni tashkil qiladi.

Rejalarning ijrosini nazorat qilib borish, tekshirish ishlarida kengashlarning raislari, uning a'zolari, faollar hozirgi kun talablari asosida ish tutadilar.

Respublikada Oliy Kengash hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ishlarni yuritish, aniq rejalar tuzishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda sport tashkilotlari, ularning quyi jamoalari o'z ishlarini yangi talab va rivojlanish yo'llarini o'rgangan holda faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi.

Ish faoliyatlarini rejalashtirishga doir faoliyatlarni o'rganish uchun talabalar va yosh mutaxassislarga quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Jismoniy madaniyat va sport taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlarini yoddan bilish.

2. Jamoalarning (sport klubi) ish faoliyati bilan chuqur tanishish.

3. Rejalashtirishga doir hozirgi zamon taraqqiyoti talablarini o'zlashtirib olish.

4. Bo'sh vaqtlarda jismoniy madaniyat va sport harakatining barcha tarmoqlariga tegishli bo'lgan jamoalariga (o'quv yurtlari, korxona, muassasa, davlat va xo'jalik jamoalari va h.k.) alohida bir yillik va kalendar rejalar tuzish.

Jismoniy madaniyat va sport ishlarini rejalashtirish respublika Jismoniy madaniyat va sport Davlat qo'mitasi va uning quyi organlari hamda jamoat tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Quyi tashkilotlarda tuziladigan ish rejalarning ba'zi bir namunalarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

«Tasdiqlayman»

_____

(vaqti, imzo)

_____ (tashkilot nomi) JISMONIY MADANIYAT JAMOASI KENGAShINING (SPORT KLUB) BIR YILLIK NAMUNAVIY ISh REJASI

T.r	Ishlarning nomlanishi	Bajarilish muddati	Bajaruvchilar	Bajarilgan haqida belgi
	1. TASHKILIY ISHLAR			
1	Jismoniy madaniyat jamoasi kengashining hisobot saylov yig'ilishini o'tkazish	Dekabr	Kengash raisi	
2	Sport to'garaklari, sog'lomlashtirish guruhlarni tashkil qilish	Sentabr	Trener, jamoatchi faollar	
3	Jamoa kengashi yig'ilishini o'tkazish	Oyda bir marta	Kengash raisi	
4	Sex, bo'lim va guruhlarda jismoniy tarbiya tashkilotchisi, komanda kapitani va boshqa faollarni saylash	Mart, yil boshida		
5	O'zaro mehnat musobaqalarni uyushtirish, uning yakunlari	-//-	Kasaba uyushma	
6	Belgilar (emblemalar), mukofot yorliqlarni tayyorlash	-//-	Kengash	
	2. O'QUV-SPORT ISHLARI			
1	Sport to'garaklarining ish rejalarini va jadvalini tuzish	Yil boshida	Trenerlar	
2	Sport to'garaklari, sog'lomlashtirish guruhlarining mashg'ulotini tashkil qilish	Haftada 2—3 marta	-//-	
3	Sport musobaqalarining kalendar rejasini tuzish	Yil boshida	Kengash	
4	O'tkaziladigan musobaqalarning Nizomlarini ishlab chiqarish va	Kalendar plan	-//-	

	tasdiqlash, musobaqalar o'tkazish	asosida		
5	Tuman, shahar musobaqalarida qatnashish uchun terma komandalar tuzish	-//-	-//-	
6	O'quvchi yoshlardan iborat komandalar tuzish, trenirovka o'tkazish	-//-	Trenerlar	
7	Razryad berishga doir hujjatlarni rasmiylashtirish	Har oyda	Kengash	
8	Sportchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, doimiy tibbiy nazoratini ta'minlash	Bir yilda 2–3 marta	Tibbiyotchi Kengash	
	3. JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI			
1	Ishlab chiqarish jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish daqiqalarini, harakat tanaffuslarini uyushtirish	Har kuni	Tashkilotchilar	
2	Dam olish kuni sayohatlarini tashkil qilish	Oyda bir marta	-//-	
3	Ishdan keyingi bo'sh vaqt va dam olish kunlari turar joylar, ishxonaning sport o'yingohlarida oila va brigada mashg'ulotlarini tashkil qilish, turli musobaqalarni uyushtirish	Har hafta	Faollar, tashkilotchilar	
4	Jismoniy chiniqish musobaqalarini tashkil qilish	-//-	-//-	
5	Aholi turar joylar, shahar va tumanlar hamda ularning chetlari, tog'lardagi dam olish joylarida turli o'yinlar, uyushtirish	Har oyda bir marta	-//-	
	4. JAMOATCHI-TASHKILOTLARNI TAYYORLASH			
1	Sport turlari bo'yicha to'garaklar, sog'lomlashtirish, umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlari, sayohat bo'yicha jamoatchi instruktorlar (tashkilotchilar), hakamlar, komanda kapitanlarini tayyorlash uchun			

	seminar rejalarini tuzish, mashg'ulotlar o'tkazish			
2	Trenirovka va sport musobaqalari jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya faollarini stajerlikka qo'yish, ularni o'rgatish	Jadval asosida	Trenerlar	
3	Tashkilotchilar, yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmasi tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport bo'limlari uchun javobgar kishilarga doimiy suhbatlar, seminar o'tkazib turish	Oyda 2 marta	Trenerlar, o'qituvchilar, tashkilotchilar	
4	Shahar va tuman miqyosida o'tkaziladigan turli seminar va kengashlarda eng faol tashkilotchilar, hakamlarni yuborib turish	Grafik bo'yicha	Jamoa kengashi	
	5. TARG'IBOT VA TASHVIQOT ISHLARI			
1	Jamoada «Sport» yoki «Jismoniy kamolot» (boshqa nom ham mumkin) nomi bilan devoriy gazeta chiqarish	Har oyda	Muharririyat yoshlar ittifoqi	
2	Havo mavjlari oynomalar orqali tanaffus paytlarida sport axborotlarini berib borish	Har kuni	Yoshlar ittifoqi, tahririyat	
3	Jismoniy chiniqish mashg'uloti normativlarini bajarilishi haqida axborot berib borish	Oyda 1 marta	Jamoa kengashi	
4	Sexlar, bo'limlar, guruhlar, sinflarda va yotoqxonalarda turli ma'ruzalar va suhbatlar tashkil qilish	-//-	Targ'ibot bo'yicha komissiya	
5	Sport maydonlari, zallarida sportga doir ko'rgazmalilik shiorlarini, rasmlarni chiroyli qilib jihozlash	Doimo	Jamoat kengashi	
6	Sport burchagini tashkil qilish	-//-	-//-	
7	Sport rekordlarini yozish uchun daftar tashkil qilish	Yil boshida	-//-	
8	Sport kechalarini tashkil qilish	Yil davomida 2—3 marta	-//-	

9	Ertalabki gigiyenik gimnastika, ishlab chiqarish gimnastikasi, yugurish, sayohat va sport turlarining odam tanasini mastahkamlashdagi ahamiyati haqida suhbatlar o'tkazish	Doimo	Metodist, trener, o'quv-chilar	
10	Sport haqida maxsus filmlarni namoyish etib turish			
	6. HISOBGA OLISH VA HISOBOT TUZISH			
1	Jamoada hisobga olishning yagona shakllarini olib borish (JXYaSh - FEUK)	Yil boshida	Jamoa kengashi raisi	
2	JXYaSh – 1. Shug'ullanuvchilar ko'ngilli sport jamiyati (KSJ) a'zolarining ro'yxati.			
	JXYaSh – 2. 2 razryadlilar, nishondorlar va jamoatchi instruktorlar haqida rasmiy hujjatlar (protokollar, jurnallar, buyruqlar).	-//-	Kotib	
	JXYaSh – 3. Yuqori natijalar kartochkasi va ular haqidagi hujjatlar.	-//-	-//-	
	JXYaSh – 4. Jismoniy ma-daniyat xodimlarining shaxsiy kartochkasi (ma'lumoti, malaka oshirganligi va h.k.).	-//-	-//-	
	JXYaSh – 5. Sport inshootlari hisobga olish kartochkasi (soni, hajmi va holati).	-//-	-//-	
	JXYaSh – 6. Sport turlari bo'yicha to'garaklarning jurnal-lari.	-//-	-//-	
	JXYaSh – 7. Jismoniy ma-daniyat jamoasining ishlarini hisobga olib borish jurnali	-//-	-//-	
3	JMJ (jismoniy madaniyat jamo-asi)ning raqamli hisobotini tuzish	-//-	-//-	
4	Qilingan barcha ishlar bo'yicha yozma hisobot tuzish	-//-	-//-	

	VII. MOLIYAVIY VA XO'JALIK ISHLARI			
1	Jamoaning bir yillik moliyaviy daromadlari va xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash	Yil oxirida	Jamoa rahbari, kasaba uyushmasi	
2	Sport jihozlari va buyumlarini xarid qilish, ularni ta'mirlash	Yil davomida	Jamoa keng.	
3	Ish joyi, yotoqxonalar oldida oddiy o'yin va sport maydonlarini qurish va jihozlash	Yil davomida	Tashkilotchilar, trenerlar	
4	Tibbiy-jismoniy tarbiya mahkamasini tashkil qilish.	Yil davomida	Jamoa rahbari	
5	Sport jihozari, buyumlari va inshootlarini saqlash, ehtiyot qilish	Har kvartalda	Kengash raisi	
6	G'olib komandalar va sportchilarni taqdirlash uchun yorliqlar, mukofotlar kubok va boshqalarni xarid qilish	- // -	Kotib	
7	A'zolik badallarini yig'ish	- // -	Kotib	

Jismoniy madaniyat kengashi bir yillik ish rejasini kengash a'zolari, jamoa rahbari, kasaba uyushmasi, yoshlar «Kamolot» uyushmasi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi va umumiy yig'ilishda (kengashida) tasdiqlaydi.

Har bir jamoa yil davomida o'tkaziladigan ommaviy sog'lomlashtirish va sport tadbirlari bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarni ham aniq rejalashtirish zarur bo'ladi.

Bu o'rinda quyidagi rejaning namunasini tavsiya etish mumkin:

Jismoniy madaniyat kengashining jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish va sport tadbirlari bo'yicha bir yillik taxminiy kalendar rejasi

t. r	Tadbirlarning nomi	Muddati	O'tkazish joyi	Qatnashuvchilar	Bajaruvchilar	Bajarilgan
I. SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI						
1	Ishlab chiqarish	Bahor	Stadion,	Har bir	Tashkilo	

	gimnastikasi bo'yicha ommaviy musobaqalar		sport maydon-chalari	sinf	tchilar	
2	Katta tanaffuslar, bo'sh vaqtlarda turli fizkult daqi-qalar o'tkazish.	Kuz	Haftada bir marta	sex	Hamma	
3	Ish va turar joy-laridagi sport kom-pleksi (maydon-chalarida) «Oilaviy startga», brigada bo'yicha stadionda musobaqalar o'tkazish	Har oyda	- // -	Terma komanda-lar	Jamoa kapitani	
4	Jismoniy chiniqish uchun muso-baqalar o'tkazish	Jadval bo'yicha	- // -	Hamma		
5	Sayohatlar,slyotlar tashkil qilish	- // -	Dam olish			
	II. KOMPLEKS TADBIRLAR					
1	Jamoaning an'a-naviy spartakiadasi	-//-	Sport zal terma	Koman-dalar	Jamoa kapitani	
2	Bir necha sport turlari bo'yicha va bir vaqtning o'zida o'tkaziladigan o'rtoqlik uchrashuvlari	-//-	- // -	- // -	- // -	
	III. SPORT TURLARI BO'YICHA O'TKAZILADIGAN VA AN'ANAVIY MUSOBAQALAR					
1	Shaxsiy birinchilik, jamoalar birinchiligi	- // -	- // -	- // -	- // -	
2	Kalendar va xotira kunlari bag'ishlan-gan sovrinlar (mu-sobaqalar) jismoniy tarbiyachilar kuni, o'quv yili bosh-					

	lanishi, sport mavsumi ochilishi va h.k.					
3	Sport turlari bo'yicha musobaqalar					

Bu rejani jismoniy madaniyat jamoasi trenerlar, hakamlar, jamoatchi tashkilotlarning vakillari ishtirokida ishlab chiqiladi va umumiy yig'ilishda tasdiqlanadi.

Jismoniy madaniyat jamoalarining ish faoliyatida, ayniqsa, sport musobaqalarini o'tkazish uchun nizomlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O'tkaziladigan spartakiada, sport turlari bo'yicha birinchiliklar va boshqa musobaqalar uchun alohida nizomlar tayyorlanadi.

Bunday nizomlarni tuzishda quyidagi holatlar, albatta, e'tiborga olinadi:

1. Musobaqaning maqsadi va vazifalari.

Bunda yoshlarni sportga jalb qilish, terma jamoalar tuzish, iqtidorli sportchilarni saralash kabi maqsadlar qo'yiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni xalqqa targ'ibot qilish, sportning ommaviyligini oshirish, bayramlarni sportdagi yutuqlar bilan munosib kutib olish kabi vazifalarni qo'yadi.

2. Musobaqalarni o'tkazish muddati.

Nizomni tayyorlashda musobaqani o'tkazish muddatini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki sport turining xususiyatini, ob-havo sharoiti, mehnat yoki o'quv jarayonini hisobga olish to'g'ri keladi.

3. Musobaqalarga rahbarlik.

Sport musobaqalarini o'tkazgan tashkilot, ularga rahbarlik qilish yo'llari, asosiy shartlar bu yerda aniq ko'rsatiladi.

4. Musobaqalarga qatnashuvchilar.

Bu bo'limda sport turlari yoki har bir turdagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladigan talablar ko'rsatiladi. Musobaqalarda qatnashuvchilarni (yoshi, tayyorgarligi, vazni va h.k.) aniq belgilanadi.

5. Musobaqalarning dasturi.

Bunda barcha turlar ko‘rsatiladi.

6. Musobaqalarni o‘tkazish tartiblari.

Bunda asosiy talablar, shartlar ifodalanadi.

7. G‘oliblarni aniqlash va rag‘batlantirish.

Musobaqa g‘oliblarini aniqlash usullari, ularga qo‘yiladigan qoidalar va shartlar, taqdirlanadigan mukofotlar, ularni berish tartiblari bu bo‘limda o‘z aksini topadi.

8. Ariza berish tartibi va muddati.

Musobaqalarda qatnashish uchun har bir sport turi bo‘yicha alohida ariza berish bilan aniqlanadi, muddatlar shartlarini avvaldan belgilash musobaqaning o‘z vaqtida boshlanishi va maqsaddagidek o‘tishini ta’minlaydi.

9. Ariza shakli.

Ariza har bir sportning xususiyatiga qarab to‘ldiriladi. Umuman barcha jamoalardagi mutaxassis xodimlar, shuningdek, tuziladigan barcha rejalarni tuzish, musobaqalarning nizomlarini avvaldan tayyorlab qo‘yish, tegishli jamoalar, bo‘limlar, guruhlarga tarqatilishi barcha ishlarinng muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

13.3. Jismoniy madaniyat va sport ishlarini boshqarish usullari

Respublika Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlarini amalga oshirishda so‘nggi yillarda boshqaruvchilik yo‘llari tubdan o‘zgaradi va u tobora takomillashtirilmoqda. Ilg‘or va ilmiy asoslangan hamda chetdan o‘rganilgan fan, texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi jismoniy madaniyat va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

Davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining jamoat ishlarini boshqarishning bir qator yangi shakl va yo‘llari, usullari Respublika Oliy Kengashi, Vazirlar Mahkamasi va boshqa turli vazirliklarning qarorlari, yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalarida aniq ko‘rsatilmoqda. Bular hayotga asta-sekinlik bilan to‘la singdirilmoqda.

Jismoniy madaniyat va sportni boshqarishning o'ziga xos shakl va yo'llari kun sayin boyib, to'ldirilib borilmoqda.

Respublikada «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» qonun qabul qilinishi, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining tuzilishi va sport tashkilotlari hamda jamiyatlarining mustaqil o'zini-o'zi boshqarishga o'tishi bu jarayonlarni vujudga keltirdi.

Jismoniy madaniyat harakatini boshqarish tizimida idoraviy-tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, xo'jalik, shuningdek, g'oyaviy va axloqiy ta'sir etuvchi usullar qo'llanadi. Ular ham o'z navbatida bir necha turga bo'linadi.

Idoraviy tashkilotchilik uslubi. Jismoniy madaniyat harakatining barcha tarmoqlariga mansubdir.

Idoraviy-tashkiliy uslubga quyidagilar kiradi:

1. Tashkiliy - farmoyish berish.
2. Tashkiliy – birlashtirish.
3. Tashkiliy - yo'l-yo'riq ko'rsatish (instruktaj).
4. Tashkiliy – (farmoyish) texnik ta'minot, xo'jalik va h.k.

Tashkiliy – farmoyish berish yo'lida rahbarlik qilishning tashkiliy tuzilishini o'zgartirish, uni yanada takomillashtirish masalalari ko'zda tutiladi.

Tashkiliy – farmoyish berish uslubiy jismoniy madaniyat harakatida vaqtincha boshqaruv tashkiloti vazifasini bajaradi. Masalan, vaqtinchalik komissiya, hakamlar jamoasi va h.k. Bunday komissiyalar sport qo'mitalarida, KSJ kengashlari, quyi jamoalar, sport bazalari va boshqa tashkilotlarda tuziladi.

Komissiyalarning vazifasi zarur bo'lgan barcha ishlarni tezda amalga oshirishdan iboratdir.

Tashkiliy-instruktiv (yo'l-yo'riq berish) usuli (yo'li) jismoniy madaniyat tashkilotlarida turli ma'lumotga ixtisosga ega bo'lgan va yoshi, ish staji jihatdan har xil kishilar ishlaydi. Shu tufayli ularga vaqti-vaqti bilan yuqori tashkilotlar tomonidan instruktaj berib boriladi. Bu usul barcha tarmoqlar, jamoalarda ish uslubining yagona talab asosida yuritilishiga sababchi bo'ladi.

Tashkiliy birlashtiruvchi (koordinatsion) usuli jismoniy madaniyat va sport ishlari ko'pgina idoralar, tashkilotlar, jamoalar, turli o'quv yurtlarida olib boriladi. Shunga qaramasdan, unga rahbarlik qilishda yagona talab birlashtiruvchi usullar asosida ish olib boriladi. Barcha sohalardagi jismoniy madaniyat harakatini bir usulda boshqarish faoliyatini bu usul izga solib turadi. Bunga sport qo'mitasi bevosita rahbarlik ishini olib boradi. Kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi, «Vatanparvar» tashkilotlari, turli vazirliklar bilan kelishgan holda birgalikda faoliyatini yuritadi.

Tashkiliy-texnik ta'minot usuli.

Unda quyidagilar hal qilinadi:

1. Yangi sport asboblari, jihozlari va kiyimlarini takomillashtirish.
2. Zamonaviy sport bazalarini ko'rish, loyihalarini tuzish.
3. Sport mashg'ulotlarini o'tkazishda yangi texnik vositalar bilan ta'minlash.
4. Sport joyi va xizmat joylarini texnika vositalari bilan jihozlash.
5. Boshqaruv tarmoqlarini tashkiliy texnik vositalar bilan ta'minlash va undan umumiy foydalanish.
6. Boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish.

Jismoniy madaniyat harkatini boshqarishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari yuqoridagi usullarga to'la amal qilish bilan birgalikda o'z idoralarida barcha hujjatlarni tutish, ularni talabdagidek texnik jihatdan yuritishlari lozim.

Respublikada jismoniy madaniyat va sport ishlarini yaxshilash, uni yanada rivojlantirish, yirik sport tadbirlarini amalga oshirish, sport komplekslarini ko'rish sohalari bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan vaqti-vaqti bilan turli qarorlar, buyruqlar, direktiv xatlar, ko'rgazmalar chiqariladi. Bunday vazifalarni bajarishda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitalari, madaniyat va sport ishlari vazirliklari o'zlarining quyi tashkilotlari xodimlari bilan birgalikda amalga oshiradi. Shuning bilan birgalikda bu vazifalarni bajarishda Madaniyat va sport ishlari vazirliklari,

turli komissiyalari, faollar, jamoatchi instruktorlarning faol ishtiroki bilan amalga oshiradi. Ularga tayangan holda ish tutadi.

Jismoniy madaniyat harakatining boshqarish yo'llarida turli yig'ilishlarining mohiyati juda kattadir.

Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitalari, viloyat boshqarmalari, tuman boshqarmalari rejalar asosida o'zlarinig hay'ati, kengash, seminar kabi yig'ilishlarda o'tkazilib turadi. Bunday hollarda ko'riladigan masalalarni jadvalini tasdiqlaydi va uning bajarilishi uchun puxta tayyorgarlik ko'riladi.

Instruksiya davlat va tashkilotlar tomonidan chiqariladigan yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi hujjatdir. Masalan: jamoatchi instruktorlar tayyorlash, sportchi razryadlilar tayyorlash, hisobotlar tuzish va boshqalar.

Nizom, musobaqalar, tashkiliy qo'mitalar faoliyati va ish mazmunini izohlovchi hujjattidir.

Ustav sport jamiyatlari, sport boshqarmalari, jismoniy madaniyat jamoalarini tashkil qilish, uni boshqarish qoidalari haqidagi hujjatdir.

Bu hujjatlar asosan jismoniy madaniyat va sport davlat qo'mitasi, sport jamiyatlari kengashlari, kasaba uyushmalari federatsiyasi kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqariladi va tasdiqlanadi. Bu esa quyi tashkilotlar uchun to'la amal qiluvchi qonun sifatida qo'llaniladi.

Davlat idoralari va jamoat tashkilotlari tomonidan turli direktiv (ko'rgazma) hujjatlar ishlab chiqiladi va quyi tashkilotlarga bajarish uchun yuboriladi. Bu hujjatlar barcha jamoalarda ishlab chiqiladi va amalga oshirish uchun tadbir choralar ko'riladi.

Direktiv hujjatlarning amalda bajarilishini tekshirish uchun maxsus xodimlarga topshiriladi. Bu xodim esa vaqti soati bilan tashkilotlarni tekshiradi, yozma ma'lumot, hisobotlar oladi. Natijada shu hujjatlar asosida yakunlar yasab, yuqori tashkilotlar xabar yuborib turadi, hisobot tuziladi.

Iqtisodiy usul. Jismoniy madaniyat va sport harakati faqat keng ommani jalb qilibgina qolmasdan, balki sport inshootlarini qurish va undan foydalanish, musobaqalar, ijara

haqqi, pulli xizmat, sport bo'limlari, jihozlari ishlab chiqish va ularni savdo qilishda keladigan ulkan moddiy boylikka ham egadir. Shu sababdan, jismoniy madaniyat va sportni boshqarishda iqtisodiy munosabatlar qilish: xo'jalik, tijorat xizmatlari, lotoreya o'yinlari va shunga o'xshash murakkab jarayonga ega bo'lgan yo'llar mavjuddir.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti jarayonida xo'jalikni yuritish tartib va uslublari har xil holatlarda olib borilmoqda. Lekin umumiy qoidalar saqlangan holda turli uslublarni ishlatish mumkin bo'ladi.

Jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga ajratilgan mablag'larni ham iqtisodiy jihatdan tahlil qilib borish zarur.

Iqtisodiy boshqarish moddiy jihatdan qiziqtirish tartibi ham katta ahamiyatga ega.

Bu faqat xo'jalik ishlab chiqarish sohasidagina emas, balki boshqaruv tashkilotlari, trenerlar, jamoatchi kadrlar o'rtasida ham qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun qilingan ishlar o'zaro ijtimoiy musobaqalar yakuniga qarab ish jismoniy madaniyat tashkilotlarining eng yaxshi xodimlarini yorliq, diplom va estalik yorliqlari bilan taqdirlanadi.

Jismoniy madaniyat va sportni boshqarishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ishlari barcha faoliyatlarining yanada takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat va sportni boshqarishda iqtisodiy usul moddiy manbalarni jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun unumli foydalanishga qaratilgan sohadir.

Boshqarishning huquqiy usullari. Bu usul jismoniy madaniyat va sportni boshqarish tashkilotlarining huquqiy belgilarini aniqlovchi va ularning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishuvini ta'minlaydi. Shu bilan boshqaruvchilar, xizmat qiluvchilarning huquqiy normalari, vazifalarini belgilab beradi.

Jismoniy madaniyat va sport harakatining barcha tarmoqlaridan, ya'ni boshqarishning davlat va havaskorlik sohalarida o'zlarining amaliy ish faoliyatlarini dalolatnomalar asosida yuritadilar. Bular asosan qonun kuchiga ega bo'lgan nizomlar, ustavlar, dasturlar, rejalar, qoidalar, instruksiyalardir.

Sport qo'mitalar tizimida huquqiy munosabatlarni belgilovchi hujjat respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1991-yil tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi va sport davlat qo'mitasi haqida Nizom hisoblanadi. Bunda sport qo'mitalarining tuzilishi, vazifasi, burchi va huquqlari belgilangan.

Respublikada jismoniy tarbiya va sport ishlarining boshqarilishida eng muhim huquqiy hujjat «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» gi qonun hisoblanadi. Barcha faoliyatlar va hujjatlar shu qonun asosida tuziladi.

G'oyaviy va ma'naviy ta'sir etuvchi usullar. Sobiq ittifoq-da va O'zbekistonda hukumat tomonidan ma'naviy-mafkuraviy ishlarni yaxshilash borasida juda ko'p qarorlar qabul qilindi. Ularda kishilarni, ayniqsa, o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda ular g'oyaviy-siyosiy va madaniy bilimlarini oshirib, qurilishning barcha jabhalarida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularni mehnat qilish, Vatanni sevish, ijtimoiy jamiyat erishgan barcha yutuqlar va an'analarni e'zozlash tushunchalarini chuqur singdirish, baynalmilalchilik ruhini rivojlantirish, jismonan layoqatli qilib tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlanishi va yuksak jismoniy kamolotga erishishlarini to'la ta'minlash masalalari eng muhim vazifa qilib qo'yiladi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda jismoniy madaniyat va sport harakatini boshqarish tashkilotlarining barcha tarmoqlari, ularning quyi jamoalari faol ishtirok etib keldi.

Respublikada Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitalari, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari butun aholi o'rtasida ta'lim-tarbiya va siyosiy ishlarni olib borishda g'oyaviy kurash oldingi safda boradi. Sport turlari bo'yicha barcha komandalarda jamoalarda tashkil qilingan sport to'garaklarda, bolalar va o'smirlar sport maktablarida yosh sportchilarni do'stlik ruhida tarbiyalash, Vatanga mehr-muhabbat bilan qarash, o'zaro hurmat qilish, birodarlikni mustahkamlash, siyosiy bilimlarni oshirish ishlarini olib boradi. Sport bazalarida barcha tadbirlar jarayonida siyosiy-tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borilmoqda.

Bu g'oyalar mustaqil O'zbekiston Respublikasi deb e'lon qilingandan (1991-yil 31-avgust) keyin yana takomillashtirmoqda. O'quvchi yoshlar, sportchilar, mutaxassis xodimlar o'rtasida o'ziga xos tarbiyaviy, siyosiy, g'oyaviy ishlar olib borilmoqda. Sportning milliy turlarini rivojlantirishga doir g'oyaviy tushuntirish va qiziqtirish ishlari jonlantirilmoqda.

Quyi jamoalarda o'tkaziladigan g'oyaviy ishlarning muhim turlaridan biri o'zaro ijtimoiy musobaqalar o'tkazib turish hisoblanadi.

O'zaro munosabatlarni tashkil qilishda hammaga ochiq, natijalarni taqqoslash, amaliy ilg'or tajribalarni takrorlanish mumkinligi kabi talablar va qoidalarga amal qilish kerak. Musobaqalarni tashkil qilishda rag'batlantirish tadbirlari, ma'naviy qiziqtirish eng muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat harakati tarmoqlari o'rtasida tashkil qilingan o'zaro musobaqalarda ma'lum vazifalarni bajarish bilan birgalikda mutaxassis xodimlar va sportchilarning ijtimoiy mehnat va jamoat mulkiga munosabatini tarbiyalashi lozim, tashabbuskorlikni rivojlantirishda ishlab chiqarishda jamoatchilikning faolligini ko'tarishda, yuqori axloq sifatida tarbiyalash, o'zaro o'rtoqchilik va hamkorlik munosabatlarini, intizom va uyushqoqlikni mustahkamlashda ko'maklashishi lozim.

Jismoniy madaniyat harakatidan jamoalararo musobaqalar hayot sinovlarida erishilgan yaxshi tajribalardan biridir.

Bu shakllarda eng muhimi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tomonidan tashkil qilinadigan sport jamiyatlari, turli idoralar, viloyatlar, shaharlar, tumanlar jismoniy madaniyat tashkilotlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijaga erishish musobaqasini tashkil qilishdir. Bunday tadbirlar turli bayramlar va katta ishlar yakuniga bag'ishlab tashkil qilinadi.

Bunday hollarda turli vazifalar, majburiyatlar qabul qilinadi. Majburiyatlardan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan yalpi ommaviylikka erishish, yuqori

malakali sportchilarni tarbiyalab yetishtirish, moddiy-texnik bazalarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilish, faollarni tayyorlash va shu kabilar kiritiladi.

O'zaro musobaqalashishning nizomlarini ishlab chiqish va qabul qilishda uni oqilona tashkiliy asoslariga tayanish zarur. Musobaqaning shartlari shug'ullanuvchilar va sportchilar ommasining musobaqada qatnashadigan ijodiy faollik natijalari bo'lishi lozim. Jismoniy madaniyat tashkilotlarining xilma-xilligiga qarab, jamoalar kuchi va sharoiti teng bo'lgan holda o'zaro musobaqalarni uyushtiradi. Bu esa ko'rsatkichlarni haqiqiy va sifatli qilib bajarishga imkon beradi.

Respublikada jamoalararo musobaqani tashkil qilishning o'ziga xos tartibi ishlab chiqilgan, yil sayin takomillashtirilib boriladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Respublikada Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi bo'yicha: viloyatlar, shahar va tuman sport tashkilotlari ko'ngilli sport jamiyatlari, idoralarning jismoniy tarbiya tashkilotlari, jamoalari va tegishli o'quv yurtlari o'rtasida.

2. Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasi «O'zbekiston» sport jamiyati va uning quyi tashkilotlari o'rtasida.

3. «Dinamo» sport jamiyati bo'yicha.

4. «Mehnat zaxiralari» sport jamiyati bo'yicha.

Bundan tashqari, ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini aholi, ishlab chiqarish o'quv yurtlarida, davlat xo'jalik jamoalari va muassasalarida ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish uchun ham o'zaro musobaqa tashkil qilinadi.

XOTIMA

O‘zbekiston xalqlari tarixida inson umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy madaniyat va sport salmoqli o‘rinlardan birini egallashi bilan u jamiyat rivojida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, mustaqillikning mazmunini sport orqali kengaytirish hamda boyitishga Respublika Prezidenti I.A.Karimov hamda O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi ko‘plab nazariy, tashkiliy, moddiy tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, sog‘lom avlod davlat dasturi asosida aholining, ayniqsa, o‘quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini ta’minlash, ularning kasb-hunar egasi bo‘lishi, buyuk kelajakda ona Vatanini himoya qilish kabi keng qamrovli va o‘ta mas’uliyatli faoliyatlarida dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda. Bu yo‘lda xalqimiz va yurtimiz tarixini qunt bilan o‘rganish, ijobiy xususiyatlarni milliy qadriyatlarga qo‘shib, ularga amal qilishda jismoniy tarbiya va sportning muhim o‘rni bor.

Arxeologik topilmalar, baland qoya-toshlarga bitilgan suratlar, «Avesto» diniy ma’rifiy kitob, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Qirqqiz» kabi xalq og‘zaki ijodi durdonalari, «Shohnoma», «Manas», «Xamsa» kabi adabiy durdonalari, sharqning buyuk allomalaridan Abu Ali ibn Sino va boshqa mutafakkir donishmandlarning boy tarixiy meroslari mazmunlarida jismoniy madaniyatning salomatlik, jismoniy chiniqish kabi tomonlari o‘z ifodasini topgan. Bu, o‘z navbatida, jismoniy madaniyatning tarixiy jarayon va ta’lim-tarbiyaning asosiy mazmunlaridan biri ekanligi haqida shahodatdir.

Buyuk sarkarda Amir Temur va uning avlodlari Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda keyingi

davrlarda davlatni (xonliklar) idora qilgan podsholar, sarkardalar, olimlar hayotida jismoniy madaniyatni yuqori darajaga ko'tarishgan. Jismoniy madaniyatning eng muhim vositalari bo'lgan piyoda yurishlar, otda nayza otish, qilichbozlik, kurash, tog'larga chiqish, suvda suzish kabi murakkab amaliy faoliyatlaridan jismonan chiniqish, jang qilish quroli sifatida foydalanganliklari juda ko'p tarixiy manbalar, badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, hozirgi zamon sport turlarining o'tmishda, ayniqsa, futbol (Angliya), basketbol (AQSH), boks (Rossiya), gimnastika (Chexiya, Germaniya, Shvetsiya), sharqona yakka kurashlar (Xitoy, Yaponiya, Koreya) va b.q.ning vujudga kelishi Yevropa, Osiyo, Amerika va boshqa qit'alardagi xalqlarining ommaviy o'yinlarni tashkil qilishlari, rasmiy xalqaro musobaqalarga aylantirishlarini ta'minladi.

Bu yo'lda ba'zi bir sport turlari bo'yicha Yevropa va xalqaro sport uyushmalarining tashkil qilinishini (1860–1890-yil) yuzaga keltirdi. Ayniqsa, Pyer Kuberten (Fransiya) tomonidan xalqaro olimpiya qo'mitasini tashkil etishi (1894) hozirgi davr olimpiya o'yinlarini o'tkazishga (1896) asos soldi.

Birinchi (1913–1916) va ikkinchi (1941–1945) jahon urushlari tufayli Rossiya va uning negizida sobiq SSSR to 1952-yilgacha olimpiya o'yinlarida ishtirok etishdan mahrum etildi. Ikkinchi jahon urushida SSSR nemis fashizmini batamom tor-mor qilgandan keyingina xalqaro sport hamjamiyatlari (federatsiyalar, XOQ va h.k.) SSSRni mustaqil davlat sifatida tan oldi va Yevropa jahon birinchiliklari, olimpiya o'yinlarida qatnashishga (1952-yil) rozichilik bildirishdi. Natijada sobiq SSSR 1952–1992-yilda o'tkazilgan olimpiya o'yinlarida ishtirok etish, g'alabalarni qo'lga kiritish va olimpiya harakatini demokratlashtirishda oldingi safda bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillardagi (1996, 2000, 2004) olimpiya o'yinlari o'tgan davrlardagiga nisbatan ommaviyroq (qatnashchilar soni) hamda ochilish marosimlarining jozibali, qiziqarli bo'lishi bilan jahon xalqlari e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Futbol, boks, yengil atletika, gimnastika, suvda suzish, sport kurashlari va boshqa sport turlari bo'yicha Markaziy Osiyo, Osiyo o'yinlari hamda jahon birinchiliklari juda qiziqarli ravishda tashkil qilinmoqda.

Sportni ommalashtirish, ularni yoshlar va mehnatkashlarning sog'lom turmush tarziga singdirishda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniya katta xizmat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar va jarayonlar O'zbekiston sharoitida ham yangi mazmun hamda mohiyat jihatdan katta o'rin egallab keldi, ayniqsa, mustaqillik yillarida sportni yuqori pog'onaga ko'tarishda juda ko'p tadbirlar amalga oshirildi. Ular orasida «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi (1992), O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining ta'sis etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Respublikamiz sportchilari Markaziy Osiyo, Osiyo o'yinlarida ishtirok etib, peshqadamlar safida dadil bormoqda. Shuningdek, olimpiya o'yinlarida (XXVI, XXVII, XXVIII) mustaqil jamoa sifatida qatnashib, munosib sovrinlarga ega bo'ldi.

Hukumatimiz milliy qadriyatlarni tiklash, o'quvchi yoshlarni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, iqtidorli bolalarni sportga jalb etish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish, ayniqsa, sport inshootlarini xalqaro andozalarga mos ravishda qurishni amalga oshirmoqda.

Aholining sihat-salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish borasida sog'lom avlod davlat dasturi, davlat ta'lim standartlari, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining joriy etilishi diqqatga sazovordir. Shuningdek, xalq milliy o'yinlariga bag'ishlab o'tkazib kelinayotgan «Alpomish o'yinlari», «To'maris o'yinlari»ning respublika festivallari milliy qadriyatlarni tobora kengaytirishning ramziga aylandi. Maktab o'quvchilarining «Umid nihollari», kasb-hunar kollejlari o'quvchi-yoshlarning «Barkamol avlod», Oliy o'quv yurtlari talabalarining «Universiada» o'yinlari va boshqa ko'p bosqichli sport musobaqalari an'anaga aylandi.

O‘quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya ta’limini chuqur egallashlari, iqtidorli sportchilar, mutaxassis xodimlarning ilmiy-nazariy bilimlarini boyitish yo‘lida xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlar o‘tkazilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajribalarning natijalari asosida darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ommabop risolalar nashrdan chiqarilmoqda.

Onalik va bolalikni himoya qilish, «Sog‘lom ona-sog‘lom bola» ruknida tibbiyot sohasidagi xodimlar, xotin-qizlar qo‘mitalari «Otam, onam va men», «Oilaviy sport», «Sog‘lom oila» kabi jismoniy tarbiya va sport tadbirlaridan maqsadli foydalanmoqda.

O‘zbekistonning shon-shuhratini jahonga yoyishda milliy kurash bo‘yicha jahon birinchiliklarining tashkil etilishi (1999—Toshkent, 2000—Turkiya, 2001—Vengriya, 2002—Armaniston, 2005—Toshkent) muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pirovardida ta’kidlash lozimki, jismoniy madaniyat va sport tarixi fani o‘quvchi yoshlar hamda talabalarning dunyoviy bilimlarini chuqurlashtirishda, ularni bo‘lajak kasb mahoratlarini egallashlarida katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Eng muhim tarixiy solnomalar

Yangi eradan avvalgi 2 minginchi yillarning oxiri	Eng qadimgi Zardushtiy ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy hayotida qomus bo‘lib qo‘llangan «Avesto» kitobining yaratilishi.
Yangi eradan avvalgi 1 minginchi yillar	Kurash, ko‘pkari, uloq, otda poyga, merganlik va ko‘p sonli harakatli o‘yinlarning qo‘llanishi, bu haqda «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Shohnoma» kabi dostonlarda ifoda etilishi.
810—870-yillar	Islom dini olamida mashhur «Hadis» ilmining asoschilaridan biri Xo‘ja Ismoil Imom Buxoriy yashagan davr.
980—1037-yillar	Sharq va jahon tibbiyot olamida mashhur bo‘lgan buxorolik olim Abu Ali ibn Sino

	yashagan davr.
1336–1405-yillar	Sohibqiron Amir Temur yashagan davr.
1441–1501-yillar	Sharq she'riyatining buyuk sultoni Alisher Navoiy ijod etgan davr.
1451–1510-yillar	Muhammad Shayboniyxonning yashagan va hukmronlik qilgan davri.
1482-yil	Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr.
1809–1822-yillar	Umarxon Qo'qon xonligini boshqaradi.
1822–1842-yillar	Umarxonning o'g'li Alixon taxtga o'tiradi. Xudoyorxonning Qo'qon xonligi taxtiga o'tirishi.
1839-yil	Orenburg harbiy gubernatori Perovskiy boshchiligida rus qo'shinlari Xivaga qarshi jang qiladi.
1847-yil Sirdaryo	Sirdaryo etagida Orol harbiy qal'asi barpo etilib, Markaziy Osiyo yerlariga rus qo'shinlari tomonidan hujum boshlanadi.
1864–1865-yillar	Turkiston, Chimkent, Avliyo ota, Toshkent ruslar tomonidan bosib olinadi.
1868, 1876, 1884-yillar	Samarqand, Farg'ona, Rossiya qo'l ostiga o'tadi. Rus podshosi Aleksandr I. Qo'qon xonligini tugatib uning o'rniga guberna (viloyat) tashkil etdi va general Skobelyevni boshliq qilib tayinlandi.
1872, 1875, 1876, 1892, 1918- yillar	Chirchiq, Qo'qon, Farg'ona, Toshkent, Andijon va boshqa joylarda chor Rossiyasiga qarshi isyonlar bo'ldi.
XIX asr va XX asr	Rus olimlari P.P.Semenov-Tyanshanskiy (1827–1917), A.P.Fedchenko (1844–1873), Mushketov (1850–1902), V.V.Bartold, M.S.Andreyev, Ye.Bertels, N.P.Ostroumov, V.L.Vyatkin, A.A.Semenov va boshqalar turli sohalarda tadqiqot o'tkazish maqsadida O'rta Osiyoga kelgan va Chorizm da'vat etgan juda ko'p ayg'oqchilik faoliyatlarni ham amalga oshirgan.
1827–1897-yillar	Ahmad Donish Buxoro xonligining Rossiyadagi elchisi va savdo-sotiq ishlari boshlig'i bo'lgan.
1895-yil 23-iyun	Toshkentlik Ahmad polvon nemislarning

	mashhur kurash polvoni Rippel (133 kg) bilan kurashib yiqitgan kun.
1916-yil 1-oktabr	Toshkentda «Sport safarbarligi» tashkiloti tuziladi.
1919-yil	20 yoshli Toshkentdagi sirk polvoni Toji polvon Avlayev klassik kurash bo'yicha o'tkazilgan musobaqa g'olibi bo'ladi.
1923-yil	Toshkent va Samarqandda «Dinamo» sport jamiyati tuziladi.
1924-yil	Umumturkiston Olimpiyadasi tashkil etiladi.
1924-yil 27-oktabr	O'zbekiston Respublika deb e'lon qilingan kun.
1927-yil	Umumo'zbek 1 Spartakiadasi o'tkazildi. Toshkentda «Spartak», Samarqandda «Dinamo» stadionlari ishga tushadi.
1929-yil	«Pravda Vostoka», «Komsomoles Uzbekistana» gazetalari sovrini uchun birinchi marta estafeta o'tkaziladi.
1931–1934-yillar	«Mehnat va mudofaaga tayyor» (1–2- GTO bosqich) hamda «Mehnat va mudofaaga tayyor» (BGTO) jismoniy madaniyat majmualari joriy etildi.
1934-yil	1-O'rta Osiyo spartakiadasi o'tkaziladi.
1935-yil	Toshkentda Jismoniy madaniyat texnikumi ochildi.
1939-yil	Moskvada o'tkazilgan umumittifoq jismoniy madaniyat 1 paradida O'zbekiston vakillari qatnashadi.
1941–1945-yillar	Ikkinchi jahon urushi davri.
1949-yil	Toshkent DPI tarkibida jismoniy tarbiya bo'limi, 1952-yildan mustaqil fakultet ishga tushdi.
1950-yil	«Paxtakor» qishloq ko'ngilli sport jamiyatini tuzish to'g'risida hukumat qarori qabul qilinadi.
1951-yil	Samarqand, Xo'jayli, Termiz, Kosonsoy va Angren shaharlarida jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtlari ochildi.
1955-yil	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti ochildi.

1956-yil	Toshkentda «Paxtakor» stadioni ishga tushadi va unda 1 Respublika spartakiadasi o'tkazildi. Bu SSSR xalqlari 1 Spartakiadasiga (1956) tayyorgarlikning sinovi bo'ladi.
1959-yil	SSSR xalqlari 2 Spartakiadasida respublika sportchilarining qatnashib 12–13-o'rinlarni egallashi.
1963-yil	3– Spartakiadaning o'tkazilishi.
1967-yil	4– Spartakiada o'tkazilib, O'zbekiston 9-o'rinni egalladi.
1971-yil	5- Spartakiada bo'ldi. O'zbekiston 2-o'rinni egalladi.
1975-yil	6- Spartakiada turli shaharlarda sport turlari bo'yicha o'tkazildi. O'zbekiston 9-o'rinda bo'ladi.
1979-yil	7- Spartakiada Moskvada o'tkaziladigan XXII Olimpiya o'yinlariga tayyogarlik bo'ldi. Bunda respublikamiz sportchilari ilk bor 7-o'ringa ko'tariladi.
1983-yil	8- Spartakiadada respublikamiz sportchilari yaxshi natijalarga erishdi.
1987-yil	9- Spartakiada o'tkazildi.
1991-yil	10 eng so'nggi Spartakiada bo'ldi. Qayta qurish jarayoni sport musobaqalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pchilik taniqli sportchilar unda ishtirok etmadi. O'zbekiston sportchilari yuqori natijalarga erishdi.
1991-yil 1-sentabr	O'zbekistonning mustaqil kuni va xalq bayrami.
1992-yil 14-yanvar	O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi, 2000-yil, mayda u yangi tahrirda qabul qilinadi.
1992-yil 21-yanvar	O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining (MOQ) ta'sis etilishi.
1993-yil 18-mart	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda futbolni rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi qarori chiqqan.

1994-yil 4-mart	«Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etilgan kun.
1994-yil	12 Osiyo o'yinlarida (Xirosima) O'zbekiston sportchilarining ilk bor qatnashishi. Ularning futbol bo'yicha Osiyo chempioni unvoniga ega bo'lgan vaqt.
1995-yil sentabr	Markaziy Osiyo Respublikalarining birinchi o'yinlari Toshkentda o'tkazildi.
1997-yil 10-oktabr	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Ta'lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.
1997-yil	Sog'lom avlod Davlat dasturi joriy etiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishga kirishdi.
1998-yil	«Alpomish» dostonining yaratilishiga 1000 yil to'lishini nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Termizda «Alpomish o'yinlari» Respublika festivali bo'lib o'tdi.
1999-yil 27-may	O'zbekiston RVMning «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi (Konsepsiya) e'lon qilindi.
1999-yil	Jizzaxda ayollar yiliga bag'ishlab «To'maris o'yinlari» 1-Respublika festivali o'tkazildi.
1999-yil mayda	Toshkentda O'zbek kurashi bo'yicha birinchi jahon chempionati o'tkazildi. Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi tuzildi. K.Yusupov unga prezident etib saylandi.
2000-yil 7-iyul	2000-yil Sidney (Avstraliya)da bo'lgan XXVII Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalalari bilan bog'liq respublika prezidenti farmoni e'lon qilindi.
2000-yil 30-sentabr – 16-oktabr	Sidney (Avstraliya) XXVII Olimpiya o'yinlari o'tkazildi.
2000-yil	Namanganda Respublika Oliy o'quv yurtlari talabalarining 1-Universiadasi o'tkazildi.

2000-yil	Farg'onada «Alpomish o'yinlari» 2-Respublika festivali bo'ladi.
2001-yil	Jizzaxda «Barkamol avlod» sport musobaqalari birinchi marotaba tashkil etildi. Toshkentda maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» respublika musobaqalari bo'ldi. Shahrisabzda «To'maris o'yinlari» 2-Respublika festivali o'tdi.
2002-yil may-iyun	Buxoroda Respublika Oliy o'quv yurtlari talabalarning 2-Universiadasi bo'lib o'tadi. Unda Toshkent 1-g'oliblikka erishadi.
2002-yil 31-may-dan 30-iyun-gacha	Futbol bo'yicha 17-jahon chempionati Tokio va Seulda o'tkaziladi. Finalda Braziliya va Germaniya jamoalari uchrashib (2:0) futbol bo'yicha jahon chempioni unvonini Braziliya egallaydi. 3–4-o'rinlar uchun Koreya va Turkiya o'zaro yarim finalda kuch sinashdi. 3:2 hisobi bilan Koreya g'olib chiqdi.
2002-yil iyul	Gulistonda «Alpomish o'yinlari» 3-Respublika festivali bo'lib o'tdi.
2002-yil	Yerevanda O'zbek kurashi bo'yicha 4-jahon chempionati bo'lib o'tdi.
2002-yil 25-oktabr	O'z.R. Prezidenti «O'zbekistonda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risda»gi Farmoni e'lon qilindi.
2004-yilda	Samarqandda respublika talabalar Universiadasi o'tkazildi.
2004-yil avgust	Afinada (Gretsiya) XXVIII Olimpiya o'yinlari o'tkazildi. Unda O'zbekiston sportchilari 5 ta medal olishga sazovor bo'ldi.
2005-yil noyabr	Milliy kurash bo'yicha 5-jahon chempionati Toshkentda o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., «O‘zbekiston», 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrirda) 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrirda) 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog‘lom avlod uchun» ordenini ta’sis qilish to‘g‘risidagi Farmoni, 1993, 4-mart.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog‘lom avlod uchun» davlat dasturi, 1997.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘sidagi»gi Qarori, 1999, 27-may.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekistonda «Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori, 2002-yil 30-oktabr.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ommaviy sport targ‘ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2003-yil 4-noyabr.
9. O‘zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 1997.
10. O‘zbekiston Respublikasining davlat ta’lim standartlari, 1999.
11. O‘zbekiston Respublikasining sog‘lom avlod davlat dasturi, 1999.
12. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlar, 2000.
13. I.A.Karimov «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat»,–T., «O‘zbekiston», 1992-yil.
14. I.A.Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», T., «O‘zbekiston», 1992.
15. I.A.Karimov «Bizdan ozod va obod vatan qolsin»,–T., «O‘zbekiston», 1994.

16. I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asrda bo‘sag‘asida»,–T., «O‘zbekiston», 1997.
17. I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda»,–T., «O‘zbekiston», 2000.

2. Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayev A.A., Xonkeldiyev SH.H., Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, darslik, Farg‘ona, 2001.
2. Abdumalikov R., Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, monog., –T., O‘zDJTI nashr, 1994, 162-bet.
3. Abdumalikov R., Qudratov R.Q., Yarashev K.D., Ko‘pkari, ilmiy-ommabop kitob, –T., O‘zDJTI nashr, 1997, 117-bet.
4. Abdumalikov R., Xoldorov T.X., Turizm, o‘quv qo‘llanma, T., O‘qituvchi, 1988.
5. Abdumalikov R., Eshnazarov J.E., Ajdodlar jismoniy madaniyat tarixini o‘rganish masalalari, o‘quv qo‘llanma, –T., Matbuot, 1993.
6. Akramov A.K., O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi, o‘quv qo‘llanma, –T.., O‘zDJTI nashr, 1997.
7. Alpomish dostoni 1-2-qismlar, –T., «O‘zbekiston», 1992–1993.
8. Axmedov B.A., Amir Temur, tarixiy roman, –T., 1995.
9. Jismoniy tarbiya tarixi. Darslik (tarjima), –T., «O‘qituvchi», 1975.
10. Кун Б. «Всеобщая история физической культуры и спорта », М., «Радуга», 1982, 399 с.
11. Ismoilov R.I., Sholomitskiy Yu.S., O‘zbekistonda fizkultura tarixi, metod.kul., «O‘qituvchi» 1968.
12. Казаева Р..А., Развитие женского физкультурного движения в Узбекистанен. –Т., «O‘zbekiston» 1979.
13. Obidov–T., O‘zbek polvonlari, T., G‘.G‘ulom nomli nashr, 1979.
14. Ostonov S., Besh Halqa qissasi, –T., «Yosh gvardiya», 1984.
15. Омонжолов Т., Мастерские памятники Ташкентского оазиса, автореф. Дис. На. Соис. Ст. канд. ист. наук. Ленинград, 1984, 17 с.

16. Пономарев Н.И., Возникнование и превоначальное развитие физического воспитания. М., ФИС, 1970.

17. Романов А.О., Международное спортивное движение. М., ФИС, 1978.

18. Ruziyev S., Shaternikov E.K. va boshqa, O'zbekiston Olimpiyskiy, –T., «O'zbekiston», 2001.

19. Саломов Р.С. Проблемы высщего физкультурного образования, моног., –T., 1992.

20. Столбов В.В. История физической культуры и спорта, учебник. М., «ФИС», 2000.

21. Toymurodov O.R., O'zbek milliy kurashi, –T., Ibn Sino, 1990.

22. Toshpo'latov J.T., Surxondaryoda jismoniy tarbiya va sport, –T., O'zDJTI nashr., 1991.

23. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F., 1001 uyni., Ibn Sino, 1990.

24. Усманходжаев Т.С., Научно-педагогические основы физического соваершесвования детей в связи их двигательной активности, автореф. Дис. на соис. уч. ст. док. пед. наук.

25. O'zbekov M., Dolkart E., Olimpiyskiye zvyozdi, –T., «Yosh gvardiya», 1993.

26. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan 1-Respublika ilmiy anjumani ma'ruzalar to'plami, O'zDJTI nashr., 1994.

27. Hidoyatov G.A., Mening jonajon tarixim, –T., «O'qituvchi», 1990, 400-bet.

28. Eshnazarov J., Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish. O'quv qo'llanma, Samarqand, 1994.

3. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Chernyayevskiy V.D., Fizkultura va salomatlik, –T., Ibn Sino, 1990.

2. Ешназаров Ж.Э., Физ. воспитание и спорт в Узбекистане с период развитого социализма и строительства. коммуниз. ма, автореф. канд. дис., –T., 1995.

3. Ярашев К.Д., Педагогические основы подготовки специалистов физкультуры и спорта, автореф. Канд. Дис., – T., 1995.

4. Yarashev K.D., Ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o'yinlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ma-

salalari, monog., –T., O‘zDJTI nashr., 1997.

5. Yarashyev K.D., Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish, darslik, –T., Ibn Sino, 2002, 223-bet.

6. Yarashev K.D., Abdumalikov R., Komilov X.K., «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testi majmuasini ommalashtirish yo‘llari, o‘quv qo‘llanma, –T., O‘zDJTI nashr., 2002, 52-bet.

7. Yarashev K.D., Abdumalikov R., Xoldorov T.X. va boshqa, Jismoniy madaniyat tarbiyasining nazariy va uslubiy asoslari, o‘quv qo‘llanma, –T., O‘zDJTI nashr., 2003, 92-bet.

8. Yaroskiy A., Poddubniy A., O‘zbekistonning xalqaro sport aloqalari, –T., «O‘zbekiston», 1980.

9. Юнусов Т.Т., Организация и управление физ. Движениям в Республики Узбекистан уч.пос., –T., O‘zDJTI nashr., 1995.

10 Yunusov T.T., Abdumalikov R., Yarashev K.D., Assolom Olimpiada, T., O‘zDJTI nashr., 1993.

11. Hamroqulov A.Q., Yunusov T.T. Olimpiya bilimlari asoslari, o‘quv qo‘llanma, T., «Sharq» nashr., 2002, 93-bet.

12. Qudratov R.Q., Abdumalikov R., Xoldorov T.X., Sog‘lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sport, o‘quv qo‘llanma, –T., O‘zDJTI nashr., 2003, 90-bet.

13. Qoraboyev U., O‘zbek xalq o‘yinlari, –T., «San’at», 2001, 56-bet.

14. Qoshg‘ariy M., Devonu lug‘otit turk, 3-tom, 1960.

15. XXI asr – Istiqbolimiz timsollari, –T., 1991.

MUNDARIJA

Kirish..... 3
I bo'lim. Xorijiy mamlakatlarida jismoniy madaniyat va sport tarixi
I bob. Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyat tarixidan lavhalar
1.1. Qadimgi odamlarning ijtimoiy-madaniy turmushida jismoniy tarbiyaning o'rni..... 7
1.2. Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya 14
1.3. Qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya. Olimpiya bayramlari..... 15
1.4. Qadimgi Rimda jismoniy tarbiya 22
II bob. O'rta asrlarda jismoniy tarbiya va sport
2.1. Yevropa mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport 27
2.2. Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarida jismoniy tarbiya va sport..... 30
2.3. Uyg'onish davrida jismoniy tarbiya tizimi va pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi..... 32
2.4. Olimpiya an'analarini qayta tiklash harakati..... 36
III bob. Yangi davrda jismoniy tarbiya
3.1. Gimnastika tizimlari..... 42
3.2. Sport-o'yin tizimlari..... 45
3.3. Jismoniy madaniyatda reakreatsion harakatlar..... 49
3.4. Havaskorlik va professional sport..... 51
3.5. Birinchi jahon urushi arafasi va urush yillarida jismoniy tarbiya va sport..... 54
IV bob. XX asrning 20-yillarida Ikkinchi jahon urushi tugagan davrgacha jismoniy tarbiya va sport
4.1. Germaniya, Italiya, Yaponiya mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport..... 56
4.2. AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport..... 61
4.3. Xalqaro miqyosda ishchilar sportining rivojlanishi..... 67
4.4. Jismoniy tarbiyaning yangi yo'nalishlari..... 69
4.5. Ikkinchi jahon urushi davrida sportchilarning fashizmga qarshi kurashlari..... 70
V bob. Ikkinchi jahon urushdan keyingi davrlarda jismoniy tarbiya va sport
5.1. G'arb mamlakatlari hayotida jimoniy tarbiya va sport..... 73

5.2. Taraqqiyot yo'lidagi davlatlar..... 83
5.3 XX asr oxirida jahon mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport..... 88
VI bob. Rossiya va sobiq SSSRda jismoniy madaniyat va sport
6.1. Qadimgi Rusda jismoniy madaniyat (IX–XVII asrlar)..... 93
6.2 Rus dvoryanlari hayotida jismoniy tarbiya..... 96
6.3 P.F.Lesgaftning jismoniy tarbiya ta'limi..... 111
6.4. Rossiyaning Olimpiya harakati yo'lidagi intilishlari..... 117
6.5. Sobiq SSSR davrida jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiya harakatining yangi shakllari va rahbarlik usullari (1917–1941-yillar..... 122
II bo'lim. Xalqaro sport va olimpiya harakati tarixi
VII bob. Xalqaro sport va olimpiya harakatining vujudga kelishi hamda dastlabki rivojlanishi
7.1. Xalqaro sport va olimpiya harakatining vujudga kelish sabablari..... 157
7.2. Birinchi Xalqaro Kongress..... 162
7.3. Olimpiya g'oyalarining amalga oshishi..... 164
VIII bob. XX asrning birinchi yarmida xalqaro sport va olimpiya harakati
8.1. Xalqaro sport harakatining kengayishi..... 166
8.2. Yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari..... 169
8.3. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi va uning Prezidentlari. Olimpiya Kongresslari..... 175
IX bob. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro sport va olimpiya harakati
9.1. Ikki tuzum qarama-qarshiligi va birligi..... 180
9.2. Olimpizm, XOQ va uning prezidentlari..... 183
9.3. Olimpiya o'yinlari..... 187
9.4. Olimpiya an'analarining davom etishi..... 192
9.5. Olimpiya kongresslari va hozirgi davr muammolari..... 195
III bo'lim. O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport taraqqiyoti tarixi
X bob. Uzoq va yaqin o'tmishdagi ajdod hamda avlodlarimizning jismoniy madaniyati tarixiga oid sharhlar
10.1. Eng qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati haqidgi manbalar..... 207
10.2. Chor Rossiyasi va Sovetlar hukmronligi davrlarida (1865–1991) jismoniy tarbiya va sport..... 230

XI bob. O'zbekiston mustaqilligi davrida (1991–2005) jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining tarixiy xususiyatlari

11.1. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni hamda respublika hukumatining qarorlari 254

11.2. Ko'p bosqichli ommaviy sport tadbirlarining sog'lomlashtiruvchi va tarixiy ahamiyati 271

11.3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yo'nalishida jismoniy tarbiya va sport...Davlat...ta'lim...standartlari...mazmunida jismoniy tarbiya va sport.Xalq.milliy.o'yinlari–qadriyatlar.timsoli 278 282 286

11.6. Sport turlari haqida qisqacha bayonlar 291

11.7. Sport inshootlari 308

11.8. Xotin-qizlar jismoniy tarbiyasi va sporti 310

11.9. Nogironlar sporti 315

11.10. Ommaviy sportni targ'ibot qilishning hozirgi davr talablari 316

11.11. Jismoniy tarbiya ta'limi va sport taraqqiyotining ilmiy-amaliy asoslari 318

XII bob. O'zbekistonning xalqaro sport aloqalari

12.1. Sobiq Ittifoq davrida sportchilarning xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishi 326

12.2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining (MOQ) tashkil qilinishi va uning xalqaro sport aloqalari 332

12.3. Respublika sportchilarining Markaziy Osiyo, Osiyo o'yinlari va jahon musobaqalaridagi ishtiroki 334

12.4. Mustaqil O'zbekiston olimpiadachilari 337

XIII bob. Jismoniy madaniyatni tashkil etish va boshqarish 344

13.1. Jismoniy madaniyat harakatini boshqarishning vazifalari 346

13.2. Jismoniy madaniyat harakatini rejalashtirish 348

13.3. Jismoniy madaniyat va sport ishlarini boshqarish usullari 362

Xotima 371

Foydalanilgan adabiyotlar 380

JO'RAQUL ESHNAZAROV

JISMONIY MADANIYAT TARIXI VA BOSHQARISH

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2008

Muharrir: **M.Mirkomilov**
Tex. muharrir: **A.Moydinov**
Musahhih: **M.Hayitova**
Sahifalovchi: **Sh.Mirqosimova**

Bosishga ruxsat etildi: 24.06.08. Bichimi 60x84 1/61.
«TimezUz» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 24,0. Nashr tabog'i 23,5.
Tiraji 1000. Buyurtma №65.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
700003, Toshkent shahri, Olmazor ko'chasi, 171-uy.